



18 NOYABR | O‘ZBEKISTON DAVLAT BAYROG‘I QABUL QILINGAN KUN

O‘zbekiston bayrog‘i

*Qalbimiz to‘la surur,
To‘tiyo yurt tuprog‘i,
Hilpirab turar mag‘rur,
O‘zbekiston bayrog‘i.*

*Rangi hayot misoli,
Yulduzlari hiloli,
Mustaqillik timsoli,
O‘zbekiston bayrog‘i.*

*Iftixor dilimizda,
U yo‘ldosh yo‘limizda,
Yuksalar qo‘limizda,
O‘zbekiston bayrog‘i.*

*Gumbazlarda,
yuksakda,
Peshtoqlarda, falakda,
Ko‘ngillarda, yurakda,
O‘zbekiston bayrog‘i.*

*Rangi hayot misoli,
Yulduzlari hiloli,
Mustaqillik timsoli,
O‘zbekiston bayrog‘i.*

Iqbol Mirzo





DOLZARB MAVZU



Manzar ABDULXAYROV,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU
O'zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik
kafedrasini professori, filologiya fanlari doktori
manzarabdulxayrov64@gmail.com

“QUTADG‘U BILIG” ASARI: TADQIQ, TABDIL VA TALQIN MUAMMOLARI

Annotatsiya: maqola Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarining matniy tadqiqi, tabdili talqini muammolariga bag‘ishlangan. Unda “Qutadg‘u bilig” turkiy xalqlarning badiiy tafakkuri tadrijini tadqiq etishda qimmatli manba ekanligi bilan bir qatorda ushbu asarning mustaqillik yillarida o‘rganilishi tadqiqot tahlil doirasiga tortilishi kabi masalalar o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada kelajakda “Qutadg‘u bilig” asarining yangi talqindagi nasriy-nazmiy bayonlarini yaratish va mukammal nashrlarini tayyorlash haqida ham so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *badiiy tafakkur, talqin, tabdil, manba, meros, turkiy xalqlar, tamaddun, adolat, el, elat.*

Аннотация: статья посвящена проблемам текстологического исследования и перевода произведения Юсуфа Хос Хаджиба “Кутадгу билиг”. Рассматривается вопрос о том, является ли “Кутадгу билиг” ценным источником для изучения развития художественного мышления тюркских народов, а также изучение данного произведения в годы независимости, включая такие вопросы, как включение данного произведения в сферу исследования и анализа. В статье также обсуждается создание в будущем новых прозаических и поэтических описаний произведения “Кутадгу билиг” и подготовка его совершенных изданий.

Ключевые слова: *художественное мышление, толкование, преобразование, источник, наследие, тюркские народы, цивилизация, справедливость, народ, этнос.*

Annotation: this article explores the textual study and translation of Yusuf Khos Hajib’s “Kutadgu Bilig”. It examines whether “Kutadgu Bilig” is a valuable source for studying the development of Turkic artistic thought, as well as the study of this work during the years of independence and its inclusion in the field of research and analysis. The article also discusses the future creation of new prose and poetic descriptions of “Kutadgu Bilig” and the preparation of its definitive editions.

Key words: *artistic thinking, interpretation, translation, source, heritage, Turkic peoples, civilization, justice.*

“Qutadg‘u bilig” barcha turkiy xalqlar, jumladan biz o‘zbeklarning ona tilimizda yaratilgan ilk shoh asar. Agar ona tilimizni barhayot mavjudot sifatida talqin qilsak, uning to‘la qonli hayot kechirishi uchun dastlabki sarchashmasi qanchalar zarurligi oydinlashadi. Milliy davlatchiligimizning qayta tiklanishi bilan kelajakka o‘zgacha ishonch bilan qaray boshladik. Bu ishonchimiz yanada mustahkam bo‘lishi uchun tarixga murojaat qilishimiz tabiiy. Tarixda buyuk davlatlar barpo etish hamma xalqlarga ham nasib etmagan. Bir paytlar misrliklar hayratomuz davlat shakllantirgan, keyinchalik xitoyliklar, yunonlar, forslar, rimliklar shunday sharaftga muyassar bo‘lgan. Nihoyat, nisbatan yangi tarixda inglizlar yarim dunyoni egalladilar. Binobarin, jahongir xalqlarni ham bir necha toifaga bo‘lish mumkin. Ijodkor jahongir xalqlarning, yoxud bashariyat tamadduni tarixga salmoqli ulush qo‘shgan bunyodkor zobit uluslar safida turkiy xalqlar ham borligi bilan faxrlanamiz. Turkiy xalqlarning jahoniy hukmronligi bir necha marta, xususan qoraxoniylar va temuriylar, usmoniylar, qolaversa boburiylar davrida

ham davom etganini unutmash kerak[1:4]. Va bu jahongirlik bashariyat tarixiga qo‘shgan benazir hissassi bilan alohida ahamiyatga molik.

“Qutadg‘u bilig” qoraxoniylar davridan meros qolgan, o‘sha davrning tarixda va insoniyat tamadduni ravnaqida tutgan ahamiyatini hamisha yodimizga soladigan, faqat buyuk saltanatlar davrida yaratilishi mumkin bo‘lgan asar sifatida ham qimmatli. Homer yunonlarning zafarli yurishlarini boqiy dostonlarida kuylaganidek, Yusuf Xos Hojib o‘z asarida turkiy xalqlarga xos donishmandlik xislatlarini aks ettiradi. Biz turkiy xalqlarni boshqa jahongir xalqlardan farqlaydigan ijobiy jihatimiz faqat bunyodkorlik xislati bilan cheklanmaydi. Xitoylar va olmonlar singari mushohadago‘ylik qon-qonimizga singib ketgani ayni shohona asar mazmun-mohiyatida o‘z ifodasini topgan. Garchi dastlabki qarashda mushkul tuyulgani bilan dunyoni zabt etish oson. Insoniyat o‘z tarixi davomida jahongirlikning turli usullaridan samarali foydalanib kelayotir va bu jarayon zamonlar o‘tgan sayin yangicha shakllar kasb etishi ham shubhasiz.

Rizqu ro'z topish qanchalar qiyin bo'lmasin, jamiki tirik mavjudot ochlikdan qirilib ketar darajaga deyarli hech qachon tushmagan. Kun kechirishning ming xil usullari bor. Lekin chinakam insoniy hayot kechirish saodati hammaga ham nasib etavermaydi.

Qoraxoniylar saltanati dunyoning yarmini egallashi barobarida "inson qanday munosib hayot kechirishi kerak?", "bu borada qanday tamoyillarga amal qilishi lozim?", "Bashariy saodat negizi qanday qoidalarga borib taqaladi?", "Adolatli saltanat qoidasi bormi?" singari jahonshumul masalalar ustida ham bahs-munozaralar yuritganiga "Qutadg'u bilig" misolida ishonch hosil qilamiz[2:5].

Turkiy xalqlarning badiiy tafakkuri tadrijini o'rganishda qimmatli manba hisoblanuvchi bu asarni o'rganish natijasida shunday xulosalarga kelish mumkin. Turkiy xalqlar qadimda yarim dunyoni egallagan kezlarda ham mohiyatan jahongirlikka hech qachon mahliyo bo'lishmagan. Aksincha, hayot mohiyatini qidirish hamisha yetakchi fazilat hisoblangan. Aslida bu barcha imperiya-saltanatlar uchun xos xususiyatday tuyuladi. Rossiya imperiyasi eng kuchaygan palla o'n to'qqizinchi asrda ham Lev Tolstoyning paydo bo'lgani shundan dalolat beradi. Umuman, Yusuf Xos Hojib fenomenini Homer, Firdavsiy, Dante, Navoiy, Shekspir, Gyote, Tolstoy singari daholarga nisbatan o'rganish zarur.

"Qutadg'u bilig" yolg'iz turkiy xalqlarning emas, balki mazkur hududda azaldan yashab kelayotgan barcha elu elatlar, qolaversa qo'shni yirik va kichik uluslarning salohiyatini to'la-to'kis aks ettiruvchi asar sifatida ham qimmatli.

"Qutadg'u bilig"ni shunchaki didaktik asar emas. Qolaversa, "Shohnoma" singari jangnoma ham emas. Bu rosmana davlat nizomi vazifasini bajaradigan qomusiy asar. Davlatchilik qonun-qoidalarini belgilab beradi. Muallif debochada asar to'rt qadriyatga tayanishini ta'kidlaydi:

Bu doston bitishda qanot xush niyat,
 Negizi tabarruk to'rtta qadriyat.
 Birisi – adolat, to'g'rilik asos,
 Ik(k)inchisi – davlat, qut, iqbol hassos.
 Uchinchi – ulug'lik, tafakkur-aql,
 Qanoat-ofiyat – to'rtinchi naql.
 Bu asno nomladim ular har birin,
Bayon qilgum asta asroru sirin[2:27].

Jamiyat to'la qonli faoliyat yuritishi uchun Adolat, Davlat-qut, Ulug'ligu tafakkur, nihoyat Qanoat-ofiyat asos bo'lishi kerak, degan g'oyani Yusuf Xos Hojib ilgari suradi. Shoir adolatni birinchi galda tilga olgani bejiz emas. Binobarin, har qanday jamiyat, har qanday insoniy munosabatlar odilona qoidalar negiziga qurilishi

kerak. Adolatsiz, tafakkursiz davlat-qut yo'q, davlatdan esa faqat qanoat vositasida bahramand bo'lish mumkin. Binobarin, filologiya fanlari doktori Qosimjon Sodiqov ta'kidlaganidek, "Yusuf Xos Hojib davlatning kuch-qudratini, gullab-yashnashini, ezgulikni, kishining baxtu saodatini adolat, aql-zakovat hamda qanoat birligida deb biladi.

Muallif o'zining tenglik, adolat to'g'risidagi qarashlarini Kuntug'di tilidan beradi. Uning uqtirishicha, to'g'rilik (adolat) oldida hamma barobar. Kuntug'di elig tilidan buni shunday ta'riflaydi:

Ko'nilik uzala kesan-men ishig,
 Adirmas-ma begsig ya qulsig' kishig.

(Ishni to'g'rilik, ya'ni adolat yuzasidan hal qilaman, Bek yo qulni farqlab o'tirmayman).

Adib siyosatni, davlat qonunlarini yuqori tutadi. Qonun va intizom ostida mamlakat obod, xalq eminerkin yashaydi, degan g'oyani qo'llab-quvvatlaydi. U o'tmish adib va mutafakkirlari orasida birinchilardan bo'lib davlat va jamiyat boshqaruvining demokratik asoslarini, tenglik prinsiplarini ishlab chiqdi, o'z davri davlat boshqaruvining yo'l-yo'riqlarini, to'ru tuzuklarini yaratdi. Binobarin, "Qudatg'u bilig" davlat nizomi darajasiga ko'tarilgan asar edi.

Yusuf Xos Hojib kishilik ma'naviyati tarixida birinchilardan bo'lib "komil inson" tushunchasini ko'tarib chiqdi. U "komil inson"ni *tugal er* deb atagan. Mutafakkir kishining ma'naviy yuksalishida ikki bosqichni ajratadi: birinchisi – balog'at; bunga ixlos qilsa, har bir bilimli, uqushli kimsa erishuvi mumkin. Kishi kamolotining ikkinchi bosqichi tugallikdir. Unga har kimsaning yetishuvi mushkul. Adibning ta'kidlashicha, *tugal er*da ikki sifat uyg'unlashmog'i kerak: biri – bilim; ikkinchi – uqush (zakovat). Ana shu sifatlari bilan kishi tugallikka erishadi:

*Bu ikki biriksa, bo'lur er tugal,
 Tugal er ajunug' tamam er tugal.
 (Bu ikkisi biriksa, kishi tugal bo'ladi,
 Tugal er olamni tugal qo'lga oladi), –
 deb yozadi mutafakkir*[4:3].

Qanoat-ofiyat haqida so'z yuritganda shoir oltin o'rtalikka amal qiladi. Bu dunyo amallariga, hoyu-havasga berilib, u dunyoni unutmastlikni qayta-qayta uqtirishi barobarida jamiyatga naf keltirmaydigan zohidona turmush tarzini ham ma'qullamaydi. Shoir davlat va ijtimoiy toifalar o'rtasidagi munosabatlardan tortib, sevgi-muhabbat singari ko'ngil kechinmalari sir-asrorlarini ham bayon etadi.

Yusuf Xos Hojib o'z asarini yaratishda nisbatan "Don Kixot" muallifidek yo'l tutgandek taassurot paydo bo'ladi. Servantesning mashhur asari o'z davridagi qahramonlik asarlariga parodiya sifatida paydo

bo'lgan bo'lsa, Yusuf Xos Hojib ham zamondosh shoirlarning ijodidan, qolaversa donishmandlar, dongdor kishilarning pandu nasihatlaridan barakali foydalanadi.

Muallif o'z asarini o'n sakkiz oyda yozganini qayd etgan. Navoiy Hazratlari "Xamsa"ni ikki yilda yozib tugatish uchun necha yil tayyorgarlik ko'rgani, xususan davlat arobobi sifatida ham samarali faoliyat yuritganini inobatga olganda, muallif asarni yaratishdan oldin qanday ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanganini aniq tasavvur qilish mumkin. Hazrat singari "Qutadg'u bilig" muallifi ham asilzodalar toifasidan ekani shubhasiz. Uning ismiga nisbatan taxminiy qiyofasini ham gavdalantirish mumkin. Binobarin, Sharqda insonning ismi jismiga monand bo'lishi azaldan odat tusini olgan.

Dostonning o'ta samimiylik bilan yaratilganiga ham alohida e'tibor qaratishni istardim. Muallif suvrati va siyratining uyg'unligi asarning ayni xususiyatida yaqqol namoyon bo'lgan.

Qayum Karimov "Qutadg'u bilig"ning 1972-yildagi nashriga so'zboshida ta'kidlaydi:

"...yigittikka achinish va qarilik, zamona bevafoqligi va do'stlar jafosi, Yusufning o'z uzrini aytishi va o'ziga pand berishi haqidagi boblar qasidadan iborat". Ayni qasidalarda shoirning siymosi yana ham yaqqolroq ko'zga tashlanadi.

Shuningdek, bu dostonni siyosatshunos olim Fazliddin Ravshanov tarjima-tabdil qilgan. "Akademnashr" nashriyotida 2015-yilda 1000 nusxada nashr qilingan. Fazliddin Ravshanovning tarjimasi mutlaqo talabga javob bermaydi, baytlar ham to'liq emas. Asar G'afur G'ulom nashrida 2015 va 2018-yilda ikki marta bosildi. Lotin alifbosida, "Adabiyot xrestomatiyasi" seriyasida. Bu nashrning kamchiligi – Qayum Karimov nashriga asoslanganida. Unda 6409 bayt bor, tahrir ham ko'ngildagidek emas.

Mumtoz adabiyot namunalarini tabdil va talqin qilish ham tobora keng quloqch yoymoqda. Hazrat Navoiyning bir qator "Xamsa" tarkibiga kiruvchi dostonlari, qator nasriy asarlari, qolaversa "Boburnoma" kabi qomusiy asarlarning tabdil qilinishi madaniy-ma'naviy hayotimizdagi katta voqea bo'ldi.

Turkiy tilda yaratilgan ilk buyuk doston "Qutadg'u bilig"ham nihoyat she'riy tabdil qilinib, kitob holida keng o'quvchilar ommasi hukmiga havola qilindi. Mazkur bebaho dostonni siyosatshunos olim Fazliddin Ravshanov zamonaviy tilga tabdil qilgan.

Avvalo F. Ravshanov bu ishga qo'l urib, juda katta mas'uliyatni qat'iyat bilan zimmasiga olganini ta'kidlash lozim. Mumtoz adabiyotimizga chuqur ehtiromi, keng hayotiy tajribasi, olim sifatida bilimdonligi mazkur tarixiy dostonni tabdil qilishda qo'l kelgan. "Qutadg'u bilig"ning

filologiya fanlari nomzodi Qayum Karimov tomonidan 1971-yildagi nashridan foydalanish barobarida 1984-yilgi uyg'urcha nashri transkripsiyasiga asoslanib, qolib ketgan ayrim baytlarni qisman to'ldirgani ham e'tiborga loyiq.

Mazkur tabdil bilan tanishar ekansiz, qator ravon baytlar e'tiboringizni tortadi:

*Buyukman deganni o'lim yiqdi, ko'r,
 Ulug'man degandan o'lim chiqdi zo'r.*

F. Ravshanov tomonidan go'zal tabdil qilingan baytlar ham bor:

*Qaritdi ko'p bekni, o'zi qarimas,
 Aritdi ko'p bekni, o'zi arimas.*

*Ayrim o'ziga xos qofiyalar ham diqqatga sazovor:
 El ichra yana bir qatlam - savdogar,
 To'xtamas savdodan, bo'lsa savdo gar[4:362].*

Lekin tabdil qilingan dostonning qator baytlariga aniqlik, ravonlik, shoirona zarofat va latofat yetishmaydi. Hattoki "O'kinchu ko'z yoshlar go'rda obodlik" singari g'aliz satrlar ham uchraydi[4:137].

Filologiya fanlari doktori, professor Nasimxon Rahmonov mazkur tabdilga yozgan so'ngso'zida to'g'ri ta'kidlagandek, "Qutadg'u bilig" tili bilan bugungi til orasida masofa uzoq. Shu bois tabdilga, xususan, "Qutadg'u bilig" tabdiliga ehtiyoj katta, tabdil ajdodlar va avlodlar orasidagi uzoq masofalarni qisqartiradi, bir-birlarini tushunishga yo'l ochadi".

"Qudatg'u bilig"ni nasriy bayon bilan nashrga tayyorlagan Qayum Karimov o'tgan asrning yetmishinchi yillari boshidayoq dostonidagi to'rtliklarni to'plab, asliyat matni bilan birgalikda she'riy tabdilini ham nashr qildirgan[5:51]. Bunga professor Boqijon To'xliyev amalga oshirib kelayotgan qator xayrli ishlarni ham qo'shimcha qilish zarur. Dostonning ayrim boblarini shoir Sa'dulla Ahmad ancha mahorat bilan tabdil qilgan. Emin Usmon ham "Qudatg'u bilig"ni tabdil qilishda bu ham o'ziga xos qadam bo'lgani shubhasiz. Qolaversa, shoir Abduhamid Pardayev she'riy tabdil qilgan "Qudatg'u bilig"dan Internet orqali ko'plab she'riyat muxlislari bir necha yillardan buyon foydalanib kelyapti.

Dostonning qisqacha "Bahor ta'rifida..." deb nomlanuvchi bobining dastlabki baytini ham Fazliddin Ravshanov muvaffaqiyatli tabdil qila olmagan:

*Sharq qo'zg'ab yubordi nasim – elini,
 Olamga ochmoq-chun jannat yo'lini.*

Holbuki, ayni bobni Q. Karimov ham, shoir Sa'dulla Ahmad ham she'riy tabdil qilgan. Shoir Sa'dulla Ahmad she'riy tabdili nisbatan asliyatga yaqin desa bo'ladi:

*Qutlug' nasim esdi tong-la tug'ardin,
 Ya'ni er behishti – erta bahordin.*

"Qudatg'u bilig" masnaviy doston bo'lib, aruz

vaznida yozilgan. Lekin dostonda ikki yuzga yaqin ruboiy, ya'ni to'rtlik keltirilgan. Q. Karimov bu xususda shunday deb yozadi:

“Qudatg‘u bilig”da keltirilgan to'rtliklardan tashqari qolgan qismi(71, 72, 73-fasllar bundan mustasno) epik asarlar uchun eng qulay janr – masnaviy (qofiyalangan ikkilik) tarzida yozilgan. So‘nggi uch fasl (yigitlikka achinish va qarilik, zamona bevafoqligi va do‘stlar jafosi, Yusufning o‘z uzrini aytishi va o‘ziga pand berishi haqidagi boblar) esa qasidadan iborat”[7:17].

“Qudatg‘u bilig”ning Q.Karimov tayyorlagan ikkinchi nashrini 322-betida muhabbat haqida radifli chiroyli to'rtlik bor. G‘afur G‘ulom nomidagi “Badiiy adabiyot” nashriyotida 1971-yil chop etilgan hamda mazkur dostondagi 170 ta to'rtliklarni, bahor tavsifi va ularning badiiy tarjimasini o‘z ichiga olgan to‘plamni varaqlar ekanmiz, mazkur to'rtlikni Q. Karimov asliyatga hamohang radif bilan tabdil qilganiga guvoh bo‘lamiz:

*Sevuvchi kishining yuzi belgili,
Gap ochganda ma‘ni, so‘zi belgili.
Sevar, sevmasini bilayin desang,
Senga o‘tru boqsa, ko‘zi belgili*[5:51].

Abduhamid Pardayev tabdili yana ham shoirona jaranglaydi:

Shavqi ishq sevimli yuzidan ayon,
Mastona kalomu so‘zidan ayon.
Sevish-sevmasligin bilayin desang,
Nozlanib boqishi, ko‘zidan ayon.


F.Ravshanov mazkur to'rtlikning dastlabki ikki baytini radif bilan tabdil qilgan, biroq to'rtlikni masnaviyga aylantirgan:

*Sevgan yuz-ko‘zidan belgi beradi,
Gap ochsa, so‘zidan belgi beradi.
Sevish yo sevmasin bilay desang gar
Nazar sol, boqqanda ko‘zlari gavhar*[4:167].

Xulosa qilib aytganda, Yusuf Xos Hojib asarlarining o‘rganilishi va hozirgi o‘zbek yozuvidagi nashrlarining ko‘payayotgani xalqimizni adib ijodiyoti bilan tanishtirish, ulug‘ shoir g‘oya va intilishlarini targ‘ib etish nuqtayi nazaridan tahsinga sazovordir. Ammo Yusuf Xos Hojib asarlarining tabdili va talqini saviyasi haqida ancha yillardan beri davom etib kelayotgan bahs-munozaralar kelajakda shoir asarlarining qo‘lyozmalari asosida qayta tabdil va talqin qilinishi va unda ilgari yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko‘rishni matnshunoslik oldiga bosh vazifa qilib qo‘yadi. Bu yo‘nalishda tadqiqotlarni davom ettirish dolzarb masaladir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov Q. Ilk badiiy doston. – T.: “Fan” nashriyoti, 1976.224-bet.
2. Yusuf Xos Hojib. “Qudatg‘u bilig”. – T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2020.560-bet.
3. “O‘zAS”, 2010-yil. 10-dekabr. 50-son.
4. Yusuf Xos Hojib. “Qudatg‘u bilig”. – T.: “Akademnashr”, 2015.
5. Yusuf Xos Hojib. “Qudatg‘u bilig”, – T.: “Yulduzcha” nashriyoti, 1990.177-bet.
6. Yusuf Xos Hojib, “Qudatg‘u bilig”. G‘. G‘ulom nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti. – T., 1971 – B.51.
7. Yusuf Xos Hojib. “Qudatg‘u bilig”. O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti. – T., 1972. – B. 17.



Husanboy RAHMONOV,
Qo'qon davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida
o'qituvchisi (PhD)

AQL, BILIM VA KONSEPSIYA: KOGNITIV LINGVISTIKADA MARKAZIY TUSHUNCHALAR TAHLILI

Annotatsiya: ushbu matnda kognitiv tilshunoslikka oid asosiy atamalar va tushunchalar tahlil etiladi. Aql, bilim, konseptualizatsiya, lingvistik dunyoqarash, kognitiv model, mentalitet kabi tushunchalar insonning kognitiv faoliyati bilan uzviy bog'liq ekanini ta'kidlanadi. Kognitiv faoliyat — axborotni qayta ishlash, bilim hosil qilish va ongiy tuzilmalarni shakllantirish jarayoni sifatida izohlanadi.

Kalit so'zlar: kognitiv tilshunoslik, aql, bilim, konseptualizatsiya, konseptual tizim, idrok, lingvistik dunyoqarash, turkumlashtirish, mentalitet, konseptsiya.

Annotation: this text analyzes the main terms and concepts related to cognitive linguistics. It is emphasized that concepts such as intelligence, knowledge, conceptualization, linguistic worldview, cognitive model, mentality are inextricably linked with human cognitive activity. Cognitive activity is interpreted as the process of processing information, generating knowledge, and forming mental structures.

Key words: cognitive linguistics, intelligence, knowledge, conceptualization, conceptual system, perception, linguistic worldview, categorization, mentality, concept.

Аннотация: в данной работе анализируются основные термины и понятия когнитивной лингвистики. Подчеркивается, что такие понятия, как интеллект, знание, концептуализация, языковая картина мира, когнитивная модель, mentalitet, неразрывно связаны с когнитивной деятельностью человека. Когнитивная деятельность трактуется как процесс обработки информации, генерации знаний и формирования ментальных структур.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, интеллект, знание, концептуализация, концептуальная система, восприятие, языковая картина мира, категоризация, mentalitet, концепт.

Kirish. Kognitiv tilshunoslik bugungi kunda umumiy tilshunoslikning eng ilg'or va istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib, kognitiv fanlarning tarkibiy qismi sifatida shakllangan fanlararo sohaga aylanib bormoqda. Bu yo'nalish psixologiya, neyrofiziologiya, falsafa, etnografiya, sun'iy intellekt nazariyasi, sotsiologiya, siyosatshunoslik kabi fanlarning nazariy asoslari va empirik ma'lumotlariga tayangan holda rivojlandi. Uning fanlararo tabiati tilni o'rganishda inson tafakkuri, idroki va bilim tuzilmalarini chuqur o'rganishga imkon beradi.

Kognitiv tilshunoslikning shakllanishida lingvistik tipologiya va etnolingvistikaning universal, etnik xususiyatlarni aks ettiruvchi ma'lumotlari muhim rol o'ynagan. Bu fanlar turli til tizimlari orqali inson tafakkurining umumiy hamda milliy xususiyatlarini aniqlashga xizmat qilgan.

Asosiy qism. Kognitiv fanlar umumiy ma'noda inson bilimlarining tuzilishi va faoliyatini o'rganishga yo'naltirilgan. Bu yo'nalish, xususan, sun'iy intellekt yaratishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar jarayonida yuzaga kelgan va izchil shakllangan.

V. Z. Demyankovning ta'kidlashicha, kognitivizm keng ma'noda "insonni axborotni qayta ishlash tizimi sifatida o'rganish va inson xatti-harakatlarini ularning ichki holatlari nuqtai nazaridan tasvirlash hamda tushuntirish" zarurligini anglatadi.

"Cognition" atamasi ingliz tilida birinchi navbatda "bilim", "anglash", "idrok qilish" ma'nolarini bildiradi. Rus tilidagi "kognitsiya" va "kognitiv" atamalari ham ushbu sohada asosiy tushunchalar bo'lib, nafaqat umumiy ilmiy muomalada, balki aynan kognitiv tilshunoslikda ham keng qo'llaniladi. Kognitiv yondashuvning tilshunoslikdagi shakllanishi odatda J. Miller va F. Johnson-Laird tomonidan yozilgan "Language and Perception" ("Til va idrok") nomli asar bilan bog'lanadi. Ushbu asar til va tafakkur o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganishda muhim bosqich bo'lgan. Kognitiv tilshunoslik alohida ilmiy yo'nalish sifatida 1989-yil bahorida Germaniyaning Duysburg shahrida bo'lib o'tgan Xalqaro tilshunoslik simpoziumi davomida rasman e'tirof etilgan. Ana shu simpozium kognitiv tilshunoslik bo'yicha ilk xalqaro konferensiya sifatida tarixga kirgan. Unda Kognitiv

tilshunoslik Xalqaro Assotsiatsiyasi tashkil etilgan, *Cognitive Linguistics* nomli ilmiy jurnalning nashri yo'lga qo'yilgan va "Cognitive Linguistics Research" nomli monografiyalar turkumi rejalashtirilgan. Kognitiv tilshunoslik zamonaviy antropotsentrik paradigma doirasidagi kognitivizmdan kelib chiqib, lingvistik tadqiqotlarni sezilarli darajada kengaytirdi. Kognitivizm – inson ongi, tafakkuri va ular bilan bog'liq psixik jarayonlar hamda holatlar o'rganish obyekti bo'lgan ilmiy sohadir. Bu bilim va bilish, dunyoni inson faoliyati orqali idrok etish haqidagi fandir. Bilim va axborot bilan bog'liq jarayonlar kognitiv jarayonlar yoki bilish deb ataladi. Ushbu jarayonlarning sinonimlari "intellektual", "aqliy" va "ratsional" kabi birliklarni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda "kognitivizm" atamasi ham quyidagilarni anglatadi:

- insonning "fikrlash mexanizmi"ni tadqiq qilish dasturi;
 - turli kanallar orqali insonga kelayotgan axborotni qayta ishlash jarayonlarini o'rganish;
 - dunyoning aqliy modellarini qurish;
 - har xil turdagi kognitiv harakatlarni qo'llab-quvvatlovchi tizimlarni loyihalash;
 - inson va kompyuterlar tomonidan tabiiy tilda ifodalangan fikrlarni tushunish va shakllantirish;
- Matnni tushunish va yaratishga qodir kompyuter dasturi modelini yaratish;

- Fikrlash jarayonlarini qo'llab-quvvatlovchi aqliy jarayonlarning keng doirasi.

Kognitiv tilshunoslik tilni tushunishga i urg'u beradi, uni insonlar, ularning aql-zakovati va barcha kognitiv jarayonlar bilan turli xil aloqalarida qanday tushunish mumkinligi haqida keng istiqbollarni ochadi. Kognitiv tilshunoslikning asosiy atamalari: aql, bilim, konseptualizatsiya, konseptual tizim, idrok, lingvistik dunyoqarash, kognitiv asos, psixik tasvirlar, kognitiv model, turkumlashtirish, verbalizatsiya, mentalitet, madaniy konstantalar, konsepsiya, dunyoqarash, konseptual soha, milliy madaniy makon va boshqalar. Bu tushunchalarning barchasi insonning kognitiv faoliyati bilan bog'liq, ya'ni insonning ma'lum bir qarorga yoki bilimga erishadigan faoliyati. Kognitiv faoliyat axborotni qayta ishlash bilan birga keladigan jarayonlarni anglatadi va ongning o'ziga xos tuzilmalarini yaratishni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, til (nutq) faoliyati kognitiv faoliyat turlaridan biridir.

Kognitiv lingvistika uchun muhim bo'lgan tushunchalar quyidagilar:

Aql – bu insonning sabab-oqibat bilish qobiliyati, shuningdek, qadriyatlarini, narsa va hodisalar o'rtasidagi umuminsoniy aloqalarni tushunish qobiliyati va shu bog'liqlik doirasida maqsadli faoliyat qobiliyatidir. Bu ma'lum bir organizmning atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirida bilimlarni yaratish va uni maqsadli amalga oshirish



mexanizmi. Atrof-muhit deganda organizm o'z hayoti davomida shug'ullanishi kerak bo'lgan jismoniy, ijtimoiy va ma'naviy omillarning butun majmuasi tushuniladi.

Bilim – bu subyektiv va obyektiv jihatdan to'g'ri bo'lgan va maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatni ta'minlaydigan mulohazalar va xulosalarni shakllantirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan tajriba va tushunchaga ega bo'lish. Bilim – bu dinamik, funksional shakllanish – “dunyo tasvirini” shakllantiradigan og'zaki va og'zaki bo'lmagan tajribani qayta ishlash mahsulidir.

Konseptualizatsiya zamonaviy tilshunoslikda “bilimning turli shakllari bo'yicha “kesish” bo'lgan bilimlarni tizimlashtirish jarayoni va ma'lum minimal konseptual birliklardan turli bilimlarni ifodalovchi tuzilmalarning paydo bo'lishi” sifatida talqin etiladi.

Konseptual tizim deganda biz aqliy daraja yoki aqliy (ruhiy) tashkilotni tushunamiz, bu erda inson ongiga berilgan barcha tushunchalar yig'indisi, ularning tartibli birlashishi. Demak, konseptual tizim inson tajribasini aks ettiruvchi dunyo haqidagi fikrlar va bilimlar tizimidir.

Kategoriyalashtirish – bu voqelikning kognitiv bo'linishi bo'lib, uning mohiyati butun ontologik makonni turli kategorik sohalarga bo'lishdan iborat. Bu dunyoning tuzilishi, ma'lum bir guruhga so'z yoki obyektini belgilash harakati, “sinf – sinf a'zosi” kabi ierarxik munosabatlarni o'rnatish usuli.

Mentalitet – bu dunyoning o'ziga xos rasmini qurishni o'z ichiga olgan fikrlash jarayonlarining yig'indisi.

Xulosa. Bugungi kunda bilish tushunchasi nafaqat inson ruhining tarkibiy qismlarini (bilim, ong, aql,

tafakkur, tasavvur, ijodkorlik, rejalashtirish, mulohaza yuritish, mantiqiy xulosa chiqarish, muammoni hal qilish, korrelyatsiya, xayol va tush ko'rish), balki idrok, aqliy tasavvur, xotira, diqqat, tan olish kabi jarayonlarni ham o'z ichiga oladi. Kognitiv baza ma'lum bir lingvistik-madaniy jamiyatning ushbu tilda so'zlashuvchilari tomonidan baham ko'rilgan muhim bilimlarning maxsus tuzilgan to'plamidir. Kognitiv asos kognitiv tuzilmalar tomonidan shakllantiriladi, ular o'z navbatida bizning vakolatimizni shakllantiradi va asoslaydi. Kognitiv tuzilma shaklida kodlangan va saqlanadigan ma'lumotlar nafaqat dunyo haqidagi ma'lumotlarni, balki til haqidagi bilimlarni va til haqidagi bilimlarni ham o'z ichiga oladi. Milliy madaniy makon - axborot va hissiy maydon, shaxs mavjud bo'lgan va faoliyat yuritadigan, boshqa madaniyat hodisalariga duch kelganda ongli bo'ladigan virtual va bir vaqtning o'zida real makondir. U ma'lum bir madaniy-milliy hamjamiyat a'zolari o'rtasida madaniy hodisalarning barcha aniq va potensial tasvirlarini (milliy va individual) o'z ichiga oladi. Madaniy konstantalar qadimgi davrlarda paydo bo'lgan tushunchalar bo'lib, uni bugungi kungacha bo'lgan mutafakkirlar, yozuvchilar va oddiy ona tilida so'zlashuvchilarning qarashlari orqali kuzatish mumkin. Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan kognitiv tushunchalar (ma'nolar) hosil qilish va o'zgartirish jarayonidir, shuning uchun kognitiv tilshunoslikning eng muhim tadqiqot ob'ekti tushunchadir. Tushunchalar bizning ongimiz va dunyo haqidagi bilimimizning tarkibiy qismlari sifatida falsafa, psixologiya, kognitiv lingvistika, madaniy tilshunoslik va boshqa gumanitar fanlarning o'rganish predmeti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arislanova, M. Z. (2023). Kognitiv tilshunoslik: Til va tafakkur o'rtasidagi ko'priq. *Scientific Journal of Linguistics*, 1(4), 45–52.
2. Nasridinov, M. V. (2022). Ingliz va o'zbek tillarida “maqsad” konseptining morfologik strukturalari va semantik tahlili. *Academic Studies in Linguistics*, 3(2), 33–40.
3. Lakoff, G. (1987). *Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind*. Chicago: University of Chicago Press.
4. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press.
5. Langacker, R. W. (1991). *Foundations of Cognitive Grammar. Volume II: Descriptive Application*. Stanford: Stanford University Press.
6. Evans, V. (2007). *A Glossary of Cognitive Linguistics*. Edinburgh: Edinburgh University Press.
7. Littlemore, J. (2009). *Applying Cognitive Linguistics to Second Language Learning and Teaching*.

Nargiza SULEYMANOVA,
 Samarqand davlat chet tillar instituti
 Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrası dotsenti
 E-mail: nargizasulimanova@gmail.com

Madina BAXRIDDINOVA,
 Samarqand davlat chet tillar instituti
 Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrası katta o'qituvchisi
 E-mail: madyabahriddinova@gmail.com

MADANIYATLARARO MULOQOTDA ADABIY MATNLARNING O'RNI VA TARJIMA QIYINCHILIKLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada adabiy matnlarning madaniyatlararo muloqotdagi o'rni hamda tarjima jarayonida uchraydigan lingvistik, madaniy va stilistik qiyinchiliklar chuqur tahlil qilinadi. Adabiy matnlar turli xalqlarning tafakkuri, qadriyatları, urf-odatları va madaniy merosini o'zida mujassam etuvchi muhim madaniy manba hisoblanadi. Maqolada tarjimada uchraydigan asosiy muammolar - semantik tafovutlar, madaniy realiyalar, idiomatik iboralar, metaforalar va badiiy ifodalarning ekvivalentligini ta'minlash masalalari o'rganiladi. Shuningdek, tarjimonning madaniy kompetensiyasi, kreativ yondashuvi va ekvivalentlikni ta'minlashdagi strategiyalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: madaniyatlararo muloqot, adabiy matn, tarjima jarayoni, lingvistik qiyinchiliklar, madaniy tafovutlar, ekvivalentlik, stilistika, metafora, idiomatik ibora, semantik tafovut, tarjimon strategiyasi, kreativ yondashuv, kontekst, realiyalar, kommunikativ moslik.

Annotation: this article provides a comprehensive analysis of the role of literary texts in intercultural communication and the main linguistic, cultural, and stylistic challenges encountered in the process of translation. The study examines the core issues of literary translation such as semantic disparities, cultural realia, idiomatic expressions, and the preservation of metaphors and stylistic devices. Furthermore, the paper explores the translator's cultural competence, creative approach, and strategies for achieving equivalence and adequacy in the translation of literary texts.

Key words: intercultural communication, literary text, translation process, linguistic difficulties, cultural differences, equivalence, stylistics, metaphor, idiomatic expression, semantic disparity, translator's strategy, creative approach, context, cultural realia, communicative adequacy.

Аннотация: в данной статье глубоко анализируется роль литературных текстов в межкультурной коммуникации, а также лингвистические, культурные и стилистические трудности, возникающие в процессе перевода. Литературные тексты являются важным культурным источником, воплощающим в себе мышление, ценности, обычаи и культурное наследие разных народов. В статье рассматриваются основные проблемы, возникающие при переводе - семантические различия, культурные реалии, идиоматические выражения, метафоры и вопросы обеспечения эквивалентности художественных выражений. Также анализируются культурная компетентность переводчика, креативный подход и стратегии обеспечения эквивалентности.

Ключевые слова: межкультурная коммуникация, литературный текст, процесс перевода, лингвистические трудности, культурные различия, эквивалентность, стилестика, метафора, идиоматическое выражение, семантическое различие, стратегия переводчика, творческий подход, контекст, реалии, коммуникативная совместимость.

Kirish. Globallashuv va madaniyatlararo aloqalar jadallashayotgan hozirgi davrda tillar, madaniyatlar va tafakkur tizimlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir masalasi insoniyat taraqqiyotida muhim o'rin egallamoqda. Har bir xalq o'zining tarixiy tajribasi, urf-odatları va qadriyatlarini adabiyot orqali ifoda etadi. Shu jihatdan adabiy matnlar – bu nafaqat estetik asar, balki xalqning madaniy xotirasi, milliy identiteti va dunyoqarashini mujassam etgan madaniy koddır. Ana shu madaniy kodni boshqa tilda to'liq anglash va yetkazish esa tarjima san'atining eng murakkab jihatlaridan biridir.

Madaniyatlararo muloqot tushunchasi tilshunoslik, sotsiologiya, antropologiya va madaniyatshunoslik fanlarining kesishgan nuqtasida joylashgan murakkab hodisadir. Edward Hall va Geert Hofstede kabi olimlar madaniyatlararo tafovutlarni tahlil qilib, ularning insonlar o'rtasidagi aloqa, xulq-atvor va idrok jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rsatganlar (Edward Hall 1959; Geert Hofstede 1991). Bu nazariy asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, tarjima – madaniyatlararo muloqotning asosiy vositasidir. Chunki u turli xalqlar o'rtasida ma'naviy, estetik va bilim almashinuvini ta'minlaydi.

Adabiy tarjima jarayonida tarjimon ikki madaniyat o'rtasida vositachi sifatida faoliyat yuritadi. Eugene Nidaning "dynamic equivalence" nazariyasiga ko'ra, tarjimaning asosiy maqsadi - asl matnning semantik va hissiy ta'sirini yangi til o'quvchisida qayta yaratishdir (Eugene Nida 1964). Shu bilan birga, Lawrence Venuti "foreignization" va "domestication" strategiyalarini ajratib, tarjimonning madaniy mas'uliyatini ta'kidlagan (Lawrence Venuti 1995). Unga ko'ra, tarjima faqat so'zlarni almashtirish emas, balki madaniyatni qayta kodlash jarayonidir.

Roman Jakobson esa tarjimani uch turga ajratadi: ichki til ichidagi (intralingual), tillararo (interlingual) va belgilar tizimi o'rtasidagi (intersemiotic) tarjima. Adabiy tarjima bu uchchalasining elementlarini o'zida mujassam etadi, chunki unda til, madaniyat va ramzlar uyg'unlashadi (Roman Jakobson 1959). Masalan, Alisher Navoiyning g'azallarini ingliz tiliga o'g'irishda tarjimon faqat leksik birliklarni emas, balki tasavvufiy ramzlar, diniy konnotatsiyalar va poetik ohangni ham yetkazishi kerak. Xuddi shunday, Shakespeare asarlarining o'zbek tiliga tarjimasida so'z o'yini (pun), hazil, metafora va poetik ritmni saqlab qolish tarjimon oldiga murakkab badiiy vazifa qo'yadi.

Adabiy matnlarning madaniyatlararo ahamiyati, avvalo, ular orqali xalqning ruhiy dunyosi va tafakkurini anglash mumkinligida namoyon bo'ladi. Masalan, Lev Tolstoyning "Urush va tinchlik" romani rus xalqining tarixiy va falsafiy o'zlikni anglashiga xizmat qilsa, Hemingwayning "The Old Man and the Sea" asari amerikaliklarning iroda va mustaqillik ruhini ifodalaydi. Bunday asarlarning tarjimasida boshqa xalqlarga o'sha madaniyatni idrok etish imkonini beradi. Shu jihatdan tarjima - bu madaniyatlararo ko'prikdir.

Shunday qilib, ushbu maqola adabiy matnlarning madaniyatlararo muloqotdagi o'rnini, tarjima jarayonida uchraydigan asosiy lingvistik va madaniy muammolarni aniqlashni, shuningdek, tarjimonning rolini ilmiy-nazariy asosda tahlil qilishni maqsad qilib qo'yadi. Tadqiqot natijalari madaniyatlararo muloqotda tarjimonning strategik yondashuvi va madaniy kompetensiyasining ahamiyatini yoritadi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot adabiy matnlarning madaniyatlararo muloqotdagi o'rni va tarjima jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda taqqoslama-tahliliy, semantik, stilistik va madaniy yondashuvlar qo'llanildi. Metodologiya tilshunoslik, adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik yo'nalishidagi ilg'or nazariyalarga tayanadi.

1. Tadqiqot yondashuvi. Tadqiqotning nazariy asosini Eugene Nidaning "dynamic equivalence", Lawrence Venutining "foreignization/domestication"

strategiyasi, Peter Newmarkning "communicative va semantic translation" konsepsiyasi, hamda Roman Jakobsonning "interlingual translation" modeli tashkil etadi. Ushbu nazariyalar tarjima jarayonida madaniy ekvivalentlik, kommunikativ samaradorlik va estetik muvofiqlikni ta'minlash imkonini beradi.

Masalan, Nida tarjimani "tildan tilga o'tkazilayotgan ma'noning o'quvchi ongida xuddi asl matndagidek ta'sir uyg'otish jarayoni" deb talqin qiladi (Eugene Nida 1964). Bu yondashuv adabiy tarjimada hissiy muvofiqlikni muhim deb hisoblaydi. Venuti esa tarjimonning madaniy roli haqida gapirib, "foreignization" (begonalashtirish) orqali asl matnning milliy koloritini saqlashni yoki "domestication" (mahalliyashtirish) orqali o'quvchiga yaqinlashtirishni tanlash zarurligini ta'kidlaydi (Lawrence Venuti 1995).

2. Ma'lumot manbalari. Tahlil jarayonida ingliz, o'zbek va rus adabiyotlaridan olingan bir qator adabiy asarlar tarjimalari solishtirildi. Jumladan:

William Shakespearenin Hamlet tragediyasi o'zbek tiliga tarjimalari (Uyg'un va Shukrullo tarjimalari asosida); Alisher Navoiyning Layli va Majnun dostoni ingliz tilidagi tarjimasida;

Ernest Hemingwayning The Old Man and the Sea asarining rus va o'zbek tarjimalari;

Abdulla Qodiriyning O'tgan kunlar romani rus tilidagi tarjimasida.

Ushbu asarlar tanlanishidan maqsad – turli madaniyatlarda adabiy matnlarning semantik, badiiy va stilistik xususiyatlarini qiyosiy o'rganish va tarjimada yuzaga kelgan o'zgarishlarni tahlil qilishdir.

3. Tadqiqot usullari. Tadqiqot quyidagi asosiy usullar orqali amalga oshirildi:

Taqqoslama-tahliliy metod – bir asarning asl nusxasi bilan tarjimasida o'rtasidagi leksik, grammatik va stilistik farqlar aniqlanib, ularning madaniy sabablari tahlil qilindi. Masalan, Shakespeare asaridagi "To be or not to be" satrining o'zbek tarjimasidagi "Bo'lish yoki bo'lmaslik" varianti semantik jihatdan to'g'ri bo'lsa-da, ingliz tilidagi falsafiy drammatizmni to'liq aks ettirmaydi.

Semantik tahlil metodi – so'zlarning ko'pma'noliligi (polysemiya), konnotatsiya, idiomalar va metaforalarning tarjima jarayonida o'zgarishini o'rganishga qaratildi. Masalan, "heart" so'zi ingliz tilida muhabbat, hissiyot va jasoratni bildirsa, o'zbek tilidagi "yurak" so'zi ko'proq ruhiy holatni, samimiyatni anglatadi.

Madaniy-tahliliy yondashuv – adabiy matnda mavjud madaniy realiyalar, tarixiy atamalar va milliy qadriyatlarni boshqa madaniyat vakiliga yetkazish usullari o'rganildi. Masalan, Navoiy dostonidagi "ishq" tushunchasining tasavvufiy ma'nosini ingliz tilida to'liq ifodalash uchun oddiy "love" so'zi yetarli emas; bu holda "spiritual"

devotion” yoki “*divine love*” kabi izohli yondashuv talab etiladi.

Stilistik tahlil – tarjimada metafora, epitet, ironiyalar, she’riy ritm va badiiy tasvirlarning ekvivalentligini aniqlashga qaratilgan. Masalan, Hemingway asarlaridagi soddalik va minimalizm uslubi o‘zbek tilidagi tarjimada ba’zan ortiqcha izohlar bilan boyitilgan, bu esa muallif uslubining tozaligiga putur yetkazgan.

4. Tadqiqot tamoyillari. Tahlil davomida quyidagi tamoyillar asosiy mezon sifatida belgilandi:

1. Ekvivalentlik – tarjima mazmuni va estetik ta’sirining asl matnga yaqin bo‘lishi.

2. Madaniy adekvatlik – o‘quvchining madaniy kontekstiga mos holda, lekin asl madaniy rangni yo‘qotmaslik.

3. Kontekstual to‘liqlik – tarjimada so‘zlar emas, balki butun ma’no tizimi (kontekst)ni saqlash.

4. Tarjimonning ijodiy erkinligi – matnni o‘zgartirmasdan, uni yangi madaniyatga moslashtirish.

5. Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi — adabiy tarjimada madaniyatlararo ekvivalentlikni ta’minlovchi samarali strategiyalarni aniqlashdir. Shu maqsadda quyidagi vazifalar belgilandi:

Adabiy matnlarning madaniyatlararo muloqotdagi o‘rnini nazariy asosda ochib berish;

Tarjima jarayonidagi asosiy lingvistik va madaniy qiyinchiliklarni tahlil qilish;

Tarjimonning madaniy kompetensiyasini baholash;

Asosiy tarjima nazariyalari asosida amaliy misollarni solishtirish.

Natija. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, adabiy tarjima jarayonida madaniyatlararo muloqotning muvaffaqiyati tarjimonning madaniy sezgirliги, kontekstni chuqur anglash darajasi va badiiy tafakkuriga bevosita bog‘liq. Har bir asar o‘z milliy madaniyati, tili va tarixiy konteksti bilan uzviy bog‘liq bo‘lganligi sababli, tarjima jarayonida semantik, stilistik va madaniy o‘zgarishlar muqarrar. Lingvistik tafovutlar natijasida ma’no qatlamlarining qisqarishi yoki emotsional ohangning yo‘qolishi holatlari kuzatiladi. Masalan, Shakespeare yoki Hemingway asarlarining o‘zbek tiliga tarjimasida grammatik to‘g‘rilik saqlangan bo‘lsa-da, ularning falsafiy yoki metaforik chuqurligi to‘liq ifodalanmaydi. Bu hol tarjimonning semantik chuqurlikni va estetik ohangni qayta yaratish mahoratini talab etadi.

Madaniy realiyalar, diniy iboralar va milliy qadriyatlarni tarjima qilishda ekvivalent so‘zlar topish mushkul bo‘lib, izohli tarjima yoki “foreignization” strategiyasi bu borada samaraliroq natija beradi. Idiomatik iboralar, metaforalar va poetik ifodalar tarjimasida esa semantik va estetik ekvivalentlikni ta’minlash eng murakkab jarayon hisoblanadi. Shu bois,

tarjimon faqat til bilimiga emas, balki madaniyatshunoslik va adabiy estetikaga ham ega bo‘lishi zarur.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, erkin va adekvat tarjima strategiyalarini uyg‘un qo‘llash madaniyatlararo tafovutlarni yengishda samarali natija beradi. Tarjima jarayonida lingvistik, madaniy va estetik ekvivalentlik o‘rtasida muvozanatni topish adabiy tarjimaning muvaffaqiyat kalitidir. Xulosa qilib aytganda, adabiy tarjima bu til o‘zgartirish emas, balki madaniy rekonstruksiya bo‘lib, tarjimon xalq ruhiyatini, qadriyatlarini va ma’naviy olamini boshqa madaniyatga to‘laqonli yetkazuvchi vositachidir.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, adabiy tarjima jarayoni nafaqat lingvistik o‘zgarish, balki madaniyat, tafakkur va estetik qadriyatlarining qayta talqin qilinish jarayonidir. Tarjimon ikki madaniyat o‘rtasida vositachi sifatida madaniy ma’nolarni to‘g‘ri dekodlash, muallif ruhiyatini his qilish va uni yangi madaniy kontekstda ifodalash qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Tarjimonning muvaffaqiyati tarjimonning madaniy kompetensiyasi, kontekstni to‘liq anglash darajasi va ijodiy yondashuviga bog‘liq. Edward Hall va Hofstede nazariyalari madaniyatlararo tafovutlarni tushunishning tarjimadagi ahamiyatini ochib beradi.

Tarjimon individualizm va kollektivizm kabi ijtimoiy qadriyatlar o‘rtasidagi farqlarni hisobga olmasa, matnning ma’no qatlamlari va hissiy ohangini yo‘qotadi. Eugene Nida ilgari surgan “dynamic equivalence” nazariyasi adabiy tarjimada o‘quvchida asl matndagi hissiy ta’sirni yaratishni ta’kidlaydi. Venuti nazariyasida esa tarjimonning “foreignization” yoki “domestication” strategiyasi madaniy sodiqlik darajasini belgilaydi. Peter Newmarkning “semantic” va “communicative” tarjima yondashuvlari esa ma’no sodiqligi va o‘quvchiga ta’sir o‘rtasida muvozanat topish zarurligini ko‘rsatadi. Estetik va stilistik jihatdan, tarjimon “til musiqasi”ni qayta yaratib, badiiy kuchni saqlashi lozim. Tarjimon aslida madaniyat elchisi bo‘lib, ikki xalq ruhiyatini birlashtiruvchi ijodkor sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiy tarjima xalqlar o‘rtasidagi madaniy diplomatiya, empatiya va o‘zaro tushunishni rivojlantiradi. Shu bois, u nafaqat til vositasi, balki global madaniyatlararo muloqotning asosiy shakliga aylangan. Umuman olganda, adabiy tarjimaning muvaffaqiyati madaniy moslashuv va semantik sodiqlik o‘rtasidagi nozik muvozanatni saqlashda namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Yuqoridagi tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, adabiy tarjima jarayoni – bu nafaqat til o‘zgartirish, balki madaniyatni qayta yaratish san’atidir. Har bir adabiy matn o‘zida xalqning tarixiy xotirasi, ruhiy olami va estetik qadriyatlarini mujassam etadi. Shu sababli, adabiy tarjima madaniyatlararo muloqotda

eng muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Tahlil davomida aniqlanishicha, tarjima jarayonida eng muhim omil – bu madaniy kontekstni to'g'ri anglash va semantik ekvivalentlikni ta'minlashdir. Tarjimon matnning grammatik shakliga emas, balki uning *mazmuniy, hissiy va estetik mohiyatiga* e'tibor qaratishi kerak. Shu yo'l bilan u o'quvchida asl matn o'quvchisiga xos emotsional javobni uyg'otadi.

Eugene Nida, Lawrence Venuti, Peter Newmark va *Roman Jakobson*larning nazariyalari amaliy tahlil orqali tasdiqlandi: tarjima faqat lingvistik emas,

balki madaniy va semiotik jarayon hamdir. Tarjimon matnini o'g'irishda ikki xil mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi – lingvistik aniqlikni saqlash va madaniyatlararo uyg'unlikni yaratish.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, adabiy tarjima – bu *madaniyatlararo uyg'unlikni ta'minlovchi ijodiy jarayon*, u xalqaro muloqotni chuqurlashtirib, millatlar o'rtasida o'zaro hurmat, tinchlik va hamkorlikni mustahkamlaydi. Har bir tarjimon bu jarayon orqali insoniyat madaniyatining umumiy rivojiga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nida, Eugene A. *Toward a Science of Translating*. – Leiden: E. J. Brill, 1964. 331-p.
2. Venuti, Lawrence. *The Translator's Invisibility: A History of Translation*. – London & New York: Routledge, 1995. 353 p.
3. Newmark, Peter. *A Textbook of Translation*. – London: Prentice Hall, 1988. 292 p.
4. Jakobson, Roman. *On Linguistic Aspects of Translation*. – In: *Selected Writings II: Word and Language*. – The Hague: Mouton, 1959. – 232–239 p.
6. Hall, Edward T. *The Silent Language*. – New York: Doubleday & Company, 1959. 240-p.
7. Hofstede, Geert. *Cultures and Organizations: Software of the Mind*. – London: McGraw-Hill, 1991. 279 p.
8. Mirzaev, I. *Adabiyotshunoslik va tarjima*. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2010. 250-270-betlar.
9. Qodirov, O. *Madaniyatlararo muloqot: nazariy asoslar va amaliyot*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2008. 200-220-betlar.
10. Abdullaeva, G. *Tarjima san'ati va adabiyot*. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2015. 180-200-betlar.
11. G'ulomov, R. *Tarjimada madaniy va lingvistik muammolar*. – Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti, 2012. 220-240-betlar.
12. Rahimov, M. *Adabiy tarjima va madaniyatlararo aloqalar*. – Toshkent: Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi nashriyoti, 2017. 230-250-b.
13. Bojjeva, N. *Adabiyot va tarjima: Madaniyatlararo muloqot*. – Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019. – 150-170-b.
14. Shamsiyeva, M. *O'zbek adabiyotida tarjimaning o'rni*. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2014. - 180-b.
15. Panjiev, M. *Lingvistik va madaniy tarjima*. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2020. 220-b.
16. Turan, I. *Translation and Culture: A Theoretical Approach*. – Istanbul: Turkiye Diyanet Foundation, 2013. 210 p.

Hoshimjon AHMEDOV,
 Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va
 adabiyoti universiteti, o'zbek adabiyoti
 va uni o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti, f.f.n
 Ahmedov.hoshim60@gmail.com

E'TIQOD – USLUB ASOSI (Navoiyning “Nazmul-Javohir” asari haqida o'ylar)

Annotatsiya: mazkur maqolada Alisher Navoiyning badiiy uslubi haqida mulohazalar bayon qilinadi. “Nazmul-javohir” asari asosida Alisher Navoiyning uslubiga asos bo'lgan jihatlar tadqiq etiladi. Asardagi (Nasrul-laoliy) hikmatlar Qur'on va Hadislar, Muhammad (s.a.v) hayotiga oid tafsilotlar bilan dalillanadi, “Nazmul-javohir”dagi poetik g'oya va xulosalar Navoiyning boshqa asarlaridagi fikrlar bilan muqoyasa qilinadi. Yakunda Navoiy uslubi sof islomiy e'tiqod nuri bilan sug'orilgan degan xulosaga kelinadi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, “Nazmul-javohir” asari, badiiy uslub, e'tiqod va ijod uyg'unligi.

Аннотация: в статье рассматриваются особенности художественного стиля Алишера Навои. На примере произведения “Назмль-джавахир” исследуются аспекты, составляющие основу стиля Алишера Навои. Мудрые слова (афоризмы) произведения (Насрул-лаолий) подкрепляется Кораном и хадисами, подробностями о жизни Мухаммада (мир ему и благословение Аллаха), поэтические идеи и выводы «Назмль-джавахир» сравниваются с мыслями других произведений Навои. В заключение делается вывод о том, что стиль Навои пронизан светом чистой исламской веры.

Ключевые слова: Алишер Навои, произведение “Назмль-джавахир”, художественный стиль, гармония веры и творчества.

Annotation: this article presents considerations about the artistic style of Alisher Navoi. Based on the work “Nazmul-javohir”, the aspects that form the basis of Alisher Navoi's style are studied. The wisdom in the work (Nasrul-laoliy) is substantiated by the Quran and Hadiths, details about the life of Muhammad (pbuh), the poetic ideas and conclusions in «Nazmul-javohir» are compared with the thoughts in other works of Navoi. In the end, it is concluded that Navoi's style is imbued with the light of pure Islamic faith.

Key words: Alisher Navoi, work “Nazmul-javohir”, artistic style, harmony of faith and creativity.

Kirish. Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning “Nazmul-javohir” asari ma'lumotlarga qaraganda hazrati Ali raziallohu anhu qalamiga mansub “Nasr ul-laoliy” (Nasr unjulari) deb atalmish asarining she'riy qayta yaratilgani. [1. O'zbek adabiyoti tarixi, 195-bet]. Barcha musulmon ahliga ma'lumki, Ali (karamallohu vajhahu) payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) yonida bo'lgan safdoshlari— choryorlardan biri. Bu inson payg'ambarimizning yaqinlaridan bo'lib, din ilmida mukammal deya hisoblanadigan shaxs edi. Odatda har qanday insonning uni hayotda tutib turadigan ma'naviy-axloqiy ustuni – e'tiqodi hisoblanadi. Imon-e'tiqodi mustahkam odamgina hayot sinovlaridan mardona o'ta oladi. Badiiy ijodda ham ijodkorning inonch – a'moli muhim rol o'ynaydi. Mustahkam, kuchli e'tiqod barkamol, dohiyona ijod uchun ham hamirturush hisoblanadi. Biz quyida Alisher Navoiy murojaat qilgan “Nasr ul-laoliy” hikmatlariga e'tibor

qaratamiz, bu asarning Navoiy ijodiga nechog'li ta'sir etishini holisanillo baholashga, tadqiq etishga urinamiz.

Tahlil va mulohazalar.

Uslub haqida birmuncha o'rnashib qolgan xulosalarga murojaat qilamiz. Akademik Izzat Sultonning fikricha: “Yozuvchi shaxsiyati o'ziga xos bir qancha xususiyatlarga (masalan, hayotni boshqalar bilmagan yoki kam bilgan tomonlarini bilish, o'quvchini hayajonga soladigan asar yozishning o'ziga xos usullarini ijod etish va mavjud usullarni mukammallashtira borish kabi) ega bo'lsagina asar muvaffaqiyatli chiqadi”. [2, 401]. Dilmurod Quronovning ta'kidlashicha “kim aytsa ham bilib aytgan, qadimdan “Uslub bu – odam” degan qarashning ommalashgani bejiz emas: asar o'zida ijodkor shaxsini ifodalard ekan, buni eng avvalo uslubda namoyon etadi... Uslub hayot materiali va an'analarga saylab munosabatda

bo'ladigan, jamiyatning badiiy-estetik talab-ehtiyojlari, ma'rifiy va madaniy saviyasi, estetik didi darajasi bilan bog'liq hodisa ekan". [3, 449]. Yan Parandovskiy fikricha "Uslub haqidagi eng dastlabki ishlardan birining muallifi tabiatshunos Byuffon bo'ldi. Uning Akademiyada so'zlagan mashhur nutqi – "Uslub haqida nutq" – badiiy prozaning nutqi sifatida qaralishi mumkin. Uning "Uslub – bu insondir" degan hikmati esa son-sanoqsiz tanqidiy asarlarning yetakchi shiori bo'lib qolgan. [4, 47-bet]. Amerikalik olimlar Uollek va Uorennlarning ta'kidlashlaricha, nemis tadqiqotchisi Vilgelm Shnayder uslubni tashkil etuvchi til unsurlarining o'ttiz uch xilini ajratib ko'rsatadilar. [5, 195-bet]. Keltirilgan misollardan kelib chiqadigan xulosa shuki, ijodkorning individual uslubini shakllantiruvchi badiiy jihatlari bir talay. Lekin uslubning ma'naviy-e'tiqodiy asoslarini aniqlab olish ham muhim ishlardan biri bizningcha. Chunki, muallifning nuqtai nazari, aniqlash va baholash tizimi, xulosalash jarayoni aynan hayotiy e'tiqod va aqidalari asosida yuzaga keladi.

"Nazmul-javohir" – Navoiy ijodiy kamoloti avj olayotgan payti yozilgan asar. [6. "Nazmul javohir", "Fan", 1999]. Sinchiklab e'tibor berilsa, ijodkor insonning faoliyatida aksariyat oila muhitining roli katta. Albatta ota-onaning ongi, dunyoqarashi, hayotiy tajribalari, tafakkur tarzi kabi ko'plab omillar borki, u yoki bu tarzda bo'lg'usi adib ma'naviy yo'lini, iqtidorini yuzaga chiqarish yo'sinini belgilaydi.

Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonlari tarkibiga qaralsa, guvohi bo'lamizki, har bir doston qat'iy qolip-andozaga ega. Unga ko'ra boshlamada albatta Alloh taolo madhi, undan keyin payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamga bag'ishlov – na't, undan so'ng so'z ta'rifi hamda homiy inson (podsho) ta'rif-u tavsiflari keladi. Demak, hazrat Navoiyning go'zal musulmon odobiga ega ekanligiga guvoh bo'lamiz. Yana bir muhim jihat shuki, adibning beistisno barcha bitiklarida islomiy-ma'rifiy ruh juda kuchli va ta'sirli tarzda namoyon bo'ladi.

Navoiy bu asarga murojaat qilgan vaqt – 1485-yil. Ya'ni dunyoga mashhur "Xamsa" tugallangan yil. Demak, adib ayni kamolot cho'qqisiga chiqqan payt bu asarga murojaat qilyapti. Bu holatda diniy bilimlarga, ilmiy ma'rifatga chanqoqlik yuqori nuqtasida bo'lgan deyish mumkin. Aslida "Nasr injulari" hazrati Aliga payg'ambarimizning nasihat, o'g'itlaridir. "Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamdan rivoyat qilingan "Men ilmning shahriman, Ali uning eshigidir", dedilar degan hadisi sharif hazrati Ali ibn Abu Tolib roziyallohu

anhuning ilmlari qay darajada ekanini yaqqol ko'rsatib turibdi" [7. "Hadis va hayot", 22-juz, 264-b]. To'rt chahoriyordardan to'rtinchisi bo'lgan hazrati Ali haqida Abdusodiq Irisov ham shu iqtibosni keltiradilar: "Payg'ambarimizning men ilmning bir shahri bo'lsam, Ali uning eshigidir, ilm o'rganmoq istaganlar uning eshigidan kirsin, degan so'zlari mashhurdir. Bu bilan ul zot Alini ko'p bilimdon odam demoqchi bo'lganlar, u kishini maqtaganlar"[8. "Chahoriyordar", 52-b]. Yana bir manbada shu faktlarga hamohang fikrlar mavjud: "Hazrati Ali karramallohu vajhahudin rivoyat qilibdurlarki, aytdilarki: "Bir kuni sarvari olam – Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallam meni huzurlariga talab qildilar. Vaqtiki, xizmatlariga bordim, menga mehribonliklar qilib aytdilar: – "Yo Ali, sen menga Muso alayhissalomning Xorun degan aksi kabi yaqinsan. Lekin Xorun kabi payg'ambar emassan. Chunki mendan so'ngra payg'ambar chiqmas. – Yo Ali, bu kun senga bir vasiyat qilurmanki, uni asrasang, dunyoda yaxshi holda bo'lg'aysan. Agar o'lsang, shahid bo'lg'aysan." Avvalgi va oxirgi ilmlar ushbu vasiyatnomada aytilgandir" [9. "Muhammad alayhissalomning vasiyatlari", 5-b].

Sukr ayladi shiddatda rajo izhori,
Har mehnat aro daf'i balo izhori.

Mol istasang et shukri sano izhori,

Kim shukr demak qilur g'ino izhori. ("Nasr ul-laoliy"da – "Boylikning izhori – shukrdir". "Nazmul-javohir", 137-bet)

Ko'rinadiki, bu ruboiyda bani inson uchun muhim jihat – shukr, va shukronalik g'oyasi ilgari surilmoqda. Allohning bergan ne'matiga shukr qilish saodat, aksi esa kufroni ne'matdir, ya'ni ne'matning shukrini qilmaslikning oqibati yomon bo'ladi. Alloh o'ta shukr qilguvchi (ya'ni ozgina yaxshi amal uchun ko'p mukofot ato etguvchi) va haliymdir. [10. Tag'obun surasi, 17-oyat]. Aslida qaysi toifada bo'lsa ham, musulmon odam shukr qilguvchi bo'lmog'i kerak. Xususan, boy yoki kambag'al bo'lganda yoki boyib ketsa ham. Chunki shukr – takabburlikdan asraydi.

Ehsonki birovga siyrati son keldi,

Ashkoli sipehr ollida oson keldi.

Ehson har necha zebi inson keldi,

Ehsonda tarab ikkinchi ehson keldi. ("Nasr ul-laoliy"da: "Kishining muloyimligi ehsondan so'ng ikkinchi sovg'adir", 140-bet).

Ruboiyda payg'arimizga xos muloyimlik haqida gap ketmoqda. Bu hislat insonni barkamollik sari olib boradi. Navoiyning xushmuomala inson bo'lganligi haqida ko'p ma'lumotlar bor. Asli bu fazilat hadislarida



zikir etilgan. “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Ey Oysha, Alloh taolo har bir ishda muloyimlikni yaxshi ko’radi”, dedilar. [11. “Ikki olam sarvari”. 326-bet]

Adl aylaki, ul xalq hayoti bo’lmish,
Xush ul kishikim, adl sifoti bo’lmish.

Ham mulk bila adl jihoti bo’lmish,

Ham adl bila mulk saboti bo’lmish. (“Nasr ul-laoliy”da: “Hukmronlik adolat bilan mustahkam bo’ladi”, 142-bet)

Aytish mumkinki, mazkur ruboiy ijtimoiy hayot uchun muhim bo’lgan qadriyat haqida, yanayam to’g’rirog’i, hayotning asosi – adolatning bor yoki yo’qligiga bog’liq. Hazrat Navoiy “Nazmul-javohir”ning boshqa bir o’rnida quyidagi hikmatni keltiradi: “Bir soatlik adolat oltmish yillik ibodatdan afzaldir”. (229-b). Yoki yana bir asarida:

Shah lutfi garchi bo’lsa ko’p qobil, topar nashv-u namo,

Bevajhdur, bu nuktaga har kimsakim diqqat tutar.

Garchi quyoshtin parvarish olam yuziga omdur,

Sahroda qumg’og’u tikan, bo’stonda sarvu gul butar. [12, “Navodir ush-shabob”, 505]. Boshqa bir o’rinda bu mavzu xususida yana bunday qit’a mavjud:

Quyoshdek shah adolat pesha qilsa,
Jahon mulkini bir damda yorutqay,
Agar zulm etsa, aqshom zulmatidek,
Hamul dam tiyralik olamni tutqay. [13. “Badoye ul-vasat”, 496]

Ko’rinadiki, Navoiy ijodida adolat hamisha markaziy o’rinlarda bo’lgan. Bu mavzuni, g’oyani deyarli har bir janrga oid namunalarda bayon etgan.

Farzand ato qullug’un chu odat qilg’ay,
Ul odat ila kasbi saodat qilg’ay.

Har kimki atog’a rioyat qilg’ay,

O’g’lidan anga bu ish siroyat qilg’ay. (“Nasr ul-laoliy”da: “Otangga rioya qil – bolangdan qaytadi”, 151-bet)

“Qur’on”da buyirilgan – otaga rioyat qilish haqida bitilgan ruboiy. Navoiy ham dinimiz ahkomlariga murojaat qiladi.

Kim olim esa, nuktada barhaq de oni,

Gar bazm tuzar, bihishti mutlaq de oni.

Har kimsaki, yo’q ilm anga ahmaq de oni,

Majlisdaki ilm bo’lsa, uchmaq de oni. (“Nasr ul-laoliy”da: “Ilm majlisi – jannat bog’iga o’xshaydi”, 173-bet)

Ko'ramizki, insoniyat hayoti va kamoloti uchun yana bir muhim mavzu ko'tarilmoqda. Qachonki olim-u ulamolar majlis qilar ekanlar, unda faqat ilm-u ma'rifat haqida so'z boradi, kerakli saboqlar chiqariladi. Bunday yig'inlarda inson va jamiyat kamolotiga xizmat qiluvchi g'oya va fikrlar o'rta tashlanadi. Zahiriddin Muhammad Bobur ta'kidlaydiki: "Sulton Husayn mirzoning zamoni ajab zamona edi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxis Hiriy shahri mamlu edi. Har kishiningkim, bir ishga mashg'ullig'i bor edi, himmati va g'arazi ul erdikim, ul ishni kamolga tegurgay". [14. 159]. Bobur Hirot va Husayn Mirzo zamonini ta'riflar ekan, podsho va Alisher Navoiy boshchiligidagi nafis ash'or majlislarini ta'kidlab o'tadi. Navoiyning ilm va san'at ahliga g'amxo'rliqi haqida ko'p misollar keltirish mumkin. Yuqoridagi ruboiydagi fikrlar ham ulug' shoirning hayotiy a'mollariga mosdir.

Xulosa. Yakunda qayd etish mumkinki, Navoiy

ilgari surgan har bir g'oya, fikr, qadriyat uning shaxsiy hayoti va ijodi bilan vobasta.

1. Nizomiddin Mir Alisher Navoiy butun ijodi davomida dini islom ahkomlariga rioya etgan, islomiy e'tiqodda bardavom bo'lganlar.

2. Alisher Navoiyning barcha faoliyati, xususan, o'n olti janrda ijod qilgan barcha asarlarida islomiy ma'rifat barq uradi.

3. Alisher Navoiy asarlari *uslubining asosi* ko'rib o'tganimizdek, islom nuri va ma'naviyati bilan sug'orilgan, barcha asarlari chin e'tiqod bois voqe bo'lgan.

4. Uslubining barcha qirralari, badiiy jihatlarini birlashtirib, belgilab keluvchi asosi bu shubhasiz – islom e'tiqodi. Barcha poetik xulosa va umumlashmalar shu asosda dunyoga kelgan.

5. Demak, xulosa qilish mumkinki, islomiy e'tiqod – Alisher Navoiy ijodining beqiyos shuhrati, barhayotligini ta'minlagan asos vazifasini o'tagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик. Иккинчи том. XV асрнинг иккинчи ярми. – Т.: "Фан". 1977. 460-б.
2. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Т.: "Ўқитувчи" нашриёти, 1986. 408- б.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Т.: Akademnashr. 2018. 480-b.
4. Ян Парандовский. "Сўз кимёси". Бадиа-эссе. Таржимонлар: О. Шарафиддинов ва М. Акбаров. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. 464-б.
5. Уоллек, Уоррен. Теория литературы. Перевод с английского. – М.: Прогресс. 1978. – 324 с.
6. Навоий Алишер. МАТ. XV жилд. "Хамсат ул-мутахаййирин", "Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер", "Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад", "Назм ул-жавоҳир". – Т.: Фан, 1999. 236-б.
7. Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва ҳаёт. 22 жуз. – Т.: "Hilol-Nashr". 2022. 336-б.
8. Ирисов Абдусодиқ. Чаҳорёрлар. – Т.: "Фан", 1993. 64-б.
9. Муҳаммад алайҳиссалом васиятлари. Нашрга тайёрловчилар Сайфиддин Рафиддин ва Рустам Сафо. – Т.: "Ўзбекистон". 1992. 24-б.
10. "Қуръони Карим". Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Т.: "Чўлпон" нашриёти. 1992. 496-б.
11. Саййид Муҳаммад Ҳасаний. "Икки олам сарвари". – Т.: "Hilol-Nashr". 2022. 368-б.
12. Навоий Алишер. МАТ. IV жилд. Хазойин ул-маоний. Наводир уш-шабоб. – Т.: Фан, 1989. 560-б.
13. Навоий Алишер. МАТ. V жилд. Хазойин ул-маоний. Бадойиъ ул -васат. – Т.: Фан, 1990. – 544 б.
14. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Т.: Юлдузча, 1989. 368-б.



TILSHUNOSLIK



Zarnigor SOBIROVA,
Buxoro davlat universiteti
Fakultetlararo chet tillar kafedrasida dotsenti, PhD

DIALEKTAL LEKSIKA TAHLILI UCHUN OG‘ZAKI KORPUS MATERIALLARINING TANLANISH TAMOYILLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada dialektal leksika tahlili uchun og‘zaki korpus materiallarini tanlash tamoyillari yoritilgan. Tadqiqotda spokencorpus.org, The Movie Corpus, Helsinki Corpus of British English Dialects kabi manbalarning afzalliklari va tahliliy imkoniyatlari solishtiriladi. Shuningdek, o‘zbek tilidagi Alisher Navoiy korpusi hamda O‘zbek tilining ta’limiy korpusi materiallari chegaralangan leksika, xususan, arxaizm, istorizm, terminologiya va dialektizm tahlilida qanday qo‘llanishi mumkinligi tahlil qilingan. Maqolada ingliz va o‘zbek tillarida parallel korpus yaratish zaruriyati ham nazariy asosda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: dialektal leksika, og‘zaki korpus, lingvistik razmetka, Alisher Navoiy korpusi, o‘zbek tilining ta’limiy korpusi, parallel korpus, arxaizm, istorizm.

Аннотация: в статье рассматриваются принципы выбора устных корпусных материалов для анализа диалектной лексики. Сопоставляются аналитические возможности таких источников, как spokencorpus.org, The Movie Corpus и Helsinki Corpus of British English Dialects. Также анализируются возможности использования узбекских корпусов – Корпуса Алишера Навои и Учебного корпуса узбекского языка – при исследовании ограниченной лексики, в частности архаизмов, историзмов, терминологической и диалектной лексики. Кроме того, в статье обоснована необходимость создания параллельного корпуса английского и узбекского языков.

Ключевые слова: диалектная лексика, устный корпус, лингвистическая разметка, Корпус Алишера Навои, Учебный корпус узбекского языка, параллельный корпус, архаизмы, историзмы.

Annotation: this article discusses the principles of selecting spoken corpus materials for the analysis of dialectal vocabulary. It compares the analytical features of resources such as spokencorpus.org, The Movie Corpus, and the Helsinki Corpus of British English Dialects. The paper also examines how Uzbek corpora – the Alisher Navoi Corpus and the Educational Corpus of the Uzbek Language – can be used for studying restricted vocabulary, particularly archaisms, historicisms, terminology, and dialectisms. Furthermore, the necessity of creating a parallel corpus of English and Uzbek languages is theoretically justified.

Key words: dialectal vocabulary, spoken corpus, linguistic annotation, Alisher Navoi Corpus, Educational Corpus of the Uzbek Language, parallel corpus, archaism, historicism.

Dialektal leksika tahlili uchun og‘zaki korpus materiallari eng munosib bazaviy manba bo‘la oladi. Bunday og‘zaki korpuslarga spokencorpus.org, The movie corpus, Helsinki Corpus of British English dialects

kabi manbalarni misol qilish mumkin. Bu manbalar leksik qamrovi, concordance (matn konteksti) miqdoriga qarab bir-biridan farqlanadi. Quyida bir dialektal leksika misolida ikki korpus materialini qiyoslaymiz:

Results

Results for query:

gals

[Back to search](#)

There are 1 hits.

Displaying hits 1 to 1

Hit	Audio	Left	Search Right	File name	Transcriber	Dialect	Year of birth	Socioeconomic class	Gender
-----	-------	------	--------------	-----------	-------------	---------	---------------	---------------------	--------


1		0:01 / 0:01	▶	Love those gals	MyBoyfriends Yan Lee	West	2000	3_Middle	Female
---	--	-------------	---	-----------------	----------------------	------	------	----------	--------

www.spokencorpus.org manbasida keltirilgan *gals* dialektal leksemasi birgina misol kontekstida yoritiladi. Ushbu dialektal leksikaning qo'llanish doirasi, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy sinfi o'rta tabaqa ekanligi ta'kidlanadi. So'z Amerika g'arbiy lahjasida uchrashi, 2000-yillarda yuzaga kelgani ham ko'rsatib o'tilgan. Demak, bu corpus dialektizmning paydo bo'lish davri, qo'llanish doirasi kabi ekstralingvistik omillarga urg'u beradi. Bu lug'atda hech qanday lingvistik razmetkalar keltirilmaydi. Ayni shu so'zning The movie corpus manbasidagi misollari 616tani tashkil etadi. Har bir matn elementi lingvistik razmetkalanagan va so'zning qo'llanish davri o'tgan asrga borib taqaladi. Umuman, kino sanoatning rivoji o'tgan asr yarmidan jadallashganini inobatga olsak, bu dialektizm bundan ancha muqaddam ham og'zaki nutqda faol qo'llanganini anglash mumkin.

uchun ham ko'p vaqt kerak. Bu masalalarni bajarishni avomatik mexanizmlarga to'laqonli ishonib bo'lmaydi. Muayyan masalani tadqiq etishda ham korpusni misollar resursi sifatida ko'zdan kechirarkanmiz, bazaning qay darajada tizmiy teglangani, uslub, davr klassifikatsiyasi izchilligiga ahamiyat berish lozim.

Lingvistik tadqiqotlar uchun misollar bazasi o'laroq muayyan korpusni tanlash tadqiqotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqishni talab etadi. Eng yirik korpus manbalari sifatida British National Corpus, Corpus of Contemporary American English va Русский национальный корпус kabi resurslar sanab o'tiladi. Chegaralangan leksika tahlilida biz bir emas, bir necha korpus manbalariga asoslanishimiz kerak. Ingliz tilida korpus turlarining ko'pligi tanlov imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq o'zbek tilida korpus

1-rasm. The movie corpus manbasida dialektizm qaydi



english-corpora.org/movies/

The Movie Corpus

SEARCH FREQUENCY CONTEXT

FIND SAMPLE: 100 200 500
PAGE: 1 / 7

+CONTEXT			
1	1950	US/CA	Annie Get Your Gun #can't get a man with a gun " The gals with umbrellas are always out with fellers " In the rain or the blazing
2	1950	US/CA	Annie Get Your Gun #the blazing sun " But a man never trifles with gals who carry rifles " Oh, you can't get a man with a
3	1949	US/CA	Ma and Pa Kettle #two gents swing with an elbow swing # The opposite gals with a pigeon wing # Same two gents with the same old thing,
4	1949	US/CA	On the Town #I'm kind of relieved. You know these famous gals , so stuck on themselves. Who needs' em? Now that I
5	1949	US/CA	Take Me Out to the B... #into oaks " You got to see the fellas and gals " And as the sweetest, extra special bunch of merchandise " The all-American
6	1948	US/CA	A Date with Judy #not hay - I'm a real hillbilly - The gals go silly A willy-nilly when I roll my eyes - You're a real
7	1948	US/CA	The Paleface #the city where living's pretty # # And the gals wear finery # # East is east and west is west # # And
8	1948	US/CA	The Paleface #cactus hurts my toes # # Let's vamoose where gals keep usin' # # Those silks and satins and linen that shows #
9	1948	US/CA	The Paleface #Wait a minute. Don't fight over me, gals . I'll be around a while. Good. Take it slow.
10	1948	US/CA	The Pirate #jewels to spare When he'd make his daily rounds Gals would trail him Like a pack of hounds Every night he'd have a
11	1948	US/CA	Road House #. - Yeah, she's independent. But all gals want the same thing. Pete- a guy to take care of them.
12	1948	US/CA	So Dear to My Heart #up above And they'll be gettin' their best gals for pettin' in the Tunnel of Love hey-dee-oh-ay Come and throw your troubles
13	1947	US/CA	Angel and the Badman #s Quirt Evans he is quite a man with the gals It says he closed the eyes of many a man... would
14	1947	US/CA	Deep Valley #astonishing what a little sprucing up will do for these gals . You'd never take Libby to be real pretty, would you?
15	1947	US/CA	Deep Valley #miss? I don't get much fun. Pretty gals and gambling - no more of that. Course I take a drink now
16	1947	US/CA	Good News #Haven't you seen her? - I let the gals come to see me. - Tommy, how do you do it?
17	1947	US/CA	It Happened on Fifth... #Trudy, Trudy, say hello to Margie. You gals can talk over old times. I'll be back in a minute.
18	1947	US/CA	Where There's Life #in Barovia like you? Chicks? You know, gals . Oh. No, only a few of us are soldiers. How

Anglashilganidek, yuqoridagi korpus misollar soniga ko'ra yaqqol ustunlikka ega. Shunday ekan dialektal leksika tadqiqida ushbu keng ko'lamli korpusga tayanish maqsadga muvofiq. Bu manbada so'zlarning nutqda qo'llanishi badiiy filmlardagi audio parchalar bilan illyustratsiyalangan. Demak, ushbu korpus tahlili asosida dialektal leksikaning fonetik jihatlari ham yuzaga chiqadi.

Matnlarni elektronlashtirish jadal sur'atlarda amalga oshirilib, bugun ingliz tili elektron matn baza hajmi bo'yicha mutlaq yetakchiga aylangan. Mana shu tayyor matnlar millionlab so'zdan iborat yirik korpuslarni yaratishga asos bo'ldi. Biroq matnlarni saralash, ularni tizimli teglash hanz katta kuch talab etadi. Korpus matnlarini mavzu, uslub va hajmiga ko'ra muvozanatlashtirish, ishonchli manbalarni saralash

sifatida tizimlashtirilgan yirik matn bazalari – yagona Milliy korpus hanz yaratilmagan. Mamlakatning milliy korpus yaratishda jadal harakatlanmasligi iqtisodiy, texnologik, amaliy, ta'limiy mushkulotlar bilan bog'liq. Natijada korpus matnlari tahliliga bag'ishlangan qiyosiy tadqiqotlarda ingliz yoki rus tiliga ko'proq og'ish yuz beradi. Biroq o'zbek tilining milliy korpusini yaratish borasida nazariy konseptlar ishlab chiqilmoqda. Bu borada tilshunos olimlar B.Mengliyev, J.Djumabayeva, Sh.Shahobiddinova, Z.Xolmanova, M.Abjalova, N.Abduraxmonova, L.Raupova, Sh.Hamroyeva, G.Toirova, G.Ikromova, G.Ergashevalar tadqiqotlar olib borishmoqda. O'zbek milliy korpusi nazariy asoslari, konseptologiyasi B.Mengliyev rahbarligidagi Amaliy tilshunoslik maktabi olimlari tomonidan ishlab

chiqilmoqda. O'zbek tilidagi matnlarning elektronlashuvi ham jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Yirik axborot agentliklari asosan, ijtimoiy tarmoq va boshqa onlayn platformalarda ma'lumot uzatadi, shuningdek *asaxiy, ziyoz* kabi platformalar badiiy va boshqa tur adabiyotlarning elektron shakllarini ham taqdim etmoqda. Buning barchasi istiqbolda milliy korpus uchun material bo'ladi.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga jadal integratsiyasi tilshunoslikda ham o'z aksini topmoqda. Xususan, o'zbek amaliy tilshunosligi uchun parallel korpusni yaratish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Ingliz va o'zbek tillarida parallel korpus yaratish jarayonida matnlarni mavzulashtirish, ularni me'yorga muvofiq tartiblash, hamda matn komponentlarini teglash kerak. Morfologik teglarni uch turga ajratish mumkin:

1. Leksemalarni tokenlash – nutq birliklarini alohida grammatik ma'nolarga ajratish jarayoni;
2. So'zlarni lemmalash – bunda so'zning dastlabki shakli bo'lgan lug'atdagi ko'rinishi beriladi.
3. Stemming – bunda so'zning o'zak qismi ajratib ko'rsatiladi. O'zakka qo'shimcha qo'shilganda tovush o'zgarishlari ro'y berishi mumkinligini inobatga olish zarur.

O'zbek tilidagi chegaralangan leksikani tahlil qilish uchun qanday korpus manbalariga murojaat qilish mumkinligi haqida quyida fikr yuritimiz. Ma'lumki, chegaralangan leksika plastining yirik ulushini davriy cheklangan tarixiy/arxaik leksika tashkil etadi. Ushbu guruhni tahlil qilishda tarixiy, eski matnlar jamlangan korpuslarga murojaat qilish maqsadga muvofiq. O'zbek mumtoz adabiyoti yirik adabiy va badiiy merosni tashkil qiladi. Hozirda ushbu merosni saqlab qolish, ommalashtirish hamda tadqiq etish masalalariga ulkan ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, bir muallif asarlari konteksidan hosil qilingan korpuslar tarixiy yoki eskirgan so'zlar tahlili uchun mos keladi. Shunday manbalarga Alisher Navoiy korpusini misol qila olamiz. Ushbu korpusda matn komponentlari quyidagicha beriladi:

Qidiruvdan keyin chiqqan dastlabki interfeysda *guhar* so'zining qaysi badiiy matnlarda necha bor qo'llangani haqida ma'lumot berilgan. Keyingi oynada bevosita g'azalning o'zi berilgan, misol kontekstidagi guhar so'zi semantik izohlanadi – ya'ni buni semantik razmetka deyish mumkin. Ushbu korpusda lingvistik razmetkaning boshqa turlari uchramaydi.

Biroq soʻz qoʻllangan gʻazal haqida batafsil maʼlumot keltiriladi. Bu maʼlumot asosida *gʻuhar* soʻzi qaysi janrda qoʻllanishi, qaysi davrda qoʻllangani, qanday uslubga mosligi haqida qisman tasavvur hosil qilish mumkin:

Asar(devon) nomi	"Badoye' ul-vasat
Muallifi	Alisher Navoiy
Muallif jinsi	Erkak
Muallifning tugʻilgan yili	1441-yil, 9-fevral
Muallifning vafot etgan yili	1501-yil, 3-yanvar
Yaratilgan vaqti	1492-1498
Nashr yili(vaqti)	2011
Nashr parametri	Adadi: 100000
Nashriyoti	Tamaddun
Qoʻllanish sohasi	adabiyotshunoslik
Adabiy turi	lirik
Janri	gʻazal
Gʻazal raqami	97
Matn tipi	orifona
Uslubi	badiiy
Auditoriya yoshi	16+
Auditoriyaning salohiyat darajasi	keng_omma uchun
Ichki korpus turi	Alisher Navoiy mualliflik korpusi
Soʻz(shakl) miqdori	250 ta
Teglovchi	N. Gʻulomova

Alisher Navoiy korpusi oʻzbek tilida mavjud mumtoz adabiyot jamlanmalarining eng yirik manbasi hisoblanadi. Unda Navoiyning "Badoye' ul-vasat" devonidagi 21226 ta izohtalab soʻz, 5 mingdan ortiq arxaizm, 170 istorizm, 43 ta maqol, 30 ta ibora, 236 ta talmeh sanʼatiga oid soʻzlar, 164 ta zid maʼnoli soʻzlar (tazod), 806 ta tanosub, 124 ta tashbih sheʼriy sanʼatiga oid leksik birliklar teglangan. Shu leksemalar sirasida bizning tadqiq obyektimiz oʻlaroq 5 mingdan ortiq arxaizm, 170 istorizmni ajratib olish lozim. Anglashilganidek, arxaizm va istorizmlarning miqdoriga koʻra ushbu korpus oʻzbek tilidagi chegaralangan tarixiy leksikani oʻrganish uchun yetarli darajada keng qamrovli boʻladi.

Oʻzbek tilidagi terminologik leksika tadqiqi uchun misollar bazasini <https://uzschoolcorpara.uz/> - oʻzbek tilining taʼlimiy korpusidan topish mumkin. Bu korpusda umumisteʼmol soʻzlari bilan birga terminologiya ham berilgan. Quyida ayrim terminlarning taʼlimiy korpusdagi teglanishini koʻzdan kechiramiz:

Korpus


Soʻz yoki soʻz birikmasi

Uslubiy xoslanishi: uslubiy betaraf.

194 ta yozuvdan 20 tasi koʻrsatilmoqda!

... nCoV) atamasi bu ilgari nafaqat olimlarimiz, balki	hujayralarimiz	uchratmagan virusni anglatadi.
– saraton	hujayralarining	koʻpayib ketmasligini taʼminlaydi;
... tsitokin boʻroni bilan bogʻlashadi, u immunitet	hujayralarining	nazoratsiz faollashuvini qoʻzgʻatadigan...
... koʻra, virus sirtidagi retseptorlari tufayli oʻpka	hujayralarining	ayrim turlariga kirib, ularni zararlashi mumkin.
... toʻxtagan vaqtdan boshlanib, bosh miya poʻstlogʻi	hujayralarining	nobud boʻlishigacha davom etadi. Bu davr...
... virus yuqaveradi, chunki u yashashi uchun bizning	hujayralarimiz	kerak», – dedi u. Uning taxminiga koʻra, pandemiya...
... olimlar bu kurashda ishtirok etadigan immun	hujayralarining	toʻrtta turini aniqlashdi.
... koʻrfazida yashaydigan dengiz shimgichlari (koʻp	hujayrali	dengiz hayvonlari boʻlib, suv ostiga birikkan holda...
Shokoladda miya	hujayralarining	faolligi uchun javob beradigan flavonoidlar bor...

Korpusda hujayra soʻzining uslubiy xoslanishi neytral ekanligi taʼkidlanadi, uning turli soʻzshakllari voqelangan 194 misol toʻplangan. Misolning tafsiloti esa quyidagicha:



Matn diskursidan soʻzning lugʻaviy maʼnosi hamda qaysi fan tarmogʻida qoʻllanishi haqida maʼlumot shakllanadi. Ushbu korpus tarkibida leksemalarning izohlari, omonim, sinonim, antonim, paronimlari keltirilgan leksikografik boʻlim ham mavjud. Shu bilan birga foydalanuvchilar leksemaga oid qomusiy maʼlumotlar, iboralar hamda uning darajalanish qatori, uslubiy xoslanishi, milliy boʻyoqdorlikka egaligi yoki bunday boʻyoqdorligi yoʻqligi haqida maʼlumot toʻplash mumkin. Ushbu taʼlimiy korpus shu jihatlari bilan terminologiya tadqiqi uchun eng munosib misollar bazasi boʻla oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurakhmonova N. Kompyuter lingvistikasi (darslik) / Globe edit publishing, 2020, 395-b.
2. Атабоев Н. Корпус тилшунослиги шаклланишининг диахроник тадқиқи // Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университетининг Ахборот-номаси. – Нукус. №4/ 2018. – Б. 147-150;
3. Hunston, S. Corpus linguistics, in Brown, Keith (ed.), Encyclopedia of Language & Linguistics (Second Edition), – Oxford: Elsevier, pp. 234–248, 2006
4. Кривнова О. Области применения речевых корпусов и опыт их разработки // Тр. XVIII Сессии Российского акустического общества РАО. – Таганрог, 2006.
5. Козлова Наталья Валерьевна Лингвистические корпуса: определение основных понятий и типология // Вестник НГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2013. №1
6. Nivre J. Towards a Universal Grammar for Natural Language Processing // Computational Linguistics and Intelligent Text Processing, 2015, pp. 3–16.
7. Ронжин А., Карпов А., Лобанов Б., Цирульник Л., Йокиш О. Фонетико-морфологическая разметка речевых корпусов для распознавания и синтеза русской речи // Информационно-управляющие системы. 2006. №6.
8. Зарипова Д., Лукашевич Н. Автоматизированное создание семантически размеченного корпуса словосочетаний // Litera. 2023. №11



Xasan GAFFOROV,
 Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti
 "Xorijiy tillar" kafedrasida
 vazifa bajaruvchi dotsenti, PhD
 gafforovxasan@katdpi.uz

GENDER LINGVISTIKASIDA KONFLIKT DISKURSINI O'RGANISH METODLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada gender lingvistikasida konflikt diskursini o'rganishning metodlararo yondashuvlari tahlil qilinadi. Konflikt diskursi inson muloqotining lingvistik, psixologik, ijtimoiy va kognitiv jihatlarini o'zida jamlagan murakkab fenomen sifatida ko'rib chiqiladi. Metodlararo tahlil orqali diskurs tahlili, pragmatik, kognitiv-lingvistik, psixolingvistik, sotsiopragmatik va gender-semantik yondashuvlar uyg'unligi muhokama qilinadi. Shuningdek, empirik kuzatuvlar va korpus lingvistikasi yordamida erkak va ayolning konfliktidagi nutqiy strategiyalari, so'z tanlovi va ijtimoiy rollari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari gender stereotiplarining til orqali shakllanishi va mustahkamlanishini, shuningdek, konflikt muloqotining semantik, ijtimoiy va psixologik qatlamlarini ochib beradi. Maqola metodlararo integratsiya orqali konflikt diskursini chuqur anglash va tahlil qilishning ilmiy asoslangan modelini taqdim etadi.

Kalit so'zlar: *gender lingvistika, konflikt diskursi, metodlararo tahlil, diskurs tahlili, pragmatika, kognitiv lingvistika, psixolingvistik, sotsiopragmatika, gender-semantika, nutq strategiyalari, ijtimoiy stereotiplar.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются межметодические подходы к изучению конфликтного дискурса в гендерной лингвистике. Конфликтный дискурс представлен как сложное явление, объединяющее лингвистические, психологические, социальные и когнитивные аспекты человеческого общения. В ходе анализа обсуждается интеграция таких методов, как дискурсивный, прагматический, когнитивно-лингвистический, психолингвистический, социопрагматический и гендерно-семантический. На основе эмпирических наблюдений и корпусной лингвистики исследуются речевые стратегии мужчин и женщин, их выбор лексических средств и социальных ролей в конфликтных ситуациях. Результаты исследования показывают, каким образом через язык формируются и закрепляются гендерные стереотипы, а также раскрываются семантические, социальные и психологические уровни конфликтного общения. Статья предлагает научно обоснованную модель глубокого анализа конфликтного дискурса на основе межметодической интеграции.

Ключевые слова: *гендерная лингвистика, конфликтный дискурс, межметодический анализ, дискурс-анализ, прагматика, когнитивная лингвистика, психолингвистика, социопрагматика, гендерная семантика, речевые стратегии, социальные стереотипы.*

Annotation: this article examines intermethodological approaches to the study of conflict discourse within gender linguistics. Conflict discourse is viewed as a complex phenomenon that combines linguistic, psychological, social, and cognitive aspects of human communication. The analysis focuses on the integration of various methods, including discourse analysis, pragmatics, cognitive linguistics, psycholinguistics, sociopragmatics, and gender semantics. Using empirical observation and corpus linguistics, the study explores male and female speech strategies, lexical choices, and social roles in conflict situations. The findings reveal how gender stereotypes are formed and reinforced through language, while also uncovering the semantic, social, and psychological layers of conflict communication. The article presents a scientifically grounded model for a comprehensive analysis of conflict discourse based on intermethodological integration.

Key words: *gender linguistics, conflict discourse, intermethodological analysis, discourse analysis, pragmatics, cognitive linguistics, psycholinguistics, sociopragmatics, gender semantics, speech strategies, social stereotypes.*

Gender lingvistikasida konflikt diskursini o'rganish – zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu yo'nalish nutqdagi ziddiyat, qarama-qarshi pozitsiyalar, ijtimoiy rollar va jinsiy stereotiplarning til orqali qanday ifodalanishini o'rganadi. Konflikt diskursi inson muloqotining eng keskin,

emotsional va ijtimoiy jihatdan sezgir shakli bo'lib, unda nafaqat til vositalari, balki psixologik, sotsiologik va madaniy omillar ham faol rol o'ynaydi. Shuning uchun gender lingvistikasida konflikt diskursini o'rganish kompleks, ko'p darajali va interdisiplinar yondashuvni talab qiladi.

1. Diskurs-analitik metod

Ziddiyatli holatlar nutqini tahlil qilishda eng asosiy yondashuvlardan biri bu diskurs tahlili (discourse analysis) hisoblanadi. Ushbu metod orqali tadqiqotchi muloqot ishtirokchilarining nutqiy strategiyalari, semantik va pragmatik niyatlari, hamda ularning ijtimoiy-psixologik maqomlari tahlil qilinadi. Gender jihatdan, erkaklar va ayollar nutqidagi agressivlik darajasi, bahslashish uslublari, javob reaksiyalari va kommunikativ nazorat darajasi aniqlanadi. Masalan, erkaklarning nutqida ko'proq dominant, buyruq ohangidagi strukturalar, ayollarda esa ko'proq yumshatish (mitigation), diplomatik ifodalar va evfemizmlar uchrashi kuzatiladi.

2. Pragmatik tahlil metodi

Pragmatik tahlil nutqiy vaziyatda ma'noni kontekstda ochib beradi. Konflikt diskursida bu yondashuv orqali ishtirokchilarning illokutsion (niyatga yo'naltirilgan) va perlokutsion (ta'sirga yo'naltirilgan) aktlari tahlil qilinadi. Masalan, erkak shaxs o'z fikrini qat'iy shaklda bildirish orqali hokimlik pozitsiyasini mustahkamlasa, ayol shaxs ko'proq so'roq, tasdiqlovchi yoki yumshatuvchi shakllardan foydalanib, ijtimoiy muvozanatni saqlashga harakat qiladi. Pragmatik tahlil orqali shuningdek, gender stereotiplarining muloqotda qanday pragmatik funksiyalarni bajarishi aniqlanadi: masalan, "ayol bo'lib" yoki "erkak bo'lib" kabi gender markyorlari ijtimoiy baholash va ziddiyatni kuchaytirish vositasi sifatida ishlatiladi.

3. Kognitiv-lingvistik metod

Kognitiv yondashuv konflikt diskursini inson ongidagi konseptual tizim bilan bog'liq holda o'rganadi. Har bir jins vakili konfliktni idrok etish, uni tahlil qilish va unga javob berishda o'ziga xos kognitiv modellarni ishga soladi. Misol uchun, "adolat", "g'alaba", "ayb", "hurmat" kabi konseptlar erkak va ayol ongida turlicha ma'noga ega bo'lishi mumkin. Shu sababli, ziddiyatli vaziyatlarda bu konseptlarning verbal ifodalanish usullari ham farq qiladi. Kognitiv metod yordamida gender asosidagi qaror qabul qilish jarayonlari, nutqiy metaforalar va mantiqiy bog'lanishlar tahlil qilinadi.

4. Psixolingvistik yondashuv

Ziddiyatli diskursni o'rganishda psixolingvistika muhim rol o'ynaydi, chunki ziddiyatli muloqot inson hissiyotlari, stress holati va nutqiy reaksiya mexanizmlari bilan chambarchas bog'liq. Tadqiqotlarda erkak va ayollar konflikt holatida so'z tanlovi, intonatsiya, pauza, ovoz balandligi kabi psixolingvistik parametrlar orqali farqlanadi. Masalan, ayollar ko'proq hissiy rang-baranglikka ega so'zlarni tanlaydilar, erkaklar esa qisqa va keskin konstruksiyalarni afzal ko'radilar. Bu holat nutq orqali gender rollarning psixologik mohiyatini ochib beradi.

5. Sotsiopragmatik metod

Sotsiopragmatik yondashuv ijtimoiy kontekstni hisobga olib, konflikt diskursida jinsiy rollar qanday ijtimoiy me'yorlar va kutishlar asosida shakllanishini tahlil qiladi. Bu metod yordamida "jamoaviy ayollik", "hokim erkaklik" kabi sotsiokultural konstruktlar tilda qanday ifodalanishi aniqlanadi. Ayniqsa, oilaviy, ish joyidagi yoki siyosiy muloqotlardagi ziddiyatlarda jinsiy maqomning tilga ta'siri o'rganiladi. O'zbek madaniyatida masalan, "erkak so'zi oxirgi so'z" yoki "ayol sabrli bo'lishi kerak" kabi ijtimoiy qoidalar konflikt diskursining sotsiopragmatik strukturasini belgilab beradi.

Gender lingvistikasida konflikt diskursini o'rganish metodlararo yondashuvni talab etadi, chunki bu jarayon inson muloqotining ijtimoiy, psixologik, kognitiv va lingvistik qatlamlarini birlashtiradi. Konflikt holatlarida nutq nafaqat ma'lumot yetkazish vositasi, balki ijtimoiy kuch, hissiy ta'sir va madaniy qadriyatlar ifodachisiga aylanadi. Shu sababli, uni faqat bitta metod bilan tahlil qilish yetarli emas – turli ilmiy yondashuvlarning integratsiyasi zarur bo'ladi. Diskurs tahlili va pragmatik tahlilning uyg'unligi orqali muloqot ishtirokchilarining replikalari, ularning kommunikativ maqsadlari va ijtimoiy rollari bir butunlikda o'rganiladi. Diskurs tahlili konfliktli suhbatning tuzilishini, mantiqiy ketma-ketligini va roldagi o'zgarishlarni ochib bersa, pragmatik tahlil har bir gapdagi niyat va ta'sir mexanizmini tahlil qiladi. Bu metodlar sintezi erkak va ayolning bahs jarayonidagi strategiyalarini aniqlash, hokimlik yoki murosaga moyillik darajasini ko'rsatish imkonini beradi.

Kognitiv-lingvistik va psixolingvistik yondashuvlar birgalikda qo'llanilganda, konflikt diskursining inson ongida qanday shakllanishi, hissiy ta'sirlar orqali qanday ifodalanishi oydinlashadi. Kognitiv tahlil orqali "adolat", "ayb", "hurmat" kabi konseptlarning jinsiy idrokidagi farqlari aniqlansa, psixolingvistik tahlil bu konseptlarning real nutqda qanday emotsional tus olishini ochib beradi. Masalan, erkaklar konfliktni g'alaba va nazorat bilan bog'lashsa, ayollar uni murosaga erishish jarayoni sifatida qabul qiladilar. Shu tarzda, bu ikki metod uyg'unlashganda konfliktning kognitiv-emotsional modeli hosil bo'ladi.

Sotsiopragmatik va gender-semantik tahlilning birgalikdagi qo'llanilishi tildagi ijtimoiy qadriyatlar va jinsiy stereotiplarning o'zaro bog'liqligini ochib beradi. Sotsiopragmatika jinsiy rollarning madaniy kontekstda qanday shakllanishini tahlil qilsa, gender-semantika bu rollarning leksik va semantik ifodasini belgilaydi. O'zbek madaniyatida "erkaklik" tushunchasi kuch, javobgarlik va qat'iyat bilan, "ayollik" esa sabr, sokinlik va shirinso'zlik bilan bog'lanishi bunga yaqqol misoldir. Shu tarzda, til birliklari orqali ijtimoiy stereotiplar mustahkamlanadi.

Diskurs tahlili va empirik metodlarning uyg'unlashuvi konfliktli vaziyatlarni nazariy tahlildan amaliy kuzatuvga olib o'tadi. Real suhbatlardan olingan nutqiy namunalarda asosida erkak va ayolning bahs jarayonidagi so'z tanlovi, intonatsiya, uzilishlar soni yoki muloqotni yakunlash uslubi tahlil qilinadi. Bu esa nazariy gipotezalarni empirik dalillar bilan mustahkamlaydi. Shu bilan birga, zamonaviy korpus lingvistikasi metodlari ham gender tahliliga keng imkoniyat yaratadi. Katta hajmdagi matnlarda erkak va ayollar tomonidan ishlatilgan agressiv yoki yumshatuvchi so'zlarning chastotasi aniqlanib, ular orqali genderni xos kommunikativ model quriladi.

Kognitiv, sotsiopragmatik va diskursiv tahlilning kompleks sintezi metodlararo integratsiyaning eng samarali shakllaridan biridir. Bu yondashuv konflikt diskursini mazmuniy, ijtimoiy va psixologik jihatdan bir vaqtning o'zida o'rganish imkonini beradi. Kognitiv jihatdan konseptual asoslar, sotsiopragmatik nuqtai nazardan ijtimoiy rollar va til orqali kuch munosabatlari, diskursiv jihatdan esa nutqiy tuzilma


va semantik o'zgarishlar bir tizimda ko'rib chiqiladi. Natijada, konflikt holati uch o'lchovli modelda – semantik, ijtimoiy va emotsional qirralari bilan tahlil qilinadi.


Shuningdek, kross-madaniy va psixolingvistik yondashuvlarning uyg'unligi orqali turli madaniyatlarda erkak va ayolning konfliktga munosabati taqqoslanadi. Masalan, o'zbek ayoli ziddiyatda sukut yoki yumshatuvchi strategiyalarni tanlasa, g'arb ayoli o'z fikrini ochiq himoya qilishni afzal ko'radi. Psixolingvistik jihatdan bu strategiyalar miyada stress, intonatsiya va emotsional reaksiya orqali namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, gender lingvistikasida konflikt diskursini o'rganish metodlari nutq, ijtimoiy munosabat va madaniyat o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni ochib beradi. Ushbu metodlar orqali nafaqat erkak va ayol nutqidagi farqlar, balki ularning muloqotdagi psixologik va sotsiokultural roli ham aniqlanadi. Bu esa zamonaviy jamiyatda tenglik, muloqot madaniyati va ziddiyatlarni konstruktiv hal etish mexanizmlarini rivojlantirish uchun ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bgajnakov B.X. Cherkeslarning aloqa etnografiyasiga oid insholar. – Nalchik, 1983. 235-b.
2. Eckert, P., & McConnell-Ginet, S. Language and Gender. – Cambridge: Cambridge University Press. 2003. – P.783.
3. Cameron D. Feminism and Linguistic Theory. – London: Macmillan. 1992. – P.48
4. Gordon L. Gender and Higher Education in in the Progressive Era. – New Haven, London: Yale University Press, 1990. – 288 p.
5. Holmes J. An Introduction to Sociolinguistics. – London: Routledge. 2008
6. Coates J. Women, Men and Language: A Sociolinguistic Account of Gender Differences in Language. – London: Routledge. 2013. – P.69
7. Sunderland J. Language and Gender: An Advanced Resource Book. – London: Routledge. 2006. – P.93





Dilnoza ZIYOYEVA,
Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti
O'zbek tili va adabiyoti, rus va ingliz tili kafedrası o'qituvchisi, PhD
ziyoyeva.dilnoza@bsmi.uz

TIBBIY DISKURSDA KOMPETENSIYA TUSHUNCHASINING LINGVOMADANIY VA KOMMUNIKATIV JIHLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada shaxsning kasbiy faoliyatida, xususan, tibbiyot sohasida kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining shakllanishi hamda ularning lingvomadaniy va ijtimoiy mohiyati yoritilgan. N. Xomskiy tomonidan tilshunoslikka kiritilgan “kompetensiya” atamasining tibbiy diskursdagi qo'llanish xususiyatlari, shifokor-bemor muloqotida kommunikativ, verbal, etik va madaniy kompetensiyalar o'rni tahlil qilingan. Maqolada tibbiy diskursning og'zaki shakllari – shifokor, bemor, hamshira va boshqa tibbiyot xodimlari o'rtasidagi muloqot misolida, tibbiyot xodimining nutqiy kompetensiyasi va madaniyatlararo muloqotdagi salohiyati lingvopragmatik nuqtayi nazardan tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: *kompetentlik, tibbiy diskurs, muloqot madaniyati, kommunikativ salohiyat, madaniyatlararo muloqot, xushmuomalalik, lingvopragmatika, shifokor-bemor muloqoti.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются особенности формирования понятий *компетенция* и *компетентность* в профессиональной деятельности человека, в частности в сфере медицины, а также их лингвокультурная и социальная сущность. Анализируются особенности употребления термина «компетенция», введенного Н. Хомским в лингвистику, в контексте медицинского дискурса, а также роль коммуникативной, вербальной, этической и культурной компетенций во взаимодействии врача и пациента. В статье с лингвопрагматической позиции рассматриваются устные формы медицинского дискурса – общение между врачом, пациентом, медсестрой и другими медицинскими работниками, а также речевая компетенция и межкультурный потенциал медицинских специалистов.

Ключевые слова: *компетентность, медицинский дискурс, культура общения, коммуникативный потенциал, межкультурная коммуникация, вежливость, лингвопрагматика, общение врача и пациента.*

Annotation: this article examines the formation of the concepts *competence* and *competency* in professional activity, particularly in the field of medicine, and explores their linguocultural and social essence. The paper analyzes the use of the term “competence,” introduced into linguistics by N. Chomsky, within medical discourse, as well as the role of communicative, verbal, ethical, and cultural competences in doctor–patient communication. From a linguopragmatic standpoint, the article explores the oral forms of medical discourse – such as communication between doctors, patients, nurses, and other healthcare professionals – highlighting their speech competence and intercultural communicative potential.

Key words: *competency, medical discourse, communication culture, communicative potential, intercultural communication, politeness, linguopragmatics, doctor–patient interaction.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda **kompetensiya** va **kompetentlik** tushunchalari insonning shaxsiy, ijtimoiy hamda kasbiy faoliyatini baholash mezonlaridan biri sifatida muhim o'rin egallaydi. Bu termin ilk bor amerikalik tilshunos **N. Xomskiy** tomonidan til tizimi va nutq jarayonidagi lisoniy salohiyatni ifodalash uchun qo'llanilgan bo'lsa-da, keyinchalik u boshqa sohalarda, jumladan, pedagogika, psixologiya va tibbiyotda ham qo'llanila boshladi.

Tibbiyot sohasi vakillari faoliyati inson salomatligi va hayotini saqlash bilan bevosita bog'liq bo'lgani sababli, bu sohada kommunikativ, etik, ijtimoiy-psixologik va madaniy kompetensiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Shifokorning bemor bilan o'zaro muloqoti, nutq madaniyati, xushmuomalaligi va empatiyasi – uning

kasbiy kompetentlik darajasini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardandir. Maqolada V. N. Kunisina, K. F. Sedov, Sh. Safarov, P. V. Sisoyev, O. V. Drokina kabi olimlarning qarashlari asosida tibbiy diskursning lingvomadaniy, kommunikativ va sotsiopragmatik jihatlari keng tahlil qilinadi. Shuningdek, shifokor-bemor muloqotida madaniyatlararo kompetensiyaning, xususan, affektiv, kognitiv va etik komponentlarning roli yoritiladi.

Dastlab amerikalik tilshunos N. Xomskiy tomonidan shaxsning til tizimi, til belgilari, ularni leksik-grammatik real vaziyatlarda qo'llanishiga oid salohiyatlarini tahlil qilish maqsadida ilmiy iste'molga olib kiritilgan “kompetensiya” va “kompetentlik”ka (ingl. competence – qobiliyat) termini har xil faoliyatlariga baho berish

vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda. Xususan, V. N. Kunisining qo'llanmasida shaxsning muloqot madaniyati va salohiyati ijtimoiy turmush bilan uzviy bog'liq holda shakllanadigan layoqatlari:

1) operativlik – ijtimoiy tizim va tuzilmalarning o'zaro aloqasidan xabardor bo'lgan holda, vaziyatga tezlikda baho berish va uning yechimini topish;

2) orientasion – tuzilmalar haqida to'laonli xabardor bo'lgan holda harakat yo'nalishini mo'ljallash;

3) verbal – fikrini og'zaki va yozma tarzda hamda vaziyatga mos holda aniq va tushunarli tarzda bayon qilish;

4) kommunikativ – muloqotning madaniy normalarga tayangan suhbatlashish;

5) etik – xalqning an'anaviy odob-axloq normlariga rioya qilish;

6) ijtimoiy-ruhiy – shaxslararo munosabatlarni oqilona hal qilish;

7) ego kompetentlik – o'z dini, millati, jinsi, ajdod-avlodiga oid ustuvor va zaif jihatlar haqidagi bilim singari sotsial kompetensiyalar asosida belgilanadi.

Sotsial kompetensiyaning ushbu tarkibiy qismlari tibbiyot xodimlarining faoliyatiga baho berishda ham muhim ahamiyatga ega. Binobarin, operativlik va orientasion kompetensiyalar shifokorning o'z bilim va tajribalariga tayangan holda, bemorning holati haqida muayyan bir fikriy to'xtamga kelishi (fikriy orientasiya) va zudlik bilan qaror qabul qilishi (operativlik) kabi eng muhim layoqatlarini taqozo etadi. Verbal, kommunikativ, etik, ijtimoiy-psixologik kompetensiyalar esa tibbiyot xodimlarining muloqot, ijtimoiy va madaniy layoqatlariga dahldor bo'lib, ular shifokor faoliyatining kattalar, xotin-qizlar va bolalarni sog'ligini saqlash bilan bog'liq holda, hamkasblar o'rtasidagi yozma va og'zaki shakli, rasmiy va norasmiy muloqotlari, shifokor – bemor muloqotlariga oid kompetensiyalarini aks ettiradi.

Tibbiyot vakillari faoliyatining o'ziga xos ko'rsatkichlaridan yana biri, ularning kiyinish va muloqot madaniyatida milliy hamda madaniyatlararo xususiyatlar uyg'unligi orqali namoyon bo'ladi. Zotan, shifokorlar ham xorijiy til mutaxassislari, xususan, tarjimonlar singari "o'z milliyligini yo'qotmasdan" "bilvosita madaniyatlararo muloqot sharoitida" faoliyat ko'rsatishadi [Sh. Safarov. 2018. №3: 9-20]. Shu bois, xorijiy til mutaxassislari misolida qayd etilgan "madaniyatlararo kompetensiya" va uning:

1) affektivlik – kuzatilayotgan obyektini ko'rish, eshitish, sezish va ichki hissiyot hamda bilim va tajribalarga tayangan holda, muayyan faraz va xulosaga kelish;

2) kognitivlik – milliy va o'zga madaniyatlarga oid bilimlarni umumiy bir fikr doirasida sintezlash orqali muammoning yechimini topish. [N.D.Galskova, N.I.Ge. 2004:72].

Keltirilganlardan ma'lum bo'ladiki, kompetensiya insonning shaxsiy (ruhiy), ijtimoiy, kasbiy faoliyatlariga

xos qobiliyat, salohiyatiga baho berish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shifokorlik faoliyatida ushbu kompetensiya tibbiyot deontologiyasi, psixoterapiya, tibbiy etika va kasbiy masalalari bilan chambarchas bog'liqdir. A.B.Nasirova va hammualliflarning maqolasida tibbiy xodimlarning kommunikativ kompetensiyasiga muloqot madaniyatiga tegishli layoqatlardan tashqari formula, grafika va noverbal vositalaridan (mimika i jest va b.), kasbiga oid maxsus tayyorlangan materiallardan foydalanish" ko'nikmalariga ega bo'lish ~ 10 ~ talablari qayd etishadi [A.B.Nasirova, A.M.Mudrovskaya, D.V. Sizov. 2016, №4: 96-99].

K.F. Sedova kommunikativ kompetensiyani kommunikativ kompetensiyani tarkiban "lisoniy (til), nutqiy, diskursiv, madaniy va ritorik" kompetensiyalardan tashkil topishini ham qayd etadi [K.F. Sedov. 2004: 23].

Kommunikativ kompetensiyani tashkil etuvchi ushbu ichki salohiyatlar har qanday insonning "lisoniy shaxs" maqomini, xususan, shifokorlik maqomini belgilashda ham muhim ko'rsatkich hisoblanadi:

1) lisoniy kompetensiya – muloqot tilidan erkin foydalanish uchun zarur bo'lgan: fonetik, orfografik, orfoepik, leksik, morfologik, so'z yasash va sintaktik qoidalarga, nutq uslublari, matn tuzishga oid bilimlar;

2) madaniy kompetensiya – muloqotni xalqning lingvomadaniy etiketi va normalariga, xalqaro, diniy va gender munosabatlar bilan aloqador lingvomadaniy mezonlarga, nutq madaniyati va odobiga oid me'yorlarga amal qilish ko'nikmalari;

3) ritorik kompetensiya – tilning ifoda modellariga asosan matn tuzish hamda turli janrlardagi matnlarni notiqlik mahorati va normalari vositasida bayon qilish ko'nikmalari.

Til muayyan jamiyat vakillari uchun umumiy ijtimoiy hodisa bo'lsa ham, uning ma'lum bir nutq vaziyati bilan bog'lanishi subyektning iqtidori va ijtimoiy faoliyati bilan bog'liqdir. Inson lisoniy faoliyatiga xos ana shunday obyektiv va subyektiv ko'rsatkichlar almashinuvini tilning "ma'lum ijtimoiy vazifa, kasb-hunarga ixtisoslashganligi bilan xarakterlanuvchi sotsial xoslangan nutq"lar misolida kuzatiladi [M. Hakimov. 2013: 68]. Tibbiyot xodimlarining nutqi va muloqoti ham ana shunday ijtimoiy-madaniy va kasbiy xoslangan turlardan biridir. Ushbu soha vakillari nutqiy faoliyatining o'ziga xosligi shifokorlik faoliyatidagi tayanch tushuncha, ya'ni "sog'liqni saqlash"ga yo'naltirilgani orqali namoyon bo'ladi.

Xususan, shifokor va bemor muloqotini diskursiv jihatdan tahlil qilish asosida xushmuomalalik modelining ishlab chiqilishi [S.C. Levinson. 1987: 139], tibbiy diskursda "yuzma-yuz muloqot"ning konseptuallashuv tamoyillarining belgilanishi [E. Goffman. 1967: 33-48], tibbiy diskursni hamshira-bemor muloqoti asosida tahlil qilish [R. M. Epstein. 2000:74], pediatrlar muloqotini "shifokor – bemor bola – ota-ona" o'rtasidagi uch tomonlama suhbat jarayoni bilan bog'liq holda tahlil

qilinishi [K. Aronsson, C. Rindstedt. 2001: 839].

J.N. Makusheva va M.B Kovalyovalarning e'tirofiga ko'ra, tibbiy diskurs tadqiqida og'zaki muloqot bilan birga ilmiy maqola, monografiya, sharh, tezis, ma'ruza singari o'ziga xos janrlardan iborat yozma materiallar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Og'zaki diskursning ishtirokchilari shifokor – bemor, shifokor – amaliyotchi talaba, shifokor – hamshira, dorishunos – mijoz kabi juftliklar ishtirokidagi muloqotlar orqali namoyon bo'lsa, yozma diskursning yetakchisi ilmiy darajali yoki yuqori malakali shifokor, iste'molchilari esa yosh shifokorlar, talabalar va tibbiyot bilan qiziquvchi ziyoli qatlam bo'lishi mumkin [J.N. Makusheva, M.B Kovalyova. 2014: 108-115].

Ushbu mulohazalar ham ingliz va o'zbek tillaridagi tibbiy diskurs qiyosiy tadqiqini og'zaki yoki yozma shakllaridan birini tanlash orqali amalga oshirish qulayligiga ishora qiladi. Shularni hisobga olib, shifokor – bemor muloqotiga asoslanuvchi og'zaki diskursni tekshirish manbai sifatida belgilashni lozim topdik. Bunday tanlovda, birinchidan, ingliz va o'zbek tillari qiyosida shifokor-bemor diskursining muqaddam ijtimoiy-madaniy nuqtayi nazaridan tadqiq etilmagani, ikkinchidan, ushbu diskursning har ikkala tilga oid sotsiomadaniy, lingvokognitiv, lingvopragmatik, ekstralisoniy va nutq madaniyati bilan bog'liq dalillarga boyligi, suhbat va dialoglar orqali tahlil qilishga qulayligi

hisobga olindi. Zotan, tibbiy diskurs tahlilida e'tiborga molik bo'lgan jihatlardan biri xushmuomalalikdir. Har qanday sohaga oid muloqotning muhim shartlaridan bo'lgan xushmuomalalik tibbiy diskursda muolaja qudratiga egaligi bilan alohida qiymat kasb etadi. Xushmuomalalik yosh, jins, kasb-kor kabi ijtimoiy-madaniy mezonlar, muloqot madaniyati va odobi, tilning verbal va noverbal vositalari bilan birgalikda ro'yobga chiqadigan asosiy ko'rsatkichidir. Uning ibtidosi salomlashish odobi bo'lsa, keyingi rivoji so'rashish va muloqot maqsadini ma'lum qilishdir.

Xulosa. Tibbiy diskursda kompetensiya – bu shifokorning nafaqat kasbiy bilim va tajribasi, balki uning muloqot madaniyati, xulq-atvori, nutqiy saviyasi va madaniy sezgirligini o'z ichiga oluvchi murakkab salohiyat tizimidir. Tibbiyot xodimining kommunikativ kompetensiyasi shifokor-bemor o'rtasidagi ishonchli munosabatni shakllantiradi, deontologik me'yorlarga rioya etish esa tibbiy axloqning asosini tashkil etadi. Shifokor nutqining lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilish natijasida, uning faoliyatida milliy qadriyatlar, madaniyatlararo muloqot tajribasi va empatiya muhim omillar sifatida namoyon bo'lishi aniqlanadi. Shu bois tibbiy diskursni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki tibbiyot etikasi, psixologiya va madaniyatshunoslik uchun ham dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xomskiy, N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge, Massachusetts: MIT Press, 1965.
2. Kunisina, V. N. Sotsial'naya kompetentnost' i adaptatsiya lichnosti. – Moskva: Smysl, 2001.
3. Galskova, N. D., Gez, N. I. Teoriya obucheniya inostrannym yazykam: Lingvodidaktika i metodika. – Moskva: Akademiya, 2004.
4. Safarov, Sh. Madaniyatlararo muloqot va tilshunoslikning yangi yo'nalishlari. // Filologiya masalalari jurnali, 2018, №3. 9–20-b.
5. Nasirova, A. B., Mudrovskaya, A. M., Sizov, D. V. Kommunikativnaya kompetentnost' meditsinskikh rabotnikov. // Meditsinskoye obrazovaniye i professional'noye razvitie, 2016, №4. – S. 96–99.
6. Sedov, K. F. Diskurs i lichnost': Evolyutsiya kommunikativnoy kompetentsii. – Moskva: Labirint, 2004.
7. Hakimov, M. Til va jamiyat: sotsiolingvistik yondashuvlar. – Toshkent: Fan, 2013.
8. Drokina, O. V., Nelidova, A. V., Jivilova, L. A. Kommunikativnaya kompetentsiya vracha: etika i empatiya v meditsinskom diskurse. // Vestnik meditsinskoy psixologii, 2020, №1. – S. 13–16.
9. Levinson, S. C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
10. Arutyunova, N. D. Diskurs. // Lingvisticheskiy entsiklopedicheskiy slovar'. – Moskva: Sovetskaya entsiklopediya, 1990. – S. 136–137.

Nazira YANGIBAYEVA,
 Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
 O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti,
 filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

“MAORIF VA O'QITG'UCHI” JURNALIDA O'ZBEK SHEVALARINING O'RGANILISHIDA RUS OLIMLARINING QARASHLARI

Annotatsiya: maqolada K.K.Yudaxinning Mankent shevasi bo'yicha tadqiqotlari, Mankent qishlog'ining geografik o'rni, etimologiyasi va ilmiy adabiyotlar (V.V.Bartoldt lug'ati, Mahmud Qoshg'ariy ma'lumoti)ga murojaati va uning fonetik xususiyatlariga to'xtalganligi, shuningdek, bu shevaning Qorabuloq shevasiga o'xshashligi bo'yicha izlanishlari va Mankent shevasida singarmonizmning qo'llanishi kabi masalalar qayd qilinadi.

Kalit so'zlar: *jurnal, sheva, unli, undosh, tovush, talaffuz, fonetik, singarmonizm, lahja, dialektologiya, tadqiqot.*

Аннотация: в статье представлены исследования К. К. Юдахина по манкентскому диалекту, географическому положению манкентского села, этимологии и ссылкам на научную литературу (словарь В. В. Бартольда, сведения Махмуда Кашгари) и его фонетическим особенностям, а также его исследования сходства этого диалекта с Карабулокский диалект и отмечены такие проблемы, как использование сингармонизма в манкентском диалекте.

Ключевые слова: *журнал, диалект, гласный, согласный, звук, произношение, фонетика, сингармонизм, говор, диалектология, исследование.*

Annotation: the article presents K. K. Yudakhin's research on the Mankent dialect, the geographical location of the Mankent village, etymology and references to scientific literature (V.V. Bartoldt's dictionary, information from Mahmud Kashgari) and its phonetic features, as well as his research on the similarities of this dialect with Karabulok dialect and problems such as the use of synharmonism in the Mankent dialect are noted.

Key words: *journal, dialect, vowel, consonant, sound, pronunciation, phonetics, synharmonism, dialect, dialectology, research.*

Tilshunoslikda o'zbek shevalarining o'rganilishi alohida dolzarb mavzu hisoblanadi. XX asrning 20-yillarida ham bu mavzu nafaqat o'zbek tilshunos olimlari tomonidan, balki rus tilshunos olimlari tomonidan ham chuqur o'rganilgan. O'sha davrda faoliyat yuritgan “Maorif va o'qitg'uchi” jurnalida tilshunoslikka oid maqolalar chop etilgan. Mashhur rus tilshunos olimi K.K.Yudaxin shu mavzu bo'yicha bir qancha maqolalar chop etgan.

Jurnalning 1928 yil 7-sonida K.K.Yudaxinning “Vodil qishlog'ining lahjasi haqida bir necha so'z” maqolasi e'lon qilingan.

K.K.Yudaxin an'anaga ko'ra Vodil qishlog'ining geografik o'rni haqida ma'lumot beradi va o'zining 6 kunlik ish jarayonida aholisining qatlamlarini to'liq o'rgana olmaganligini tan oladi. Shevaning fonetik xususiyatlariga to'xtalib, uni Toshkent shevasiga yaqin sheva deb hisoblaydi va 6 ta unli tovushni qayd qiladi. Bular e, o, ə, u, ə, i tovushlaridir. Ayniqsa, ə unlisining Toshkent shevasi bilan aynanligini ta'kidlaydi va E.D.Polivanov izohlarini to'la qabul qiladi. Bizningcha, bu o'rinda K.K.Yudaxin uning “Краткая грамматика узбекского языка” asarini ko'zda tutgan[1]. e, o unlilarini Toshkent dialektidagi shu unilarga nisbatan yopiq deb qaraydi, lekin uni lingvistik jihatdan asoslay olmaydi, balki bu holatni “hatto men ba'zan e tovushini i tovushidan va o tovushini u tovushidan ajratishda qiynalaman” degan izohi bilan chegaralanadi.

Maqolada nisbatan ko'proq o'rin e unlisiga berilgan. Bu tovushning u e va ə unilari o'rtasida ko'proq ə unlisiga yaqinroq turishini aytadi hamda bu unlining hozirgi zamon

(aslida hozirgi – kelasi zamon) fe'llarida *ishlemen*; - *dek*, - *chek* qo'shimchalari tarkibida, **y, g, k** undoshlaridan oldin (*lupchey, lupcheg, lupchek*) kelishiga bir qator misollar keltiradi. Ma'lumki, e unlisi to'g'risida gap ketganda, uning ko'proq o'g'iz va Namangan shevalari uchun xarakterli ekanligi aytiladi. Toshkent, Marg'ilon, Farg'ona, Andijon, Qo'qon shevalarida so'zlarning ayrim bo'g'inlarida sporadik ravishda qayd qilinadigan tovush sifatida qaraladi[2] K.K.Yudaxin ham bu tovushni tasodifiy ravishda paydo bo'lib turadigan unli ekanligini uqtiradi va tovush varianti deb ataydi. Aftidan, K.K.Yudaxin bu tovushning Toshkent shevasida ba'zan paydo bo'lishini payqamagan.

K.K.Yudaxin -**dek** qo'shimchasidagi e unlisining eski o'zbek tilida (uningcha chig'atoy) yoy (ɟ) bilan berilishini e ham, ə ham, i ham o'qish mumkin emasligini isbotlamoqchi bo'ladi va xulosa qilib, ularning o'rnida Vodil shevasidagidek uni e bilan o'qishni tavsiya etadi. K.K.Yudaxinning eski o'zbek tili unli talaffuzini belgilashda sheva faktlari asos bo'lishi to'g'risidagi fikrini quvvatlagan holda ɟ (yoy) harfini uning o'zbek shevalarida, xususan, Vodil shevasida sporadik ravishda uchraydigan e unlisi bilan talaffuz qilish bo'yicha qarashini qabul qilish qiyin, balki uni o'zi ham asosli ravishda isbotlay olmagan. Hozirgi til tarixchilarimiz esa klassik adiblarimiz ijodida ɟ (yoy) bilan ifoda qilinadigan harfni e bilan transkripsiya qilishayotganligi yuqoridagi fikr o'z isbotini topmaganligini ko'rsatadi.

Undoshlar xususida faqat q va k undoshlarining spirantizatsiyasiga to'xtaladi va unga *tyq-tix, tik-tih(h), toq-tox, tok-toh (to'kmoq)* misollarini keltirish bilan chegaralanadi.

K.K.Yudaxinning bu ma'lumotlaridan hozir ham dialektologiya bo'yicha darslik va qo'llanmalar yaratishda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Jurnalning 1927 yil 9-10-sonida K.K.Yudaxinning "Mankent shevasining fonetikaviy yozilishi" maqolasi "Mubohasa yo'li bilan" degan izoh bilan bosiladi¹. Maqola avvalida muallif uni talabalik ma'lumoti asosida yozganligini, to'plagan ashula matnlari bo'lganligi, bu shevani fonetik va morfologik tadqiq etishga tajribasining etishmasligini aytadi va ayni o'rinda Qorabuloq shevasi bo'yicha to'plangan materiallari akademik V.V.Bartoldt hurmatiga chiqariladigan to'plamga qabul qilinganligini ham qo'shib qo'yadi.

K.K.Yudaxin o'z maqolasida dastlab to'plangan materiallarining mazmun yo'nalishi, Mankent qishlog'ining geografik o'rni, etimologiyasi va ilmiy adabiyotlar (V.V.Bartoldt lug'ati, Mahmud Qoshg'ariy ma'lumoti)ga murojaat qiladi va uning fonetik xususiyatlariga to'xtaladi. Bu shevaning Qorabuloq shevasiga o'xshashligini qayd qiladi.

K.K.Yudaxin Mankent shevasida singarmonizm (uni qalinlik) qo'llanishini va 9 ta unli qatnashishini ta'kidlaydi. 9ta unlini ko'rsatishda murakkab bo'lmagan tablitsada ularni dastlab oldingi (ingichka) va orqa (qalin) unilarga ajratadi. Uningcha, i (u), e(ə), ə unililar oldingi (ingichka), a, o, (i) unililari orqa (qator) unililaridir. Bu unilarga alohida izoh bermaydi, oqibatda qavs ichida ko'rsatilgan unililarni mustaqil unli yoki variant ekanligini ajratish mumkin bo'lmaydi, faqat shevada 9 ta unli bor degan izohi asosida qavs ichidagi unililarni mustaqil unli deb tushunish mumkin, xolos. Ko'rsatilgan unililardan i (u) unlisini tor tovush, e (ə) unililarini yarim tor tovush, ə unlisini esa yarim keng tovush deb yuritadiki, terminlardagi yarim tor aniqlovchi so'zining qo'llanishi hozir ham adabiyotlarda davom etmoqda[2,3], bu an'anadagi o'rta keng terminiga muvofiq keladi, lekin yarim keng tovush deb yuritilayotgan ə unlisi (ad.orf. a) hozirgi tilshunosligimizda keng unli termini bilan yuritilmoqdaki, u munozaraga sabab bo'la olmaydi. Bizningcha, K.K.Yudaxin yarim keng unli degan tovush E.D.Polivanov iqon shevasida ham qayd qilgan e unlisi bo'lishi mumkin[4].

Mankent shevasining asosiy fonetik xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi:

- q (q) undoshining "x"ga o'tishi: *ayaxsz, toxsan*;
- ch (s, چ)ning sh (z, ش)ga o'tishi: *ushma, ish*;
- y (y) undoshining qattiq (*savoviy*) va yumshoq (*sadoviy*) varianti to'g'risida fikr yuritadi, lekin unga misol keltirmaydi.
- labial singarmonizmning yo'qolganligini, lekin uning

ayrim izlari qolgan deb ko'rsatadi va *ko'zsuz, pulsiz, turung* (ularni ham arab grafikasida beradi).

K.K.Yudaxinning shu maqolasidagi ayrim fikrlarini tushunish juda qiyin, yoki uning fikrlariga qo'shib bo'lmaydi. Ular quyidagilar:

– i unlisining cho'ziq varianti (uning *maddi*) to'g'risida fikr yuritib, unga *qi:z* so'zini misol keltiradi, lekin bu so'zni *q:z* yozish xohishi ham bo'lgan, lekin i yozishga qat'iy to'xtalgan. Bizningcha, bu o'rinda cho'ziq i old qatori unlini ifoda qilganligi uchun singarmonizmli shevalarda uni *q* undoshidan so'ng yozib bo'lmaydi. Ayniqsa, uning "Mazkur *q:z* degan so'z Qorabuloqda ham, turkmanlarda ham cho'zilish eshitiladi. Bu daxi takroran V.V.Bartoldtning turk tilida cho'zuq tovushiga imkoniyat yo'qlig'ini ko'rgazgan fikriga dalildir" degan jumllaridan faqat *q:z* so'zining qo'llanishi to'g'risidagi ma'lumotini qabul qilish mumkin, lekin keyingi jumllardan gap nima xususda borayotgani to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilish mumkindir, ammo aniq bir fikrni anglab olish qiyin bo'ldi.

– e, e, o unililarining birinchi bo'g'in(unda *hijo*)dagina uchrashi to'g'risida fikr yuritadi-da, o'zbek tilida (uningcha, "orttirilgan *hijo*") *yurasen, qilamen, Toshkent, o'zbek* (ular arab alifbosida yozilgan) kabi so'zlardagi e unlisining yozilishini xato deb hisoblaydi. Albatta, bu fikrga qo'shib bo'lmaydi, chunki qo'shma so'zlarda va tarixan qo'shma so'z (Toshkent, o'zbek)larda e unlisining qo'llanishi mavjud holat ekanligini qayd qilish mumkin. Yuqoridagi kabi keyingi bo'g'inlarda e yozilishini K.K.Yudaxin "ilgari bor edi, ammo endigi tirik tilimizda bitkanligi ko'rinadi" deb xulosa qiladi.

Undoshlar tavsifini ahamiyatga ega emas deb hisoblaydi (uni "buyuk ahamiyatga ega emasdir" iborasi bilan izohlaydi).

K.K.Yudaxinning maqsadi shevaning fonetika xususiyatlarini yoritish bo'lsa-da, ayrim morfologik xususiyatlarni ham qayd qiladi, jumladan, chiqish kelishigining – *din/dn, -tin/tn* affiksi bilan ifodalanishi va uning chig'atoy, ham uyg'ur yozma yodgorliklarida ham shunday aks etganligini ta'kidlaydi, albatta, bu fakt keyingi dialektologik ishlarda o'z aksini topgan[2]. Shuningdek, u o'zbek tilidagi –*dir, -dur* bog'lama(unda so'z *boylami*)larining – *du* variantiga ega bo'lishini qayd qilgan.

K.K.Yudaxin ushbu kichik tadqiqoti bilan ham o'zbek dialektologiyasida o'zining munosib o'rni egallagan edi.

Bu izlanishlar hozirgi kunda ham dolzarb va hozirgi o'zbek tilshunosligining dialektologiya bo'limining o'rganilishida zarur material hisoblanadi.

¹ Ўзбек тилига қилинган таржима. Бу таржима сифатли амалга оширилганлигига шубҳа билан қараймиз, чунки айрим терминлар шу даврда истъмолда бўлган эмас, илмий тушунчаларни ифода қилишда ноқулайлик туғдирган.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Поливанов Е.Д. Краткая грамматика узбекского языка. Часть 1. – Ташкент-Москва, 1926.
2. Решетов В.В., Шоабдурахманов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Ташкент: 1962.
3. Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. – Ташкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.
4. Поливанов Е.Д. Образцы не иранизованных (сингармонистических) говоров узбекского языка//Известия Академии наук СССР, 1929.

Aziza RASULOVA,
Farg'ona davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

TILSHUNOSLIKDA SABAB VA NATIJA MUNOSABATI

Annotatsiya: ushbu maqolada sabab, natija ma'nosi, tilshunoslikda sabab va natija munosabatining yoritilishi haqida fikrlar berilgan, sababsiz natija, natijasiz sababning yuzaga chiqmaslik holatlari ko'rsatilgan, sabab va natija munosabatining qo'shma gaplardagi va matnlardagi ifodasi tahlil qilingan, misollar bilan izohlangan.

Kalit so'zlar: *sabab, natija, tilshunoslik, sabab-natija munosabati, qo'shma gaplar, sintaktik maydon, qo'shma gap, matn.*

Аннотация: в статье рассматривается значение причинно-следственных связей, дается уточнение причинно-следственной связи в лингвистике, рассматриваются случаи отсутствия причины без причины, причины без следствия, анализируется выражение причинно-следственной связи в сложноподчиненных предложениях и текстах, приводятся примеры.

Ключевые слова: *причина, следствие, лингвистика, причинно-следственная связь, сложноподчиненные предложения, синтаксическое поле, сложносочиненное предложение, текст.*

Annotation: this article presents the meaning of cause and effect, the clarification of the cause-effect relationship in linguistics, the cases of the non-appearance of a cause without a cause, a cause without a result, the expression of the cause-effect relationship in compound sentences and texts is analyzed, and examples are provided.

Key words: *cause, effect, linguistics, cause-effect relationship, compound sentences, syntactic field, compound sentence, text.*

Til inson tafakkurining asosiy ifoda vositasidir. Inson o'z fikrini, his-tuyg'ularini, bilim va dunyoqarashini aynan til orqali ifodalaydi. Shuning uchun ham til nafaqat muloqot vositasi, balki tafakkur mahsulini ifoda etuvchi kuchli vosita sifatida tilshunoslikda o'rganiladi. Tilda turli mantiqiy bog'lanishlar mavjud bo'lib, ular orqali matn yaxlitligi, mazmuniy uzviyligi ta'minlanadi. Ana shunday mantiqiy bog'lanishlardan biri sabab va natija munosabatidir.

Ma'lumki, sabab deganda biror hodisaning yuzaga kelishiga turtki bo'ladigan omil tushuniladi. Sabablar har doim biror natijaning paydo bo'lishiga xizmat qiladi [2]. Masalan, daraxtning qurib qolishi – natija bo'lsa, uning sababi yetarlicha sug'orilmagani, qarovning yaxshi bo'lmagani bo'lishi mumkin. Shuningdek, talabaniing yaxshi baho olishi – natija, uning ko'p mehnat qilgani, o'z ustida ishlagani esa sabab bo'ladi.

Sabab va natija munosabati tilshunoslikda muhim semantik va sintaktik hodisa hisoblanadi. Sabab, odatda, biror hodisaning, voqeaning yoki holatning yuzaga kelishiga turtki bo'lgan omilni bildiradi, natija esa o'sha sababdan kelib chiqqan oqibatni ko'rsatadi. Bu munosabat til birliklarida turli ko'makchilar, bog'lovchilar, ergash gaplar orqali ifodalanadi. Masalan, *U kech qoldi, chunki avtobusni o'tkazib yubordi* gapida *avtobusni o'tkazib yubordi* jumlasida sabab munosabatini bildirgan, *u kech qoldi* esa natijani ifodalaydi.

Har qanday yutuq, muvaffaqiyat, muvaffaqiyatsizlik yoki muammo ortida bir sabab yotadi. Natija esa sabab tufayli yuzaga kelgan oqibatdir. Har bir harakat, qaror yoki fikr ma'lum bir natijalarga olib keladi. Demak, har bir voqea, hodisa yoki holatning kelib chiqishiga bir sabab bo'ladi va har qanday harakat muayyan natijaga olib keladi. Tadqiqotchilarning fikricha, inson tafakkurida sabab-natija munosabati bo'lmasa, mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va o'z fikrini to'g'ri bayon etish qobiliyati yetishmaydi. Shu sababli

tilshunoslikda sabab va natijani ifodalovchi vositalarni, ularning gap va matndagi o'rnini, vazifalarini chuqur o'rganish zarur.

Tilshunoslikda sabab va natija munosabati gaplar orasida yoki gap ichida mavjud bo'lgan mantiqiy bog'lanishdir. Bu bog'lanish orqali birinchi o'rinda hodisaning sababi, ikkinchidan esa uning natijasi namoyon bo'ladi. Har qanday til tizimi, xususan, o'zbek tili, bu munosabatni ifodalash uchun turli lingvistik vositalardan foydalanadi. Tadqiq etilayotgan munosabatni tilshunoslikda ikki tomondan tahlilga tortish mumkin: sintaktik va matn tomonidan [1].

Tilshunoslikda sabab va natija munosabatini sintaktik jihatdan tadqiq etish muhim o'rin tutadi. Bu munosabatni to'g'ri ifodalash uchun gaplarning tuzilishi, ya'ni ularning sintaksisi alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, sabab va natija mazmunini ifodalovchi gaplar ko'pincha qo'shma gaplar shaklida bo'ladi.

Ma'lumki, qo'shma gaplar – bu bir nechta gaplarning ma'no va grammatik jihatdan bir-biriga bog'langan shakli bo'lib, ular orasida mantiqiy munosabat, xususan, sabab va natija bog'lanishi muhim ahamiyatga ega. Aytish mumkinki, sintaktik maydondagi sabab va natija munosabati, asosan, qo'shma gaplar, kontekstual vositalar orqali ifodalanishi mumkin. Sabab bildiruvchi *chunki, sababi, sababli, tufayli, boisi* kabi yordamchilar mazkur ma'noni ifodalashda markaziy o'rinda turadi. *Men kasalxonaga bordim, chunki o'zimni yomon his qildim.* Mazkur gapning ikkinchi qismi sabab munosabatini ifodalash uchun xizmat qilgan bo'lib, *chunki* yordamchisi mazkur mazmunni yoritishga yordam bergan. Natija munosabati esa *shuning uchun, oqibatda, natijada, shu sababli* kabi yordamchilar orqali ifodalanadi: *u doim o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashadi, shuning uchun rahbari unga ishonch bildirdi.* Mazkur gapda natija munosabati *rahbari unga ishonch bildirdi* gapi yordamida

ifodalangan bo'lib, natijaning sababini birinchi gapdan ko'rish mumkin (*U doim o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashadi*). Sabab va natija munosabati *shuning uchun* yordamchisi orqali bog'langan.

Tilga olinayotgan maydonda sabab-natija munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplar yetakchi o'rin tutadi [4]. *U ishga kech keldi, chunki yo'l juda tirband edi*. Berilgan gap sabab munosabatini ifodalovchi gap bo'lib, birinchi va ikkinchi gap *chunki* bog'lovchi vositasi orqali bog'langan. Bu bog'lovchi vosita sabab mazmunini ochishga yordam bergan (Uning kechkishiga sabab yo'lning tirband ekanligi). Bunda *U ishga kech keldi* natija, *yo'l juda tirband edi* sabab mazmunini ifodalayapti. Mazkur gapni natija munosabatini ifodalovchi qo'shma gapga aylantirsak, gapdagi natija semasi birinchi o'ringa chiqadi: *Yo'l juda tirband edi, shuning uchun u ishga kech keldi*. Gapdagi natija munosabati *shuning uchun* yordamchisi bilan ochiqdagi (Yo'l tirbandligi natijasida u kechikkan). Berilgan gapda *Yo'l juda tirband edi* sabab, *u ishga kech keldi* natija mazmunini ifodalayapti. Bu ikki turdagi gaplar sintaktik parallelizm asosida barqaror qo'llanadi va matn izchilligini ta'minlaydi. Shuning uchun bunday gaplarni alohida nomlashdan ko'ra bitta nom bilan sabab-natija munosabatli gaplar deb nomlash ma'qulroq.

Qo'shma gaplarning turlari sabab va natija munosabatining ifodasiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, bog'langan qo'shma gaplarda bog'lovchilar yordamida sabab-natija munosabati aniq va ravshan ifodalanadi.

U o'qishga ko'p vaqt ajratdi va imtihonlardan yuqori natijaga erishib, chet davlatga o'qishga ketdi. Bu gapda sabab mazmuni bog'langan qo'shma gap orqali ifodalanmoqda. Gapning birinchi qismi sabab (o'qishga ko'p vaqt ajratish), ikkinchi qismi esa natija (imtihonlardan yuqori natijaga erishish va chet davlatga ketish) munosabatini ifodalayapti. Va bog'lovchisi sabab va natijani bog'lash vazifasini bajargan.

Ergash gapli qo'shma gaplarda esa sabab yoki natijani bildiruvchi ergash gaplar asosiy gapga sabab yoki natija sifatida bog'lanadi.

U og'ir mehnat qilardi, chunki oilasini boqishi kerak edi. Berilgan gapning ikkinchi qismi sabab munosabatini ifodalayapti (og'ir mehnat qilishning sababi oilani boqish kerakligi). Sabab mazmuni *chunki* yordamchisi yordamida ochilgan. Gapning birinchi qismi esa sababning natijasini bildirmoqda (og'ir mehnat qilish).

Sabab-natija munosabati faqat bitta gap doirasidagina emas, balki butun matnda ham aks etadi. Matn tarkibidagi har bir gap, har bir fikr keyingisi uchun sabab yoki natija

bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu uslubiy vosita, ayniqsa, ilmiy, publitsistik va ta'limiy matnlar uchun juda muhimdir [4]. Matn tomonidan o'rganilganda sabab va natija munosabatining matnlarda, abzaslarda, supersintaktik butunliklarda ko'rinishi va ular orasidagi bog'lanish nazarda tutiladi. Sabab va natijaning matniy o'rganilishi diskursiv daraja deb ham nomlanishi mumkin.

Onam bu dunyoda kamsuqumgina yashardi. Hech kimga ozor bermasdi. Hech kim bilan hech narsani talashmasdi.

Berilgan matn sabab va natija munosabatini ko'rsatyapti, matn tarkibidagi gaplarning birinchisi natija mazmunini, ikkinchi va uchinchi esa sabab mazmunini ifodalayapti. Ya'ni, onaning kamsuqumgina yashashiga sabab uning hech kimga ozor bermagani, hech kim bilan hech narsani talashmagani.

Yoshlarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish masalasi bugungi kunda dolzarb bo'lib qolmoqda. Chunki bo'sh qolgan yoshlar turli zararli odatlarga berilishi mumkin. Shuning uchun ularni sport, san'at va boshqa foydali mashg'ulotlarga jalb qilish zarur.

Berilgan matn publitsistik uslubga oid bo'lib, undagi har bir fikr bir-biriga sabab va natija munosabati orqali ulangan. Bu matndagi mantiqiy yaxlitlikni ta'minlaydi. Birinchi gap (*Yoshlarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish masalasi bugungi kunda dolzarb bo'lib qolmoqda*) natija munosabatini, ikkinchi gap (*bo'sh qolgan yoshlar turli zararli odatlarga berilishi mumkin*) birinchi gapning sababini, uchinchi gap (*ularni sport, san'at va boshqa foydali mashg'ulotlarga jalb qilish zarur*) ikkinchi gapning natijasini ifodalamoqda.

Tilshunoslikda sabab va natija munosabati faqatgina til qurilishining grammatik elementi emas, balki inson tafakkurining til orqali ifodalangan mantiqiy modelidir. Unda har bir fikr, har bir gap, har bir matn bir-biriga sabab va natija munosabatlari orqali bog'lanadi. Tilda bu bog'lanishlarni ifodalash uchun bog'lovchilar, so'z birikmalari, sintaktik qurilmalar, matn tuzilmalari kabi vositalardan foydalaniladi. Bularning barchasi gap va matnlardagi mantiqiy izchillikni ta'minlaydi.

Sabab va natijani to'g'ri tushunish va ifoda qilish malakasi hammaga birdek kerak [3]. Bu nafaqat grammatikani yaxshi tushunishga, balki fikrlashda aniqlik va izchillikka erishishga ham xizmat qiladi.

Shunday ekan, tilshunoslikda sabab va natija munosabatini o'rganish nafaqat tilni o'rganish, balki mantiq, tafakkur va hayotiy bilimlarni rivojlantirish demakdir. Bunday bilimlar esa har bir insonning ongli, savodli va mas'uliyatli bo'lib kamol topishida muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Филичева Н. Синтаксические поля. – М., Высшая школа. 1977.
2. O'rinboyev B., Musayev A. Umumiy tilshunoslik (o'quv qo'llanma). – Toshkent, 2022.200-bet.
3. Fayzullayev B., Abdullayev T., Haydarov Sh Hozirgi o'zbek adabiy tili (Sintaksis). Jizzax.2007.
4. Rasulova A. Sintaktik maydon konsepsiyasi va uning lingvistik talqini. – Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. 2025.280-284-bet.
5. Муминова М., Расулова А Развитие теории поля в современном языкознании – Социум, молодёжь, личность – в мысли и деятельности. 2025 – 195-199.

Qodirjon MO'YDINOV,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti
 moydinovqodirjon1973@gmail.com

SUD NUTQI LEKSIK BIRLIKLARINING MA'NOVIY MUNOSABATLARI

Annotatsiya: tilshunoslikda leksik-semantik guruhlar tarkibidagi lug'aviy birliklarni aniqlash, ularning o'zaro munosabatini sohalar leksikasi doirasida o'rganish tadqiqot obyekti sifatida maydonga chiqdi. Mazkur maqolada o'zbek tili sud nutqi leksikasi tarkibidagi lug'aviy birliklarning ma'noviy munosabatlari o'rganildi.

Kalit so'zlar: *yuridik hujjat, sistem leksikologiya, semantik maydon, giponimiya, graduonimiya, giperonim, darajalanish.*

Annotation: in linguistics, the object of research is the identification of lexical units within lexical-semantic groups, the study of their interrelationships within the framework of the lexicon of fields. This article examines the semantic relationships of lexical units within the legal lexicon of the Uzbek language.

Key words: *lexicon, jurisprudence, judicial body, legal document, legal term, systemic lexicology, semantic field, hyponymy, graduonymy, hyperonym, gradation.*

Аннотация: в языкознании выделение лексических единиц в лексико-семантические группы и изучение их взаимосвязей в лексике определённых полей стали предметом исследования. В данной статье исследуются семантические связи лексических единиц в лексике судебной речи узбекского языка.

Ключевые слова: *юридический документ, системная лексикология, семантическое поле, гипонимия, градуонимия, гиперонимия, градация.*

Sud nutqi leksikasi ham o'ziga xos semantik maydon bo'lib, u muayyan leksik-semantik guruhlardan tashkil topadi. Aniqrog'i, yuridik til leksikasi tarkibidagi leksik-semantik guruh birliklari o'zaro: 1) sinonimik; 2) giponimik; 3) semantik graduonimik; 4) antonimik; 5) partonimik; 6) funktsionimik munosabatda kuzatiladi.

O'zbek tilshunosligida giponimiya hodisasi haqida H.Ne'matov, R.Rasulovlarning o'quv qo'llanmasida [1], R.Safarova[3] va A.Sobirovlarning[4] monografiyalarida fikr bildirilgan. Xususan, A.Sobirovning monografiyasida ta'kidlanishicha: "Muayyan turlarga nisbatan umumiy ma'noni ifodalovchi va semantik maydonning yadrosi (markazi) da keluvchi bosh so'zga, dominantaga nisbatan *giperonim* atamasi ishlatiladi. Bu so'z jinsni bildiradi. *Giponim* ma'lum bir jinsning turini bildiruvchi leksik birlik sifatida yuzaga chiqadi. O'zi bilan teng qiymatga ega bo'lgan turdosh giponimlar bilan birgalikda giperonimga tobe bo'ladi"[4].

Sud nutqi leksikasiga oid birliklar o'rtasida ham giponimik munosabatlar ko'p kuzatiladi. Ular ishlatilish darajasiga ko'ra sinonimik munosabatdan keyingi o'rinda turadi.

Sud nutqi leksikasi tarkibidagi umumiste'mol so'zlar o'rtasidagi giponimik munosabatlar haqida maxsus to'xtalmaymiz. Chunki ularning ayrimlari haqida tilshunoslikda yetarlicha fikrlar bildirilgan. Biz, asosan, yuridik tilda ishlatiladigan yuridik terminlar giponimiyasiga to'xtalamiz. G.G'ulomova giponimik aloqa yuridik terminologiyaning asosini tashkil etishini ta'kidlab, *jinoyat, jazo* giperonimlarining giponimlari haqida fikr bildiradi[6].

Sud nutqi leksikasining quyidagi birliklari o'rtasida gipero-giponimik munosabat kuzatiladi:

Bayonnoma giperonimining giponimlari: guvohni so'roq

qilish bayonnomasi, jabrlanuvchini so'roq qilish bayonnomasi, yuzlashtirish bayonnomasi, voqea joyini ko'zdan kechirish bayonnomasi, shaxsni tanib olish uchun ko'rsatish haqida bayonnoma, tintuv haqida bayonnoma, ayblanuvchini so'roq qilish bayonnomasi; sud majlisi bayonnomasi va b.

Javobgarlik giperonimining giponimlari: mulkiy javobgarlik, moddiy javobgarlik, ma'muriy javobgarlik, xalqaro huquqiy javobgarlik, jinoiy javobgarlik va b.

Sud giperonimining giponimlari: oliy sud, fuqarolik sudi, jinoyat sudi, harbiy sud, iqtisodiy sud, ochiq sud, yopiq sud va b.

Sud ekspertizasi giponimlari: sud-filologik ekspertizasi, sud-lingvistik ekspertizasi, sud-biologik ekspertizasi, sud-kimyoviy ekspertizasi, sud-tibbiyot ekspertizasi, xatshunoslik ekspertizasi, sud-narkologik ekspertizasi, sud-psixiatriya ekspertizasi, sud-buxgalteriya ekspertizasi, eksqumatsiya (murdani qazib olish va qayta ko'mish), sud-elektroakustik ekspertizasi, sud-avtotexnika ekspertizasi, sud-ballistika ekspertizasi, sud-trassalogiya ekspertizasi va b.

Eslatamiz, muayyan semantik maydonga birlashuvchi leksemalar umumiy va xususiy belgilariga ko'ra o'zaro birlashadi yoki farqlanadi. Aniqrog'i, "sud ekspertizasi" giperonimining giponimlari mazmuni, maqsadi va qo'llanishiga ko'ra o'zaro birlashsa, joriylanishiga ko'ra xususiy – alohidadir. A.Sobirov ta'kidlaganidek: "Aynan mana shu jihat so'zlarning tildagi daxslizligini, xususiyligini ta'minlaydi va ularni muayyan paradigmalarga birlashtirish imkonini beradi"[4, 12].

Qaror giperonimining giponimlari: jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror, jinoyat ishini ish yurituviga olish haqida qaror, dastlabki tergovni tergovchilar guruhiga topshirish to'g'risida qaror, dastlabki tergovda

tergovchilar guruhini ko'paytirish to'g'risida qaror, tergov guruhi tarkibini o'zgartirish haqida qaror, jinoyat ishining tergovga tegishliligi bo'yicha yuborish to'g'risida qaror, tintuv o'tkazish haqida qaror, shaxsiy tintuv o'tkazish haqida qaror, ayblovni o'zgartirish haqida qaror, jabrlanuvchini majburiy keltirish haqida qaror, O'zbekiston Respublikasi nomidan hal qiluv qarori, qamoqqa olish haqida qaror, sud-tibbiy ekspertizasi tayinlash haqida qaror va b.

Qotillik. Qotillik. Qotil bo'lish, qotil ekanlik, odam o'ldirish [6, 347]. Qotillik giperonimining giponimlari: *pichoqlash, zaharlash, bo'g'ish, otish, bo'g'ilish, dimiqtirish, urish, do'pposlash, killer yollash, arqonga osish* va boshqalar.

Agar "sud ekspertizasi" giperonimining giponimlari joriylanishiga ko'ra o'zaro farqlansa, qotillik giperonimining giponimlari esa odam o'ldirish jinoyatining qanday usulda amalga oshirilishiga ko'ra farqlanadi. Qiyoslaymiz: *qotillik* – umuman odam o'ldirish; *killer yollash* – yollanma qotil vositasida odam o'ldirish; *pichoqlash* – sanchib kiruvchi o'tkir tig'li qurol – pichoq vositasida amalga oshirilgan qotillik; *zaharlash* – zaharli moddalar vositasida amalga oshirilgan qotillik; *bo'g'ilish* – zaharli gaz vositasida amalga oshirilgan qotillik; *otish* – qurol (miltiq, pistolet va sh.k.) vositasida amalga oshirilgan qotillik; *bo'g'ish* – bo'g'ish orqali amalga oshirilgan qotillik; *dimiqtirish* – suvga cho'ktirish orqali amalga oshirilgan qotillik; *urish, do'pposlash* – qattiq jismlar vositasida amalga oshirilgan qotillik va boshqalar.

Demak, giperonimlar umumiylik (jins), giponimlar – xususiyliklar (tur) bo'lib, ular semantik jihatdan turlicha bo'lgan birliklar orqali voqelanadi.

Sistem leksikologiyada giper-giponimik, xolo-meronimik (butun-bo'lak), graduonimik (darajalanish), funksional va boshqa munosabatlar keng o'rganilmoqda. Bular ichida graduonimik (darajalanish) hodisasining tilshunoslikda keng o'rganilganini kuzatish mumkin. Bu masala E.Begmatov, H.Ne'matov, R.Rasulov, O.Bozorov, S.G'iyosov, R.Safarova, M.Narziyeva, Sh.Orifjonova, M.Fayzullayevlarning tadqiqotlarida yoritilgan.

Sud nutqi leksikasiga oid birliklar o'rtasida faol bo'lgan semantik graduonimiyani uchratish mumkin. Semantik

graduonimiya sud nutqi leksikasining umumiste'mol so'zlar va yuridik terminlar qatlamiga xos birliklarda kuzatiladi. Xususan, sud nutqi leksikasida graduonimik munosabatda bo'lgan quyidagi birliklarni misol qilib keltirish mumkin:

gumon qilinuvchi → sudlanuvchi → ayblanuvchi → aybdor → mahkum → mahbus → residevist; residevist → xavfli residevist → o'ta xavfli residevist (O'zR JK 44-52 moddalar); jarima → muayyan huquqdan mahrum qilish → axloq tuzatish ishlari → xizmat bo'yicha cheklash → qamoq → intizomiy qismga jo'natish → ozodlikdan mahrum qilish → umrbod ozodlikdan mahrum qilish (O'zR JK 434-modda); chertmoq → turtmoq → urmoq → do'pposlamog;

shikastlamog → jarohat yetkazmog → chalajon qilmog → o'ldirmog; dastlabki tergov → tergov → surishtiruv bosqichlari → hibsga olish → sud → jazolash (yoki oqlash) → apellyatsiya → kassatsiya; yengil jinoyat → ijtimoiy xavfli katta bo'lmagan jinoyat → ijtimoiy xavfli katta bo'lgan jinoyat → og'ir jinoyat → o'ta og'ir jinoyat; o'g'ri → o'g'riboshi → qonundagi o'g'ri; mayda bezorilik → bezorilik → jinoyatchilik; jarima to'lash → mol-mulknii musodara qilish → ozodlikdan mahrum etish → umrbod qamoq jazosiga hukm qilish va b.

Demak, sud nutqi leksikasiga oid birliklar ichida graduonimik munosabatlarning: 1) ichki darajalanish; 2) leksik-semantik guruhlar yoki mazmuniy to'dalar o'rtasidagi darajalanish; 3) moddiy borliqdagi asosiy tushunchalarni ifodalovchi birliklar o'rtasidagi darajalanishlar [4, 146-149] kabi turlari kuzatiladi. Graduonimik munosabatdagi ushbu birliklar jinoiy yoki huquqbuzarlik harakati qanday boshlanib, qay tarzda rivojlanib va oxir-oqibatda nima bilan tugashini ko'rsatib bera oladi.

Xullas, obyektiv borliqda hamma narsadan uzilgan, alohida narsaning o'zi bo'lmaganidek, tilda ham lisoniy birliklar u yoki bu munosabat orqali o'zaro bog'langan bo'ladi, muayyan paradigmalarga birlashadi. Ushbu paradigmatic qatorlar ochiq ekanligi bilan xarakterlanadi. Ular davr ruhiga, zamon talabiga mos ravishda tinmay yangilanib turadi. Zero, leksik sistemaning o'zi ochiq sistemadir, yangilanib, boyib turadigan sistemadir

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Toshkent: Ўқитувчи, 1995.
2. Orifjonova Sh. O'zbek tilida lug'aviy graduonimiya: Filol.fan.nomz...dis. avtoref. – Toshkent, 1996.
3. Safarova R. Leksik-semantik munosabat turlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
4. Sobirov A. O'zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
5. O'zbekiston advokatlarining himoya nutqlari. – Toshkent: Adolat, 2006.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild. – Toshkent: O'zME, 2006.

Gulchehra KELDIYOROVA,
 O'zMU f.f.n., O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti
 e-mail: k.gulchehra0405@gmail.com

OKSYUMORONNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada oksyumoron hodisasining mohiyati, uning antiteza, antonimiya, korrelyatsiya va inkor kabi boshqa zidlikka asoslangan til hodisalari bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. Oksyumoronning mantiqan zid bo'lgan so'zlarning birikmasidan hosil bo'lishi, ularning poetik nutqdagi badiiy ifoda vositasi sifatidagi o'rni yoritiladi. E.Vohidov she'riyatida oksyumoronning o'rinni qo'llanishi misolida bu usulning badiiy-estetik qiymati ochib beriladi. Shuningdek, oksyumoron va antiteza o'rtasidagi umumiy hamda farqli jihatlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *oksyumoron, antiteza, antonimiya, tazod, korrelyatsiya, inkor, badiiy tasvir, stilistik figura.*

Аннотация: в статье рассматривается сущность оксюморона и его взаимосвязь с другими языковыми явлениями, основанными на противопоставлении — антипезой, антонимией, корреляцией и отрицанием. Раскрывается природа оксюморона как стилистической фигуры, создающей новое смысловое единство на основе сочетания логически несовместимых слов. На примере поэзии Э. Вахидова показано художественно-эстетическое значение оксюморона. Также анализируются сходства и различия между оксюморонами и антипезой.

Ключевые слова: *оксюморон, антипеза, антонимия, тазод, корреляция, отрицание, художественный образ, стилистическая фигура.*

Annotation: this article explores the linguistic and stylistic nature of the oxymoron and its relation to other contrast-based linguistic phenomena such as antithesis, antonymy, correlation, and negation. The study highlights how oxymorons combine logically incompatible words to create new, expressive meanings in poetic language. Through examples from E. Vohidov's poetry, the aesthetic and artistic value of oxymoron is demonstrated. The paper also discusses similarities and differences between oxymoron and antithesis.

Key words: *oxymoron, antithesis, antonymy, contrast, correlation, negation, artistic imagery, stylistic device.*

Oksyumoron mantiqan biri ikkinchisini inkor etadigan, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki tushunchani (mazmunan bir-biriga zid ikki so'zni) o'zaro qo'shishdan iborat stilistik figura [6:63]. Albatta, bu ta'rif ma'lum darajada nisbiy bo'lib, hodisa mohiyatini to'la ochib bera olmaydi. Chunki oksyumoronda, odatda, valentligi jihatdan mos kelmaydigan, uzual bog'lanish uchun xos bo'lmagan lisoniy birliklar mo'tadillashtirilgan holda sun'iy uzuallashtirilib, biri ikkinchisining belgisini ifodalash uchun xizmat qildiriladi.

Oksyumoron o'ziga xos antiqa lafziy badiiy usullardan biri bo'lganidan, unda mantiqan bir-biriga mos kelmaydigan so'zlarni biriktirish orqali yangi ma'noli birikma-tushuncha hosil qilinadi. Masalan: *navqiron keksalik, rohatbaxsh azob.*

Oksyumoron, odatda, ikki antonimik juftlik asosida qurilgan bo'lib, bu juftlikni tashkil qilgan so'zlar turli so'z turkumlariga oid bo'ladi [1:129].

Oksyumoron so'zlarning shunday qo'llanishi natijasida vujudga keladiki, bunda bir so'z ikkinchisiga asosan aniqlovchi bo'lib xizmat qiladi. Oksyumoron qarama-qarshilik asosiga qurilgan o'ziga xos timsollar yaratishga xizmat qiladi.

Bu tilshunoslikda okkazonalizm yoki okkazonal qo'llanish (noodatiylik, noodatiy qo'llanish) sifatida ham baholanishi mumkin. Bunda, albatta, g'ayriodatiylik biroz kuchli bo'ladi. Boshqacha aytganda, okkazonallik va uzuallik zidligi yuzaga kelgan bo'ladi [5].

Oksyumoron antiteza shu bilan farq qiladiki, antitezada qarama-qarshi tushunchalar birgalikda qo'llanmaydi. Oksyumoronda esa ma'nolariga ko'ra bir-biriga yopishmaydigan so'zlar yonma-yon ishlatilib, yangi ma'no va favqulodda ajoyib obrazlilikni yuzaga keltiradi.

Antitezada ma'nolari bir-biriga zid birliklarni parallel, yonma-

yon qo'shish orqali ochiladi, oksyumoronda esa bu so'zshakl birikma holda bo'ladi va zid ma'noli so'zlardan ularning har birining ma'nosi saqlab qolingan holda yangi bir ma'no kelib chiqadi [3].

E.Vohidov she'rlarida oksyumorondan o'rinni foydalanish namunalarini ham ko'ramiz:

Barcha zahmat menga bo'lsin,

Mayli, doim men yashay

Bu ajib totli azobu

Bu shirin qayg'u bilan [2:97].

Ushbu she'rda *totli azob* birikmasi muallif ustalik bilan foydalangan bo'lsa-da, aslida *totli* so'zi bilan *azob* so'zi mantiqiy birikma hosil qilmaydi. Biroq ushbu matnda ishq azobi, ya'ni ma'shuqaning ishq yo'lida chekkan azob-uqubatlari ham unga halovat, huzur bag'ishlaydi. U ana shu azoblardan rohatlanadi. Ana shuni his qilgan shoir ma'shuq o'rniga o'zini ko'radi va azobning ham unga torli tuyulishini, buning esa g'alati, ajib ekanligini ko'rsatib o'tadiki, ushbu holatni boshqacha ifodalash mumkin emas edi. Xuddi shuningdek, baytdagi shirin qayg'u birikmasi ham oksyumoron asosida tuzilgan bo'lib, ma'lumki, qayg'uning shirini bo'lmaydi. Biroq ma'shuqa azobi tufayli yuzaga kelgan qayg'u ham oshiq uchun rohat baxsh etadi. Boshqacha aytganda, ma'shuqa azobidan yuzaga kelgan qayg'u oshiqqa yoqimli tuyuladi va ana shu qayg'u bilan yashashdan u mamnundir. Bizning nazarimizda, shoir aniqlovchilarni ifodalash uchun ham sinonim so'zlardan foydalangan. Bu narsa oksyumoron shakllantirish uchun qulay imkoniyat yaratgan.

Shuningdek, qayg'u so'zi bilan ohangdoshlikni ta'minlash uchun ham yana she'riy talabni ham (bo'g'in miqdori) nazarda tutib, azob so'zini azobu shaklida qo'llagan. Jiddiyroq tahlil

qilinsa, nazarimizda, totli va shirin, azob va qayg'u so'zlari orasida ma'lum darajada zidlanish ham borligi seziladi.

A.T.Rubaylo oksyumoronning matnda qo'llanishida e'tibor berar ekan, quyidagi fikri aytib o'tgan: "Oksyumoron belgilarni moddiy (yoki ashyoviy) emas, balki ichki hissiy va oddiy tasvirlash shaklida ta'riflash mumkin bo'lmagan hollarda ifodalash vositasi sifatida qo'llaniladi" [4:51].

Antiteza bilan antonimiya, korrelyatsiya, inkor va oksyumoron orasida o'zaro munosabat bo'lib, ularni bir narsa birlashtirib, shu munosabatni ta'minlab turuvchi, har uchala hodisada ham, odatda, tushunchalar o'rtasida ma'lum darajada zidlanish bo'ladi. Zidlik xarakteri va darajasi, albatta, har xildir. Yana bir holatni ham aytib o'tish kerakki, korrelyatsiya, antonimiya va inkorda ham, shuningdek, antitezada ham zidlik, asosan, matndagi, nutqdagi ikki komponent o'rtasida bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, antiteza, korrelyatsiya, antonimiya va inkor hodisalari o'rtasidagi umumiy jihatlarni quyidagicha belgilash mumkin:

Hammasi ham ikki komponentdagi birliklarning zidlanishiga, ular ma'nolarida nisbiy zidlanishning mavjudligiga asoslanadi.

Ushbu hodisalarning hammasida tarkib ikki qismdan iborat bo'ladi. (bunda korrelyatsiyadagi umumlashtiruvchi so'z nazarda tutilmasligi lozim).

Bu hodisalardagi bir komponent ifodalagan tushunchaning mavjudligi ikkinchi bir tushunchaning (ikkinchi komponent orqali ifodalangan tushunchaning) mavjudligini taqozo etadi, uni eslatib turadi.

Ushbu hodisalar komponentlari, odatda, bir xil leksik-semantik to'daga birlashtiruvchi yoki bir xil paradigmadagi grammatik shaklga ega bo'lgan birliklardan tarkib topgan bo'ladi.

Bu hodisalarning hammasi ham nutqda juftlashtirilganda, tilning tasviriy vositasi sifatida qo'llanilishi ekspressiv-stilistik vazifa bajarishi mumkin.

Bu hodisalar o'rtasidagi farqlar:

1. Korrelyatsiya, antonimiya, inkor til hodisasi, antiteza esa nutq hodisasi.

2. Korrelyatsiya va antiteza tushunchalarning o'zaro zidlanishiga asoslanuvchi hodisalar bo'lsa, antonimiya va inkor ma'nolarning zidlanuvchi asoslanadi.

3. Antiteza til birliklari zidligi yoki ularning nutqda zidlantirilishidan hosil qilinuvchi badiiy lafziy tasvir vositasi bo'lsa, antonimlar, korrelyatsiya va inkor ana shu lafziy tasviriy

vositani yuzaga keltiruvchilardir.

4. Til hodisalari hisoblangan korrelyatsiya, antonimiya va inkorda ularning qismlari-komponentlari orasidagi zidlik oldindan tayyor holda mavjud bo'lsa, qutblar orasidagi ichki munosabat, aloqadorlik asosida yuzaga kelgan bo'lsa, antiteza qismlari orasidagi bunday munosabat yoki aloqa, asosan, nutq jarayonida shakllantiriladi.

5. Korrelyatsiya, antonimiya va inkorda nutqda ishlatilish imkoniyatlari cheksiz (turli nutq ko'rinishlarida keng qo'llanila oladi) bo'lsa, antiteza esa, asosan, poetik nutqda qo'llanishga xoslanganligi bilan ajralib turadi.

Antiteza, tazod va oksyumoron hodisalari o'rtasidagi umumiy va xususiy jihatlari quyidagicha belgilash mumkin:

1. Antiteza va tazod aslida bitta filologik hodisa bo'lib, bu ikki so'z (biri lotincha – antiteza, biri arabcha – tazod, o'zagi ziddir) ana shu bir hodisaning ikki tildagi ifodasidir. Shunga qaramay, hozirgi kunda antiteza va tazod atamaları ifodalagan tushunchalar qamrovi va qo'llanishi jihatdan ma'lum darajada o'zaro farqlanadi. Jumladan, tazod tushunchasi, asosan, Sharq she'riyatidagi she'riy lafziy san'at sifatida baholansa, antiteza, umuman, badiiy adabiyotdagi badiiy tasviriy vosita sifatida baholanadi. Ularning har ikkala qismlari (komponentlari orasidagi) zidlanish asosida shakllanadi.

2. Antiteza va oksyumoron hodisalari nutq jarayonida ma'lum maqsad bilan, odatda, badiiylikni ta'minlash maqsadida shakllantirilib, antiteza ham, oksyumoron ham badiiy tasvir vositasi va ular ijodkorning individual mahorati bilan bog'liq holda uning asarlarida o'z ifodasini topadi.

3. Antiteza ham, oksyumoron ham ular qismlarini tarkib toptiruvchi tushunchalar orasidagi zidlanish asosida yuzaga kelib, ikkalasi ham ikki qism (komponent) ularni tarkib toptiradi.

4. Antiteza va oksyumoron lafziy badiiy san'atlari quyidagi farqli jihatlarga ham ega: a) antitezada ikki tushuncha zidlantirilsa, oksyumoron zid tushunchalarni ifodalovchi, mantiqan birlashtirilishi mumkin bo'lmagan so'zlar, odatda, bitishuv asosida biriktiriladi va so'z birikmasi hosil qilinadi; b) antitezada tushunchalar matnda biri ikkinchisini inkor etish uchun xizmat qiladi, oksyumoronda biri ikkinchisining belgisini ifodalab keladi, inkor etmaydi; c) antitezada komponentlar turli xil leksik-grammatik birliklardan tashkil topsa, oksyumoronda, odatda, birinchi qism sifat, ravish va ba'zan, fe'l shakllaridan, ikkinchi qism esa ot yoki fe'l shaklli so'z bo'ladi (*totli azob, shoshilmay chopmoq, gapirmay charchamoq, tez sustlashmoq... kabilar*).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Введенская Л.А. Стилистические фигуры, основанные на антонимах. Ученые записки Курского государственного педагогического института. № 25. – Курск, 1966. – С. 129.
- Воҳидов Э. Куй авжида узилмасин тор. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991. 97-бет.
3. Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. Филол.фан.док...дисс. – Самарқанд, 1993.
4. Рубайло А.Т. Художественные средства языка.– М., 1961. – С. 51-52.
5. Тошалиева Севара. Ўзбек тилида окказионал сўз ясаши. Филол.фан.ном.дисс...автореф. – Тошкент, 1998.
6. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. 63-бет.

NEMIS VA O'ZBEK TILLARI MAQOLLARI ORASIDAGI TIL ICHKI KORRELYATSIYALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada nemis va o'zbek tillaridagi maqollarning strukturaviy hamda mantiqiy-semantik tahlili keltiriladi va har ikki tilda maqollar ulkan tarkibiy, semantik va uslubiy xususiyatlarga ega ekanligi ko'rsatib beriladi. Tadqiqot jarayonida maqollar tarkibida sinonimiya, variantlilik, ko'p ma'nolilik, antonimiya va omonimiya kabi hodisalarga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: maqol, semantika, tuzilish, ko'p ma'nolilik, sinonimiya, antonimiya, omonimiya, frazeologiya, kontekst, lingvistik bog'liqlik.

Annotation: this article presents a structural and logical-semantic analysis of proverbs in German and Uzbek, demonstrating that both languages possess a wide range of structural, semantic, and stylistic features in their proverbs. Special attention is given to phenomena such as synonymy, variation, polysemy, antonyms, and homonymy in the context of proverbs.

Key words: proverb, semantics, structure, polysemy, synonymy, antonyms, homonymy, phraseology, context, linguistic correlation.

Аннотация: в данной работе представлен структурный и логико-семантический анализ пословиц в немецком и узбекском языках. Особое внимание уделяется явлениям синонимии, вариативности, полисемии, антонимии и омонимии в составе пословиц.

Ключевые слова: пословица, семантика, структура, полисемия, синонимия, антонимия, омонимия, фразеология, контекст, лингвистическая корреляция

Mazkur ishda amalga oshirilgan nemis va o'zbek tillari maqollarining struktur, mantiqiy-semantik tahlili shuni ko'rsatdiki, o'zbek tilida bo'lgani kabi, nemis tilida ham maqollarning struktur, semantik va stilistik diapazonlari nihoyatda keng, shu bilan birga, ayni vaqtda ko'plab umumiyliklarga ham ega. O'z navbatida, mantiqiy-semantik tahlil ham til ichidagi, ham tillararo o'xshashlik va farqlarni aniqlash imkonini beradi.

Maqolaning asosiy vazifasi alohida olingan tillardagi ichki korrelyatsiyalarni aniqlash va ko'rsatishdan iborat bo'lib, bizningcha, bunday tahlil maqolda berilgan semantikani boshqa tilda ifodalashga nisbatan yondashuvni ishlab chiqishga yordam beradi.

Ma'lumki, har bir tilda unda so'zlashuvchilar uchun o'z fikrini tushunarli va aniq qilib yetkazish imkonini beruvchi ko'p sonli leksik birliklar mavjud bo'lib, ushbu til sohiblari mazkur lug'aviy boylikni o'zlashtirgan bo'ladi, tilning grammatik xususiyatlarini, u yoki bu hodisaga nisbatan o'z munosabatini obrazli shaklda ifodalash vositalarini yaxshi biladi. Bu shartlarning barchasi nutq madaniyati sohasiga tegishlidir. Ushbu jabhaning muhim tomonlaridan biri antonimiya, omonimiya, polisemiya, sinonimiya va hokazolardir.

Biz sinonimiya, variativlik, polisemiya, antonimiya, omonimiya ham yaxlit maqollar tarkibiga xos deb hisoblashga moyildirmiz. Shu bois, alohida olingan tillar maqollari o'rtasida ichki til munosabatlari masalasiga to'xtalayotib, eng avvalo, mazkur hodisalarni har bir tilning maqollar qatlamiga nisbatan ko'rib chiqish joizdir. Nazarimizda, maqollar o'rtasida mazkur

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zlashtirilgan so'zlarining sintaktik assimilyatsiyasi hodisasi, xususan, o'zbek tilidagi tojikcha va tojik tilidagi o'zbekcha so'z o'zlashmalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'zlashgan birliklarning qabul qiluvchi til - tojik tilining fonetik, morfologik va sintaktik qonun-qoidalariga qanday moslashgani o'rganiladi. Jalol Ikromiyning "Duxdari otash" va Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanlari asosida o'zbek va tojik tillarining o'zaro ta'siri hamda grammatik uyg'unlashuvi ko'rsatilgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbekcha so'zlar tojik tilidagi izofali va izofasiz birikmalarda faol ishlatilgan, morfologik o'zgarishlarga uchragan hamda tojik tili sintaksisiga moslashgan. Shu bilan birga, tojikcha frazeologik va tarkibli birikmalarning o'zbek tilida qo'llanishi o'zaro til o'zlashuvining ikki yo'nalishda kechayotganini isbotlaydi. Tadqiqot xulosalariga ko'ra, sintaktik assimilyatsiya – grammatik va semantik moslashuvni o'z ichiga olgan murakkab, ko'p bosqichli jarayondir.

Kalit so'zlar: *sintaktik assimilyatsiya, o'zlashgan so'zlar, tojik tili, o'zbek tili, lingvistik ta'sir, grammatik moslashuv, leksik o'zlashuv, birikma, tillararo ta'sir.*

Language, as is well known, exists among living beings in the real world – such as humans, animals, birds, reptiles, rodents and others. However, not all of these beings possess an articulate language. The gift of articulate speech belongs to humans. Language, as a major human asset, is the most important and unique tool through which thought arises and is

expressed in the human mind. Through language, people establish communication with one another, exchange ideas, understand each other's thoughts, unite into societies, and create production, science and culture. They also perform tasks essential for the progress and development of society.

Language is a system composed of phonetic,

grammatical and lexical structures, created to meet the communicative needs of a community's members and realized in the form of sentences.

It is obvious that without words being arranged in a specific order and connected to one another, a sentence cannot exist. Hence, our speech consists of interrelated words, and when we speak, we mentally visualize these words. Therefore, to express meaning and concept during communication, a language accumulates a wide range of synonymous and polysemous words.

Since native words alone are often insufficient for the complete expression of thought, lexical units from other languages – directly or indirectly – enter the vocabulary of a given language.

All the native words and borrowings together form the lexical system of a language. Thus, the vocabulary of any language is divided into two groups:

Native words

Borrowed words.

The group of native words includes all the original lexical units of the language, while the group of borrowed words includes all phonetic, grammatical and semantic elements that have entered from foreign languages. However, not all foreign words are automatically considered assimilated borrowings. For foreign words to be classified as borrowed words, they must undergo a process of linguistic assimilation.

Foreign linguistic elements must fully adapt to the phonetic, semantic, and grammatical rules of the recipient language and become integral components of its structure.

The assimilation of borrowed words is a complex process influenced by the features of both the donor and recipient languages. During this process, phonetic, lexical and morph-syntactic laws of the recipient language play an unavoidable role.

Foreign words are considered assimilated only when they conform to the phonetic, morphological and syntactic norms of the recipient language; otherwise, they remain outside the system of borrowings.

To illustrate this phenomenon, we present our observations on **syntactic assimilation of borrowed words** based on the novels “*The Girl of Fire*” by Jalol Ikromi and “*Bygone Days*” (*O'tkan kunlar*) by Abdulla Qodiriy.

Syntactic assimilation refers to the adaptation of borrowed words to the syntactic rules of the recipient language.

For instance, let us look at the participation of Uzbek borrowed words in the formation of simple and compound noun phrases in Tajik. In both subordinate

and principal roles, Uzbek loanwords are used within Tajik syntactic structures.

1. Uzbek borrowed nouns as the main component in genitive (izofat) constructions: In Jalol Ikromi's “*The Girl of Fire*”, we find examples such as:

Oqsakoli guzar (white-bearded elder of the neighborhood), *chug'i otash* (bird of fire), *qaymoqi Bukhoro* (cream of Bukhara), *quttii gūgird* (matchbox), *kuli shagalon* (jackals' lake), etc.

These Uzbek-origin words function according to Tajik syntactic norms, taking on Tajik morphological endings and combining with Tajik nouns, pronouns and adverbs.

2. Uzbek borrowed nouns in combination with pronouns or adverbs: Examples include *tui man* (my wedding), *qishloqi mo* (our village), *elka-i vai* (his shoulder), and others. These follow Tajik syntactic structures though containing Uzbek lexemes.

Interestingly, in phrases such as *laqidani miyonarav* (“the mediating act”), an Uzbek-derived verbal noun participates as a dependent element within a Tajik genitive phrase – showing deep syntactic assimilation.

In contrast, in Qodiriy's “*Bygone Days*”, purely Tajik-style izofat constructions like *toj-i sari khushbakhton* (“crown of the fortunate”) and *bazm-i Jamshid* (“banquet of Jamshid”) appear – indicating Tajik syntactic influence on Uzbek literary language.

A number of these borrowed genitive phrases in Uzbek also accept case endings or plural suffixes (e.g., *sebi zanakhdon-i*, *novaki mijgon-i*, *kori badlar-i*), showing morphological assimilation alongside syntactic adaptation.

Furthermore, non-izofat (analytic) phrases in Tajik like *in qishloq* (this village), *yak otim nos* (a pinch of tobacco), etc., also employ Uzbek lexical borrowings. Conversely, Uzbek phrases such as *bekor gap* (idle talk), *nozik joy* (delicate place), combine with Tajik words but follow Uzbek syntactic order – illustrating mutual syntactic borrowing.

Certain set expressions and idioms, like *khush omadi* (“welcome”), appear directly borrowed from Tajik into Uzbek, while others are translated calques, e.g., *lab-i labiga tegmay* (“not touching lip to lip”), *dumi khoda qildi* (“made the stick's tail”) – showing how Tajik phraseology has entered Uzbek literary usage.

Compound expressions formed with coordinating particles *va*, *-u*, *-yu* display mixed composition:

Uzbek + Tajik: *tūyu khursandī* (feast and joy), *kelinu domod* (bride and groom);

Tajik + Uzbek: *modar-arus va kelin* (mother-in-law)



and bride), *tanu tush* (body and soul).

Similarly, in Qodiriy's novel, entire Tajik compounds entered Uzbek:

Without change: *yoru dust* (friends), *shodu khurram* (happy);

With morphological change: *bajonudil* (wholeheartedly), *azbaroi khudo* (for God's sake);

With orthographic variation: *bo-khudo* (by God),

dodi-faryod (lament);

With case suffixes: *jonu-dildan* (from heart and soul), *bolu paridan* (from wings).

Thus, Uzbek and Tajik borrowed words, after undergoing syntactic assimilation, participate according to the grammatical and syntactic rules of the recipient language, often undergoing phonetic and morphological transformation in the process.

References

1. Абдулло Қодирӣ. «Ўткан кунлар» (роман). Тошкент: «Шарқ», 2000.
2. Виноградов В.В. Основные типы лексических значений слов. Изб.труды. Лексикология и лексикография. М., 1977.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-2 том. М.: «Рус тили», 1981.
4. Файзов М. Таджикская литературное произношение. Душанбе: «Дониш», 1983.
5. Шоабдурахмонов Ш., Асқаров М., Хожиев А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1 қисм (лексикология, фразеология, лексикография). Тошкент: «Ўқитувчи», 1980.
7. Чалол Икромӣ. Духтари оташ (роман). – Душанбе, «Адиб», 2009, 560 с.
8. Ўзбек тилининг имло луғати. Тошкент: «Академнашр», 2013, Н. Махмудов таҳрири остида (528 бет).



ADABIYOTSHUNOSLIK

Xamida JURAQOBLOVA,
Turon universiteti professori

SHE'RIY MATNLARDAGI KOGNITIV METAFORANING POETIK TABIATI

(Shavkat Rahmon she'rlari misolida)

Annotatsiya: maqolada kognitiv metaforaning poetik tabiati va uning ifodalanish xususiyatlari tahlil qilingan. Kognitiv metafora insonning his-tuyg'ulari, ruhiy olami va dunyoqarashini lisoniy hamda madaniy belgilar tizimi orqali ifodalashning samarali vositasi sifatida izohlangan. Tadqiqot doirasida Shavkat Rahmonning she'rlaridagi metaforalar tahlil qilinib, Shavkat Rahmon poetik tilining o'ziga xosligi, metafora orqali milliy tafakkur va madaniy merosning lisoniy ifodasi namoyon bo'lishi asoslab berildi.

Kalit so'zlar: kognitiv metafora, poetik til, milliy tafakkur, madaniy meros, konseptual model, lisoniy metafora.

Аннотация: в статье анализируется поэтическая природа когнитивной метафоры и особенности её выражения. Когнитивная метафора рассматривается как эффективное средство выражения чувств, духовного мира и мировоззрения человека через лингвистическую и культурную систему знаков. В рамках исследования проанализированы метафоры в поэзии Шавката Рахмана, обоснована своеобразие его поэтического языка, в котором через метафору проявляются национальное мышление и культурное наследие.

Ключевые слова: когнитивная метафора, поэтический язык, национальное мышление, культурное наследие, концептуальная модель, языковая метафора.

Annotation: the article analyzes the poetic nature of cognitive metaphor and the peculiarities of its expression. Cognitive metaphor is explained as an effective means of conveying human emotions, spiritual world, and worldview through linguistic and cultural systems of signs. Within the framework of the study, metaphors in Shavkat Rahmon's poetry are examined, substantiating the uniqueness of his poetic language in which national thinking and cultural heritage are reflected through metaphorical expression.

Key words: cognitive metaphor, poetic language, national thinking, cultural heritage, conceptual model, linguistic metaphor.

Kirish. Metafora zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda eng ko'p o'rganilgan lingvistik hodisalardan biri bo'lib, unga bo'lgan qiziqish bir necha o'n yillar davomida yanada ortib bormoqda. Kognitiv metafora tilning ma'naviy va hissiy jihatlarini tasvirlashdagi eng samarali vosita bo'lib, bir narsani boshqa narsaga o'xshatish orqali yangi ma'no hosil qilish usulidir. Metafora boshqa badiiy tasvir vositalariga qaraganda ancha faol bo'lib, she'riyatning jozibali bo'lishini ta'minlaydi. She'riy asarlardagi metaforalarda milliy madaniyat, urf-odatlar, hayotiy tajribalar, diniy e'tiqodlar va tabiatga bo'lgan munosabat hamda xalqning tarixiy xotirasi o'z ifodasini topadi. She'riy asarlarda kognitiv metaforalarning qo'llanishi asarning semantik va madaniy boyligini chuqur anglashga imkon berib, ular insonning ichki dunyosi va atrof-muhitni tasvirlashdagi noyob til vositasidir. Ular nafaqat tilning estetik imkoniyatlarini, balki milliy tafakkur va madaniy merosni ham aks ettiradi.

She'riy asarlarda metaforaning go'zalligini inkor etib bo'lmaydi. Shu bois bu ifodaviy vositani tahlil qilish ham tilshunolar, ham adabiyotshunoslar e'tiborini alohida o'ziga tortadi. XXI asr zamonaviy lirikasida metafora

tadqiqi natijalari shuni ko'rsatadiki, shoirlar o'z asarlarini yaratishda nafaqat metaforalardan foydalanadilar, balki o'zlari ham individual metaforalar yaratadilar. Shu bois lirik asar asosidagi metaforalarning semantik, funksional, sintaktik-stilistik, kognitiv xususiyatlarini o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb o'rganish obyektlaridan hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Metaforaning ilmiy tafakkurdagi o'rni masalasiga e'tibor qaratgan X. Ortega-i-Gassetning ta'kidlashicha: "She'riyat sof metaforaning o'zi, fan esa metaforadan vosita sifatida foydalanadi". [6, 1990:68] Metaforaning kundalik, rasmiy, ilmiy va badiiy nutqdagi o'rni masalasini o'rgangan rus olimasi N.D.Arutyunovanning fikricha: "Metafora poetik dunyoqarash bilan uzviy bog'langan bo'lib, ayrim hollarda poeziyaning o'ziga xos ta'rifi ham metafora orqali ifodalanadi. Shu bois metaforaning xususiyatlarida she'riy nutqning belgilari va poetik ifoda vositalari izlanadi". [2, 1990:16.]

Keyingi yillarda she'riy asarlarda metafora qo'llanishi masalasining turli jihatlarini o'zbek tilshunolari tomonidan ham keng o'rganilmoqda. O'zbek shoiri To'ra Sulaymon she'rlarida metaforaning o'rni, undan badiiy foydalanish


mahorati masalasi X.Ibragimov tadqiqotlarida o'rganilgan. Muallifning ta'kidlashicha, To'ra Sulaymon she'rlarida tangri, pari, sanam, malak, farishta, gul kabi metaforalar shaxsning ijobiy xususiyatlarini ifodalash uchun qo'llanilgan. Bu leksemalar semasida "ijobiylik" mavjud bo'lib, shoir shundan ustalik bilan foydalangan va o'zi ham xususiy metaforalar yaratgan. [3] Abdulla Oripov ham lirik she'rlarida lisoniy metaforaning turli ko'rinishlaridan unumli foydalangan, go'zal obrazlar yaratishda tilning nozik semantik imkoniyatlarini o'z badiiy niyatiga yo'naltirgan. [7,2020:252-255] Metaforalarning sintaktik-stilistik xususiyatlarini Shavkat Rahmon she'rlari misolida tadqiq qilgan D.Yunusova metaforaning poeziyadagi o'rni muhim ahamiyatga ega ekanligini, u faqat narsa-hodisani shunchaki atabgina qolmay, balki uni boshqa narsa-hodisaga qiyosan tavsiflashda, inson ongida atalayotgan narsa haqida jonli tasavvur obraz yaratishda vosita sifatida xizmat qilishini ta'kidlaydi. [8, 2022:52]

Aslida ham, she'riyatni metaforasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayniqsa, Shavkat Rahmon kabi olamni o'zgacha tasavvur qila oladigan, tabiat bilan tillasha oladigan ijodkor she'rlari so'zlarning ma'no tovlanishlariga, turli lisoniy vositalarning uslubiy xoslanishlariga to'ladir. XX asr o'zbek she'riyatining iqtidorli vakillaridan biri Shavkat Rahmon she'rlari nafaqat o'zbek tadqiqotchilari, balki ko'plab xorijiy tadqiqotchilar uchun ham tadqiqot manbai bo'lib xizmat qildi. Fransiyaning O'rta Osiyoni o'rganish instituti (IFEAC) tadqiqotchisi, fransuz tarjimoni Jan-Per Balp va o'zbek shoiri, jurnalist H.Ismoilov Shavkat Rahmon she'rlarini fransuz tiliga tarjima qildilar va farang kitobxonlarini ham shoir ijodidan bahramand qildilar. [1,2008:116]

Biz ham quyida Shavkat Rahmonning "So'z qudrati" she'rida qo'llanilgan kognitiv metaforalarni tahlil qilishga harakat qilamiz. Shoirning "So'z qudrati" she'ri umuminsoniyat taraqqiyoti uchun fojea darajada xavfli bo'lgan illat "shaxsga sig'inish" haqida. She'rning nomining o'zidayoq biz metaforaga duch kelamiz. Shoir "so'z"ni faqat ifoda vositasigina emas, balki ta'sir etuvchi kuch, yaratuvchi yoki vayron qiluvchi quvvat sifatida ifodalagan. She'r quyidagi misralar bilan boshlanadi:

Ariq bo'yidagi
 sarg'ish chimzorda
 pashshaga talanib yotgan mayxo'rga o'zingni valiga
 sig'inadigan
 avom bir qul kabi
 qarashga o'rgat.

Bu misralarda shoir jamiyatdagi ma'naviy inqiroz, inson qadrining yo'qolishi va fiksizlik illatiga qarshi o'z munosabatini ifodalagan. Bir qaraganda bu ifoda



jismoniy holatni, ya'ni iflos joyda yotgan mast kishini ifodalayotgandek ko'rinadi. Ammo metaforaning kognitiv mohiyati shundaki, shoir bu real tasvir orqali jamiyatning ma'naviy va ruhiy holatini ko'rsatib bergan. "Ariq bo'yidagi sarg'ish chimzorda" bu – ma'naviy muhitning ramzi, "sarg'ish" rang so'lish, zaiflikning ramzi. Demak, shoirning ongidagi konseptual xaritalash quyidagicha: Jamiyat – so'lib, ifloslanib borayotgan tabiat manzarasiga o'xshaydi.

Ichir Sirdaryoday *ulug' mehringni*
hovuchlab-hovuchlab ochiq qalbingdan.

Ko'ksingga qo'l qo'yib,
 ta'zim qilaver,
 buyuksiz deyaver har bir gapingda.

Yuqoridagi "Ichir Sirdaryoday *ulug' mehringni* *hovuchlab-hovuchlab ochiq qalbingdan*" misrasida His-Tuyg'u Bu – Suyuqlik, Qalb Bu – Konteyner (Idish) kabi konseptual modellari asosida hosil bo'lgan metaforalarni ko'rish mumkin. "Ichir Sirdaryoday *ulug' mehringni...*" jumlasida adib mehrni suyuqlik (suv oqimi) orqali modellashtirgan. Konseptual xaritalash sxemasiga asosan manba sohasi "suv, daryo, oqim" → maqsad sohasi mehr, his, ehtiros. Shoir suvning oqishini his-tuyg'ularning harakatiga, Sirdaryoni esa cheksiz mehr manbaiga, "ichir" deya mehrni ichirish,

ya'ni hisni boshqalarga ulashishni ifodalagan. U hisni "suyuqlik" kabi iste'mol qilinadigan, jismoniy ehtiyojni qondiruvchi modda sifatida tasvirlagan. Bu bilan shoir emotsional energiyani moddiylik orqali obrazlashtirishga erishgan.

J.Lakoff va M.Jonson ta'kidlaganidek, kognitiv metaforalarning ontologik turida inson tafakkurida mavhum holatlar ko'pincha "idish sxemasi" orqali anglanadi. [4,2004:50] Faoliyat, voqea-hodisa, his-tuygular va fikr-mulohazalarga xos nomlar moddiylik kabi ko'rsatiladi va bir turning nomi boshqa turga ko'chiriladi. Ular atrofdagi voqelikdagi obyektlarning masalan, mo'rt, qattiq kabi xususiyatlarini mavhum tushunchalarga, masalan, aql, his-tuyg'u, axloq va boshqalarga ko'chishiga asoslanadi. [5,2016:193] "Ichir Sirdaryoday ulug' mehringni hovuchlab-hovuchlab ochiq qalbingdan" misrasida ham "qalb" o'z chegarasi, tubiga ega bo'lgan moddiy obyekt sifatida konseptuallashtirilgan va Qalb Bu – Konteyner (Idish) konseptual metaforasi asosida metaforik ibora hosil bo'lgan. Shu tariqa, Shavkat Rahmon poetik fikrni jismoniy tajribadan kelib chiqqan kognitiv metaforalar orqali ifodagan.

*Sinamoqchi bo'lsang so'z qudratini,
o'zingni majbur qil,
o'zingga buyur,
ichib Sirdaryoday ulug' mehringni, esipast, albatta,
bo'ladi buyuk.
So'ngra g'olibona tikilishidan*

*sen titray boshlaysan tomchi simobday,
go'yo sen yotganday kuppa-kunduzi pashshaga
talanib*

sarg'ish chimzorda...

"So'z qudratini ichib Sirdaryoday ulug' mehringni" misralarida "so'z" va "mehr" mavhum tushunchalar bo'lib, ular suyuqlik (ichish) va daryo (Sirdaryo) kabi aniq obrazlar orqali ifodalangan. Bu metaforik iboralar "His-Tuyg'u – Suyuqlik" Va "Mehr – Tabiat Kuchi (Daryo)" konseptual metaforalari asosida hosil bo'lgan.

Shavkat Rahmon she'riyati tahlilidan metaforaning poeziyadagi o'rni nechog'li ahamiyatli ekanligini, u faqat narsa-hodisani shunchaki atabgina qo'ymay, balki uni boshqa narsa-hodisaga qiyosan tavsiflashida, inson ongida atalayotgan narsa haqida jonli tasavvur obraz yaratishida ko'rish mumkin. Shavkat Rahmonning so'z qudrati shundaki, u oddiy so'z orqali butun jamiyat ongini tahlil qiladi. Shu tarzda metafora unda ijtimoiy va ma'naviy tafakkur modeliga aylanadi.

Shoirilar o'z she'rlarini yaratishda metaforalardan unumli foydalanadilar, hatto o'zlari metafora yaratadilar. Muayyan muallifning she'riy ijodi ko'pincha unga xos bo'lgan metaforalar orqali ta'riflanadi va shoirilar bunday ta'riflarni tushunadilar va qabul qiladilar. Metafora poeziya zaminida gullab-yashnaydi, biroq poeziyaning mazmun-mohiyati faqatgina metafora bilan cheklanib qolmaydi. [2,1990:16-20]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anthologie de la poesie d'Ouzbekistan. Traduite et adaptée par H.Ismailov et Jean-Pierre Balpe. Tom 2. – Paris: Edition du Sandre, 2008. –63 p.
2. Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс. Теория и метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – С. 16-20.
3. Ибрагимов Х. Тўра Сулаймон шеърлятида метафоранинг ўрни. Filologiya ufqlari. <https://hp.jdpu.uz/index.php/hp/article/download/886/542/2115>
4. Лакофф Джордж, Джонсон Марк. Метафоры, которыми мы живем: Пер. с англ. / Под ред. и с предисл. А.Н.Баранова. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – С. 50.
5. Егорова О. А., Калашникова В. В. Теория концептуальной метафоры в когнитивной лингвистике. Электронный научный журнал. № 10-1. (13) 2016. – С. 193.
6. Хосе Ортега-и-Гассет. Две великие метафоры. Теория и метафоры. –М.: – Прогресс, 1990. – С. 68.
7. Шодмонова Д.Э. Абдулла Орипов шеърлятида қўлланган лисоний метафоралар семантикаси. Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети Ахборотномаси. 2020, № 2 (47). 252-255-бетлар.
8. Юнусова Д.А. Шавкат Раҳмон шеърлятида метафорани ҳосил қилувчи лексик-грамматик воситалар тадқиқи. Филол.фан.б.фал.д-ри. (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд, 2022.52- бет.
9. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/shavkat-rahmon-shearlari-fransuz-tilida-chawkat-rahmon-poesmes.html>

Yorkinoy NASIRDINOVA,
 Qo'qon universiteti Andijon filiali
 Tillarni o'qitish kafedrasini mudiri
 Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD
 E-mail: nasirdinovayorkinoy@gmail.com

TASAVVUF, HOKIMIYAT VA ESTETIK QARASHLAR: TOUTANTNING NAVOIY TALQINI VA O'ZBEK NAVOIYSHUNOSLIGINING KONSEPTUAL ASOSLARI

Annotatsiya: maqolada Alisher Navoiy ijodining Mark Toutant tomonidan talqini tahlil qilinadi. Tadqiqotda Navoiy asarlaridagi tasavvuf, hokimiyat va estetik tamoyillar uyg'unligi yoritilgan. Qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida Toutant va o'zbek navoiyshunoslari qarashlari solishtiriladi. Natijada, sovet davrida Navoiy merosi tor ideologik doirada talqin qilingani, Toutant esa uning tasavvufiy va ma'naviy jihatlarini chuqur tahlil etgani ko'rsatiladi. Xulosa: Navoiy merosini tasavvuf, hokimiyat va estetika birligi orqali o'rganish uni to'liqroq anglash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Navoiy, tasavvuf, hokimiyat, estetik qarashlar, navoiyshunoslik, Mark Toutant, nazira, Naqshbandiya, adabiy meros.

Аннотация: в статье анализируется интерпретация творчества Алишера Навои, предложенная Марком Тутаном. Исследование раскрывает единство суфийских, властных и эстетических принципов в произведениях Навои. На основе сравнительно-аналитического подхода сопоставляются взгляды Тутана и узбекских навоистов. Установлено, что в советский период наследие Навои рассматривалось в узко идеологическом контексте, тогда как Тутан акцентирует влияние суфизма и духовных идей. Сделан вывод, что изучение наследия Навои через призму суфизма, власти и эстетики позволяет глубже понять его творчество.

Ключевые слова: Навои, суфизм, власть, эстетика, навоиеведение, Марк Тутан, назира, накшбандия, литературное наследие.

Annotation: the article analyzes Mark Toutant's interpretation of Alisher Navoi's works. The study highlights the unity of Sufi, political, and aesthetic principles in Navoi's writings. Using a comparative-analytical approach, it contrasts Toutant's perspective with that of Uzbek Navoi scholars. The findings show that Soviet-era research interpreted Navoi's legacy within a narrow ideological framework, while Toutant emphasizes the strong influence of Sufism and spiritual thought. The study concludes that exploring Navoi's heritage through the synthesis of mysticism, power, and aesthetics provides a deeper understanding of his works.

Key words: Navoiy, Sufism, power, aesthetics, Navoiy studies, Mark Toutant, nazira, Naqshbandiyya, literary heritage.

Kirish. Alisher Navoiy Temuriylar uyg'unlash davrining ulug' shoiri va davlat arbobi, boy adabiy merosi bilan milliy adabiyotimiz va tilimiz taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan mutafakkir ekanligi doimo e'tirof etilgan. Uning asarlarida tasavvufiy mafkura, davlat boshqaruvi va estetik ideal uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham Navoiy ijodini tadqiq etishda shoirning tasavvuf, hokimiyat va estetik qarashlarini yaxlit holda ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, o'zbek navoiyshunosligida Navoiy merosiga yondashuv konsepsiyalari turli davrlarda sezilarli darajada farqlanadi. Mustaqillikkacha shakllangan ilmiy talqinlarda Navoiy asarlarining ayrim jihatlarini cheklangan ideologik doirada ko'rilgan bo'lsa, bugungi kunda shoir ijodini asl tarixiy-madaniy va ma'naviy manzarada qayta tushunish jarayoni kechmoqda. Shu nuqtayi nazardan, G'arb

tadqiqotchisi Mark Toutantning Navoiy ijodini tahlil etishda qo'llagan yangi yondashuvlari va xulosalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. XX asrning 90-yillaridan keyingi davrda G'arbda, xususan, fransuz ilmiy doiralarida Temuriylar davri ma'naviy merosini o'rganishga oid ilmiy izlanishlar tobora ortib bordi. Jumladan, fransuz tadqiqotchisi Mark Toutantning bevosita Navoiyga bag'ishlangan asarlari – 2011-yildagi "Materialist Ideology Facing a Great Sufi Poet: The Case of 'Alī Shīr Nawā'ī in Soviet Uzbekistan" maqolasi hamda 2016-yilda fransuz tilida nashr etilgan "Un empire de mots. Pouvoir, culture et soufisme à l'époque des derniers Timourides..." nomli fundamental tadqiqoti alohida e'tiborga loyiq. Ushbu manbalar tahlili orqali Toutant yondashuvining mohiyati ochib berildi.

Mark Toutant Navoiy ijodini tadqiq etishda mutlaqo

yangi yondashuvlar taklif etadi. U o'z monografiyasida Navoiy ijodini jamiyatdagi hokimiyat va tasavvuf omillari bilan chambarchas aloqada o'rgandi. Toutantning talqiniga ko'ra, Navoiy she'riyati va dostonlari faqat estetik yutuq emas, balki o'z davri uchun muayyan ma'naviy-siyosiy vazifani ham ado etgan (Toutant, 2016, 17).

Toutant Navoiy ijodida tasavvuf – xususan, Naqshbandiya tariqati ta'limoti – chuqur ildiz otganini ko'rsatib beradi. Tadqiqotchi Navoiy o'z ustozlari bo'lmish Xoja Ahror Vali va Jomiy ta'sirida komil inson va nafs tarbiyasi g'oyalari ijodining barcha sohalariga singdirganligini qayd etadi. Masalan, "Lison ut-tayr" asarida tasavvufiy ta'limot majoziy-ramziy shakllarda ifodalangan bo'lsa, "Nasoyim ul-muhabbat"da tasavvuf shayxlari haqidagi ma'lumotlar jamlangan. Ayniqsa, Navoiy Xoja Bahouddin Naqshband va Xoja Ahror kabi so'fiylar siymosini ulug'lab, ularning g'oyalarini tarannum etadi. (Toutant, 2016, 461-586).

Toutant Alisher Navoiyning amir va davlat arbobi sifatidagi faoliyatini yoritib, Husayn Boyqaroning yaqin maslahatchisi sifatida uning siyosiy-ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatganini yoritadi. Shoir "Xamsa" dostonlarini yozib, ular orqali Husayn Boyqaroga axloqiy saboq berishga intilgan, deb hisoblaydi. "Xamsa" yakunlangach, shoh Husayn Boyqaro Navoiyga nisbatan "murid"lik, ya'ni shogirdlik izhor etgan, Navoiyni esa "pir" deb ataganligi monografiyada keltiriladi. Bu hodisa tasodifiy emas: Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonini Iskandar Zulqarnayn misolida yozib, uni bevosita Husayn Boyqaroga bag'ishlagan va shohga odil podshoh bo'lish uchun zarur bo'lgan nafs tarbiyasi, adolat, tavozu' kabi naqshbandiylik tamoyillarini ulug'lovchi asarni taqdim etgan. (Toutant, 2016, 13-44).

Toutant Navoiy ijodining estetik qarashlariga, ya'ni adabiyotga bo'lgan nazariy yondashuvlariga e'tibor qaratadi. Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida til va adabiyot masalalaridagi qarashlarini bayon etgani, turkiy tilning ifoda imkoniyatlarini fors tilidan kam emasligini asoslab bergani ma'lum. Toutant fikriga ko'ra, Navoiy bu asari orqali bir tomondan turkiy tilda ijod qilishning estetik qadrini oshirishini, ikkinchi tomondan esa o'zbek adabiy tilini rivojlantirish orqali milliy o'zlikni himoya qilishni maqsad qilgan. Shu bilan birga, Navoiy fors adabiyotidagi Nizomiy Ganjaviy va Jomiy singari ulug' shoirlar an'anasini davom ettirgan holda o'zining yangi badiiy olamini yaratgan. Toutant "nazira" orqali Navoiy o'ziga qadar o'tgan estetik merosni ijodiy boyitganini ko'rsatib beradi (Toutant, 2016, 180-298).

Jumladan, Jomiy fors tilida "Xiradnoma-yi Iskandariy" dostonini yozgan bo'lsa, Navoiy unga javoban turkiy

tilda "Saddi Iskandariy"ni yaratdi va unda Jomiy asaridagi ba'zi g'oyalarning yanada ravshan ifodasini berdi. Navoiy o'z "Xamsa"sini forsiy shoirlar orasida mashhur bo'lgan an'anaga ergashib yozar ekan, turkiy adabiyotning ham ulug' imkoniyatlarini namoyish etdi. Toutant tahliliga ko'ra, bu bilan shoir estetik sohada ham turkiy til nufuzini ko'tarib, "so'z saltanati"ni barpo etdi (Toutant, 2018, 618).

Toutant tomonidan ilgari surilgan g'oyalardan biri – Navoiy fenomenini davr kontekstida ko'rish – ilmiy hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Chunki Navoiy nafaqat adabiyotda, balki o'z davrining ijtimoiy hayotida ham faol ishtirok etgan, o'z qarashlari bilan jamiyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan shaxs edi. Uning Husayn Boyqaro bilan munosabatlari va shu orqali davlat boshqaruvidagi ma'naviy tamoyillarni shakllantirishga qo'shgan hissasi bundan dalolat beradi. Mazkur omilga e'tibor qaratish Navoiy asarlaridagi ko'p ma'noli ishoralarni, tarixiy shaxslar obrazlarini va murakkab ramzlarni yanada chuqurroq talqin qilishga yordam beradi.

Shuningdek, Navoiy asarlaridagi tasavvufiy timsollarni anglash masalasi ham muhimdir. Avvalgi tadqiqotlarda Navoiy g'azallaridagi ilohiy ishq konsepsiyasi yoki dostonlardagi irfoniy timsollar umumiy estetik qiymat sifatida qaralgan bo'lsa, endilikda ular ortidagi tasavvuf falsafasi batafsil sharhlanmoqda. Bu borada Toutantning xulosalari navoiyshunoslikka muayyan ma'lumotlar va turtki beradi – masalan, Navoiy lirik merosini Jaloliddin Rumi, Hofiz kabi fors so'fiya shoirlari an'analari bilan qiyoslab o'rganish istiqbolli yo'nalish sifatida tilga olinmoqda.

Yana bir muhim jihat – o'zbek navoiyshunosligining xalqaro ilmiy makonga integratsiyalashuvi masalasi. Aleksandr Papas, Mark Toutant, Benedek Peri (Vengriya) va V. Turk (Turkiya) kabi xorijiy navoiyshunoslar ilmiy hamkorlik orqali Navoiy merosini jahon adabiy jarayoni kontekstida o'rganishga hissa qo'shmoqdalar. Bu esa mahalliy tadqiqotchilarimizdan metodologik yondashuvlarni boyitishni, boshqa ilmiy maktablar tajribasini o'rganishni talab qiladi. Xususan, G'arbiy tadqiqotlarda keng qo'llaniladigan adabiyot va mafkura, adabiyot va hokimiyat, adabiyot va din kabi tahlil usullari Navoiy misolida qo'llanilishi natijasida erishilgan yutuqlar bunga misoldir.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Sobiq sovet davri navoiyshunosligi Navoiy ijodini ideologik qoliqlar asosida talqin qilib, uning asarlaridagi tasavvufiy va diniy-falsafiy jihatlarni e'tibordan chetda qoldirdi. Shoir asosan "insonparvar" va "millatparvar" sifatida ko'rilib, adabiy merosidan

zamonaviy g'oyalarni izlashga urg'u berildi.

Mustaqillik davrida Navoiyga yondashuv sezilarli ravishda kengaydi: shoir milliy o'zlik ramzi sifatida ulug'lanishi barobarida, uning ijodiy merosidagi tasavvufiy mazmun ham qizg'in tadqiq etila boshlandi. Bu davrda Navoiy asarlariga nisbatan tarixiylik va ma'naviyat nuqtayi nazardan qarash kuchaydi, ammo metodologik izchillikka erishish jarayoni davom etmoqda.

Mark Toutant talqini Navoiy merosini tushunishda yangi qirralarni ochib berdi. Jumladan, Navoiy ijodida tasavvuf (Naqshbandiya) va hokimiyat tushunchalari uyg'un holda namoyon bo'lib, shoir o'z davrining hukmdoriga ma'naviy o'g'itlar beruvchi murshid sifatida maydonga chiqadi. Bu esa Navoiy asarlarining

funksional vazifasini kengroq talqin etish imkonini yaratdi.

Navoiyning estetik qarashlari – til va adabiyotga munosabati, nazira an'alarini davom ettirish orqali o'zidan avvalgi adabiy merosga munosabat bildirish usuli – Toutant tomonidan har tomonlama yoritildi. Bu Navoiy ijodini nafaqat milliy, balki umumjahon adabiy jarayoni kontekstida o'rganishga zamin yaratadi.

O'zbek navoiyshunosligining konseptual asoslarini boyitish uchun Navoiy ijodini mazkur uchlikda (tasavvuf–hokimiyat–estetika) o'rganish muhim metodologik tamoyil bo'lib xizmat qiladi. Bu yondashuv Navoiyga oid tadqiqotlarda yanada chuqur va holistik tahlillar qilish, yangicha savollarga javob izlash hamda xalqaro ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bertels, E. E. (1965). *Navoi i Jami*. – Moskva: Nauka, (Бертельс Е.Э. Навои и Джамии. – М.: Наука, 1965).
2. Mallayev, N. *O'zbek adabiyoti tarixi*. – Toshkent: O'zSSR Fan nashriyoti, (Маллаев Н. История узбекской литературы. – Ташкент, 1962).
3. Hayitmetov, A. (2001). Alisher Navoiyni o'rganishning metodologik asoslari haqida. *O'zbek tili va adabiyoti*, 2001(2), 3–5. [Хайтметов А. О методологических основах изучения Алишера Навои. *Узбекский язык и литература*, 2001, №2].
4. Haqqul, I. *Tasavvuf va she'riyat*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. (Хаққул И. Суфизм и поэзия. – Ташкент, 1991).
5. Toutant, M. (2011). Materialist Ideology Facing a Great Sufi Poet: The Case of 'Alī Shīr Nawā'ī in Soviet Uzbekistan: From Concealment to "Patrimonialization". *Orient (Tokyo)*, 46, 29–50.
6. Toutant, M. (2016). *Un empire de mots. Pouvoir, culture et soufisme à l'époque des derniers Timourides au miroir de la Khamsa de Mīr 'Alī Shīr Nawā'ī*. – Leuven: Peeters.
7. Toutant, M. (2018). Evaluating Jāmī's Influence on Chaghatay Poetry: The Case Studies of the *Khīradnāmah-i Iskandarī* and the *Sadd-i Iskandarī*. In Th. d'Hubert & A. Papas (Eds.), *Jāmī in Regional Contexts: The Reception of 'Abd al-Raḥmān Jāmī's Works in the Islamicate World* (pp. 602–648). – Leiden: Brill.
8. Toutant, M. (2023). What is at Stake in the Frame Story? A Timurid Reshaping of the Romance of Bahrām Gūr. *Iranian Studies*, 56(4–5), 637–654.
9. Aftondil Erkinov, «Les manuscrits du Khamsa de 'Ali Shir Navā'ī et la vie culturelle du khanat de Boukhara sous les Mangits», *Cahiers d'Asie centrale* (En ligne), 5/6 | 1998, mis en ligne le 01 octobre 2010. URL : <http://asiacentrale.revues.org/index539.html>
10. Erkinov, Aftandil. "La querelle sur l'ancien et le nouveau dans les formes littéraires traditionnelles. Remarques sur les positions de Jāmī et de Navā'ī." *Annali dell'Istituto Universitario Orientale* 59 (1999): 18–37
11. Халлиева, Гулноз. XX аср Россия шарқшунослиги ва ўзбек мумтоз адабиёти (Матн) / Г.Халлиева. – Тошкент: Muharrir nashriyoti, 2018. – 276б.
12. Халлиева Гулноз Искандаровна «Лейли и Меджнун» Алишера Навои в интерпретации Е. Э. Бертельса // Имагология и компаративистика. 2018. №10. URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/leyli-i-medzhnun-alishera-navoi-v-interpretatsii-e-e-bertelsa>.
13. Nasirdinova Y. *O'zbek folklori va mumtoz adabiyoti fransuz tilida. Monografiya*. – Farg'ona, 2020.150-bet.

Oqiljon MAVLONOV,
Farg'ona viloyati
O'zbekiston tumani faxriy ustozi

TASAVVUFIYLASHTIRISH G'OYASI HAM BORLIGIDAN XABARDORMISIZ?

(Adabiyot muallimlari e'tiboriga taqdim)

Bugungi maqolamiz yozilgan muddati hisobga olinsa bundan 35 yillar ortiq vaqt avval bajarilgan, so'nggi yillarda bir tahlilchi munaqqid tanqidiy nigohiga tushgan ilk maqolamiz moziysi borasida. 1996-yil 7-fevralda "O'qituvchilar gazeta"sida bosilgan dastlabki maqolamiz oradan 23 yil o'tgach bir munaqqid e'tiboriga tushib qolibdi. Asli ilmda biror maqola yuzasidan munosabat bildirilganida ilmiy taomilga ko'ra, avvalo, shaxs sifatida bajarilgan ish muallifiga hurmat bilan yondashish, maqolaning yangilik va yutuqlari e'tirof qilinib, so'ng nuqsonlar bo'lsa, ilmiy-uslubiy odob doirasida tahlil qilinib ko'rsatilishi olimlar madaniyatining oddiy belgisi. (Lekin ming afsuski... bunday doira borligini o'z maqolalarida qayta-qayta ta'kidlovchi muallif o'zga bir shaxs maqolasi taqdiriga to'xtalganida bu oddiy qoidaga mutlaqo amal qilmasligi, unga tufirib qo'yganligi, ko'rinsa, bunday olimga qanday baho berishni ham bilmay qolar ekansan kishi). Xullas, muallif shaxsiga qaratilgan ko'plab luqma, piching, kinoya, ilmak, va dag'al uslubdagi munosabatlar bo'ylab borsak, bu maqolam **tasavvufiy lashtirishga ruju qo'yish**, shunday "**moda**"ning mahsuli ekanligi tarzida baho berilib quyidagicha ilmiy hukm chiqariladi: "90-yillarda g'azal tahlillarini yoppasiga tasavvufiy lashtirishga umum adabiyotshunoslik yo'nalishida ruju qilindiki, O.Mavlonov tahlillariga (xuddi mening o'nlab maqolalarimni kuzatganidek ilmiy ishonch bilan ...) ushbu xususiyatning nuqsi urgan... Biz Mavlonovning ikkinchi maqolasini tahliliga tutunmadik... Zero, u ham dunyoviylikdan butkul uzilgan, **tasavvufiy lashtirish g'oyasi bilan sug'orilgan bir talqindir...**" Avvalo, yosh hamkasb shorihlarga o'sha 1985-90-yillar muhiti haqida bir og'iz eslatsam: u davrda tasavvuf adabiyoti va nazariyasi borasida na oliy o'quv yurti darsliklarida, na matbuotda to'rt enli ma'lumot yo'q edi. Davr mafkurasidan hayiqqan adabiyot tarixi muallimlari bu mavzudan o'zlarini atayin olib qochishardi. Shunday siyosiy sharoitda bir oddiy qishloq muallimining shunday nozik yo'nalishdagi mazmunni qamrab olgan talqinlarga cho'chimay qo'l urushining o'zi o'sha davr muhiti uchun bir katta harflar bilan yozishga arzigulik mafkuraviy inqilob edi. (U vaqtda domlarning o'zi ham shu yo'nalishda to'liq fikr berolmagan...) Endi oradan shuncha yillar o'tgach, o'sha davr muhitini bir mutaxassis sifatida 110% bilgan, shu qozon ichida pishgan odamning mana bunday

xulosaga kelishi juda ajablanarli va hayratomuz. Oddiy qishloq muallimining me'yoriy (ilmiy-akademik emas...) adabiy qarashlariga binoan yozilgan, hamkasblariga tajribaviy ishlanma sifatida taqdim etilgan bir maqolasiga nisbatan qilingan ikki munaqqidiy paykonlari sabab o'z ma'rifiy dunyoqarashimga zid bo'lsa-da, yozishimga majbur bo'lganim javob chiqishimda bu maqolaning mana shunday tasavvufiy talqinlarga e'tibor ko'pligining boisini ochiq e'tirof etganman. Buning tub sababi: boya yuqorida eslatganimdek **o'sha davrda tasavvufiy tushunchalarga oid nazariy ma'lumotlarning yo'qligi bois o'qituvchilar tafakkurida shoir g'azallarini anglash uchun zarur bo'lgan so'fizmg'a oid bilimlar yetishmasligidan yuzaga kelgan adabiy-tasavvufiy bo'shliqlarni ma'lum darajada to'ldirarmikan, shunday tahlillar sabab adabiyot muallimlari o'zlaridagi kemtik o'rinlarni anglab izlanarmikin**, degan ehtimoliy qarashlar bo'lgan. Buni mutaxassis sifatida domla o'zi juda yaxshi eslaydi... Ming afsuski, o'zi boshidan kechirgan bir professional o'qituvchining mana bunday hukmiy xulosasi juda ham hayratlanarli... Biz bu "xato"ni bilib turib qasddan atayin qilgan bo'lsak, ayrim mutaxassislar o'sha davrdagi tahlillarida bu "moda"ga taqlidan ergashib ochiqchasiga tasavvufiy lashtirish g'oyasida ilmiy-akademik, ya'ni professional xatoga yo'l qo'yganligini qanday hukm bilan baholash mumkin?? Keling, gapni uzoq cho'zmay-da, siz muxlis kitobxonlarni bizni shu nuqsonda qayta-qayta ayblagan olimimizning o'sha vaqtlarda qilgan, muxlislarga ishonch bilan shu g'azalning (**go'yo**) **ideal talqini sifatida taqdim etilib kelingan maqolasini birga kuzataylikchi tasavvufiy lashtirish "moda"si mavjudmikin?** (Joyni tejash maqsadida iqtiboslar saralab olindi. O.M.) "Qaro ko'zum" – "Mazkur undalma ilohiy-so'fiyona... ma'nolar bilan yo'g'rilgan. Ilohiy mazmunda u ma'shuqi mutlaqni ifodalaydi"... "Tagzamindagi so'fiyona mohiyatga ko'ra, baytdagi iltijo-jamol orzusi, ya'ni ilohiy ma'shuqaning lutfu ehsoni, tajallisiga umidvorlikdir. So'fi uchun o'z nigohida, qorachig'ida ilohiy nur jilvalanishi, olamni shu muborak nur orqali(?) ko'rishi oliy baxt. Haq vasliga muyassarlikdir (?). So'fiyning ilohiy ma'shuqni... chorlashi asl moya bilan birlashish, qovushish, uni o'ziga singdirib, o'zi unga singib ketishi – vahdati vujud istagidir, bizning nazarimizda... G'azalning mana shunday... botiniy

tasavvufiy mohiyati baytma-bayt mujassamlashib uyg'un ravishda takomillashib boradi".

"Yuzing guli" – botiniy ma'nosi Haq jamoli... Tasavvuf falsafasiga ko'ra, yuksak orzulangan ma'shuqa firoqida hijron chekish va oqibatda "Haq vasliga erishish, asliyatga erishish, tufroqqa evrilish so'fi oshiqning oliy va abadiy maslagi... Demak, Farhod ishq yo'lida ilohiy visol ilinjida firoq, ranj, hajr, dard tortishning badiiy timsoli. Yuz... ayni paytda Alloh husnu jamolini anglatadi. Keyin "ko'ngullar" timsoli zaminida Haq visoliga tashna so'filar ham mujassam. "Chin ila shikan" obrazlari orqali Haqning diydorini izlab so'filar bosib o'tadigan so'filik suluki silsilalari nazarda tutilgan...

"Tajalli ta'limotiga ko'ra ma'shuq (yaratuvchi)ning visoliga yetishish u bilan birlashish oshiq (yaratilmish) uchun chinakam visol (vahdati vujud), oliy baxt demakdir. Xullas, mazkur baytda dunyoviy mazmundagi visol bilan Navoiy tasavvufining (nega aynan Navoiy tasavvufi? O.M.) visol onlari bir yo'la tajassum topgan. "Shavq" – tasavvuf maqomlaridan biri Tasavvuf ta'limoti haqidagi kitoblarda (masalan, qaysi? O.M.)da ko'rsatilishicha bu maqomda oshiq so'fi nazarida yor diydori jilvalanadi va oshiq unga sog'inch izhor etadi. Shavq va zikr maqomlari(?) Haqning nomini yodga olish va u haqida fikru o'y surish holatidir..."

Mana aziz xolis hamkasb hakamlar! Biz o'z maqolamizda so'fiyona me'yoriy qarashlarni hamkasblarimizdagi tasavvufiy bo'shliqlarni biroz to'ldirishlariga ko'maklashish, shu yo'nalishdagi izlanishlarini jonlantirish kabi ezgu niyatda bayon qilgan bo'lsak, professional tahlilshunos olimimiz esa bu talqinlarni ilmiy-akademik ideal sharh namunasi sifatida tadqiq qilib va **o'zi tasavvufiy lashtirgan "moda" tahlillarini** ilm-fan ahliga taqdim etmoqda ekan. Dono xalqimiz: "Avval o'zingga boq, so'ng doirangni qoq", – deb bejiz aytishmagan bo'lsalar kerak-da.

Shu ilk maqolam sabab mening betimga ko'p marotaba tarsakidek solinadigan ikkinchi masala ushbu maqolada imlo xatolar bisyorligidir. Men u davrlardagi moddiy imkoniyatim sabab shu maqolamni mashinkalata olmay qo'lyozma holda ustozlarga yo'llaganman. (1994-yil) Uni gazeta va keyinchalik ikkinchi maqolamni (1998-y.) jurnalga olib chiqilishi uchun kim mashinkada yozib bergan, redaksiyami yo biror kotibami bu menga mutlaqo ayon emas. Ma'lumki mumtoz g'azallar tahlilida ko'plab arabiy va fors-tojik hamda so'fiyona timsollar mavjud bo'ladi. Shu sabab uni yaxshi tushunmagan kishi yozsa, bunday xatoliklar tabiiy holda ko'p sodir bo'ladi... Oradan shuncha vaqt o'tib mening bu vajim, ehtimol, to'qimadek taassurot uyg'otar. Lekin bor tarixiy voqeot shu... Agar juda ikkilanishlar bo'lsa o'sha yillarda "Qalb ko'zi" gazetasining mart oyi sonida bosilgan: "Tasavvuf olamining sinoati" nomli maqolamni bir o'qishsa, mening imloviy va tasavvufiy savodxonligim

borasidagi shubhalari butkul bartaraf bo'ladi. Asli bu maqolaning matbuotga chiqilishi tarixini muallif bilan bog'lanib surishtirilganida va o'zi tanimagan bir shaxs haqida noo'rin tanqidlar bilan chiqilmaganida, xom e'tirozlar bilan matbuotdan bekorga joy olinmaganida edi, men ham muxlislar vaqtini bekorga olib ularning qimmatli vaqtlarini o'g'irlab mana shunday izohlarga to'la oqlov ESSElarni yozishga majbur ham bo'lmas edim. Nachora, ba'zan ilmiy daraja, yoshi ulug'lik, ilmiy salohiyatning ortiqcha g'ururi ham kishiga go'yo "cheksiz tanqidiy saltanat sultoniman" degandek hissiyotlar ilhom etadi, shekilli. Asli mantiqan qaralsa, olimlik madaniyati o'zi yaqindan bilmagan kishi ilmiy izlanishi haqida, bu qarashlarning tarixiy muhiti va sababini yaxshi o'rganmay turib ommaga olib chiqilishi ilmiy odob doirasiga xos emas. Agar shu narsa ilm uchun juda zarur bo'lsa, unda bajarilgan ilmiy-uslubiy ish va uning muallifiga hurmat bilan yondashib, avvalo, maqolaning yangilik va yutuqlari izohlanib, nuqsonlar mavjud bo'lsa, so'ng ilmiy-irfoniy uslub odobi doirasida bayon etilmog'i ahli olimlar madaniyatining oliy belgisi, bizningcha.

Hatto ikkinchi maqolamiz borasidagi kichik e'tirofda: "Biz O.Mavlonovning ikkinchi maqolasining tahliliga tutinmadik", deyilgan izoh berilib, xulosani kitobxonlar o'zlari o'qib mulohaza chiqarishlariga go'yo yo'l qo'yilgandek holatni yuzaga keltirib turib, so'ng: **"Zero, u ham dunyoviylikdan butkul uzilgan, tasavvufiy lashtirish g'oyasi** (shunday g'oya borligi bizni hayratda qoldirdi. O.M.) **bilan sug'orilgan bir talqindir"**, – deya yaktoyi zamon munaqqid martabasida turib amri hukm chiqarganining guvohi bo'lamiz. Bir shaxs shaxsi va uning ijodiy ishlari yuzasidan bu insonni, uning amaliy qarashlarini yaqindan o'rganmay, u bilan ma'rifiy muloqotda bo'lmay, maqolaning matbuotga olib chiqilishi tarixi va muhitini mukammal anglamay, o'zi tanimagan bir yoshi ulug' muallim to'g'risida matbuotda bunchalik piching va kinoya, istehzo va mazah usulida bitilgan g'araz-u xusumat va xasad motivlari ko'p mazmundagi raddiyani OAVlariga ochiqdan-ochiq olib chiqilishi huquqini bu yoshi katta, salkam ilm darg'asi maqomidagi olimga qaysi insoniy odob suluki berdi ekan, o'ylab oxiriga yetolmaysan har qanday ziyoli kishi. Yo ularga munaqqiy maqolalarda ilmiy uslub odob doirasidan chiqish vakolatining biror ilohiy-ma'naviy istisnosi bashorati ayonlashganmikin, ehtimol. Odamlar bilan o'zaro muloqotda bo'lishning eng qadimiy madaniyati asosi bu – mardumlig', mardumdorlig' g'oyalari edi. Demak, fikri ojizimizcha, biz anglab yetolmayotgan boshqa "akademik-axloqiy e'tiqodlar" ham mavjud bo'lsa kerak-da. Xudo xohlasa, o'sha maqomlar borasida ham, inshoolloh, Tangri o'zi biror mujda-ishora berib qolar, degan orzu va umid bilan yashashda davom etamiz. Endi yuqoridagi hayotiy e'tirozlarimizdan, sharhimiz tarixiga oid ESSElardan

so'ng muxlis hamkasblar o'qishga shoshilayotgan o'sha: **dunyoviylikdan butkul uzilgan tasavvufiy lashtirish g'oyasi bilan** (munaqqid fikricha: atayin...) **sug'orilgan** shu talqinni sevimli jurnalimizning 17-sonida e'tiborlaringizga taqdim etdik. Bu maqola orqali yosh muallimlar (yozilgan vaqtini hisobga olsak, bundan 35 yil avval) o'sha kezlarda mening tasavvufiy taxayyul va savodxonligim qanday darajada bo'lganidan biroz bo'lsa-da tasavvur qilishlariga yordam beradi degan maqsadda qayta chop etishga jazm qildik.

Navoiy asarlarini tasavvuf ta'limotiga bog'lanmay to'liq anglab yetish aslo mumkin emasligi borasida Shayxzoda va Oybek domlarning olimona ilmiy kuzatish hamda xulosalari mavjudki, bu nufuzli darg'a akademik yozuvchilarning ko'lamli va saviyador munosabatlari oldida atigi biz tengyashar bir adabiyotshunosning tasmoliy mulohazalari jiddiy yangilik, mutaxassisona odil hukm bera olarmidi? Ikki munaqqiddiy chiqish borasida so'nggi yakuniy mushohada shuki shu mulohazalarni oqko'ngil va kichikfe'l ustozim Lutfullo Zohidov domla yoxud bag'rikeng va hojatbaror darg'a ustozimiz Najmiddin aka aytganlarida barcha e'tirozlarini yer o'pib jon deb qabul qilgan bo'lardim. Afsuski, yaratilish fitratimga, insoniy g'ururimga va ilmiy ishonchimga binoan bunday haqoratomuz, kinoya va kesatiq, g'azab, jahl va ehtiroslarga to'la inson shaxsiga nisbatan hurmatsizlik ruhidagi g'aliz va dag'al uslubda

bayon qilinib munozara madaniyati doirasidan chiqib bildirilgan e'tirozli munosabatlarni bir madaniyatli ziyoli sifatida hech qachon aslo to'g'ri qabul qila olmayman. Xullas, men bu olimning tanqidiy tahqirlashiga yetarlicha javobni yozishga majbur bo'lganim va shu mantiqsiz bahs-munozarani yakunlashga qaratilgan II raddiyamda barcha tafsilotlarni matni dalillar bilan eslatib domlarning o'z uslubiy odobi doirasida bayon qilganman. Men xulosa o'rnida tasavvufiy sharhlar bo'yicha eng to'g'ri va adolatli yechim bera oladigan so'fiyona nazariya bo'yicha davrimizning ilmiy darg'asi, olim Ibrohim Haqqulov ustozning "Yo'q dahrda bir besaru samon..." maqolasi hotimasida aytilgan: "**Navoiy she'riyati tasavvuf ta'limoti bilan chuqur bog'langan. Afsuski, bu haqiqat ko'p hollarda va ko'p sharhiy tadqiqotlarda hisobga olinmay kelinadi. Mana shu kamchiliklarga butunlay chek qo'yish vaqti allaqachon yetgan.**" Navoiy 15 dan ortiq janrlarda ijod qilgan. Bu asarlarning barchasida tasavvufiy g'oya va obrazlarning o'z o'rni hamda roli bor. Buni tekshirish esa, tasavvufni yaxshi, puxta bilish bilan bir qatorda unga aloqador har qanday mohiyatni to'g'ri baholay olishga ham bog'liq." Yuqoridagi biz eslatgan noo'rin tanqidlar sabab Navoiy dunyoqarashida tasavvuf bir tizim holiga erishganmi yoki yo'q degan masala ba'zi "mutaxassis"lardan cho'chilib hamon hanuzgacha hal etilmay kelinmoqda.



Анвар РАДЖАБОВ,
 и.о. доцента кафедры иностранных языков,
 Самаркандского филиала Ташкентского международного университета Кимё

ПОЭТИКА ПРОТЕСТА И РОМАНТИЧЕСКИЙ ИДЕАЛ СВОБОДЫ В ПОЭМАХ М.Ю. ЛЕРМОНТОВА

Аннотация: статья анализирует поэтику протеста в поэмах М.Ю. Лермонтова как механизм художественного утверждения свободы. На материале «Мцыри», «Демона» и «Боярина Орши» выявлены три модальности протестного действия и их инвариант. Показано, что перформативность слова и трагический выбор конституируют достоинство личности как романтическую ценность.

Ключевые слова: Лермонтов; романтизм; поэтика протеста; свобода; антитеза; символика; перформативность; «Мцыри»; «Демон»; «Боярин Орша».

Annotatsiya: maqolada M.Y.Lermontov dostoni poetikasida norozilikning badiiy erkinlikni tasdiqlash mexanizmi sifatidagi funksiyasi tahlil qilinadi. «Mtsiri», «Demon» va «Boyarin Orsha» asarlari asosida norozilik harakatining uch xil ko'rinishi hamda ularning invarianti aniqlanadi. Tadqiqot nutqning performativligi va fojiviy tanlov inson sha'nini romantik qadriyat sifatida shakllantirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar. Lermontov, romantizm, norozilik poetikasi, erkinlik, antiteza, ramziylik, performativlik, Mtsiri, Demon, Boyarin Orsha.

Annotation: the article examines the poetics of protest in Mikhail Lermontov's narrative poems as a mechanism for the artistic affirmation of freedom. Through analysis of «Mtsyri», «The Demon» and «The Boyar Orsha», three modalities of protest behavior and their invariant are identified. The study demonstrates that the performativity of speech and the tragic nature of choice constitute personal dignity as a core Romantic value.

Key words: Lermontov; Romanticism; poetics of protest; freedom; antithesis; symbolism; performativity; Mtsyri; The Demon; The Boyar Orsha.

Введение

В поэтической системе М.Ю. Лермонтова нарративная конфигурация поэмы определяется не фабульной интригой, а проверкой онтологической состоятельности субъекта. Событийность организуется вокруг предельной точки напряжения личности, где сюжетный вектор подчинен экзистенциальному результату. Герой не репрезентируется извне, а верифицируется действием. Внутренняя свобода функционирует как мера его присутствия в мире.

Позиция лирического и повествовательного сознания задает статус протеста как принципа художественного самополагания субъекта, а не как побочного эффекта внешнего давления. Устойчивые повторения конфликтных матриц и образных констант, по наблюдению Е.А. Акимовой и С.И. Ермоленко, формируют «философско-эстетические константы» лермонтовского мировидения [1, с.196]. Эти константы не обслуживают эмоциональную экспрессию, а фиксируют границы идентичности, внутри которых личность сохраняет самоидентичность.

Лермонтовский протест не сводим к бунту как негативной установке. Он обладает статусом этической необходимости и мыслится вне ситуации безответственного выбора. Символическая организация поэмы конструирует особую проекцию свободы. Природная стихия иерархически превосходит человека и выступает испытательной инстанцией. Смысл столкновения со стихией заключается не в подчинении или победе, а в обретении полноты собственного действия. Здесь артикулируется сопряженность слова и поступка: речевой акт уже содержит обязательность принятого решения. Ю.В. Манн характеризует этот тип жеста как акт, совершаемый перед лицом времени.

Поэмы «Мцыри», «Демон» и «Боярин Орша» моделируют три модуса свободы, в которых протест задает условие существования героя и конституирует внутренний закон личности. При различии обстоятельств структурообразующим остается одиночество как пространство самоутверждения. М.Г. Ваняшова фиксирует у Мцыри пограничные состояния «между жизнью и смертью, между небом и землей» [2, с.13], что может быть экстраполиро-

вано на другие лермонтовские фигуры, для которых конфликт приобретает онтологический масштаб.

Цель исследования состоит в аналитическом описании механизмов поэтики протеста, через которые репрезентируется романтический идеал свободы в поэмах Лермонтова. Фокус направлен на речевую и символическую организацию конфликта и на те формальные элементы, которые переводят протест в акт самоуверенности личности. Такой подход рассматривает текст как пространство этического действия, где трагический исход не отменяет полноты избранной истины.

Основная часть

Протест функционирует как принцип художественной организации материала. Он определяет конфигурацию конфликта, в которой личность выявляет пределы внешнего принуждения и одновременно формирует собственное внутреннее содержание. Свобода мыслится как должное, а не как факультативное право, и потому оборачивается испытанием, требующим предельной собранности субъекта. В этих условиях поэма утрачивает репрезентативный характер и становится пространством, где слово полагается в основание поступка.

Наблюдение Е.А. Акимовой и С.И. Ермоленко о «самоповторениях» как «философско-эстетических константах» лермонтовского мировосприятия указывает на методологический статус структурной устойчивости [1, с.196]. Повтор в данном случае мотивирован инвариантом задачи: удостоверение свободы не является этапом, а составляет условие самого существования личности в мире.

Стихийность природы вводит протест в экзистенциальные координаты. По Ю.М. Лотману, художественный знак в лермонтовском тексте функционирует как «оператор поведения» [6], то есть инициирует действие и верифицирует принятый выбор. Испытание не добавляет внешнего знания, а обнаруживает меру внутренней готовности к свободе. Конфликт последовательно ориентирован к предельному и выходит за рамки чистой психологии.

Антитеза выполняет роль мыслительной схемы. Как подчеркивает Г.П. Макогоненко, она выступает способом поэтического мышления [7]. Оппозиции не являются симметричными альтернативами. Иерархия задана: краткий опыт свободы превосходит длительность «жизни в плену»; достоинство доминирует над выгодой; поступок превосходит приспособление. Эта иерархизация придает конфликту нормативный характер и переводит ком-

позиционную динамику из плоскости сомнения в плоскость решения.

Речевая форма в лермонтовской поэме обладает перформативной силой. Значим не аргумент, а необратимость языкового жеста. Исповедь, запрет, признание конституируют судьбу, поскольку слово равняется действию. Указанная сопряженность речи и поступка соотносится с пониманием Ю.В. Манна как действия, совершаемого перед лицом времени (интерпретация). Высказывание фиксирует предел траектории выбора и выводит субъекта из режима обратимости.

Проблематика протеста сопрягается с тем, что С.Н. Дурылин обозначает как «абсолютное, непреодолимое одиночество Я» [4, с.78]. Здесь одиночество не тождественно изоляции, а означает очищение поля ответственности, в котором выбор не делится с сообществом и традицией, если последние утрачивают связь с правдой. Таким образом, протест обретает онтологический статус формы бытия героя. Свобода не редуцируется к атрибуту характера или идеологеме, она обнаруживается только как действие, принимающее риск поражения. Поэма выводит этот риск в ранг критерия нравственной состоятельности субъекта.

Поэмы «Мцыри», «Демон» и «Боярин Орша» артикулируют неодинаковые основания протестного действия при сохранении единства этической логики.

В «Мцыри» протест коренится в утрате экзистенциального условия и направлен на восстановление полноты существования. Герой взрослеет вне своего мира, поэтому свобода не опосредована внешним авторитетом. М.Г. Ваняшова фиксирует его пограничное положение «между жизнью и смертью, меж бурным сердцем и грозой, между раем и адом, между небом и землей» [2, с.13]. Исповедальный монолог выступает формой сохранения памяти и самоуверенности в ситуации исчерпанных сил. Природные образы превращаются в матрицы испытания, где субъект возвращает себе присутствие. Формула героя «Я мало жил, и жил в плену. Но только раз видал я волю...» [5, с.596] фиксирует норму истины, равную мере согласия существовать и умирать. Схватка с барсом получает статус символического акта самоопределения: не дуэль с противником, а встреча с стихией. Победа и поражение не образуют оценочной симметрии. Существенна проверка себя усилием, соразмерным риску. Характеристика «блужданий» как «поисков своего я» [2, с.13] задает направленность движения, формирующего

субъекта, не нуждающегося в посредниках. Биографическая краткость жизни компенсируется онтологической завершенностью.

В «Демоне» протест поднимается на метафизический уровень. Герой наделен автономией, лишенной положительного содержания свободы. Он отрицает всякую зависимость, включая возможность связи с Другим, что оборачивается тупиком. По Г.В. Москвину, «небо и ад призываются к ответу перед человеком» [9, с.112–113], однако в сознании Демона эта оппозиция замыкается внутрь. Любовь к Тамаре временно возвращает смысловое наполнение, не сводимое к отрицанию, но прежняя установка несоизмерима с ответственностью. Метафизическая автономия обнажает предел: стремление удержать абсолютную независимость уничтожает то, что могло стать основанием новой жизни. Отсюда закономерность поражения при сохранении онтологической непреклонности.

В «Боярине Орше» протест интегрирован в историко-нормативное поле. Свобода артикулируется в кодексе чести, опирающемся на обязательность слова. Герой принимает порядок до тех пор, пока тот не вступает в противоречие с правдой. Согласно В.С. Непомнящему, специфическая черта русского романтизма состоит в охране нравственного смысла бытия внутри истории [10]. Речевое обязательство обладает юридической и этической силой, отменяющей компромисс. Протест в этой конфигурации не разрушителен, он консервативен в смысле охраны основания. Парадокс трагического исхода состоит в том, что биографическая неуспешность не отменяет достоинства принятого решения.

Сопоставление трех поэм выявляет общую схему. В «Мцыри» протест имеет экзистенциальную природу самополагания. В «Демоне» он приобретает характер онтологического отрицания. В «Боярине Орше» реализуется как историко-нравственное деяние внутри общности. Во всех случаях протест защищает меру личности, а не интерес. Поражение не отменяет онтологической победы, поскольку свобода сохраняется как истина выбранного пути. Этого достаточно для определения протеста как инвариантной категории лермонтовской поэтики: слово перестает быть следствием обстоятельств и становится их причиной.

Инвариант можно описать следующим образом. Внутренний закон субъекта обладает приоритетом по отношению к любой внешней необходимости. Выбор фиксирует подлинность и придает эстетической форме этическую валентность. Конечный

сюжетный результат не совпадает с итогом этическим. Гибель не аннулирует значение выбора, а подтверждает его.

Свобода в данной модели не мыслится абстрактно, а проявляется как действие на грани самоотмены. Трагедия при таком понимании выступает доказательством свободы, а не её опровержением. Наблюдение В.Н. Турбина о том, что категория победы у Лермонтова «трансцендентна результату» [12], фиксирует различие внешнего исхода и внутреннего достоинства поступка. Отсюда следует, что поражение не равнозначно утрате самостоятельности.

Символическая организация усиливает смысл протестного действия. Природные стихии не создают декоративного фона, а калибруют масштаб усилия. По А. А. Смирнову, мечта «вечно обретается, но никогда не достигается», поскольку «идеал усиливает противоположность земли и неба» [11, с.47]. Недостижимость полюсов удерживает субъекта в зоне предельной ответственности.

Речевая форма удостоверяет свободу. Герой говорит как действующее лицо; сказанное не подлежит отзыву. Обещание, проклятие, исповедь оказываются равноценными элементами поэтического действия. Слово не информирует о выборе, а утверждает его. Необратимость высказывания формирует композиционное напряжение и трагический смысл протеста.

Одиночество в каждом из трех текстов выступает условием сохранения свободы. По С.Н. Дурлыну, у Лермонтова доминирует «абсолютное, непреодолимое одиночество Я» [4, с.78]. Это состояние освобождает субъекта от давления мнений и предписаний и открывает возможность существовать в соответствии с внутренним законом. Протест, таким образом, выполняет нормативную функцию: определяет способ бытия личности и архитектуру художественного мира.

Заключение

Поэтика протеста в поэмах М.Ю. Лермонтова выявляет модель художественного события, в которой свобода конституируется как опыт личной ответственности. В отличие от варианта романтического бунта, редуцированного к отрицанию обстоятельств, лермонтовский протест представляет собой этическое действие охраны внутреннего закона. Сюжетная динамика подчинена процессу самоудостоверения личности, а не логике внешнего успеха. Свобода мыслится не до поступка и не вне его, а как его результат.

Сопоставление «Мцыри», «Демона» и «Боярина

Орши» фиксирует три модальности протестного поведения. В первой удостоверяется полнота бытийного опыта, во второй оформляется метафизическое отрицание нарушенного порядка, в третьей реализуется историко-нравственное деяние. Диапазон романтической антропологии не нарушает внутреннего единства модели. В каждом случае протест сохраняет достоинство субъекта и маркирует пределы, за которыми утрата свободы тождественна утрате личности.

Инвариант протестного действия демонстрирует особое соотношение языка и поступка. Слово

принимает на себя функцию необратимого акта и фиксирует истину выбора. Это усиливает трагический характер конфликта, однако трагедия не отменяет этическую правоту героя, а выявляет масштаб внутреннего закона, превосходящего исход борьбы. Протест, следовательно, не сводим к сопротивлению внешним ограничениям. Он является способом существования личности в пространстве, где свобода требует подтверждения. Художественная форма выступает полем действия, в котором выбор обретает статус события, а трагизм удостоверяет ценность протеста.

Использованная литература:

1. Акимова Е.А., Ермоленко С.И. Феномен «самоповторений» в творчестве М.Ю. Лермонтова: к постановке проблемы // Вестник Уральского федерального университета. Серия: Гуманитарные науки. – Екатеринбург, 2020. С. 139–197.
2. Ваняшова М.Г. «Меж бурным сердцем и грозой...»: экзистенциальные аспекты поэмы М.Ю. Лермонтова «Мцыри». Эрос и Танатос // Верхневолжский филологический вестник. 2016. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mezh-burnym-serdtsem-i-grozoy-ekzistentsialnye-aspekty-poemy-m-yu-lermontovamtsyri-eros-i-tanatos> (дата обращения: 11.09.2025).
3. Гинзбург Л.Я. Творческий путь Лермонтова. – М.: Художественная литература, 1940. – 223, с.
4. Дурылин С.Н. Герой нашего времени М.Ю. Лермонтова. Комментарии. 2 изд., с дополнениями, подготовил А.А. Аникин. – Москва, 2006. С. 77–89.
5. Лермонтов М.Ю. Сочинения: в 2 т. / М.Ю. Лермонтов; сост. и коммент. И.С. Чистовой; вступ. ст. И.Л. Андронникова. – М.: Правда, 1988. – Т. 1. – 720 с.
6. Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста. – Л.: Просвещение, 1972. – 320 с.
7. Макогоненко Г.П. Лермонтов и Пушкин: проблемы преемственности развития литературы / Г.П. – Макогоненко; [послел. В. Марковича]. – Л.: Сов. писатель, 1987. – 398 с.
8. Манн Ю.В. Русский романтизм. – М.: Юрайт, 2015. – 577 с.
9. Москвин Г.В. Первый период творчества М.Ю. Лермонтова (ранняя лирика) // Вестник Московского университета. Серия 9. Филология. 2014. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/pervyy-period-tvorchestva-m-yu-lermontova-rannaya-lirika> (дата обращения: 11.09.2025).
10. Непомнящий В.С. Поэзия и судьба: статьи и заметки о Пушкине и Лермонтове / В.С. Непомнящий. – М.: Советский писатель, 1987. – 367 с.
11. Смирнов А.А. Символика романтической мечты в поэзии М.Ю. Лермонтова // Вестник Московского университета. Серия 9: Филология. 2014. – № 2. – С. 39–47
12. Турбин В.Н. Пушкин. Гоголь. Лермонтов. Об изучении литературных жанров. – М.: Просвещение, 1978. – 239 с.

Susana MAMADALIYEVA,
 associate professor
 KSU

A STUDY OF LETTERS AND CORRESPONDENTS IN WORKS CREATED IN THE PERIOD OF NEW UZBEKISTAN AND FOREIGN LITERATURE

Annotation: letter was one of the first inventions of mankind; it has served and continues to serve as the main type of human communication since the advent of writing.

Key words: *letter, person, letter, literature, appearance, basis, society.*

Аннотация: письмо было одним из первых изобретений человечества, служило и продолжает служить основным видом человеческого общения с момента появления письменности.

Ключевые слова: *письмо, человек, буква, литература, возникновение, основа, общество.*

Annotatsiya: xat va maktub insoniyatning ilk ixtirolaridan biri bo'lib, u yozuv paydo bo'lganidan beri insoniy muloqotning asosiy turi bo'lib xizmat qilgan va xizmat qilmoqda.

Kalit so'zlari: *xat, inson, maktub, adabiyot, ko'rinish, asos, jamiyat*

Content. Letters can be said to be the images of the era. If we dare to edit the great French writer Stendhal's quote, "Literature is a huge mirror being dragged along a highway", it would not be wrong to change it to say that letters are a mirror being dragged along a highway. Every letter reflects the customs, daily life of people, and the uniqueness of a nation.

In this sense, the letters of Russian writers of the 19th century are especially noteworthy. They are of interest not only to specialists, source scholars and historians, but also to ordinary readers. It is no coincidence that among the literary and artistic heritage of Dostoevsky and Tolstoy, Gersen and Turgenev, Chekhov and Gorky, their novels and stories, as well as their letters, are read with equal interest.

Research methods. Because they breathe real life, not the texture, invented plots or artistic images typical of any work of art. They also captivate the reader with the touching and beautiful language in which they express the details of the authors' personal lives, their simple joys and worries, their lives full of contradictions, their thoughts on the era, art, their loves and their spiritual and social views.

Such letters serve as a source of wisdom and a source of inspiration. When we read their love letters, we feel that humanity, in essence, has hardly changed for thousands of years. We are amazed that the concepts of passion, jealousy, hope, loyalty have not changed over the centuries, but are still the same, blessed and honorable. You feel that a person does not have to have literary talent to write such letters, but rather that any person with a rich inner world, sincerity and purity of heart can write them.

Discussions. For example, Napoleon Bonaparte is a military man, his life was spent in battles and battles, Mozart is a composer, Salvador Dali is a painter, Kakhovsky, Trubetskoy, Volkonsky are masters of various fields - not writers, poets or creative people, by any means

- but a person who reads their letters feels spiritually at ease, is moved, and involuntarily begins to think.

So, the role of the letter in human life, and in the lives of heroes of works of art, is much more significant and numerous than I thought.

A specific genre of journalism is the letter. The word letter is Arabic and means a text sent in written form from one person to another, a record containing certain information. This word is also called a letter, a letter, which means from above. The letter is one of the first inventions of mankind, and after the advent of writing, it has served and continues to serve as the main type of communication between people. The letter is sent and received as a means of communication by mail, as well as by electronic means such as telegraph, fax and the Internet. Such letters are called personal letters. Letters that are of some interest and importance to society are valued as socially significant letters.

Such letters are delivered to the masses - the public - through written literature and the press. Such letters, which reflect facts, events and phenomena in one or another area of society, provide some news to public opinion and arouse ideas, are also related to journalism and the press. That is, a person reports about some fact, event, or incident in life through his letter through the press, expresses his opinions on them or asks for help on some issue, complains, etc.

Therefore, the letter is an important tool that connects the individual with society and, in turn, society with the individual.

A letter is a special genre of journalism, in which one can see both news, analytical and artistic-publicistic features. For example, in some letters sent by people to the press, some fact, event or incident in life can be reported, and thoughts can be expressed about it. This corresponds to the information genre of journalism. Some letters, on the other hand, have the nature of correspondence, in which

several facts, events, or incidents are mentioned, and thoughts are expressed. Most letters used for the press are in the form of articles, in which a topic taken from life, a complete thought is expressed.

Analysis of literature on the article. In other letters, issues of great social importance are raised and discussed by many people. Daily letters to the editorial office are the simplest form of this genre, reflecting the current issues of the day. In their letters to the editorial office, people report on a fact or event that interests them, express their opinion on a certain issue, complain about certain shortcomings and injustices in life, etc.

The daily range of topics received by the editorial offices is very wide, and they reflect important aspects of daily life. Such letters are usually of two types - positive or critical. Positive letters approve and support facts, events and phenomena in life, while critical letters express and expose critical attitudes towards shortcomings and other vices in life. The majority of such letters are letters of complaint.

Socially significant and important forms of letters are "Open Letters" and "Appeals". An open letter is a publicistic material written on the basis of the opinions and views of an individual or a group of people about some important social, economic, cultural-spiritual issue or problem in life. In such a letter, an issue or problem that is very important for this day and time is raised and, by communicating it to the majority, it is submitted to the public for judgment.

Such letters should have a sharp journalistic spirit and a lively impact. An open letter has a special place in social significance, which distinguishes it from an ordinary letter.

Results. A typical form of an open letter is in the form of an "Address". Such letters can also be of an official nature. For example, a letter of congratulations from the head of state to the participants of a certain conference or to a regional, district or enterprise team that has achieved great success in work, or letters from the participants of a conference to the head of state.

Such greetings and appeals also reflect important social issues. Some open letters may also express social issues on a particular topic, or the author's opinion that he wants to convey to the general public.

One of the important forms of the letter, widely used in the press and written literature, is literary and artistic letters or epistolary journalism. The word epistolary comes from the Latin *epistola* - letter, sent information. This genre is the

expression of a literary and artistic or journalistic work in the form of a letter. That is, famous writers, writers, critics wrote their feelings, thoughts and opinions of important social significance and conveyed them to the public in the form of letters.

In the history of world literature and social thought, many such works have been created. Press works written in the letter genre are diverse in their internal characteristics, structure, and formal aspects. Simple letters sent to editorial offices reflect personal thoughts and opinions about facts, events, and phenomena encountered in everyday life, and are written in a simpler style. When using such letters in editorial offices, they can be edited stylistically while preserving the authors' thoughts, goals and direction. Epistolary or writerly journalism is subject to high creative and expressive requirements that are imposed on artistic and journalistic works.

Summary. Such works should be of high level both in terms of social and ideological and artistic and pictorial aspects. The worldview and artistic skill of the author of the letter play a key role in this. The letter genre occupies a wide place in almost all forms of mass media. In general, the letter genre is one of the broadest and most diverse genres of journalism, which plays a great role in a person's perception of the social world. This genre has been finding its worthy expression in numerous mass media of independent Uzbekistan.


From this it can be seen that there is a certain difference between letters and epistles. That is, as we have noted above, letters serve to convey information (data) and thereby ensure communication. Letters, on the other hand, in addition to serving to convey information and ensuring communication, have an artistic and aesthetic impact and also serve to enhance literary works.

So, a letter is in a sense a processed, polished, artistic form of a letter, and as a result of the rise of artistic polish, the *noma* genre appeared in classical literature. When it first appeared, *noma* was created in a poetic style, later in prose, and Persian literature laid the foundation for the *noma* genre and developed it. The emergence of the *noma* genre in Uzbek classical literature is associated with the name of Khorezm.) The object of our research is not the examples of the *noma* genre, but the study of letters in works created during the period of new Uzbek literature. The reason for addressing this issue is the issue of the genesis of the letter.

References:

1. Sh. Akhmedova. Letters and literary criticism. – Tashkent. 2005
2. Khurshid Davron Library. L. A. Seneca. Moral letters for Lucius
3. Orinboev A. Letters from Jomi. – Tashkent, 1994
4. Kh. Khomidiy, Sh. Abdullaeva, S. Ibrohimova. "Teacher" – Tashkent, 1967
5. Markabo Kuchkarova, "Letters – a mirror of the soul", "World literature" magazine, 2009, issue 11.

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA



Malika ALTIBAYEVA,
TAFU "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida o'qituvchisi,
Malohat AHMEDOVA,
TAFU "Pedagogika" kafedrasida professori
(malikaaltiboyeva@gmail.com)

LINGVISTIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI RESURLAR VA O'Z-O'ZINI BAHOLASH METODIKASI

Annotatsiya: mazkur maqolada lingvistik kompetensiya tushunchasi, uni rivojlantirishda raqamli resurslarning o'ri hamda o'z-o'zini baholash metodikasining ahamiyati nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'limda til o'rganish jarayonini faollashtirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish va metakognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar va refleksiv yondashuv muhim omil sifatida ko'riladi.

Kalit so'zlar: lingvistik kompetensiya, raqamli resurslar, o'z-o'zini baholash, metakognitiv ko'nikmalar, interaktiv ta'lim, kommunikativ yondashuv, til o'rganish metodikasi, multimodal o'rganish, ta'lim texnologiyalari, refleksiya, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv.

Аннотация: в данной статье теоретически анализируются понятие лингвистической компетенции, роль цифровых ресурсов в её развитии, а также значение методики самооценки. В условиях современного образования цифровые технологии и рефлексивный подход рассматриваются как важные факторы активизации процесса изучения языка, формирования самостоятельного мышления учащихся и развития метакогнитивных навыков.

Ключевые слова: лингвистическая компетенция, цифровые ресурсы, самооценка, метакогнитивные навыки, интерактивное обучение, коммуникативный подход, методика изучения языка, мультимодальное обучение, образовательные технологии, рефлексия, личностно-ориентированное обучение, компетентностный подход.

Annotation: this article provides a theoretical analysis of the concept of linguistic competence, the role of digital resources in its development, and the significance of self-assessment methodology. In modern education, digital technologies and reflective approaches are considered key factors in enhancing the language learning process, fostering independent thinking among learners, and developing metacognitive skills.

Key words: linguistic competence, digital resources, self-assessment, metacognitive skills, interactive learning, communicative approach, language learning methodology, multimodal learning, educational technologies, reflection, learner-centered education, competency-based approach.

Kirish. Zamonaviy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosiy metodik tamoyil sifatida baholanmoqda. Ayniqsa, lingvistik kompetensiyani shakllantirishda o'quvchilarning tilga oid bilimlarini chuqurlashtirish, nutq faoliyatini rivojlantirish va kommunikativ ko'nikmalarni mustahkamlash muhim hisoblanadi. Bu tahlilda raqamli resurslar va o'z-o'zini baholash metodikasi integratsiyalashgan holda qo'llanilishi lozim.

Zamonaviy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosiy metodik tamoyil sifatida e'tirof etilmoqda. Bu yondashuv ta'lim jarayonida faqat nazariy bilimlarni emas, balki amaliy ko'nikma va malakalarni ham rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, o'quvchini faol subyekt sifatida shakllantirishni ko'zda tutadi. Pedagog olimlarning ta'kidlashicha, kompetensiyaviy yondashuv shaxsning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va kommunikativ salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.[1] Kompetensiyaviy yondashuv haqiqatan ham zamonaviy ta'limda shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Bu yondashuv o'quvchini faqat bilim oluvchi emas, balki bilim yaratuvchi va uni amalda qo'llovchi faol shaxs sifatida shakllantiradi.

Olim ta'kidlaganidek, bu jarayon mustaqil fikrlash, ijodkorlik va kommunikativ salohiyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Aynan shu jihatlar XXI asr ko'nikmalarining – "4C" modelining

(Critical thinking, Creativity, Communication, Collaboration) – markazida turadi. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv o'quvchini real hayotiy vaziyatlarda o'z bilimini qo'llashga o'rgatadi. Natijada, o'qitish faqat nazariy jarayon emas, balki amaliy, interaktiv va refleksiv tajribaga aylanadi. Demak, olimning tadqiqi o'z dolzarbligini yo'qotmagan: kompetensiyaviy yondashuv – bu nafaqat o'qitish metodikasi, balki o'quvchini hayotiy muvaffaqiyatga tayyorlovchi tizimli pedagogik strategiyadir.

Lingvistik kompetensiya tushunchasi. Lingvistik kompetensiya – bu tilni grammatik jihatdan to'g'ri, mantiqiy va kontekstga mos ravishda qo'llash qobiliyatidir. Noam Chomsky bu tushunchani tilshunoslikka kiritgan bo'lib, uni "til tizimining ichki bilimlari" deb ta'riflaydi.[2] Zamonaviy ta'limda lingvistik kompetensiya nafaqat grammatik bilim, balki nutq faoliyati (tinglash, gapirish, o'qish, yozish) orqali ifodalanadi.

"Lingvistik kompetensiyani shakllantirishda fonetika, leksika, grammatika, grafika va orfografiya kabi til materiallari muhim rol o'ynaydi".[3] Lingvistik kompetensiyaning shakllanishi aynan til tizimini tashkil etuvchi asosiy bo'limlarni – fonetika, leksika, grammatika, grafika va orfografiyani puxta egallash orqali amalga oshadi. Fonetika o'quvchining talaffuz va eshitish madaniyatini shakllantirsa, leksika so'z boyligini kengaytiradi, grammatika esa nutqni to'g'ri tuzish va

mantiqan ifodalash imkonini beradi. Grafika va orfografiya esa yozma nutq madaniyatini rivojlantiradi, bu esa kommunikativ kompetensiyaning zaruriy tarkibiy qismidir. Demak, lingvistik kompetensiyaning integral va tizimli xarakterini ifodalaydi. Til bo'limlarining har biri o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ular birgalikda o'quvchining tilni to'g'ri tushunish, ifodalash va muloqotda samarali qo'llash ko'nikmasini shakllantiradi.

Raqamli resurslarning o'zni. Raqamli resurslar – bu elektron darsliklar, interaktiv platformalar, mobil ilovalar, video darslar, onlayn testlar va boshqa texnologik vositalardir. Ular lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

Individuallashtirilgan ta'lim: har bir o'quvchi o'z darajasiga mos materialni tanlaydi.

Multimodal o'rganish: matn, audio, video orqali tilni turli shakllarda o'rganish.

Faollik va motivatsiya: o'yinli va interaktiv muhit o'quvchini jalb qiladi.

Rashidova Lola o'z tadqiqotida shunday yozadi: "Interaktiv o'qitish, tashabbuskorlikni rag'batlantirish va onlayn resurslardan foydalanish orqali talabalar o'z fikrlarini samarali ifodalash, tildagi nozikliklarni tushunish va til o'rganish jarayonini qiziqarli qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi".[4] Rashidova Lola tomonidan bildirilgan ushbu fikr zamonaviy ta'limning dolzarb tamoyillaridan birini yoritadi. Olimaning ta'kidlashicha, interaktiv o'qitish va raqamli vositalardan foydalanish til o'rganish jarayonida o'quvchi yoki talabani markazga qo'yadi. Bu yondashuv o'quvchini faol ishtirokchi, mustaqil fikr bildiruvchi va ijodkor shaxs sifatida shakllantiradi.

Haqiqatan ham, interaktiv metodlar (masalan, muhokama, rol o'yinlari, onlayn platformalarda muloqot) orqali o'rganilayotgan til tabiiy muhitda qo'llaniladi, bu esa kommunikativ kompetensiyani chuqurlashtiradi. Onlayn resurslar esa o'quvchiga mustaqil ishlash, o'z tezligida o'rganish va bilimni mustahkamlash imkonini beradi. Demak, Rashidova Lolaning fikriga to'liq qo'shilish mumkin: interaktiv va tashabbuskorlikka asoslangan ta'lim usullari o'quvchilarda nafaqat til bilimlarini, balki tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va muloqot madaniyatini ham rivojlantiradi. Shu bois bu yondashuv hozirgi kompetensiyaviy ta'lim paradigmasi bilan to'la uyg'un hisoblanadi.

Tashabbuskorlikni rag'batlantirish va onlayn resurslardan foydalanish zamonaviy ta'limning eng samarali komponentlaridan hisoblanadi. Bunday yondashuv talabalarni faollikka chorlaydi, ularning mustaqil fikrlashini, muloqotda faol ishtirok etishini va tilni tabiiy muhitda o'rganish qobiliyatini

kuchaytiradi.

Shuningdek, interaktiv metodlar (munozaralar, rolik tahlili, onlayn testlar, virtual suhbatlar va boshqalar) til o'rganish jarayonini jonlantirib, o'quvchilarda motivatsiyani oshiradi. Onlayn resurslar esa (masalan, Duolingo, BBC Learning English, Quizlet kabi platformalar) o'quvchilarga istalgan joyda, istalgan vaqtda til mashqini davom ettirish imkonini beradi. Demak, fikrda qayd etilganidek, bu yondashuv nafaqat tilni o'rganish jarayonini samarali qiladi, balki uni ijodiy va qiziqarli faoliyatga aylantiradi. Bu esa XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

O'z-o'zini baholash metodikasi. O'z-o'zini baholash – bu o'quvchining o'z bilim va ko'nikmalarini mustaqil tahlil qilish, baholash va rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvdir. Bu metod lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda quyidagi jihatlar bilan ahamiyatlidir:

Metakognitiv ko'nikmalarni shakllantiradi: o'quvchi o'z o'rganishini anglaydi va nazorat qiladi.

Mas'uliyatni oshiradi: o'quvchi o'z natijalariga javobgar bo'ladi.

Refleksiya imkonini beradi: til o'rganishdagi xatolarni tahlil qilish va tuzatish.

Nosirova Dilfuza Nabiyevna o'z tadqiqotida ta'kidlaydi: "O'z-o'zini baholash metodikasi o'quvchilarda til ko'nikmalarini chuqur anglash va ularni amaliyotda qo'llashga yordam beradi".[5] O'z-o'zini baholash metodikasi – bu o'quvchini o'z ta'lim jarayoniga faol jalb etuvchi, mas'uliyat va refleksiya ko'nikmalarini shakllantiruvchi samarali usullardan biridir.

Til o'rganish jarayonida o'z-o'zini baholash o'quvchiga o'z kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, o'zining til kompetensiyasi darajasini real baholash hamda kelgusi o'qish strategiyasini belgilash imkonini beradi. Bu metod shuningdek, metakognitiv fikrlashni rivojlantiradi, ya'ni o'quvchi o'z o'rganish jarayonini tahlil qilish va boshqarish malakasiga ega bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan, fikr muallifining ta'kidi ilmiy asosga ega: o'z-o'zini baholash til ko'nikmalarini chuqurroq anglash, ularni amaliy nutq faoliyatida qo'llash va o'quvchini mustaqil o'rganishga yo'naltirishda muhim metodik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda raqamli resurslar va o'z-o'zini baholash metodikasi integratsiyalashgan holda qo'llanilganda, o'quvchilarning tilga oid bilimlari chuqurlashadi, nutq faoliyati faollashadi va o'rganish jarayoni yanada samarali bo'ladi. Bu yondashuv zamonaviy ta'limning asosiy tamoyillariga – kompetensiyaviy, innovatsion va shaxsga yo'naltirilgan ta'limga mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hutmacher, 1997; Weinert, 2001
2. Chomsky, N. (1965). Aspects of the Theory of Syntax. MIT Press.
3. Haydarova M. M.Q.Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish omillari. 2024-yil.
4. Rashidova L.Talabalarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi. 2024-yil.
5. Nosirova D. N.Xorijiy tillarni o'rganishda o'z-o'zini baholash metodikasi. 2022-yil.

Gulnoza DJURAKULOVA,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti dotsenti (PhD)
djurakulovagulnoza5@gmail.com

O'ZBEKISTON MEDIAMAKONIDA NOTIQLIK MAHORATI: PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekistonning zamonaviy mediamakonida notiqlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanish jarayoni keng qamrovda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va ta'lim tizimi doirasida notiqlik ko'nikmalarining ahamiyati, ularning pedagogik yondashuvlar bilan integratsiyalashuvi hamda o'zaro ta'siri ilmiy asosda yoritiladi. Notiqlikning o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, mustaqil fikr bildirish, ijtimoiy faollik va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi o'rni alohida tahlil etiladi. Pedagogik jarayonda nutq madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar, notiqlik treninglari, vizual va interaktiv ta'lim texnologiyalari asosida amaliy tavsiyalar taklif etiladi. Shuningdek, o'zbek blogosferasi va jurnalistikasida notiqlik uslubi, ritorik konstruksiyalar, til va ifoda madaniyatining namunalari o'rganilib, ularning yosh avlodning tafakkuri, dunyoqarashi va kommunikativ madaniyatiga ko'rsatadigan ta'siri tahliliy yondashuvda yoritiladi.

Kalit so'zlar: *notiqlik, mediamakon, pedagogika, ta'lim, ritorika, nutq madaniyati, ijtimoiy tarmoqlar, kommunikativ kompetensiya, blogerlik, axborot savodxonligi.*

Аннотация: в данной статье анализируются процессы формирования и развития культуры ораторского искусства в современном медиапространстве Узбекистана. Основное внимание уделяется значению ораторских навыков в средствах массовой информации, социальных сетях и системе образования, а также их взаимосвязи с педагогическими подходами. Рассматривается роль ораторского мастерства в развитии у учащихся критического мышления, умения выражать собственное мнение, социальной активности и коммуникативной компетенции. На основе педагогического опыта приводятся практические рекомендации по развитию культуры речи: методы обучения, тренинги, визуальные и интерактивные технологии. Кроме того, исследуются речевой стиль, риторика и культура самовыражения в узбекской блогосфере и журналистике, а также их влияние на воспитание молодежи, формирование мировоззрения и речевой культуры.

Ключевые слова: *ораторское искусство, медиапространство, педагогика, образование, риторика, культура речи, социальные сети, коммуникативная компетентность, блогинг, информационная грамотность.*

Annotation: this article examines the formation and development of oratory culture in the modern media landscape of Uzbekistan. It focuses on the importance of public speaking skills in mass media, social networks, and the education system, as well as their integration with pedagogical approaches and mutual influence. The role of oratory in developing students' critical thinking, independent expression, social engagement, and communicative competence is explored in detail. The article also offers practical recommendations for enhancing speech culture through teaching methods, training sessions, visual tools, and interactive techniques. Additionally, the speech style, rhetoric, and expression culture in Uzbek blogosphere and journalism are analyzed, highlighting their impact on youth upbringing, worldview formation, and communicative culture.

Key words: *oratory, media space, pedagogy, education, rhetoric, speech culture, social networks, communicative competence, blogging, information literacy.*

Bugungi axborot asrida notiqlik faqat sahna yoki siyosiy maydon bilan cheklanmay, keng omma orasida muloqot qilish, ijtimoiy ta'sir o'tkazish, ta'lim berish va jamoatchilik fikrini shakllantirish vositasiga aylandi. Ayniqsa, raqamli makonda faoliyat yuritayotgan blogerlar, jurnalistlar, pedagoglar va kontent yaratuvchilarning notiqlik darajasi ularning ishonchliligi, tinglovchiga ta'sirchanligi va ommaviylik mezonini belgilaydi.

Bugungi kunda notiqlik san'ati faqat sahnada yoki siyosiy maydonlarda emas, balki keng omma bilan muloqot qilish, ijtimoiy ta'sir ko'rsatish, ta'lim berish va jamoatchilik fikrini shakllantirishning eng muhim vositalaridan biriga aylandi. Ayniqsa, raqamli makonda

faoliyat yuritayotgan blogerlar, jurnalistlar, pedagoglar va kontent yaratuvchilarning notiqlik darajasi ularning ishonchliligi, tinglovchiga ta'sirchanligi va ommaviylik ko'rsatkichlarini belgilab bermoqda.

O'zbekiston mediamakonida kommunikatsiya jarayoni ijtimoiy tarmoqlarning tezkor rivojlanishi bilan yangi bosqichga ko'tarildi. Bugun YouTube, Instagram, Telegram, TikTok kabi platformalar orqali yuzlab, minglab kontent yaratuvchilar auditoriya bilan muloqot qilmoqda. Bu platformalarda kontent faqat axborot berish bilangina cheklanmay, balki targ'ibot, motivatsiya, ta'lim hamda madaniy-ma'naviy g'oyalarni yetkazish vazifasini ham bajaradi. Shunday sharoitda nutq madaniyati, ritorik

qurilish, til estetikasi va ta'sirchanlik darajasi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki notiqlik san'ati – so'zning go'zalligi va kuchi orqali jamiyatda ijobiy o'zgarishlarni ilhomlantiruvchi kuchdir.

Notiqlikni rivojlantirishda ta'lim tizimi muhim o'rin tutadi. O'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish, tanqidiy fikrlashini shakllantirish va mustaqil nutq tuzish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ularning kommunikativ kompetensiyasi boyitiladi. Ayniqsa, boshlang'ich va o'rta ta'lim bosqichida nutq madaniyatining poydevori mustahkam yaratilsa, bu kelajakdagi ijtimoiy faollik, shaxsiy rivojlanish va kasbiy muvaffaqiyat uchun mustahkam asos bo'ladi.

Zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida kommunikativ yondashuv ustuvor o'rin egallamoqda. Bugungi o'quvchidan ma'lumotni yod olish emas, balki uni izlash, tahlil qilish, baholash va o'z fikrini asoslab ifodalash talab qilinadi. Shu sababli har bir pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki notiqlik san'ati, ritorika va zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalaridan xabardor bo'lgan mutaxassis bo'lishi zarur.

Bugungi kunda blogerlik fenomeni pedagogik jarayonning bir qismiga aylanmoqda. Mashhur kontent yaratuvchilarning nutqi, uslubi va ifoda vositalari yoshlar uchun taqlid namunasi sifatida xizmat qilmoqda. Shu bois bu jarayonni ilmiy tahlil qilish, to'g'ri pedagogik maqsadlar bilan uyg'unlashtirish zamon talabidir.

Samarali nutqning tarkibiy qismlari – ovoz, tana tili, pauza, urg'u, mimika, tempo va ko'z aloqasi – nutq ta'sirchanligini belgilovchi asosiy vositalardir. Zamonaviy texnologiyalar yordamida bu komponentlarni aniq

o'rganish mumkin: videoanaliz usuli orqali tana harakati va mimika tahlil qilinadi, audio va transkripsiyalar orqali pauza, talaffuz va urg'ular aniqlanadi. Maxsus dasturlar esa nutqning stilistik va ritorik sifatlarini baholab, aniq takliflar beradi. Bu vositalar o'quvchi va talabalar uchun ham o'z nutqini mustaqil ravishda tahlil qilish va rivojlantirish imkonini yaratadi.

Notiqlikni amaliy jihatdan mustahkamlash uchun muntazam treninglar tashkil etiladi:

Debatlar – fikrni asosli himoya qilish va mantiqiy isbotlashni o'rgatadi.

Prezentatsiyalar – auditoriya oldida nutq so'zlash tajribasini oshiradi.

Rol o'yinlari – turli vaziyatlarda nutqiy moslashuvchanlikni shakllantiradi.

Kreativ mashqlar – ijodkorlik va erkin ifodani rivojlantiradi.

Bu jarayonlar o'quvchilarda liderlik, jamoa bilan ishlash, mas'uliyat va empatiya kabi muhim ijtimoiy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, notiqlik bugungi kunda zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylandi. Uni mustaqil fan yoki kompetensiya sifatida rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, malakali mutaxassislar tayyorlash va metodikalarni takomillashtirish orqali ta'lim jarayonini yanada samarali qilish mumkin. Shunda yosh avlod nafaqat bilimli, balki o'z fikrini aniq, ravon va ishonch bilan ifodalay oladigan, jamiyatda faol o'ringa ega bo'lgan shaxs sifatida kamol topadi. Bu esa mamlakatning ma'naviy va madaniy taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Babayeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. Darslik. – T.: Barkamol fayz media. 2018. 432-b.
2. Israil M.I., Tashmuxeimedova L.I. Notiqlik san'ati. O'quv qo'llanma. –T.: Noshir nashriyoti. 2019.152-b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent.2006. 396-b.
4. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – T.: O'qituvchi. 1992.197-b.
5. Shomaqsudova S.X., Israil M.I. OAVda yozma matn. Nutq va munozara. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya. 2018. 180-b.
6. Sitseron, Notiqlik san'ati. – T.: Yangi asr avlodi. 2015. 480-b.
7. Toshaliyev I. E., Abdusattorov R., Ommaviy axborot vositalarning tili va uslubi. – T.: Universitet, 2006. 248-b.

Nurbek UMAROV,
SamDUKF Pedagogika fakulteti
"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" kafedrası o'qituvchisi
nurmanov174@gmail.com

KVEST TEXNOLOGIYASI ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada kvest texnologiyasi asosida darslarni tashkil etishning psixologik va pedagogik xususiyatlari nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Kvest texnologiyasi o'quvchilarni faol fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinli metod sifatida taqdim etiladi. Mahalliy va xorijiy tadqiqotlar asosida kvest darslarining o'quvchilarning motivatsiyasi, emotsional holati va kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta'siri aniqlanadi. Shuningdek, maqolada o'qituvchilar uchun kvest texnologiyasini tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: kvest texnologiyasi, ta'lim motivatsiyasi, psixologik xususiyatlar, o'yinli o'qitish, konstruktivizm, interaktiv metodlar, ijodiy fikrlash, o'quv faoliyati.

Аннотация: в данной статье теоретически и практически анализируются психологические и педагогические особенности организации уроков на основе квест-технологии. Квест-технология представлена как игровая методика, направленная на развитие у обучающихся активного мышления, креативности, сотрудничества и навыков принятия решений в проблемных ситуациях. На основе отечественных и зарубежных исследований выявлено положительное влияние квест-уроков на мотивацию, эмоциональное состояние и когнитивное развитие учащихся. В статье также даны методические рекомендации для преподавателей по внедрению квест-технологии в учебный процесс.

Ключевые слова: квест-технология, учебная мотивация, психологические особенности, игровое обучение, конструктивизм, интерактивные методы, творческое мышление, учебная деятельность.

Annotation: this article provides a theoretical and practical analysis of the psychological and pedagogical characteristics of organizing lessons based on quest technology. Quest technology is presented as a game-based teaching method aimed at developing students' active thinking, creativity, collaboration, and decision-making skills in problem-solving situations. Based on national and international studies, the article identifies the positive effects of quest-based lessons on students' motivation, emotional state, and cognitive development. Additionally, methodological recommendations are offered for teachers on implementing quest technology in the educational process.

Key words: quest technology, learning motivation, psychological features, game-based learning, constructivism, interactive methods, creative thinking, learning activity.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida interaktiv metodlar va innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'qitish samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shulardan biri – **kvest texnologiyasi**, ya'ni topshiriqlar va muammoli vaziyatlar asosida o'qitish usuli, bugungi kunda jahon ta'lim amaliyotida keng qo'llanilmoqda.

Kvest (inglizcha *quest* – izlanish, sarguzasht) – bu o'yinli ta'lim faoliyatining shakli bo'lib, unda o'quvchilar ma'lum bir maqsadga erishish uchun vazifalar ketma-ketligini bajaradilar. Ta'lim jarayonida kvest metodini qo'llash o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, motivatsiyasini va ijodiy salohiyatini oshiradi [1]. Shu bois, ushbu texnologiya o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishida, o'zini baholashda, ijtimoiylashuvda va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot kvest texnologiyasining psixologik va pedagogik asoslarini o'rganishga, uning o'quv faoliyatiga ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot **nazariy-tahliliy** va **empirik** yondashuvlarni birlashtiradi.

1. Tadqiqot usullari:

ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish (CyberLeninka,

ScienceDirect, PMC bazalari orqali);

pedagogik kuzatuv va tajriba (boshlang'ich va o'rta ta'limda o'tkazilgan 12 ta kvest darsi tahlili) [1];

o'quvchilarning emotsional va motivatsion holatini baholash (intervyu va anketa asosida).

2. Tahlil obyekti: kvest darslarida o'quvchilarning motivatsiya darajasi, kommunikativ faolligi, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatlari.

3. Metodologik asoslar. Mazkur tadqiqotning metodologik asosi zamonaviy pedagogika, psixologiya va didaktika fanlarida ishlab chiqilgan o'yinli o'qitish, konstruktivizm va faol o'rganish nazariyalariga tayanadi. Kvest texnologiyasi o'quv jarayonini interaktiv shaklda tashkil etishga, o'quvchilarni mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yechim topishga yo'naltiruvchi ta'limiy vosita sifatida talqin qilinadi. Ushbu texnologiyaning nazariy negizlari J. Dyuning tajribaviy ta'lim konsepsiyasi, L.S. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi, hamda J. Brunerning konstruktivistik yondashuvi bilan uzviy bog'liqlidir [2].

Kvest texnologiyasining psixologik asoslari o'quvchilarning ichki motivatsiyasini faollashtirish, emotsional

barqarorlikni mustahkamlash va o'rganishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan. Bu jarayonda D. Deci va R. Ryan tomonidan ilgari surilgan *o'z-o'zini aniqlash nazariyasi* (Self-Determination Theory) [3] muhim o'rin tutadi.

Metodologik jihatdan tadqiqotda sifatli tahlil (qualitative analysis) yondashuvi qo'llanildi. Kvest darslarining samaradorligini o'rganish uchun mavjud ilmiy manbalar, xorijiy tajribalar, hamda O'zbekiston ta'lim muassasalarida olib borilgan amaliy kuzatuvlar tahlil qilindi. O'qituvchi va o'quvchilar bilan suhbatlar o'tkazilib, kvest metodining ularning motivatsiyasiga, e'tibor darajasiga va o'zaro muloqotga ta'siri o'rganildi [4].

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kvest texnologiyasi asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning o'quv faoliyatiga nisbatan motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi, ularning tafakkuri, emotsional holati va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. Kvest asosida o'tilgan mashg'ulotlarda o'quvchilar nafaqat bilimlarni o'zlashtirishadi, balki ularni amaliy faoliyat jarayonida qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning o'rganish jarayoniga faol ishtirokchi sifatida kirishlarini, mustaqil qaror qabul qilish, mantiqiy fikrlash va ijodkorlikni namoyon etishlarini ta'minlaydi [5].

Avvalo, o'quv jarayoni ko'proq muloqotga asoslangan shaklga o'tdi – o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat hamkorlik, ishonch va o'zaro hurmatga tayanadigan modelga aylandi. Ikkinchidan, o'quvchilarning o'zaro muloqoti faollashdi: kvest jarayonida ular o'z fikrlarini erkin bildiradi, jamoa ichida rollarni taqsimlaydi, va muammolarni birgalikda hal qiladi [6].

Kvest jarayonida o'quvchilar:

mantiqiy fikrlash va muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim topish qobiliyatini rivojlantiradi;

ijodiy fikrlash, o'z g'oyasini asoslash va yangicha yondashuvlarni taklif etish ko'nikmalarini egallaydi;

jamoa bilan ishlash, tinglash, fikrni muvofiqlashtirish va liderlikni namoyon etish tajribasini orttiradi [7].

Tahlil va muhokama. Olib borilgan tadqiqot natijalarini chuqur tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, kvest texnologiyasi zamonaviy ta'limda o'quvchilarning bilim olish jarayoniga yangi mazmun, yangi dinamika va yuqori darajadagi motivatsiya olib kiradi. Kvest metodining samaradorligi, avvalo, uning psixologik-pedagogik tabiati bilan izohlanadi. Ushbu texnologiya o'yin elementlari orqali o'quvchilarda tabiiy raqobat, qiziqish, muloqot va ijodkorlik hissini uyg'otadi. Shu bois, kvest darslari o'qitishning an'anaviy shakllaridan tubdan farq qiladi: bu darslarda bilim tayyor shaklda emas, balki izlanish, tajriba va muammolarni hal etish jarayonida o'zlashtiriladi.

Kvest darslarida aynan shu uch omil uyg'unlashadi: o'quvchilar mustaqil qaror qabul qilish imkoniga ega bo'ladilar, o'z bilim va ko'nikmalarini sinovdan o'tkazadilar hamda jamoaviy faoliyat orqali o'zini jamiyatning muhim a'zosi sifatida his etadilar. Bu esa ularning o'rganishga nisbatan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi, passiv ishtirokchi emas, balki faol o'rganuvchi rolini mustahkamlaydi [8].

Shuningdek, kvest texnologiyasining ijtimoiy ahamiyati ham e'tiborga loyiq. Tadqiqot davomida kuzatilganidek, kvest mashg'ulotlari o'quvchilarda o'zaro hurmat, empatiya, tinglash madaniyati va jamoa ichida mas'uliyat hissini rivojlantiradi. Bunday jarayonlar ta'limni insonparvarlashtirish, o'quvchilarning shaxsiy salohiyatini ochish va ularni ijtimoiy faol shaxslarga aylantirishga xizmat qiladi [10].

Xulosa. Kvest texnologiyasi o'quv jarayonini yangicha psixologik-pedagogik asosda tashkil etish imkonini beradi. U o'quvchilarning bilim olish jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlaydi, o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi va o'zini namoyon qilish imkoniyatini beradi.

Kelgusida kvest texnologiyasining ta'limdagi roli yanada ortishi kutilmoqda. Shu bois, o'qituvchilarni bu metodga tayyorlash, milliy ta'lim tizimiga mos raqamli kvest platformalarini ishlab chiqish va psixologik-pedagogik monitoring tizimini joriy etish muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alotaibi, M.S. et al. Game-based learning in early childhood education: a systematic review and meta-analysis. PMC.
2. Hakimova, M.M. Ta'limda simulyatsion geymifikatsiya va uning ahamiyati. CyberLeninka, 2024.
3. Asqarova, S. O'yin ta'lim jarayonini tashkil etishning pedagogik vositasi sifatida. CyberLeninka, 2021.
4. Senatorova, O.Yu. Квест-технология в образовательном процессе дополнительного профессионального образования. CyberLeninka, 2020.
5. Manzano-León, A. et al. Escape Rooms as a Learning Strategy for Special and General Education. PMC, 2021.
6. Sánchez, J. et al. Using Digital Educational Escape Rooms as a Motivational and Review Tool. ScienceDirect, 2023.
7. Whitton, N. Playful Learning: Linking Play Properties to Learning Designs.
8. Hamari, J., Koivisto, J., & Sarsa, H. (2014). Does Gamification Work? HICSS.
9. Deterding, S. et al. (2011). From Game Design Elements to Gamefulness. MindTrek Conference.
10. Kapp, K.M. (2012). The Gamification of Learning and Instruction. San Francisco: Pfeiffer.

Xulkaroy BABAYEVA,
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi
babayevaxusnida@gmail.com

OLIV TA'LIMDA REFLEKSIV TEXNOLOGIYALARNING SAMARALI QO'LLANILISHI: TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada ta'limdagi refleksiv texnologiyalarning qo'llanilishi haqida so'z yuritiladi. Refleksiv texnologiyalarning o'qituvchi va talaba uchun juda foydali ekanligi bayon etiladi. Maqolada refleksiv texnologiya barcha psixologik va pedagogik munosabatlar yig'indisi ekanligi tahlil qilinadi va bu boradagi jahon va o'zbek pedagog vakillarimiz olib borgan ilmiy tadqiqotlarni yoritish asosiy maqsad qilib olingan.

Kalit so'zlar: *refleksiv texnologiya, ta'lim, obyektivlashtirish, pedagogik faoliyat, o'qituvchi, talaba, tahlil, mulohaza.*

Аннотация: в данной статье рассматривается использование рефлексивных технологий в обучении. Утверждается, что рефлексивные технологии очень полезны для учителя и ученика. В статье анализируется тот факт, что рефлексивная технология представляет собой сумму всех психолого-педагогических отношений, и главная цель - осветить научные исследования, проводимые в этой связи педагогами нашего мира и Узбекистана.

Ключевые слова: *рефлексивная технология, обучение, объективация, педагогическая деятельность, учитель, ученик, анализ, рефлексия.*

Annotation: this article discusses the use of reflective technologies in teaching. It is argued that reflective technologies are very useful for the teacher and the student. The article analyzes the fact that reflective technology is the sum of all psychological and pedagogical relations, and the main goal is to highlight the scientific research conducted in this regard by the teachers of our world and Uzbekistan.

Key words: *reflexive technology, education, objectification, pedagogical activity, teacher, student, analysis, reflection.*

Kirish. Refleksiv texnologiyalar pedagogik texnologiyalarning maxsus guruhi sifatida mazmunga nisbatan ochib berish, "ma'noni kristalizatsiya qilish" funksiyasini bajaradi, garchi u ularning tashuvchisi bo'lsa-da, ma'no "ochilmaguncha" o'z-o'zidan qimmatli bo'lmaydi talaba uchun. Universitetda ta'lim – bu, eng avvalo, talabani kasbiy hayotga tayyorlash. Kelajakdagi o'qituvchi uchun "jon bilan" kasbiy hayotga tayyorgarlik ayniqsa muhimdir. Shuning uchun masofaviy ta'lim doirasida biz ta'lim jarayonida ma'nolarni tushunishga ongli ravishda yondashish imkonini beradigan refleksli texnologiyadan foydalanamiz. Bir necha bosqichlar reflektiv ta'lim texnologiyasini amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqich: maqsadni belgilash (o'z faoliyatini amaliy tushunish, bu maqsadlarni belgilash va ularga erishish; maqsadni belgilash asosiy ta'lim maqsadlarini aniqlashga yordam beradi, ustuvorliklarni belgilaydi va o'quvchining shaxsiy muvaffaqiyatini oshiradi). Maqsadni belgilash quyidagi to'plamlarni taqqoslash orqali sodir bo'ladi: birinchi to'plam – subyektning ehtiyojlari, uning qiziqishlari va boshqalar; ikkinchisi – tashqi (mavzu uchun) buyruq, topshiriq; uchinchisi – predmetning vositalari, uning malakasi, imkoniyatlari va boshqalar; to'rtinchi – cheklovchi shartlar; maqsad amalga oshirilishi kerak bo'lgan shartlar, to'siqlar – berilganidek e'tiborga olinishi kerak. Ikkinchi bosqich: ta'lim faoliyatini bosqichma-bosqich amalga oshirish

(asosiy tushuncha – bu atrofimizdagi dunyoni va o'zimizni o'zgartirishga qaratilgan inson faoliyatining bir shakli sifatida qaraladigan faoliyat)

Uchinchi bosqich: fiksatsiya. Bu bosqichda o'quvchining o'quv faoliyati to'xtaydi (tugaydi, to'xtaydi). O'quvchida tanlagan yo'lning to'g'riligiga shubha paydo bo'ladi, ba'zan esa "yengib bo'lmay qiyinchilik" hissi paydo bo'ladi. Juda qiyin to'rtinchi bosqich: muammolashtirish (muammolarni (qiyinchilik manbalarini) ularni hal qilish uchun topish). Odatda, bu bosqichda talaba noqulaylik holatini boshdan kechiradi va masofaviy ta'lim sharoitida buni kuzatish qiyin, shuning uchun biz har biriga individual ta'lim dasturlari orqali yordamni tashkil qilamiz. To'rtinchi bosqich: obyektivlashtirish (o'z faoliyatini obyektiv tahlil qilish). Odatda, bu harakatlar ketma-ketligini ("o'z qadamlari") va ularning harakatlar maqsadlari bilan bog'liqligini tiklash orqali sodir bo'ladi. Ushbu bosqichda yashash natijasi o'quvchi g'oyalar, taxminlar, prinsiplar yoki o'z faoliyatini tashkil etish qoidalari va boshqalarda ifodalaydigan obyektivlashtirilgan faoliyat uslubini umumlashtirishdir. Beshinchi bosqich: o'quv faoliyati maqsadini qayta ishlab chiqish (yoki uni aniqlashtirish). Ammo aks ettiruvchi ta'lim texnologiyasining to'liq texnologik siklini amalga oshirish uchun "boshqacha" kerak. O'zaro ta'sirning obyektiv subyekt sifatida ishlaydigan boshqa (o'qituvchi, repetitor, maslahatchi, talaba va boshqalar).

Bo'lajak o'qituvchining aks ettirishning paydo bo'lishi uchun asos, bizning fikrimizcha, natijalarga erishish uchun maqsadlar, usullar va usullarni muvofiqlashtirishda tushunishni talab qiladigan faoliyat subyektlarining o'zaro ta'siri bo'lishi mumkin. Pedagogik faoliyatni aks ettirish quyidagi holatlarda namoyon bo'lishi mumkin: o'qituvchi va talabning bir-birini adekvat tushunishdagi amaliy o'zaro munosabati sharoitida; o'quvchi faoliyatini loyihalash jarayonida uning bajargan faoliyati hamda uning yosh va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda; o'qituvchining o'z faoliyatini va uning subyekti sifatida o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash jarayonida: "Men qanday o'qituvchiman?", "Mening shaxsiy fazilatlarim qanday?", "Men to'g'ri harakat qilyapmanmi? Mening umumiy tamoyillarim nuqtai nazaridan vaziyat?", "Mening munosabatim qanday?", "Faoliyatimning motivatsiyasi nima?" hokazo. Bu kabi va shunga o'xshash savollar, bizningcha, o'qituvchining o'ziga kasbiy pedagogik faoliyat subyekti sifatidagi refleksiv munosabatini tavsiflaydi. O'qituvchi tomonidan introspeksiya, pedagogik voqelik subyektlarini tahlil qilish va umuman, pedagogik vaziyatni tahlil qilish bo'yicha harakatlar tafakkurda murakkab tarzda amalga oshiriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Bugungi kunda innovatsion pedagogik texnologiyalar orasida refleksiv texnologiyalar ajralib turadi, ularning umumiy yo'nalishi aniq: o'z aqliy va amaliy faoliyatini aks ettirishning psixologik mexanizmlari orqali o'zgartirish. Ko'pgina tadqiqotchilar (O. S. Anisimov, V. I. Zagvyazinskiy, V. V. Kraevskiy, V. A. Slastyonin) innovatsion tarkibni yaratishga qodir bo'lgan ilmiy yoki uslubiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishlari kerakligi haqida yozadilar. Reflektiv ta'lim texnologiyasi, har qanday pedagogik texnologiya kabi "shakllar, usullar, o'qitish usullari, ta'lim vositalarining maxsus majmui va joylashuvini belgilovchi

psixologik-pedagogik munosabatlar yig'indisidir; bu pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy quolidir" (B.T.Lixachev)

Natijalar va muhokama. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu texnologiyaga mos keladigan ma'lum usullar uzoq vaqtdan beri qo'llanilgan, ammo aks ettirish hodisasini zamonaviy falsafiy tushunish, uning mexanizmlarini psixologik o'rganish va refleksga asoslangan pedagogik usullarni amalga oshirish tajribasi bizga imkon beradi. Bu usullar guruhlarini metodik va uslubiy tushunish va umumlashtirish va texnologiyalarni shakllantirish haqida gapirib berish. Reflektiv ta'lim. Hodisa sifatida aks ettirish uning rivojlanishining sharti va mahsuloti bo'lgan rivojlangan o'z-o'zini anglashni nazarda tutadi, shuning uchun asosiy usullar hech bo'lmaganda o'smirlik davriga qaratilishi kerak. Hozirgi vaqtda ushbu usullar ishlab chiqilgan va asosan, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim va qayta tayyorlash doirasida qo'llaniladi, bu birinchi navbatda refleksiv usullarning materiali bo'lib xizmat qiladigan kasbiy tajribaning mavjudligi bilan bog'liq.

Xulosa. Mulohaza pedagogik muloqotning protsessual va natijaviy jihatlariga, "o'qituvchi – talaba" tizimidagi shaxslararo o'zaro ta'sirga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, hozirgi vaqtda u boshqa psixologik xususiyatlar bilan integratsiyalashgan holda o'qituvchining kasbiy faoliyati uslubiy xususiyatlarining tarkibiy qismi sifatida ishlaydi. Bo'lajak o'qituvchining zaruriy sifati sifatida aks ettirishning ushbu tavsifiga shuni qo'shimcha qilish kerakki, aks ettirishning paydo bo'lishi uchun o'zaro ta'sirning turli vaziyatlarida "men va boshqa" yo'nalishida qiyinchiliklar bo'lishi kerak, chunki bu tartibni aks ettirish. pedagogik tajribani aks ettirish orqali pedagogik faoliyatni rivojlantirish imkonini beradi. Mashhur pedagogik tajribani o'zlashtirgan o'qituvchi, bizning holatimizda pedagogika oliy o'quv yurti talabasi pedagogik vaziyatlarni tuzadi, harakat qiladi, faoliyatni tahlil qiladi, individual pedagogik tajribani yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibragimov, A. A. (2017). O'qituvchilar kasbiy rivojlanishiga ilmiy-metodik hamrohlik texnologiyasi. *Sovremennoye obrazovaniye (Uzbekistan)*, (10), 30-41.
2. G'ulomov. X.R. Raimov. va boshqalar. "Ta'lim–tarbiya sifati va qirralari". – T.: "Fan va texnologiyalar". 2004. 9-b.
3. Taylaqov N.I. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun informatikadan o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning ilmiy pedagogik asoslari. Monografiya. –T.: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat nashriyoti, 2005.160-b.
4. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: "Fan", 2005. 206-b.
5. Ernazarova G.O. The oretical basis of preparation of future teachers for professional pedagogical activity *Academic Research in Educational Sciences*, 3(1), 1057- 1065. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2022-1-1057-1065>

Dilnoza QUVATOVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail: dilnozaquvatova83@gmail.com

O'YIN TEXNOLOGIYALARINING O'QUVCHILARDA MANTIQUIY-MUHOKAMAVIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI TA'SIR MEXANIZMLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda o'yin texnologiyasidan foydalanish va o'quvchilar ongida o'yinning ta'siri haqida so'z boradi. Maqolada maktabgacha yoshdagi bola shaxsini rivojlantirishda o'yinli texnologiyalardan foydalanishning psixologik mexanizmlari, usullari va ahamiyati haqida atroflicha ilmiy mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'yin texnologiyasi, nutq o'stirish, boshqotirmalar, didaktik o'yinli texnologiyalar.

Аннотация: в данной статье рассматривается использование игровых технологий для повышения интереса учащихся к уроку и влияние игры на сознание учащихся. В статье содержатся подробные научные соображения о психологических механизмах, методах и значении использования игровых технологий в развитии личности дошкольника.

Ключевые слова: игровые технологии, развитие речи, головоломки, дидактические игровые технологии.

Annotation: this article discusses the use of game technology in increasing students' interest in the lesson and the influence of the game on the minds of students. The article contains detailed scientific considerations on the psychological mechanisms, methods and importance of using game technologies in the development of the personality of a preschool child.

Key words: game technology, speech development, puzzles, didactic game technologies.

Kirish. Bugungi kunda Respublikamizda ta'lim tizimiga yo'naltirilayotgan katta hajmdagi investitsiyalar O'zbekistonning eng ilg'or mamlakatlar qatoridan joy olishiga zamin yaratmoqda. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining asosiy maqsadi – ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchilarning mahorati, ularning zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga samarali tatbiq eta olishi, ilg'or pedagogik tajribalardan mohirona foydalana olishi, ta'lim berishning yangi va zamonaviy usullarni ishlatishi juda muhim ahamiyatga ega.[1]

Boshlang'ich sinf darslarida bolalarni darsga qiziqtirishimiz uchun turli ta'limiy o'yinlardan foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bola o'yin orqali fanga qiziqib boradi va shu fanni yaxshi o'zlashtiradi. Bu bolalarning diqqatini o'rganilayotgan materialga qaratishga, muammoli, izlanish va tadqiqot usullarini va birlashtirgan ishlarni mustaqil bajarishga yordam beradi. [2]

Har bir o'qituvchi o'yinlardan faqat darsning u yoki bu bosqichida foydalanishi mumkin. O'yin texnologiyalaridan foydalangan holda o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirish o'qituvchilarga zamonaviy va samarali usullardan biridir. Bunday yondashuv o'quvchilarning qiziqarli va tushunarli qilib, o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi.:

1. Interaktiv o'yinlar. Edukativ o'yinlar: fanlarga oid

mavzularni o'z ichiga olgan o'yinlar o'quvchilarning mavzuni chuqurroq tushunishlariga yordam beradi. Kvestlar va sarguzasht o'yinlari: ma'lum bir mavzu bo'yicha guruhlarda yoki individual tarzda bajariladigan topshiriqlar o'quvchilarning faol ishtirokini talab qiladi.

2. Qo'llanma va mobil ilovalar. Ta'lim ilovalari: matematika, til o'rganish, fan va boshqa sohalar bo'yicha ilovalar o'quvchilarning o'zlashtirishni osonlashtiradi. Interaktiv doska va ilovalar: Darslarni yanada interaktiv va jozibali qilib, o'quvchilarning qatnashishini oshiradi.

3. Rol o'ynash va simulyatsiyalar. Rolli o'yinlar: o'quvchilar berilgan vazifalarni turli rollarda bajarish orqali o'rganishadi, bu esa ijtimoiy ko'nikmalar va jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantiradi. Simulyatsiya o'yinlari: real hayot vaziyatlarini o'yin shaklida modellashtirish, murakkab konsepsiyalarni amaliy mashg'ulotlar orqali tushunishga yordam beradi.

4. Gamifikatsiya rag'batlantirish tizimlari: ballar, yulduzlar, medallar kabi rag'batlantirish elementlari o'quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Reyting va tanlovlar: o'quvchilarning o'zaro raqobati va muvaffaqiyatlarini ta'kidlash, ularni yanada ko'proq harakat qilishga ruhlantiradi. O'yin texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirish, ularning o'qishga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirishi mumkin. O'qituvchilar turli o'yinlar va gamifikatsiya elementlarini muntazam ravishda dars jarayoniga kiritib, ta'lim samaradorligini oshirishlari mumkin.[3]

Didaktik o'yinli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos

jihati, an'anaviy ta'limdagidan farq qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqilligi va o'quv fani faoliyatini ta'qiqalmasdan, balki belgilangan maqsadga yo'naltirish o'quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etishni talab etadi.. Partaga avvaldan savol yoki topshiriqlari bor kartochkalar tarqatiladi. O'qituvchining ruxsati bilan bolalar kartochkalarda yozilgan savol- topshiriqlarni o'qiydilar va matn ichidan shu savol topshiriqqa mos javob izlaydilar.[4]

Mazmunli-rolli o'yinlar ularning asosida aniq hayotiy, ishchan yoki boshqa vaziyat yotadi. Bunday holda, o'yin har bir qatnashchi aniq rolni bajaradigan (o'ynaydigan) teatr qo'yishni eslatadi). O'yin bunday holda mazmuni – intellektual faoliyat shaklli ijodiy o'yinlardir, shuning uchun, bu holda qatnashchilarni tayyorlash va o'yin ssenariysini ishlab chiqish katta ahamiyatga ega.. Innovatsion o'yinlar zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sifatli bilim olishga qaratilgan [5];

Bu "Tez javob o'yini" bunda o'qituvchi qator oralab yurib, o'quvchilardan birini turg'izadi va qandaydir nomni aytadi. Masalan, o'qituvchi biror geometrik figura nomini aytsa, o'quvchilar ham geometrik figuralarga misollar keltirishi kerak. Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar ta'limiy o'yinlardan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. Yana shuni ham aytib o'tishimiz kerakki, o'yin rivojlantiruvchi amaliyot, sababi: bolalar o'yin jarayonida rivojlanadilar. [6]

Maktabgacha ta'lim tashkilotining bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish faoliyatida bolalarning kognitiv (aqliy), kommunikativ (nutq), ijtimoiy-hissiy va jismoniy-motor rivojlanishiga sharoit yaratish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasida

ishonch munosabatlarini shakllantirish, ruhiy-emotsional hamda jismoniy zo'riqishni bartaraf etish juda muhimdir. [7]

O'yinlar uslubi va xususiyatidan kelib chiqib quyidagi turlarga ajratiladi: imitatsion o'yinlar; mazmunli-rolli o'yinlar; innovatsion o'yinlar; tashkiliy- faoliyatli o'yinlar; ishchan treninglar.

ishlab chiqarishining faoliyati imitatsiya qilinadi, shuningdek, mahsulotlarni modellashtirish bo'yicha olingan amaliy ko'nikmalarni qo'llaydilar.

Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Boshqacha qilib aytganda, ilg'or pedagogik texnologiyalar yordamida bolaning aqliy zakovatini, erkin fikrlashini, mustaqil faoliyat ko'rsatishni ta'minlanish zarur.[8] Har bir yosh davrining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda bolalarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish natijasida o'z vaqtida o'zini anglash hissi vujudga keladi. Bolada o'zini anglash tuyg'usi qancha erta uyg'onsa, uning barcha aqliy, ruhiy, ijtimoiy imkoniyatlarini baholash va his etish tez namoyon bo'ladi. Har qaysi davrda bola rivojlanishining o'ziga xos qulay holatidan unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bolalarning asosiy faoliyati o'yin hisoblanishini inobatga olgan holda biz ta'lim-tarbiya jarayonini albatta o'yin tarzida tashkil etmoq'imiz zarur.

Buning uchun esa, tarbiyachilar – o'quv faoliyatida keng foydalanish uchun o'yinli texnologiyalarni mukammal o'zlashtirishlari, maktabgacha ta'lim tashkilotining turli yosh guruhlarida "Zinama-zina", "Klaster", "Charxpalak" kabi interfaol usullardan foydalanish qulayligini tasdiqlagan holda, o'yinli texnologiyalardan samarali foydalanishi lozim.[9]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. 2020. 9-modda.
2. A.Zikiryayev va boshq. O'quvchilar bilimni tekshirishda innovatsion texnologiyalar. «Xalq ta'limi» jurnali, 2001, 6-son. 19-bet.
3. O.D.Raximov, O.M.Turg'unov, Q.O.Mustafayev, H.J.Ro'ziyev Zamonaviy ta'lim texnologiyalari – Toshkent: "Fan va texnologiya nashriyoti", 2013-y., 200-bet.
4. G.Mardonova «Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya takomillashtirish» , «Sharq» 1998. 5. www.ziyonet.com.
5. Norbosheva M.M. Bolalar psixologiyasi. – T., 2002.
6. Mirdjalilova S., To'laganova R. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar. – T., 2008.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-sonli qarori.
8. Nishonova Z.T. Bolalar psixologiyasi (o'quv qo'llanma). – T., 2006.
9. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari. –T., 2018.

Risolat TURDIBEKOVA,
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
"O'zbek va xorijiy tillar" kafedrasida katta o'qituvchisi

TALABALARNING OG'ZAKI NUTQINI OSHIRISHNING SAMARALI USULLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirishning samarali usullari, ya'ni kommunikativ yondashuv, interfaol metodlar, ijodiy mashg'ulotlar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Og'zaki nutqni rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u talabalarning fikrlash, tahlil qilish va o'z fikrini aniq bayon etish qobiliyatlarini oshiradi. Tadqiqot davomida turli metodlarning samaradorligi solishtirilib, ularning o'quv jarayoniga ta'siri tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: og'zaki nutq, interfaol metodlar, kommunikativ yondashuv, ta'lim texnologiyalari, talaba faolligi, innovatsion yondashuv, orfoepiya, tilshunoslik.

Аннотация: в данной статье анализируются эффективные методы развития устной речи студентов, а именно коммуникативный подход, интерактивные методы, творческие занятия и возможности использования современных информационных технологий. Развитие устной речи является важной составляющей образовательного процесса, которая повышает способность студентов мыслить, анализировать и четко излагать свои мысли. В ходе исследования сравнивалась эффективность различных методов и анализировалось их влияние на учебный процесс.

Ключевые слова: устная речь, интерактивные методы, коммуникативный подход, образовательные технологии, активность студентов, инновационный подход, орфоэпия, языкознание.

Annotation: this article analyzes effective methods for developing students' oral speech, namely the communicative approach, interactive methods, creative activities, and the potential applications of modern information technologies. The development of oral speech is a crucial component of the educational process, as it enhances students' abilities to think, analyze, and articulate their thoughts clearly. Throughout the study, the effectiveness of various methods was compared, and their impact on the learning process was examined.

Key words: oral speech, interactive methods, communicative approach, educational technologies, student engagement, innovative approach, orthoepy, linguistics.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Chunki og'zaki nutq insonning ijtimoiy hayotidagi eng muhim kommunikativ vosita bo'lib, u orqali shaxs o'z fikrini ifoda etadi, muloqot qiladi va o'zining intellektual salohiyatini namoyon etadi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va samarali muloqot ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, oliy o'quv yurtlarida nutq madaniyatiga oid fanlarning o'quv rejasiga kiritilishi, interfaol dars metodlarining keng joriy etilishi va raqamli ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Og'zaki nutqni shakllantirish jarayoni nafaqat til o'rgatish, balki kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, ya'ni talabani turli ijtimoiy, madaniy va kasbiy vaziyatlarda samarali muloqotga tayyorlashni ham o'z ichiga oladi. Shu bois, pedagoglar talabalarning

og'zaki nutqini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar, muammoli o'qitish, rolli o'yinlar, debat va munozara mashg'ulotlaridan samarali foydalanishlari lozim. Mazkur tadqiqotda aynan shu metodlarning o'rni va samaradorligi tahlil qilinadi hamda talabalarning nutqiy faolligini oshirish yo'llari yoritiladi.

Asosiy qism. Talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirish masalasi ko'p qirrali pedagogik jarayon bo'lib, u o'qituvchining metodik mahorati, o'quv muhiti, ta'lim vositalari va talabalar faolligiga bevosita bog'liqdir. Og'zaki nutq faqat so'zlash yoki muloqot jarayoni emas, balki fikrni aniq, mantiqan izchil, grammatik jihatdan to'g'ri va madaniyatli tarzda ifoda etish san'atidir. Shu bois bu jarayonni samarali tashkil etish uchun o'qituvchi zamonaviy yondashuvlardan foydalanishi, talabalarni o'qitish jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirishi lozim.

Kommunikativ yondashuv talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda eng samarali metodlardan biri hisoblanadi. Bu yondashuvning mohiyati shundaki, talaba o'z fikrini erkin ifoda etish, bahslashish, savol

berish va fikrini himoya qilish jarayonida faol bo'ladi. O'qituvchi bu jarayonda boshqaruvchi emas, balki yo'naltiruvchi rolini bajaradi. Masalan, "fikir almashish", "savol-javob zanjiri" yoki "erkin suhbat" mashg'ulotlari orqali talabalarning muloqot ko'nikmalari rivojlanadi. Shu tarzda talaba nutqiy vaziyatda o'z fikrini mantiqan asoslay oladi, bu esa uning tafakkurini ham rivojlantiradi.

Interfaol metodlar og'zaki nutqni rivojlantirishning amaliy jihatdan eng samarali vositasidir. "Debat", "Rollar o'ynash", "Kichik guruhlar bilan ishlash", "Aqliy hujum" kabi metodlar talabalarni o'zaro muloqotga undaydi. Masalan, "Debat" metodida talabalar berilgan mavzu bo'yicha ikki qarama-qarshi fikrni himoya qilib, dalillash va tahlil qilishni o'rganadilar. Bu usul muloqot madaniyatini, e'tiqodli fikr bildirishni, so'z boyligini kengaytirishni va nutqning emotsional ifodaliligini rivojlantiradi. "Rollarni ijro etish" metodi esa talabani real hayotiy vaziyatlarga tayyorlaydi. Masalan, "ish suhbatiga tayyorgarlik", "mijoz bilan muloqot", "konferensiyada nutq so'zlash" kabi rollar orqali talaba nutqiy kompetensiyasini oshiradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari ham og'zaki nutqni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Video taqdimotlar, audio darslar, onlayn konferensiyalar va nutq tahlil dasturlari (masalan, "Speech Analyzer", "Vocaroo", "Google Voice Typing") talabaga o'z talaffuzi, intonatsiyasi va grammatik to'g'riligini mustaqil tahlil qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, interaktiv platformalar – "Zoom", "Google Meet", "Microsoft Teams" kabi vositalarda tashkil etilgan onlayn muloqotlar ham

talabalarni xalqaro darajadagi muloqotga tayyorlaydi. Shu bilan birga, YouTube yoki TED Talks kabi platformalarda mashhur notiqning nutqlarini tahlil qilish orqali talabalarda so'zlash madaniyati va ifodaviy nutqni shakllantirish mumkin.

Og'zaki nutqni rivojlantirish jarayonida talabalarni ijodiy fikrlashga undash muhim ahamiyatga ega. Ijodiy topshiriqlar – hikoya tuzish, voqeani qayta so'zlab berish, muayyan mavzuda improvizatsion chiqishlar kabi mashg'ulotlar orqali talabalar nafaqat nutq, balki fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradilar. Shuningdek, refleksiya mashg'ulotlari, ya'ni talabalar o'z nutqini yozib olib, tinglab, tahlil qilish orqali kamchiliklarini aniqlaydilar. Bu o'z-o'zini baholash va o'z ustida ishlash ko'nikmasini shakllantiradi.

Talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda o'qituvchining psixologik yondashuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'qituvchi talabani xatodan qo'rqmaslikka, erkin so'zlashga va o'z fikrini himoya qilishga rag'batlantirishi lozim. Ijobiy muhit, o'zaro hurmat, tenglik va o'qituvchi bilan samimiy muloqot og'zaki nutqni rivojlantiruvchi asosiy omillardir. Talaba o'zini baholanayotgan emas, o'rganayotgan shaxs sifatida his qilsa, u o'z fikrini yanada ishonch bilan ifoda etadi.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlardan muntazam foydalanilgan guruhlarda talabalar nutqining grammatik to'g'riligi 30–35% ga, so'z boyligi esa 40% ga oshgan. O'qituvchilar nutqining tezligi, talaffuz aniqligi va ishonch bilan gapirish ko'rsatkichlari



ham sezilarli darajada yaxshilangan. Bu esa og'zaki nutqni rivojlantirishda an'anaviy o'qitishdan ko'ra faol, ijodiy va kommunikativ metodlarning afzal ekanini tasdiqlaydi.

Xulosa. Talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirish zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi, chunki bu jarayon shunchaki so'zlashni emas, balki fikrlash, tahlil qilish, dalillash va muloqot madaniyatini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, og'zaki nutqni samarali rivojlantirish uchun o'qituvchi bir nechta yondashuvlarni kompleks tarzda qo'llashi zarur. Avvalo, kommunikativ yondashuv talabalarda o'z fikrini mantiqan asoslab aytish, boshqalarning fikrini tinglash va muhokama qilish madaniyatini rivojlantiradi. Bu esa ta'limning faqat bilim beruvchi emas, balki shaxsni har tomonlama rivojlantiruvchi jarayon ekanini tasdiqlaydi.

Shuningdek, interfaol metodlar – "Debat", "Rollar o'ynash", "Kichik guruhda ishlash", "Aqliy hujum", "Erkin suhbat" kabi usullar talabalarni faol fikrlashga, erkin so'zlashga va o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadi. Ushbu metodlar yordamida talaba o'zining so'z boyligini kengaytiradi, grammatik to'g'rilikka e'tibor beradi va ifodaviy nutq madaniyatini shakllantiradi. Ayniqsa, muhokama va rolli o'yinlar orqali talaba nutqiy faoliyatda o'zini real ijtimoiy vaziyatlarda sinovdan o'tkazadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish og'zaki nutqni rivojlantirish jarayonida katta imkoniyatlar yaratadi. Onlayn darslar, audio-video materiallar, nutq tahlil dasturlari va taqdimotlar talabalar uchun nutqini mustaqil tahlil qilish, talaffuzni yaxshilash va o'z nutqini baholash imkonini beradi. Texnologik vositalar o'quv jarayonini nafaqat qiziqarli, balki tahliliy va interaktiv qiladi, bu esa talabalarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi.

Og'zaki nutqni rivojlantirishda ijodiy yondashuv

ham muhim o'rin tutadi. Talabalarga hikoya tuzish, voqeani qayta so'zlab berish, erkin chiqishlar, muammoli vaziyatlarni og'zaki yechish kabi topshiriqlar berish orqali ularning tasavvuri, fikr boyligi va nutqiy faolligi kuchayadi. Bu jarayonda talaba o'z nutqini nafaqat mazmunan, balki estetik jihatdan ham boyitadi.

Bundan tashqari, o'qituvchining shaxsiy roli va psixologik yondashuvi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'qituvchi darsda ijobiy muhit yaratishi, talabani erkin fikrlashga va xatodan qo'rqmaslikka undashi kerak. Talaba o'z fikrini aytganda baholanayotgan emas, o'rganayotgan shaxs sifatida his qilsa, bu uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va nutqiy faolligini kuchaytiradi. Shuning uchun o'qituvchi talabani har bir fikrini qadrlashi, rag'batlantiruvchi so'zlar bilan ruhiy qo'llab-quvvatlashi lozim.

Natijada, tadqiqotdan quyidagi asosiy xulosalar chiqarish mumkin:

Talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda kommunikativ yondashuv asosiy o'rinni egallaydi.

Interfaol metodlar nutq faolligini oshirishda eng samarali vosita hisoblanadi.

Texnologiyalardan foydalanish nutqni mustaqil o'rganish va tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ijodiy mashg'ulotlar va refleksiya jarayonlari nutqiy tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi tomonidan yaratilgan ijobiy psixologik muhit talabani og'zaki nutq faolligini rag'batlantiruvchi asosiy omildir.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuv – ya'ni kommunikativ, interfaol, texnologik va ijodiy metodlarning uyg'un qo'llanilishi – ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu nafaqat til o'rganishdagi muvaffaqiyat, balki kelajakda talabani kasbiy, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishida muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva M. Axborot texnologiyalaridan foydalanib og'zaki nutqni rivojlantirishning samarali yo'llari. Oliy ta'limda innovatsiyalar jurnali, №2. 2023. 45–51-betlar.
2. Jalolova N. Kommunikativ yondashuv asosida talabalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish masalalari. Pedagogika va psixologiya jurnali, №4, 67–73. 2022.
3. Karimova D. Nutq madaniyatini shakllantirishda interfaol metodlarning o'rni va ahamiyati. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti. 2021.
4. Shodmonova M. *Talabalarda nutq madaniyatini rivojlantirishda interfaol o'qitish metodlarining roli*. Ta'lim va innovatsiyalar ilmiy jurnali. №1. 2023. 89–95-betlar.
5. Nurmatova, G. *Raqamli ta'lim texnologiyalari asosida og'zaki nutqni rivojlantirish metodikasi*. UzSWLU ilmiy axboroti, №2. 54–62-betlar.
6. Yuldasheva, S. *Pedagogik texnologiyalar asosida og'zaki nutqni shakllantirish yo'llari*. O'zbekiston pedagogik axborotnomasi, №5. 2020. 101–107-betlar.



Гулчехра МАХМАДИЕВА,
 (PhD), преподаватель кафедры русского языка и литературы
 Термезского университета экономики и сервиса

ИНТЕГРАЦИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИЕ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК НЕРОДНОМУ С ПОМОЩЬЮ ИММЕРСИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация: статья посвящена анализу интеграции искусственного интеллекта (ИИ) в процесс обучения русскому языку как неродному с использованием иммерсивных технологий. Рассматриваются преимущества и вызовы внедрения ИИ-инструментов, таких как виртуальная и дополненная реальность, чат-боты и интеллектуальные платформы. Особое внимание уделено эффективности погружения в языковую среду и индивидуализации обучения. Делается вывод о высокой перспективности совмещения ИИ и иммерсивных подходов для достижения устойчивых результатов в преподавании русского языка как неродному.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, иммерсивные технологии, русский язык как неродной, VR, AR, обучение, цифровая педагогика.*

Annotation: the article analyzes the integration of artificial intelligence (AI) into the process of teaching Russian as a second language using immersive technologies. The advantages and challenges of implementing AI tools, such as virtual and augmented reality, chat bots and intelligent platforms, are considered. Particular attention is paid to the effectiveness of immersion in the language environment and individualization of learning. A conclusion is made about the high potential of combining AI and immersive approaches to achieve sustainable results in teaching Russian as a foreign language.

Key words: *artificial intelligence, immersive technologies, Russian as a second language, VR, AR, learning, digital pedagogy.*

Annotatsiya: maqola immersiv texnologiyalardan foydalangan holda rus tilini chet tili sifatida o'qitish jarayoniga sun'iy intellektning (AI) integratsiyalashuvini tahlil qilishga bag'ishlangan. Virtual va to'ldirilgan reallik, chatbotlar va intellektual platformalar kabi sun'iy intellekt vositalarini joriy etishning afzalliklari va muammolari muhokama qilinadi. Til muhitiga singib ketish va o'rganishni individuallashtirish samaradorligiga alohida e'tibor beriladi. AI va immersiv yondashuvlarni uyg'unlashtirish rus tilini chet tili sifatida o'qitishda barqaror natijalarga erishish uchun yuqori salohiyatga ega degan xulosaga keldi.

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, immersiv texnologiyalar, rus tili ikkinchi til sifatida, VR, AR, o'rganish, raqamli pedagogika.*

Введение. Использование искусственного интеллекта и иммерсивного обучения действительно открывает новые горизонты в образовании, особенно для подготовки будущих специалистов.

Интеллект – это способность человека или системы воспринимать, анализировать, запоминать и использовать информацию для решения задач, адаптации к новым условиям и обучения на опыте.

В зависимости от контекста, интеллект бывает:

человеческий интеллект – комплекс когнитивных способностей: мышление, память, воображение, внимание, речь, способность к обучению и принятию решений;

искусственный интеллект (ИИ) – созданная человеком система, которая имитирует элементы человеческого интеллекта: может распознавать речь, понимать текст, играть в шахматы, распознавать лица и т. д.;

эмоциональный интеллект – умение понимать свои и чужие эмоции, управлять ими и использовать это в общении;

социальный интеллект – способность эффективно взаимодействовать с другими людьми;

иммерсивные технологии – это набор инструментов

и методов, которые создают эффект погружения пользователя в виртуальную или дополненную реальность. Они позволяют взаимодействовать с цифровыми мирами так, чтобы это ощущалось максимально естественно и реалистично.

Технологии искусственного интеллекта (ИИ) с каждым годом все глубже проникают в сферу образования. Они способны изменить привычные методы и способы обучения, но вместе с тем поднимают важные вопросы и вызовы. Рассмотрим как положительные, так и отрицательные аспекты внедрения ИИ в образовательный процесс.

Роль и функции искусственного интеллекта в образовании. Персонализация обучения: **искусственный интеллект** может анализировать успехи и потребности студентов, предлагая индивидуализированные учебные пути и ресурсы, учитывая его сильные и слабые стороны.

«Развитие критического мышления и креативности: иммерсивные технологии способствуют активному вовлечению студентов, что улучшает их способности к анализу и решению нестандартных задач» [1]. В условиях быстро меняющегося общества студенты должны

быть готовы адаптироваться к новым технологиям и методам работы.

2. Автоматизация рутинных задач: Это позволяет преподавателям сосредоточиться на более важных аспектах обучения, таких как взаимодействие с учащимися и развитие критического мышления. Преподаватели могут использовать ИИ для автоматизации оценивания, что позволяет им сосредоточиться на более творческих и интерактивных аспектах обучения.

3. Анализ данных: **искусственный интеллект** может обрабатывать большие объемы данных о студентах, выявляя тенденции и области, требующие внимания.

4. Доступ к ресурсам: ИИ может помочь создать доступ к образовательным материалам для людей из удаленных или недостаточно обеспеченных регионов.

5. Интерактивные обучающие платформы: системы на базе ИИ могут предлагать интерактивные задания и игры, что делает процесс обучения более увлекательным.

1. Иммерсивные технологии как инструмент языкового погружения

Иммерсивные технологии создают эффект полного погружения в языковую среду, что особенно ценно при обучении неродному языку. Использование VR-сценариев позволяет моделировать реальные жизненные ситуации: поездка в магазин, визит к врачу, диалог на вокзале. Благодаря этому учащиеся приобретают не только лексико-грамматические навыки, но и формируют социокультурную компетенцию.

Пример: Платформы вроде Mondly VR позволяют студентам общаться с виртуальными персонажами на русском языке, тренируя навыки аудирования, говорения и восприятия речи на слух в условиях, приближенных к реальности.

2. Искусственный интеллект как адаптивный наставник

ИИ способен адаптировать учебный материал под каждого обучающегося, анализируя его сильные и слабые стороны. Например: ИИ-ассистенты (чат-бо-

ты) отвечают на вопросы студентов, моделируют диалоги, исправляют ошибки в реальном времени.

Интеграция средств **искусственный интеллект** и иммерсивного обучения в образовательные программы может значительно повысить качество подготовки будущих специалистов. Это требует не только технического оснащения, но и изменений в подходах к обучению, чтобы максимально эффективно использовать эти инновации. Практическая реализация в обучении русскому языку.

В вузах России и СНГ начали использоваться ИИ-решения на базе нейросетей для адаптивного контроля знаний иностранных студентов. Например, платформа «Русский как иностранный 2.0» интегрирует речевые тренажеры, VR-сценарии и автоматическую проверку письменных работ.

На курсах русского языка в Узбекистане и Китае внедряются дополненные учебники с AR-метками, активирующими видеоуроки и речевые игры при наведении смартфона.

Негативные аспекты. 1. Потеря человеческого взаимодействия: чрезмерная зависимость от технологий может уменьшить количество личных взаимодействий между преподавателями и учениками, что важно для формирования социальных навыков.

2. Зависимость от технологий: существует риск, что студенты могут стать слишком зависимыми от ИИ, что может негативно сказаться на их критическом мышлении и способности решать проблемы самостоятельно.

Заключение. Таким образом, интеграция искусственного интеллекта посредством иммерсивной технологии¹ открывают новые горизонты в обучении русскому языку как неродному. Они позволяют создать адаптивную, мотивирующую и высокоэффективную среду обучения, приближенную к условиям реального общения. Перспективным направлением становится создание платформ, где ИИ будет не просто техническим помощником, а виртуальным преподавателем, способным вести диалог, объяснять сложные темы и сопровождать обучающегося на всём пути изучения языка.

¹ Махмадиева Г. (2025). Роль искусственного интеллекта в обучении русскому языку как неродному посредством иммерсивной технологии. *Общество и инновации*, 6(2/S), 164–167

Использованная литература:

1. Николаева Т.М. (2022). *Цифровая педагогика: вызовы и перспективы*. – Москва: Просвещение.
2. Лукьянова Е.А. (2023). *Инновационные технологии в преподавании русского языка как иностранного*. – Санкт-Петербург: РГПУ.
3. Weng P., & Lin, C. (2021). Immersive Technologies in Foreign Language Teaching. *Education & AI Review*, 14(3), 55–70.
4. Maxmadiyeva Gulchehra Sait-Abdullayevna. (2024). *RUS TILI DARSLARIDA IMERSIV TEXNOLOGIYALARDAN IKKINCHI TILI SIFATIDA FOYDALANISH*. *Web of Scientist: Xalqaro ilmiy tadqiqot jurnali*, 5 (4), 163–168.
5. Maxmadiyeva Gulchehra Sait-Abdullayevna. (2024). Immersive Technology in Teaching Russian as a Second Language. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 2(4), 368–371. Retrieved from <https://grjournal.us/index.php/STEM/article/view/4423>.



Камиля НАБИЕВА,
 преподаватель русского языка кафедры
 языков и методики их преподавания Ангренского университета,
 самостоятельный соискатель Чирчикского государственного
 педагогического университета

ИИ И ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ: НОВЫЕ КОМПЕТЕНЦИИ ПЕДАГОГА

(На примере России и Узбекистана)

Аннотация: в статье рассматривается влияние искусственного интеллекта (ИИ) на трансформацию профессиональных компетенций современного педагога. Анализируются теоретические подходы и международные рамки компетенций (UNESCO, OECD), а также национальные стратегии цифровизации образования России и Узбекистана. Особое внимание уделено новым педагогическим и этическим компетенциям, формирующимся в условиях внедрения ИИ в образовательный процесс. На основе сравнительного анализа обозначены перспективные направления обновления программ подготовки будущих учителей, включая формирование AI-грамотности, развитие педагогического проектирования с использованием ИИ (AI-TPACK), этической рефлексии и умений работы с данными. Статья подчеркивает необходимость междисциплинарного подхода и системной государственной поддержки в процессе интеграции ИИ в педагогическое образование.

Ключевые слова: искусственный интеллект, педагогические компетенции, подготовка учителей, AI-грамотность, цифровая трансформация, Россия, Узбекистан.

Annotatsiya: maqolada sun'iy intellektning (SI) zamonaviy pedagogning professional kompetensiyalarini transformatsiyasiga ta'siri ko'rib chiqilgan. Nazariy yondashuvlar va kompetensiyalar bo'yicha xalqaro doiralar (UNESCO, OECD), shuningdek, Rossiya va O'zbekistonning ta'limni raqamlashtirish bo'yicha milliy strategiyalari tahlil qilinadi. Maxsus e'tibor SI ni ta'lim jarayoniga joriy etish sharoitida shakllanayotgan yangi pedagogik va etik kompetensiyalarga qaratilgan. Solishtirma tahlil asosida kelajakdagi muallimlarni tayyorlash dasturlarini yangilashning istiqbolli yo'nalishlari belgilangan, jumladan, AI-savodxonlikni shakllantirish, SI yordamida pedagogik loyihalashtirishni rivojlantirish (AI-TPACK), etik refleksiya va ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Maqola SI ni pedagogik ta'limga integratsiya qilish jarayonida fanlararo yondashuv va tizimli davlat qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, pedagogik kompetensiyalar, o'qituvchilarni tayyorlash, AI-savodxonlik, raqamli transformatsiya.

Annotation: this article examines the impact of artificial intelligence (AI) on the transformation of professional competencies of modern educators. It analyzes theoretical approaches and international competency frameworks (UNESCO, OECD), as well as national digital education strategies in Russia and Uzbekistan. Special attention is given to new pedagogical and ethical competencies that are emerging with the integration of AI into the educational process. Based on a comparative analysis, promising directions for updating teacher training programs are identified, including the development of AI literacy, pedagogical design skills using AI (AI-TPACK), ethical reflection, and data-handling abilities. The article emphasizes the need for an interdisciplinary approach and systematic state support in the process of integrating AI into teacher education.

Key words: artificial intelligence, pedagogical competencies, teacher training, AI literacy, digital transformation.

Цифровая трансформация образования сопровождается активным внедрением технологий искусственного интеллекта (ИИ), что приводит к пересмотру содержания и структуры профессиональных компетенций педагога. ИИ выступает не только инструментом оптимизации учебного процесса, но и фактором, определяющим новые подходы к обучению и оценке.

В России и Узбекистане реализация национальных стратегий цифрового развития (например, «Цифровая экономика Российской Федерации», «Стратегия цифрового Узбекистана – 2030») подчеркивает важность подготовки кадров, способных эффективно использовать ИИ в образовательной практике. Для будущих учителей это означает необходимость освоения новых компетенций, охватыва-

ющих как технические, так и этико-педагогические аспекты применения ИИ.

1. Современные рамки компетенций педагога в эпоху ИИ

Исследования международных организаций (UNESCO, OECD, World Economic Forum) определяют ключевые направления развития педагогических компетенций в условиях цифровизации. Среди них выделяются:

AI-грамотность – понимание принципов работы ИИ, его возможностей и ограничений;

цифровая педагогическая компетентность (AI-TPACK) – интеграция предметных, педагогических и технологических знаний;

этическая и правовая компетентность – способность применять ИИ с соблюдением норм академической честности и защиты данных;

аналитическая компетентность – умение использовать учебную аналитику и интерпретировать данные обучения для индивидуализации образовательного процесса.

Эти рамки находят отражение в национальных документах России и Узбекистана, где в фокусе подготовки будущих педагогов – развитие цифровых и исследовательских навыков, формирование готовности к инновационной деятельности.

2. Новые компетенции педагога в условиях интеграции ИИ

AI-грамотность и технические навыки. Будущий педагог должен понимать основы машинного обучения, работу нейросетей и генеративных моделей, а также уметь использовать инструменты ИИ для организации учебного процесса.

Педагогическое проектирование с ИИ (AI-TPACK). В рамках концепции AI-TPACK особое значение имеет умение проектировать учебные задания, где ИИ выполняет роль партнера в обучении, а не заменяет педагога.

Этическая и критическая компетентность. Учитель должен уметь обсуждать с учащимися вопросы достоверности данных, авторства и этики взаимодействия с ИИ.

Работа с данными и оценка. ИИ-технологии позволяют собирать и анализировать данные о прогрессе учащихся. Важно, чтобы педагог понимал принципы аналитики данных и мог использовать их для дифференциации обучения.

3. Особенности подготовки педагогов в России и Узбекистане (расширенный вариант)

В России развитие AI-компетенций будущих педагогов осуществляется в рамках комплексной модернизации педагогического образования. С 2022 года

Yaʼni 2-misradagi “qar alar” (togʻlarning boshiga qor tushadi, qor qoplaydi) birikmasi bilan 4-misradagi “qaralar” (qora boʻladi, zulmatga aylanadi) soʻzi tajnisning ajoyib namunasini hosil qilmoqda. Matndagi parallelizm esa ozod, hur yashamagan insonning, mustaqil boʻlmagan elning kuni, hayoti qanchalik gʻurbatda oʻtishi bilan togʻlarning boshi

hamisha qor va tuman bilan boʻlishi, ochiq boʻlmasligi hodisasi bilan qiyos qilish orqali yuzaga chiqmoqda. Bu oʻrinda tabiat hodisasi bilan inson hayotining tasviri orqali goʻzal badiiy umumlashma hosil qilinmoqda.

Yoki:

Boraymi, bormaymi boylar bogʻiga, Kokilingdan bermasang tumor bogʻiga,

Kokilingdan bergin tumor bogʻiga. Qachongacha kuyay yorning dogʻiga.

Ushbu misralarda esa “bogʻ” soʻzining har ikki maʼnosi (1. Gulzor, mevazor. 2. Bogʻich)dan mahorat bilan foydalanilgan.

Muhokama (Discussion). Leksik-morfologik parallelizm har ikki xalqning poetik tafakkurida matnga ritmik uygʻunlik, obrazli aniqlik va emotsional taʼsirchanlik olib kiradi. Har ikki xalq folklorida ham parallelizmnning ushbu turidan keng foydalaniladi, umumturkiy til oʻlaroq, tarixan yaqinlik va madaniy-adabiy aloqa baʼzan ayni bir xil yoki oʻxshash misralarning yuzaga kelishiga sabab boʻladi. Leksik-morfologik parallelizmlar xalq qoʻshiqlarida bir nechta poetik funksiyalarni bajaradi. Yaʼni – poetik ritm va muvozanatni taʼminlaydi, tinglovchi eʼtiborini kuchliroq ifodalangan hishayajonga jalb etadi, milliy mentalitet va badiiy obrazlar orqali xalqlarning dunyoqarashini ifodalaydi.

Ozarbayjon xalq qoʻshiqlarida leksik-morfologik parallelizm koʻproq bayati janriga xos qisqa, lakonik, ramziy shaklda ifodalanadi, oʻzbek xalq qoʻshiqlarida esa bu uslub kengaytirilgan obrazlar orqali beriladi. Har ikki xalq qoʻshiqlaridagi ramziy va real tasvirning parallel qoʻllanishi, kinoya, quvnoq hamda mahzun kayfiyatning ifoda usuli ularning umumiy jihatlarini tashkil etadi.

Xulosa (Conclusion). Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, leksik va morfologik parallelizmlar Ozarbayjon va oʻzbek xalq qoʻshiqlarining poetik tuzilmasida muhim oʻrin egallaydi. Bu parallelizmlar matnga badiiy ifoda, ritmik uygʻunlik, va mazmuniy teranlik olib kiradi. Har ikki xalq ogʻzaki ijodida leksik parallelizm obrazni kuchaytiradi, morfologik parallelizm esa poetik strukturaning barqarorligini taʼminlaydi. Bunday hodisalarni chuqur oʻrganish turkiy tillar poetikasini anglash, shuningdek, umumiy madaniy ildizlarni aniqlashda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻrayeva D. Oʻzbek xalq qoʻshiqlarida parallelizm. – Toshkent: Navroʻz, 2019. 168-bet.
2. Asif Hacili. Bayati poetikasi: struktur, semantika, praqmatika. – Bakı: “Elm”, 2019. – 242 s.
3. Гулёр. Фаргона халқ кўшиқлари. Кўп томлик. Тўпловчи: Ҳ.Раззоқов. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967. 248-бет.
4. Qarabağ: folklor da bir tarixdir, I kitab. Bakı, “Elmvətəhsil”, 2012. – 464 s.
5. Azərbaycan bayatıları. Bakı, Elm və təhsil, 2022. – 317 s.
6. Шода-шода марварид: Ўзбек халқ кўшиқлари. Тўплаб, нашрга тайёрловчи: Э. Очиллов. – Тошкент: Шарқ, 2006. 416-бет.

Aziza ESHQURBONOVA,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Termiz davlat pedagogika instituti

NUTQIY MULOQOTNING SAMARALI KO'NIKMALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada samarali muloqot jarayoni, uni tashkillashtirish ko'nikmalari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Insonning o'y-fikrlarini va his-tuyg'ularini axborot sifatida, muloqot jarayonini esa axborot almashish vositasi sifatida tushunishimiz lozim. Insonlar o'rtasidagi muloqotda nafaqat axborot almashiriladi, balki muloqot davomida ma'lumot shakllantiriladi, aniqlashtiriladi va rivojlantiriladi. Verbal muloqot jarayonidagi muloqot ko'nikmalari, ularning xususiyatlari haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: *muloqot, verbal muloqot, nonverbal muloqot, axborot, retseptiv nutq.*

Аннотация: в данной статье представлена информация об эффективном процессе коммуникации и навыках его организации. Под информацией следует понимать мысли и чувства человека, а под процессом коммуникации – способ обмена информацией. В процессе общения между людьми происходит не только обмен информацией, но и её формирование, уточнение и развитие. Высказываются мнения о коммуникативных навыках в процессе речевого общения и их особенностях.

Ключевые слова: *коммуникация, вербальная коммуникация, невербальная коммуникация, информация, рецептивная речь.*

Annotation: this article provides information about the effective communication process and the skills to organize it. We should understand a person's thoughts and feelings as information, and the communication process as a means of exchanging information. In communication between people, not only information is exchanged, but also information is formed, clarified and developed during the communication. Opinions are expressed about communication skills in the process of verbal communication and their characteristics.

Key words: *communication, verbal communication, nonverbal communication, information, receptive speech.*

Insonlar muloqot davomida fikrlari, o'y-xayollari, his-tuyg'ulari bilan o'rtoqlashadilar. Insonning o'y-fikrlarini va his-tuyg'ularini axborot sifatida, muloqot jarayonini esa axborot almashish vositasi sifatida tushunishimiz lozim. Insonlar o'rtasidagi muloqotda nafaqat axborot almashiriladi, balki muloqot davomida ma'lumot shakllantiriladi, aniqlashtiriladi va rivojlantiriladi. Nutqiy muloqot ma'lumotlarning og'zaki almashinuvini to'g'ri ifodalovchi tushunish akti bo'libgina qolmay, balki shaxslar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri emotsional muloqot sifatida ham qaraladi. Muloqot ikki turdagi aloqa vositalari bilan tavsiflanadi: verbal va nonverbal.

Verbal aloqa – inson nutqi yordamida tajriba almashish, muloqot o'rnatish va harakatlarni rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir. G.V.Kolshanskiy verbal vositalar o'zining universal fazilatlariga egaligini, turli xil ijtimoiy jamoalarda, turli madaniy sohalarida insonlarning lingvistik xulq-atvorining turli xil o'zgarishlaridan qat'iy nazar, uning lingvistik mohiyati bir xil bo'lib qolishini ta'kidlaydi.[1] Nutq faoliyati – til orqali amalga oshirilib, o'z motivi, maqsadi va yakuniy natijasiga ega bo'lgan faoliyatdir. Bu xabarni yuborish yoki qabul qilishning faol, maqsadli jarayonidir. Har qanday aloqa aktida kamida ikkita ishtirokchi borligi va shunga mos ravishda ikkita jarayon (axborot berish va uni qabul qilish) sodir bo'lganligi sababli, mahsuldor va retseptiv nutq faoliyati ajralib turadi. Mahsuldor nutq faoliyati axborotni shakllantirish va

uzatishga qaratilgan bo'lib, gapirish va yozishdan iborat. Retseptiv nutq faoliyati esa olingan ma'lumotni idrok etish va keyinchalik qayta ishlashga qaratilgan. Tinglash va o'qish retseptiv faoliyat bo'lib, ular matnni idrok etishni amalga oshiradi. Tilshunos olim V.V.Bogdanov inson bilan bog'liq omillar sirasiga "til malakasi, ya'ni ma'lum bir til kodini bilish orqali kommunikantlarning o'zaro ma'lumot almashishi; milliy kelib chiqishi; ijtimoiy-madaniy mavqe (ijtimoiy kelib chiqish, kasb, egallab turgan lavozim, madaniy me'yorlar va odatlar, ta'lim darajasi, yashash joyi, oilaviy holati); biologik-fiziologik ma'lumotlar (jinsi, yoshi, salomatlik holati, jismoniy kamchiliklarning bor yoki yo'qligi); psixologik tip (temperament, introvert, yoki ekstrovertlik kasallik unsurlari); joriy psixologik holat (kayfiyat, mavjud bilimlar, maqsad va manfaatlar); kommunikantlarning tanishlik darajasi; qiziqishlar va odatlar; tashqi ko'rinish (kiyinishi, o'zini tutishi va boshqalar)ni"[2] kiritadi.

Verbal aloqa vositalari nutq faoliyatining to'rt turini o'z ichiga oladi: gapirish, yozish, tinglash va o'qish. Bu to'rt tur bizning "til borlig'imiz" tizimini tashkil qiladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Verbal muloqot haqida gapirganda, quyidagi ko'nikmalar guruhlarini ajratish muhim.

Muloqot qilish qobiliyati. Insonlar muloqot qilish uchun, avvalo, lingvistik va nolingvistik vositalarni egallagan bo'lishi kerak. Bularsiz nutqiy muloqotni amalga oshirib bo'lmaydi. Shu bilan birga

muloqotga kirishayotgan shaxs tanish yoki notanish, suhbatlashayotgan yoki biron yumush bilan band bo'lgan, ijtimoiy va psixologik jihatdan turli darajadagi kishilar bilan suhbatni qanday va qachon boshlashni bilishi zarur. Bu muloqotning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Muloqotni davom ettirish qobiliyati – suhbatdoshlarning bir-birini tinglay olish va eshitish qobiliyati. Bular muloqot belgilari hisoblanib, unga qo'shimcha ravishda xushmuomalalik, muloyimlik, shuningdek, adresatning adresantni tinglayotganligi va tushunayotganligini ko'rsatadigan yuz ifodalari, mimika, imo-ishoralari va holatida namoyon bo'ladi.

Muloqotni yakunlash qobiliyati. Bunda suhbatni davom etish istagi bo'lmaganda va nutq vaziyati sabab uni to'xtatishga to'g'ri kelganda xayrlashuv so'zlarini mohirona qo'llash talab etiladi. Ushbu suhbatdan suhbatdosh rozi yoki noroziligini aniqlash uchun kerakli iboralarni topish ham bu qobiliyatning asosiy shartlaridan biridir. (suhbatdoshni xafa qilmasdan).

Strategik yo'nalishni to'g'ri belgilash qobiliyati. Suhbatdoshga muvaffaqiyatli ta'sir qilish shartlaridan biri o'z strategik yo'nalishini davom ettirish qobiliyatidir. Agar adresant strategik vazifasini yodda tutgan holda harakatlansa, fikrlarini ishonarli isbotlasa, oraliq taktik vazifalarni qo'llay olsa suhbat muvaffaqiyati to'liq ta'minlanadi va adresatga ta'sir o'tkaza oladi.

Muloqot vaziyatining tarkibiy qismlarini hisobga olish qobiliyati. Muloqot vaziyati ma'lum qolip asosida shakllanmaydi, har doim nimadir o'zgarib turadi. Masalan, muloqotchilarning suhbat davomida mavzuga oid va oid bo'lmagan biron voqeani eslashi, suhbat mavzusidan kayfiyati o'zgarishi, yangi suhbatdosh qo'shilishi yoki suhbatning boshqa shaxs aralashuvi bilan uzilishi kabi holatlar yuzaga kelganda suhbat vaziyati, mavzusi o'zgarishi mumkin. Vaziyat suhbatdoshlarning qiziqishlari, dunyoqarashi, his-tuyg'ulari, jamoadagi maqomi kabi o'ziga xos individual xususiyatlariga ham bog'liq.

O'z bayonotining natijasini yoki suhbatdoshning javobini bashorat qilish qobiliyati. Bu qobiliyat ong, sezgi, nutq tajribasi, suhbatdoshning bilimi kabi xususiyatlari mahsulidir. Asosan, muloqot vaziyatidan, suhbatdoshning harakatlaridan, so'zlaridan uning berilgan savolga, taklifga javobini oldindan sezishni nazarda tutadi.

Suhbatdosh tomonidan aytilganlarni tezlikda tushunish qobiliyati. Bunda suhbatdoshning gaplarini tahlil qilish va baholash orqali keltirilgan ma'lumotlarni qayta ishlash asosiy vazifa hisoblanadi.

Suhbatdoshga savol berish qobiliyati. Savol yordamida so'zlovchi biror narsa haqida yangi ma'lumot olishga, har qanday taxmini tasdiqlash yoki rad etishga intiladi. Bilish jarayonida har qanday savol qandaydir boshlang'ich bilimga asoslanadi. Savol suhbatdoshning javobini nazarda tutadi va u bilan to'ldiriladi. Shuning uchun savol berayotganda muloqot jarayonida suhbatdoshning psixologik holati inobatga olingan holda berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mantiqiy va izchil gapirish qobiliyati – bu adresant fikrlarini, mulohazalarini izchil ifodalashini, ularni semantik va nutq vazifasi bilan bog'lash qobiliyatini anglatadi. Buning uchun iboralar va superfraza birliklarni birlashtira olish kerak. Mantiqlilik, izchillik, yaxlitlik, ifodalilik muloqotning muvaffaqiyatini ta'minlovchi bosh kalitdir.

Bu ko'nikmalarning barchasi rivojlantirilgandagina nutq vaziyatiga qarab muloqot ma'lum maqsad uchun xizmat qiladi.

Muloqotning tabiiy ko'rinishi og'zaki nutq orqali voqelanadi. Yozma nutq esa og'zaki – tabiiy nutqning yozuvdagi ifodasidir. Ushbu shakllarning har biri o'ziga xos lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlarga ega.

Ekstralingvistik jihatdan esa og'zaki shakl quyidagilar bilan tavsiflanadi: suhbatdosh bilan muloqot qilish, vaziyatlilik, noverbal vositalarning mavjudligi, vaqt bo'yicha chiziqlilik, suhbat bo'lgan vaqtning qaytarilmasligi, so'zlovchi tomonidan belgilangan tezlik, yuqori darajadagi avtomatlashtirish. Yozma nutq masofa jihatidan, ya'ni suhbatdoshlar o'rtasida bevosita muloqotning yo'qligi, adresant va adresat uchun umumiy muloqot holatining mavjud emasligi va ham sinxron, ham diaxron xususiyatga egaligi bilan farq qiladi.

Og'zaki nutq lingvistik jihatdan intonatsiyaning namoyon bo'lishi, leksik birliklarning ko'pligi, nisbatan soddagrammatik tuzilish bilan tavsiflansa, yozma nutq esa bildirilayotgan fikrga intonatsiya orqali munosabat bildira olmaslik, keltirilgan ma'lumotlarning to'liq va batafsil bo'lishi, fikrlarning ravon va aniq bayon etilishi va tarkibiy jihatdan mukammallik bilan xarakterlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Колшанский Г. В. Коммуникативная функция и структура языка. / Под ред. Булыгиной Т. В. 2-ое изд. – “КомКнига”, 2005. – С. 8.
2. Богданов В.В. Речевое общение: прагматические и семантические аспекты. – Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1990. – С. 29.
3. Шехурдина Т.А. Речевая коммуникация: Конспект лекций для студентов гуманитарных специальностей. – М.: РУТ (МИИТ), 2018. – 99 с.

Asatillo ASLANOV,
Navoiy innovatsiyalar universiteti Filologiya
va tillarni o'qitish kafedrası dotsenti v/b
e-mail: asatilloaslanov@gmail.com

NEMIS ADABIYOTIDA URUSH TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada nemis adabiyotida urushning turli tarixiy davrlar, janrlar va uslublar doirasidagi talqini o'rganilgan. Shuningdek, urush tasvirlarining jamiyatga ta'siri, o'quvchilar va tanqidchilarning munosabati hamda bu tasvirlarning jamoatchilik fikri va ongiga ta'siri ham tahlil qilingan. Asosiy xulosalar muhokama qilinib, nemis adabiyotida urushning o'rnı va rolini chuqur anglashga yordam bergan.

Kalit so'zlar: *urush, tarixiy davrlar, janrlar, fidoiylık va yo'qotish, yovuzlik va insoniylık, ijtimoiy inqirozlar, azob-uqubat, yo'qotish.*

Аннотация: в данной статье проводится исследование интерпретации войны в немецкой литературе на различных исторических этапах, в разных жанрах и стилях. Особое внимание уделяется влиянию военных образов на общество, восприятию их читателями и критиками, а также их воздействию на формирование общественного мнения и сознания. Обсуждаются ключевые выводы, что позволяет глубже понять место и роль войны в немецкой литературной традиции.

Ключевые слова: *война, исторические периоды, жанры, преданность и утрата, зло и человечность, социальные кризисы, страдания, потеря.*

Annotation: this article examines the representation of war in German literature across different historical periods, genres, and styles. Particular attention is given to the impact of war imagery on society, its reception by readers and critics, and its influence on shaping public opinion and consciousness. The key findings are discussed, providing a deeper understanding of the place and role of war within the German literary tradition.

Key words: *war, historical periods, genres, devotion and loss, evil and humanity, social crises, suffering, loss.*

Kirish. Urush insoniyat tarixining eng chuqur va og'riqli tajribalaridan biri sifatida adabiyotda doimo markaziy mavzulardan biri bo'lib kelgan. Nemis adabiyotida bu mavzu alohida o'rin egallaydi, chunki Germaniya tarixi davomida ko'plab ichki va xalqaro urushlar, siyosiy o'zgarishlar hamda ijtimoiy inqirozlar yuz bergan. Shu sababli, nemis yozuvchilari va shoirlari urushni nafaqat tarixiy hodisa sifatida, balki inson ruhiyati, axloqiy mas'uliyat va jamiyatning o'zini anglash jarayoni sifatida tasvirlab kelganlar.

Asosiy qism. Nemis adabiyotida urush tasviri davrlar o'tishi bilan sezilarli darajada o'zgarib borgan. O'rta asrlarda urush ko'pincha qahramonlik, sadoqat va shon-shuhrat bilan bog'langan bo'lsa, keyingi asrlarda, ayniqsa XX asrda, urush insoniyatning halokatga yuz tutishi, azob-uqubat, yo'qotish va ma'naviy inqiroz manbai sifatida tasvirlana boshlangan. Ikki jahon urushi davrida nemis adabiyoti urushning dahshatlarini, insoniyatning axloqiy tanazzulini va tinchlikka bo'lgan intilishni chuqur yoritgan.

Nemis urush adabiyotini o'rganish uchun adabiyotni quyidagi davrlarga bo'lamiz:

O'rta asrlar (taxminan 500–1500)

Ilk yangi davr (taxminan 1500–1789)

Klassika va Romantizm (taxminan 1789–1830)

Realizm va Naturalizm (taxminan 1830–1900)

Ekspressionizm va Birinchi jahon urushi (taxminan 1900–1933)

Milliy sotsializm va Ikkinchi jahon urushi (taxminan 1933–1945)

Urushdan keyingi davr va Germaniyaning bo'linishi (taxminan 1945–1990)

Qayta birlashish va zamonaviy nemis adabiyoti (taxminan 1990–hozirgi kun)

Nemis adabiyotida urush va zo'ravonlikning tasviri turli tarixiy davrlar va ijtimoiy o'zgarishlar bilan shakllangan bo'lib, har bir davrda urush va zo'ravonlikka turlicha qarashlar va talqinlar paydo bo'lgan.

Mediyeval davr (500–1500). Mediyeval davrda nemis adabiyotida urush tasviri ko'pincha diniy va feodal kontekstda shakllangan. Urushlar ko'pincha xristianlik qadriyatları bilan bog'langan va qahramonlik, jasorat, fidoiylık kabi ideal sifatlar orqali tasvirlangan. Masalan, "Nibelungenlied" kabi epik asarlarda urush faqat jang maydonidagi voqealar sifatida emas, balki shaxsiy va oilaviy sadoqat, qasamyod va shon-sharaf masalalari bilan bog'liq dramatik voqealar zanjiri sifatida tasvirlangan.

Uyg'onish davri (1500–1789). Nemis adabiyotida urush tasviri sezilarli darajada realistik tus oladi. Bu davr tarixiy voqealar, siyosiy inqirozlar va ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, urush tajribasini ko'proq insoniy va psixologik nuqtayi nazardan yoritadi. Masalan, Trident kongressi va Thirty Years' War (1618–1648) kabi voqealar urushning murakkabligini, dahshatini va shaxsiy hayotga ta'sirini aks ettiruvchi adabiy asarlarga sabab bo'lgan.

Asarlarda urush tasvirlari faqat qahramonlik yoki diniy qadriyatlar bilan chegaralanmay, balki strategik, siyosiy va iqtisodiy omillarni ham o'z ichiga oladi. Shu

davrning ba'zi yozuvchilarida urush orqali insoniy zaiflik, xavf-xatar, jang maydonidagi qiyinchiliklar va halokatlar ko'rsatilgan. Bu davr adabiyoti urushni yanada murakkab va realistik tasvirlashga intilgan.

XIX asr (1789–1914). XIX asrda nemis adabiyotida urush tasviri yanada murakkab va ko'p qirrali tus oladi. Bu davr tarixiy, siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, Napoleon urushlari, nemis birlik harakatlari va sanoat inqilobi kabi voqealar adabiyotda aks etgan.

Bu davr asarlarida urush ko'pincha shaxsiy tajriba va ijtimoiy o'zgarishlar orqali yoritilgan. Realistik va naturalistik yondashuvlar yordamida urushning dahshati, inson hayotiga ta'siri, jang maydonidagi murakkabliklar va psixologik stress tasvirlangan. Shu bilan birga, romantizm davrida urush qahramonligi va milliy g'urur bilan bog'liq idealizatsiyalangan tasvirlarga ham ega bo'lgan.

XX asr. XX asrda nemis adabiyotida urush tasviri tubdan o'zgaradi. Asarlar Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari, shuningdek, 20-asrning boshqa konfliktlari kontekstida yaratilgan. Urushning dahshati, insoniy fojialar, shaxsning ruhiy va jismoniy azoblari markaziy o'rin egallaydi.

Urush tasvirlari realizm va naturalizm chegarasida, ko'pincha kritika va siyosiy refleksiya bilan birga yoritiladi. Masalan, Erich Maria Remarque kabi yozuvchilarda urush tajribasi insoniy qiyinchiliklar, ruhiy travmalar va hayotiy zaifliklarni ochib beradi. Shu bilan birga, urush tafsilotlari va dahshatli real holatlar orqali urushning g'ayritabiiy va fojiali tabiati ko'rsatiladi.

Theodor Fontane (1819-1898) Fontane nemis realist adabiyotining yetakchi namoyandalaridan biri. Uning asarlarida urushning shaxsiy va ijtimoiy ta'siri ko'plab obrazlar orqali tasvirlangan. Masalan, Napoleon urushlari davrini yoritishda urushning inson ruhiyatiga ta'siri, oilalarga, jamiyatga yetkazgan zararini ochib beradi.

Gottfried Keller (1819-1890) Kellerning hikoyalari

urush va tinchlik davrlarining inson hayotiga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi. Urush sahnalari ko'pincha individual tajribalar va odamlarning kundalik hayoti orqali yoritiladi.

Erich Maria Remarque (1898-1970) Eng mashhur asari: *“All Quiet on the Western Front”* (Nemischa: *Im Westen nichts Neues*). Birinchi jahon urushi tajribasini real va fojiali tarzda tasvirlaydi. Asarda urushning dahshati, yosh askarlarning ruhiy travmalari va insoniy zaifligi markaziy mavzu hisoblanadi.

Heinrich Böll (1917-1985) Ikkinchi jahon urushi va uning oqibatlarini tasvirlaydi. Urushdan qaytgan insonlarning jamiyatdagi o'rnini, ruhiy muammolarini va ijtimoiy adolatsizliklarni yoritadi. Asarlarida urush tanqidiy va insonparvar nuqtayi nazardan yoritiladi.

Günter Grass (1927-2015) *“The Tin Drum”* asari orqali urush va totalitarizm davrini tanqidiy yoritadi. Urushning inson hayotiga, madaniyatga va jamiyatga yetkazgan fojialarini grotesk va allegorik uslubda ko'rsatadi.

Muhokama va natijalar. Ushbu maqola natijalari kelajakdagi izlanishlar va Germaniya adabiyotida urush tasviriga oid munozaralar uchun turli yo'nalishlarni yaratilishiga sabab bo'ladi. Nemis adabiyotida tasvirlangan etnik guruhlar va ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi urushlarni talqin etilishiga ham turtki bo'ladi.

Germaniya adabiyoti va boshqa mamlakatlar hamda madaniyatlar adabiyoti o'rtasida urush tasvirini solishtirish va uning insonlar hamda jamiyatga ta'sirini tahlil qilishda umumiylik va farqlarni aniqlash imkonini beradi. Eng muhimi, urush va adabiyotning transmadaniy o'lchamini tushunishga imkon yaratadi.

Xulosa. Nemis adabiyotida urush mavzusida yaratilgan asarlar murakkab bo'lib, ularni tushunish uchun tarixni ham yaxshi bilish zarur. Tanlab o'rganilgan asarlar shuni ko'rsatdi-ki, nemis adabiyotida urush tasviri inson va jamiyat hayotiga urushning dahshatli ta'sirini aniq va ko'p qirrali tarzda yoritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Krimmer, E. (2007). *The Representation of War in German Literature: From 1800 to the Present*. New York: Camden House. (Nemis tilidagi tarjimasini: „Kriegsdarstellung in der deutschsprachigen Literatur: Von 1800 bis zur Gegenwart“)
2. Boening. (2011). *Der Krieg in der Literatur des 20. Jahrhunderts*. In A. Rauscher (Hrsg.), *Krieg und Frieden in der deutschen Literatur* (s. 105-126). Würzburg: Königshausen & Neumann.
3. Bohnenkamp, 2014. *Kriegslyrik im 20. Jahrhundert: Ästhetik, Ethik, Sozialgeschichte*. Göttingen: Vandenhoeck & Ruprecht.
4. Korte, 2008. *Geschichte des Krieges*. München: C.H. Beck.
5. Assmann, 2011. *Kulturelles Gedächtnis und kollektive Identität*. In J. Assmann & A. Assmann (Hrsg.), *Kanon und Zensur: Archäologie der literarischen Kommunikation VII* (s. 34-58). München: Wilhelm Fink.
6. Rigney, 2012. *Die Transformation des Gedächtnisses und das europäische Projekt: Narrative, Konflikt und öffentliche Geschichte*. In K. E. Müller & S. Troebst (Hrsg.), *Das Europa der Europäer: Über die Wissenskulturen europäischer Integration* (s. 223-240). Göttingen: Vandenhoeck & Ruprecht



Maftuna NORQULOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti o'qituvchisi

“BU KUNNING DAVOMI” QISSASI KOMPOZITSIYASI

Annotatsiya: mazkur maqolada Ahmad A'zamning “Bu kunning davomi” qissasi kompozitsion qurilishi tahlil qilinadi. Qissa kompozitsiyasida syujet rivoji bilan birga qahramonning ruhiy kechinmalari, xotira va voqea-hodisalarni idrok etishdagi o'zgarishlar murakkab kompozitsion yechim orqali namoyon bo'lishi, shuningdek, vaqt va makonning uyg'unligi, retrospektiv usulning qo'llanilishi, voqelikning ichki monolog bilan almashinuvi orqali qahramon obrazining ruhiy-psixologik holati ochib beriladi. Kompozitsiya unsurlari sarlavha, ilk jumla, so'nggi jumla va obraz kabilar muallif badiiy g'oyasini ifodalashga xizmat qilishi tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: qissa, kompozitsiya, syujet, sarlavha, badiiy obraz, ilk jumla, so'nggi jumla, ichki monolog.

Annotation: this article analyzes the compositional structure of Ahmad A'zam's novella *Bu kunning davomi* (“The Continuation of This Day”). The study examines how the development of the plot is accompanied by the protagonist's psychological experiences, shifting memories, and evolving perception of events through a complex compositional design. The narrative reveals the character's inner psychological state by means of the harmonious interplay of time and space, the use of retrospective techniques, and the alternation between external reality and internal monologue. The article also explores how key compositional elements such as the title, the opening and closing sentences, and the system of characters function to express the author's artistic concept.

Key words: novella, composition, plot, title, artistic image, opening sentence, closing sentence, internal monologue.

Аннотация: в данной статье анализируется композиционная структура повести Ахмада А'зама «*Bu kunning davomi*» («Продолжение этого дня»). В исследовании рассматривается, как развитие сюжета сопровождается психологическими переживаниями героя, изменениями его памяти и восприятия событий, что раскрывается посредством сложного композиционного решения. Гармоничное единство времени и пространства, использование ретроспективного метода, чередование внешней реальности и внутреннего монолога позволяют глубоко показать психолого-эмоциональное состояние главного героя. Особое внимание уделяется таким элементам композиции, как заглавие, первая и последняя фразы произведения, а также система образов, которые служат выражению художественной концепции автора.

Ключевые слова: повесть, композиция, сюжет, заглавие, художественный образ, начальное предложение, заключительное предложение, внутренний монолог.

Muallif ijodiy niyati, estetik ideali badiiy asar mazmun-mohiyatida faqatgina syujet va obrazlar tizimi orqali emas, balki ularning qay tartibda uyg'un holda joylashtirilishi orqali ham namoyon bo'ladi. Ana shunday badiiy yaxlitlikni ta'minlaydigan tushuncha kompozitsiya hisoblanadi. O'zbek adabiyotida ilk bor kompozitsiya tushunchasiga A.Fitrat o'zining “Adabiyot qoidalari” kitobida shunday ta'rif beradi: “Mundarija yaxshi tartib etilgan sayin asarning qimmatini ortadur, yozg'uvchini muvaffaq bo'lishiga yaqinlashtiradir. Tartib mundarija uzra yurgiziladur. Shuning uchun mundarija yetarli darajada yig'ilib tollang'andan keyingina tartibga kirish kerak. Tartib yolg'uz asar yozish emas, so'z so'ylashda ham muhimdir”[1]. A.Fitratdan keyin kompozitsiya tushunchasiga adabiyotshunoslar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan.

Badiiy asar kompozitsiyasi nafaqat uning tashqi qurilishini belgilaydi, balki muallifning badiiy-estetik qarashlari bilan ham chambarchas bog'liq. Zero,

kompozitsiya orqali muallif voqealarga o'z munosabatini bildiradi, g'oya va obrazlar yaxlitligini ta'minlaydi. Izzat Sulton “Adabiyot nazariyasi” darsligida kompozitsiya xususida so'z yuritar ekan, quyidagi fikrni bildiradi: “Asarning turli qismlari orasidagi mutanosiblik kompozitsiya deb ataladi... Asar kompozitsiyasi, dastavval, muallifning tasvir etilayotgan hayotiy materialga munosabati bilan belgilanadi, ya'ni kompozitsiya birinchi navbatda g'oyaviy-estetik tushunchadir”[2].

Adabiyotshunos D.Quronov esa kompozitsiya haqida shunday yozadi: “...kompozitsiya badiiy shakl unsuri emas, balki asarning barcha komponentlarini uyushtirib, uning shakli va mazmuniy butunligini ta'minlaydigan, o'qilishi, uqilishi va kitobxonga g'oyaviy-estetik ta'sirini boshqaradigan, xullas, uni chinakam san'at hodisasiga aylantiradigan amal, shu amal asoslanadigan ijodiy tamoyil”[3], deydi. Demak, kompozitsiya shakl va mazmunni uyg'unlashtiradi, voqelik tasviri, syujet,

obrazlar, til va uslub kabi komponentlarni yagona butunlikka birlashtiradi. U asarning o'qilishi va uqilish jarayonini boshqaradi, qaysi voqea qayerda, qanday ketma-ketlikda berilishi, qaysi obraz qanday ko'rinishda kiritilishi ham kompozitsiyaning vazifasi sanaladi.

70-80-yillar adabiyotida o'ziga xos uslubiga ega adib Ahmad A'zam ijodi hayotiy voqealarni realistik tasvirlashi bilan birga voqea-hodisalar ichida badiiy tasvirlar, ramzlar va ichki monologlarni keltirishi bilan ahamiyatli. Shuningdek, yozuvchi o'z asarlarida hayotiy tajribasi, shaxsiy kuzatishlari va ichki kechinmalaridan keng foydalanadi. Adibning "Bu kunning davomi" qissasi kompozitsiyasida bir kun ichidagi voqealar fonida insonning ichki kechinmalari, orzu va umidlari badiiy tahlil qilinadi. Markazda esa kutish motivi – qahramonning telefon qo'ng'irog'ini intiqlik bilan kutishi, shu kutish asnosida vaqt va hissiyotning kuchayishi kuzatiladi. Xullas, kompozitsion jihatdan asar – bir kunlik voqea ichki monologlar, xotiralar va ramziy detallar orqali qurilgan psixologik qissa hisoblanadi. Qissaning kompozitsion markazi – "bir kun" bo'lib, adib bu kunga inson hayotining butun murakkab qatlamlarini, o'tmish, bugun va ertani sig'dirishga harakat qiladi. Adabiyotshunos Uzoq Jo'raqulov "Alisher Navoiy "Xamsa"sida xronotop poetikasi" nomli tadqiqotida xamsa janri yagona so'z – "hayrat" konsepsiyasi asosiga qurilganligini va unga xos badiiy komponentlar kompozitsiya, obraz, syujet kabilar janrning tabiatini belgilashini qayd etadi. "Butun boshli badiiy sistema, ya'ni xamsa janri shu yagona so'z – "hayrat" konsepsiyasi poydevoriga qurilgan"[4]. Ayni paytda, biz tahliliga kirishgan "Bu kunning davomi" kompozitsiyasi ham "bir kun" jumla-konsepsiya asosiga qurilganligi ko'rinadi.

Badiiy asar kompozitsiyasining eng muhim komponenti bu – sarlavha hisoblanadi. U badiiy matnga kirish eshigi bo'lib, unda badiiy asarning asosiy g'oyasi qisqa va lo'nda ifoda etiladi. Kompozitsiya asarning tashqi tomondan qurilishi bo'ladigan bo'lsa, sarlavha shu qurilishning eng muhim bo'lagi bo'lib, matn bilan bevosita bog'liq. Adabiyotshunos U.Rasulova "XX asr o'zbek qissachiligi" nomli tadqiqotida sarlavha xususida so'z yuritar ekan, shunday deydi: "Sarlavha asardagi asosiy ma'no qatlamiga ishora berib, muallif bilan kitobxonning ichki muloqotini jadallashtiradi"[5]. Qissaning sarlavhasi "Bu kunning davomi" bir qarashda sodda ko'rinsa-da, unda hayot anglamlari, vaqt va insonning uzviy bog'liqligi aks etadi. "Bugun" tushunchasi vaqtning eng yaqinligini bildirs, "davomi" qismi esa "bugun"ning oddiy tugamasligini, u o'zida kechagi kunning izlarini, ertangi kunning bo'lishi mumkin bo'lgan hodisalarini olib yurishini, ya'ni qahramon hayoti, ichki izlanishi va o'zini topish yo'lining davom etishini anglatadi. Sarlavha o'quvchini shunday fikrga undaydi: qissadagi voqealar bir kunda o'tib ketadigan mayda hodisa emas, balki kelajakdagi katta o'zgarishlarning

boshlanish nuqtasidir. Adabiyotshunos K.Hamrayev "Hikoya kompozitsiyasi" nomli tadqiqotida xronotop sarlavha haqida shunday deydi: "Xronotop sarlavha ikki xil bo'lib, birinchisi zamon-vaqt bilan, ikkinchisi ma'lum makon-joyga aloqador sarlavha hisoblanadi. Zamon-vaqt sarlavhali hikoyalarda vaqt tasviri birlamchi bo'lib, chegaralanganligi bilan xarakterlidir. Shu sabab bu tipdagi hikoyalarda hayot voqealari va inson tabiati siqiq vaqt oraliqida kuzatiladi. Ko'p hollarda lahza, kun tun, tong, peshin va shom kabi vaqt o'lchovlari inson obrazining ruhiy olamini va ma'naviy qiyofasini tasvirlashga xizmat qiladi"[6]. Demak, zamon-vaqt asosli sarlavhalarda vaqt tasviri birlamchi ahamiyatga ega bo'ladi. Bu vaqt esa ko'pincha chegaralangan bo'ladi. Shu sabab, bunday asarlarda voqealar va qahramon ruhiy olami qisqa vaqt oraliqida kuzatiladi. "Bu kunning davomi" qissasida "kun" chegaralangan vaqt o'lchovi bo'lib, "davomi" qo'shimchasi esa voqealar oldin boshlanganini, endi esa shu kun ichida davom etishini bildiradi. Bir kun ichidagi voqealar odatda jadal, ruhiy jihatdan zich bo'ladi. Vaqt qisqaligi sabab yozuvchi diqqatni tafsilot va ichki holatlarga qaratadi. Adib bu "kun"ni qahramon hayotidagi oddiy kun sifatida emas, balki ichki o'zgarishlar, iztirob va ruhiy uyg'oqlik sodir bo'ladigan markaziy vaqt sifatida ishlatadi. Xronotopda vaqt va makon birga ishlaydi, ammo sarlavhada vaqt markazda tursa, makon esa voqea ichida ochiladi. Demak, sarlavha o'quvchini mana shu "kun" ichidagi psixologik voqealarga tayyorlaydi.

Qissa bir kunni o'z ichiga qamrab olsa-da, unda bir kunlik emas, balki uzoq vaqtlar davomida shakllangan o'y-xayollar, hayotiy hodisalarning bugungi kundagi ifodasi sifatida ko'rinadi. Asarda qahramonning hayot tarzi – ishga borish, ishdan qaytish, odamlar bilan muloqot qilish – bir qarashda oddiy va takroriy yumushdek ko'rinadi. Sarlavha esa bu jarayonlarning shunchaki "kun o'tishi" emas, balki ichki kechinmalarning, o'zini anglash yo'lidagi tajribaning davomiyligi ekaniga ishora qiladi. Bu yerda "davom" so'zi oddiy vaqt birligi emas, hayot tarzi, o'y-fikrlar va izlanishlarning tugamasligini anglatadi. Sarlavha bir vaqtning o'zida falsafiy mazmunga ham ega. Inson hayoti – uzluksiz davom etuvchi kunlarning davomiga qiyos qilinadi. Har bir kun kechaning mantiqiy davomi va hech biri mustaqil, yakkalanib qolmaydi. Bu qissada ham o'z aksini topadi. Qahramon hayotidagi hech bir voqea o'tmishdan uzilmagan, balki o'sha o'tmishning ichida shakllangan.

Qissaning ilk, so'nggi jumalari bir-biriga uzviy bog'langan va qahramondagi o'xshash kayfiyatni aks ettiradi. Asarning ilk jumlasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, qahramon bir xillikdan zerikkan hayoti haqida qayg'uradi: "Kvartirangga borasan, ishga kelasan, ishga kelasan, kvartirangga borasan – torgina yo'lakdan chiqmaysan; tegrangda – dunyo, katta hayot, sen esa yo'lagingda dimiqib, jasadingni sudrab borib-

kelaverasan; yana o'y o'ylaysan: oldinda o'zingni nimalar kutayotganini bilishga urinasan..."[8]. Jumla uzun, takrorlarga asoslangan, qahramon o'ziga-o'zi gapiradi. Qarama-qarshi tasvir, keng dunyo va tor yo'lak bir-biriga zid qo'yiladi. Ilk jumladanoq o'quvchi qahramonning ruhiy-psixologik holati bilan tanishadi. Qahramon nutqidan anglash mumkinki, hayot va ish maromi shunchaki jismoniy qatnovga aylanganini, u ichki tomondan so'nib borayotganligini his qiladi.

Ilk jumla haqida adabiyotshunos U.Rasulova quyidagi fikrlarni bildiradi: "Ilk jumla muloqotning ibtidosi, qahramon hamda kitobxonning g'aybona uchrashuvi, kompozitsion sathning muhim belgisi. Keyingi holat-u vaziyat, dialog-u monolog debochasi. Mavzu, muammolar borasidagi ilk taassurot, bu keyingi bosqichga ko'tarilish, faollikni jadallashtirish jarayoni"[5]. Matn boshida kvartira va ish o'rtasidagi tor yo'lak tasviri qahramon hayotining takroriy va tor doirada qolganligini ko'rsatadi. Tor yo'lak orqali qahramon erkinligi cheklangan. Bu metafora orqali adib qahramon o'z hayotidan noroziligini va kelajakdan umid izlashini tasvirlaydi. Biz tahliliga kirishgan "Bu kunning davomi" qissasining ilk jumlasida "emotsional jumla" aks etadi. K.Hamrayev tadqiqotida emotsional jumla haqida shunday deyiladi: "Badiiy obrazning ichki dunyosini yoritish va uning ruhiy holati, kayfiyatini ifodalash maqsadida yozuvchi hikoyaning ilk jumlasidayoq his-tuyg'u tasvirini chizadi"[6].

Qissa oxirida qahramonning ichki ruhiy holati, vaqt o'tishi va shahar manzarasining metaforik tasviri beriladi. Qahramon derazadan tashqariga qaraydi, so'ng xona ichiga qaytadi. Xonaning haddan tashqari yorishib ketishi, uni masxara qilayotgandek tuyuladi. Bu holatdan keyin u xonasiga nisbatan g'alati bir dushmanlik tuyadi va borib chiroqni o'chiradi. "Zulmat uning suyak-suyaklarigacha singib ketgandek, hatto fikrlarini ham bir tekis – qora, unsiz bir tusga bo'yab yuborgandek tuyuldi"[8]. Bu jumlada kuchli metafora bo'lib, u nafaqat jismoniy qorong'ulikni, balki ruhiy bosim, g'am va umidsizlikni ifodalaydi.

Qahramon o'ziga-o'zi "Tun meni yutib yubordi. Tun seni o'rab turgan hamma narsani o'ziga singdirib oldi. Yolg'iz yalong'och qolding yuragim"[8], deydi. Tun badiiy adabiyotda ko'pincha zulmat, yolg'izlik, iztirob kabilarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Tun bu yerda shunchaki kechening qorong'uligi emas, balki qahramonning butun ongini, hissiyotlarini qamrab olgan, uni o'z ichiga tortgan zulmat sifatida tasvirlanadi. Bu holat qahramonga ichki yolg'izlik, umidsizlik va o'zini yo'qotish hissini beradi. "Tun seni o'rab turgan hamma narsani o'ziga singdirib oldi" – bu jumla ikki obrazni birlashtiradi: qahramon va atrof muhit. Keyingi o'rinlarda qahramon nutqida tun, zulmatdan yorug'likka intilish kuzatiladi. "Kunduz yaxshi – odamlarni ko'rib turasan, ularning yuzlari yorishib turganini ko'rasan. Odam yorug'da turishi kerak. Odam yorug'da yurishi kerak"[8].

Ahmad A'zam nasrida ko'pincha muhit tasviri qahramon ichki monologiga kirish eshigi bo'lib xizmat qiladi. Bu yerda ham shahar tasviri o'quvchini voqealar markaziga tayyorlaydi, chunki shahar – qahramonning kayfiyatini aks ettiruvchi oyna vazifasini bajaradi. Shahar ham inson kabi horiydi, orzu qiladi, entikadi. Bu inson bilan makonning bir-biriga singishib ketganligini bildiradi. Ochiq ko'z bilan uxlayotgan shahar tasviri bu – hushyor, lekin tinim bilmagan odamning ramziy tasvirini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, Ahmad A'zamning "Bu kunning davomi" qissasi yosh psixolog yigitning ichki monologi, hayoti, do'stlari, orzulari va o'tmish-kechmishi haqida fikr yuritishi haqidagi asardir. Unda ko'p voqealar tashqaridan emas, balki qahramonning ichki kechinmalaridan, xotira va o'ylaridan kelib chiqadi. Shu sababli qissada voqelikdan ko'ra ichki tafakkur, ruhiy-psixologik holat va falsafiy savollar ustuvorlik qiladi. Qahramon ulg'aygani sayin ortda qolgan yoshligi, o'qish davri bilan bog'liq xotiralarini, do'stlari, onasining nasihatlari va shahardagi hayotini qayta ko'zdan kechiradi. Qissaning bosh g'oyasi – odamning ruhiy yuksalishi va hayotda o'z o'rnini topishi zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фитрат А. Танланган асарлар. 4 жилдлик. Т.3. – Т.: Маънавият, 2006. 336-б.
2. Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 2005. 272-б.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. 480-b.
4. Жўрақулов У. Алишер Навоий "Хамса"сида хронотоп поэтикasi. Монография. – Т.: Турон-иқбол нашриёти. 2017. 289-б.
5. Rasulova U. XX asr o'zbek qissachiligi (poetik izlanishlar va taraqqiyot tamoyillari) – Toshkent: "Qamar media" nashriyoti. 2020. 240-b.
6. К.Ҳамраев. Ҳикоя композицияси. – Т.: "Nurafshon bussines", 2020. 138-б.
7. Ahmad A. Asqartog' tomonlarda. Qissalar. Yoshlar nashriyot uyi– Toshkent. 2018. 241-b.
8. Қўчқорова М. Ҳозирги ўзбек насрида бадий шартлилик. Филол.ф.д-ри..., 2020. 248-б.

Dilrabo BEKMIRZAYEVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti,
Qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrası o'qituvchisi
diliandjony@gmail.com

JEFRI CHOSER ASARLARINING O'ZIGA XOSLIGI VA O'RGANILISHI

Annotatsiya: mazkur maqola ingliz adabiyoti tarixida alohida o'rin tutgan buyuk shoir va yozuvchi Jefri Choser ijodini o'rganish bosqichlarini tahlil etishga bag'ishlangan. Tadqiqotda chosershunoslikning shakllanish jarayoni va rivojlanish tendensiyalari uch asosiy bosqich asosida o'rganilgan: XV–XVIII asrlardagi ilk qiziqish va taqlidiy davr, XIX–XX asrlardagi ilmiy-filologik tahlil davri hamda XXI asrdagi zamonaviy, multidisiplinar tadqiqotlar bosqichi. Maqolada har bir davrda faoliyat yuritgan nufuzli olimlarning ilmiy yondashuvlari va chosershunoslikka qo'shgan hissalarini tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *Jefri Choser, chosershunoslik, ingliz adabiyoti, filologik tahlil, o'rta asr adabiyoti, gender tahlil, zamonaviy tadqiqotlar, ingliz she'riyati tarixi.*

Аннотация: данная статья посвящена анализу этапов изучения творчества великого поэта и писателя Джеффри Чосера, занимающего особое место в истории английской литературы. В исследовании процесс становления и развития чосероведения рассматривается на основе трёх основных этапов: периода первоначального интереса и подражания (XV–XVIII века), этапа научно-филологического анализа (XIX–XX века) и современного, мультидисциплинарного этапа исследований (XXI век). В статье анализируются научные подходы и вклад выдающихся учёных, работавших в каждый из указанных периодов, в развитие чосероведения.

Ключевые слова: *Джеффри Чосер, чосероведение, английская литература, филологический анализ, средневековая литература, гендерный анализ, современные исследования, история английской поэзии.*

Annotation: this article is devoted to analyzing the stages of studying the works of Geoffrey Chaucer, a great poet and writer who occupies a special place in the history of English literature. The research examines the formation and development of Chaucer studies through three main stages: the early period of interest and imitation (15th–18th centuries), the era of scholarly and philological analysis (19th–20th centuries), and the modern stage of multidisciplinary research (21st century). The article analyzes the scientific approaches and contributions of prominent scholars who worked in each of these periods and their impact on the development of Chaucer studies.

Key words: *Geoffrey Chaucer, Chaucer studies, English literature, philological analysis, medieval literature, gender analysis, modern research, history of English poetry.*

Ingliz adabiyoti tarixida o'rta asr davrining eng yirik va ta'sirchan adibi Jefri Choser (1343–1400) alohida o'rin egallaydi. U o'z asarlari orqali ingliz xalq tilini adabiy me'yorga olib chiqqan, o'rta asr Yevropaning madaniy, diniy va ijtimoiy hayotini badiiy ifoda etgan ijodkor sifatida tanilgan. Choser ingliz tilining rivojlanishida ham, adabiy uslubning shakllanishida ham poydevor yaratgan shaxs bo'lib, zamondoshlari uni "ingliz she'riyatining otasi" deb ataganlar. Shoirning mashhur asarlari – "The Canterbury Tales" (Kenterberi hikoyalari), "Troilus and Criseyde" (Troilus Kriseyda), "The House of Fame" (Shuhrat uyi), "The Book of the Duchess" (Gersoginya kitobi) – o'z davrining hayotiy manzarasini, insoniy tuyg'ularni, diniy e'tiqod va ijtimoiy tafovutlarni yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlaydi. Shu boisdan ham Choser ijodi keyingi asrlar davomida ingliz adabiyotshunoslari, tilshunolar, tarixchilar va madaniyatshunolar tomonidan chuqur o'rganib kelinmoqda. Choserni o'rganish jarayoni besh yuz yildan ortiq davrni qamrab oladi. Dastlabki asrlarda u ijodiy taqlid va estetik qadrlash asosida o'rganilgan bo'lsa, XIX asrdan boshlab uning asarlari filologik, tarixiy va ijtimoiy jihatdan chuqur tahlil etila boshlandi.

XX–XXI asrlarda esa Choserni asarlari yangi ilmiy metodologiyalar – feministik, madaniy, postmodern, psixoanalitik va raqamli tahlil uslublari yordamida qayta o'rganilmoqda.

Choserni o'rganish tarixini tahlil qilganda, u nafaqat o'z davrida, balki undan keyingi asrlarda ham turli madaniy va ilmiy talqinlarga sabab bo'lganini ko'rish mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chosershunoslik uch asosiy bosqichda rivojlangan: ilk qiziqish davri (XV–XVIII asrlar), ilmiy tahlil va filologik yondashuv davri (XIX–XX asrlar) hamda zamonaviy tadqiqotlar bosqichi (XXI asr).

Bu davrda Choserni o'rganish hali ilmiy tus olmagan bo'lsa-da, uning asarlari ingliz adabiyoti tarixida milliy iftixor sifatida qaralgan. XVI asrda Uiliam Kekston tomonidan Choserni asarlari birinchi marta bosmadan chiqdi (1478-yil), bu esa adibning nomini yanada ommalashtirdi. XVII–XVIII asrlarda esa klassitsizm davri adabiyotshunoslari – Jon Drayden va Aleksandr Pop – Choserni o'z davrining satirik va hikoyaviy mahorat egasi sifatida qayta talqin etdilar. Drayden o'zining "Fables, Ancient and Modern" (Qadimgi va zamonaviy

masallar) (1700) asarida Choser hikoyalarini zamonaviy ingliz tilida qayta yozib, uni “Ingliz she’riyatining otasi” deb atadi. Pop esa Choserni o’zining “moral” (axloqiy) realizmi bilan qadrladi. Shunday qilib, bu davrda Choserni o’rganish asosan taqlidiy, estetik va biografik yo’nalishda olib borildi, ammo hali filologik tahlil darajasiga chiqmagan edi.

XIX asrda ingliz adabiyotshunosligi fanga aylangach, Choserni o’rganishga ham ilmiy yondashuv shakllandi. Bu davrda olimlar uning asarlarini qo’lyozma manbalar asosida tekshirish, tildagi fonetik va leksik xususiyatlarni aniqlash, hamda tarixiy kontekstni tiklashga kirishdilar.

Eng muhim tadqiqotchilardan biri – Valter Uiliam Skott (1835–1912) bo’lib, u “The complete works of Geoffrey Chaucer” (Jeffri Choserning to’liq asarlari) (1894–1897) nomli to’liq tanqidiy nashrni tayyorladi. Bu jamiyatning asosiy maqsadi Choserni asarlarini nashr qilish, u haqida ilmiy maqolalar tayyorlash va qo’lyozmalarni saqlash edi. Fyornivallning faoliyati tufayli Choserni ilmiy o’rganish tizimli holatga keldi. Shuningdek, Tomas Launsberi (1838–1915) o’zining “Studies in Chaucer” (Choserni o’rganish) (1892) asarida Choserni Dante va Bokkachcho bilan qiyoslab, ularning o’zaro ta’sirini tahlil qildi. Launsberi uchun Choser – o’rta asr Yevropasida insonparvarlik g’oyalarning tashuvchisi edi.

XX asr boshlarida Jorj Layman Kittrej (Harvard universiteti) Choserni o’rganishga yangi, psixologik va ijtimoiy yondashuv kiritdi. U “Chaucer and his poetry” (Choser va uning she’riyati) (1915) asarida “The Canterbury Tales” (Kenterberi hikoyalari)dagi personajlarni o’rta asr ijtimoiy tabaqalari bilan bog’lab o’rgandi. Masalan, Knight (ritsar), Prioress (rohiba), Miller kabi obrazlar o’sha davr jamiyatining axloqiy, diniy va ijtimoiy ko’rinishini aks ettiradi. Kittrej Choserni “inson ruhiyatini she’riyat orqali ochgan birinchi ingliz yozuvchisi” deb atagan.

XXI asrda chosershunoslik yangi ilmiy paradigmalarga asoslanmoqda. Agar ilgari tadqiqotlar

asosan til, uslub va tarixiy kontekstga yo’naltirilgan bo’lsa, hozirgi yondashuvlar madaniy, feministik, postmodern, psixoanalitik va ekologik yo’nalishlarda olib borilmoqda.

Devid Uolles va Derek Persoll esa Choserni o’rta asr madaniyati kontekstida o’rgangan. Ularning tadqiqotlarida Choser – o’z davrining “realisti”, ya’ni o’rta asr ijtimoiy hayotini hazil, satira va ramz orqali yoritgan ijodkor sifatida talqin etiladi. Zamonaviy davrda nashr etilgan “The Cambridge Companion to Chaucer” (Choser bo’yicha Kembridj qo’llanmasi) (2003) va “The Oxford Handbook of Chaucer” (Choser bo’yicha Oksford qo’llanmasi) (2020) kabi ilmiy to’plamlar Choserni o’rganishda yangi istiqbollarni ochdi. Ular kompyuter lingvistikasi, raqamli filologiya va matn tahlili texnologiyalaridan foydalangan holda Choserni tili, qofiya tizimi, ritmik strukturalarini chuqur o’rganmoqdalar.

Bugungi kunda ham Choserni o’rganish davom etmoqda. Dunyoning ko’plab universitetlarida “Chaucer Studies” (Choser bo’yicha tadqiqotlar) moduli mavjud bo’lib, talabalarga uning asarlari orqali o’rta asr dunyoqarashi, til taraqqiyoti va adabiy merosni tahlil qilish o’rgatiladi. Jeffri Choser asarlarini o’rganish jarayoni besh yuz yildan ortiq tarixga ega. Dastlab u faqat “shoir va ustoz” sifatida qadrlangan bo’lsa, keyinchalik u ingliz adabiyotining ilmiy o’rganish ob’ekti, tilshunoslik va madaniyatshunoslik manbasi sifatida qaralgan. XIX–XX asr olimlari – Skott, Fyornivall, Kittrej, Lounsburi – Choserni filologik asosda o’rganish poydevorini qo’yidilar. XXI asrda esa yangi tadqiqotlar uning asarlaridagi gender, madaniyat, psixologiya va ijtimoiy ong masalalarini tahlil qilmoqda. Chosershunoslik – bu nafaqat bitta yozuvchi merosini o’rganish, balki ingliz tili va adabiyotining taraqqiyot tarixini yorituvchi keng ilmiy maydondir. Jeffri Choserning ijodi hali ham tadqiqotchilarni o’ziga jalb etmoqda, chunki uning asarlarida inson tabiatining abadiy masalalari, jamiyatdagi adolat, axloq va sevgi haqidagi falsafiy qarashlar o’z aksini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Skeat, W. W. The Complete Works of Geoffrey Chaucer. Oxford University Press, 1894–1897.
2. Furnivall, F. J. The Chaucer Society Publications. London, 1870.
3. Kittredge, G. L. Chaucer and His Poetry. Harvard University Press, 1915.
4. Lounsbury, T. R. Studies in Chaucer. Harper & Brothers, 1892.
5. Dinshaw, Carolyn. Chaucer’s Sexual Poetics. University of Wisconsin Press, 1989.
6. Mann, Jill. Feminizing Chaucer. D.S. Brewer, 2002.
7. Pearsall, Derek. The Life of Geoffrey Chaucer. Blackwell, 1992.
8. Wallace, David. The Cambridge Companion to Chaucer. Cambridge University Press, 2003.
9. The Oxford Handbook of Chaucer. Oxford University Press, 2020.



Zarina NORBOYEVA,
 Turon universiteti O'zbek tili va adabiyoti
 kafedrasida o'qituvchisi

DRAMATURGIYADA DIALOGNING POETIK TABIATI VA ZAMONAVIY TALQINI

Annotatsiya: mazkur maqolada dramaturgiya janrining asosiy badiiy unsurlaridan biri – dialogning poetik tabiati va mohiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Dialog dramatik asarning estetik tuzilmasini belgilovchi markaziy omil sifatida o'rganilib, uning obraz yaratishdagi, konfliktni ifodalashdagi hamda g'oyaviy-badiiy mazmuni ochishdagi funksional xususiyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: *dramatik nutq, dramatik ifoda, poetik tizim, stilistik qatlam, badiiy tafakkur, obraz nutqi, metaforik tuzilma, semantik dinamika, dramatik konflikt, estetik ifoda.*

Аннотация: в статье научно-теоретически анализируются поэтическая природа и сущность диалога – одного из основных художественных элементов жанра драматургии. Диалог исследуется как центральный фактор, определяющий эстетическую структуру драматического произведения, освещаются его функциональные свойства в создании образа, выражении конфликта, раскрытии идейно-художественного содержания.

Ключевые слова: *драматическая речь, драматическая экспрессия, поэтическая система, стилистический пласт, художественное мышление, образная речь, метафорическая структура, семантическая динамика, драматический конфликт, эстетическая экспрессия.*

Annotation: this article scientifically and theoretically analyzes the poetic nature and essence of one of the main artistic elements of the dramaturgy genre - dialogue. Dialogue is studied as a central factor determining the aesthetic structure of a dramatic work, and its functional properties in creating an image, expressing conflict, and revealing ideological and artistic content are highlighted.

Key words: *dramatic speech, dramatic expression, poetic system, stylistic layer, artistic thought, figurative speech, metaphorical structure, semantic dynamics, dramatic conflict, aesthetic expression.*

Dramaturgiya san'ati so'z va harakat uyg'unligida ifodalanadigan murakkab badiiy tizimdir. Unda voqealar sahna harakati, obrazlarning ichki dunyosi, ijtimoiy ziddiyatlar asosan dialog orqali ochiladi. Dialog – dramatik asarning yuragi, uning harakatini belgilovchi badiiy mexanizmdir. Shu sababli dramaturgiyada dialogning poetik tabiati, ya'ni uning estetik, semantik va ritmik mohiyatini anglash har qanday badiiy tahlil uchun zarurdir. Zamonaviy teatr va dramaturgiya jarayonida dialogning funksiyasi, uslubiy ohangi hamda mazmuniy imkoniyatlari tobora kengayib, yangi badiiy talqinlarga ega bo'lmoqda. Shu jihatdan dialog nafaqat sahna vositasi, balki inson tafakkuri va ruhiyatining poetik ifodasi sifatida ham tahlil etilishi lozim.

Dialogning poetik tabiati deganda, uning badiiy ohang, ritm, metaforik qatlam, semantik ko'lam va estetik ta'sir kuchi tushuniladi. Dialog har bir so'zda ichki musiqiylik, obrazlilik, tazod, parallelizm, takror, metaforadan foydalanish orqali sahnada "so'zning estetik jarangi"ni yaratadi. Masalan, Cho'lponning dramasi dialoglar nafaqat g'oyaviy ziddiyatni ochadi, balki she'riy uslubdagi ohang bilan tinglovchi qalbini zabt etadi. Dramatik asarda obraz (qahramon) ichki dunyosi, fikri, his-tuyg'usi, ijtimoiy pozitsiyasini eng avvalo dialog orqali ifodalaydi. Masalan, Cho'lponning "Yorqinoy" dramasi Yorqinoy bilan Bek o'rtasidagi so'z almashuvida ularning ruhiy olami, g'urur va vijdon o'rtasidagi ziddiyat to'liq ifodalanadi:

Bek: Qo'ying, yig'lamang. Tegishib aytaman. Keling, yig'ini qo'ying, kulaylik, o'ynaylik. (Yorqinga kichik, o'ziga kata piyolada may quyadir). Keling mana yig'ingizni tarqatish uchun guldani yasalgan dori beraman.

Yorqin: (oladir). Tikan suhbatida gul bo'lmasa, bo'lmaydir begim...(ichadir.)

Bek: May o'tkir bo'libdirmi?

Yorqin: Mening uchun juda o'tkir.

Bek: Men uchun o'tkir emas-ku?

Yorqin: (uyalib). O'tkirda o'tkir ta'sir qilarmidi?

Bek: Ha-ha-ha-ha! Ma'qul, ma'qul... Qani ichaylik!

Yorqin: Menga shu bittasi bas edi.

Bek: E, bu nima gap. Sizni "O'lmas botirning qizi" deb kim aytadir? Ichabering!

Yorqin: O'lmas botirning o'g'li emas qizi deb hamma aytadir.

Bu yerda dialog obrazga jon beradi, uni harakatga keltiradi. Har bir obrazning nutqi uning xarakteriga mos bo'ladi. Shuning uchun dramaturg dialog yozayotganda, har bir qahramonning tug'ma so'zlash uslubi, ohangi, iborasi, hissiyatini inobatga oladi.

Dramaturgiyada konflikt (ziddiyat) - asarning yuragi. Obrazlar o'z fikrini so'z bilan himoya qiladi, bir-biriga qarshi dalil keltiradi. Natijada dramatik harakat yuzaga keladi. Shuning uchun dialog faqat "so'zlashuv" emas, balki kurash maydonidir.

Masalan “Yorinqoy” dramasi o‘zbek dramaturgiyasi tarixida ruhiy ziddiyatni so‘z orqali ifoda etish mahorati bilan ajralib turadi. Cho‘lponning mahorati shundaki, u so‘z orqali shaxsning ichki dunyosini ochib beradi, sukut orqali uning og‘rigini sezdiradi. Shuning uchun “Yorinqoy”dagi dialoglar oddiy so‘z almashinuvi emas, ruhiy energiya oqimi, vijdonning ovozidir.

Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasi o‘zbek dramaturgiyasida falsafiy va ruhiy qatlarning chuqurligi bilan ajralib turadi. Asarda tarixiy shaxs – Amir Temur siymosi nafaqat siyosiy arbob, balki fikr va vijdon azobini kechirayotgan inson sifatida talqin qilinadi. Dramaning ko‘plab sahnalarida dialog shaklida kechayotgan suhbatlar aslida ichki imkoniyatlar bilan boyitilgan. Temurning so‘zlari ko‘pincha uning o‘z qalbi bilan suhbatini eslatadi. U sarkarda sifatida gapirsa-da, har bir so‘zida ichki ovoz, shubha, iztirob yangraydi. Masalan, Shayx ul-islom bilan bo‘lgan suhbatda tashqi dialog siyosiy masalani yoritadi, ammo uning ostida Temurning vijdoniy kurashi bor. U “Adolat qilmoq uchun qilich ko‘tarish gunohmi?” deb so‘raydi. Natijada dramada so‘z tashqi muloqot vositasi bo‘lishdan chiqib ichki o‘zini anglash vositasiga aylanadi. Shu tarzda dialog ichida monolog tug‘iladi. Demak “Sohibqiron”da dialog – bu ikki shaxs suhbatini emas, balki inson va o‘z vijdoni o‘rtasidagi poetik muloqotdir. Shu jarayon dramaga falsafiy ohang, ruhiy teranlik va badiiy poeziya baxsh etadi.

Dialog orqali obrazning badiiy til olami yaratiladi: unda metaforalar, takrorlar, xalq maqollari, kinoya, tazodlar ishtirok etadi. Dialog shunchaki ma‘lumot uzatmaydi, u obrazning ichki ritmini, ruhiy musiqasini ifodalaydi. “Sohibqiron” dramaturg dialogni faqat voqeani rivojlantiruvchi vosita sifatida emas, balki obraz ruhiyatini, uning ichki musiqasini ifoda etuvchi badiiy til tizimi sifatida talqin etadi. Dramada Amir Temurning nutqi sahnada oddiy so‘zlashuv emas, she‘riy tafakkur darajasida qurilgan. Dialoglarda xalq maqollari, tazodli iboralar, takror va ohangdor sintaksis obrazni o‘quvchiga yanada yaqinroq qilgan.

Zamonaviy dramaturgiyada esa obrazlar dialogida sukunat, tana harakati, yorug‘lik, ovoz ham so‘z o‘rnida ishlatiladi. Ya‘ni dialog keng ma‘noda poetik nutq shakliga aylandi. Demak dialog va obraz o‘rtasidagi munosabat dramatik asarning yadrosini tashkil qiladi. Dialog obrazning ruhiy olamini ifodalovchi vosita, obraz dialog orqali o‘zini yaratadi va rivojlantiradi. Ularning o‘zaro uyg‘unligi dramatik asarning poetik kuchi va hayotiy haqiqatini belgilaydi. Shunday qilib, dramaturgiyada dialog obrazning so‘zdagi ko‘rinishi, obraz esa dialogning jonli ifodasi hisoblanadi.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, dramatik asar poetikasida dialog hodisasi badiiy-estetik mazmunni ifodalashning yetakchi struktura komponenti sifatida namoyon bo‘ladi.

U faqat syujetni rivojlantiruvchi kompozitsion birlik emas, balki obrazning ruhiy kechinmalari, psixologik izlanishlari va g‘oyaviy-estetik konsepsiyani tashuvchi murakkab stilistik konstruksiyadir. Dialog dramatik matnning lingvopoetik tuzilmasida mazmun, ohang, ritm va semantik dinamikani belgilovchi ko‘p funksiyali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Dramaturgik nutqning poetik tabiatini belgilovchi omillardan biri bu so‘zning ichki musiqasi va intonatsion turtkisidir. Dialog ana shu ritmik-intonatsion qatlamni shakllantiradi, obraz nutqini individuallashtiradi hamda badiiy tilning ekspressiv imkoniyatlarini kengaytiradi. Dialogning stilistik vazifasi esa muallif estetik niyatining lingvistik ko‘rinishlari orqali namoyon bo‘ladi. Dramada so‘zning ohangi, gap qurilishi, pauza, takror, inversiya kabi vositalar poetik musiqiylik va dramatik intensivlikni yuzaga keltiradi. Natijada dialog badiiy matnning ichki ritmini tartibga soluvchi va tomoshabinni hissiy rezonansga keltiruvchi stilistik mexanizm sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Dialogda metaforik qatlamlar orqali ramziy ma‘no shakllanadi, bu esa dramatik obrazning falsafiy mohiyatini chuqurlashtiradi. Poetik tilda qurilgan dialoglar o‘zida so‘zning estetik semantikasini mujassam etadi. Ular orqali dramatik matnda psixologik intensivlik, g‘oyaviy kontrast, konfliktning ichki dinamizmi ta‘minlanadi. Demak, dialog dramaning badiiyatida ikki qutbli vazifani bajaradi: bir tomondan u kompozitsion va syujet harakatini belgilasa, ikkinchi tomondan stilistik va poetik ifoda tizimini yaratadi. Shu ma‘noda dialogni dramaning “badiiy energiya o‘qi” sifatida talqin etish mumkin. U orqali so‘z estetik kuchga, g‘oya esa emotsional jozibaga ega bo‘ladi.

Dialogning sahna nutqi bilan uyg‘unligi – bu faqat fonetik yoki texnik masala emas, u badiiy ifoda madaniyati, obraz ruhiyati, muallif niyati va tomoshabin idrokining yagona kommunikativ maydonida namoyon bo‘ladigan estetik tizimdir. Dialog dramaning semantik markazidir. Dialog sahna nutqining tabiiyligi, ichki ritmi va ohangdorligini belgilovchi asosiy vositadir. Dialogning poetik tabiati uni sahna nutqidan ajratib bo‘lmaydi: har bir so‘z, pauza, urg‘u va intonatsiya sahna talqinida badiiy ma‘no kasb etadi. Dialog o‘z mohiyatiga ko‘ra lingvopoetik fenomen bo‘lib, unda so‘zning estetik vazni hamda tovushning ifoda kuchi birlashadi.

Dramatik asarning ushbu muhim unsuri badiiy shakl va mazmun birligini ta‘minlovchi markaziy komponent sifatida alohida estetik vazifani bajaradi. U nafaqat obrazlar o‘rtasidagi muloqotni ifodalaydi, balki ularning ichki kechinmalari, psixologik holatlari hamda muallif g‘oyasini estetik darajada yoritadi. Dialog orqali dramatik asarda konfliktning rivoji, xarakterlarning ochilishi, poetik ohang va ritm shakllanadi. Shu bois dialog dramaturgik tuzilmaning eng faol, dinamik va poetik jihatdan boy qatlamini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aristotel. Poetika. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1980.
2. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1986.
4. Cho‘lpon. Yorinqoy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1991.
5. Oripov A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2001.



Shoira XABIBULLAYEVA,
 Termiz iqtisodiyot va servis
 universiteti o'qituvchisi

O'ZBEK TLINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARNING USULLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Interaktiv metodlar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishga, shuningdek, kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "Rollar o'yini", "Debat" kabi interaktiv usullarning o'quv jarayonidagi samarasi misollar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: *interaktiv metod, o'zbek tili, kommunikativ kompetensiya, ikkinchi til, aqliy hujum, rol o'yini, klaster, mustaqil fikrlash.*

Annotation: this article analyzes the theoretical and practical aspects of using interactive methods in teaching Uzbek as a second language. Interactive methods help learners develop independent thinking, improve oral and written communication skills, and build communicative competence. The article also highlights the effectiveness of interactive techniques such as "Brainstorming," "Cluster," "Insert," "Role Play," and "Debate" through practical examples.

Key words: *interactive method, Uzbek language, communicative competence, second language, brainstorming, role play, cluster, independent thinking.*

Аннотация: в данной статье анализируются теоретические и практические аспекты использования интерактивных методов при преподавании узбекского языка как второго. Интерактивные методы способствуют развитию самостоятельного мышления учащихся, совершенствованию устной и письменной речи, а также формированию коммуникативной компетенции. В статье также рассматривается эффективность таких интерактивных методов, как «Мозговой штурм», «Кластер», «Инсерт», «Ролевая игра» и «Дебаты», на основе практических примеров.

Ключевые слова: *интерактивный метод, узбекский язык, коммуникативная компетенция, второй язык, мозговой штурм, ролевая игра, кластер, самостоятельное мышление.*

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Chet ellik talabalar, xorijdagi o'zbek diasporasi vakillari hamda mamlakatimizdagi boshqa millat vakillari o'zbek tilini amaliy maqsadlarda egallashga intilmoqda. Shu sababli, o'qitish jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish til o'rganish samaradorligini oshiruvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Interaktiv metodlar – bu o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida hamkorlik asosida tashkil etilgan, o'quvchini faol fikrlashga, muloqotga va mustaqil izlanishga undovchi o'qitish shakllaridir. Ular o'quvchilarning tilni amalda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradi va kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi.

So'nggi yillarda o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish masalasi ta'lim tizimining dolzarb yo'nalishlaridan

biri sifatida qaralmoqda. Bu jarayonda interaktiv metodlardan samarali foydalanish o'quvchilarni til o'rganishga faol jalb etish, ularning og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish hamda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, interaktiv texnologiyalar o'quv jarayonini faqat bilim berish emas, balki o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yo'naltiradi. Shu nuqtayi nazardan, o'zbek olimlari til o'qitishda innovatsion va interaktiv metodlardan foydalanishning turli jihatlari o'rganib, ularning samaradorligini amaliy misollar asosida asoslab berganlar.

Adabiyotlar tahlili. Z.Karimova o'zining "Chet tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalar" nomli asarida til o'rganish jarayonida o'quvchini faol ishtirokchiga

aylantiruvchi usullarning afzalliklarini yoritadi. Unga ko'ra, interaktiv metodlar nafaqat o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki ularning psixologik tayyorgarligini, o'z fikrini erkin ifoda etish malakasini ham shakllantiradi.

Karimova "Aqliy hujum", "Blits so'rov", "Rol o'yinlari" kabi metodlarni o'zbek tilini o'rgatishda qo'llashni taklif etadi. Ularning har biri o'quvchini muloqot markaziga olib chiqadi va o'rganilayotgan tilni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi.

M.Xudoyberganova o'z maqolasida til o'qitish jarayonida interaktiv metodlarning o'quvchida mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni haqida so'z yuritadi.

Muallifning fikricha, "Insert", "Klaster" va "Debat" metodlari o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda samarali natijalar beradi. Ayniqsa, "Insert" metodi o'quvchilarning matnni tushunish, ma'lumotni tahlil qilish va fikr bildirish salohiyatini oshiradi.

Professor N.Mahmudovning "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" asari til o'qitishning nazariy poydevorini belgilaydi. U o'quvchi faoliyatiga asoslangan darslarni tashkil etishda interfaol yondashuvlarni qo'llash zarurligini ta'kidlaydi.

Mahmudov til o'qitishning asosiy maqsadi sifatida o'quvchida tilning kommunikativ, kognitiv va ijtimoiy funksiyalarini anglashni ko'rsatadi. Bu esa interaktiv metodlardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Uning fikricha, "Rol o'yini" va "Munozara" usullari o'quvchilarni fikr almashish va tilni tabiiy muhitda qo'llashga tayyorlaydi.

D.Jalolova o'z maqolasida chet elliklarga o'zbek tilini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyatini tahlil qiladi. U o'quvchilarni grammatik qoidalarni yod olishga emas, balki muloqot orqali o'rganishga yo'naltirishni taklif etadi.

Jalolova interaktiv darslar, juftlikda ishlash, guruhiy topshiriqlar va multimedia vositalaridan foydalanish o'quvchilarning tilni faol o'zlashtirishiga yordam berishini isbotlaydi. Bu yondashuv, xususan, o'zbek tilini xorijiy talabalar uchun o'rgatishda yuqori natija beradi. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish nafaqat ta'lim samaradorligini, balki til o'rganishga bo'lgan qiziqishni ham oshiradi. Z.Karimova, M.Xudoyberganova, N.Mahmudov va D.Jalolova asarlarida ilgari surilgan g'oyalar interaktiv o'qitishning nazariy asosini tashkil etadi va amaliy qo'llanish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Bu yondashuvlar xalqaro tajriba bilan uyg'unlashganda, o'zbek tili ta'limining sifatini yangi bosqichga ko'tarish imkonini beradi.

Tahlil va natija. Interaktiv metodlarning mohiyatini ko'rib chiqamiz. Interaktiv metodlar o'quvchilarning faolligini oshiradi, o'rganilayotgan tilga qiziqishni kuchaytiradi va o'zaro muloqotga asoslangan o'quv

muhitini yaratadi. An'anaviy o'qitishdan farqli ravishda, bu metodlarda o'qituvchi bilim manbai emas, balki yo'naltiruvchi rolini bajaradi.

Til o'rganishda eng samarali interaktiv metodlardan ayrimlari quyidagilardir:

"Aqliy hujum" (Brainstorming) metodi haqida bilamiz. Bu metod o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rag'batlantiradi. Masalan, "O'zbekiston madaniyati" mavzusida o'quvchilardan qisqa vaqt ichida ko'p fikrlar bildirish so'raladi. Keyin ularning fikrlari tahlil qilinib, eng muhimlari tanlab olinadi. Bu usul o'quvchilarning so'z boyligini kengaytiradi va nutq faoliyatini rivojlantiradi.

"Klaster" metodini o'rganamiz. Klaster usuli o'quvchilarga ma'lumotlarni tizimlashtirish, tushunchalar orasidagi bog'lanishni aniqlash imkonini beradi. Masalan, "Oila" mavzusida asosiy so'z atrofida "ota", "ona", "farzand", "mehr", "tarbiya" kabi so'zlar bilan tarmoqlar hosil qilinadi. Bu usul grammatik va leksik materialni o'zlashtirishni osonlashtiradi.

"Insert" metodi nimaligi haqida gaplashamiz. Bu metod o'qish jarayonida o'quvchining tushunish darajasini nazorat qilish imkonini beradi. O'quvchi matnni o'qish davomida belgilar qo'yadi: "+" — tanish ma'lumot, "-" — yangi ma'lumot, "?" — tushunarsiz joy, "!" — qiziqarli fakt. Ushbu metod orqali o'quvchi matn bilan faol ishlaydi va o'z fikrini tahliliy tarzda ifodalaydi.

"Rollar o'yini" metodi. Bu usul til o'rganishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda nihoyatda samarali hisoblanadi. Masalan, "Do'konda", "Restoranda", "Talaba va o'qituvchi suhbat" kabi vaziyatlar asosida o'quvchilar turli rollarni ijro etadilar. Bu esa ularning real hayotdagi muloqotga tayyorgarligini kuchaytiradi.

"Debat" (Munozara) metodi. Munozara usuli o'quvchilarning tanqidiy fikrlash va o'z nuqtayi nazarini asoslash ko'nikmasini shakllantiradi. Masalan, "Texnologiya inson hayotini osonlashtiradimi?" mavzusida ikki guruh o'rtasida bahs tashkil etiladi. O'quvchilar dalillar keltirish, fikrni asoslash, tinglash va munozara madaniyatiga o'rganadilar. Z.Karimova o'zining "Chet tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalar" asarida interaktiv o'qitish texnologiyalarining til o'rganish jarayonidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Muallifning fikricha, interaktiv metodlar:

o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi; og'zaki muloqotga tayyorlaydi;

o'rganilayotgan tilni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashni o'rgatadi.

Karimova o'z ishida "Aqliy hujum", "Klaster", "Rol o'yini" kabi metodlarni til o'rganishda qo'llashni tavsiya qiladi. Ularning afzalligi shundaki, o'quvchi o'z fikrini erkin ifoda etish, jamoa bilan ishlash va ijodiy yondashish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Bu fikrlar o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda ham to'liq mos keladi.

M.Xudoyberganova o'zining "Til o'qitishda interaktiv metodlar va ularning samaradorligi" nomli maqolasida

interaktiv metodlarning o'quvchining bilimni faol egallash jarayoniga ta'sirini tahlil qiladi. Uning fikricha, interaktiv usullar o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi.

Muallif "Insert", "Debat" va "Klaster" metodlarini samarali deb hisoblaydi. U "Insert" metodini o'qilgan matnni tushunish, asosiy g'oyalarni aniqlash va fikrlarni tahlil qilishda muhim deb biladi. "Debat" usuli esa o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga, mantiqiy dalillar keltirishga o'rgatadi. Shu jihatdan, Xudoyberganova interaktiv metodlarning til o'qitishdagi psixologik va kommunikativ afzalliklarini chuqur yoritadi.

Professor N.Mahmudovning "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" asari o'zbek tili ta'limining nazariy poydevorini tashkil etadi. U o'qitish jarayonida kommunikativ yondashuvning ustuvorligini ta'kidlab, o'quvchini markazga qo'ygan dars tizimini ishlab chiqishni taklif etadi.

Mahmudovga ko'ra, o'zbek tili o'rganuvchilari uchun darslar "muloqot muhitida" tashkil etilishi lozim. U interaktiv metodlarni (rol o'yinlari, suhbat, guruhli muhokama) qo'llash orqali o'quvchilarni tilni amaliy qo'llashga, real nutqiy vaziyatlarga tayyorlash zarurligini asoslaydi.

Bu yondashuv hozirgi zamon kommunikativ kompetensiya modeliga to'liq mos keladi.

D.Jalolova o'z maqolasida chet elliklarga o'zbek tilini o'qitishda kommunikativ yondashuvning o'rni va afzalliklarini ochib beradi. U darsda multimedia, juftlik va guruhli ish, rol o'yinlari kabi interaktiv metodlardan foydalanishning ahamiyatini tahlil qiladi.

Muallifning fikricha, kommunikativ darsning

markazida o'qituvchi emas, balki o'quvchi turadi. Shu bois, interaktiv metodlar orqali o'quvchilar:

o'z fikrini o'zbek tilida ifoda etishga;
boshqa o'quvchilar bilan muloqotda bo'lishga;
madaniy kontekstni tushunishga o'rganadilar.

Jalolovanning yondashuvi amaliyotga yo'naltirilgan, ya'ni tilni hayotiy muloqot vositasi sifatida o'rganishga asoslangan.

OECD tomonidan tayyorlangan "Effective Teaching and Learning Strategies in Multilingual Classrooms" nomli hisobotda ko'p tilli ta'lim muhitida interaktiv metodlarning ahamiyati keng yoritilgan. Hisobotda interaktiv strategiyalar:

o'quvchilar orasida tenglikni ta'minlaydi;
til o'rganishga motivatsiyani oshiradi;
o'zaro madaniy tushunishni rivojlantiradi.

Bu xalqaro tajriba o'zbek tilini o'qitish tizimi uchun ham dolzarb bo'lib, o'qituvchilarga turli millat vakillari ishtirokidagi darslarni samarali tashkil etishda metodik yo'nalish beradi.

Xulosa. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish o'quv jarayonining sifatini oshiradi, o'quvchilarning tilga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi hamda kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi. Har bir interaktiv usul o'quvchining individual imkoniyatlarini ochishga, nutq madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

O'qituvchi metodlarni tanlashda mavzu, o'quvchilarning til bilish darajasi va darsning maqsadini inobatga olishi zarur. Interaktiv metodlarning to'g'ri qo'llanilishi o'zbek tilini o'rganishni nafaqat samarali, balki qiziqarli jarayonga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova Z. Chet tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2021.
2. Xudoyberganova, M. Til o'qitishda interaktiv metodlar va ularning samaradorligi. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, №4. 2020.
3. Mahmudov N. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2019.
4. Jalolova D. "O'zbek tilini chet elliklarga o'qitishda kommunikativ yondashuv." Filologiya masalalari, №1. 2022.
5. OECD Effective teaching and learning strategies in multilingual classrooms. – Paris: OECD Publishing. 2020.

Zulxumor ACHILOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
tarjimonlik fakulteti ispan tili katta o'qituvchisi
Zuxumora@gmail.com

“YOSH” KONSEPTI LINGVOKONSEPTOLOGIK TAHLILDA: O‘ZBEK VA ISPAN MADANIYATLARI MISOLIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek va ispan madaniyatida “yosh” konseptining lisoniy talqini lingvokulturologik va aksiolingvistik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda har ikki xalqning milliy dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va madaniy an'analarida “yosh” tushunchasining qanday ifodalanishi, uning tildagi semantik tarkibi hamda konseptual xususiyatlari ochib beriladi. Maqolada “Yosh” konseptining paremiologik birliklar, frazeologizmlar va metaforalar orqali ifodalanishi tahlil qilinib, uning til va madaniyat birligidagi o'rni belgilab beriladi. Shu bilan birga, o'zbek va ispan tillaridagi “Yosh” tushunchasiga oid leksik birliklar orqali xalq ongida shakllangan mental-simvolik ma'nolar qiyosiy ravishda yoritiladi.

Kalit so'zlar: *yosh konsepti, lingvokonseptologiya, lisoniy-madaniy manzara, lingvokulturologiya, aksiolingvistika, qiyosiy tahlil, milliy qadriyatlar.*

Аннотация: в данной статье анализируется лингвистическая интерпретация концепта «Возраст» в узбекской и испанской культурах на основе лингвокультурологического и аксиолингвистического подходов. В исследовании раскрывается, как концепт «молодёжь» выражен в национальном мировоззрении, системе ценностей и культурных традициях обоих народов, его семантическая структура в языке и концептуальные особенности. В статье анализируется выражение концепта «молодёжь» посредством паремиологических единиц, фразеологических единиц и метафор, определяется его место в единстве языка и культуры. Одновременно с этим в сравнительном анализе освещаются ментально-символические значения, формируемые в сознании народа посредством лексических единиц, связанных с концептом «молодёжь» в узбекском и испанском языках.

Ключевые слова: *концепт возраста, лингвоконцептология, лингвокультурный ландшафт, лингвокультурология, аксиолингвистика, сопоставительный анализ, национальные ценности.*

Annotation: this article analyzes the linguistic interpretation of the concept of «youth» in Uzbek and Spanish cultures using linguacultural and axiolinguistic approaches. The study explores how the concept of «youth» is expressed in the national worldviews, value systems, and cultural traditions of both peoples, as well as its semantic structure in language and conceptual features. The article analyzes the expression of the concept of «youth» through paremiological units, phraseological units, and metaphors, and determines its place in the unity of language and culture. A comparative analysis also highlights the mental and symbolic meanings formed in the consciousness of people through lexical units associated with the concept of «youth» in the Uzbek and Spanish languages.

Key words: *age concept, linguaconceptology, linguacultural landscape, linguacultural studies, axiolinguistics, comparative analysis, national values.*

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida til va madaniyat munosabatlarini o'rganish, millat ongida shakllangan asosiy konseptlarni tahlil etish lingvokulturologiyaning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki til faqatgina muloqot vositasi emas, balki xalqning madaniy merosi, qadriyatlar tizimi va dunyoqarashini ifoda etuvchi muhim omildir. Shu nuqtayi nazardan, har bir millat madaniyatida muhim o'rin egallaydigan konseptlardan biri – “yosh” tushunchasidir.

“Yosh” konsepti nafaqat biologik yoshni, balki insonning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanish bosqichlarini ham qamrab oladi. U xalqning mentaliteti, an'anaviy qadriyatlari va hayot falsafasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har bir madaniyatda o'ziga xos ma'no va ramziy mazmunga ega. O'zbek va ispan xalqlari madaniyatida “yosh” tushunchasi turli lisoniy vositalar orqali namoyon bo'ladi: maqol va matallarda,

frazeologik birliklarda, badiiy asarlar va xalq og'zaki ijodi namunasida inson yoshiga oid ko'plab tasavvurlar, qiyoslar va munosabatlar ifodalangan. Bu birliklar xalq ongidagi qadriyatlar tizimini, jamiyatda yoshlikka bo'lgan munosabatni va milliy dunyoqarashni namoyon etadi.

Ushbu maqolada “yosh” konseptining o'zbek va ispan tillaridagi lisoniy ifodalanish xususiyatlari lingvokulturologik hamda aksiolingvistik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Shu orqali har ikki madaniyatda “yosh” tushunchasiga beriladigan ma'no va qadriyatlar tizimidagi umumiy va farqli jihatlari aniqlanadi.

Asosiy qism. Kognitiv tilshunoslikda muhim hisoblangan konseptosfera termini bu – milliy konseptlarning jamlanmasi ma'nosini anglatadi. U til sohibiga oid konseptlarning barcha imkoniyatlari bilan vujudga keladi. Xalq konseptosferasi tilda anglashilgan semantik sferaga nisbatan keng hisoblanadi. Milliy

madaniyat, xalq og'zaki ijodi, fan va badiiy adabiyot qay darajada boy bo'lsa, xalq konseptosferasi ham shunga mos holda keng hisoblanadi.

Konsept tushunchasi (lotincha *conceptus* – “tushuncha”) – predmet yoki hodisaning muhim belgilarini, yoki hodisa bilan bog'liq bo'lgan tushunchalarni o'z ichiga olgan psixik shakllanish ma'nosini anglatadi. Filologiyada konsept tushunchasi belgining og'zaki mazmun mohiyatini bildirib keladi.

Lingvokonseptologiyada konseptsiya lingvistik shaklda qayd etilgan semantik bo'linishga ega bo'lgan aqliy shakllanishdir.

Lingvokulturologiyada konseptsiya – bu semantik bo'linish, milliy-madaniy belgiga ega bo'lgan va lingvistik shaklda qayd etilgan psixik shakllanishdir. Lingvomadaniy tushuncha bilan bir xil.

Falsafada tushuncha tushunchaning mazmuni, ismning (belgining) semantik ma'nosidir.

Mantiqiy faoliyat hosilasi bo'lgan “tushuncha” va kognitiv tilshunoslikda keng miqyosda qo'llanilayotgan “konsept” atamalarini bir xil mazmunda qo'llash mumkinmi? So'zsiz, bu ikkala hodisa ham tafakkur birligi sifatida namoyon bo'ladi. Bularning ikkalasining ham boshlang'ich nuqtasi voqelikdagi predmet – hodisaning his qilinishi va obrazli tasavvur qilinishi bilan bog'liq. Paydo bo'lgan hissiy obraz dastlab har bir shaxsda alohida, individual ko'rinishda bo'ladi. Masalan, “daraxt” bir kishi uchun “terak” bo'lsa, boshqasi uchun “archa”, yana biri uchun mevali daraxtlar.

Hissiyot va tafakkur faoliyatining yuqori bosqichlarida individual obraz aniq predmetdan uzoqlashib boradi va asl mantiqiy (aqliy) hodisaga aylanadi. Voqelikning bir xilda bunday his va tafakkur etilishi, umumlashgan hamda qisman mavhumlashgan obrazning yuzaga kelishi barcha uchun bir xil kod – ramziy belgi hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu xilda paydo bo'ladigan mantiqiy tuzilmani psixolog N.I. Jinkin “universal predmet kodi – UPK” deb atashni taklif qiladi. Olim bu hodisaning yuzaga kelishini inson miyasining irsiy va nasliy xususiyatlari qatoriga kiritadi. Uning fikricha, aqliy qobiliyat “tushuncha, hukmni yaratadi. Voqelikni tasvirlash va inson faoliyati sababini ko'rsatish uchun turli xulosa va mulohazalarga keladi. Bu mantiqiy harakatlarning bajarilishi shaxsning qaysi til sohibi ekanligiga bog'liq emas. Xuddi shuning uchun ham intellekt (aql) umumiy boshqaruv funksiyasini ijro etadi, bu universal predmet kodi ko'rinishidagi kodlashtirishdir” (Jinkin 1982: 88).

Natijalar va muhokamalar. “Konsept” tushunchasiga so'z munosabati sifatida qarash mumkin bo'lgan shu bilan bir qatorda, mavhum hodisa bo'lganligi sababli uni aynan bir birlikning mavjud bo'lmagan, moddiy ko'rinish aks etmagan, balki ongimiz, tafakkurimiz orqali hosil qiladigan ma'nolar jamlanmasi sifatida baholaymiz. Bu borada M. Raxmatova: “Inson faoliyati davomida to'plangan bilim uning ongida aks etar ekan, bunday

mental reprezentatsiya milliy madaniy faoliyatning aks etishidir”, degan fikrni bayon etadi. [7, 13.] Biroq “konsept” atamasini “ma'no”, “tushuncha” kabi hodisalar bilan bir qatorda qo'yish mumkinligi, shu bilan birgalikda ular aynan bir xil emasligi, o'zaro umumiy va farqli tomonlarini ajratib olish kerakligini unutmashimiz kerak. Bu haqda tilshunos olim Sh. Safarov bu haqda shunday fikrlarni bildiradi: “Ushbu savollarga hozircha to'liq javob topilganicha yo'q va uning topilishi ham gumonli. Gumon tug'ilishining, albatta, sabablari bor. O'zbek tilshunosligida T. Mardiyev o'zining o'ttizga yaqin mualliflik ishlarida aynan konsept tushunchasiga berilgan ta'riflar, xulosalar, nazariyalar haqida ham to'xtalib o'tadi. Olimning fikricha: “Konseptlar, odatda, inson turmush tarzi bilan bog'liq ma'lum tushunchalarni maxsus qoliplarga solish, lisoniy va madaniy mavjudligini belgilashga qaratiladi. Ma'lum bir konsept har bir lingvomadaniyatda o'ziga xos shakllanishga ega sanaladi. Konseptlar, o'z navbatida, so'z ma'nolariga nisbatan keng talqin etiladigan, murakkab tipologik qurilmaga ega.” [6, 36-44]

Konsept va bu bo'yicha olib borilgan ishlar ham talaygina lekin aytib o'tish lozimki o'zbek tilshunosligida bu sohaga oid olib borilgan ishlar maqtanarli darajada emas. Internet sahifalari orqali kuzatishlarimiz natijasida rus tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlar nihoyatda ko'pchilikni tashkil etishining guvohi ham bo'ldik. Rus olimlari tomonidan berilgan ta'riflar, nazariyalar, tasniflar konseptologiya bo'yicha bajarilajak ishlar uchun nazariy asos bo'lsa ajab emas. O'zbek tilshunosligida tahlil va talqin vositasi hamda termin sifatida “konsept” atamasi 1990- yillardan boshlab qo'llanila boshlagan. Bugungi kunga qadar ko'plab olimlar bu borada o'z tadqiqotlarini olib borgan bo'lsa-da, yakdil bir qaror sifatida uning aniq ta'rifini berishgan emas. Konsept zamonaviy tilshunoslikning yadrosi sifatida takomillashib borayotgan tadqiqot sohasidir. U bevosita inson ongi, idroki bilan bog'liq bo'lgan jarayon bo'lib, oliy tafakkur mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Bu tushunchaga juda ko'plab olimlar o'zlarining ta'riflarini berishgan. Birmuncha yangi hisoblangan bu yo'nalish bo'yicha o'zbek tilshunosligida ham tadqiqot ishlari ko'lami ortmoqda. Shu o'rinda Sh. Safarov, N. Mahmudov, T. Mardiyev, E. Mamatov, M. Rahmatova, O. Yusupov, G. Hoshimov kabi olimlarning tadqiqotlarini alohida ta'kidlash joiz.

Bundan tashqari T. Mardiyev “Do'st/friend”, “baxtsizlik”, “mehr-muhabbat”, “yurak” konseptlari bo'yicha ham ilmiy izlanishlar olib borib, tadqiqotlari jarayonida o'zbek va ingliz tili materiallarini o'zaro solishtirgan holatda lingvomadaniy ko'rinishda leksik-semantik, etnik jihatdan tahlil qilib bergan. Xuddi shu yo'nalishda M. M. Rahmatovanning ham filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi “Ingliz, o'zbek va tojik milliy madaniyatida “Go'zallik” konseptining lisoniy xususiyatlari” deb nomlanib, olima

bu tadqiqot ishida ingliz, o'zbek va tojik tillari maqollarida aks etgan "go'zallik konsepti doirasida go'zallik prototip ma'nolarining botiniy go'zallik, zohiriy go'zallik, muhit, hodisa, predmet go'zalliklari kabi aksiologik xususiyatlari asoslab berilgan.

Tilshunos olim O'.Q. Yusupov konsept haqida fikr yuritar ekan, uni shunday ta'riflaydi: konseptni "tashqi yoki ichki dunyodagi biror bir narsa yoki hodisa haqidagi ongimizdagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo'lgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar, ya'ni baholashlardir. Konsept bilan tushunchani aysbergga o'xshatish mumkin. Agar konsept aysberg bo'lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir"[13, 49]. Bu fikrga ham qo'shilish mumkin, chunki aysbergning suvdan chiqib turgan qismi uning suvostidagi qismiga nisbatan anchayin kichik. Demak, biror so'zni konseptual tahlilga tortishda, dastlab, uning lisonda paydo bo'lgan voqelanishi tushuncha deb qaraladigan bo'lsa, chuqurroq kognitiv talqin qilinganda uning yanda

ko'proq mazmuni namoyon bo'laveradi. Konsept so'zni shunchaki anglatgan ma'nosiga qarab emas, uning borliqda ifodalanadigan barcha tushunchalarini, inson idroki bilan bog'liq jihatlarini, lingvomadaniy ko'rinishlarini kognitiv talqinda tahlil etadi.

Xulosa qilib aytganda har qanday holda ham egallangan bilimning shakllanishi va tizimlashtirilishning asosiy vositasi til tizimidir. Tafakkur birligi va mental hodisa sifatida yuzaga keladigan konseptning lisoniy voqelanishi ham nutqiy tafakkur faoliyati natijasidir keyingi yillarda tilshunoslik sohasida paydo bo'layotgan va shakllanayotgan yangi yo'nalishlarning mavjudligi bu sohadagi modernizatsiyalanishning keskin suratlarda ekanligidan dalolat beradi. Jahon tilshunosligiga nazar tashlasak, tilning konseptual tabiatiga bo'lgan talab va bu ko'lamda qilingan ishlar, nazariyalar 80-yillarga kelib birmuncha tanqidlarga uchraydi. Yillar o'tishi bilan esa tadqiqot maydoni kengayib konsept va konseptual sohaga talab va qiziqish ortib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva F. S. Lingvokulturologik tadqiqotlar asoslari. – Toshkent: O'zDJTU nashriyoti, 2020.
2. Achilova Zulxumor. «Ispan tili siyosiy nutqini o'zbek tiliga tarjima qilishda leksik, stilistik qiyinchiliklari va uni yengib o'tish imkoniyatlari.» News of the NUUZ 1.1.5. 2 (2024): 254-256-betlar.
3. Achilova Z.P. Cognitive characteristics of expressions expressing the concept of "Edad" in spanish – "PEDAGOGS" international research journal T. 6. – №. 64. – C. 87-94.
4. Achilova Z.P. "Ispan va o'zbek tilida edad leksemasi ishtirok etgan barqaror iboralar tahlilidagi umumiy va farqli stilistik xususiyatlar". "Global Scientific Review" International Journal. Volume №38 April 2025. C.115-122.
5. Achilova Z. P. «Ispan va o'zbek tillarida "EDAD" tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan ko'chma ma'nolarni idrok etishning milliy o'ziga xos xususiyatlari.» Экономика и социум 5-1 (120) (2024): 71-77.
6. Ачилова, З. П. «Ўзбек таржимачилик мактабининг оғзаки ва ёзма таржима назариясига бағишланган лингвистик тадқиқотлари.» (2023): 225-229.



Shaxlo BAZAROVA,
 Samarqand davlat chet tillar instituti, v.v.b.dotsenti
 shahlobazarova84@gmail.com

O'ZBEK VA KOREYS MADANIYATIDA AYOLLAR ADABIYOTI VA AYOL OBRAZI

Annotatsiya: mazkur maqolada Islom dinida ayolning o'rni, uning ma'naviy va ijtimoiy maqomi, shuningdek, tasavvuf falsafasi va o'zbek adabiyotida ayol obrazining badiiy talqinlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Robiya al-Adaviyya, To'maris, Mehinbonu va Ra'no singari ayollar timsolida ayollarning diniy, ma'rifiy hamda ruhiy kamolot yo'lidagi o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ayol maqomi, Islom, tasavvuf, Robiya al-Adaviyya, ayol obrazi, adabiyot, ma'naviyat.

Аннотация: в статье анализируется роль женщины в исламе, её духовный и социальный статус, а также художественные интерпретации образа женщины в суфийской философии и узбекской литературе. Исследование раскрывает роль женщины на пути к религиозному, образовательному и духовному совершенству через образы таких женщин, как Рабия аль-Адвийя, Тумарис, Мехинбону и Рано.

Ключевые слова: статус женщины, ислам, суфизм, Рабия аль-Адвийя, образ женщины, литература, духовность.

Annotation: this article analyzes the role of women in Islam, their spiritual and social status, and artistic interpretations of women in Sufi philosophy and Uzbek literature. The study explores women's role in achieving religious, educational, and spiritual perfection through the images of women such as Rabia al-Adwiya, Tumaris, Mehinbonu, and Rano.

Key words: status of women, Islam, Sufism, Rabia al-Adwiya, image of women, literature, spirituality.

Kirish. Muqaddas dinimiz Islomda barchaga birdek xitob qilinib, erkak va ayollarga tenglik ila muomala qilingan. Haq-huquqlarida birini boshqasidan ustun qo'yilmagan. Islom ta'limoti ayol sha'nini ulug'laydi. Qur'oni karimning suralaridan biri aynan "Niso", ya'ni "Ayollar" deb nomlanishi hamda unda ayolning mavqeyi, uning hayotdagi o'rni, haq-huquqlari batafsil bayon etilishi ayollarga bo'lgan e'tiborning yorqin misolidir. Alloh taolo ayollarga ona bo'lishdek sharafli va o'ta mas'uliyatli vazifani yuklagan. Ayol kishi, avvalo, Ona sifatida qadrlanadi. Sarvari koinot Muhammad (s.a.v.) "Jannat – onalar oyog'i ostidadir", – deb marhamat qilganlar. Islom shariatida Alloh taoloning kalomida ilm talab qilish musulmonlarning erkag-u ayoliga tegishlidir. Hadisi sharifda "Ilm talabi har bir musulmon uchun farzdir", deyiladi.

Asosiy qism. Odam Atoning yaratilishi – dunyoning yaralishidan keyingi eng buyuk olamshumul hodisa. Lekin birinchi ayol Momo Havvoning yaralishi bilan nainki Odamning, balki Olamning qismatida tub burilish, yangilanish va ilgarilash davri boshlandi.

Naql qilishlaricha, Alloh ayol zotini tuproqdan emas, balki Odam Atoning qovurg'asidan bino qildi. Ayol zoti shu jihatdan erkak zotining ilohiy mulki, omonati bo'lib qoldi. Shu sabab – ularning bir vujudan yaralganligi – dunyoda ayol va erkak zotining boqiy muhabbatini vujudga keltirdi.

Momo Havvo yerga tushganidan beri necha ming-ming zakiy va dono, ishqparast va ishqnafas ayollar kelib ketdi. Birinchi gunohkor (osiya) ayol Momo Havvo edi va birinchi so'fiy ayol ham o'sha zot edi. Chunki Alloh amrini eshitgan, yerda zahmatlar chekib, tavba-tazarru qilib poklangan, dunyoga o'z vujudidan odam farzandlarini tarqatgan ayol U zotidir. Shu sabab odam farzandi ko'nglidagi Allohga bo'lgan ishq, jannat sog'inchi shu ayol tuyg'ularidan yaralib, meros bo'lib qolgandir.

Mumtoz ayollar adabiyoti tahlilida taqvosi, ilm va farzand kamoli yo'lida fidoiylilik ko'rsatgan bir qancha orifa ayollarni ko'rishimiz mumkin. Tasavvuf ilmida so'fiylar deyilganda ko'proq erkaklar nazarda tutiladi, lekin bir qator asarlarda so'fiy ayollar haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Ularning hayot yo'li va taqvosi ibrat qilib ko'rsatilgan. Ayniqsa bunday ayollar o'zining taqvosi sababli erkaklardan ham baland darajada bo'lgan. Musulmon sharqida chinakam e'tiqodi va avliyolik sifatleri bilan diqqat qaratilishi zarur bo'lgan ayollardan biri, shubhasiz, Robiyai Adaviyadir. Bibi Robiyaning o'zidan keyingi musulima ayollarga ta'siri beqiyosdir. Uning shaxsiyati, tasavvufiy qarashlari, u haqdagi naqlar ko'plab ayollarga ibrat va ilhom manbai bo'lib kelgan, xotin-qizlarni ruhiy yuksaklikka chorlab o'tgan. Fariduddin Attorning "Tazkirat ul-avliyo" asarida Bibi Robiya haqida shunday deydi: "U xoslar guruhidan

bo'lgan ixlos masturasi, ishq va ishtiyoqda kuygan, yaqinlik va ehtirosga oshufta edi.

Fariduddin Attorning Bibi Robiya Adaviya to'g'risida keltirgan naqlari shu qadar mashhurki, Hazrat Alisher Navoiy ham "Hayrat ul-abror"da yuqorida keltirilgan naqlni she'riy bayon etadilar.

Olmoniyalik taniqli olimam Annamarie Shimmel xonim "Jonon mening jonimda" nomli kitobida yozadi: "Islom jamiyatida eng katta hurmatga loyiq zot – ayol, aniqrog'i, ona hisoblanadi. Bu hol payg'ambar Muhammad (s.a.v) ning "Jannat – onalarning oyog'i ostidadir", – degan hadisi shariflarida ham yaqqol bayon etilgan. "Islom dini nozil etilgan kundan boshlab hozirgi kungacha taqvodor, o'qimishli va yolg'iz Alloh taoloni sevguvchi ayollar bo'lgan, bor va bo'ladi".¹ Bu hikoya orqali esa islom dini butun musulmon olamiga kirib kelganidan so'ng bunday so'fiy va orifa ayollar juda ko'p dunyoga keldi, lekin bunday ayollar ichida Robiya Adaviya shuhratga sazovor bo'lib, nomi tarixda muhrlanib qoldi.

Yaratilgan ayol obrazidagi qahramon bir vaqtning o'zida ham ona yoki qahramon va sevimli yor timsolini gavdalantiradi. Ayrim yaratilgan obrazlarda erkak qahramonlarida mavjud barcha qahramonlik xususiyatlari ayol obraziga ham singdirilgan. Masalan, xalq og'zaki ijodining qahramonlari hisoblangan To'maris, Zarina, Tug'shoda obrazlarida qahramon,

ona, sevimli yor bilan birga hukmdorlik sifatleri ham ularning timsollarida aks etgan. Keltirib o'tilgan misol feministik qarashlarni to'liq ifodalaydi. Xalq og'zaki ijodi namunalari ayol obrazli qahramonlari Barchinoy, Guloyim, Yunus pari, Misqol pari, Xoldorxon, Gulchehra, Malika ayyor, Gulixiromon va Xon Dalli kabilar ayol qahramonlarga xos bo'lgan sifatlar go'zal, oqila, latofatli va vafodorlik bilan birga, asosan, erkak obrazdagi qahramonlar xislati bo'lgan jasur, kuchli, botir, qo'rqmas va epchillikni ham o'zining obrazida gavdalantirgan. Jumladan, Alpomish dostonida qalmoq alplarining tahdidlaridan qo'rqmay, ularga shart qo'ygan, sadoqatli, g'ururli, go'zal Barchinoy obrazi yoki Go'ro'g'li turkumidagi dostonlardagi mard, jasur, iboli va hayoli Yunus pari, Misqol pari obrazlari feminizm xususiyatlarini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Xalqimizning ham ko'p ming yillik tarixida yurt ozodligi va tinchligi yo'lida yuksak matonat va mardlik namunalari ko'rsatishgan ayollar fenomeni uchraydi. Ayol bo'lishiga qaramay, **malika To'maris vatan uchun jangga kirib bosqinchilarni tor-mor qilgani, kuchli aql-idroki va botirligi bilan dushman qo'shinlariga qaqshatqich zarbalar berib, ozodlik va mustaqillikni himoya qilib, yuksak mardlik va jasorat namunalari ko'rsatganligi bizda cheksiz g'urur, faxr va iftixor tuyg'ularini uyg'otadi. Shuningdek, tarixda**

¹ Fotimaxon Sulaymon qori qizi. Ayol mukarramdin. – T.: Movarounnahr, 2004. 14-16-b.



vatanparvarlik namunasi sifatida nom qoldirgan Qurbonjon dodxoh tarixi yoshlar uchun ibratdir. Qurbonjon dodxoh unvonini olgan birinchi ayol bo'lgan. U rus bosqiniga qarshi kurash vaqtida Po'latxon rahbarligidagi qo'zg'olon yetakchilaridan biriga aylangan. General Skobelov bu qahramon ayol bilan muzokara o'tkazishga shaxsan o'zi boradi. Qurbonjon dodxoh taqdiri ham bizga To'maris tarixini eslatadi. Ularning ikkalasi ham turmush o'rtoqlaridan keyin yurtni munosib boshqargan. Hatto farzand dog'i ham bu ikki ayolni chetlab o'tmagan. To'marisning o'g'li Siparangiz Kir tomonidan o'ldirilgan bo'lsa, o'z vatanini g'animlardan ozod qilishga harakat qilgan Qurbonjon dodxohning o'g'li Qamchinbek Kaufman tomonidan dorga osilgan. O'g'lining qatl qilinayotganini kuzatib turgan Qurbonjon dodxoh "Xayr, qahramon o'g'lim, ota-bobolaring ham vatan ozodligi yo'lida dushman qo'lida halok bo'lgan, shahid o'lmoq bizga merosdir" – deya otini ters burib keta olgan. Bu vatanparvar ayol bugungi kunda mamlakatimiz yoshlari uchun vatanparvarlik, qahramonlik timsoli sifatida g'urur tuyg'usini shakllantiradi.

Har bir qizlarning ismlari va ularning ismlariga monand kasb-hunarlar, iqtidorlarini tavsiflaydiki, Mehinbonu saroyidagi qizlarning ilm-u zakosi naqadar ulug'langanligini ko'rishimiz mumkin. Ularning iqtidori, go'zal xulqi siyratida ham mujassam etganligi ilgari surilgan.

Bu fanlarda bular bir-birdin ahsan,
Yuz ul fanliq aro har qaysi yakfan.

Dilorom–u Dilor–yu Diloso,
Gulandom–u Sumanbo–yu Sumanso.

Parichehra Parizod–u Parivash,
Paripaykar zihi o'n ismi dilkash².

Besh asr muqaddam buyuk Alisher Navoiy o'zining "Saddi Iskandariy" dostonida yetti olimga dono maslahatchi hisoblangan, podshoh Iskandarning onasi Bonu timsolini yaratgan:

Ki: "Bonuki davrondin ogoh erur,
Bilik ichra davr ahlig'a shoh erur"³.

"Mehrobdan chayon" romanining birinchi faslini Qodiriy Solih Mahdum, Nigor oyim, ularning to'ng'ich farzandi Ra'no va "Ra'noning egasiga" bag'ishlangan tasvirlar bilan boshlaydi. O'quvchi Ra'noni ilk marotaba "hovli yuzida ikkita ukasining o'rtasiga tushib, ularning "loy o'yin"iga ishtirok etgani va "yer supurib yotgan soch o'rmlarining tuproqqa belashganidan xabarsiz" bir



holatda ko'radi. Tabiatida hali bolalik saqlanib qolgan, hali bolalik o'yinlariga ishtiyoqi so'nmagan mana shu go'zal qiz o'n yetti yoshni to'ldirib, o'n sakkizga qadam qo'ygan edi. Adib avvaliga go'yo Ra'noni zohiran tanishtiradi. "Ra'no" deb nomlangan yettinchi faslida esa uning botiniy xususiyatlari, ilm darajasidan ham bahs yuritiladi. Ra'no "Savodni otasidan o'qib, o'n to'rt yoshida ibtidoiy maktab programmasi bo'lgan barcha darslarni bitirgan, masalan: diniy qismdan – "Haftiyak", "Qur'on", "Chahor kitob", "So'fi Olloyor", "Maslak ul-muttaqin", adabiyotdan Navoiyning barcha asarlari, "Devoni Fuzuliy", "Layli va Majnun", Amiri, Fazli va shulardek chig'atoy-o'zbek katta shoirlarining, forsdan Xoja Hofiz Sheroziy va Mirzo Bedil; husnixat; insho va boshqalar. Bu kunlarda bo'lsa, bir tomondan qizlarga saboq berib, onasiga ko'maklashsa, ikkinchi tarafdin otasidan qofiya (arab nahv va sarfi) hamda Shayx Sa'diyning "Guliston"idan dars oladi va shuning qatorida o'zi yaxshi ko'rgan chig'atoy-o'zbek shoirlarining badiiy asarlaridan alohida bir majmua tuzib yuridir..."⁴

Lekin bu hali hammasi emas. Ra'noning ko'ngli she'rga ham oshno "o'zicha manzumalar" ham to'qiydi. Demak, bu romanda ayollar obraziga keng e'tibor qaratilganligini kuzatish mumkin. Ijodkor Ra'no obrazi orqali davr ayollarini, qizlarini ilmi bo'lishga, dunyoviy ilmlarning barchasini egallashga loyiqiligini ko'rsatadi.

Jadid adabiyotida ayollar timsoli o'ziga xos hisoblanadi. Bunda o'sha davr tuzumi qattiq qoralanib, ayollarni ilm-ma'rifatga, jaholat botqog'idan chiqishga qaratiladi. Xususan, Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarida Zebi timsoli orqali oydinlashtiramiz. Zebining ilojisizligi o'sha davr ayollari erksizligi sifatida ochib beriladi. Zebi – hurkak ohu kabi go'zal va ilojisiz. Uning qalbi shu qadar tozaki, yomonlik haqida o'ylash nima ekanligini ham tushunib yetmaydi. U insonlarni sevib yashaydi. Razolat to'lib yotgan dunyoga muhabbat ko'zi bilan boqadi, biroq jaholat tozalik va go'zallik

2 Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Саккизинчи том. Фарҳод ва Ширин. - Т., 1986. – Б.272.

3 Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Тўккизинчи том. Садди Искандарий. - Т., 1986. – Б.386.

4 Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. Roman. T.:Navro'z, 2019. – B.23.

bilan kelishmaydi, go'dakday beg'ubor bo'lgani uchun ham bag'ri ifloslik va kirga to'la hayot uni sig'dirmaydi, shudringday toza va chechakday pokiza bo'lgani uchun hayotning shafqatsiz va badbo'y havosida nafasi bo'g'iladi. Zebi ketma-ket baxtsizliklarga uchrasa ham, romanga qanday kirib kelgan bo'lsa, shundayligicha qoladi. Zebining bu holatiga biz taqdiridosh, qismatdosh, darddosh bo'lib, xavotir bilan kuzatamiz. Zebining baxtsizligiga mamlakatdagi zulm-zo'ravonlik sabab ekanligidadir. Cho'lponning asosiy maqsadi ham mavjud tuzimni tag-tomiri bilan o'zgartirish edi. Zebi faqat ayollik latofati va olijanob insoniy fazilatlarini bilangina emas, ayni paytda xush ovozi bilan barchaning e'tiborini tortadi. Ammo ijtimoiy tengsizlik hukmron bo'lgan va ayollar qadr-qimmatini oyoq osti qilingan jamiyatda Zebining orzu-havaslarini yanchiladi. Ajdodlarimiz asrlar davomida ana shu tengsizlikka qarshi ma'rifat bilan kurashdilar. 1920–1930-yillarda avj olib ketgan siyosiy ta'qib o'zbek xalqining boshiga og'ir kunlarni soldi. Ota-bobolarimiz udumlariga eskilik sarqitlari deb, momolarimiz o'g'itlariga bepisandlik, muqaddas qadriyatlarimizga qurol ko'tarishdek nafrat tuyg'ulari har bitta o'zbek xalqini majburan o'ziga tortqilardi. O'zbek xalqi o'zining boy merosi, qadimiy madaniyati, milliy qadriyatlarini hech bir joyda ochiq - oydin gapirolmas, o'z tuyg'ularini yuragida siriligicha saqlab yashaydigan bir davr edi. Bunday paytda yurt taqdiri, farzand kelajagi, vatan ozodligi, inson qadr-qimmatini to'g'risida og'iz ochish boshini dorga tikish bilan barobar edi.

XX asrning ikkinchi yarmida o'zbek adibalari ijodini to'plash, nashr etish, ular to'g'risida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish jiddiy tus oldi. Bunda adabiyotshunos To'xtasin Jalolovning alohida xizmatlarini e'tirof etish zarur. Benazir adib Oybek T.Jalolovning "O'zbek shoiralari" kitobi to'g'risida, jumladan, quyidagilarni alohida ta'kidlaydi: "To'xtasin Jalolov Oktabr inqilobidan ilgari o'tgan o'zbek shoiralari haqida muhim asar yozdi. Shu vaqtga qadar o'zbek adabiyotida o'zbek shoiralari, ularning asarlari, hayotlari deyarli o'rganilmagan. Ular haqida yakunlangan asarlar yo'qdir. Ayrim shoiralari to'g'risida endi-endi adabiyotchilarimiz ishlay boshladilar. Bu huquqsiz, cheksiz jafoga ko'rgan mazluma shoiralarning

asarlari, ularning baxtsiz taqdirleri bo'ronda yo'q bo'lib, unutilib ketgan. T.Jalolov tarix varaqlarini axtara-axtara o'zbek shoiralari haqida qimmatli ma'lumotlar to'pladi. O'zining katta sinchikli tekshirishlari natijasida o'ttizdan ortiq o'zbek shoiralari topdi. Bu g'oyat ajoyib voqeadir.

Xalqimiz o'zbek adabiyoti tarixining yorqin sahifalarini ko'rishga mushtok va bunday asarlarga tashnadir"⁵.

T.Jalolovning mazkur asari o'ziga xos tazkira ko'rinishida bo'lib, unda Zebunnisodan tortib, 1980-yillarga qadar ijod qilgan o'zbek shoiralari ijodigacha qamrab olingan. Ushbu asar adabiyotimiz tarixi, xususan, unda yashab ijod etgan mumtoz shoiralarmiz hayoti, ijodiga oid katta adabiy materiallarni qamrab olganligi bilan muhimdir. Kitobda Zebunniso, Uvaysiy, Nodira, Mahzuna, Muazzamxon, Nozima xonim, Samarbonulardan tashqari nomlari unchalik mashhur bo'lmagan yana o'nlab iqtidor egalari ijodi to'g'risida ilk ma'lumotlar va kuzatishlar amalga oshirilgan.

Xulosa. Darhaqiqat, ijodiy jarayonda ayollar obrazi tasviri bilan ayollar adabiyotini o'ziga xos farqli jihatlari mavjud. O'zbek adabiyotining eng sara asarlari ayollarga bag'ishlangan, ularni madh etgan asarlardir. Shuning bilan birga, o'zbek shoiralari va adibalari, ularning ijodi, adabiy merosi, mahorati ham o'ziga xosdir. O'zbek adabiyotida maktab yaratgan ijodkorlar tomonidan yaratilgan adabiy maktablarning – ayollar adabiyotining shakllanishida o'rni beqiyosdir. XX asr o'zbek adabiyotida mana shunday adabiy maktab yaratgan shoiralari sirasiga shoira Zulfiya adabiy maktabini kiritishimiz mumkin. Chunki shoira Zulfiya adabiy maktabi T.Sodiqova, H.Xudoyberdiyeva, O.Hojiyeva, G.Jo'rayeva, H.Axmedova singari bir qancha iste'dodli shoiralarni yetishtirib berdi. Shubhasiz, adabiy maktab, ijodiy muhitni iste'dodlar yaratadi. Ayni paytda bu muhit yetishib chiqayotgan ijodkorlarning saviyasini belgilaydi. Har bir adabiy maktabning o'rni uning ijodkorlarining iste'dodi orqali baholanishi mumkin. Ayol ijodkorlarning ijodida ayol obrazi, ayol qalbi tasviri o'zgacha tasvirlanadi. Ayol ijodkorlar ayol kishining ruhiyatini erkak ijodkorlardan ko'ra chuqurroq idrok etadi.

5 Ойбек. Сўз боши. Жалолов Т. Ўзбек шоирлари. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – Б.5.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. – М.: Русский язык, 2009.
- 2.Гачев Г.Д. Национальные образы мира. Космо-Психо-Логос. – Москва, 1995.
- 3.Shuxratovna, B. S. (2024). O'ZBEK VA KOREYS MAQOLLARIDA GENDERLIK MASALASI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 83–86.
- 4.Bazarova, S. S. (2022). Saida Zunnunova asarlarida feministik qarashlarning aks ettirilishi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (Special Issue 24), 155–164.

Shahnoza SHERMATOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti assistent-o'qituvchisi
Shahnoza.sher.95@gmail.com

O'ZBEK VA KOREYS TILLARIDA SIFAT SO'Z TURKUMI VA UNING YASALISHI

Annotatsiya: ushbu maqola o'zbek va koreys tillarida sifat so'z turkumi va uning turlariga bag'ishlangan. Sifatning turlari misollar orqali tushuntirilgan.

Kalit so'zlar: *sifat, sifatning turlari, to'g'ri va noto'g'ri sifatlar, sifatning yasalishi, asosiy sifat, ko'makchi sifat.*

Аннотация: в данной статье рассматривается класс прилагательных и его типы в узбекском и корейском языках. Типы прилагательных объясняются на примерах.

Ключевые слова: *прилагательные, типы прилагательных, правильные и неправильные прилагательные, образование прилагательных, основное прилагательное, вспомогательное прилагательное.*

Annotation: this article is devoted to the adjective word class and its types in Uzbek and Korean. The types of adjectives are explained through examples.

Key words: *adjectives, types of adjectives, correct and incorrect adjectives, formation of adjectives, main adjective, auxiliary adjective.*

Kirish. Narsaning belgisini bildirib, qanday? qanaqa? qaysi? kabi so'roqlardan biriga javob bo'ladigan so'zlar turkumi sifat deyiladi. Sifat asosan, otga bog'lanadi va uning belgisini aniqlaydi. Masalan: oq ko'ylak, kuzgi ekin, aqlli qiz, yumshoq non, o'rtancha o'g'il. Bunda belgi bildiruvchi so'z sifatlovchi, uni boshqarib kelgan ot esa sifatlanmish deyiladi. O'zbek tilida sifatlar quyidagi turlarga bo'linadi. Koreys tilida sifat so'z turkumi odam, narsalarning sifatini va holatini bildiradi.

1. 하늘이 매우 높다. Osmon juda baland.

2. 나는 지금 매우 슬프다. Men hozir juda xafaman.

Birinci misoldagi 높다 bu gapning egasi bo'lib kelgan ot so'z turkumi 하늘ning sifatini ko'rsatib, ikkinchi gapdagi 슬프다 ega vazifasida kelgan 나는 ning ruhiy holatini ko'rsatib kelayapti.

Asosiy qism. O'zbek tilida sifatlar ma'no jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

xususiyat bildiruvchi sifatlar: kamtarin, sho'x, ziqna, sodda, yo'rg'a, mehribon;

2) holat bildiruvchi sifatlar: keksa, badavlat, iliq, tinch, salqin, ochiq, xursand;

3) shakl- ko'rinish bildiruvchi sifatlar: gavdali, novcha, qiyshiq, yassi;

4) rang - tus bildiruvchi sifatlar: oq, qora, qizil, pushti;

5) hajm – o'lchov bildiruvchi sifatlar: keng, tor, uzun, yaqin, katta, og'ir;

6) maza - ta'm bildiruvchi sifatlar: nordon, achchiq, bemaza, shirin;

7) hid bildiruvchi sifatlar: muattar, xushbo'y, badbo'y;

8) o'rin va paytga munosabat bildiruvchi sifatlar: kechki, tonggi, kuzgi, bahorgi.

Sifatlar turlicha tasniflanadi. Fe'llarni tasniflashda bo'lgani kabi, ularni morfologik mezonlarga ko'ra 규칙형용사-to'g'ri va 불규칙형용사-noto'g'ri sifatlarga bo'lish mumkin. Ularni vazifaviy mezonlarga ko'ra 본용언-asosiy va보조용언 -ko'makchilarga bo'lish mumkin, masalan, gaplarda mustaqil ravishda predikat vazifasini bajaradi. Ko'makchi vazifasida qo'llangan sifatlar ko'makchi sifatlar deyiladi. Sifatlar predmetning sifati yoki holatlarini bildiruvchi 정상 형용사-sifat, holat sifatlariga va 지시형용사-oldingi belgi sifatlariga ishora qiluvchi ko'rsatish sifatlarga ham bo'linadi.

정상 형용사: 아름답다, 착하다, 푸르다, 빠르다 – Chiroyli, mehribon, ko'k, tez.

지시형용사: 이러하다, 그러하다, 저러하다, 어떠하다, 아무러하다 – bunday, unday, ana unday, qanday, har qanday.

Sifatlar sintaktik va semantik xususiyatlariga ko'ra:

심리형용사 – ruhiy sifatlar,

감각형용사 – sezgi sifatlar,

판단형용사 – hukm (고프다, 아프다, 싫다, 좋다, 싫다) sifatlariga bo'linadi.

Sifatlar, aynan 정상 형용사 – sifat, holat sifatlarini o'zi ikkiga: 주관성 형용사 -subyektiv sifatlar va 객관성 형용사 – obyektiv sifatlarga bo'linadi.

고프다, 아프다, 싫다. 좋다. 싫다. – Och, kasal, yomon, yaxshi, xohlash. So'zlovchining ruhiy holatini ifodalovchi sifat bo'lib, subyektiv sifat deb ataladi

Quyidagilar obyektning xususiyatlarini ifodalaydi va shuning uchun obyektiv sifat deb ataladi.

착하다. 모질다. 아름답다, 성실하다– Mehribon, shafqatsiz, chiroyli, samimiy. Baholash sifatleri.

검다, 달다. 시끄럽다, 거칠다. 차다 – Qora, shirin, shovqinli, qo'pol, sovuq. Sezgini bildiruvchi sifatlar.

같다. 다르다. 낫다 – O'xshash, farqli, yaxshi. Solishtirish sifatleri.

있다. 없다 – Bor, yo'q. Mavjudlikni ifodalovchi sifatlar.

Subyektiv sifatlar ko'pincha o'z predmeti sifatida tajriba oluvchiga ega bo'lsa, obyektiv sifatlar ko'pincha mavzu yoki joylashuvga ega bo'ladi. Bundan tashqari, subyektiv sifatlar 고평한다. 아쁘한다. 싫어한다. 좋아한다 kabi –어하다 bilan birlashadi, lekin obyektiv sifatlar bunday ishlatilmaydi. Iboralarda ishlatilishi mumkin. Subyektiv va obyektiv sifatlarni bir nechta testlar yordamida ajratish mumkin. Ulardan biri, agar ular 지금 – hozir bilan ishlatilishi mumkin bo'lsa, ular subyektiv sifatlardir, ishlatilmasa, ular obyektiv sifatlardir.

나는 지금 배가 고평다. Men hozir ochman.

그는 지금 매우 착하다. U hozir juda chiroyli.

고쁘다 subyektiv sifatdir. Shuning uchun 지금 bilan ishlatilgan. 착하다 ni 지금 bilan ishlatilishi to'g'ri holat emas.

Sifat yasalishi -형용사 파생. So'zning o'zak yoki negiziga sifat yasovchi qo'shimchalar qo'shish orqali narsaning belgisini bildiradigan yangi so'zlar yasash usulidir. Bu otdan sifat yasovchi affikslar: -li: ot asosdan anglashilgan narsaga egalik belgisini anglatadi: miltiqli, uchli; -siz: asosdan anglashilgan narsaga ega emaslik belgisini anglatadi: sutsiz, suvsiz, kuchsiz. be-: bu qo'shimcha -siz affiksining sinonimidir: beminnat, betinim; -no-: ot va sifat turkumiga mansub so'zlardan sifat yasaydi: noo'rin, noto'g'ri. -chan: asosdan anglashilgan xususiyatga moyillik belgisini ifodalovchi sifat yasaydi: ishchan, uyatchan. -chil: asosdan anglashilgan narsa belgisini ifodalaydi: dardchil, epchil. –iy/-viy: asosdan anglashilgan narsaga oidlik, tegishlilik belgisiga ega sifat yasaydi: oilaviy, g'oyaviy. -dor: asosdan anglashilgan narsaga egalik belgisini hosil qiladi: mazmundor, bo'ydor, rangdor; -mand: asosdan anglashilgan narsaga egalik belgisini anglatadi: davlatmand, orzumand; -kor: asosdan anglashilgan xususiyatga kuchli darajada egalik belgisini hosil qiladi: fidokor, naqshinkor; -i: asosdan anglashilgan narsaning millat, joy yoki vaqtga oidligini bildiruvchi sifat yasaydi: qozoqi, qishloqi, bahori. Bulardan tashqari –kash: dilkash, hazilkash, -gar: ishvagar, sitamgar, -chil: dardchil, xalqchil, -don: gapdan, bilimdon, -msiq: qarimsiq, -m qaram, -lom: sog'lom, -qa: qisqa, -lik: ko'rpalik, ko'ylaklik mato, -omuz: hazilomuz, ibratomuz kabi kam unum affikslar orqali ham sifat yasaladi. Fe'l va taqlid so'zlardan sifat yasaydi: sayroqi, buzuqi,

yig'loqi, jizzaki, jirtaki; -kin/-qin/-g'in. Fe'l asosiga qo'shib, holat, xususiyat ma'nosidagi sifat yasaydi: tushkun, jo'shqin, ozg'in; -mon asosdan anglashilgan harakatni bajarish qobiliyati kuchli ekanligini anglatuvchi sifat yasaydi: bilarmon, o'larmon, yeyarmon; -ag'on. Fe'ldan anglashilgan harakatni bajarish qobiliyati kuchli ekanligini anglatuvchi sifat yasaydi: topag'on, bilag'on, chopag'on; -mas. Harakatning inkoriy belgisi bo'lgan sifat yasaydi: yengilmas, o'tmas, qo'rqmas, ajralmas, qaytmas, buzilmas. -ch faqat fe'ldan sifat yasaydi: jirkanch, tinch, shoshilinch, tiqilinch; -qoq/-g'oq: harakatni bajarishga moyilligi kuchli ekanligini anglatuvchi sifat yasaydi: qochqoq, yopishqoq, urushqoq; -ildoq. taqlid so'zlardan sifat yasaydi: likildoq, shaqildoq [1:121].

Koreys tilida ham sifat yasalish usullarida ko'p qo'llaniladigan yasovchi qo'shimchalar yasaladigan hosila so'zlarga qisqacha misollar keltiramiz. Quyida keltiriladigan -다랗 qo'shimchasidan tashqari sifatlar asosan, otlar bilan qo'shib yasaladi: -롭: 괴롭다 (yolg'iz), 까다롭다 (murakkab), 새롭다 (yangi), 외롭다 (yolg'iz); -되: 참되다 (rostdan), 복되다 (xursand); -답: 정답다 (do'stona), 참답다 (rostdan). -롭, -되, -답 qo'shimchalari otga qo'shib sifat yasovchi qo'shimchalardir. Bu qo'shimchalar dastlab bitta morfemaning allomorflari bo'lgan, ammo zamonaviy koreys tilida so'zlashuvchilar ularni turli qo'shimchalar sifatida tushunishadi. Biroq, bu qo'shimchalar ko'p ishlatilishi bilan hozirgi koreys tilida ham semantik jihatdan o'xshashdir. -답: 어른답다 (bolalardek), 학생답다 (o'quvchilardek) -스럽: 바보스럽다 (tentakona), 고집스럽다 (qaysarona). 스럽 ham bular ma'no jihatdan o'xshash bo'lib, ot bilan qo'shib, sifat yasovchi qo'shimcha, 롭, -되, -답dan ko'ra samaraliroq bo'ladi. -하: 고요하다 (noyob), 건강하다 (sog'lom), 가득하다 (to'la). -하 qo'shimchasi 고요하다, 건강하다, 가득하다 kabi ot bir qatorda 미끈미끈하다 (silliq), 반질반질하다 (yaltiroq) kabi ravishlarga ham qo'shib, sifat yasaydigan qo'shimcha. -지: 멋지다 (ajoyib), 기쁘지다 (yog'li); -맞: 능글맞다 (ayyor), 익살맞다 (hazilomuz); -쩍다: 괴이쩍다 (g'alati), 미심쩍다 (shubhali); -다랗: 높다랗다 (baland), 좁다랗다 (tor). -지, -쩍, -맞 qo'shimchalari ham ot qo'shib, sifat yasovchi qo'shimchalar bo'lib, unumdorligi unchalik yuqori emas. -다랗 ko'p hollarda u sifat o'zagi bilan qo'shib, yana qayta sifat yasaydi. 가늘다 (yupqa), 길다 (uzun), 높다 (baland), 좋다 (yaxshi) ma'no farqi unchalik katta emas. [4:221].

Qo'shma sifatlarning yasalishi –합성형용사. Turli turkumlarga oid so'z shakllarining tilda mavjud bo'lgan sintaktik qoliplar asosida qo'shilishi orqali bitta belgi

ifodalashga xoslangan yasama sifatlardir. Qo'shma sifatlarning tarkibidagi qismlarning tub yoki yasama ekanligi bilan ham o'zaro farqlanadi. Masalan: 1) ikkala qismi ham tub so'zlardan: xomsemiz, kamgap, nimjon, ommabop, izquvar; 2) tub va yasama so'zlardan tuziladi: sovuqqon, tezoqar, erksevar, ishyoqmas. Bundan tashqari tilimizda qismlari qo'shma sifatlardir zich bog'lanib ketmagan gapga usta, ko'zga yaqin, og'zi bo'sh, qo'li ochiq, bodom qovoq, katta og'iz kabi birikmali murakkab sifatlarning ham mavjud [1:86]. -kam ayrim ot-leksemalarga birikib, shu ot bildirgan narsaning miqdori, o'lchami normaga nisbatan kam darajada ekanini bildiradigan sifatlarning yasaydi. - kamhosil; -rang otlarga qo'shilib shu otlar bildirgan narsaga xos rangni bildiradigan sifatlarning yasaydi. - jigarrang; -sifat otlarga qo'shilib, shaxs yoki narsaning asosdan anglashilgan narsaga o'xshash ko'rinish (tus) ga egaligini (shunday belgini) bildiradigan sifatlarning yasaydi. -darveshsifat; -bop: asosdan anglashilgan narsa uchun juda munosib (muvofoq) ekanlikni bildiruvchi sifatlarning yasaydi: bolabop; -talab: asosdan anglashilgan narsaga talab-ehtiyoj (istak) borlik belgisini bildiruvchi sifatlarning yasaydi: e'tibortalab; -umum: asosdan anglashilgan narsaga butunicha oid, umumiy bo'lgan belgini bildiruvchi sifatlarning yasaydi: umumshahar. [2:104].

Koreys tilida qo'shma sifatlarning qo'shma otlar kabi ko'p emas, tarkibi ham qo'shma otlar kabi xilma-xil emas. Qo'shma sifatlarni ham oldingi elementning gap qismini hisobga olgan holda quyidagicha tasniflash mumkin, chunki keyingi element maxsus holatlardan tashqari sifatlardir. 명사 + 형용사 (ot +sifat) (주어+ 서술어): 값싸다 (arzon), 배부르다 (qorni to'q); 명사 + 형용사 (ot+sifat) (부사어+ 서술어): 눈설다 (notanish), 남다르다 (o'zgacha); 형용사 어간+ 형용사어간 (sifat o'zak+ sifat o'zak): 굳세다 (kuchli), 검붉다 (qoraqizil); 형용사 연결형 (고)+ 형용사 어간 (sifat bog'lovchisi (고)+sifat o'zak): 하고많다 (ko'p); 부사+ 형용사어간 (ravish+sifat o'zak): 잘나다 (yaxshi), 못나다 (xunuk), 다시없다 (noyob); 형용사 연결형 (-어/아)+ 형용사 (동사) 어간 (sifat bog'lovchisi (-어/아)+sifat (동사 fe'l) o'zak): 값아지르다 (juda qimmat), 게을로빠지다 (juda dangasa); 형용사 연결형 (-디, -나)+ 형용사어간 (sifat bog'lovchisi (-어/아)+sifat o'zak): 검디검다 (tim qora), 기나길다 (uzun); 반복어 (takror): 크나크다 (ulkan), 머나멀다 (uzundan uzoq. [3:73].

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, o'zbek va koreys tilida sifatlarning o'xshash jihati bo'lsa-da, lekin farqli jihatlari ko'pligini ko'rib chiqdik. Ayniqsa turlari bir-biridan farq qiladi. Koreys tilida to'g'ri va noto'g'ri sifatlarning bor, lekin bu o'zbek tilida mavjud emas. Yasalish jihatlari ham farq bor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Turniyozov N, Rahimov A.A, O'zbek tili (ma'ruzalar matni). – Samarqand, 2006.196-b.
2. Хожиев А.Ўзбек тили сўз ясаши. – Т., 1989. 109-b.
3. Ким.Чун Шик.корейс тили грамматикаси. – Т., 2007. 175-b.
4. 고영근, 구본관. 우리 말 문법론. 2008.582.
5. 남기심·고영근 “표준국어문법론”. 2011. 534.
6. 최재희. 한국어문법론. 2004. 384.



Gavhar RAXMONOVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI IDIOMLARNI TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH STRATEGIYALARI

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi idiomatik ifodalarni tarjima qilishda uchraydigan semantik va madaniy muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqotda idiomlarning ma'nosini yetkazishda ekvivalentlik, deskriptiv va adaptatsion tarjima strategiyalarining samaradorligi yoritilgan. Ishning ilmiy yangiligi shundaki, unda madaniy konnotatsiyaning tarjima jarayoniga ta'siri tizimli tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *idioma, frazeologizm, tarjima strategiyalari, ekvivalentlik, deskriptiv tarjima, adaptatsiya, madaniy konnotatsiya, semantik tafovut, ingliz-o'zbek qiyosiy tahlil, idiomatik birliklarning tarjimasi.*

Аннотация: в данной статье анализируются семантические и культурные трудности перевода идиоматических выражений узбекского и английского языков. В исследовании рассматриваются эффективность эквивалентного, описательного и адаптационного перевода. Научная новизна работы заключается в системном анализе влияния культурных коннотаций на процесс перевода.

Ключевые слова: *идиома, фразеологизм, стратегии перевода, эквивалентность, описательный перевод, адаптация, культурная коннотация, семантические различия, сопоставительный анализ узбекского и английского языков, перевод идиоматических выражений.*

Annotation: this article analyzes the semantic and cultural difficulties in translating idiomatic expressions between Uzbek and English. The study explores the effectiveness of equivalent, descriptive, and adaptive translation strategies. The scientific novelty lies in a systematic analysis of how cultural connotations influence the idiom translation process.

Key words: *idiom, phraseological unit, translation strategies, equivalence, descriptive translation, adaptation, cultural connotation, semantic difference, Uzbek-English comparative analysis, translation of idiomatic expressions.*

Kirish. Har bir xalq tili uning tarixiy tajribasi, mentaliteti va dunyoqarashini o'zida mujassam etgan murakkab ijtimoiy hodisadir. Tildagi idiomatik birliklar esa shu milliy tafakkurning eng yorqin, obrazli va estetik jihatdan boy ifodasidir. Idiomlar xalq tafakkurining lingvokulturologik mahsuli sifatida faqat leksik ma'no bilan chegaralanmay, balki xalqning ijtimoiy hayoti, urf-odatlarini, qadriyatlarini hamda dunyoni idrok etish tarzini ham ifodalaydi. Shu bois, idiomlarni bir tildan ikkinchi tilga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish ko'pincha semantik va madaniy nomuvofiqliklarga olib keladi.

Zamonaviy tarjimashunoslikda idiomatik ifodalarni tarjima qilish masalasi eng murakkab, shu bilan birga eng dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki idioma oddiy so'z birikmasi emas, balki ramziy, konnotativ va madaniy qatlamlarga ega bo'lgan

tildan tashqari ma'no tizimidir. Ingliz tilidagi "to kick the bucket", "spill the beans" yoki "once in a blue moon" kabi iboralarni o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilish ma'nosiz natijani beradi; ularning asl semantik mazmunini tushunish uchun madaniy asos va kontekstni hisobga olish zarur.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – o'zbek va ingliz tillaridagi idiomlarni tarjima qilish jarayonida uchraydigan asosiy lingvistik hamda madaniy muammolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etishning samarali strategiyalarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot obyekti – ingliz va o'zbek tillaridagi idiomatik birliklar, predmeti – ularning tarjimada qo'llanishi, semantik o'zgarishlari va ekvivalentlik darajasi. Ishning ilmiy yangiligi shundaki, maqolada idiomlarning tarjimasida madaniy konnotatsiyalarni

saqlab qolish, deskriptiv va adaptatsion strategiyalarning samaradorligini qiyosiy tahlil asosida yoritish maqsad qilingan. Shu orqali tarjimashunoslikda idioma tarjimasining kognitiv va lingvokulturologik jihatlari chuqurroq ochib beriladi.

Idiomlarni tarjima qilish masalasining ilmiy muammosi va nazariy asoslari. Zamonaviy tarjimashunoslikda idiomatik birliklar tarjimasini tilshunoslikdagi eng murakkab muammolardan biri sifatida e'tirof etiladi, chunki idioma – bu til tizimidagi barqaror, semantik jihatdan yaxlit va madaniy jihatdan yuklangan birlikdir. Idiomlarning o'ziga xosligi shundaki, ular tildagi so'zlarning oddiy yig'indisi emas, balki ma'no jihatidan o'zaro butunlikni tashkil etuvchi, ko'pincha metafora, metonimiya, xalqona obraz va madaniy stereotiplar orqali shakllangan ifodalardir [1:105].

Ingliz tilidagi *“break the ice”, “let the cat out of the bag”, “hit the nail on the head”* kabi idiomlar o'zbek tilida ham o'xshash funksiyaga ega bo'lgan *“suhbatni boshlamoq”, “sirni fosh etmoq”, “to'g'ri aytmoq”* kabi frazeologizmlar bilan ma'nodosh bo'lishi mumkin. Ammo ularning shakliy tuzilishi, madaniy asoslari va emotsional ohangi jihatidan farq qiladi. Bu esa tarjima jarayonida semantik tafovut va madaniy konnotatsiya muammosini yuzaga keltiradi [2:40, 8:71].

Tadqiqot metodologiyasi va usullari. Mazkur tadqiqotda qo'llanilgan metodlar idiomlarni tahlil qilishning nazariy va amaliy jihatlarni qamrab oladi. Quyidagi yondashuvlar asosiy ilmiy metodlar sifatida tanlangan:

1. Qiyosiy-lingvistik metod.

Bu metod ingliz va o'zbek tillaridagi idiomlarning strukturaviy, semantik va funksional xususiyatlarini solishtirish imkonini beradi. Masalan, *“a piece of cake”* (juda oson narsa) va o'zbekcha *“bola o'yindek ish”* ifodalari semantik jihatdan o'xshash, ammo obraz jihatidan farqli. Bu farqlar til madaniyatining tafakkurdagi aksini ko'rsatadi [6:42].

2. Deskriptiv-tahliliy metod.

Idiomlarning ma'nosi, ishlatilish konteksti va tarjima variantlarini izohlashda qo'llaniladi. Ushbu metod yordamida idiomlarning denotativ (asosiy ma'no) va konnotativ (qo'shimcha, emotsional yoki madaniy ma'no) jihatlari ajratib ko'riladi.

3. Semantik tahlil metodi.

Semantik tahlil idioma tarkibidagi metaforik asos, obrazlilik, emotsional qiymat va kontekstual ma'noni aniqlashga imkon beradi. Bu yondashuv orqali idioma tarjimasida yo'qotiladigan yoki o'zgartiriladigan semantik elementlar qayd etiladi.

4. Lingvokulturologik metod.

Bu metod idioma mazmunidagi madaniy komponentlarni aniqlash va ularni maqsadli til kontekstida moslashtirishga yo'naltirilgan. Masalan, inglizcha *“Born with a silver spoon in one's mouth”* ifodasi Yevropa madaniyatidagi aristokratik merosga ishora qiladi, o'zbek madaniyatida esa bu *“boy oilada tug'ilmoq”* tarzida ifodalanadi.

Tahliliy qism: idiomlarni tarjima strategiyalari va ularning samaradorligi. Tarjimonlar tomonidan idiomlarni tarjima qilishda to'rtta asosiy strategiya qo'llanilishi aniqlangan:

1. To'liq ekvivalent strategiyasi

Bu holatda idioma shaklan va ma'nosan to'liq mos tushadi. Masalan: *“To kill two birds with one stone”* – *“Bir o'q bilan ikki quyovni urmoq.”* Bunday holatlar odatda universal tafakkurga ega konseptlarda uchraydi (masalan, *“bir harakat bilan ikki natijaga erishish”*).

2. Qisman ekvivalent strategiyasi

Idioma ma'nosi mos, ammo obraz yoki shakl o'zgargan bo'ladi. Masalan: *“The apple of one's eye”* – *“Ko'z qorachig'idek aziz.”* Bu strategiya idioma mazmunini saqlaydi, lekin obrazni milliy tafakkurga moslashtiradi.

3. Deskriptiv (izohli) tarjima

Idiomaning metaforik shakli saqlanmaydi, ammo ma'nosi to'liq izohlanadi. Masalan: *“To spill the beans”* – *“Sirni oshkor qilmoq.”* Bu usul ilmiy, rasmiy yoki pedagogik matnlarda afzal hisoblanadi, chunki u ma'noni aniqlik bilan yetkazadi [5:43].

Empirik tahlil va statistik natijalar

Tadqiqot doirasida 120 ta inglizcha idioma va ularning o'zbekcha tarjima variantlari tahlil qilindi. Shulardan:

22 ta (18%) idioma to'liq ekvivalentga ega bo'ldi;

68 ta (57%) idioma qisman ekvivalent bilan tarjima qilindi;

20 ta (17%) idioma deskriptiv tarjima asosida ifodalandi;

10 ta (8%) idioma adaptatsion strategiya bilan o'zgartirildi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, idiomatik birliklarning 75 foizdan ortig'i bevosita ekvivalentga ega emas, bu esa madaniy tafakkur farqlari bilan izohlanadi. Shuningdek, inglizcha idiomlarning 60 foizida metaforik model asosida ma'no shakllanadi, o'zbek idiomlarida esa konkret hayotiy tajriba va xalqona obrazlar ustuvorlik qiladi [6:68].

Tadqiqot natijalari va ularning ilmiy ahamiyati

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, idioma tarjimasida jarayonida quyidagi qonuniyatlar aniqlangan:

1. Idioma tarjimasida madaniy konnotatsiyani saqlash semantik ekvivalentlikdan ko'ra muhimroqdir, chunki

idioma obrazining yo'qolishi uning ma'nosini ham susaytiradi.

2. Inglizcha idiomlarni o'zbek tiliga o'tkazishda adaptatsiya va deskriptiv tarjima eng samarali strategiyalar sifatida namoyon bo'ladi.

3. To'liq ekvivalent idiomlar faqat universal konseptual maydonlarda (masalan, "aql", "mashaqqat", "mehnat", "baxt") mavjud.

4. Tarjimonning madaniy kompetensiyasi idioma tarjimasining sifatini belgilovchi eng muhim omillardan biridir.

5. Idiomatik tarjima jarayoni kognitiv tafakkur, kontekstual sezgirlik va madaniy empatiyani talab etadi [5:24].

Xulosa. Tadqiqot davomida o'zbek va ingliz tillaridagi idiomatik ifodalarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan lingvistik va madaniy muammolar har tomonlama tahlil qilindi. Qiyosiy-lingvistik, deskriptiv va lingvokulturologik metodlar asosida olib borilgan tahlillar idioma tarjimasining ko'p qatlamli, murakkab jarayon ekanini tasdiqladi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, ingliz va o'zbek tillari turli til oilalariga mansub bo'lishiga qaramay, ularning idiomatik tizimlarida ma'lum darajada umumiy konseptual asoslar mavjud. Biroq, bu umumiylik faqat semantik darajada saqlanib, obrazlilik, emotsional rang va madaniy konnotatsiyalar jihatidan sezilarli farqlar kuzatildi. Aynan shu farqlar tarjima jarayonida asosiy muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev O. (2015). O'zbek va ingliz frazeologizmlarining qiyosiy tahlili. – Toshkent: Fan, 2015.
2. Karimov R. Idiomatik birliklarni tarjima qilish metodlari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti, 2018.
3. Smith, J. English Idioms and their Cross-Cultural Translation. – London: Routledge. 2012.
4. Aliyeva M. Madaniyatlararo tarjimada idiomatik birliklar. – Toshkent: Universitet Nashriyoti, 2020. [4]
5. Baker, M. (1992). In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge.
6. Jalilova, N. O'zbek frazeologizmlari va ularning ingliz tiliga tarjimasini. – Toshkent: Fan va Texnologiya, 2016.
7. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. London: Prentice Hall.
8. Xolmatova, D. Idiomatik ifodalarni tarjimada madaniy moslash. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fan Akademiyasi, 2019.
9. Larson, M. (1998). Meaning-Based Translation: A Guide to Cross-Language Equivalence. New York: University Press.
10. Rakhimov, S. Tarjima va frazeologik birliklar: nazariy va amaliy jihatlar. – Toshkent: Ilm-Fan, 2021.
11. Rakhmonova Gavkhar Nuritdinovna, . (2024). COMPREHENSIVE EXAMINATION OF DERIVATIONAL TECHNIQUES IN UZBEK LANGUAGE. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 5(02), 23–27. <https://doi.org/10.37547/philological-crjps-05-02-05>.
13. Rahmonova Gavhar Nuritdinovna. 2023. "COMPARATIVE ANALYSIS OF DERIVATIONAL PROCESSES IN ENGLISH AND UZBEK VOCABULARY SYSTEMS". Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research 1 (7):30-34. <https://webofjournals.com/index.php/9/article/view/223>

INGLIZ, RUS VA O'ZBEK TILLARIDA YANGI SO'ZLARNING SEMANTIK O'ZGARISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz, rus va o'zbek tillarida yangi so'zlarning semantik o'zgarish mexanizmlari har tomonlama tahlil qilingan. Tadqiqotda global kommunikatsiya va texnologik taraqqiyot natijasida yuzaga kelayotgan neologizmlarning leksik-semantik rivojlanish xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, metafora, metonimiya, kengayish, torayish, amelioratsiya va pejoratsiya kabi semantik jarayonlar misollar asosida tahlil qilindi. Ingliz tilida metaforik kengayishlar, rus tilida semantik adaptatsiya, o'zbek tilida esa semasiya va kalkalash jarayonlari yetakchi omillar sifatida ko'rsatildi. Tadqiqot natijalari zamonaviy neologizmlarning til tizimidagi o'rni va ularning pragmatik ahamiyatini aniqlashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: *neologizm, semantik o'zgarish, metafora, metonimiya, kengayish, torayish, leksik tizim, ingliz tili, rus tili, o'zbek tili, adaptatsiya, mediadiskurs.*

Annotation: this article provides a comprehensive analysis of the mechanisms of semantic change in new words (neologisms) in English, Russian, and Uzbek languages. The study examines how global communication and technological progress influence lexical and semantic development. Metaphor, metonymy, generalization, narrowing, amelioration, and pejoration processes are analyzed through linguistic examples. It is shown that metaphorical extension is more typical in English, semantic adaptation in Russian, while semasia and calquing are dominant in Uzbek. The findings contribute to understanding the role of neologisms in modern linguistic systems and their pragmatic significance in media discourse.

Key words: *neologism, semantic change, metaphor, metonymy, generalization, narrowing, lexical system, English, Russian, Uzbek, adaptation, media discourse.*

Аннотация: в данной статье проводится всесторонний анализ механизмов семантических изменений новых слов (неологизмов) в английском, русском и узбекском языках. В исследовании рассматривается влияние глобальной коммуникации и технологического прогресса на лексико-семантическое развитие языков. Анализируются процессы метафоры, метонимии, расширения, сужения, амелиорации на конкретных примерах. Показано, что для английского языка характерно метафорическое расширение, для русского – семантическая адаптация, а для узбекского – семасия и калькирование. Полученные результаты помогают выявить роль неологизмов в современной языковой системе и их прагматическое значение в медиа дискурсе.

Ключевые слова: *неологизм, семантическое изменение, метафора, метонимия, расширение, сужение, лексическая система, английский язык, русский язык, узбекский язык, адаптация, медиадискурс.*

Kirish (Introduction). Til – bu ijtimoiy hodisa bo'lib, u inson tafakkuri, madaniyati va jamiyatdagi texnologik o'zgarishlarga bevosita javob beradi. Shu sababli, har qanday yangi davrda yangi tushunchalar, yangicha so'z birikmalari va neologizmlar paydo bo'ladi.[13] So'nggi o'n yilliklarda internet, media va global aloqalarning kengayishi tillarning leksik tizimida katta semantik o'zgarishlarga sabab bo'ldi.

Neologizm – bu til tizimiga yangi kirib kelgan yoki mavjud so'zning yangi ma'no kasb etgan shaklidir. [1] Har bir neologizm semantik jihatdan o'zgaradi, bu esa tilning dinamikasini, ya'ni semantik kengayish, torayish, metaforik yoki metonimik o'zgarish jarayonlarini ko'rsatadi.[14] Ingliz, rus va o'zbek tillari global til kontakti jarayonida faol aloqaga kirishgan, bu esa so'zlarning shakl va ma'no jihatidan o'zgarishiga sabab

bo'lmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi – ingliz, rus va o'zbek tillarida yangi so'zlarning semantik o'zgarish mexanizmlarini aniqlash, ularning leksik-semantik rivojlanish yo'nalishlarini tahlil qilishdir. Tadqiqot quyidagi savollarga javob izlaydi:

Ingliz, rus va o'zbek tillarida semantik o'zgarishning asosiy mexanizmlari qanday farqlanadi?

Qaysi tillarda qanday semantik jarayonlar ko'proq uchraydi?

Til kontaktlari neologizmlarning semantik rivojiga qanday ta'sir qiladi?

Metodologiya (Methods). Ma'lumotlar manbalari. Tahlil uchun ingliz, rus va o'zbek tillarida zamonaviy matn korpuslari, internet manbalari, media maqolalar va onlayn neologizm lug'atlaridan foydalanildi:

Ingliz tili: *oxford English Dictionary (OED) va Urban Dictionary;*

Rus tili: *толковый словарь неологизмов русского языка (2021) va rus yangilik portallari;*

O'zbek tili: o'zbek tilining milliy korpusi (O'TMK) va "O'zbek tili lug'ati" (2020).

Tahlil usullari. Tadqiqotda quyidagi usullar qo'llanildi:

Korpus tahlili: so'zlarning kontekstdagi qo'llanish chastotasi va yangi ma'nolarini aniqlash;

Semantik tahlil: ma'nodagi o'zgarishlarni metafora, metonimiya, torayish, kengayish, konnotatsiya asosida aniqlash;[12]

Tillararo taqqoslash: har uch til bo'yicha neologizmlarning o'zaro semantik farqlarini solishtirish.

Natijalar (Results). Ingliz tilida semantik o'zgarish mexanizmlari. Ingliz tili dunyo miqyosidagi texnologik va madaniy innovatsiyalar tilidir. Shu bois neologizmlar asosan metaforik kengayish orqali shakllanadi.[6]

Misollar:

Mouse – dastlab "kemiruvchi jonivor" ma'nosida bo'lgan, keyinchalik "kompyuter sichqonchasi" ma'nosini olgan (metafora).[10]

Cloud – "bulut" ma'nosidan "onlayn saqlash muhiti"ga o'tgan (metafora).

Surfing – "dengizda sirpanish" ma'nosidan "internetda kezish" ma'nosiga kengaydi (metafora).

Metonimiya orqali ham yangi ma'nolar paydo bo'ladi:

Hollywood – "kino sanoati"ni bildiradi (joy nomidan jarayon nomiga o'tish).[2]

The White House – "AQSh hukumati"ni bildiradi (binodan vakolatli muassasaga o'tish).

Generalizatsiya (kengayish):

Holiday – dastlab "holy day" (muqaddas kun) ma'nosida, hozir "dam olish kuni" umumiy ma'nosida ishlatiladi.[9]

Spetsifikatsiya (torayish):

Meat – avval "har qanday oziq" ma'nosida bo'lgan, keyinchalik faqat "go'sht" ma'nosida ishlatiladi.[7]

Konnotatsion o'zgarishlar ham faol:

Nice – eski ingliz tilida "ahmoq" ma'nosida bo'lsa, hozir "yoqimli" ma'nosiga ega bo'lgan (amelioratsiya).[4]

Awful – "ajablanarli" ma'nosidan "dahshatli" ma'nosiga o'tgan (pejoratsiya).

Rus tilida semantik o'zgarish mexanizmlari. Rus tilida so'nggi o'n yilliklarda inglizcha neologizmlar faol kirib kelmoqda. Ular semantik jihatdan adaptatsiya va metafora yo'li bilan o'zgaradi.[17]

Misollar:

Лайк – inglizcha *like* dan olingan; "yoqtirish belgisi" ma'nosida qo'llanadi.

Тролль – dastlab mifologik mavjudot, hozir "internet provokatori".

Гуглить – inglizcha *to google*, "qidiruvda ma'lumot izlamog" ma'nosida.

Rus tilidagi semantik mexanizmlar:

Metafora: *Мышь* – "kemiruvchi" → "kompyuter sichqonchasi".

Metonimiya: *Кремль* – "Rossiya hukumati".

Spetsifikatsiya: *Мессенджер* – "xabar yuboruvchi ilova"dan "Telegram, WhatsApp"ga toraygan.

Adaptatsion semantika: *Селфи, фейк, лайкер* kabi so'zlar rus morfologiyasiga moslashtirilgan.[16]

O'zbek tilida semantik o'zgarish mexanizmlari. O'zbek tili ham global til kontaktlarining faol ishtirokchisiga aylandi. So'nggi yillarda internet va media orqali yuzlab neologizmlar kirib keldi.[11]

Misollar:

Post – avval "xat" ma'nosida, hozir "ijtimoiy tarmoqdagi yozuv" ma'nosida ishlatiladi.

Lenta – ruscha orqali o'tgan, "yangiliklar oqimi" ma'nosini olgan.

Like – "layk" shaklida o'zbeklashgan, "yoqtirmog" ma'nosida.

Trend – "moda, yo'nalish" ma'nosida ishlatiladi.

O'zbek tilida kuzatilgan asosiy semantik mexanizmlar:

Semasiya (yangi ma'no qo'shilishi): "post" va "layk" misolida.

Adaptatsion o'zgarish: "kontent", "blogger", "reels" kabi so'zlarning o'zbek kontekstida o'zga ma'no olish jarayoni.

Metafora: "tarmoq" – avval elektr yoki baliqchilik sohasida ishlatilgan, hozir "internet tarmog'i" ma'nosida.

Konnotatsiya: "onlayn" – zamonaviylik va qulaylik ifodasi sifatida ijobiy konnotatsiyaga ega.[8]

Muhokama (Discussion). Semantik o'zgarish mexanizmlari barcha tillar uchun umumiy bo'lsa-da, ularning faollik darajasi tildan tilga farq qiladi. Ingliz tili global innovatsiyalar markazi sifatida metaforik kengayish orqali yangi ma'nolar yaratadi. Rus tilida esa adaptatsiya va konnotatsion o'zgarishlar yetakchi. O'zbek tilida esa semasiya va kalkalash jarayonlari kuchliroqdir.[15]

Til kontaktlari uch tillar o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi. Masalan, *лайк* so'zi ingliz tilidan rus tiliga, so'ng o'zbek tiliga o'tib, har bir bosqichda ma'nosini o'zgartirgan. Bu holat semantik ko'chish zanjiri (semantic chain transfer) deb ataladi.[3]

Semantik o'zgarish tezligi ham so'zning ishlatilish chastotasiga bog'liq. "Kam ishlatiladigan so'zlar tezroq yangi ma'no oladi" degan qonuniyat – *Law of Innovation Rate* – mavjud.[5]

Xulosa (Conclusion). Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ingliz, rus va o'zbek tillaridagi yangi so'zlarning semantik o'zgarish mexanizmlari murakkab, ammo o'zaro bog'liq. Ingliz tilidagi metaforik kengayishlar rus va o'zbek tillariga bevosita yoki bilvosita ta'sir etadi. O'zbek tili yangi leksik birliklarni tezda o'zlashtiradi, ularni fonetik,

morfologik va semantik jihatdan moslashtiradi. Shu bilan birga, o'zbek tilining ichki so'z yasash mexanizmlari (masalan, "blogchi", "kontent yaratuvchi") ham faol ishlaydi. Kelgusida korpus tahlil asosida bu tillarda neologizmlarning semantik dinamikasini statistik modellar yordamida o'rganish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Blank, A. (1999). Why do new meanings occur? *Historical Semantics and Cognition*, 61–90.
2. Campbell, L. (2013). *Historical Linguistics: An Introduction*. MIT Press.
3. Evert, S., & Hilpert, M. (2020). The dynamics of word meaning change. *Language*, 96(1), 45–80.
4. Geeraerts, D. (2017). *Theories of Lexical Semantics*. Oxford University Press.
5. Hamilton, W. L., Leskovec, J., & Jurafsky, D. (2016). Diachronic word embeddings reveal statistical laws of semantic change. arXiv preprint arXiv:1605.09096.
6. Hollmann, W. B. (2015). *Semantic Change*. Lancaster University Press.
7. Joseph, B. D., & Janda, R. D. (2020). *The Handbook of Historical Linguistics*. Wiley-Blackwell.
8. Khudoyberdiyeva, G. (2022). Semantic features of Uzbek neologisms in media texts. *International Journal of Research Scholars*, 3(2), 34–40.
9. Kiparsky, P. (2018). *The Architecture of Grammar and the Regularity of Semantic Change*. Stanford University.
10. Oxford English Dictionary (2023). Entry: "Mouse". Retrieved from <https://www.oed.com>
11. Sharipova, S. A. Neologizmlarning mediadiskurdagi leksik-semantik va pragmatik xususiyatlari. – Tashkent: 2024. UBS University.
- Sweetser, E. (1990). *From Etymology to Pragmatics: Metaphorical and Cultural Aspects of Semantic Structure*. Cambridge University Press.
12. Traugott, E. C., & Dasher, R. B. (2002). *Regularity in semantic change*. Cambridge University Press.
13. Ullmann, S. (1962). *Semantics: An introduction to the science of meaning*. Oxford: Basil Blackwell.
14. UzResearch Journal (2023). Adaptation of English loanwords in Uzbek and Russian. <https://uzresearchers.com/article/1474>
15. Гловинская, М. Я. (2019). Семантическая адаптация англицизмов в русском языке. *Вопросы языкознания*, 5(3), 122–135.
16. Розенталь, Д. Э. (2021). *Современные неологизмы русского языка*. Москва: Издательство МГУ.

Shaxnoza ZARIPOVA,
SamDCHTI o'qituvchisi,
Zebiniso CHORIQULOVA,
SamDCHTI talabasi

INGLIZ TILI O'QITISHDA AUDIO-VIZUAL VOSITALARNING AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada ta'lim muassasalarida audio-vizual vositalar orqali ingliz tili o'qitish jarayonini yanada samaraliroq qilish masalalari yoritilgan. Yangicha ta'lim texnologiyalarining rivojlanib borishi xorijiy tillarni o'rgatishda keng imkoniyatlarni yaratmoqda. O'quvchilar audio va vizual materiallardan foydalanish orqali eshitish, ko'rish va tushunish qobiliyatlarini bir vaqtda faollashtira olishadi, bu esa tilni tabiiy muhitda o'rganishni osonroq qiladi. Maqolada audio-vizual vositalarning turlari, ularning o'quv jarayonidagi o'rni, afzalliklari hamda ularni qo'llash bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: audio-vizual vositalar, ingliz tili, chet tili o'qitish, multimediya, interaktiv ta'lim, motivatsiya, kommunikativ yondashuv.

Annotation: this article discusses ways to enhance the effectiveness of teaching English in educational institutions through the use of audiovisual aids. The development of modern educational technologies provides broad opportunities for learning foreign languages. By using audio and visual materials, students can simultaneously activate their listening, viewing, and comprehension skills, which facilitates learning the language in a natural environment. The article presents different types of audiovisual aids, their role in the learning process, their advantages, and recommendations for their effective use.

Key words: audiovisual aids, English language, foreign language teaching, multimedia, interactive learning, motivation, communicative approach.

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы повышения эффективности процесса преподавания английского языка в образовательных учреждениях с использованием аудиовизуальных средств. Развитие современных образовательных технологий создает широкие возможности для изучения иностранных языков. Используя аудио и визуальные материалы, учащиеся могут одновременно активизировать навыки восприятия на слух, зрительного восприятия и понимания, что облегчает изучение языка в естественной среде. В статье представлены виды аудиовизуальных средств, их роль в учебном процессе, преимущества, а также рекомендации по их применению.

Ключевые слова: аудиовизуальные средства, английский язык, преподавание иностранного языка, мультимедиа, интерактивное обучение, мотивация, коммуникативный подход.

Kirish. Bugungi globalashib borayotgan davrda xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o'rganish katta talab darajasiga ko'tarilmoqda. Ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ayniqsa, audio-vizual vositalarni qo'llash, o'quv jarayonini samarali tashkil etishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi – ingliz tili o'qitish jarayonida audio-vizual vositalarning samaradorligini tahlil qilish va ularni amaliy qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Audio-vizual vositalar – bu tovush hamda tasvir orqali ma'lumot yetkazuvchi vositalardir. Shu sababli, ingliz tili o'qitish metodikasida audio va vizual vositalarning o'rni Kundan-kunga kengayib bormoqda. Mazkur maqolada ushbu vositalarning afzalliklari, o'quv jarayoniga ta'siri va samarali qo'llash usullari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Ushbu maqola tayyorlanish jarayonida taqqoslash, tahlil qilish, kuzatish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ingliz tili o'qitishda audio va vizual vositalarning ta'siri haqidagi nazariy ma'lumotlar

o'rganildi, o'qituvchilar tajribasi va o'quvchilar fikrlari tahlil qilindi. Shuningdek, maqolada nazariy ma'lumotlardan tashqari, amaliy kuzatish natijalariga ham asoslangan holda xulosa chiqarildi.

Audio-vizual vositalarning mohiyati va turlari

Audio-vizual vositalar – bu tovush (audio) va tasvir (vizual) elementlarini birlashtirgan materiallar hisoblanib, ular yordamida o'quvchilarga tabiiy til muhiti yaratiladi. Bunday materiallar o'quv jarayoniga ko'p sezgi orqali ta'sir etgani tufayli, til o'rganish jarayoni yana ham tabiiy va jonli tus oladi. Ularning asosiy turlari:

Audio materiallar: podkastlar, tinglov mashqlari, qo'shiqlar, intervyular, audio kitoblar;

Vizual materiallar: videodarslar, filmlar, animatsiyalar, slaydlar, infografikalar;

Interaktiv vositalar: interaktiv doskalar, onlayn platformalar (YouTube, BBC Learning English, TED Talks), multimedia dasturlari.

Audio-vizual vositalarning o'quv jarayoniga ta'siri

Audio-vizual vositalar o'quvchilarda tilni tabiiy

tushunish qobiliyatini shakllantiradi. Tovush va tasvir birgalikda ijro qilinganda, o'quvchilarning diqqat-e'tibori kuchayadi, muloqot ko'nikmalari esa tabiiy tarzda rivojlanadi.

Psixologik tadqiqotlardan shuni bilish mumkinki, inson o'zlashtirgan ma'lumotlarining 80 foizini ko'rish, 20 foizini esa eshitish orqali qabul qiladi. Shu bois, o'quvchilarning diqqatini jalb etish, faol ishtirokni ta'minlash uchun o'qituvchi darsda audio-vizual elementlarni oqilona tanlashi lozim. Shunday ekan, audio-vizual materiallardan foydalanish o'quvchilarning eslab qolish darajasini ancha oshiradi.

Amaliy jihatlar. Ingliz tili o'qituvchisi dars vaqtida filmlar, qo'shiqlar, videointervyular, qisqa multafilmlar orqali grammatik va leksik mavzularni osonroq tushuntirishi mumkin.

Misol uchun, "Friends" serialining qisqa sahnalaridan foydalanish orqali talabalarda kundalik nutq, talaffuz, intonatsiya va real kommunikatsiyani rivojlantirish mumkin. Darsning tinglab tushunish bosqichida film yoki serialdan qisqa parcha ko'rsatilib, so'ngra talabalar o'sha sahna asosida rolli o'yin o'ynashsa, bu metod muloqot ko'nikmasini ham faollashtiradi.

Shuningdek, BBC Learning English, Duolingo, TED-Ed kabi onlayn platformalar o'quvchilarga mustaqil ravishda chet tilini o'rganish imkonini beradi. Bunday platformalardan foydalanish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga aniq topshiriqlar berishi, masalan, video asosida savol-javob tayyorlash yoki yangi so'zlarni yozib olish – o'quv jarayonini yanada samarali va unumli qiladi.

O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llanilishi

O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha davlat siyosatida raqamli texnologiyalardan foydalanish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Bugungi kunda ko'plab maktab va oliy ta'lim muassasalarida interaktiv doskalar, multimedia sinflar va onlayn resurslardan foydalanish yo'lga qo'yilgan.

Ammo ayrim hollarda texnik imkoniyatlar yetarli emasligi yoki ba'zi o'qituvchilarning malakasi

yetishmasligi sababli bu vositalarning to'liq salohiyati ochilmayapti. Masalan, ayrim hududiy ta'lim muassasalarida internet tezligi pastligi yoki zarur multimedia qurilmalarining yo'qligi dars jarayonida cheklovlar va kamchiliklar keltirib chiqarmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, audio va vizual vositalar o'quvchilarning esda saqlash, tushunish va nutqiy faolligini sezilarli tarzda oshiradi. Shuningdek, darslar audio-vizual vositalar yordamida yanada qiziqarli bo'ladi va o'quvchilarning darsga bo'lgan ishtiyogi va motivatsiyasi oshadi. Bu usul, ayniqsa, eshitish va ko'rish orqali tez o'rganadigan o'quvchilarda yuqori samaradorlik beradi.

Olingan natijalar avval o'tkazilgan tadqiqotlar bilan hamohangdir. Masalan, Jeremy Harmer (2015) o'z asarlarida dars jarayonida audio-vizual vositalardan foydalanish o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga yordam beruvchi eng samarali yo'llardan biri ekanligini aytib o'tgan. Shuningdek, Brown (2007) va Larsen-Freeman (2011) tomonidan ilgari surilgan fikrlar ham bu tadqiqot natijalarini tasdiqlaydi. O'zbekiston ta'lim tizimida ham audio-vizual vositalardan foydalanish dars sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bilan birga, ayrim hollarda texnik vositalar yetishmasligi dars sifatiga va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kelajakda ham bunday to'siqlar va kamchiliklar bo'lmasligi uchun maqsadli investitsiyalar va o'qituvchilarning malakasini oshirish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqilishi zarur.

Xulosa. Audio-vizual vositalar ingliz tili o'qitishda samaradorlikni oshiradigan muhim metodik materiallardan biridir. Ular nafaqat bilimni mustahkamlaydi, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tinglash, tushunish va muloqot qilish ko'nikmalarini samarali tarzda rivojlantiradi.

Ta'lim jarayonida audio-vizual vositalarni tizimli va maqsadga yo'naltirilgan tarzda foydalanish o'qitish sifatini yuqori bosqichga ko'taradi. Shu bois, har bir xorijiy til o'qituvchisi o'z faoliyatida audio-vizual texnologiyalardan samarali foydalanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.
2. Harmer, J. (2015). The Practice of English Language Teaching. Pearson.
3. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son qarori. 2021-yil. 19-may.
5. Mukhiddinova, N. (2022). "Audio-visual materials in EFL classrooms: benefits and challenges." UzSWLU Journal of Foreign Language Education, №3, 45-49.

Malika XUSAMIDDINOVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Xorijiy tillar ta'limi kafedrasida katta o'qituvchisi

XALQARO BIZNES MULOQOTIDA INGLIZ TILINING AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqola xalqaro biznes muloqotida ingliz tilining strategik ahamiyatini tadqiq qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida malakali mutaxassislar xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh ustunlikka ega bo'lishadi va ingliz tili korporativ madaniyatning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Kalit so'zlar: ingliz tili, xalqaro biznes, korporativ kommunikatsiya, globallashuv, biznes muloqoti, ko'p milliy kompaniyalar, tilning iqtisodiy qiymati.

Аннотация: в статье рассматривается стратегическое значение английского языка в международной деловой коммуникации. Результаты исследования показывают, что специалисты, владеющие английским языком, имеют конкурентное преимущество на международном рынке труда, а английский язык становится неотъемлемой частью корпоративной культуры.

Ключевые слова: английский язык, международный бизнес, корпоративная коммуникация, глобализация, деловое общение, транснациональные компании, экономическая ценность языка.

Annotation: this article examines the strategic importance of English in international business communication. The results of the study show that specialists who are proficient in English have a competitive advantage in the international labor market, and English is becoming an integral part of corporate culture.

Key words: English, international business, corporate communication, globalization, business communication, multinational companies, economic value of language.

Kirish. Yigirma birinchi asr globallashuvining chuqurlashishi bilan xarakterlanadi va bu jarayon xalqaro biznes muloqotida umumiy tilning zarurligini yanada dolzarblashtirmoqda. Bugungi kunda ingliz tili xalqaro biznes arenasida universal muloqot vositasi sifatida tan olingan bo'lib, u nafaqat ona tili sifatida anglofonlar tomonidan, balki butun dunyo bo'ylab milyardlab insonlar tomonidan ikkinchi yoki uchinchi til sifatida qo'llanilmoqda [1]. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi va Jahon Banki kabi nufuzli xalqaro tashkilotlarning rasmiy til siyosatidan tortib, transnatsional korporatsiyalarning ichki korporativ tillarigacha, ingliz tili dominant pozitsiyani egallaydi [2]. Ushbu hodisa tasodifiy emas, balki tarixiy, iqtisodiy va geosiyosiy omillarning murakkab o'zaro ta'sirining natijasidir. Ingliz tilining global biznes tiliga aylanishi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jadallasha boshlagan bo'lib, Amerika Qo'shma Shtatlarining iqtisodiy hegemoniyasi, texnologik innovatsiyalar sohasidagi yetakchiligi va Buyuk Britaniyaning tarixiy-madaniy ta'siri bilan bevosita bog'liqdir [3]. Shuningdek, ingliz tilida malakali bo'lish individual martaba rivojlanishi uchun ham zaruriy shartga aylangan, chunki yuqori lavozimli menejerlik pozitsiyalari ko'pincha xalqaro muloqot qobiliyatini talab qiladi [4].

Metodologiya va adabiyotlar tahlili.

Ushbu tadqiqot kvalitatif metodologiya asosida amalga oshirilgan bo'lib, asosan mavjud ilmiy adabiyotlarning tanqidiy tahlili usulidan foydalanilgan. Crystal [1] ingliz tilining global lingua-frankaga aylanish jarayonini tahlil qilgan ekan, uning tarqalishini to'rtta asosiy omil bilan izohlaydi: demografik ko'rsatkichlar, ona tili

sifatida ingliz tilida so'zlashuvchilarning soni va geografik tarqalishi, xalqaro munosabatlarda rasmiy til sifatidagi maqomi, va madaniy ta'sir kuchi. Neeley [2] esa o'zining fundamental tadqiqotida ko'p milliy kompaniyalarda til siyosatining strategik ahamiyatini ta'kidlaydi va til boshqaruvining samarali modellarini taklif qiladi.

Ingliz tilining iqtisodiy qiymatiga bag'ishlangan tadqiqotlar ham diqqatga sazovordir. Ginsburgh va Weber [5] Yevropa kontekstida tilning iqtisodiy ta'sirini o'rganib, ingliz tilida malakali bo'lish ish haqining o'sishiga va karyera imkoniyatlarining kengayishiga olib kelishini empirik ma'lumotlar asosida isbotlagan. Ularning hisob-kitoblariga ko'ra, ingliz tilida yuqori darajada malakaga ega bo'lish Yevropa mehnat bozorida o'rtacha 10-15 foiz daromad oshishini ta'minlaydi. Xarmon va Louhiala-Salminen [6] nordik mamlakatlar kompaniyalarida ingliz tilining korporativ til sifatida joriy etilishining ta'sirini o'rganib, ijobiy va salbiy oqibatlarni aniqlagan.

Korporativ muloqot va til siyosati masalalari bo'yicha Feely va Harzing [7] muhim hissa qo'shgan bo'lib, ular til to'siqlarining ko'p milliy kompaniyalar faoliyatiga salbiy ta'sirini sistemali ravishda tahlil qilganlar. Fredriksson, Barner-Rasmussen va Piekkari [8] skandinav kompaniyalarida ingliz tilining paradoksal rolini o'rganib, formal ingliz til siyosatiga qaramay, ko'plab xodimlarning ona tillaridan foydalanishda davom etishlarini aniqlagan. O'zbek tadqiqotchilar orasida Begmatov va Yuldashev ingliz tilining O'zbekistonda biznes ta'limi va amaliyotidagi o'rnini tahlil qilib, mahalliy kontekstda til ta'limining samaradorligini oshirish yo'llarini taklif qilganlar [9].

Natijalar va muhokama.

Adabiyotlar tahlili asosida olingan natijalar ingliz tilining xalqaro biznes muloqotida hal qiluvchi rol o'ynashini tasdiqlaydi. Ingliz tili zamonaviy global iqtisodiyotda amaliy zaruriyatdan strategik aktivga aylanib ulgurishini kuzatish mumkin. Ko'p milliy korporatsiyalar ingliz tilini nafaqat muloqot vositasi, balki korporativ madaniyatning asosi va tashkiliy identifikatsiyaning muhim elementi sifatida ko'rib chiqadilar. Masalan, Airbus, Nokia, Renault va Rakuten kabi yirik kompaniyalar ingliz tilini rasmiy korporativ til sifatida e'lon qilgan va barcha ichki hujjatlar, yig'ilishlar va korporativ muloqot ingliz tilida amalga oshirilishini talab qiladilar. Bu qaror strategik jihatdan mantiqiy, chunki u xalqaro jamoalarda muloqot standartizatsiyasini ta'minlaydi, ma'lumot oqimini tezlashtiradi va xalqaro talantlarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ingliz tili bilish darajasi individual va tashkiliy darajada iqtisodiy imtiyozlar bilan bevosita bog'liqdir. Empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida yuqori malakaga ega mutaxassislar mehnat bozorida sezilarli ustunlikka ega bo'lishadi. Ular nafaqat yuqori ish haqi olish imkoniyatiga ega, balki xalqaro loyihalarda ishtirok etish, xorijiy hamkorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish va xalqaro martaba yo'llarini ochish imkoniyatiga ham ega bo'ladilar. Tashkiliy darajada esa, ingliz tilida malakali xodimlar bazasiga ega kompaniyalar xalqaro bozorlarga kirish, strategik ittifoqlar tuzish va global qiymat zanjirlariga integratsiyalashishda raqobatbardosh afzalliklarni qo'lga kiritadilar. Bu holat "til premiyasi" tushunchasini keltirib chiqaradi – ingliz tilida malakali bo'lish uchun sarf qilingan investitsiyalar uzoq muddatli

perspektivada iqtisodiy foyda keltiradi.

Ingliz tilining dominant pozitsiyasi ayrim muammolarni ham keltirib chiqaradi. Til siyosati bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilining korporativ til sifatida majburiy joriy etilishi mahalliy xodimlar orasida norozilik va motivatsiya pasayishiga olib kelishi mumkin. Ona tili ingliz bo'lmagan xodimlar o'zlarini kamsitilgan his qilishlari, professional g'oyalarni to'liq ifoda eta olmaslik tufayli frustatsiya boshdan kechirishlari va natijada tashkilotdan ketishlari mumkin. Shuningdek, ingliz tilida yuqori malakaga ega bo'lish nafaqat til bilim darajasiga, balki madaniy kompetensiyalarga ham bog'liq ekanligi ta'kidlanmoqda. Madaniy tafovutlarni tushunmasdan, faqat tilni bilish muvaffaqiyatli xalqaro biznes muloqotini kafolatlamaydi. Masalan, biznes muzokaralari uslubi, vaqtga munosabat, iyerarxiya va rasmiylik darajasi turli madaniyatlarda tubdan farq qilishi mumkin va bu farqlarni e'tiborga olmaslik biznes bitimlarining muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga olib keladi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot ingliz tilining xalqaro biznes muloqotida hal qiluvchi va ko'p qirrali rol o'ynashini tasdiqladi. Ingliz tili faqat pragmatik muloqot vositasi emas, balki strategik resurs, iqtisodiy qiymatga ega aktiv va korporativ madaniyatning muhim komponenti hisoblanadi. Globallashuv jarayonining chuqurlashishi va xalqaro iqtisodiy integratsiyaning kuchayishi sharoitida ingliz tilining ahamiyati yanada ortib bormoqda. Ko'p milliy korporatsiyalar ingliz tilini korporativ til sifatida qabul qilishda davom etmoqdalar va bu tendensiya kelajakda ham saqlanishi kutilmoqda. Empirik tadqiqotlar ingliz tili malakasining individual va tashkiliy darajada iqtisodiy samaradorlikka ijobiy ta'siri borligini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Crystal, D. (2003). *English as a Global Language* (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
2. Neeley, T. (2012). *Global business speaks English*. Harvard Business Review, 90(5), 116-124.
3. Graddol, D. (2006). *English Next: Why Global English May Mean the End of 'English as a Foreign Language'*. London: British Council.
4. Piekkari, R., Welch, D., & Welch, L. (2014). *Language in International Business: The Multilingual Reality of Global Business Expansion*. Cheltenham: Edward Elgar Publishing.
5. Ginsburgh, V., & Weber, S. (2011). *How Many Languages Do We Need? The Economics of Linguistic Diversity*. Princeton: Princeton University Press.
6. Harmon, J., & Louhiala-Salminen, L. (2011). *The language of international business: English?* Tampereen Yliopisto, Working Papers Series, 1-18.
7. Feely, A. J., & Harzing, A. W. (2003). *Language management in multinational companies*. Cross Cultural Management: An International Journal, 10(2), 37-52.
8. Fredriksson, R., Barner-Rasmussen, W., & Piekkari, R. (2006). *The multinational corporation as a multilingual organization: The notion of a common corporate language*. Corporate Communications: An International Journal, 11(4), 406-423.
9. Begmatov, E., & Yuldashev, U. (2019). *Ingliz tilining O'zbekistonda xalqaro biznes rivojlanishidagi roli*. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborotnomasi, 4(2), 78-89.
10. Тер-Минасова, С. Г. (2008). *Язык и межкультурная коммуникация*. Москва: Слово.

Shaxnoza TOLIPOVA,
Toshkent Davlat Tibbiyot universiteti
Xorijiy tillar kafedrası o'qıtuvchısı

TIBBIY INGLIZ TILIDA OVQATLANISH ATAMALARINI O'RGATISHNING LINGVISTIK VA KASBIY JIHLTLARI

Annotatsiya: ushbu maqola tibbiy ingliz tilida ovqatlanish terminlarini o'rgatishning lingvistik va kasbiy jihlatlarini tahlil qiladi. So'rovnomı va kuzatuv asosida murakkab terminlarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar hamda vizual vositalar yordamida samaradorlik ko'rib chiqildi. Natijalar integratsiyalashgan yondashuvning talabalar kasbiy tayyorgarligini kuchaytirishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: tibbiy ingliz tili, ovqatlanish atamaları, lingvistik jihlatlar, kasbiy kompetensiya, sog'lom ovqatlanish.

Annotation: this article analyzes the linguistic and professional aspects of teaching nutrition terminology in medical English. Based on surveys and classroom observation, it explores students' difficulties with complex terms and the effectiveness of visual aids. Findings reveal that an integrated approach enhances students' professional competence and supports their readiness for clinical communication.

Key words: medical English, nutrition terminology, linguistic aspects, professional competence, healthy nutrition.

Аннотация: в статье рассматриваются лингвистические и профессиональные аспекты обучения терминам питания на медицинском английском языке. На основе опроса и наблюдений анализируются трудности усвоения сложных терминов и эффективность визуальных материалов. Результаты показывают, что интегрированный подход повышает профессиональную компетентность студентов и готовность к клиническому общению.

Ключевые слова: медицинский английский, терминология питания, лингвистические аспекты, профессиональная компетенция, здоровое питание.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida tibbiy ingliz tili sog'liqni saqlash sohasida ta'lim olayotgan talabalar uchun nafaqat xorijiy adabiyotlarni o'qish, balki xalqaro hamkorlikda samarali muloqot qilish va so'nggi erishilayotgan natija va tajribalar almashinish imkonini ham beradi. Ayniqsa, ovqatlanish va dietologiya bilan bog'liq atamalarni puxta o'zlashtirish shifokorlar, hamshiralar hamda tibbiyot talabalari uchun kasbiy kompetensiyani shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki parhezshunoslik, klinik ovqatlanish va sog'lom turmush tarzi mavzulari zamonaviy tibbiyotning markazida turibdi.

Ovqatlanish atamalarini o'rgatish jarayonida ikki asosiy omil ajralib turadi: lingvistik jihat – terminlarning

tuzilishi, ma'no sohalari va tarjimasi; kasbiy jihat – talabalarning kelajakdagi amaliy faoliyatida bemorlar va hamkasblar bilan bo'ladigan muloqotda bu atamalardan to'g'ri va o'rinli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

Shu bois ushbu maqola tibbiy ingliz tilida ovqatlanish atamalarini o'qitishning lingvistik va kasbiy o'ziga xosliklarini tahlil qilishga bag'ishlanadi.

Asosiy qism. Metodologiya. Maqolada tavsifiy-tahliliy metod qo'llanilishi eng muqobil yo'l deb topildi. Binobarin tavsifiy metod tilshunoslikda keng qo'llaniladigan usul bo'lib, til birliklarini bevosita kuzatish va tahlil qilishga asoslanadi [1]. Avvalo, ilmiy manbalar asosida ovqatlanish bo'yicha 50 ta asosiy tibbiy inglizcha termin tanlab olindi [2;3]:

Asosiy makronutrientlar	Asosiy mikronutrientlar	Oziq-ovqat va metabolizm atamaları	Klinik va kasbiy terminlar	Ovqatlanish strategiyaları va klinik yondashuvlar
Carbohydrates Proteins Fats Saturated fats Unsaturated fats Trans fats Omega-3 fatty acids Omega-6 fatty acids Cholesterol Fiber	Vitamins Minerals Vitamin A Vitamin B complex Vitamin C Vitamin D Vitamin E Vitamin K Calcium Iron	Glucose Fructose Lactose Glycemic index (GI) Metabolism Basal metabolic rate (BMR) Energy expenditure Caloric intake Malnutrition Obesity	Body mass index (BMI) Dietary reference intake (DRI) Recommended dietary allowance (RDA) Nutrient deficiency Anemia Osteoporosis Diabetes mellitus Hypertension Cardiovascular disease Eating disorders	Balanced diet Healthy diet Dietary supplements Enteral nutrition Parenteral nutrition Medical nutrition therapy (MNT) Nutritional assessment Food allergy Food intolerance Dietary guidelines

Keyin ularning lingvistik xususiyatlari – semantik maydoni, morfologik tuzilishi va sinonimlari o'rganildi. Tadqiqot jarayonida so'rovnomalar metodidan foydalanildi. Qisqa so'rovnomalar orqali ma'lumot yig'ish ilmiy tadqiqotda talabalar tajribasini o'lchashning samarali usuli deb topildi. Shuningdek, kasbiy jihatdan tibbiyot fakulteti talabalari bilan o'tkazilgan kichik kuzatuv asosida ushbu atamalarining dars jarayonida qo'llanish samaradorligi o'rganildi. Aynan qaysi turdagi terminlar ularga o'zlashtirish jarayonida qiyinchilik tug'dirishi mumkinligi va qaysi turdagilari osonlik bilan o'zlashtirilishi aniqlanadi. So'rovnomalar natijalari asosida qay darajada o'qitish jarayonini takomillashtirish, murakkab terminlarni soddalashtirish yoki ko'proq mashq qilish muhimligi belgilab olindi. Talabalarining qisqa anketalar orqali bergan javoblaridan ovqatlanish terminlarini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklari va foydali jihatlari haqida ma'lumotlar jamlandi.

Natijalar. Bu tadqiqotda 30 nafar talaba ishtirok etdi. Shundan ko'pchilik (65%) 'Carbohydrates', 'Unsaturated fats', 'Glycemic index' kabi murakkab atamalarining talaffuzi va tarjimai qiyinchilik tug'dirishini bildirgan. Shu bilan birga, so'rovnomalar natijalari vitamin va minerallarga oid terminlarni (Vitamin C, Iron, Calcium) osonroq o'zlashtirilishini belgilab berdi. Talabalar so'rovnomada bu terminlar kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida foydali bo'lishini, ayniqsa klinik suhbat va ilmiy maqolalarni o'qishda ahamiyati yuqori ekanini ta'kidlashdi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ovqatlanish atamalarini o'rgatishda ikki asosiy muammo mavjud:

1. Lingvistik murakkablik – terminlarning ko'pchiligi lotin yoki yunon tillaridan kelib chiqqanligi (*glycemic index, carbohydrates*) ularni ingliz tili xorijiy til bo'lgan talabalarga o'zlashtirishda qiyinchilik tug'diradi.

2. Amaliy qo'llanish – talabalar dars jarayonida nazariy ma'nosini o'rganib yodlab olsalar-da, klinik vaziyatda ya'ni amaliyotda so'zlashuv jarayonida atamalardan foydalanishda qiynaladilar.

Bu muammolarni bartaraf etish maqsadida bir nechta maxsus metodik yondashuvlardan foydalanildi:

Pre-reading metodi orqali matndagi terminlarni oldindan ko'rib chiqish talabalarining tushunishini osonlashtirdi. Bu metodda darsning boshlang'ich qismida o'qituvchi "carbohydrate, protein, fat" kabi terminlarni o'quvchilarga ko'rsatadi va qisqacha izoh beradi. Keyin talabalar ushbu terminlarni o'qiladigan matnda tanib olishadi. Oldindan terminlar bilan tanishish matndagi yangi so'zlarni tezroq tushunishga va kontekstdan ajratib olishga yordam beradi.

Peer-assisted learning usuli yordamida talabalar o'zaro atamalarni izohlashda faol bo'ldilar [5]. Bu metodda talabalar juftliklarda ishlashadi, fikr

almashinishadi va bir-biriga ustozlik qilib o'rgatadilar. Biri "BMI" atamasini tushuntiradi, ikkinchisi "caloric intake" ni izohlaydi. Ular bir-biriga savollar berib, so'zlarni oddiy tilda izohlaydilar. Talabalar o'rtasida hamkorlik orqali terminlarni tushuntirish, ularning chuqurroq o'zlashtirilishiga va faol qatnashishiga olib keladi.

Tibbiy ingliz tilida ovqatlanish mavzusida vizual materiallar (jadval, infografika) qo'llanilganda, atamalar tezroq yodda qolishi tasdiqlangan. Vizual materiallar o'qituvchilarga ingliz tilini o'rgatishda yordam beradigan kuchli vositadir [6]. Vizual materiallardan murakkab terminlarni samarali namoyish qilish uchun foydalanish mumkin. Dars davomida vizual materiallardan foydalanishning bir qancha afzalliklari bor: rangli suratlar yordamida talabalar e'tiborini jalb qilish va diqqatini uzoq vaqt ushlab turish, ularni dars davomida faol ishtirok etishi, mavzu bilan shug'ullanishga va materialni o'rganishga yordam berishi. Ruziyeva N. va Nusratova F. larning fikriga ko'ra, o'qituvchilar ham ko'rgazmali tasvirlar o'quvchilarning bilim olishini yaxshilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aynan texnologiyalar qamrovida rivojlanib kelayotgan avlodni diqqatini internet va multimedia texnologiyalarining vizual interfeysi bilan jalb qilish samaraliroq ekan isbotlanib kelmoqda. Shu fikrlarni inobatga olgan holda "Vitamins and Minerals" mavzusida infografika ishlatish eng muqobil tanlov deb topildi. Misol tariqasida "Vitamin A" – ko'rish qobiliyatiga foydali vitamin bo'lgani uchun ko'zga aloqador rasmlardan foydalanish mumkin, "Vitamin D" – suyaklar uchun foydaliligini hisobga olgan holda suyakning yarim kesilgan va yaqinlashtirilgan rasmidan foydalanish mumkin, "Iron" – qon uchun foydaliligini hisobga olgan holda qon tanachalarini rasmidan foydalanish mumkin. Talabalarni rangli jadval va rasmlar orqali yangi murakkab so'zlarni eslab qolishi osonlashadi. Bunda ular terminlarni ma'nosi, ishlatilishi va rasmlar bilan bog'liqligi bilan eslab qolishadi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, lingvistik tahlil va kasbiy kontekstni uyg'unlashtirish talabalarining ovqatlanish bo'yicha terminlarni amalda qo'llash ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirdi.

Xulosa. Tibbiy ingliz tilida ovqatlanish atamalarini o'rgatish faqat lingvistik jarayon emas, balki kasbiy tayyorgarlikning ajralmas qismidir. O'quv jarayonida terminlarning semantik xususiyatlarini tahlil qilish, amaliy klinik vaziyatlarga integratsiya qilish va talabalarni faol o'zaro hamkorlikka jalb etish samarali natija beradi. Kelgusida ovqatlanish terminologiyasini o'qitishda lingvistik-kasbiy integratsiya yondashuvi yanada rivojlantirilsa, talabalar nafaqat atamalarni yod oladilar, balki ularni real kasbiy vaziyatlarda mustaqil qo'llay oladilar.



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tibbiy ingliz tilida ovqatlanish atamalarini o'qitish faqatgina lingvistik bilimlarni kengaytirish emas, balki talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatida samarali muloqot qilishga tayyorlashda ham muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa,

ovqatlanish va dietologiya sohalariga oid terminlarni puxta o'zlashtirish shifokorlar, hamshiralalar va tibbiyot talabalari uchun kasbiy kompetensiyani shakllantirishda zaruriy omildir.

So'rovnomalar natijasiga ko'ra, talabalarda murakkab terminlarning (masalan, glycemik index, unsaturated fats) talaffuzi va semantik mazmunini o'zlashtirishda qiyinchiliklar kuzatildi. Shu bilan birga, vitaminlar va minerallarga oid terminlar (masalan, Vitamin C, Iron, Calcium) tezroq eslab qolindi. Bu esa terminlarning lingvistik murakkabligi va amaliy qo'llanish darajasi ularning o'zlashtirilishiga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatdi.

Tahlil shuni isbotladiki, samarali metodik yondashuvlardan foydalanish (pre-reading, peer-assisted learning, vizual materiallar) talabalar faoliyatini sezilarli darajada yengillashtiradi va o'rganilgan terminlarning amaliy qo'llanishini kuchaytiradi. Xususan, jadval va infografika kabi vizual vositalar murakkab terminlarni tezroq eslab qolishga, ularni obrazli tafakkur orqali mustahkamlashga yordam beradi.

Umuman olganda, lingvistik tahlil va kasbiy kontekstni uyg'unlashtirish ovqatlanish bo'yicha tibbiy inglizcha terminlarni o'qitishda eng muhim metodik yondashuv hisoblanadi. Bu nafaqat nazariy bilimlarni chuqurlashtiradi, balki talabalarni real klinik vaziyatlarda samarali muloqot qilish va kasbiy matnlarni mustaqil o'qish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Nurmonov. 2010 «Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari».
- World Health Organization. (2020). *Healthy diet*. WHO. <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/healthy-diet>
2. Whitney, E., & Rolfes, S. R. (2019). *Understanding nutrition* (15th ed.). Cengage Learning.
3. Athena K., & Erika D. (2020). *Reading Strategies – Previewing*. [https://human.libretexts.org/Courses/City_College_of_San_Francisco/Writing_Reading_and_College_Success%3A_A_First-Year_Composition_Course_for_All_Learners_\(Kashyap_and_Dyquisto\)/03%3A_The_Reading-Writing_Connection/3.03%3A_Reading_Strategies_-_Previewing](https://human.libretexts.org/Courses/City_College_of_San_Francisco/Writing_Reading_and_College_Success%3A_A_First-Year_Composition_Course_for_All_Learners_(Kashyap_and_Dyquisto)/03%3A_The_Reading-Writing_Connection/3.03%3A_Reading_Strategies_-_Previewing)
4. Bugaj, T.J., Blohm, M., Schmid, C. *et al.* Peer-assisted learning (PAL): skills lab tutors' experiences and motivation. *BMC Med Educ* **19**, 353 (2019). <https://doi.org/10.1186/s12909-019-1760-2>
5. Ruziyeva N. Z. & Nusratova F. (2024). Implementation of Visual Materials in Teaching Second Language, 4. <https://interonconf.org/index.php/usa/article/view/11101>

Basoat KIMSANBOYEVA,
(PhD), FarDU tilshunoslik kafedrasida katta o'qituvchisi
basoathon86@gmail.com

ESKI TURKIY TILDA QO'LLANGAN MAVHUM MIQDOR IFODALOVCHI LINGVISTIK VOSITALAR

Annotatsiya: qadimgi turkiy tillarda qo'llangan miqdor ifodalovchi birliklar, xususan, "Devonu lug'oti-t-turk" asarida ma'nosi izohlangan noaniq miqdor ifodalovchi birliklarni tahlil qilish.

Kalit so'zlar: aniq miqdor, noaniq miqdor, morfemik ifodalanish, leksik ifodalanish, sintaktik ifodalanish, morfema, leksema, ko'plik, birlik.

Аннотация: анализ единиц обозначения количества, используемых в древнетюркских языках, в частности единиц обозначения неопределенного количества, значение которых раскрыто в работе "Devonu lug'oti-t-turk".

Ключевые слова: определенное количество, неопределенное количество, морфемное выражение, лексическое выражение, синтаксическое выражение, морфема, лексема, множественное число, единственное число.

Annotation: analysis of units representing quantity used in ancient Turkic languages, in particular, units representing indefinite quantity whose meaning is explained in the work "Devonu lug'oti-t-turk".

Key words: definite quantity, indefinite quantity, morphemic expression, lexical expression, syntactic expression, morpheme, lexeme, plural, singular.

Deskriptiv lingvistikada til tizimiga sathli yondashuvning paydo bo'lishi, tilning ichki tuzilishi fonologik, morfologik, leksik, sintaktik sathlarga ajratilishi va har qaysi til sathining o'ziga xos birliklari mavjudligining e'tirof etilishi til tuzilishini o'rganuvchi alohida bo'limlarning ajralishiga olib keldi. Natijada XX asrning 70-yillaridan boshlab morfemika tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida ajratila boshlandi. Morfemani so'zning tarkibiy qismi sifatida tushunish, shunday birlik sifatida morfemani belgilash va har birining xususiyatlarini yoritish tamoyili o'zbek tilshunosligida hozirgi kungacha davom etyapti.

O'zbek tilida mavjud tadqiqotlarda qo'shimchalar orqali miqdoriy munosabatlarning ifodalanishi morfologiya bo'limi tarkibida o'rganilganligi uchun miqdor ma'nosining bunday ifodalanishini A.G'ulomov morfologik ifodalanish deb atadi [1]. Shu bilan birga, olim qo'shimchalar orqali ifodalangan ko'plik haqida alohida to'xtalgan. Masalan, "gullar"dagi predmet sonining ortiqqligi, "gulimiz"da qaratuvchi shaxs ortiqqligi, "gullatdik"dagi bajaruvchi shaxs ortiqqligi anglashilib turishini aytadi. Xuddi shuningdek, "gul"da predmet miqdorining noaniqligi, "gulim"dagi qaratuvchi shaxsning bittaligini, "gullatdim"dagi ham bajaruvchi shaxsning kamligini, "gullatdim"dagi ham bajaruvchi shaxsning kamligini olim ta'kidlagan ko'plikni hosil qiluvchi -lar, -imiz, -k qo'shimchalariga zid ravishda birlikni hosil qiladi, deyishimiz uch konstant – universal ma'nolar asosida shakllanishini aytib o'tgan edik, ularni quyidagicha tavsiflash mumkin bo'ladi:

1. Aniq (obyektiv) miqdor ma'nosi. Bunda miqdor son yoki birlik, ikkilik ma'nolarini bildiruvchi substantiv vositalar yordamida ifodalanadi: *ikki, olti, (bir) kitob;*



2. Aniqlashtirilgan (subyektiv) miqdor ma'nosi. Bunda

kvantifikatorlar yordamga keladi: *ko'plab, bir qancha, bir nechta;*

3. Mavhum miqdor ma'nosi morfemalar yordamida ifodalanadi: o'zbek tilida *-lar*, ingliz tilida *-s*, rus tilida *-ы* [2].

M.Koshg'ariy "Devonu lug'oti-t-turk" asarida ko'plikning grammatik ko'rsatkichlari sifatida quyidagilarni izohlaydi:

1. *-lär, -lar* qo'shimchasi: *bilgälär* – donolar, *alplar* – pahlavonlar, *qapuğlar* – eshiklar.

2. Ko'plik *-n* qo'shimchasi bilan ham yasalgan.: *oğlan iğlaşdı* – bolalar yig'lashdi, *erän alpı oqıştilar* – mardlar bir-birlarini chorladilar. *Oğlan* va *erän* so'zlari birlik shaklida ham qo'llanilgan: *oğlan suw tökdi* – o'g'lon suv to'kdi (DLT.II.27). *er*  bu so'zni ko'plikda *erän*  shaklida ham qo'llaydilar. Lekin bu hol kam uchraydi va qoidaga xilofdir, chunki ko'plik qo'shimchasi aslida *-lar*, – deydi M.Koshg'ariy (DLT.I.71). M.Koshg'ariyning: "...qoidaga xilof ravishda *erän* so'ziga o'xshash *oğlan* deb ham jam qiladilar, aslida *oğullar* bo'lishi kerak" (DLT.I.68)ligini ta'kidlashidan aytish mumkinki, muallif ko'plik shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha qat'iy *-lar* degan fikrda bo'lgan.

3. Ko'plikning *-t* qo'shimchasi ham uchraydi. Bunday ko'plik *-n* ning *-t* ga o'zgarishi bilan hosil qilingan. *Tägit* so'zi *tägin* (shahzoda) so'zining ko'plik shakli ekanligini M.Koshg'ariy ham aytib o'tgan. aslida bu qul ismidir. So'ng hoqon o'g'illariga laqab bo'lib qoldi. Bu shakldagi ko'plik qoidaga xilofdir [3].

Eski o'zbek tiliga oid yozma manbalarning ayrimlarida, jumladan, "Boburnoma"da tarkibida *-(a) t'-(ä) t* affiksi bo'lgan so'zlar mavjud. Lekin bu so'zlar grammatik ko'plik ma'nosini emas, balki jamlik

tushunchasini bildiradi. Masalan, *tumanat* (birlik shakli: *tuman* – “o’n ming” ma’nosida), *mahallat* (birlik shakli: *mahalla*), *bâg’at* (birlik shakli: *bag*), *aymaqat* (birlik shakli: *aymaq* — urug’-qabila nomi), *begât* (birlik shakli: *beg*), *belükât* (birlik shakli: *beluk* – “bo’lim”, “bo’linma” ma’nosida) [5].

Ko’plik -z affiksi bilan ham yasalgan. Bunga quyidagi so’zlarni misol keltirish mumkin: *merjiz* – yuz, *köküz* – ko’krak, *omuz* – yelka, *mönüz* – shox, *ağiz* – og’iz (uning ikki chakakdan iborat ekanligi nazarda tutilgan). Bunga *köz* so’zini ham misol keltirish mumkin. Solishtirib: *kör* – fe’l (-r – fe’l yasovchi), *köz* (-z – ko’plik qo’shimchasi). Asli bu so’zlarga -z qo’shilishi orqali “ikkilik, juftlik” nazarda tutilmoqda. Biroq turkiy tilda “ikkilik” yo’q. Biror narsaning bittasi birlikda, ikkinchisi qo’shilsa, ko’plikka aylanadi. “Ikkilik” – ko’plik degani. Shunga ko’ra -z affiksi, ikkilik, juftlik yasovchi emas, ko’plik yasovchidir. *Biz* va *siz* olmoshlaridagi z ham ko’plik qo’shimchasi. S.Y.Malovning yozishicha, bu olmoshlar quyidagi usulda hosil bo’lgan: *bi+si=biz* (men+sen=biz); *si+si=siz* (sen+sen=siz) -z qo’shimchasi fe’llarga qo’shib, ularning shaxs va sonini bildiradi. 1884-yilda venger olimi B.Munkachi *siz* olmoshidagi -z ko’plik qo’shimchasi ekanligi haqidagi fikrlarni bildiradi va bu fikrga G.Ramstedt, V.Bang, L.Liget ham qo’shiladi. D.Sinor esa -z qo’shimchasi turkiy tillardagi yagona ko’plik hosil qiluvchi affiks ekanligini aytadi. Bu fikrlarni rad etib, Shcherbak shunday yozadi: “Qadimgi turk tilida ham, turk bobotilida ham ikkilik yoki ko’plik affiksi -z ning mavjud bo’lganligi haqida gapirishga hozircha asos yo’q”. M.Koshg’ariy *siz* olmoshiga alohida to’xtaladi: “*siz* – kattalarni hurmatlash uchun *sen* ma’nosida aytiladigan so’z (chigilcha). Aslida buning ma’nosi *sizlar* demakdir. Kichiklarga sën deyiladi. O’g’uzlar buning teskarisini qo’llaydilar” [3.1]. Demak, chigillarda *siz* olmoshi II shaxs birlik uchun hurmat ma’nosini ifodalash maqsadida qo’llanilgan olmosh ekan. “Devonu lug’oti-t-turk” asarida uchraydigan *sizladi* [3.2], *sizlattim* [3.3] so’z shakllariga berilgan izoh ham bu fikrlarni dalillaydi.

Hozirgi o’zbek tilida *siz* aslida tinglovchi ko’pligidir. Biroq yoshi, martabasi ulug’, hurmati bor kishilarga ham *siz* deb murojaat qilinadi. Birinchisi hurmatni, keyingisi esa yaqinlikni, yosh va darajasi quyi kishilarga bo’lgan munosabatni, kerak bo’lganda salbiy ohangda

hurmatsizlikni, hatto mensimay so’zlashni ham bildiradi.

Demak, hurmatning grammatik ko’rsatkichlaridan biri so’zning ko’plik shaklidir. Tinglovchi va o’zga ko’pligini (*siz, ular*), otlardagi tinglovchilar va o’zgalar egaligini (*sizni, ularni*), fe’llardagi tinglovchilar va o’zga kishilarning harakat va holatini (ya’ni shaxs-sonni) bildiruvchi qo’shimchalar, o’rni bilan hurmatni ham bildiradi. Masalan, *dadamlar, ayimlar* deganda ko’plikni emas, ularga bo’lgan hurmatni ifodalaymiz. Nutq jarayonida hurmat shu qadar kuchliki, hatto hurmatga sazovor kishining ish-harakati va holatiga, unga tegishli narsalarga ham hurmatni bildiruvchi qo’shimcha qo’shib so’zlanadi. Masalan, *dada, avqatini zni yeb alini* gapini olaylik. *Avqat* so’zi otaga tegishli, shuning uchun unga hurmatni bildiruvchi -iz qo’shimchasini qo’shib *avqatini z* deyiladi. Keyingi *yeb al-* fe’li ham otaga qarashli, shuning uchun u ham hurmat shaklida (*yeb alini*). Endi *Dadamlar ishdän kelgänlarida avqatlarini isitib berdim* gapidagi hurmatga e’tibor beraylik. *Dadamlar* so’zidagi -lar otaga bo’lgan hurmatni bildiradi; *kelgänlarida* so’zi ham otaning harakati, shuning uchun ham u hurmat shaklida; *avqat* ham otaga tegishli, shundan kelib chiqib, unga ham -lar qo’shiladi. Endi *isitib berdim* so’zi menga tegishli; shu yerda gapdagi hurmat darajasi bir pog’ona pastga tushadi: unga -lar qo’shimchasi qo’shilmaydi. Ko’plik shakli hurmatni ifoda etganligini Mahmud Koshg’ariy ham ta’kidlagan edi [3.4].

A.G’ulomov -lar qo’shimchasining sintaktik yoki morfologik hodisa ekanligi haqidagi fikrlarga e’tibor qarab, uning so’z yasovchi emasligini, shuningdek, tilshunoslikda nazarda tutilgan turlovchilar qatorida ham bo’la olmasligini ta’kidlaydi. Olim -lar qo’shimchasini so’z yasovchilar qatoriga ham, so’z o’zgartiruvchilar qatoriga ham kiritmaydi. Qo’shimchalar tasnifi so’z yasovchilar, so’z o’zgartiruvchilar sifatida qayd etilgan o’rinlarda, -lar affiksini so’z o’zgartiruvchilar qatorida keltirilib, so’z o’zgartiruvchilarning o’zini sintaktik vazifa bajaruvchi shakllar va sintaktik vazifa bajarmaydigan shakllarga ajratadi. Bu holatda -lar affiksi sintaktik vazifa bajarmaydigan affikslar qatoriga kiritiladi. Affikslar tasnifi so’z yasovchilar, shakl yasovchilar, so’z o’zgartiruvchilar tarzida qayd qilingan keyingi grammatikada A.G’ulomovning o’zi -lar affiksini forma yasovchi affikslar qatoriga kiritadi [1.2]. Har ikki holatda ham -lar affiksining maqomi to’g’ri belgilangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov G’, Shukurov Sh., Mahmudov Q. O’zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent, 2008. 528-b.
2. Sodiqov Q. Turkiy til tarixi. – Toshkent, 2009. 369-b.
3. Фуломов А. Ўзбек тилида кўплик категорияси. Ўздаврнашр:1944.
4. Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғоти-т-турк) [Эжилдлик]. 1-жилд. Нашрга тайёрловчилар: Рустамов А., Болтабоев Х. – Тошкент: MUMTOZ SO’Z, 2016. – 388 б.
5. Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғоти-т-турк) [Эжилдлик]. 2-жилд. Нашрга тайёрловчилар: Рустамов А., Болтабоев Х. –Тошкент: MUMTOZ SO’Z, 2016. – 292 б.

Nigora RUZIYEVA,
 Qarshi Iqtisodiyot va pedagogika universiteti assistent o'qituvchisi
 E-mail: nigora.ruziyeva.88@inbox.ru

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA METAFORALARNING NASRIY MATNLAR ASOSIDA O'RGANILISHI

Annotatsiya: metafora – bu tasvir va hissiyotlarning o'ziga xos mahsuli, chunki kuchli tuyg'u metafora hosil qiladi. U yozuvchi ijodining ajralmas qismi sifatida mavjud bo'ladi, ma'lum bir tuyg'u tafsilotlarini tashkil etuvchi individual tuyg'ular, obyektlar va tushunchalarning obrazli nomlari ifodasidir. Shu ma'noda, Isajon Sulton asarlari metaforaga, obrazga boy, uning romanlari o'ziga xos metaforalarning manbai hisoblanadi. Ular hayot tafsilotlarini aks ettiradi va estetik ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: metafora, majoziy-lingvistik, obraz, lingvistik hodisa, semantik xususiyat, metaforizatsiya, badiiy dizayn.

Аннотация: метафора – это специфическое порождение образов и эмоций, поскольку сильное чувство порождает метафору. Она существует как неотъемлемая часть творчества писателя, является выражением образных наименований отдельных чувств, предметов и понятий, формирующих детали определенного чувства. В этом смысле произведения Исажона Султана богаты метафорами и образностью, его романы являются источником собственных метафор. Они отражают детали жизни и имеют эстетическое значение.

Ключевые слова: метафора, образно-лингвистический, образ, языковое явление, семантический признак, метафоризация, художественное оформление.

Annotation: metaphor is a specific product of images and emotions, because a strong feeling creates a metaphor. It exists as an integral part of the writer's work, is an expression of figurative names of individual feelings, objects and concepts that form the details of a certain feeling. In this sense, the works of Isajon Sultan are rich in metaphors and imagery, his novels are a source of their own metaphors. They reflect the details of life and have aesthetic significance.

Key words: metaphor, figurative-linguistic, image, linguistic phenomenon, semantic feature, metaphorization, artistic design.

Metafora o'zbek tilining so'z boyligi va majoziy vositalarini boyitishda muhim rol o'ynaydi. Metaforaning semantik va stilistik xususiyatlarini ularning turli uslublarda ishlashi bilan aniqlash mumkin. Metaforani badiiy nutqning stilistik kategoriyasi sifatida o'rganish majoziy-lingvistik vositalarni o'rganishda kalit hisoblanadi. Isajon Sulton asarlari yuksak obrazga ega, o'zigagina xos metaforalarning asosiy manbaidir. Ular hayot tafsilotlarini aks ettiradi va estetik ahamiyatga ega. Metaforalarning deyarli barcha semantik va stilistik xususiyatlari, shuningdek, ularning toifalari yozuvchining badiiy matnlarida uchraydi. Yozuvchining badiiy uslubidagi metafora faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish ularning yana bir qancha stilistik xususiyatlarini kashf etishga imkon berdi. Yozuvchining metaforalardan foydalanish tabiati u muayyan voqealarni tasvirlashning qaysi usulini tanlaganiga bog'liq. Tasvir obyektining baholash xususiyatlari, tirik tavsif uchun asosiy majoziy va tasviriy vositalar metafora hisoblanadi.

Metafora Isajon Sultonning badiiy asarlari tilida eng keng tarqalgan hodisadir. Bu so'zning ma'nosini rivojlantirishga va ulardan foydalanish doirasini kengaytirishga yordam beradi. Metafora o'zbek tilining so'z boyligi va majoziy vositalarini boyitishda muhim rol o'ynaydi.

Isajon Sulton o'zbek o'quvchisiga chuqur falsafiy fikrlar, qishloqda ulg'aygan bolalarning intilishlari, o'quvchini o'ylantiradigan, tafakkur qilishga undaydigan asar muallifi sifatida tanilgan. "Boqiy darbadar", "Bilga Xoqon", "Ma'suma", "Alisher Navoiy", "Genetik" va boshqa asarlardagi epik rivoyatlarda o'tmish va hozirgi zamonning juftligi yozuvchining ijodiy uslubiga aylandi. Yozuvchi o'z asarlari personajlarini shiddatli harakat va psixologik vaqt bosimida tasvirlash uchun metaforadan faol foydalanadi.

Ma'lumki, metaforalarning asosiy stilistik funksiyalari badiiy uslubda uchraydi. Biroq, o'zbek tilida nasriy matnlar asosida metaforalar lingvistik hodisa sifatida to'liq va atroflicha o'rganilmagan.

Ushbu ishning dolzarbligi, o'zbek nasriy matnlarida, shu jumladan, Isajon Sulton asarlari matnlarida metafora roli hali o'rganilmaganligi bilan bog'liq. Mazkur ishda Isajon Sultonning badiiy matnlarida metaforadan foydalanish xususiyatlari, badiiy matndagi metaforalarning asosiy stilistik, kognitiv funksiyalari va leksik-semantik aloqalarini aniqlash asosiy vazifalardan biridir. Ma'lumki, metafora tilning barcha uslublarida uchraydi, lekin u yoki bu uslubda turlicha qo'llaniladi. Metaforaning semantik va stilistik xususiyatlarini ularning turli uslublarda ishlashi bilan aniqlash mumkin.

Isajon Sulton o'z qahramonlarining ichki

dunyosining nozik biluvchisi bo'lib, metafora so'zlari va iboralaridan mohirona foydalanadi. Uning romanlari tasvirida so'zni to'g'ri metaforik ishlatish ustuvorlik qiladi. Misol uchun:

Qoq tush mahali baqaterak ostidan zaif bir "puf" yelib o'tadi. U – shu makonning mitti epkini. Terak barglarini bir chayqatadi-yu, ariq bo'yiga o'zini tashlaydi. Yana birini suv shabadasi deydilar. Qayrag'ochdan uzoqqa ketolmay, kambar barglar orasida aylanib esadiganiam bor. Quvvati kuchliroq bo'lgani sababli sal beriroqqa kelib, issiqda qimir etmay turgan jo'xorilarning uzun, sariq hoshiyali yaproqlarini chayqatib o'ynaydi. Ba'zilari yo'llarda sho'xlik qilishadi. Qumoq yo'ldan ketavering-chi. Yo'l o'rtasida yo chetida mitti girdob yasab, tuproq to'zg'itib pirillayotgan quyunchani ko'rib qolasiz. Birozdan keyin o'z-o'zidan tinib, mayda xascho'plarni sochib yuboradi. Yana bir turli shabada tongu shomda bedazorlar tomondan esadi. Saharlab o'sha yoqqa ketib, oqshom iziga qaytsa kerak. Bedazorga yetgunicha tomorqalar uzra yeladi. Qo'shnining ko'zi ko'r laychasi uni sezib, huradi. –Itga o'xshamay o'l, muncha hurasan?–deydi ona unga. Olislardan keladigan qudratli shamol esa tevarakni kulrangga o'zgartirib yuboradi. Balki chang ko'targani uchun samo kul tusiga kirar? Avvaliga ko'klarda yeladi, keyin pastga tushganida benihoya ko'p tovushlar hosil qiladi. Devor boshidagi guvalaklar bo'g'iq guvillaydi. Bo'g'otlardan ham shunaqa sas chiqadi. Darvoza yoriqlaridan kirib hushtak chaladi. Hovlida valishga ilib qo'yilgan tolsavat cho'plari shirillaydi [1].

N.D.Arutyunova "ichki, psixologik holatni tavsiflash uchun odam tashqi dunyodan tasvirlarni oladi" deb yozadi [2].

Yozuvchi ko'pincha estetik ahamiyatga ega

individual, an'anaviy va leksik metaforalardan foydalanadi. Antropomorfik metaforalar: "Terak barglarini bir **chayqatadi-yu, ariq bo'yiga o'zini tashlaydi**" bunda chayqatmoq va o'zini tashlamoq insonga xos bo'lib, shamolga nisbatan qo'llanmoqda.

V.N.Telia ta'kidlaganidek, "Metafora olamning lisoniy manzarasini yaratish vositasi sifatida xizmat qiladi, so'ngra ona tilida so'zlashuvchilarning lug'at bazasida, har doim nafaqat so'zlar ombori sifatida, balki ularning assotsiativ imkoniyati o'laroq xizmat qiladi" [3].

Ma'lumki, ko'plab frazeologik birliklarning ma'nolari badiiy nutqda konkretlashtiriladi, chunki ular ma'lum bir shaxsni, xarakterni tavsiflash yoki ularning xatti-harakatlarining xususiyatlarini yetkazish uchun ishlatiladi.

Metaforani matnga kiritishning teskari usuli turli metaforalar bir xil predmetni turli kontekstlarda ifodalab, ma'nolar polifoniyasini hosil qilishidir [4]. Bundan tashqari, sezilarli ifodali zaryad olib boradi, o'quvchining bu obraz haqidagi chuqur tajribasini aniqlaydi [5].

Xulosa qilganda, Isajon Sultonning badiiy asarlari tahlili metaforalarning deyarli barcha semantik va stilistik hamda kognitiv xususiyatlari, shuningdek, ularning toifalari yozuvchining badiiy matnlarida uchraydi, degan xulosaga kelish imkonini berdi. Uning asarlari metaforalardan foydalanishning yuqori chastotasida ekanini anglatadi.

XXI asr adabiyotida tasvirning an'anaviy mavzulari bilan bir qatorda jamoat hayotidagi o'zgarishlarni aks ettiruvchi yangilari paydo bo'ladi. Bu o'zgarishlar, shuningdek, I.Sulton, o'sha davrning boshqa yozuvchilari singari, inson hayotini o'z ichiga olgan metaforalangan obyektlar doirasining kengayishiga ham ta'sir ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Isajon Sulton. "Genetik", roman va hikoyalar. "Yangi asr avlodi" nashriyoti, – Toshkent, 2018. 2-bet
2. Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс. – Москва, 1990. – С. 45.
3. Телия В.Н. Метафоризация и ее роль в создании языковой картины мира. Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира. – Москва, 1988. – С. 56.
4. Ruziyeva.N.S. Nasriy asarlardagi metaforaning lisoniy tadqiqiga doir (Isajon Sulton romanlari misolida) // "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" xalqaro ilmiy-metodik jurnal.Buxoro. 2022/№6.2.Maxsus son 97-bet <https://interscience.uz>.
5. Комарова, С. С. (2005). Семантическая компрессия в прагматике высказывания: на материале немецкоязычной прессы (Doctoral dissertation, автореф. дис.... канд. филол. наук).

Zebo UMAROVA,
 Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

MADANIYATLARARO MULOQOT MADANIYATIDAGI TURIZM TERMINLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada madaniyatlararo muloqot jarayonida turizm sohasida qo'llaniladigan terminlarning shakllanishi, ularning til tizimidagi o'rni hamda madaniy mazmuni tahlil qilinadi. Turizm sohasida ishlatiladigan terminlar nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega, balki xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirishda, milliy qadriyatlarni o'zaro tushunishda ham muhim rol o'ynaydi. Maqolada ingliz, rus va o'zbek tillarida qo'llaniladigan asosiy turizm terminlarining lingvokulturologik jihatlari solishtirilib, ularning madaniyatlararo muloqotdagi o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: turizm, madaniyatlararo muloqot, terminologiya, lingvokulturologiya, tarjima, kommunikativ kompetensiya, madaniyatlar o'zaro ta'siri.

Annotation: this article analyzes the formation of terms used in the field of tourism within the process of intercultural communication, their role in the language system, and their cultural content. The terms used in tourism are not only significant in economic and social contexts but also play an important role in developing cultural relations between nations and in mutual understanding of national values. The article compares the main tourism terms used in English, Russian, and Uzbek from a linguoculturological perspective and highlights their role in intercultural communication.

Key words: tourism, intercultural communication, terminology, linguoculturology, translation, communicative competence, interaction of cultures.

Аннотация: в данной статье анализируется формирование терминов, используемых в сфере туризма в процессе межкультурной коммуникации, их роль в языковой системе и культурное содержание. Термины, используемые в туризме, имеют не только экономическое и социальное значение, но и важную роль в развитии культурных связей между народами и в взаимопонимании национальных ценностей. В статье сравниваются основные туристические термины, используемые в английском, русском и узбекском языках, с точки зрения лингвокультурологии, и подчеркивается их роль в межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: туризм, межкультурная коммуникация, терминология, лингвокультурология, перевод, коммуникативная компетенция, взаимодействие культур.

Kirish. Globallashuv jarayonida turizm insoniyatni birlashtiruvchi, madaniyatlar o'rtasida o'zaro tushunishni mustahkamlovchi omillardan biri sifatida alohida o'rin tutadi. Turizm sohasida samarali muloqot olib borish uchun nafaqat chet tillarni, balki turli xalqlarning madaniyati, urf-odatlari, milliy qadriyatlarini ham bilish zarur. Shu bois, madaniyatlararo muloqot madaniyati turizm sohasining ajralmas qismiga aylanmoqda. Bugungi kunda turizm sohasi mamlakatimiz iqtisodiy va madaniy taraqqiyotining muhim yo'nalishiga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tomonidan turizmni "iqtisodiyotning strategik tarmog'i" sifatida e'tirof etilishi natijasida bu sohada til, madaniyat va muloqot masalalariga ilmiy e'tibor kuchaydi. Turizm sohasi vakillarining samarali muloqot olib borishi, xorijiy mehmonlar bilan madaniy jihatdan to'g'ri aloqada bo'lishi uchun madaniyatlararo muloqot madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbek olimlari – N. Alimova, D. G'ulomova, M. Jo'rayeva, S. Sodiqova, N. Tursunova va boshqalar o'z tadqiqotlarida turizm tilining shakllanishi, terminlarning tarjima jarayonidagi madaniy xususiyatlari va muloqot madaniyatining o'ziga xos jihatlari ilmiy asoslab berganlar.

Tahil va natija. Madaniyatlararo muloqot – bu turli madaniyat vakillari o'rtasida o'zaro axborot almashinuvi

jarayoni bo'lib, bunda til asosiy vosita hisoblanadi. Har bir tilda o'z madaniyatining izlari, qadriyatlari va mental xususiyatlari mujassam. Turizm sohasi vakillari uchun bu jarayon ayniqsa muhim, chunki ular turli millat vakillari bilan bevosita muloqotda bo'ladilar.

Turizm terminlari zamonaviy lug'at boyligining faol qatlamiga kiradi. Ular ko'p hollarda ingliz tilidan kirib kelgan, masalan:

tour operator – tur operatori,
 check-in – ro'yxatdan o'tish,
 sightseeing – diqqatga sazovor joylarni tomosha qilish,
 all-inclusive – "hammasi kiritilgan" xizmat turi.

Bu terminlar tarjima jarayonida milliy madaniyat va tilga moslashtiriladi. Shu bois, ularning semantik ma'nosini to'g'ri anglash madaniyatlararo muloqot samaradorligini ta'minlaydi.

Turizm terminlarini o'rganishda lingvokulturologik yondashuv muhim o'rin tutadi. Chunki har bir termin faqat leksik birlik emas, balki u orqali milliy qadriyatlar, madaniy tafakkur ifodalanadi. Masalan, "guest" (mehmon) so'zi ingliz tilida xizmat ko'rsatish madaniyatini bildirsa, o'zbek tilidagi "mehmon" so'zi hurmat, ehtirom va bag'rikenglik madaniyatini anglatadi.

Turizm sohasi xodimlari, gidlar, tarjimonlar va turagentlar uchun madaniyatlararo kommunikativ

kompetensiya muhimdir. Bu kompetensiya nafaqat til bilimini, balki madaniyatlar farqini sezish, ijtimoiy me'yorlarni hurmat qilish, madaniy kodlarni to'g'ri talqin etish ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi.

Turizm terminlarini boshqa tillarga tarjima qilishda semantik o'zgarishlar, madaniy moslik va pragmatik tafovutlar yuzaga keladi. Masalan, "resort" so'zi ingliz tilida dam olish maskanini anglatrsa, o'zbek tilida "kurort" deb tarjima qilinadi – bu esa rus tili orqali o'zlashgan variant bo'lib, madaniy jihatdan biroz boshqacharoq konnotatsiyaga ega.

O'zbek tilshunos olimasi N.Alimova "Madaniyatlararo muloqotning lingvokulturologik asoslari" asarida madaniyatlararo muloqotni "turli madaniyat vakillarining tildagi milliy tafakkur orqali o'zaro tushunish jarayoni" deb ta'riflaydi. Unga ko'ra, muloqot faqat til darajasida emas, balki mental, ijtimoiy va qadriyatlar tizimi darajasida ham kechadi. Bu fikr turizm sohasida ham muhim, chunki sayyoh bilan samarali aloqa o'rnatish uchun faqat tilni bilish emas, balki mehmonning madaniyatini his qilish zarur.

D.G'ulomova "Turizm leksikasining o'zbek tilidagi shakllanish xususiyatlari" nomli maqolasida turizm terminlarining aksariyati ingliz va rus tillaridan o'zlashganini qayd etadi. Uning fikricha, "check-in", "tour operator", "booking", "resort", "guide", "visa-free" kabi terminlar milliy til tizimiga kirib, fonetik va semantik moslashuvga uchraydi. Masalan, "resort" – "kurort", "guide" – "gid", "booking" – "bron qilish" shaklida qo'llaniladi.

Bu terminlarning o'zbek tiliga kirib kelish jarayoni faqat tilshunoslik hodisasi emas, balki madaniyatlararo o'zaro ta'sir natijasidir. Shu bois, ularni to'g'ri talqin qilish va o'qitish jarayonida lingvokulturologik yondashuv zarur.

S.Sodiqova "Til va madaniyat integratsiyasi" nomli tadqiqotida har bir termin millat madaniyatining ko'zgu ekanini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, "mehmon", "ziyofat", "sayohat", "tashrif" kabi so'zlar o'zbek tilida nafaqat leksik birlik, balki xalqning mehmondo'stlik, bag'rikenglik, ehtirom madaniyatini ifodalaydi. Shu nuqtayi nazardan,

"guest" va "mehmon" so'zlari bir-biriga to'g'ri tarjima qilinmaydi, chunki ularning madaniy mazmuni farqli.

Bu farq turizm sohasida madaniyatlararo muloqotdagi nozik jihatlarni tushunishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

N.Tursunova o'z tadqiqotida turizm xodimlarida madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirishni o'rganadi. Unga ko'ra, bu kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

til kompetensiyasi (nutqiy malaka);

madaniy kompetensiya (milliy urf-odat va qadriyatlarni bilish);

empatik kompetensiya (boshqa madaniyat vakiliga hurmat bilan yondashish).

Turizm terminologiyasini o'zlashtirish bu kompetensiyani mustahkamlaydi, chunki har bir termin ma'lum madaniy kontekstga ega.

O'zbek tilshunoslari tomonidan so'nggi yillarda turizm terminlarini lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan o'rganishga e'tibor kuchaydi. Masalan, "eco-tourism" (eko-turizm) termini ekologik madaniyatni, "pilgrimage tourism" (ziyosat turizmi) esa diniy-madaniy qadriyatlarni ifodalaydi. Bu terminlar milliy an'analar, urf-odatlar va dunyoqarashni ifoda etuvchi semantik birliklardir.

Xulosa. Madaniyatlararo muloqot madaniyati turizm terminologiyasining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Turizm sohasida samarali muloqot olib borish uchun til bilimidan tashqari, madaniy tafakkur, milliy qadriyatlar va kommunikativ odob qoidalarini ham chuqur o'rganish zarur. Turizm terminlarini lingvokulturologik tahlil qilish ularning ma'no qatlamini kengroq ochishga va madaniyatlararo muloqotni yanada samarali yo'lga qo'yishga xizmat qiladi.

O'zbek olimlarining tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, madaniyatlararo muloqot madaniyatida turizm terminlari nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va psixolingvistika nuqtayi nazaridan ham o'rganilishi zarur. Ular xalqlar o'rtasidagi o'zaro tushunishni ta'minlaydigan, madaniy integratsiyani mustahkamlovchi vositalardir. Turizm sohasida terminlarni o'rganish, to'g'ri tarjima qilish va ularni o'qitish jarayonida lingvokulturologik yondashuvni qo'llash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2019.
2. Alimova, N. Madaniyatlararo muloqotning lingvokulturologik asoslari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2021.
3. G'ulomova, D. Turizm leksikasining o'zbek tilidagi shakllanish xususiyatlari. Filologiya masalalari, (2), 45–52. 2020.
4. Sodiqova, S. Til va madaniyat integratsiyasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
5. Tursunova, N. Turizm sohasida madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish. Til va madaniyat, (1), 33–39. 2022.

Mahliyo JO'RAYEVA,
 Xalqaro innovatsion universiteti o'qituvchisi
 ORCID: 0009-0006-6255-3008
 mjurayeva908@gmail.com

TARZ MAYDONINING YADRO QISMIDAGI TIL BIRLIKLARI TAHLILI

Annotatsiya: maqolada o'zbek tilidagi tarz kategoriyasining funksional-semantik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tarzning nutqdagi ifoda vositalari, uning semantik qatlamlari, shuningdek, paradigmatic va sintagmatik munosabatlari o'rganilgan. Tarz birliklari harakatning kechish usuli, xarakteri va subyektiv baholashdagi roli lingvistik misollar orqali yoritilgan. Tarz kategoriyasining grammatik va semantik birliklar tizimidagi o'rni aniqlanib, ravish, ravishdosh kabi lingvistik birliklar tahlil obyekti sifatida tanlangan. Maydondagi yadro hududagi o'rinlari va funksiyalari badiiy asarlardan olingan misollar yordamida asoslangan.

Kalit so'zlar: maydon, tarz kategoriyasi, funksional-semantik maydon, yadro, periferik, grammatik birliklar, semantik tahlil.

Аннотация: в статье анализируются функционально-семантические возможности категории стиля в узбекском языке. Изучаются средства выражения стиля в речи, его семантические слои, а также парадигматические и синтагматические отношения. На языковых примерах иллюстрируется роль стиливых единиц в способе действия, его характере и субъективной оценке. Определяется место стиливой категории в системе грамматических и семантических единиц, в качестве объекта анализа выбираются такие языковые единицы, как равиш и равишдosh. На примерах из художественных произведений обосновываются место и функции ядра в поле.

Ключевые слова: поле, стиливая категория, функционально-семантическое поле, ядро, периферия, грамматические единицы, семантический анализ.

Annotation: the article analyzes the functional-semantic possibilities of the style category in the Uzbek language. The means of expression of style in speech, its semantic layers, as well as paradigmatic and syntagmatic relations are studied. The role of style units in the method of action, its character and subjective assessment is illustrated through linguistic examples. The place of the style category in the system of grammatical and semantic units is determined, and linguistic units such as ravish and ravishdosh are selected as the object of analysis. The place and functions of the core in the field are substantiated using examples taken from works of art.

Key words: field, style category, functional-semantic field, core, peripheral, grammatical units, semantic analysis.

Kirish. "Maydon" atamasi qator fanlar doirasida mavjud bo'lib, jumladan, **fizikada:**

– fizikaning asosiy tushunchalaridan biri ekanligi, fazodagi taqsimlangan fizik kattaliklarning xususiyatlarini tekshiruvchi nazariya hozirgi vaqtda maydon nazariyasi ekanligi qayd etiladi. **Algebrada:**

– qo'shish, ko'paytirish va ularga teskari amallar – ayirish, bo'lish kiritilgan to'plam sifatida belgilanadi.

Lingvistikada:

– "ma'no" (mazmun) umumiyliги bilan birlashgan va belgilanayotgan hodisalarning tushunchaviy, predmetlik yoki vazifaviy (funktional) o'xshashligini aks ettiruvchi til birliklari (asosan, leksik birliklar) yig'indisi maydon sifatida belgilanadi [1].

Hozirda til (mazmuni) mundarijasini maydon metodi bilan o'rganish eng samarali va qulay metodlardan biri bo'lib qoldi. Maydonlarni leksik-semantik va funksional-semantik maydonlarga ajratishda oppozitiv, komponent tahlil hamda matniy tahlil metodlari o'ziga xos yordam beradi [2].

Demak, "maydon" tushunchasi turli fan sohalarida o'ziga xos mazmunga ega bo'lib, har bir sohada

o'rganilayotgan obyekt va hodisalarning tizimli, tartibli tahlilini amalga oshirish imkonini beradi. Fizikada – fizik kattaliklarning fazodagi taqsimoti, algebrada – arifmetik amallar kiritilgan to'plam, lingvistikada esa – ma'no umumiyliгiga asoslangan birliklar yig'indisi sifatida talqin qilinadi. Xususan, tilshunoslikda bu tushuncha leksik birliklarni semantik va funksional mezonlar asosida o'rganishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola mavzusi lingvistik va semantik jihatdan murakkab bo'lganligi bois turli metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Shu bois maqolada korpusli tadqiqot metodi, jahon tilshunosligida keng qo'llanilayotgan sistem-struktur metodidan va uning tarkibiy qismi bo'lgan komponent tahlil metodlaridan foydalanildi. Turli tilshunoslar tomonidan maydon, uning vositalari, chegarasi, tarkibi kabi masalalar turlicha talqin qilingan. "Funktional-semantik maydon (xususan, A.B.Bondarko tadqiqotlarida) haqida ham fikrlar bo'lib, ularda maydon bir sath doirasidan chiqib, butun tilni qamrab olishi aytiladi" [3]. Ushbu tadqiqotda til birliklarini mazmun asosida guruhlash, ularning o'zaro semantik aloqalarini aniqlash va maydon doirasidagi

o'rnini belgilash maqsadida zamonaviy lingvistik tahlil usullaridan foydalanildi. Asosiy metod sifatida leksik-semantik va funksional-semantik tahlil yondashuvlari tanlandi. Leksik-semantik tahlil orqali so'zlarning ma'no jihatdan o'zaro bog'liqligi, umumiy semantik xususiyatlari va ularning mazmuniy maydonlarga birlashish imkoniyatlari o'rganildi. Funksional-semantik tahlil esa til birliklarining kontekstdagi vazifalari va semantik yuklamasini aniqlash orqali ularning maydon doirasidagi roli va faoliyatini tahlil qilishda xizmat qildi.

Natijalar va muhokamalar. O'zbek tilidagi harakat tarzi shakllari O'zbekiston xalqining o'ziga xos milliy mentaliteti va qadriyatiga doir til xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq hamda shu bilan o'rganishlidir. "Qaysi tilni ko'rmaylik, til qurilishi, tarkibidan qat'i nazar fe'lining funksional-semantik o'rni beqiyos"[4].

O'zbek tilida **holat ravishlari** (arabcha "ḥāl" so'zidan olingan bo'lib, "ahvol", "vaziyat" ma'nolarini bildiradi) harakatning bajarilish usuli, sharoiti yoki psixologik-emotsional holatini ifodalovchi muhim semantik-sintaktik birliklardan hisoblanadi. Bu turdagi ravishlar ko'pincha "qanday?", "qanday qilib?", "qay tarzda?", "qay holatda?" kabi so'roqlarga javob bo'ladi va harakatning qanday vaziyatda amalga oshirilayotganini bildiradi. Ular orqali subyektning ichki kechinmalari, harakatning muhitga bog'liqligi yoki unga nisbatan munosabati aniqlik bilan ifodalanadi. Masalan, *sekin, asta, bemalol, qalban, arang, ochiqchasiga, yakkama-yakka, bafurja, yayov, qat'iyon, qardoshlarcha, piyoda, xomligicha, darhol, birdan, qo'qqisdan, tasodifan, qatorasiga, qushday* kabi ravishlar holatni turli darajada va turli konnotatsiyalarda tasvirlaydi.

Tarz ravishdoshlari tarz kategoriyasi maydonida yadroga yaqin turgan, tarz ma'nosini bevosita ifodalovchi grammatik shakllardan biri hisoblanadi. Ular harakatning qanday bajarilishini ko'rsatish orqali kategoriyaning semantik markazida joylashadi. Masalan, *O'qituvchi muloyim gapirib tushuntirdi.* → *gapirib* – harakatning tarzini ifodalaydi.

Tarz ma'nosidagi so'z birikmalari – bu harakatning

qanday tarzda, uslubda yoki ohangda bajarilganini ifodalovchi, ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan sintaktik birliklardir. Ular gapda fe'l bilan bog'lanib, odatda "qanday?", "qanday qilib?" kabi savollarga javob beradi. Tarz ma'nosini bevosita ifodalovchi grammatik vositalar qatoriga kirmagan bo'lsa-da, bu so'z birikmalari semantik jihatdan tarz kategoriyasiga daxldor hisoblanadi. Shuning uchun ular tarz kategoriyasi maydonida yadroga yaqin qatlamda joylashadi.

Tarz ma'nosidagi so'z birikmalari morfologik jihatdan emas, balki sintaktik yo'l bilan tarz ma'nosini ifodalaydi. Ular asosan ravish va otning, yoki sifat va otning birikmasi asosida yuzaga keladi. Misol uchun, *diqqat bilan* birikmasida "diqqat" ot, "bilan" esa yordamchi so'z bo'lib, birgalikda harakatning ehtiyotkorlik bilan bajarilganini bildiradi: *U diqqat bilan tingladi.* Shuningdek, *beparvo ohangda* birikmasi orqali harakatning qanday ohangda bajarilganini ko'rsatiladi: *U beparvo ohangda gapirdi.*

Xulosa. Xulosa qiladigan bo'lsak, o'zbek tilidagi harakat tarzini ifodalovchi shakllar va vositalar tilning semantik va sintaktik tizimida muhim o'rin tutadi. Tarz ravishlari harakatning qanday usulda yoki qanday sharoitda bajarilishini aniq ko'rsatib, harakatni yanada jonli va mazmunli qiladi. Bundan tashqari, tarz ma'nosidagi so'z birikmalari ham harakatning ohangini, kayfiyatini yoki muhit bilan bog'liqligini ifodalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular o'zining sintaktik tuzilishi orqali harakatning turli jihatlarini ta'kidlaydi va tilga boylik, ifoda imkoniyatlari beradi.

Shuningdek, tarz ifodalovchi vositalarning o'ziga xosligi o'zbek xalqining milliy mentaliteti, qadriyatlari va madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir. Bu esa tilni o'rganishda nafaqat grammatik va leksik jihatlarni, balki xalqning dunyoqarashi va ruhiyatini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Tarz kategoriyasining o'rganilishi tilshunoslikda harakatning funksional-semantik tomonlarini chuqurroq anglashga, so'zlashuv va yozma nutqda mazmunni yanada aniq va jonli ifodalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo'rayeva M. O'zbek tilida tarz maydoni: mag. diss. – Qarshi, 2019. 21-b
2. Iskandarova Sh. Leksikani mazmuniy maydon asosida o'rganish muammolari. – Toshkent, 1998. 24-b
3. G'aniyev A.G., Avliyoqulov A.K., Almardonova G.A. Fizika. I qism. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – Buxoro, 2002. 186-b
4. Mengliyeva M. Aspektuallik tizimi va uning funksional-semantik maydon sifatidagi mohiyati // "Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, 2022-yil. 198-b

Feruza XOLTO'RAYEVA,
 Qarshi Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi
 Xolturayeva92@bk.ru

AGNONIMIYA ANTROPOSENTRIK KATEGORIYA SIFATIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada agnonimiya konsepsiyasi antroposentrik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Agnonimiya inson tafakkurining chegaralari, bilim olishdagi noaniqliklar va madaniy-lingvistik kontekstda shakllangan subyektiv idrok sifatida ko'rib chiqiladi. Antroposentrizm yondashuvi asosida agnonimiyaning inson faoliyati va madaniyatdagi o'rni o'rganiladi.

Kalit so'zlar: *agnonimiya, antroposentrizm, kategoriyalar, idrok, lingvistika, madaniyat.*

Аннотация: в данной статье анализируется понятие агнонимии с антропоцентрической точки зрения. Агнонимия рассматривается как субъективное восприятие, формирующееся в рамках человеческого мышления, неопределённости в процессе получения знаний и культурно-языкового контекста. На основе антропоцентрического подхода изучается роль агнонимии в человеческой деятельности и культуре.

Ключевые слова: *агнонимия, антропоцентризм, категории, восприятие, лингвистика, культура.*

Annotation: this article analyzes the concept of agnomy from an anthropocentric perspective. Agnomy is considered as a subjective perception formed in the limits of human thinking, uncertainties in knowledge acquisition, and cultural-linguistic context. Based on the anthropocentric approach, the role of agnomy in human activity and culture is studied.

Key words: *agnomy, anthropocentrism, categories, perception, linguistics, culture.*

Agnonimiya kategoriyasi mustaqil lingvistik birlik sifatida V.V.Morkovkin tomonidan antroposentrik modellashtirish nuqtayi nazaridan leksik tizim doirasida taklif etilgan. Bu g'oya o'quv leksikografiyasi muammolariga bag'ishlangan konferensiyani ochib beruvchi ma'ruzasida bayon etilgan. Ayni o'sha ma'ruzada agnonim tushunchasiga ta'rif keltirilgan: "Agnonimlar – bu ma'lum tilidagi ko'pgina nutq egalari uchun noma'lum, ko'pchilik uchun tushunarli bo'lmagan yoki umuman tushunarsiz bo'lgan leksik va frazeologik birliklardir, deb qayd etilgan [1]. Shunga ko'ra, o'zbek tilshunosligida ham agnonim "muayyan tilda muloqot qiluvchilar uchun o'sha tildagi *noma'lum, notanish, tushunarsiz* yoki *kam tushunarli* bo'lgan so'zlar agnonimlar degan nom bilan umumlashtiriladi. Shunga ko'ra agnonimlarga til egasidan ma'lum bir so'zning izohi so'ralganda so'zning kontekstda boshqa so'zlar qurshovida umumiy tarzda anglatadigan ma'nosini ayta oladi, ammo so'zning mohiyatini to'liq yoritib berolmaydigan yoki shevaga oid so'zlar, ba'zi bir neologizmlar, atamalar ham agnonim hisoblanadi.

Bundan tashqari, xalq og'zaki ijodida ohangdoshlikni ta'minlash uchun qo'llanilgan, aslida ma'lum bir semaga ega bo'lmagan so'zlarni ham agnonimlar safiga kiritishimiz mumkin. E.O.Savina agnonimlarni aniqlash jarayonida kontekst katta rol o'ynaydi deb hisoblaydi. Masalan, adabiy matnda agnonimlarning mavjudligi har doim ham kommunikativ muvaffaqiyatsizlikka olib kelmaydi. Uning fikricha, kontekstli muhit agnonimlarning semantik mazmunini aktualashtirishga ta'sir qiladi. Matnda tarixiy so'z yoki juda zamonaviy bo'lgan so'zlar ham, shevalardagi so'zlar ham agnonimlik kasb etishi mumkin [6].

O'zbek tilshunosligida M.Yo'ldoshev tomonidan ma'lum leksik-frazeologik birlik agnonim sifatida qabul qilinishi uchun birinchidan, bir tilda so'zlashuvchilarga butunlay tushunarsiz bo'lgani holda iste'molda qaysidir darajada mavjud bo'lishi kerak (Jo'mish (Jo'mish o'kirib biyik

bo'lmas, echki yugurib-kiyik), olato'g'anoq (olato'g'anoq olg'ir bo'lsa ham, qarchig'aydek bo'lmas)); ikkinchidan, bir tilda so'zlashuvchilar tomonidan eshitilgan, lekin to'liq anglanmagan bo'lishi kerak (kvalifikatsiya, emissiya, embargo, rokirovka kabi); uchinchidan, til egasi muayyan so'zni qaysidir sohaga tegishli ekanligidan xabardor, "buni faqat ma'lum bir soha egalrigina biladi" degan fikrda, lekin aniq aytib bera olmagan bo'lsa (gistologiya, aksiologiya, esperanto kabi); to'rtinchidan, til egasi muayyan so'zning qandaydir predmet ekanligini bilgani holda uning aynan nima ekanligini aytib bera olmasa (xantal, ayg'ir, ang'iz, tuvoq, eskort kabi); beshinchidan, til egasi muayyan so'zning eng umumiy bo'lgan tomonini bilgani holda uning xususiy tomonlarini aytib bera olmasa. (sakura-daraxt, lekin qanday daraxt, qayerlarda o'sadi, shakl-shamoyili qanday?) Shuningdek, tildan foydalanuvchi muayyan so'zni nutq jarayonida ko'p va o'rinli qo'llagani holda ma'nosini bilmasa yoki tushuntirib bera olmasa (ma'naviyat, anqov, qadriyat kabi) kabi talablarga javob berishi kerakligi ta'kidlangan [2]. Agnonimlarni aniqlashdagi bu qarashlar tizimli ekanligi bilan ajralib turadi. Bunday talablarga javob bergan agnonimlar jami agnonimiya deyiladi.

Har bir til faqatgina aloqa vositasi emas, balki muayyan dunyoqarash, madaniyat va bilish tizimini ifoda etuvchi konseptual tizimdir. Shuning uchun filologiyada til inson tafakkuri va ijtimoiy ongining ifodasi sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv esa antroposentrizm – til faoliyatida insonning markaziy o'rinda turishini anglatadi [5]. Bu nazariyani agnonimlar misolida ham tushuntirish mumkin. Agnonimiya – bilimning chegaralari, bilmaslik yoki bilishdagi subyektivlikni tahlil qiluvchi nazariy asosdir. Agnonimiya – inson tafakkurining chegaralari va uning bilishga bo'lgan cheklolari haqida tushuncha bo'lib, lingvistik va madaniy tadqiqotlarda muhim o'rin egallaydi. Ushbu maqolada agnonimiyaning antroposentrik kategoriya sifatida o'rni va ahamiyati nazariy jihatdan tahlil qilinmoqda. Antroposentrik

yondashuv orqali insonning bilim va idrok chegaralari o'rganiladi.

Agnonimiya atamasi insonning bilish jarayonidagi noaniqlik va anglamasliklarni ifodalaydi. Ushbu tushuncha tilshunoslik, falsafa va sotsiologiya sohalarida tadqiq qilinib, inson tafakkuridagi chegaralarni ochib beradi. Insonning bilish chegaralari, shubhalari va noaniqliklariga oid faktlar aniqlanadi, bu esa agnonimiyaning asosi hisoblanadi. Antroposentrizm falsafada – insonni koinot markazi deb ko'rish tamoyili bo'lsa, tilshunoslikda bu tilning inson tafakkuriga qanchalik bog'liqligini ifodalaydi. G.Stein [3], Lakoff [4] va Johnson o'z tadqiqotlarida inson tajribasiga asoslangan metaforik birlik orqali xulosalar keltirilgan. Jumladan, "Ko'ngildan gapirmoq", "Ko'zim oldiga keldi", "Dunyo ko'rgan odam" va boshqalar. Bu olimlarning fikr-mulohazalari tilshunoslikda antroposentrik yondashuvni yanada boyitgan.

Agnonimiya antroposentrizm nuqtayi nazaridan insonning bilim va idroki chegaralarini belgilovchi kategoriya hisoblanadi. Bu chegaralar til, madaniyat va ijtimoiy normativlar orqali shakllanadi. Antroposentrik yondashuv agnonimiyaning madaniy va lingvistik kontekstda yuzaga kelishini va inson faoliyatiga ta'sirini o'rganishga imkon beradi.

Agnonimiya kategoriyasining antroposentrik xususiyati, avvalo, til egalarining ongida so'z obrazining to'liq yoki qisman shakllanmaganligi belgisi asosida agnonimlar ajratib ko'rsatilishiga bog'liq. Bu holat esa so'zlarning til va nutqdagi haqiqiy nisbatini emas, balki lingvosentrik birliklarga xos bo'lgan lisoniy strukturaviy munosabatlar (masalan, leksik-semantik maydon, sinonimik qator, paronimik zanjir va h.k.)dan farqli o'laroq, tilshunoslik subyekt – til egasining o'z lug'at tarkibiga bo'lgan munosabati va shu birliklar uning mental lingvistik kompleksidagi mavjudlik shaklini ochib beradi.

Agnonimlarning antroposentrik mohiyati yaqqol tarzda ularga yaqin lingvosentrik korrelyati – "kam qo'llanadigan so'zlar" kategoriyasi bilan qiyoslashda namoyon bo'ladi. Bu ikki kategoriya o'rtasidagi asosiy farq quyidagicha: birlikning "kam qo'llanadigan so'z" sifatida tasnifi, faqatgina uning tayyor matnli asarlarda kam uchrashiga, ya'ni kam chastotali bo'lishiga dalolat qiladi, ammo bu birlikning til egasi uchun tushunarli yoki tushunarsiz ekanligi haqida hech qanday ma'lumot bermaydi. Aksincha, birlikning agnonimga mansubligi, uning til

egasi uchun tushunishda ma'lum darajadagi qiyinchilik tug'dirishini bildiradi, lekin u birlikning obyektiv ravishda ishlatilish chastotasi haqida hech narsa deyilmaydi. Agnonimiya kategoriyasining antroposentrik xarakteri tabiiy tarzda unga mos, ya'ni antroposentrik bo'lgan – aniqlash usullarini talab etadi. Bunday usullarga, til egasining nutqiy xatti-harakatlarini kuzatish, to'g'ridan to'g'ri til egasining lingvistik ongiga murojaat qilish kabilar kiradi. Birinchi usul, ya'ni agnonimik birliklarning real qo'llanishini tahlil qilish orqali faqatgina til ongida to'liq yoki noto'g'ri shakllangan informemalar sifatida mavjud bo'lgan agnonimlarni aniqlash mumkin. Shu bilan birga bu ikki kategoriya – agnonimlar va "kam qo'llanadigan so'zlar" – o'rtasida muayyan darajadagi o'zaro bog'liqlikni inkor etib bo'lmaydi, chunki ba'zida birlikning ko'pchilik tushunmasligi yoki so'zning mazmunini to'liq anglamaslik, uning past chastotali qo'llanilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ikkinchi usul, ya'ni til egasining til ongini bevosita zondlash – bir tomondan, muayyan afzalliklarga ega, chunki u nafaqat ma'nosi to'liq anglanmagan yoki noto'g'ri talqin qilingan agnonimlarni, balki mutlaqo tushunarsiz yoki noma'lum bo'lgan, ya'ni absolyut agnonimlarni ham aniqlash imkonini beradi. Boshqa tomondan esa bu usul jiddiy kamchilikka ega, chunki til egasining o'z til kompetensiyasi haqidagi fikrlari muqarrar ravishda subyektiv bo'ladi va ko'pincha haqiqiy til holatidan sezilarli darajada farq qiladi.

Ushbu holatga asoslanib, agnonimik birliklarni qayd etishning asosiy usuli sifatida til egalarining real nutqiy xatti-harakatlarini kuzatish usuli ustuvor deb qaralishi mumkin, til ongiga bevosita murojaat esa faqat qo'shimcha usul sifatida qo'llanilishi lozim.

Til inson tafakkurining ifodasi bo'lib, unda agnonimiya noaniqlik va anglashilmovchiliklarni aks ettiradi. Madaniyat esa bu noaniqliklarni ijtimoiy normalar va qadriyatlar orqali tartibga soladi. Shu tariqa agnonimiya til va madaniyat o'rtasidagi uzviy aloqani ta'minlovchi antroposentrik kategoriya sifatida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, agnonimiya antroposentrik kategoriya sifatida inson tafakkurining chegaralarini, bilim va idrokidagi noaniqliklarni anglashda muhim ahamiyatga ega. Bu kategoriya insonning subyektiv dunyoqarashi hamda madaniy-lingvistik jarayonlar orqali shakllanadi. Kelajakdagi tadqiqotlarda agnonimiyaning antroposentrik yondashuvlari yanada chuqur o'rganilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Morkovkin V.V. Проблемы учебной лексикографии: Состояние и перспективы развития / Материалы общесоюзной конференции. – Симферополь, 1992. – С. 142–145.
2. Йулдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик тамил асослари. Ўзбекистон Республикаси ФА "Фан" нашриёти, 2007. – Б. 64.
3. Stein G. Language and Philosophy. – New York: Cambridge UP, 1997. – 210 p.
4. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p. (p. 24–26)
5. Smith J. Anthropocentrism and Cultural Perspectives. – New York, 2020. – 350 p.
6. Е.О.Савина "Агнони́мы в языке и в тексте". Cyberleninka.ru



Zarina ITOLMASOVA,
 Turon universiteti Xorijiy tillar kafedrasida
 o'qituvchisi

BIOADEKVAT METODIKANING PSIXOLINGVISTIK VA PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada bioadekvat metodikaning psixolingvistik va pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Til, psixologiya va pedagogika fanlarining o'zaro integratsiyasi inson tafakkurining yaxlit rivojlanishini ta'minlashdagi o'rni yoritiladi. Bioadekvat yondashuvning mohiyati shundaki, u inson miyasi yarimsharlarining muvofiq faoliyatini ta'minlab, nutqiy va aqliy faoliyatni uyg'unlashtiradi. Tadqiqot natijalari bu metodikaning ta'lim jarayonida ijodiy fikrlashni rivojlantirish, anglash jarayonini chuqurlashtirish va shaxsiy mas'uliyatni shakllantirishdagi samaradorligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *bioadekvat metodika, psixolingvistika, pedagogika, tafakkur, integratsiya, ijodiy fikrlash.*

Annotatsiya: this article analyzes the psycholinguistic and pedagogical foundations of the bioadequate method. It highlights the integration of linguistics, psychology, and pedagogy in ensuring the holistic development of human thinking. The essence of the bioadequate approach lies in harmonizing the functioning of both hemispheres of the brain, thus uniting speech and mental activity. The findings demonstrate the effectiveness of this method in fostering creative thinking, deepening understanding, and developing personal responsibility in the educational process.

Key words: *bioadequate method, psycholinguistics, pedagogy, thinking, integration, creative thinking.*

Аннотация: в данной статье анализируются психолингвистические и педагогические основы биоадекватной методики. Освещается значение интеграции лингвистики, психологии и педагогики в обеспечении целостного развития человеческого мышления. Суть биоадекватного подхода заключается в согласованной работе обоих полушарий мозга, что способствует гармонии речевой и мыслительной деятельности. Результаты исследования показывают эффективность методики в развитии творческого мышления, углублении процесса понимания и формировании личной ответственности в образовательной среде.

Ключевые слова: *биоадекватная методика, психолингвистика, педагогика, мышление, интеграция, творческое мышление.*

Kirish. Zamonaviy ilm-fan insonni shaxsning psixikasi, uning nutqiy va aqliy faoliyat tabiiy ravishda bog'langan jonli, ochiq, o'zini o'zi tashkil etuvchi energiya axborot tizimi sifatida ko'rib chiqadi [1]. Til har tomonlama: insonning og'zaki va aqliy faoliyatining quroli sifatida, insonning muloqoti, fikrlashi va o'zini o'zi ifoda etishini amalga oshiriladigan belgilar tizimi sifatida, dunyoni anglash, ma'lumotni yaratish, saqlash, qayta ishlash va uzatish vositasi sifatida – insonning ta'limi va tarbiya jarayonida asosiy rol o'ynashiga shubha yo'q.

Keltirib o'tilgan sohalar ijtimoiy shakllantiruvchi va insoniyatning barqaror rivojlanishini belgilab beruvchi hisoblanishi sababli, ushbu jarayonlarni ta'minlashda tilning evristik salohiyatiga asoslangan zamonaviy psixologik-pedagogik tizim yetakchi rol o'ynaydi. Ushbu salohiyat metodologik tamoyillar majmuyi, bilimning empirik darajadan bilimlarni «tushunish»ga tomon, so'ngra aniq hayotiy vaziyatlarda prakseologik

xulosalar va tavsiyalarga izchil ko'tarilishi bilan ta'minlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Lingvistik, pedagogik va psixologik bilimlar uchligida eng muhim tadqiqot vazifalaridan biri ta'lim tizimining shakllanishi va rivojlanishida tilning mohiyati va rolini tushunishdir. Ushbu muammolarni hal qilish pedagogika, psixologiya va tilshunoslik o'rtasidagi organik aloqalarni o'rganish orqali mumkindir. Bilimning sanab o'tilgan sohalarining asosiy aloqasi ushbu fanlarning tadqiqot predmeti hisoblanadi: psixologiya uchun bular inson psixikasining rivojlanish qonuniyatlari, pedagogika uchun – shaxs rivojlanishini boshqarish qonunlari, tilshunoslik uchun – bu til insonni tarbiyalash va o'rgatishning universal tabiiy vositasi, uning nutqiy fikrlash faoliyati vositasidir.

Demak, pedagogika, psixologiya va psixolingvistikada anglash obykti tarbiyaviy munosabatlar natijasida, tizimdagi (Tabiat –

Jamiyat – Inson) nutqiy va aqliy o‘zaro ta’sir orqali rivojlanadigan shaxs hisoblanadi. Psixolingvistika, pedagogika va psixologiyaning integrativ o‘zaro ta’sirini ta’lim va o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayonida vujudga keladigan, jismoniy, ijodiy, shaxslararo, ijtimoiy, prinsipial va universal darajada nutqiy va aqliy faoliyat orqali inson rivojlanishiga qaratilgan tarbiyaviy munosabatlarining asosi sifatida ko‘rilishi *(ko‘rib chiqilishi) kerak.

Nutq-aqliy faoliyat jarayoni shaxsning psixofiziologik xususiyatlari bilan belgilanadi va tartibga solinadi. Axborot tarqatishning to‘lqinli tabiatiga oid so‘nggi tadqiqotlar inson tanasini biologik antenna, Koinotning turli chastota diapazonlaridan chiqadigan cheksiz to‘lqin spektrini idrok etuvchi va qayta ishlovchi o‘ziga xos tabiiy lokator sifatida izohlashga imkon beradi [2]. Miya signallarni bilvosita qabul qiladi: hissiy-motor darajasida, hissiy signallar neyrofiziologik (elektr impulsleri) ga qayta kodlanadi; keyin miya qabul qilinganni ramziy analoglarini shakllantiradi va ma’lumotni “o‘z” tilida ko‘rsatadi. Ramzlar obyektiv va subyektiv voqelikning gologramma modellari sifatida yaratiladi va idrok etiladi. Bunda ikkita model bir vaqtning o‘zida yaratiladi: o‘ng yarim sharda – majoziy-hissiy, intuitiv-ijodiy model (ta‘m, rang, hid, fazoviy munosabatlar); chapda diskursiv-mantiqiy model (hajm, qismlar nisbati, shakli, tezligi, vazni va boshqalar).

Tadqiqot metodologiyasi. Umuman olganda, bioadekvat metodikasi ma’lum bilimlarning mikrotuzilmasi sifatida o‘quv fikriy qiyofasini shakllantirishga, uni insonning uzoq muddatli xotirasida saqlashga qaratilgan. Bundan tashqari, u yangi fikriy obrazni tafakkurning ijodiy, harakatchan mikrotuzilmasiga aylantirish, uni doimiy harakatlanuvchi ilgari olingan fikriy obrazlarning dinamik oqimiga jalb etish va ularni nutqiy va aqliy faoliyatda aks ettirish uchun qanday foydalanishni o‘rgatadi. Shunday qilib, bioadekvat metodika obyektiv, subyektiv, fiziologik va psixologik jihatdan aqliy obrazlar tizimi orqali fikrlash usulini shakllantirish uchun ishlaydi. Pedagogik ta’sirning barcha bosqichlarida undan ongli va muntazam foydalanish tizimli-assotsiativ, ya’ni tabiatga mos fikrlashni yaratadi, bu insonning nutqiy va fikriy faoliyatining tabiiy amalga oshirilishini belgilaydi va unga mavjudlikning barcha darajalarida muammolarni hal qilish uchun vosita beradi.

Tahlil va natijalar. Bioadekvat metodikaning bosqichlari tabiiy nutqiy-aqliy faoliyat bosqichlariga va axborotni idrok etish bosqichlariga mos keladi. An’anaviy pedagogik yondashuv og‘zaki diskursiv-mantiqiy usuldan foydalanadi (birinchi navbatda

miyaning chap yarim sharining ishlashiga qaratilgan), bunda tilga asosiy rol beriladi: og‘zaki bilim asosiy mazmuni tashkil qiladi. Inson tanasining psixofiziologik xususiyatlariga asoslangan bioadekvat usul N.V. Antonenko sxemasi (“Sezgi-motordan (hissiy idrok etish) ramziy (hissiy-mantiqiy ma’lumotning obrazli “o‘ralishi”) orqali mantiqiy (ma’lumotni diskursiv-mantiqiy tushunish) va nihoyat, yakuniy lingvistikgacha (so‘z-tasvir orqali ongda ma’lumotni joylashtirish, 1-3 bosqichlarda ishlab chiqilgan) bo‘yicha axborot oldinga silljishining barcha bosqichlarida miyaning ikkala yarim sharlarini va ma’lumotni idrok etishning barcha kanallarini jalb qilishga qaratilgan [5]. Bunday holda, til, ko‘rib turganimizdek, oxirgi, lingvistik bosqichda yetakchi rol o‘ynaydi, bu yerda so‘zlar aqliy tasvirlarning allaqachon tugallangan o‘zgarishlarini ifodalash va izohlash vositasi sifatida ishlatiladi. Yaxlit tafakkur faoliyat yurituvchi tushunchalar va obrazlar til so‘z-obraz orqali ongda ma’lumotni joylashtiradigan yagona jarayonning ikki tomonini tashkil etadi” [4]. Bosqichma-bosqich bioadekvat metodikaning afzalligi uning quyidagi qobiliyatlaridir:

- o‘quv va anglash jarayonini psixologiyalash (qulay psixologik sharoitlarni shakllantirish);
- loyihalik fikrlash modellarini yaratish;
- xulq-atvor strategiyalarini tanlovini rag‘batlantirish;
- axborotni uzoq muddatli xotiraga uzatishni optimallashtirish.

Bu bosqichlar J. Piagetning anglash bosqichlari tizimiga mos keladi va ta’lim oluvchilarning ta’lim faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi [3].

Shu bilan birga, bioadekvat metodning ayrim cheklovlari ham mavjud. Avvalo, bu metodni samarali joriy etish uchun o‘qituvchi yuqori darajadagi psixologik va didaktik tayyorgarlikka ega bo‘lishi lozim. Chunki metod har bir bosqichda o‘quvchilarning individual psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi. Shuningdek, bu yondashuv darsning an’anaviy tuzilmasidan farq qilgani uchun uni amaliyotda qo‘llashda o‘qituvchilarning dastlabki moslashuv davri zarur bo‘ladi.

Bioadekvat metodni zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan solishtirganda, u ko‘plab o‘xshashlik va o‘ziga xosliklarga ega. Masalan, interaktiv ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim, multimedia asosidagi o‘qitish texnologiyalarida ham o‘quvchi faol ishtirokchi sifatida ko‘riladi. Ammo bioadekvat metodda bu faoliyat inson miyasi faoliyati va tabiiy idrok jarayonlariga moslashtirilgan holda tashkil etiladi.

Shuningdek, bu metod neyropedagogika va kognitiv psixologiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, zamonaviy ta’limda shaxsni rivojlantirishning

neyrofiziologik mexanizmlarini hisobga oladi. Masalan, raqamli o'quv platformalarida o'quvchi ko'p kanalli idrok (eshitish, ko'rish, sezish, harakat) orqali bilim oladi — bu esa bioadekvat metodning asosiy tamoyillaridan biridir. Bugungi kunda bioadekvat yondashuvning konsepsiyasi dunyo ta'lim tizimida keng tarqalgan holistik (yaxlit) ta'lim modeli bilan hamohangdir. Har ikki yondashuvning maqsadi — insonni bilimlar majmuasi bilan emas, balki o'zini anglovchi, ijodiy fikrlovchi, mustaqil shaxs sifatida shakllantirishdir. Shu ma'noda, bioadekvat metod shaxsga yo'naltirilgan ta'limning tabiiy va ilmiy asoslangan shakli sifatida qaraladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, tavsiflangan metodika tarbiyaviy ham xususiyatga ega, chunki har bir tanlov harakati mas'uliyatni qabul qilish bilan birga kechadi. Shu bilan birga, metodikaning tarbiyaviy funksiyasi tashabbuskorlik, o'z-o'zini tashkil etish va tanlash erkinligiga bo'lgan ehtiyojni uyg'otadigan shaxsiy ijodiy izlanish sifatida namoyon bo'ladi, bu ayniqsa kattalar auditoriyasi uchun muhimdir.

Xulosa. Shunday qilib, til ta'lim oluvchi shaxsini rivojlantirish va shakllantirish jarayonida nafaqat nutqiy-fikrlash faoliyati uchun, balki kengroq – muloqot tizimi, ijtimoiy rivojlanish jarayonlarini boshqarish, o'zini o'zi boshqarish, shuningdek tizimning (Tabiat – Jamiyat – Inson) o'zaro ta'sirida o'zaro aloqa uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Til tufayli ong osti, beixtiyoriy darajasidagi signallar va belgilar ongli darajada haqiqiy semantik kengliklar, tushunchalar, shakllarga ega bo'ladi. Bioadekvat usul bu spontan va xotik jarayonni bilim olish natijasida boshqarilishi mumkin bo'lishiga imkon beradi, bu esa kattalar uchun sifat jihatidan boshqa – yuqori darajadagi ta'limni ta'minlaydi. Ushbu metod intuitiv va ijodiy fikrlash modellarini qo'llash orqali anglash-tarbiya jarayonida axborot oqimlarini o'zlashtirish talablariga javob beradi, bu yerda so'z-tasvir (obraz)ga aylantirilgan aqliy tasvir (diskursiv-mantiqiy fikrlashda bo'lgani kabi) yaxlit nutqiy fikrlash jarayonida ikki turdagi fikrlashning integratsiyasi uchun asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шванева, Е.А. (2005). Современные подходы в психолингвистике и педагогике.
2. Гаряев, П., Тертышный, А., Леонова, Л., Мологин, С. (2001). Волновая генетика и информационные процессы в живых системах.
3. Пиаже, Ж. (1994). Психология интеллекта. — Москва: Педагогика.
4. Русский язык и культура профессионального общения нефилологов. (2008). — Москва.
5. Антоненко, Н.В. (n.d.). Биоадекватные технологии в образовании: теория и практика применения.



Nodira ZIKIROVA,
Qarshi Iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: ilmiyizlanuvchi@gmail.com

KASBIY MOTIVATSIYA TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK TALQINI

Annotatsiya: maqolada kasbiy motivatsiyaning psixologik va pedagogik talqini, farqlanishi, kasbiy motivatsiyada psixologik omillar, motivatsiyaning xususiyati, uning tuzilishi asosli ravishda yoritilgan. O'qitishda talabalarning motivatsiyasini kuchaytirish, samarali boshqaruv shakllari motivatsion nazariyalarning ijtimoiy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *motiv, kasbiy motivatsiya, psixologik omillar, motivatsiya.*

Аннотация: в статье подробно рассматриваются различия психолого-педагогической трактовки понятия «профессиональная мотивация», психологические факторы профессиональной мотивации, природа мотивации, её структура. Раскрывается социальная значимость мотивационных теорий в повышении мотивации студентов к педагогической деятельности, эффективные формы управления.

Ключевые слова: *мотив, профессиональная мотивация, психологические факторы, мотивация.*

Annotation: the article thoroughly discusses the differences between the psychological and pedagogical interpretations of professional motivation, psychological factors in professional motivation, the nature of motivation, its structure. The social significance of motivational theories in enhancing student motivation in teaching, effective management forms is revealed.

Key words: *motive, professional motivation, psychological factors, motivation.*

Kasbiy motivatsiya – talabalar va mutaxassislar uchun o'z kasbiy faoliyatiga bo'lgan qiziqish va intilishlarni shakllantiruvchi asosiy omil bo'lib, uning psixologik va pedagogik talqini farqlanishi mumkin. Psixologik nuqtayi nazardan, kasbiy motivatsiya shaxsning o'z kasbi yoki faoliyati bilan bog'liq ichki psixologik omillar, ya'ni ehtiyojlar, qiziqishlar, qiymatlarni anglatadi. Pedagogik nuqtayi nazardan esa, kasbiy motivatsiya o'qitish jarayonida talabalar uchun kasbga bo'lgan qiziqish va rag'batni yaratishga qaratilgan ta'lim metodlari va usullarini o'z ichiga oladi.

Psixologik va pedagogik talqinlarning korrelyatsiyasi o'qituvchi tomonidan yaratilgan pedagogik muhit va shaxsiy ichki omillar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'zida aks ettiradi. O'qituvchi kasbiy maqsadlar va rag'batlantirish usullarini qo'llash orqali talabalar motivatsiyasini oshirishi mumkin, shu bilan birga, talabaning psixologik holati va shaxsiy ehtiyojlari ham muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatga intilishida muhim rol o'ynaydi.

Motivatsiyaning xususiyati, uning tuzilishi va o'rganish usullari haqidagi ko'plab turli xil qarashlar ushbu sohadagi tadqiqotlarning murakkabligi va ko'p qirraliligini belgilaydi. Muammo ko'plab tadqiqotchilar tomonidan turli paradigmatic yondashuvlarga asoslangan holda o'rganilgan. Motivatsiya bir necha nuqtayi nazardan o'rganiladi: ba'zilar uni bitta o'ziga xos motiv, boshqalari – motivlar tizimi, shuningdek, o'zaro bog'liq hodisalarning (motivlar, maqsadlar, ehtiyojlar va boshqalar) butun majmuasi deb hisoblashadi.

Motivatsion nazariyalarning ijtimoiy, iqtisodiy va ta'lim sohasidagi ilmiy-amaliy tadqiqi, uning psixologik mohiyati, inson faoliyatidagi ko'rinishlari, ta'siri, fanni o'qitishda talabalarning motivatsiyasini

kuchaytirish, samarali boshqaruv tizimini yaratish va natijadorlikka erishish, o'zlikni namoyon qilish, o'z ichki imkoniyatlaridan foydalanish muammolari mamlakatimizda V.M.Karimova, J.Jalolov, E.G'oziyev, B.R.Samatova, MDHda O.S.Vixanskiy, I.A.Naumovlar, I.A.Zimnyaya, A.N.Leontev, R.S.Nemov, V.V.Petrov, G.V.Rogova, E.L.Deci, R.M.Ryan, X.Xekxauzen va boshqalarning izlanishlarida tadqiq qilingan.

Motiv – insonni o'qishga yoki muayyan harakatlarni bajarishga undovchi turli sabablar yig'indisi; talabaning ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga moyilligi shaxsdagi xulq-atvoriga qaratilgan moyillik va hozirlikni tushuntirib beruvchi sababni nazarda tutadi.

A.K.Markova motivlarni ikkita katta guruhga ajratib o'rgandi:

1. O'quv faoliyatining mazmuni va uni bajarish bilan bog'liq bilish motivlari.

2. Boshqa kishilar bilan o'zaro ijtimoiy (sotsial) motivlar [1].

Bu motiv turlari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Motivlarning yana bir muhim xususiyati uning vujudga kelish tezligida ifodalanishi va o'z aksini topishidir. Bu xususiyat o'quvchi-talaba qancha vaqt mobaynida ushbu motiv tomonidan undalgan o'quv faoliyati bilan shug'ullana olishida namoyon bo'ladi.

Motivatsiya esa inson faoliyatini boshqarishda uning axloqiy mayllaridan foydalanish, deb tushuniladi [2].

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalar va ta'riflar asosida biz tadqiqotimiz uchun belgilangan vazifalarning mohiyatidan kelib chiqib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy motivatsiyasini

shakllantirishning psixologik va pedagogik aspektlarini o'rgandik.

Shunga muvofiq, dastlab "motivatsiya" tushunchasining psixologik mohiyatini o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Psixologiyada inson xulq-atvoridagi qo'zg'atuvchi holatlarni tasvirlash va tushuntirish uchun qo'llaniladigan tushunchalar orasida motivatsiya va motiv tushunchalari eng umumiy va asosiy hisoblanadi. Motivatsiya atamasi motiv atamasiga qaraganda kengroq tushunchaga ega. Motiv – bu faoliyat sababi, ya'ni faoliyat nima uchun amalga oshirilayotganini anglatadi. Motivatsiya – bu insonni qiziqtiruvchi, da'vat etuvchi omillar bo'lib, shaxsning faolligini belgilab beradi, ular qatoriga motivlar, ehtiyojlar, rag'batlar, inson xulq-atvorini belgilaydigan vaziyatlarni kiritish mumkin. Ko'rinadiki, motivatsiya – shaxsni ma'lum bir yo'nalishda faollikka undaydigan ehtiyoj va motivlar majmui. Kasbiy motivatsiya inson motivatsion sohasining faqat bir qismidir [3]. Xorij psixologlari tomonidan motivatsiya tushunchasini xarakterli aniq bir tomonlama energetik faollik manbai sifatida qaraladi, ular mazmunli tomonga e'tibor bermay, aniq mexanizmlar sifatida energiya va xulq-atvorga taqsimlaydilar. Motivatsiya shaxs faolligi, xulqi va faoliyatini tartibga soluvchi muhim omildir. Chunki insonning har xil xatti-harakatlari ostida ushbu xatti-harakatlarga undovchi asoslar, ularning motivatsiyasi yotadi. Shuning uchun ta'lim jarayoniga faqatgina o'quv-biluv motivlarigina emas, barcha keng qamrovli motivlar o'z ta'sir doirasi bilan ta'sir etib turadi.

Hozirgi vaqtda psixologiya fanida motivatsiya atamasi ikki asosiy ma'noda qo'llaniladi, ular bir qarashda ma'no jihatidan farq qiladi:

Motivatsiya – inson xatti-harakatini belgilovchi, tartibga soluvchi va yo'naltiruvchi omillarning butun majmui (ehtiyojlar, motivlar, maqsadlar, niyatlar, ideallar, e'tiqodlar va boshqalar tizimi) hisoblanadi.

Motivatsiya – bu rag'batlantirish va qat'iyatlilik, inson xatti-harakatini qo'zg'atish va har qanday vaqtda muayyan darajada xulq-atvor faolligini saqlash jarayoni. Shu ma'noda motivatsiya faoliyat yo'nalishiga va ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun safarbar qilingan energiya miqdoriga ta'sir etuvchi psixik tartibga solish jarayoni vazifasini bajaradi.

Motivatsiya turlarining bir necha xil tasniflari mavjud. Adabiyotda eng ko'p uchraydigan klassifikatsiya sifatida unda motivatsiyaning quyidagi turlari ajratiladi.

Ichki (ichki tashkil etilgan, dispozitsiyali) – ichki sabablarga ko'ra yuzaga keladigan motivatsiya: subyektning psixologik xususiyatlari, uning ehtiyojlari, munosabatlari, qiziqishlari, intilishlari va boshqalar.

Motivatsiya atamasi ilk marta 1880-yillarning boshida psixologlar lug'atida tilga olingan bo'lsa, Vebstr akademik lug'atida motivatsiya – motivatsiyalash faoliyati yoki jarayon sifatida ta'riflangan [4]. Motivatsiyaning boshqa turlari singari kasbiy motivatsiya ham doimiy yoki vaqtinchalik bo'lishi mumkin bo'lgan tashqi va ichki omillarga ta'sir qiladi. Shu sababli kasbiy motivatsiya bir vaqtning o'zida nisbatan barqaror va nisbatan o'zgaruvchan, dinamik shakllanishdir. Shaxsning psixologik xususiyatlariga va hayotining tashqi sharoitlariga qarab, insonning kasbiy motivatsiyasi odatda, bir necha o'n yillar davomida saqlanib qolishi mumkin, boshqa shaxsning kasbiy motivatsiyasi esa ancha qisqa vaqt ichida butunlay o'zgarishi mumkin. Kasbiy motivatsiya kasbiy faoliyat samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Kasbiy motivatsiya bilan bog'liq kasbiy faoliyat samaradorligining eng muhim omili motivatsiya tarkibidagi haqiqiy motivlarning kuchidir.

Xulosa shuki, pedagogik metodlar va usullar orqali kasbiy motivatsiyani shakllantirishda, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik ishga ishtiyoqni oshirish uchun amaliy yo'l-usullarni tavsiya qilish, ularga kasbiy faoliyatda samarali ishlashga ilhom berishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V.M. Psixologiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent: T.A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, "O'AJBNT" markazi, 2002. 205-b.
2. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa. – Toshkent: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. 376-b.
3. Электрон ресурс: Терминологический ювенологический словарь. <https://yjuvenologichesky.academic.ru/167/%D0%9C%D0%9E%D0%A2%D0%98%D0%92%D0%90%D0%A6%D0%98%D0%AF>.
4. Pedagogue. Merriam-Webster.com. Dictionary, 2018. Elektron resurs: <https://www.merriam-webster.com/dictionary/pedagogue>.

Sardor NAZAROV,
Karshi Economics and Pedagogy University
Assistant Lecturer at the Department of Russian Language and Literature

TIBBIYOT TERMINOLOGIYASIDA INGLIZ-O'ZBEK QO'SHMA SO'ZLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING TARJIMASIDAGI ASOSIY MUAMMOLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi tibbiyot terminologiyasida uchraydigan qo'shma so'zlarning semantik xususiyatlari hamda ularni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqotda ingliz tilidagi terminlarning morfologik tuzilishi, semantik tuzilma tiplari, ularning o'zbek tilidagi ekvivalentlari, shuningdek, tarjima jarayonida uchraydigan morfologik va semantik moslik muammolari ko'rib chiqiladi. Maqolada tibbiy terminlar tarjimasini standartlashtirish, izohli qo'llanmalar yaratish hamda xalqaro terminologik birliklarni to'g'ri o'zlashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: tibbiyot terminologiyasi, qo'shma so'z, semantika, tarjima, ingliz tili, o'zbek tili, morfologik tuzilma, terminologik moslik.

Аннотация: в данной статье анализируются семантические особенности сложных слов, встречающихся в медицинской терминологии английского и узбекского языков, а также основные проблемы, возникающие в процессе их перевода. В исследовании рассматриваются морфологическая структура английских терминов, типы их семантических моделей, узбекские эквиваленты, а также вопросы морфологического и семантического соответствия при переводе. В статье предлагаются практические рекомендации по стандартизации перевода медицинских терминов, созданию толковых словарей и правильному освоению международных терминологических единиц.

Ключевые слова: медицинская терминология, сложное слово, семантика, перевод, английский язык, узбекский язык, морфологическая структура, терминологическое соответствие.

Annotation: this article analyzes the semantic characteristics of compound words found in the medical terminology of English and Uzbek languages, as well as the main challenges encountered in the process of translation. The study examines the morphological structure of English medical terms, the types of their semantic models, their Uzbek equivalents, and the issues of morphological and semantic equivalence arising during translation. The paper also provides practical recommendations for standardizing the translation of medical terminology, developing explanatory dictionaries, and accurately adapting international terminological units.

Key words: medical terminology, compound word, semantics, translation, English language, Uzbek language, morphological structure, terminological equivalence.

XXI asrda tibbiyot terminologiyasi inson hayotining barcha jabhalarida keng qo'llanilayotgan ilmiy sohalardan biridir. Tibbiy atamalar, ayniqsa, ingliz tilida xalqaro miqyosda ilmiy muloqotning asosiy vositasi sifatida shakllangan. Shu bilan birga, o'zbek tili tibbiyot sohasida faol rivojlanib, xalqaro atamalarni milliy tizimga moslashtirish jarayonini boshdan kechirmoqda. Bu jarayonda qo'shma so'zlarning tarjimasini alohida ahamiyat kasb etadi, chunki tibbiyotdagi aksariyat terminlar murakkab so'z birikmalaridan yoki ikki va undan ortiq komponentlardan tashkil topgan. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, ingliz va o'zbek tibbiy terminologiyasidagi qo'shma so'zlar semantik jihatdan turlicha tuzilgan bo'lib, ularning tarjimasini jarayonida morfologik, leksik va ma'no tafovutlari muammolarni yuzaga keltiradi. Ushbu maqolada mazkur muammolar lingvosemantik nuqtayi nazardan yoritiladi.

Qo'shma so'zlarning tibbiyot terminologiyasidagi o'rni:

Qo'shma so'zlar (compound words) ingliz tibbiyot terminologiyasida eng keng tarqalgan birliklardan hisoblanadi. Ular asosan yunon va lotin ildizlariga asoslanadi va terminologik aniq ma'noga ega bo'ladi. Masalan: cardiology (kardio + logy), dermatitis (derma + itis), hematology (hema + logy) kabi birliklar bir necha morfemadan tashkil topgan.

O'zbek tilida esa tibbiy atamalar ikki yo'l bilan shakllanadi:

1. Turkiy ildizli qo'shma so'zlar: yurak urishi, qon bosimi, o'pka shamollashi;

2. Xalqaro (lotin-yunon) asosdagi terminlar: kardiologiya, nevrologiya, dermatit, onkologiya.

Bu ikki turdagi birliklar o'zaro tarjima jarayonida semantik moslik darajasi bilan farqlanadi. Turkiy ildizli terminlarda sintaktik birikmalar ustun bo'lsa, xalqaro

terminlarda morfologik kompozitsiya yetakchilik qiladi.

Ingliz tilidagi qo'shma tibbiy so'zlarning semantik xususiyatlarini quyidagi asosiy turlarga bo'lish mumkin:

1. Noun + Noun modeli: blood pressure → qon bosimi, heart disease → yurak kasalligi.

2. Adj + Noun modeli: high blood pressure → yuqori qon bosimi, chronic pain → surunkali og'riq.

3. Prefix + Root + Suffix modeli: hypoglycemia (hypo-glyc-emia) – qon shakarining kamayishi.

4. Metaforik ma'no kengayishi: heart failure – yurak yetishmovchiligi; stroke – insult.

Morfologik muvofiqlik muammosi: Inglizcha tibbiy terminlarda ko'plab prefiks va suffikslar mavjud (hypo-, hyper-, -itis, -emia, -osis). O'zbek tilida bunday tizim mavjud emas, shuning uchun analitik ifodalar ishlatiladi.

Semantik ko'pma'nolilik: bir termin kontekstga qarab turlicha ma'noga ega bo'lishi mumkin (masalan, stroke – urish, insult). Ekspressivlik farqlari: heart attack – yurak xuruji, lekin "yurak hujumi" shakli tabiiy emas.

Xalqaro terminlarning o'zlashtirilishi: kardiologiya, onkologiya, bronxit kabi terminlar transliteratsiya orqali o'zlashtiriladi, ba'zilari esa milliy lashadi (lung cancer – o'pka saratoni).

1. Terminologik standartlashtirish: xalqaro ISO va O'zbek tilining terminologik komissiyasi tavsiyalarini uyg'unlashtirish.

2. Lingvosemantik tahlil: har bir terminning ildiz morfemalari asosida tahlil qilish.

3. Izohli tarjima usuli: yangi terminlarni izohli shaklda berish (anemia – qonda gemoglobin miqdorining kamayishi).

4. Maxsus lug'atlar tuzish: ingliz-o'zbek tibbiy qo'shma so'zlar izohli lug'atini yaratish.

5. Tarjimon va mutaxassislar hamkorligi: tibbiy tarjima lingvistik va terminologik kompetensiyani talab qiladi.

Tibbiyot terminologiyasidagi ingliz-o'zbek qo'shma so'zlarning semantik tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning tarjimasi faqat til darajasidagi emas, balki ilmiy-ma'noviy moslikni ham taqozo etadi. Ingliz tilidagi murakkab kompozitsion tuzilma o'zbek tilidagi analitik ifodalar bilan to'liq mos kelmaydi. Shu sababli, tarjimada morfologik o'zgartirish, kontekstual tahlil va adekvatlik talab qilinadi. Tibbiy terminologiyani standartlashtirish va xalqaro lug'atlar bilan uyg'unlashtirish tarjimashunoslikning dolzarb vazifalaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alimova N. "Tibbiy terminologiya va tarjima muammolari." – Toshkent: Fan nashriyoti, 2021.
2. Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. – Oxford: Blackwell, 2019.
3. Nation I.S.P. Learning Vocabulary in Another Language. – Cambridge University Press, 2020.
4. Rahmonov U. "O'zbek tibbiyot terminologiyasining shakllanishi." // Til va madaniyat jurnali, №2, 2022.
5. Oxford Medical Dictionary. – Oxford University Press, 2021.
6. Komilova M. "Lingvosemantik tahlilda tibbiy atamalar tarjimasi." // Filologiya masalalari, №4, 2023.
7. Dorland's Illustrated Medical Dictionary. – Elsevier, 2020.
8. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. "O'zbek tilining izohli lug'ati." – Toshkent, 2022.

Dilafuz ABDURAXIMOVA,
Farg'ona davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi

ERKIN VOHIDOV G'AZALLARIDA NAVOIY AN'ANALARI

Annotatsiya: maqolada Erkin Vohidov ijodida Alisher Navoiy an'analarning davomiyligi va badiiy talqini tahlil qilinadi. Shoir g'azallarida mumtoz adabiy an'analar ta'siri aruz vazni va badiiy san'atlarning mahorat bilan qo'llanganligini tadqiq etish orqali yoritilgan. Maqolada ikki shoir ijodini bog'lovchi ma'naviy rishtalar, Navoiy adabiy merosining o'zbek she'riyati taraqqiyotidagi o'rni haqida xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: *g'azal, adabiy an'ana, adabiy izdoshlik, aruz vazni, badiiy san'atlar.*

Annotation: the article analyzes the continuity and artistic interpretation of Alisher Navoi's traditions in the work of Erkin Vohidov. The influence of classical literary traditions in the poet's ghazals is highlighted by studying the skillful use of aruz verse and artistic arts. The article provides conclusions about the spiritual ties connecting the work of the two poets, the role of Navoi's literary heritage in the development of Uzbek poetry.

Key words: *ghazal, literary tradition, literary continuity, aruz verse, artistic arts.*

Аннотация: в статье анализируется преемственность и художественная интерпретация традиций Алишера Навои в творчестве Эркина Вохидова. Влияние классических литературных традиций в газелях поэта выявляется через изучение мастерского использования стиха аруз и художественных приемов. В статье делаются выводы о духовных связях, связывающих творчество двух поэтов, роли литературного наследия Навои в развитии узбекской поэзии.

Ключевые слова: *газель, литературная традиция, литературная преемственность, стих аруз, художественные приемы.*

Kirish. Zamonaviy o'zbek she'riyatiga Sharq, xususan, o'zbek mumtoz she'riyati an'analarning ta'siri va shoirlarning ulardan o'ziga xos tarzda foydalanishi doimiy hodisalardan sanaladi. Zero, "Adabiyot taraqqiyotining uzluksiz jarayonida har bir davr o'zidan oldingi davrlardan eng yaxshi jihatlarni o'ziga singdiradi, ularni sayqallaydi, maromiga yetkazadi, ayni choqda, o'zidan-da unga neder yangilik qo'shishga intiladi. Shu tariqa adabiyotning uzluksiz taraqqiyoti ta'minlanadi. Adabiyotdagi vorisilik, an'analarga sodiqlik har bir milliy adabiyotdagi o'ziga xoslik, milliy qiyofaning yo'qotilmasligini kafolatlaydi"¹.

Asosiy qism. G'azal janri eng ko'hna va qadimiy janrlardan biridir. O'zbek mumtoz adabiyotida Sayfi Saroyi, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Huvaydo, So'fi Olloyor, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira kabi shoirlarning g'azal janri taraqqiyotida hissasi muhimdir. G'azalchilik bilan shug'ullanish an'ana tusiga kirgan. Mustaqillik davri she'riyatida ham ko'plab ijodkorlarimiz g'azal janrida barakali ijod etishdi. Jumladan, E.Vohidov, A.Oripov, J.Kamol, T.Qahhor, S.Sayyid kabi shoirlar ham barmoq, ham aruz vaznida ijod qilganlar. "Shu narsa diqqatga sazovorki, klassik adabiyot an'analari yangi tarixiy sharoitda davom ettirish va rivojlantirish ishida yoshlar ayniqsa, jonbozlik ko'rsatdilar" deb ta'kidlaydi N.Karimov, 60-yillarga kelib aruzga, g'azalga bo'lgan munosabat bir qadar yumshadi. Xuddi shu davr she'riyatiga g'azalnavis sifatida E.Vohidov kirib keldi.

Istadim sayr aylamoqni men g'azal bo'stonida,
Kulmangiz ne bor senga deb Mir Alisher yonida.²

Ushbu misralar orqali shoirning g'azal yozish istagi paydo bo'lganini, o'z ichki tuyg'ularini g'azal janri orqali ifoda etishga qaror qilganini yozadi. Bu bilan Erkin Vohidov "mudrab yotgan aruzni uyg'otadi". Shoir o'zini Alisher Navoiyning adabiy izdoshi, davomchisi sifatida ko'radi. Bu misralar buyuk o'zbek shoiri Erkin Vohidovning "G'azal bo'stoni" nomli she'riyati dastlabki baytidir. G'azal ramal bahrida yozilgan bo'lib, ramali musammani mahzuf vaznida yaratilgan (- V - - / - V - - / - V - - / - V -). Adabiyotshunos G.Oripova ta'kidlaganidek: "Salaflari adabiy an'analari davom ettirgan Erkin Vohidov ko'hna aruz vaznlarida qalam tebratib, aruziy latofatni saqlagan holda g'azal, muxammas, mustazod kabi janrlarning vazn xususiyatlarini, obrazlar tizimi va mavzu ko'lamini poetik tafakkur yangilanishlari orqali boyitdi"³.

G'azalning keyingi baytida shoir she'riyat dunyosiga qadam qo'yayotgan lirik qahramon his-kechinmalarini quyidagicha ifodalaydi:

She'riyat dunyosi keng, gulzori ko'p, bo'stoni ko'p,
Har ko'ngil arzini aytur neki bor imkonida.

Erkin Vohidov devonidagi g'azallar mavzulari rang-barang bo'lib, asosiy qismi sevgi-muhabbat ruhida g'azallarni tashkil etadi. Ularga shoirning "Yo'q emish orzuda ayb", "Bandi zulf", "Dostonga yoz", "Samar bo'lg'ay", "Uyg'otmagil", "Rashkim", "Shirin", "Na qilsin", "Sevgini tortib bo'lurmi" g'azallarini misol qilish mumkin.

Erkin Vohidovning "Hijron yuki" g'azalida Alisher Navoiy an'analari izdoshlik hodisasini kuzatish mumkin. Shoir bu

1. Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Фан, 2007. 204-205-б.

2 Vohidov E. Saylanma. II jild. She'r dunyosi. – Toshkent: Sharq, 2001. 249-b.

3 Oripova G. Mustaqillik davri lirikasi: janr xususiyatlari va poetikasi: Filol.fan.d-ri... diss. – Farg'ona, 2024. 62-b.

g'azaliga Navoiy g'azalidan quyidagi epigrafni ("Aylagin jondin judo, etguncha jonondin judo...") olganligi she'ring yanada ta'sirchanligini oshirishiga xizmat qilgan. Bu orqali Navoiyning ijodiga bo'lgan muhabbati va hurmatini ifodalagan.

Roziman tush / guncha dilga / Nogahon hij / ron yuki,
 Nogahon, may / li, tanimdan / Ayru bo'lsin / jon yuki.
 - V - - / - V - - / - V - - / - V -

Mazkur g'azal ham ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, ramal bahri o'zbek she'riyatida eng ko'p tarqalgan vazn bo'lib, foilotun ruknining takroridan iborat. Mumtoz she'riyatimizda ushbu bahr dastlab "Qisasi Rabg'uziy"da uchrasa, Alisher Navoiyning "Xazoyin-ul maoniy"dagi 3132 turkiy she'ridan 1827 tasi, xususan, 1666 ta g'azali ushbu bahr o'lchovlarida bitilgan... Ramal bahri vaznlari "Shashmaqom"ning jami 49 kuyiga, "Bayot", "Dugoh Husayn" turkumlaridagi 9 kuyga, shuningdek, ko'pchilik xalq kuylariga mos keladi⁴.

Erkin Vohidovning quyidagi baytida esa lirik qahramon kayfiyati ifodalanadi:

Men bo'lay jondin judo bo'lguncha jonondin judo,
 Ne kerak jon, ezsa jonim bir umr armon yuki.

Mazkur baytda shoir, asosan, ishtiyoq san'atidan foydalangan bo'lib, "jon", "jonim", "jononim" kabi so'zlarni qo'llash asosida hosil qilingan. Bu misralar tanosub san'atining ham yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

Lahzai hijron yukiga bisitun ukparchadur,
 Bir qadoqlik toshcha kelmas yer bilan osmon yuki.

Hijron yuki shunchalik og'irki, uning oldidagi boshqa narsalar xuddi ukparday yengil, yer va osmonning og'irligi ham, ayriliq og'irligining oldida bir qadoq tosh singaridir, deb aytib o'tmoqda.

Oftob hijronida tong sabzalarga qo'ndi nam,
 O'ylakim, kipriklarimni egdi tong giryon yuki.

Ushbu baytda esa shoir husni ta'lil san'ati orqali tongni, ertalabki shudringni juda chiroyli tasvirlagan. Oftobdan ayriliq tufayli o't-o'lanlar nam bo'lganini aytib o'tgan. Mening ham kipriklarimni tongdagi giryonlik yuki namladi, deydi. Shoir keyingi baytlarda ayriliq azobida olingan har nafas lirik qahramon uchun yil bilan tenglashganday bo'lganini iztirob ila aytadi. Ko'rinib turibdiki, baytlarning har birida shoirning hijron dardi quyuqlashib, dinamik tarzda o'sib bormoqda. Bu

esa gradatsiyani yuzaga keltirgan.

Erkin Vohidov g'azallarida an'anaviy tashbehlar, chunonchi, ma'shuqaning gul, Layli, farishta, oyga, oshiqning esa bulbul, Majnun, qulga o'xshatilishi ham yangicha, boshqa shoirlar tomonidan qo'llanmagan topilma tashbehlaridir. Tashbeh san'atini qo'llashdan maqsad o'quvchiga tasvirlanayotgan shaxs, narsa yoki tushunchani yorqinroq ochib berishdir. Atoullah Husayniy: "Tashbih yetti turdur: 1) tashbihi mutlaq; 2) tashbihi kinoyat; 3) tashbihi mashrut; 4) tashbihi tasviyat; 5) tashbihi aks; 6) tashbihi izmor; 7) tashbihi tafzil"⁵ deya ajratgan. Erkin Vohidov quyidagi baytida an'anaviy ko'ngil obrazining yangi ma'no qirralarini kashf etib, vatan ozodligi, yurt mustaqilligini ko'rishga mushtoq vatanparvar shaxs obrazini yaratgan:

Bu vatanda bir Vatan Qurmoqni istaydir ko'ngil,
 O'zni ozod qush kabi Ko'rmoqni istaydir ko'ngil⁶.

Baytda narsaning ikkinchi bir narsaga tashbeh vositalari kabi yordamida to'g'ridan to'g'ri o'xshatilishi tashbehi sareh (tashbehi mutlaq)ni yuzaga keltirgan. O'xshatishdan kuzatiladigan badiiy maqsad ham obrazlilikdir.

Erkin Vohidov talmeh san'ati asosida ishqni kuylagan so'z sohibkorlari Hofiz Xorazmiy, Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiylarga ishora qilgan:

Nazm etdi tugal Hofiz-u Sa'diy-u Navoiy,
 Ne qoldi, demang, shoiri davron tugamaydir.

O'quvchi shoir poetik maqsadini yorqinroq anglashi uchun misralar qatida nomlari zikr etilgan buyuk so'z san'atkorlarining ijodidan bahramand bo'lganligi, asrlar davomida nainki Sharq olamida, balki butun jahonga shuhrati keng yoyilganligini bilish lozim. Baytdan anglashiladiki, muhabbat mavzusi abadiy mavzulardan biri ekan, mashhur so'z ustalari maromiga yetkazib nazmga solgan bo'lsalar-da, baribir ishqni kuylash uchun yana buyuk shoirlar dunyoga kelaveradi. Bundan tashqari, "Erkin Vohidov she'riyatida so'z va tovush takrorlari she'riy asarning turli sathlarida namoyon bo'lib, evfonik elementlar va stilistik vositalar orqali shoir poetik g'oyasini ifodalashga va she'r ohangdorligini ta'minlashga xizmat qilgan"⁷.

Xulosa. Erkin Vohidov ijodida Navoiy adabiy an'alariga izdoshlik uning aruz vazni imkoniyatlaridan va badiiy san'atlarni mohirona qo'llanganligi bilan namoyon bo'ladi.

4 Хожиахмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Тошкент: Шарқ, 1998. 112-б.

5 Атоуллох Хусайний. Бадойиъу-с-санойи (Аруз вазни ва бадий воситалар ҳақида). Форсчадан Алибек Рустамов таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981. 212-б.

6 Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2019. 411-б.

7 https://www.researchgate.net/publication/396309063_Erkin_Vohidov_she'riyatida_takroning_badiiy-estetik_funksiyasi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қуроноф Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Фан, 2007. 204-205-б.
2. Vohidov E. Saylanma. II jild. She'r dunyosi. – Toshkent: Sharq, 2001. 249-b.
3. Oripova G. Mustaqillik davri lirikasi: janr xususiyatlari va poetikasi: Filol.fan.d-ri... diss. – Farg'ona, 2024. 162-b.
4. Хожиахмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Тошкент: Шарқ, 1998. 112-б.
5. Атоуллох Хусайний. Бадойиъу-с-санойи (Аруз вазни ва бадий воситалар ҳақида). Форсчадан Алибек Рустамов таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981. 212-б.
6. Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2019. 411-б.
7. https://www.researchgate.net/publication/396309063_Erkin_Vohidov_she'riyatida_takroning_badiiy-estetik_funksiyasi

Shodiyona ABDUGAPPAROVA,
TDO' TAU tadqiqotchisi

MAJOZIY OBRAZLARNING REALISTIK VA TRAGIK IFODA TASVIRI

(Chingiz Aytmatov "asrni qaritgan kun" romani misolida)

Annotatsiya: mazkur maqolada Chingiz Aytmatovning "Asrni qaritgan kun" romanidagi majoziy obrazlarning realistik va tragik ifoda tasviri haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: majoziy obraz, timsol, realistik tasvir, tragik ifoda, hayvon obrazi, ramz, xotira, falsafiy dunyoqarash.

Annotation: this article discusses the realistic and tragic expressiveness of figurative images in Chingiz Aitmatov's novel "The Day That Made a Century Old".

Key words: Metaphorical image, symbol, realistic image, tragic expression, animal image, symbol, memory, philosophical worldview.

Аннотация: в статье рассматривается реалистическая и трагическая выразительность образных образов в романе Чингиза Айтматова «День, прошедший век».

Ключевые слова: метафорический образ, символ, реалистический образ, трагическое выражение, образ животного, символ, память, философское мировоззрение.

Chingiz Aytmatovning badiiy dunyoqarashida hayvon obrazlari oddiy biologik mavjudotlar emas, balki insoniyat tarixidagi murakkab muammolar, tabiat va jamiyatning ziddiyatlarini ochib beruvchi majoziy timsollar sifatida gavdalanadi. Adib realizm va ramziylikni birlashtirgan holda, voqelikni falsafiy-faraziy darajada talqin qiladi. Aytmatov qahramonlarining fojaviy qismati ko'pincha tabiat – hayvon obrazlari orqali yanada teran ma'noga ko'tariladi. Yozuvchi, shunga ko'ra, ularni oddiy odam nuqtayi nazaridan tasvirlashga intiladi. 1960-yillardan Aytmatov hikoyalaridagi hayvonlar obrazlarini keyinchalik romanlarda chuqurlashtirib, Aytmatov uslubining asosiy xususiyatlaridan biriga aylantiradi. Adibning barcha romanlarida majoziy- hayvon obrazlari uchratamiz. Xususan, "Asrni qaritgan kun" romanida insoniyatning tarixiy xotirasi va ma'naviy ildizlaridan uzilishi vujudga kelgan manqurtlik fojiasi bilan yonma-yon Qoranor tuya obrazi keltiriladi. Qoranor – o'z nasliy avlodlari oldida burchini ado etibgina qolmay, fidokorona xizmat qiluvchi hayvon sifatida jamiyatdagi ma'naviy odamlarni ramziy darajada ifodalaydi. Uning obrazida insonning xotiraga, merosga, avlod-ajdod oldidagi mas'uliyatga munosabati yoritiladi. "Qiyomat" romanida insoniylik, vijdon va halollik yo'lida halok bo'lgan Avdiy Kalistratov obrazi bilan yonma-yon Toshchaynar va Akbara timsollari keltiriladi. Oq sochli Toshchaynar – tog'lar kabi qudratli va bardavom ramz bo'lsa, ko'k ko'zli Akbara – tinchimas qayg'u, iztirob va iztiroblikning timsolidir. Shu bilan birga, qonga belangan go'dak Kenjesh va uni bag'rida ko'targan baxtsiz Gulimxonning faryodi jamiyatning ma'naviy-axloqiy fojiasini yanada kuchaytiradi. Bu obrazlar insoniylikka qarshi zo'rvonlik va befarqlik munosabati bilan kelgan ijtimoiy fojiaga ramziy tus beradi. "Qulayotgan tog'lar" da Arsen Samanchin – halollik va vijdoniylikning timsoli sifatida tabiatni

asrash yo'lida o'z hayotini qurbon qiladi. Shu qismat bilan uning obraziga ramziy hamohanglikda Jaabars – qoplani tasvirlanadi. Bu ikki obraz insoniyatning tabiat va shaxslar oldida mas'uliyatini ochib beradi. "Kassandra tamg'asi" romanida esa insoniyat taraqqiyotining fojialari tasvirlanadi. Ular – texnologik taraqqiyotning yovuzlik yo'lida qo'llanishidan aziyat chekayotgan va insonning cheksiz ochko'zligiga qarshi turish yo'lida o'zini o'limga mahkum etgan Kitlar timsolida insoniyatning o'z qo'li bilan yaratgan halokatini badiiy falsafiy obrazga ko'taradi. Chingiz Aytmatov aynan hayvon obrazlarini majoziy darajada xalq xotirasi, milliy qadriyatlar va tabiat timsoli sifatida, realistik tasvirda hayotiy voqealar va tabiiy manzaralar bilan uyg'unlikda, tragik jihatda esa insoniyatning zo'rvonligi va manfaatparastligi qurbon bo'layotgan ramzlar sifatida.

"Asrga qaritgan kun" romani voqealariga e'tibor qaratsak, "Qoranor romanning asosiy syujet ipida doimiy hamroh sifatida ishtirok etadi. U bosh qahramon Edigey bilan yonma-yon yurib, uning hayotiy iztiroblariga guvoh bo'ldi. Qoranorning fidoyiligi, sabr-toqati va sodiqligi bilan u oddiy tuya emas, balki insoniylik, harakatlanish va sadoqat timsoliga aylanadi. U sahro hayotining ajralmas qismi sifatida Edigeyning xotiralari, iztiroblari va xalq taqdiriga bog'lanib ketadi: "Edigey bu ishda ustasi farang edi. U Qoranor Bo'ronni doimo sidqidildan parvarish qiladi. Tuyaning sog'lom va baquvvat ekani uning cho'yanday qo'sh o'rkachi dikkayib turganidan bilinadi. Edigey urushdan qaytib kelib, Bo'ronliga o'rnashib olgan dastlabki yillarda do'sti Kazangap unga sutday oppoqqina, o'rdak bolasiday mayin yungli emizikli bo'taloqni sovg'a qilgan edi. Edigeyning o'zi ham u vaqtlarda hali yosh, qirchillama yigit edi! Sochi oqarib, qariguniga qadar shu yerlarda yashab qolishi uning yetti uxlab tushiga ham kirmagan. Mana, hozir ham

cho'ktirilgan tuyasiga jabduq ura turib, uzun bo'yni uzra jingalak yung, qop-qora kallasini burib, jini qo'zigancha sher kabi bor ovozda bo'kirayotgan Qora- norni goh tovush solib jilovini tortib, goh qo'l sirpab o'z izmiga bo'ysundirar ekan, ish orasida Edigeyning o'tmishi esiga tushib, boshidan kechgan voqealar birin-ketin ko'z o'ngida gavdalanaverdi.¹ Chingiz Aytmatov asarda Qoranor tuya va uning ajdodi Oqmoya timsoli orqali insoniyatning tarixiy xotirasi, fidoyilik va ma'naviy burch masalasini hayvon obrazida majoziy va falsafiy darajaga ko'taradi. Oqmoya o'z naslini asrab qolish uchun qo'shinga qarshi kurashgan va ajdodlar oldidagi burchini ado qilgan timsol sifatida tasvirlanadi. Bu obraz insonning o'z ildizlariga sadoqati va tarixiy xotirani asrab qolish zarurligini ifodalaydi. Oqmoya – xalq xotirasi va avlodlar oldidagi mas'uliyat ramzi, Qoranor esa shu an'ananing davomchisi sifatida talqin qilinadi: "Rahmatli Kazangap Qoranor Bo'ron oddiy tuyalardan emas, balki Nayman ona o'lgandan so'ng Sario'zak dashtida qolgan mashhur Oqmoyaning naslidan tarqagan, deb har doim gapirib yurardi va buni doimo isbotlab berardi. Mana, endi uning jasadini Ona Bayit qabristoniga olib borishyapti.

Edigey Kazangapga juda ishonardi. Nega ishonmasin... Qoranor Bo'ron Oqmoyaning zotidan deyishga arzigulik. Qanchalab yaxshi-yomon kunlarni o'tkazishdi boshlaridan, hamisha jonlariga ora kirib keldi jonivor"² Qoranorning sahroda yurishi, odamlar bilan munosabati Aytmatov tomonidan realistik detallar orqali tasvirlanadi. Tuyaning issiqning yuqoriligida tosh ko'rinishi, issiqda va og'ir sharoitlarda sabr bilan yurishi aniq hayotiy tasvirlarda ko'rinadi. Bu realistik tasvir o'quvchiga tuyaning oddiy hayvon sifatidagi qiyofasini to'la his qiladi. Qoranorning fojiaiyatligi u ham insonlar kabi jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy tanazzulning guvohi bo'ladi. Uning sabr-toqati va sodiqligi jamiyatning beparvoligi, tarixiy xotiradan uzilishi bilan qarama-qarshi qo'yiladi. Oqmoya afsonasi bilan bog'liq holda Qoranor timsolida butun avlodlarning burchi va insoniyatning ildizlarini unutish o'ziga xos tarzda yoritiladi.

Qoranor tuyadan tashqari tulki obrazi romanning kirishida o'ziga xos "prolog" sifatida maydonga chiqadi. U oddiy epizodik jonivor emas, balki butun asar falsafiy mazmunining metaforik kaliti bo'lib xizmat qiladi. Tulki temir yo'l yoqasida yegulik axtaradi, chiroqlar va lokomotivlar shovqini uni larzaga soladi, "ko'zni

qamashtirgan proyektorlar", "oqartirib yuborgan sahra" – texnika kuchining ko'rgazmali metaforasi. Tulking yorug'lik va shovqin zarbidan o'zini yerga urishi tabiiy mavjudotning texnika oldidagi o'zligini ko'rsatadi³: "Qaqrab ketgan jarliklari suvi qurigan soyliklarda rizq ilin- jida xo'rak izlab chiqqan – tulkingning joniga to'zim bersin. U yerteshar mayda jonivorlarning u yoqdan-bu yoqqa g'izillab chopib o'tishini kuzatib ta'qib qilar, goh yumronqoziq ini- ni shosha-pisha kovlay boshlar, goh o'yib ketgan eski jarlik ichida berkinib yotgan kichkinagina qo'shoyoqning nihoyat tashqariga sakrab chiqishini poylab yotardi. Lekin paydar-pay o'tib turgan poyezdlarning quloq- larni qomatga keltiruvchi taraqqat-turuq ovozi har gal uni seskantirib, junjikib olishga majbur etardi. Tulki zaminni larzaga solib, dahshat ichra uchib kelayotgan zil-zambil vagonlarning mo'jizaviy qudratini o'zining butun vujudi, hatto qobirg'alari bilan titrab-qaltiragancha sezib yotardi, har nechuk qo'rquv va begona hidlardan behuzur bo'lishiga qaramasdan, chuqurlikdan chiqmay kech kirib, temir yo'l yoqasining biroq tinchishini kutib yotgan edi u."⁴

Tulki ochlik sabab makonga qaytadi. U texnika ostida yashashga majbur bo'lgan tabiatning timsoli, asarning bosh mavzulari – xotira, zamon, sivilizatsiyani bog'lagan timsol sifatida o'zida ramziy ma'no tashiydi. Romanda Qoranor va tulki obrazlari Aytmatovning tasvirida ikki qutbni ifodalaydi. Qoranor – fidoyilik, sabr-toqat, tarixiy xotira va insoniylik ramzi bo'lib, u Edigey bilan yonmayon yurib, insoniyatning o'z ildizlariga sodiqligi, avlodlar oldidagi ma'naviy burchini ifodalaydi. Tulki esa romanning kirishida epizodik bo'lsada, mazmuniy kalit ramz sifatida xizmat qiladi. U sivilizatsiya va tabiat to'qnashuvini ko'rsatib, texnika kuchi ostidagi tabiiy mavjudotning o'zligini ochib beradi.

Yozuvchi hayvon obrazlarini oddiy biologik mavjudot sifatida emas, balki insoniyatning vijdon, sadoqat va e'tiqod mezonlarini aks ettiruvchi majoziy timsollar darajasiga ko'taradi. Akbara, Toshchaynar, Jaabars, Qoranor kabi obrazlar insoniylikdan uzoqlashgan jamiyat fonida ruhiy poklik, fidoyilik va hayotga sadoqatning ramziga aylanadi. Hayvonlarning fojiaiy qismatida insoniyatning o'z axloqiy qulashi va ruhiy inqirozining eng achchiq aksi ko'rinadi. Aytmatovning badiiy mahorati shundaki, u hayvonlardagi iroda va sadoqatni insoniy qadriyatlardan ustun qo'yib, o'quvchini insoniyat o'z mohiyatidan uzoqlashayotganini anglashga undaydi.

1 Aytmatov Ч. Асрни қаритган кун. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. 39- бет.

2 Aytmatov Ч. Асрни қаритган кун. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015.179-бет.

3 https://ds-exhibits.swarthmore.edu/scalar/the-20th-century-russian-novel/-/the-day-lasts-more-than-a-hundred-years-9-32?utm_source

4 Aytmatov Ч. Асрни қаритган кун. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – Б. 7.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. 40-бет.
2. Abdugapparova.Sh. Adabiyotning ma'naviy baho mezon. T.: Turon zamin ziyo, 2016.182-bet.
3. Aytmatov Ч. Асрни қаритган кун: роман. /Рус тилидан Асил Рашидов таржимаси. – Т.: «Sharq», 2019.560-бет.
4. Рашидов А. Чингиз Айтматов олами. – Т.: «Ўқитувчи» нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. 256-бет.

Iqbol BABAJANOVA,
 Mustaqil izlanuvchi
 olimovamoxinur@gmail.com

SO'Z YASALISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz tilida so'z yasashning muhim yo'nalishlaridan biri - prefiksalar orqali yangi leksik birliklar hosil qilish jarayoni ilmiy asosda tahlil qilinadi. So'z yasalishi til tizimining leksik-semantik boyligini kengaytiruvchi asosiy mexanizmlardan biri bo'lib, prefiksatsiya orqali so'zlarning ma'no va grammatik shakli o'zgaradi.

Kalit so'zlar: *so'z yasalishi, prefiks, morfema, prefiksatsiya, leksik-semantik tizim, morfologiya, antonimiya, sinonimiya, ingliz tili, derivatsiya.*

Аннотация: в данной статье научно анализируется один из важнейших способов словообразования в английском языке – процесс образования новых лексических единиц посредством приставок. Словообразование является одним из основных механизмов расширения лексико-семантического богатства языка, при этом префиксация изменяет как значение, так и грамматическую форму слов.

Ключевые слова: *словообразование, приставка, морфема, префиксация, лексико-семантическая система, морфология, антонимия, синонимия, английский язык, деривация.*

Annotation: this article provides a scientific analysis of one of the key aspects of English word formation – the process of creating new lexical units through prefixes. Word formation serves as a primary mechanism for expanding the lexical-semantic richness of a language, and prefixation changes both the meaning and grammatical form of words.

Key words: *word formation, prefix, morpheme, prefixation, lexical-semantic system, morphology, antonymy, synonymy, English language, derivation.*

Kirish. O'zak va affikslarning tahlili morfologiya bo'limida o'rganiladi. Tilshunoslikning so'z yasash bo'limida birinchi yangi leksik birliklarning qanday hosil qilinishi, ikkinchidan esa yasamalarning qanday paydo bo'lgani o'rganiladi. Bu usullar leksik, semantik, fonetik hodisalar bilan chambarchas bog'liqdir. So'z yasash sohasi ilgari bir butun soha sifatida emas balki morfologiyaning tarkibiy qismi sifatida o'rganilib kelingan. Sababi so'z yasashning ham shakl yasashning ham affiksatsiya usulida yasalishi chalkashliklarni keltirib chiqardi. Masalan: la qo'shimchasi ham so'z ham fe'llikni ko'rsatib beradi.

So'z yasalishi sohasi XX asrning ikkinchi yarmiga qadar tilshunoslikning turli bo'limlar tarkibida o'rganilib kelingan. Akademik A.Xojiyev so'z yasalishini ikki bosqichga ajratib ko'rsatadi: birinchi bosqich: so'z yasalishi tilshunoslikning morfologiya bo'limida o'rganilishi va ikkinch bosqich: so'z yasalishining alohida soha sifatida ajralib chiqishi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab so'z yasalishi tilshunoslikning alohida bosqichida o'rganila boshlandi.

Tilshunos olimlardan S.Usmonov ham so'z yasalishini morfologiyaning tarkibiy qismi sifatida o'rgangan. Uning qayd etishicha: "ba'zi olimlar so'z yasashni leksikologiyaning tekshirish obyekti deb hisoblasalar ham uni morfologik hodisa deyuvchilar ko'pchilikni tashkil etadi. Ayniqsa affiksalar yordamida so'z yasalishi morfologiyaga aloqador[1;69].

Morfologiyaning obyekti so'zning grammatik tomonlarini ya'ni ot, sifat, fe'l kabi grammatik kategoriyalarga bo'linishi, so'zning grammatik nuqtayi nazaridan tahlil qilishi. So'zning morfologik tarkibi deganda morfologik shakllar so'z shakllarining hosil qilinishi so'zlarning leksik-grammatik shakli. O'zbek olimlaridan Q.Sapayev o'zining "Hozirgi o'zbek tili (morfemika, so'z yasalishi va morfologiya)"

kitibida "morfologiyaning asosi keng ma'noda shakl yasashdir, ya'ni so'zning shaklidir"[2; 5] – deya ta'riflaydi.

Morfologik usul so'z yasash tizimining markaziy bo'g'ini bo'lib, u tildagi so'zlar tarkibiy qismlarining (asos va qo'shimcha) birikishiga asoslanadi. Morfologik jarayon so'z yasashda yasaluvchi birlikka so'z yasovchi affiksalar qo'shish orqali yangi so'z hosil qilish jarayonidir. Bu jarayonda so'zga mavjud asosga yangi ma'no beruvchi yoki grammatik funksiya yuklovchi affiksalar qo'shiladi. So'z yasalishida so'z yasovchi affiksalar asosiy ro'l o'ynaydi.

Morfologik jarayonlar tilning nominativ imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Yangi so'zlar vositasida dunyodagi yangi hodisa, predmet va tushunchalar nomlanadi. Masalan kompyuter so'zidan kompyuterchi, kompyuterlashtirmoq kabi yangi birliklar yasalib, yangi tushunchalarni ifodalaydi.

So'z boyligini oshirishga xizmat qiladi. Yangi yasalma so'zlar hisobiga tilning lug'aviy tarkibi kengayib boradi. Bu hol esa tilning kommunikativ kuchini oshirish imkonini beradi. Grammatik kategoriyalarga aniqlik kiritib so'z turkumlarining qo'shimchalar qo'shish orqali o'zgarishini grammatik funksiyasini bajaradi. So'z yasalishi morfologik jihatdan, xalqning dunyoqarashi, tafakkuri va madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Chunki har bir xalqning o'z ehtiyoji, turmush tarzi va fikrlash madaniyatiga mos tarzda yangi so'zlar yasaydi. Shu jihatdan so'z yasalishida morfologik jarayonlarning tillar kesimida o'ziga xos xususiyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Odatda tildagi leksik tarkib haqida so'z yurtiganda, uning xarakteri-ya'ni yangi birliklar bilan boyitish imkoniyati ta'kidlanadi. Bu imkoniyat so'z yasash jarayonlari bilan bog'liq hisoblanadi. Bu bejiz emas albatta negaki, so'z yasash mohiyati va tabiatiga ko'ra, nomlash ehtiyojlariga

javob beradi va tilning mavjud lugʻat vositasidan samarali foydalanadi. Kommunikatsiya jarayonlarida gapiruvchilar mavjud birliklar asosida yangi leksik birliklarni tuzish imkoniyatlaridan keng foydalanadi. Bu esa yangidan – yangi turdagi axborotlarni izlashga imkon beradi. Inson hayotida nomlash jarayonining ahamiyati shundaki, tilning taxminan 70 % lugʻat boyligi hosila soʻzlar, yaʼni maʼlum qoida va vositalar asosida yaratilgan birliklardan iborat.

Soʻz yasashining asoslari bu tilshunoslikning muhim boʻlimlaridan biri boʻlib, u tilimizdagi yangi soʻzlarning qanday shakllanishi, qanday birliklar yordamida yaratilishini va bu jarayonlarning qanday qonuniyatlar, qanday birliklar yordamida yaratilishi va bu jarayonlarning qanday qonuniyatlarga boʻysunishini oʻrganadi. Soʻz yasashi – mavjud til birliklari (asos va affikslar) asosida yangi soʻzlar hosil qilish jarayonidir. Bu jarayon natijasida yangi soʻzlar hosil qilinadi. Soʻz yasashning asosiy funksiyalaridan biri – tilning lugʻaviy tarkibini boyitishdir. Soʻz yasash grammatikaning “xizmatida” boʻlib, turli kommunikativ funksiyalarni bajaradi. Eng muhimlaridan biri soʻzlarning kategoriyasini oʻgartirish (masalan: *paxta-paxtakor, sinf-sinfdoʻsh, doʻst-doʻstlik*) kabi sintaktik roller hosil qiladi.

Tilshunoslikning soʻz yasash sohasida oid tadqiqotlardan rossiyalik tilshunos olim N.N.Asamova oʻz tadqiqotlarida soʻz yasash uchun til elementlaridan foydalanish va ularni kombinatsiyalash mexanizmlarini ochib bergan. Uning fikricha: har bir bosqichda til lugʻaviy boyligining rivojida asosiy vosita bu – soʻz ishlab chiqarish boʻlgan, yaʼni mavjud lugʻaviy materiallardan yangi soʻzlarni yaratish[3;4]. T.F.Yefremovning fikricha soʻz yasash natijasida hosil boʻlgan birlik hosila yoki motivatsiyalangan soʻz deb ataladi. Asos boʻlgan birlik esa motivatsiyalovchi yoki yasovchi deb nomlanadi deb qayd etadi[4; 438]. Rossiyalik tilshunos olimlardan yana biri Z.A.Xaritonchik motivatsiyalovchi birlik – bu yangi birlik tuzilmasi va semantikasi asosini tashkil etuvchi birlikdir. U turli shakllarda qayta ishlashi mumkin. (takrorlash, qisqartirish, kengaytirish orqali). Bu holat tilning soʻz yasovchi vositalar tizimidan kelib chiqadi. Masalan: *atomic – atom; beautiful-beauty, carpetless-carpet*. Ushbu barcha birliklar hosila hisoblanadi. Chunki ular semantik jihatdan asl birliklarga bogʻliqdir.

Rus tilshunoslaridan V.V.Vinogradov soʻz yasash usuli – soʻz yasash tizimidagi tasniflash birligi sifatida deb taʼriflaydi. Uning tasnifiga koʻra soʻz yasashning toʻrt usuli

mavjud boʻlib ular quyidagilar:

Morfologik – affikslar orqali yangi soʻzlar hosil qilish;
Morfologik – sintaktik – soʻz turkumlari orasida oʻtish (masalan, ot-sifat)

Leksik, sintaktik – soʻz birikmalarining yaxlit soʻzga aylanishi (masalan sogʻlom fikrlovchi – sogʻlom fikrli)

Leksik semantic – koʻp maʼnoli soʻzlarning maʼnolari ajralib, mustaqil leksikal birlikka aylanishi (masalan, maslahat va sovet soʻzlari)[5; 107].

V.Vinogradovning ilmiy izlanishlari va tadqiqotlari koʻp yillar davomida foydalanib kelindi. Ammo tilshunoslikning rivojlanishi va taraqqiy etishi natijasida yangi usullar paydo boʻldi. Tarixiy va zamonaviy yondashuvlar tahlil qilina boshlandi.

Sinxronik soʻz yasash usuli hozirgi kunda keng foydalanilayotgan usullardan hisoblanadi. Bu yondashuv quyidagi ikki mezonga koʻra tasniflanadi. Rossiyalik olimlar soʻz yasash usuliga ikki xil yondashuvni ishlab chiqishdi. Birinchisi soʻz yasovchi formatning turi asosida va yasovchi bazaning tabiati asosida belgilanadi.

Soʻz yasovchi formatning turi morfologik usullar va nomorfologik usullarga ajratilgan. Morfologik usullar prefiks, suffiks, postfiks, kombinatsiyalashgan usullar, soʻz qoʻshish usullari bilan soʻz yasaladi. Nomorfologik usullarda esa abbreviatsiya usuli yaʼni qisqartmalar sifat va sifatdoʻshlardan ot yasash, sintaktik qoʻshimchalar orqali soʻz yasash. Bu morfologik soʻz yasash usullariga kiradi. Yasovchi bazaning tabiati asosida soʻz yasash usullariga bitta asosli yasash suffikatsiya, perifikatsiya, postfikatsiya va substantivatsiya orqali soʻz yasash, ikki yoki undan ortiq asosli soʻz yasash: qoʻshma soʻzlar, abbreviatsiya va sintaktik usul. Bu yerda morfologik va nomorfologik usullar oʻrtasida chegara aniq belgilanadi.

Xulosa. Soʻz yasashi til tizimining eng muhim boʻlimlaridan biri boʻlib, u tildagi yangi birliklarning hosil boʻlish jarayonlarini, ularning maʼno va shakl jihatdan oʻzaro munosabatini oʻrganadi. Soʻz yasash nazariyasi leksik, morfologik va semantik tizimlarning oʻzaro bogʻliqligini yoritib beradi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, har bir tilda soʻz yasashning oʻziga xos ichki qonuniyatlari mavjud boʻlib, ular tarixiy taraqqiyot, grammatik qurilish va xalqning dunyoqarashi bilan chambarchas bogʻliqdir. Nazariy jihatdan soʻz yasash jarayonlari morfemik tarkib, derivatsion model va semantik motivatsiya asosida tahlil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmonov S. Oʻzbek tilida soʻzning morfologik tuzilishi. – T., 2010 (1964) 69-bet.
2. Sapayev Q. Hozirgi oʻzbek tili (morfemika, soʻz yasash va morfologiya) –T., 2009.5-bet.
3. Амосова Н. Н. Этимологические основы словарного состава. / Н. Н. Амосова – М. : Изд-во лит. на иностр. яз., 1956. –С 4.
4. Ефремова, Т. Ф. Толковый словарь словообразовательных единиц русского языка [Текст] / Т. Ф. Ефремова - М.: Академия 2006. –С 438.
5. Виноградов В. В. Основные типы лексических значений слова. Виноградов в. В. Лексикология и лексикография: Избранные труды. М.: 1977 –С. 107.



Boburjon TOJIBOYEV,
Namangan davlat pedagogika instituti
mustaqil izlanuvchisi
E-mail: boburjontojiboyev6998@gmail.com

GEYMIFIKATSIYA – O‘QUV MATERIALLARINI SAMARALI O‘ZLASHTIRISH OMILI

Annonatsiya: adabiy ta’lim jarayonida o‘quv materiallarini o‘zlashtirishni ta’minlashga qaratilgan o‘yin ssenariysi o‘z ichiga asar syujeti bilan bog‘liq muammo doirasidagi maqsad, vazifa va natijalarni qamrab oladi. O‘qituvchi ushbu elementlarni dars mazmunini yanada maroqli qilishga yo‘naltirishi zarur. Belgilangan maqsadga erishish uchun ketma-ket hal qilinishi muhim sanalgan o‘zaro bog‘liq o‘yin vazifalarini rejalashtirish o‘rinlidir. Mazkur maqolada shu haqda so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *geymifikatsiya, simulyatsiya, o‘yin, motivatsiya, rag‘bat, muloqotga kirishimlilik, o‘zaro ta‘sir, do‘stona munosabat.*

Аннотация: сценарий игры, направленный на обеспечение усвоения учебного материала в процессе литературного образования, включает цели, задачи и результаты в рамках проблемной области, связанной с темой произведения. Учитель должен направлять эти элементы на повышение интереса к содержанию урока. Целесообразно планировать взаимосвязанные игровые задания, последовательное решение которых считается важным для достижения поставленной цели. В данной статье обсуждается этот вопрос.

Ключевые слова. *геймификация, моделирование, игра, мотивация, стимул, коммуникация, взаимодействие, дружелюбие.*

Annotation: the game scenario, aimed at ensuring the mastery of educational material in the process of literary education, includes goals, tasks, and results within the framework of a problem related to the subject of the work. The teacher should direct these elements to make the lesson content more interesting. It is appropriate to plan interconnected game tasks, the sequential solution of which is considered important to achieve the set goal. This article discusses this.

Key words: *gamification, simulation, game, motivation, incentive, communication, interaction, friendliness.*

Adabiy materiallarni oson o‘zlashtirishda ma’lum maqsad va tartib bilan olib boriladigan o‘yin vazifalarini hal qilish muhim o‘rin tutadi. Bu esa o‘quvchilarga asar qahramonlari hayotiga ta‘sir ko‘rsatish imkonini berishi barobarida o‘quv motivatsiyasini oshirish va jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishi nuqtayi nazaridan ham samaralidir. Badiiy asar matni ustida ishlash bilan bog‘liq holda tashkil etiladigan didaktik tahlil, suhbat yoki adabiy musobaqalarda kuchli raqobat elementlari mavjud. Bunda o‘quvchilar yakka yoki guruhlarda jamoa bo‘lib faoliyat yuritish orqali bilimlarini mustahkamlaydi, o‘zaro fikr almashadi, raqobat asosida bir-biridan o‘rganishadi.

Simulyatsiyalardan foydalanish adabiyot darslarida alohida o‘rin tutadi. Zero, bunda badiiy asarlarda akslangan muammolar bilan real hayotdagi kabi vaziyatlar simulyatsiya qilinadi. Simulyatsiya – “Biror real voqea yoki vaziyatni sun‘iy yaratish (odatda o‘rganish maqsadida)” [1]. Shunga ko‘ra har bir o‘quvchi ekspert rolini ijro etadi. Ular, asosan, real hayotda yuzaga keladigan o‘yinga asoslangan muammolarga yechim topishadi. O‘yin ssenariysining asosiy maqsadi o‘ziga jalb etadigan kontekst yaratish va o‘quvchilarni loyihaga uzoq vaqt davomida qiziqtirishdan iborat.

Badiiy asar matni ustida ishlash jarayonida har bir o‘quvchining nuqtayi nazari alohida o‘rin tutadi. Bu, albatta, o‘quv tahliliga ham jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi. Har bir yangi qadam kompyuter o‘yinidagi kabi qilingan tanlovga uzviy bog‘liq. Gamifikatsiya o‘quvchilarning aqliy rivojlanishi, adabiy bilimlari shakllanishi, motivatsiyaga ega bo‘lishlari hamda kundalik hayotida asqotadigan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish

maqsadiga qaratilgani bilan ajralib turadi.

O‘yin elementlariga asoslangan adabiyot darslari oddiydan murakkab darajalar asosida tashkil etiladi. Buning natijasida o‘quvchilar asarni o‘rganish yuzasidan qo‘yilgan maqsadga erishish uchun rejalashtirilgan vazifalarni bajarishga intilishadi va o‘z yutuqlarini xolis baholashga erishadilar. O‘yinga asoslangan didaktik tahlil jarayonida bir necha usullardan foydalaniladi. Bu ta’lim oluvchilarga qaror qabul qilishlarida erkinlik, tavakkal qilish va tajriba o‘tkazishga zarur shart-sharoit yaratadi. O‘quvchilarga darsda o‘z fikr-mulohazalarini bildirishga qulay shart-sharoit yaratish o‘quv jarayonini tezlashtiradi va o‘tilgan materialni eslab qolishni yanada yengillashtiradi. O‘quvchilar ko‘rsatgan natijalariga qarab rag‘batlarga ega bo‘ladi. O‘quv tahlilini o‘yinning turli yo‘llari bilan uyushtirish mumkin. Masalan, o‘yinga asoslangan adabiy tahlil jarayoni muayyan belgilardan iborat hikoya atrofida amalga oshiriladi. Jarayonda syujetdagi maroqli sarguzasht tizimi rivojlanib borishi o‘quvchilarni o‘ziga jalb etadi. Buni 5-sinfda X.To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” [4: 102–124-b.] yoki 6-sinfda G.G‘ulomning “Shum bola” [3: 18–31-b.] asarlaridan berilgan parchalarni rejalashtirish jarayonida e‘tiborga olish joiz. Tahlildagi har bir topshiriq bajarilgach, vaziyat yangi bosqichga o‘zgarib boradi. Shundan so‘ng murakkabroq vazifalarni bajarishga kirishiladi. Aniqlikni ta’minlash borasida har bir o‘quvchi qo‘lga kiritgan natija foizi taqdim etiladi. Tahlilda yechimi berilgan muammoli vaziyatning murakkabligiga qarab o‘quvchilar ballar yoki turli nominatsiyalar bilan rag‘batlantiriladi.

Gamifikatsiyada o‘quvchilarning hayotiy ko‘nikmalarini

rivojlantirishga ta'sir etuvchi jozibador vizual vositalar mavjud. Bunday vositalar yordamida o'quvchilar e'tiborini aniq rejalashtirilgan dizayn, interfeys va kontent bilan aloqa o'ziga tortadi.

O'yin elementlari ishtirokidagi o'quv tahlili davomida sog'lom raqobatga asoslangan faoliyat turlarini tashkil etish o'rindir. Bunda barcha o'quvchilar uchun maxsus reyting yaratish zarur. Shundagina ular asar mutolaasiga faol kirishish, badiiy matn ustida ishlash doirasidagi faoliyat turlarini tashkil etishga harakat qiladilar. Maxsus reyting o'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirishga motivatsiya beradi.

O'quv maqsadlariga qaratilgan o'yin elementlarining muhim xususiyatlari o'quvchilarga erkinlik berishdan iborat ekanligidir. Bu esa ularga intellektual imkoniyatlarini namoyon etish, tajribalarini oshirish va his-tuyg'ularini ifodalash uchun qulay sharoit yaratadi. Zero, bu an'anaviy ta'limda muayyan darajada cheklanganini ta'kidlash joiz. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning o'yin davomida orttirgan tajribalarini mustahkamlashga yordam beradi. Gamifikatsiya ta'lim oluvchilarda o'ziga nisbatan ishonch hislarini oshiradi. Ya'ni, rejada belgilangan maqsadga erishish kutilgandek natija bermasa, qayta urinish va muvafaqiyatli yakungacha harakat qilishlarini ta'minlaydi.

Matn ustida ishlashga oid o'yin elementlari ish jarayonida o'quvchilarni ruhan yaqinlashtiradi, qo'lga kiritgan yutuqlaridan faxrlanish tuyg'ularini shakllantiradi. Badiiy asar personajlari xatti-harakatlari asosida hayotdagi turfa fe'l-atvorga ega odamlarni o'rganishga zamin hozirlaydi, ijodiy tafakkurini o'stiradi, kommunikativ ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Zero, o'yinlar monotonlikni buzadi, sog'lom odatlarni rivojlantiradi. Eng muhimi, har qanday faoliyat turida asosiy e'tiborni muvaffaqiyatli natijani ta'minlashga qaratadi, egallangan bilimlarni amalda qo'llashga qulay muhitni yuzaga keltiradi. "Geymifikatsiya ba'zan tushunarsizligi bois bilimlarni amalda qo'llash orqali hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish ehtiyojini oshiradi. Bu fiziologik nuqtayi nazardan yondashganda o'zlashtirilgan ma'lumotlarni eslab qolish, ijobiy his-tuyg'ular bilan uzviy bog'liq serotonin garmonining faol ishlab chiqilishiga sabab bo'ladi" [2].

O'quv maqsadlariga qaratilgan o'yinlarni rejalashtirishda har bir o'quvchiga asardagi voqealar, adabiy qahramonlar va syujet elementlariga odatdagidan boshqacha yondashib fikr yuritish zarurligini yetkazish maqsadga muvofiq. Shu jihatdan qaralganda o'quvchilarning shaxsiy sifatlariga e'tibor qilish o'rindir. Masalan, jarayonga xohish bilan kirishish. O'yin davomida o'quv muammosini hal qilishga doir imkoniyatlar izlanadi, bu esa jarayonni qiziqarli qiladi. O'yinga boshchilik qilayotgan yoki faollikni qo'lga olgan o'quvchilar uchun noan'anaviy fikrlar juda muhim hisoblanadi. Bu borada

har xil kontent, xarita, jumboq va maslahatlar qo'l keladi. Geymifikatsiyada o'quvchining har bir harakati tan olinishi taqozo etiladi. Shu bois ballar, darajalar, peshqadamlar jadvali kabi rag'bat vositalari motivatsiya sifatida ko'riladi. Muloqotga kirishimlilik, o'zaro ta'sir va do'stona munosabatlar uning ijtimoiylashtiruvchi xususiyatidir.

O'yin elementlari kontekst va o'quv maqsadlariga muvofiq bo'lishi joiz. Shuningdek, har bir topshiriq yoki vazifaning murakkablik darajasiga mos, hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan va yuqori samaradorlikni ta'minlashga doir rag'bat turi tanlanishi lozim. Shu maqsadda o'quvchilarning ijodiy dinamikasi va tajribasini aniqlashga mos keladigan o'yin mexanizmini ishlab chiqish mumkin. Bunda maqsadlar o'yin mazmuni, jarayonning boshlanishi va davomiyligi hamda yakunini ifoda etishga qarab belgilanadi. Ularga yashirin, uzoq va qisqa muddatli, individual hamda jamoaviylik muhiti xosligini qayd etish mumkin. O'yin vaqtida o'quv harakatlari bir marta yoki undan ko'p marta, qayta-qayta bajarilishi va murakkablashishi bilan farqlanadi.

O'yin yuzasidan fikr-mulohazalar undagi ishtirokchilarning harakatlariga nisbatan javob, shuningdek, davom ettirishda zarur bo'lgan ma'lumotlardir. Asar syujetiga ko'ra o'quvchilar fikr-mulohazalarni muayyan nuqtaga o'zgartirishi mumkin. Ma'lumotlarning sifatli va qiziqarli bo'lishi o'yinni davom ettirishga nisbatan motivatsiyani oshiradi.

Gamifikatsiya o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilishi lozim, chunki u guruhdagi har bir a'zo bilish jarayonlariga to'g'ri kelmasligi mumkin. Shu bois o'yinning mazmunini tuzishda turli yondashuvlarning tarkibini vaziyatga moslashtirish taqozo etiladi. Yondashuvlar o'yin elementlarini o'yindan tashqari holatlarda qo'llash usullaridir. Strukturaviy yondashuv – an'anaviy o'qitish usullariga yangi o'yin elementlarini kiritishdir. Masalan, bunda reyting tizimini ishlab chiqish va odatdagi darsda topshiriqlarni bajarganliklari uchun ball berishni o'z ichiga oladi. O'quv materialini tadqim etishning mazmuni va uslubi o'zgarib boradi. Bunga "Hikoya tuzing", "Rollarni belgilang" kabi topshiriqlarni misol qilish mumkin. Har ikkala holatda ham asosiy maqsadga e'tibor berish, ishtirokchilar o'rtasida sog'lom raqobatni saqlab turish muhimdir.

Xulosa qilganda, o'yinlarning o'ziga xos shakllari mavjud. Shaki esa mavzuga asoslangan tarkibni taqdim etishning mantiqiy usulidir. Bunda muayyan bilimlarni rivojlantirish nazarda tutiladi. O'quvchilar o'yin asosida asar mavzusini o'zlashtiradilar. Bunda meta-mavzu adabiy kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadini nazarda tutadi. O'quvchilar muammoli savollar qo'yish yoki muammoli vaziyatlar yaratishni o'zlashtiradilar. Binobarin, gemifikatsiyaning ma'lum tartib asosida o'tkazilishi muhokama va bahs-munozaralar uchun qulaylik tug'diradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://izoh.uz/uz/word/simulyatsiya>
2. <https://skillspace.ru/blog/gejmifikatsiya-v-obuchenii-luchshe-igrovye-priemy/>
3. Mirzayeva Z. Djallilov K. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablari 6-sinflari uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. 224-bet.
4. Yo'ldoshev Q. va boshq. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinflari uchun darslik. 2-qism. – Toshkent: Edutainment, 2024. 128-bet.

Fotima ISMOILOVA,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
tayanch doktoranti
fotimaismoilova813@gmail.com
Gulshan SHODIYEVA,
Pastdarg'om tumani
70-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

ISTIQLOL VA TARIXIY ROMANCHILIK TARAQQIYOTI

Annotatsiya: ushbu maqolada tarixiy va mustaqillik davri romanchilik taraqqiyoti tahlilga tortildi. Necha asrlardan buyon taraqqiy etib kelayotgan bunday katta epik janrning o'zbek adabiyotidagi o'rni atroflicha o'rganildi. Romanchilik taraqqiyoti barcha davlatlarda necha yuz yillar oldin boshlangan bo'lsa-da, bizning diyorumizda XX asrning boshlaridan "o'zbek romani" deb ayta oladigan romanlar vujudga kela boshladi. Shu davrga qadar ba'zi mualliflar tomonidan "roman janridagi asar" deya tanishtirilgan asarlar o'zida roman janrining to'la imkoniyatlarini qamrab ola olmagan. Bunday muvaffaqiyatli ishni eng avval jadidlarimizdan Abdulla Qodiriy o'zining "O'tkan kunlar" romani bilan uddasidan chiqdi. Roman turlari ichida, ayniqsa, tarixiy roman janri tarixiy saboq vazifasini bajarishi, o'tmishda o'tgan bobolarimiz xotirasi haqida mukammal ma'lumotlarni bera oluvchi, chin ma'noda o'zining o'quvchilariga ega epik asar hisoblanadi. Mustaqillik yillarida tarixiy mavzuda mukammal ishlagan yozuvchilarimizdan biri Isajon Sulton romanlariga ham qisman to'xtalindi.

Kalit so'zlar: roman, romanchilik taraqqiyoti, tarix, tarixiy roman, istiqlol davri romanchiligi, xalq xotirasi, badiiy haqiqat, o'lmas siymolar.

Аннотация: в данной статье анализируется развитие романистики в исторический период и период независимости. Роль этого крупного эпического жанра в узбекской литературе, развивавшегося на протяжении многих веков, была тщательно изучена. Хотя развитие романистики началось сотни лет назад во всех странах, в нашей стране с начала XX века начали появляться романы, которые можно назвать «узбекским романом.» До сих пор произведения, представленные некоторыми авторами как «произведения в жанре романа,» не могли полностью охватить возможности жанра романа. Эту успешную задачу первым выполнил один из наших джадидов Абдулла Кадыри со своим романом «Минувшие дни.» Среди типов романов, особенно жанр исторического романа, выполняет задачу исторического урока, является эпическим произведением, которое может предоставить исчерпывающую информацию о памяти наших предков в прошлом и по-настоящему имеет своих читателей. Были частично затронуты романы Исаджона Султана, одного из наших писателей, мастерски работавших на исторические темы в годы независимости.

Ключевые слова: роман, развитие романистики, история, исторический роман, романистика периода независимости, народная память, художественная правда, бессмертные личности.

Annotation: this article analyzes the development of historical and independence-era novel writing. The role of such a large epic genre, which has been developing for many centuries, in Uzbek literature has been studied in detail. Although the development of novel writing began centuries ago in all countries, novels that can be called "Uzbek novels" began to emerge in our land from the beginning of the 20th century. Until now, works introduced by some authors as "works of the novel genre" could not fully encompass the possibilities of the novel genre. Such a successful work was first accomplished by one of our Jadids, Abdulla Qodiriy, with his novel "Days Gone By." Among the types of novels, the genre of the historical novel serves as a historical lesson, provides comprehensive information about the memory of our ancestors, and is considered an epic work with its own readers. The novels of Isajon Sultan, one of our writers who worked excellently on historical themes during the years of independence, were also partially touched upon.

Key words: novel, development of novel writing, history, historical novel, independence period novel writing, people's memory, artistic truth, immortal figures.

So'nggi yillarda tadqiqotchilar diqqat markazida bo'layotgan mavzular ko'pchilikni tashkil etadi. Shular orasida romanchilik taraqqiyoti borasida ko'plab

ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, istiqlol va tarixiy romanchilik taraqqiyoti yillar davomida sayqal topib bormoqda. O'zbek adabiyotida roman janriga

mansub asarlar XX asrning boshlarida yozila boshladi.

Roman uzoq tarixga ega janr hisoblanadi. Bu janr hozirda ulkan bir adabiy-estetik janrga aylanganiki, bugungi kun adabiyoti taraqqiyotini romansiz tasavvur qilish mumkin emas. Ammo shuni ta'kidlash joizki, o'zbek adabiyotida o'zbek romanchiligi bosib o'tgan yo'lda roman janrining o'tmishi ham bo'lgan, kelajagi esa yanada porloq. [5, 1969] Haqiqiy roman xalqning o'tmishi va buguniga tegishli dolzarb voqealarni, real ziddiyatlarni akas ettiradi. Hayotning taraqqiyot bosqichlaridagi murakkab masalalarini tahlil qiladi. Shu ma'noda roman tarixi – xalq tarixidir. Shu bilan barobar, u kelajak yo'lini yoritadigan ijtimoiy saboqlar majmuasidir. [302, 1991]

Eng avvalo, roman janrining qachon paydo bo'lganligiga to'xtalsak, bu atama XII-XIII asrlarda G'arbiy Yevropada paydo bo'lgan. Roman tillarida yaratilgan she'riy va nasriy asarlar dastlab shu nom bilan nomlangan. XV asrdan boshlab bu atama bevosita "hikoya", "bayon qilish" degan ma'nolarda qo'llanila boshlangan va epik turning eng katta hajmli janri roman deb nomlandi. Bilamizki, romanda shaxs va jamiyat hayoti bir-birini inkor etmaydigan, ma'lum ma'nodagi mustaqil olam sifatida tahlil etiladi. Aynan shu xususiyat roman janri mundarijasining o'ziga xos tabiatini belgilab beradi.

Dunyodagi oltinchi romanchilik maktabi asoschisi Abdulla Qodiriy o'zining o'zbek adabiyotidagi ilk roman janriga xos barcha xususiyatlarni o'zida jamlagan "O'tkan kunlar"ni yaratdi. Adabiyotshunos, professor Uzoq Jo'raqulov bu roman haqida shunday deydi: "Bugungi o'quvchini bilmadim-u, biz tengi, bizdan oldingi avlod o'quvchilari eng ko'p o'qiydigan roman qaysi, degan savol qo'yilsa, buning javobi, albatta,

"O'tkan kunlar" bo'ladi. Qiyosni o'zimdandigan bo'lsam, agar ko'p bo'lmasa, bu kitobni 30-40 martacha o'qib chiqqan bo'lsam kerak" [4, 2022].

Qozoq yozuvchisi Muxtor Avezov "O'tkan kunlar" romani yaratilishi voqeasini shunday tasvirlaydi: "Abdulla Qodiriy... romanlari go'yo tekis sahroda to'satdan Pomir tog'lari vujudga kelganday paydo bo'ldi", – degan edi. [302, 1991]. Adabiyotshunos, professor Azimiddin Nasirov o'zining "Badiylik va hayotiy haqiqat" monografiyasida tarixiy roman janri haqida shunday to'xtaladi: "Tarixiy asarlar o'tmish haqida ma'lumot berishi bilan cheklanmasdan, uni obrazlar, voqelikni badiiy tasvirlash orqali o'quvchini avlod-ajdodlari yashayotgan zamon va makon, o'sha davr urf-odatlarini, munosabatlari, o'ziga xos qadriyatlarini bilan tanishtiradi. Roman o'zida tarixni ham, voqelikni ham juda chuqur in'ikos etadi". [4, 2019]

Shundan keyin ko'plab mashhur romanlar yaratila boshlandi. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani, Oybekning "Qutlug' qon", "Navoiy" romani va boshqalar. Bu romanlar sovet davri mafkurasidan uzoqlashmagan holda yozilganligiga qaramay, ularda milliy ruh, o'zbekning or-nomusi ham yaqqol aks etib turardi. Mustaqillik tufayli o'zbek adabiyotida 70 yil hukmronlik qilgan sotsialistik realizm metodining barham topishi roman janrining erkin nafas olishi va yanada rivojlanishiga turtki bera oldi. Mustaqillik davri romanchiligi voqealarning yorqin manzaralarini ta'sirli va qiziqarli qilib ko'rsata bilishi, o'ziga xos obrazlar tizimi, davr o'zgarishlarining yorqin ifodasi bilan ajralib turadi. Shu o'rinda adabiyotshunos D. To'rayevning quyidagi fikrlarini keltirib o'tsak: "Istiqlol davri milliy nasrimiz taraqqiyotining muhim tamoyillaridan biri mafkura tazyiqidan qutulgan ijodiy jarayonda yuzaga kelgan erkinlashtirish natijasida mavzular doirasining kengayganligi va xalqimiz turmush tarzini, ularning turfa xil ruhiy-psixologik kechinmalarini adabiyotimizdagi mavjud milliy an'analar va jahon adabiyotidagi ilg'or tajribalardan ta'sirlanib, o'ziga xos turli tasvir usullarida aks ettirayotganligidir" [178, 2008].

O'zbek adabiyotida istiqlol davri milliy o'zlikni anglash, tarixga yangicha qarash, ilgari sovet mafkurasini taqiqlagan yoki bir tomonlama tadqiq qilingan mavzularni qayta yoritish imkoniyatini yaratdi. Tarixiy romanlardagi tarixiy voqealar mafkuraviy buyruq asosida emas, balki xalq xotirasi, badiiy haqiqat nuqtayi nazaridan yoritilmoqda. Keyingi yillarda, ayniqsa, mustaqillikdan so'ng tarixga, qadimiy qadriyatlarga, jumladan, tarixiy shaxslar siymolarini badiiy gavdalantirishga alohida e'tibor berildi. Shu o'rinda O'zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonning tarixiy romanlariga murojaat



qilishimiz lozim. Yozuvchining tarixiy mavzudagi romanlari chin ma'noda mutafakkirlarimiz xotirasini tiklash, xalqimiz o'tmishini qaytadan "tiriltira olgan" deyishimiz mumkin.

Uning "Alisher Navoiy", "Abu Rayhon Beruniy", "Bilga xoqon" romanlari badiiy estetikasi, voqealar rivoji qizg'in, o'quvchiga zavq bera oladigan romanlardan hisoblanadi. Yana shunisi muhimki, Isajon Sulton "Alisher Navoiy" romanini yozishda tarixiy ma'lumotlarni sinchiklab o'rganadi, tahlil qiladi. Unda Oybekning "Navoiy"sidan farq qiluvchi, aniq faktlar asosida o'rganilgan ma'lumotlar jamlangan. Shuningdek, Isajon Sultonning — Alisher Navoiy romanida tarixiy haqiqat va badiiy to'qimaning uyg'unlashgan holatini ko'rishimiz mumkin. Asarni o'qish jarayonida yozuvchi kitobxonni o'tmish voqealari sari chorlar ekan, badiiy to'qimadan unumli foydalanadi, o'z badiiy mahoratini o'sha davrda yuz bergan voqeadek yetkazib bera olishga harakat qiladi. Romandagi voqealar rivojining kaliti sifatida — "Dumli yulduz siri" bobi asosiy o'rin tutadi.

Hozirgi davr romanchiligida kechayotgan badiiy evrilishlar adabiy jarayonning birmuncha faollashganidan darak berish barobarida, roman poetikasiga ham ta'sir qilmay qolmaydi. Romanchilik va uning tegrasida kechayotgan bahs-munozaralar, ilmiy tadqiqotlar tahlili taraqqiy etgan jamiyatlarda bo'lgani kabi bizning jamiyatimizning ham badiiy-

estetik tafakkuri darajasini aynan roman inkishof etishi, bugungi muttasil o'zgarib borayotgan adabiy jarayonda roman taqdiri yozuvchilarimiz uchun ham, adabiyotshunoslarimiz uchun ham eng muhim muammo bo'lib qola berishini ko'rsatadi.

Yozuvchi yoki shoirning tarixiy mavzuga murojaat etishdan maqsadi kitobxonlarni tarixiy o'tmishdagi muhim voqealar, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishtirish, ularda o'z xalqining tarixiy o'tmishiga nisbatan hurmat tuyg'usini uyg'otish va shu yo'l bilan ma'rifatli avlodni tarbiyalash; zamondoshlarni tarixiy o'tmish voqealaridan, tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatidagi ibratli tomonlardan saboq olishga undash; bugungi voqelikdagi ayrim noxush voqea va hodisalarga tarixiy o'tmish voqealarini tasvirlash orqali munosabat bildirishdir. Ammo tarixiy janrning taraqqiy etishi bilan yozuvchi yoki shoirdan tarix haqiqatiga sodiqlik talab etila boshladi.

Xullas, roman fikr-mulohazalar, falsafiy-siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy bahs, mushohadalarning jonli xarakterlarda ifoda etuvchi janr. Bu janr kitobxonni yo'llashga, mushohada yuritishga undaydi, ruhiy va ma'naviy jihatdan boyitadi. Badiiy adabiyotda eng ko'p muhokamalarga sabab bo'luvchi, ko'pchilik tomonidan uzoq kutiladigan, o'zida katta bir davrni qamrab oluvchi, ko'plab kitobxonlariga ega janr bu, shubhasiz, roman janridir. Roman — tarixning tiniq oynasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тўраев Дамин. Янги ўзбек адабиёти. — Тошкент. Фан, 2008. — Б. 178.
2. Uzoq Jo'raqulov. O'zbek romani genezisi. Monografiya. — Toshkent: "Nurafshon business", 2022. 74-bet. Sobir Mirvaliyev. O'zbek romani. — Toshkent: Fan, 1969. 310-bet.
4. Azimidin Nasirov. Badiiylik va hayotiy haqiqat. ("Yulduzli tunlar" romani misolida"). — Turkiya, Istanbul: KESIT, 2019. 139-bet.
5. Adabiy turlar va janrlar (tarixi va nazariyasiga oid). Uch jildlik. 1-jild. Epos. — Toshkent: Fan, 1991.
6. Mustaqillik davri o'zbek romanchiligi: badiiy va ilmiy tafakkur masalalari. <https://jdpu.uz/mustaqillik-davri-ozbek-roman%D1%87iligi-badiiy-va-ilmiy-tafakkur-masalalari/>



Zarnigor IBROHIMOVA,
 Farg'ona davlat universiteti 2-kurs doktoranti
 Zarijon0611@gmail.com
 ORCID ID 0009-0007-7294-0113

TILSHUNOSLIKDA LINGVOKULTUROLOGIYA MASALASINING O'RGANILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada lingvokulturologiyaning kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari va uning tilshunoslikda tutgan o'rni to'g'risida so'z yuritiladi. Maqolada til va madaniyatning bog'liqligi, madaniyatning tilda aks etishi haqidagi fikrlar ham o'z ifodasini topgan. Shuningdek, lingvokulturologik tadqiqotlarda xalqning mentaliteti, madaniy axloqi, qadriyat tizimi til orqali tahlil qilinib, frazeologizmlar, metaforalar, maqollar, milliy obraz va o'xshatishlarning semantik qatlamlarini ochib berishi to'g'risida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: *lingvokulturologiya, milliy o'ziga xoslik, madaniy semantika, lingvomadaniy konsept, lingvokulturema, marosim, obraz.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются происхождение, этапы развития и роль лингвокультурологии в лингвистике. В работе раскрываются взаимосвязь языка и культуры, а также отражение культуры в языке. Кроме того, в лингвокультурологических исследованиях через язык анализируются менталитет народа, культурная этика, система ценностей; уделяется внимание семантическим слоям фразеологизмов, метафор, пословиц, национальных образов и сравнений.

Ключевые слова: *лингвокультурология, национальная самобытность, культурная семантика, лингвокультурный концепт, лингвокультурема, обряд, образ.*

Annotation: this article discusses the origin, stages of development, and role of linguoculturology in linguistics. It explores the interrelation between language and culture, emphasizing how culture is reflected in language. Furthermore, the study examines how a nation's mentality, cultural ethics, and value system are analyzed through language, highlighting the semantic layers of phraseological units, metaphors, proverbs, national images, and comparisons.

Key words: *linguoculturology, national identity, cultural semantics, linguocultural concept, linguocultureme, ritual, image.*

Kirish. Jahon tamaddunida ilk bor savdo-sotiq orqali iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlangan bo'lsa, vaqtlar o'tib ilm-fan rivoji natijasida ilmiy aloqalar ham sayqallanib, mustahkamlanib borgan. Biroq ularning barchasining negizida til borki, u bu aloqalarning asosi va bog'lovchisidir. Til muloqot vositasidir. Til insoniy aloqalarni ifodalovchi, jamiyatni, millatni bir-biriga bog'lovchi rishta sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Qayd etish joizki, til ijtimoiy hodisa bo'lishi bilan bir qatorda madaniyat bilan chambarchas bog'liqdir.

Demak, tilda madaniyat aks etadi, o'z navbatida, madaniyat til orqali namoyon bo'ladi. Bu ikkisi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiradi va ifoda etadi. Bugungi kungacha jahon miqyosida tilshunoslikda bunga alohida e'tibor berilgan, til va madaniyatning o'zaro ahamiyati hamda bog'liqligi yuzasidan qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, til va madaniyat mavzusini yoritishda fanda bir qancha yondashuvlar mavjud.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. "Birinchi yondashuv rus faylasuflari A.Atanovskiy, G.A.Brutyan, Y.I.Kukushkin, E.S.Markaryanlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosiy mazmuni quyidagicha: til va madaniyatning

o'zaro aloqasi bir tomonga bo'lgan harakatdir, til borliqni aks ettiradi, madaniyat esa bu borliqning ajralmas qismidir, til madaniyatning in'ikosidir"[3].

Ikkinchi yondashuv g'oyasi – tilni ruhiy quvvat sifatida tushunish, ya'ni bunda tilning madaniyatga ta'siri o'rganiladi [2]. Unga ko'ra, insonlar olamni o'z ona tillari vositasida ko'radi [3]. Bu gipoteza E.Sepir va B.Uorf maktabi qarashlariga tegishlidir.

"Uchinchi yondashuvga ko'ra, til madaniyatning dalilidir[3]. Ya'ni,

1) til – biz ajdodlarimizdan meros qilib olgan madaniyatning tarkibiy qismi;

til – madaniyatni o'zlashtirishning asosiy vositasi;
 til – barcha madaniy hodisalarning eng muhimi".

Ushbu yondashuvga ko'ra, til va madaniyatning o'zaro aloqadorligiga va bir-biriga ta'sir ko'rsatishiga urg'u beriladi. Til har bir xalq mentalitetini va dunyoqarashini o'zida namoyon etadi. Shuningdek, xalq madaniyatini ham tilda topsa bo'ladi, chunki folklorida, marosim va udumlar leksikasida biz muayyan xalqning ongi, tasavvurlari, umuman olganda, butun ma'naviy madaniyatini his qilishimiz mumkin.

Natijalar va muhokama. XX asr oxirlariga kelib,

tilshunos va madaniyatshunos olimlar yuqoridagi aloqalarning mushtarakligi, shu bilan birga o'ziga xosligini chuqur anglagan holda, ularni umumiy lashtirib "Lingvokulturologiya" deb nomladilar. Lingvokulturologiya atamasi lotincha *lingua* va *cultus* so'zlaridan olingan bo'lib, *lingua* – "til", *cultus* – "hurmat qilish, ta'zim qilish", yunon tilida esa "ilm, fan" degan ma'nalarni anglatadi. Tadqiqotchi S.Ahmedova "lingvokulturologiya" terminining paydo bo'lishi haqida shunday izlanishlar olib borgan: "Lingvokulturologiya" atamasi birinchi marta kognitiv lingvistika yo'nalishi asoschilaridan biri bo'lgan Ronald Lankager tomonidan foydalanilganligi taxmin qilinadi. U madaniy bilimlar va grammatika o'rtasidagi bog'liqlikni sharhlash uchun mana shu atamadan foydalangan. Uning fikricha, kognitiv lingvistikaning rivojlanishi lingvokulturologiyaga qaytishdan darak beradi. Kognitiv lingvistika nazariyalari madaniy bilimlarni nafaqat leksikonning, balki grammatikaning asosiy qirralari asosi sifatida qabul qiladi"[1].

Demak, lingvokulturologiya – tilshunoslik, madaniyatshunoslik, kognitiv lingvistika va etnolingvistika asosida shakllangan yangi ilmiy yo'nalish bo'lib, til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganadi. Bu soha tilni faqatgina aloqa vositasi sifatida tahlil etmay, balki muayyan tilga oid madaniyatni o'zida saqlovchi vosita sifatida ham o'ziga xosdir.

Boshqa tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, "lingvokulturologiya" atamasi V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida tilshunoslikda paydo bo'lgan[2]. Lingvokulturologiya til, madaniyat va konseptlashtirish o'rtasidagi aloqalarni o'rganuvchi sohadir. Aslida bu soha kognitiv lingvistikaning lingvistik antropologiyada mavjud bo'lgan uch an'anasi, Boa lingvistikasi, etnosemantika va so'zlashuv etnografiyasi bilan integratsiyalashuvi natijasida shakllandi. Oxirgi 10 yillikda lingvokulturologiya kognitiv antropologiya bilan mustahkam bog'landi. Ularning ikkalasi ham tildan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan madaniyat modellarini o'rganadi[1].

Shunday qilib, birinchi bosqichda V.Gumboldt, A.A.Potebnya, E.Sepir kabi olimlar ishlarining rivojlanishi kuzatiladi. Ikkinchi bosqichda lingvokulturologiya tilshunoslikning mustaqil tarmog'i sifatida rivojlanadi. Fanning taraqqiy etish sur'ati esa yana

bir bosqichni – uchinchi bosqichni taqozo etadi. Bu lingvokulturologiyaning mustaqil fan sifatida yuzaga kelishidir.


V.V.Vorobyov lingvokulturologiya haqida quyidagi fikrni ilgari suradi: "Bugungi kunda lingvokulturologiyani muayyan yo'l bilan saralangan madaniy qadriyatlar majmuyini o'rganadigan, nutqni yaratish va uni idrok qilishdagi jonli kommunikativ jarayonlarni, lisoniy shaxs tajribasini va milliy mentalitetni tadqiq etadigan, olam manzarasining lisoniy tasvirini tizimli ravishda beradigan, ta'limning bilim olish, tarbiyaviy va intellektual vazifalarining bajarilishini ta'minlaydigan yangi filologik fan sifatida qayd qilish mumkin. Lingvokulturologiya madaniyat va tilning o'zaro aloqasi hamda o'zaro ta'sirini, bu jarayonni lisoniy va nolisoniy (madaniy) birliklarning bir butun strukturasi sifatida aks ettiradigan kompleks fandır"[4].

Shunday qilib, XIX asrning 90-yillarida zamonaviy tilshunoslik tarkibiga kiritilgan lingvokulturologiya uch asosda – til, madaniyat va inson shaxsiyati hamda xulq-atvori orqali o'rganila boshladi. Chunki lingvokulturologiya til va madaniyat, til va xalq mentaliteti, shuningdek, milliy o'ziga xoslikning o'zaro munosabatini va ta'sirini o'rganadi. Lingvokulturologiya til birliklarining milliy- madaniy ma'nosini, mazmunini, milliy madaniyatning tilda ifoda etilishi muammolarini, til va madaniyat munosabatlarini tadqiq etadi.

Xulosa. Lingvokulturologik tadqiqotlarda xalqning mentaliteti, madaniy axloqi, qadriyat tizimi til orqali tahlil qilinib, frazeologizmlar, metaforalar, maqollar, milliy obraz va o'xshatishlarning semantik qatlamlari ochib beriladi. Shuningdek, muayyan til egalarining turmushdagi marosim, urf-odatlar jarayonida qo'llaydigan leksik birliklari – so'zlar, iboralar, maqollar, tilda tayyor birikmalarga aylanib ketgan duolarni semantik, lingvistik, lingvopoetik va stilistik jihatdan tahlil qilish mumkin. Bunday leksik birliklar muayyan xalqning dunyoqarashi, madaniyati va qadriyatlarini ifodalishi bilan xarakterlidir. Tilshunoslikning lingvokulturologiya sohasi orqali bugungi global jarayonlarda millatlararo to'g'ri va ongli muloqot qilish, til o'qitish metodikasi va konseptual lingvistika tadqiqotlari rivojlanishi mumkin. Bu bilan esa tilshunoslik fani tadqiqining chuqurlashuviga, tarjima nazariyasining yuksalishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Ahmedova S.G'. Lingvokulturologiya yo'nalishining tilshunoslikda tutgan o'rni. Volume: 01 Issue: ISSN: 2181. 399-b.
- 2.Odilov A. Lingvokulturologiya fanining yuzaga kelish tarixi. SCIENTIFIC PROGRESS. VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2021 ISSN: 2181-1601. 1377-b.
- 3.Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019. 74-b.
- 4.Воробьев В. В. Лингвокультураология. Теория и методы. – Москва, 1997. – С. 10.



Muxlisa SOBIROVA,
 BuxDU 1-bosqich tayanch doktranti
 m.sh.sobirova@buxdu.uz

YURAK SOMATIZMI ISHTIROKIDAGI O'ZBEK XALQ PAREMALARINING LEKSIK-SEMANTIK TADQIQI

Annotatsiya: ushbu maqolada semantik tahlil, komponent tahlil metodlaridan foydalanilgan holda 150 dan ortiq yurak somatizmi ishtirokidagi maqollar tadqiq etildi. Ularning ma'no qatlamlari, metaforik ma'nolari va semantik-funksional guruhlanishi o'rganildi. Somatik komponentli maqollarning til tizimidagi o'rni ochib berildi.

Kalit so'zlar: *parema, lingvokulturologiya, semantik maydon, metafora, somatizm, ijobiy va salbiy sema.*

Annotation: this article using the methods of semantic analysis and component analysis, studied more than 150 proverbs with heart somatism. Their semantic layers, metaphorical meanings, and semantic-functional grouping were studied. The role of proverbs with somatic components in the language system was revealed.

Key words: *proverb, linguoculturology, semantic field, somatism, positive and negative meaning, metaphore.*

Аннотация: в данной статье с использованием методов семантического и компонентного анализа изучено более 150 пословиц с соматизмом сердца. Изучены их семантические слои, метафорические значения и семантико-функциональная группировка. Выявлена роль пословиц с соматическим компонентом в системе языка.

Ключевые слова: *пословица, метафора, соматизм, положительное и отрицательное значение, семантическое поле.*

Kirish. Somatizmlar, inson tana a'zolari nomlari insonning madaniy-antropologik xususiyatlarini aks ettiruvchi eng qadimgi leksik qatlamlardan biridir. Ular ming yillar davomida shakllanib, insonning o'zi haqidagi, tashqi ko'rinishi va hayotiy xususiyatlari haqidagi qadimiy bilimlarini o'zida mujassam etgan. Ushbu qadimiy tasavvurlar xalq og'zaki ijodida, turli folklor shakllarida boy tarzda o'z ifodasini topgan.

Rossiyalik olim N.V.Masalevaning ta'rifiga ko'ra, "Somatizmlar, avvalo, inson tanasiga oid til birliklari bo'lib, ular tilda insonning butun tanasini yoki jismoniy olamdagi mavjudligini ifodalaydi"

Somatizmlar tez-tez qo'llanilishi va keng semantik tuzilmasi bilan ajralib turadi. Inson tanasining qismlarini bildiruvchi leksika jamiyatning til orqali dunyoni qanday tasvirlashini ifodalovchi vosita hisoblanadi. Inson tanasi tilda ham, xalq madaniyatida ham tushunchalar tizimini belgilovchi asosiy elementlardir.

Turkiy tillarda, jumladan qadimiy ildizlarga ega bo'lgan o'zbek tilida ham juda katta o'rinni egallaydi. Chunki insonning e'tibor markazida o'zi turganligi sababli, u doimo o'ziga o'xshatib atrofdagi dunyoni tasvirlashga intilgan. Shunday qilib somatik leksika ming yillik rivojlanish jarayonini bosib o'tib, turli obrazlar, tushunchalar va assotsiatsiyalar tizimini yaratadi. U qadimgi xalqlarning dunyoqarashi va tafakkurini, ularning dunyoni idrok etish usulini aks ettiradi.

Quyida biz yurak somatizmi ishtirokidagi

maqollarning leksik-semantik va lingvokulturologik jihatlariga to'xtalib o'tamiz.

Asosiy qism. Yurak – odam va hayvonlarning qon aylanish sistemasidagi markaziy a'zo. U doimo bir xilda qisqarib turishi tufayli qonning qon tomirlar bo'ylab uzluksiz harakatini ta'minlaydi. Tilimizda "yurak" va uning sinonimlari "dil", "qalb", "ko'ngil" kabilar ishtirokida hosil bo'lgan maqollar keng qo'llaniladi. U inson ichki kechinmalaridagi hissiyot o'rni; aql-zakovat; zukkolik va sog'lom fikrga egalik kabi derevativ ma'nolarga ega bo'lish bilan bir qatorda, muhabbat; qayg'u; hayajon; quvonch kabi ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, insonning ichki dunyosi doimo qalbg'a qaratilgan bo'ladi. Mazkur maqollar metaforik mazmun olgan holda, insonlarning kechinmalari, hissiyotlari hamda boshqa kayfiyat bilan bog'liq sifatlarni voqelantiradi.

Ko'chma ma'noda esa kishining sezgisi ruhi va kechinmalarining ramziy markazi, ular saqlanadigan joy, qalb, dil. O.J.Latipov aytganidek, inson falsafiy nuqtayi nazardan yuraksiz bo'lishi mumkin, lekin anatomik nuqtayi nazardan yuraksiz yashay olmaydi. Chunki yurak insonning eng muhim tana a'zosi, usiz inson tirik bo'lolmaydi. Shuning uchun, ko'pincha, bu organning nomi turli majoziy ma'no ifodalash uchun qo'l keladi. Masalan, ruh, qalb, hayot, tajriba, his-tuyg'u kayfiyat, poklik ramzi sifatida ishlatiladi.¹

O'zbek tilida muhabbat konseptini ifodalash uchun,

¹ Latipov O. J. Rus, o'zbek va ingliz tillarida "yurak" somatizm so'zining konnotatsiyasi. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali. № 3 (19). – Toshkent, 2019. – C.137-142

asosan, yurak somatizmi ishtirok etgan maqollardan foydalaniladi. O'zbek xalqining lisoniy ongida yurak leksemasi insoniylik belgisi, poklik va samimiylik manbasi, Olohning nazari tushadigan joy, insonning ruhi makon topgan joy sifatida gavdalanadi. U inson tanasining podshohi, barcha yaxshi fazilatlar va yomon illatlarning vatani. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Albatta, jasadida bir parcha et bor. Agar u to'g'ri bo'lsa, butun jasad to'g'ri bo'ladi. Agar u buzilsa, butun jasad buziladi. Ogoh bo'lingki, u qalbdir", degan. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam jasadning to'g'ri yoki buzuq bo'lishini qalbgga bog'liq qilib qo'ydilar. Qalbning to'g'ri yoki buzuq bo'lishi esa aqlga bog'liq. Demak, qalb aql vositasida podshoh bo'ladi. Qalb va aql bir paytning o'zida bir-biri bilan aloqada tasvirlansa, boshqa bir paytda ziddlikda yashaydi. Yuqoridagi ma'no va qarashlar maqollarimizda ham o'z aksini topadi:

1. Mardlik va qo'rqqoqlik; G'ayratlining yuragi qaynar. G'ayratsizning yuragi o'ynar.

2. Ko'ngilni ko'tarish, dalda berish: Bir ko'ngil imorati – ming Makka ziyorati.

3. Yomon niyatlilik, qing'irlik: Ko'ngilning olasi – xudoning balosi.

Ko'ngli qoradan pes yaxshi.

4. Mehribon, qadrdon: Do'st uzoqda bo'lsa ham ko'ngli yaqin.

5. Qo'rqqoqlik: Qorg'ili it ovga yaramas, Yuragi yo'q yovga yaramas.

6. Ko'nikmaga aylangan, odatlangan: O'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas.

7. Samimiylik, pok niyatlilik: Ko'ngli ochiqning – yo'li ochiq. (metafora)

Ko'ngli keng bo'lsa, hujra ham saroy.

8. Manmanlik: O'zi pasmondaning ko'ngli osmonda.

9. Sevmoq: Bevafoing asli ko'ngli begona, bevafo qo'ngil qo'ygan devona.

Bildingki bevafo dir, ko'ngil qo'ymoq xatodir.

10. Muhabbat: O'choqdagi o't boshqa, yurakdagi o't boshqa.

11. Avvalgi yaxshi munosabati, mayli yo'q bo'lmoq:

Yigitning ko'ngli qolsa – o'lguncha, xotinning ko'ngli qolsa – tuqquncha.

Qolgan ko'ngil – chiqqan jon.

12. Beparvolik: Itni ket desang, ko'ngliga kelmas, Surbetni ket desang, aslo unutmas.

13. Xohlamoq: Uyida yo'q go'jalik, ko'ngli tilar xo'jalik.

Ko'ngil tortgan ish – halol.

14. Sirlilik, yashirinlik: Har ko'ngilda bir gavhar.

15. Qattiq bog'lanib qolmoq: Tug'ilgan yerdan ko'ngil uzilmas, yurt ko'rganning yurti buzilmas.

16. Bebaholik: Ko'ngil pulga topilmas.

Xulosa. Kuzatishlarimizdan shu narsa ma'lum bo'ladiki, yurak somatizmi o'zbek xalq maqollari tarkibida kelib, 17 xil semani ifodalash uchun xizmat qiladi. Ifodalangan semalarda salbiy ma'nodan ko'ra ijobiy ma'no yetakchilik qiladi. O'zbek xalq maqollarida yurak somatizmi orqali nafaqat insonning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari va ijtimoiy xulqi ifodalanadi, balki yurak somatizmi xalq tafakkurining emotsional-madaniy kodini aks ettiruvchi lingvokulturologik birlik sifatida ham alohida ilmiy qimmatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xudoyberganova D. 2019. Lingvokulturologiyada madaniy kod tushunchasi va talqini // O'zbek tili va adabiyoti. 15.
2. Xudoyberganova D. (2020) O'zbek lingvomadaniyatshunosligining dolzarb muammolari // «O'zbek tilini dunyo miqyosida keng targ'ib qilish bo'yicha hamkorlik istiqbollari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 22.
3. Latipov O. J. (2015) Rus, o'zbek va ingliz tillarida "yurak" somatizm so'zining konnotatsiyasi. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali. 137-142.
4. Imom Buxoriy. (2015). Odoblar xazinasi. Hilol nashr.



Нигора КАДИРОВА,
 доцент Кокандского государственного университета,
 кандидат филологических наук

МЕСТО ЛИТЕРАТУРНО-ХУДОЖЕСТВЕННОГО И ЛИТЕРАТУРНО-КРИТИЧЕСКОГО ДИСКУРСОВ В РЯДУ ДРУГИХ ДИСКУРСОВ

Аннотация: в статье рассматривается место литературно-художественного и литературно-критического дискурсов в системе современных гуманитарных дискурсов. Анализ опирается на труды М. М. Бахтина, Ю. М. Лотмана, Ю. Н. Тынянова, М. Фуко и Т. А. Ван Дейка. Отмечается, что литературно-художественный дискурс обладает эстетической, образной и аксиологической функциями, тогда как литературно-критический дискурс выполняет метатекстуальную и интерпретативную роль, соединяя науку и искусство. Их взаимодействие обеспечивает развитие литературного сознания, формирует культурный контекст эпохи и влияет на процессы смыслопорождения в обществе. В статье подчеркивается необходимость комплексного подхода к изучению литературных дискурсов с позиций философии языка, семиотики и дискурс-анализа.

Ключевые слова: *литературный дискурс, художественный дискурс, литературно-критический дискурс, метатекст, интерпретация, Бахтин, Лотман, Фуко.*

Annotation: the article examines the place of literary-artistic and literary-critical discourses within the system of modern humanitarian discourses. The analysis is based on the works of M. Bakhtin, Y. Lotman, Y. Tynyanov, M. Foucault, and T. A. van Dijk. It is noted that literary-artistic discourse performs aesthetic, imaginative, and axiological functions, while literary-critical discourse serves a metatextual and interpretative purpose, linking art and scholarship. Their interaction contributes to the development of literary consciousness, shapes the cultural context of the epoch, and influences meaning-making processes in society. The paper emphasizes the importance of an integrated approach to the study of literary discourses through the lenses of the philosophy of language, semiotics, and discourse analysis.

Key words: *literary discourse, artistic discourse, literary-critical discourse, metatext, interpretation, Bakhtin, Lotman, Foucault.*

Annotatsiya: maqolada zamonaviy gumanitar diskurslar tizimidagi adabiy-badiiy va tanqidiy diskurslarning o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot M. M. Baxtin, Y. M. Lotman, Y. N. Tiniyanov, M. Fuko va T. A. Van Deyk asarlariga tayangan holda olib borilgan. Adabiy-badiiy diskurs estetik, badiiy va aksiologik vazifalarni bajaradi, adabiy-tanqidiy diskurs esa metamatnli va talqinchi rolni bajarib, san'at bilan ilmni bog'laydi. Ularning o'zaro ta'siri adabiy ongning rivojlanishiga, davr madaniy kontekstining shakllanishiga va jamiyatdagi ma'no yaratish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi. Maqolada adabiy diskurslarni tahlil qilishda til falsafasi, semiotika va diskurs-tahlil yondashuvlarini uyg'un qo'llash zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: *adabiy diskurs, badiiy diskurs, adabiy-tanqidiy diskurs, metamatn, talqin, Baxtin, Lotman, Fuko.*

Понятие дискурса стало одним из ключевых в современной гуманитарной науке. Оно объединяет в себе лингвистический, философский, культурологический и литературоведческий подходы к изучению языка как формы мышления и социального взаимодействия. Согласно определению М. Фуко, дискурс – это «**исторически конкретная форма знания и власти, организующая поле высказываний и систему их связей**» [5. с. 47].

Любой тип дискурса представляет собой особую форму коммуникации, где язык функционирует не только как средство передачи информации, но и как инструмент формирования картины мира. Литературно-художественный и литературно-критический дискурсы занимают особое место в системе культурных коммуникаций. Первый обращен к творческому

моделированию мира средствами художественного образа, второй – к аналитическому осмыслению этого мира и его интерпретации. Их взаимодействие отражает сложный диалог между автором, текстом, читателем и культурой.

В современной науке о языке и культуре понятие дискурса занимает центральное место, привлекая внимание исследователей из самых разных областей гуманитарного знания. Дискурс как объект изучения представляет собой сложное и многогранное явление, которое рассматривается через призму различных теоретических и методологических подходов, каждый из которых стремится выделить ключевые аспекты этого феномена. Разнообразие подходов к определению дискурса подчеркивает его сложность и многоаспектность, что делает его

предметом междисциплинарных исследований, охватывающих лингвистику, философию, социологию, культурологию и другие дисциплины, стремящиеся раскрыть природу коммуникативных процессов. Так, например, известный нидерландский ученый Т. А. ван Дейк предлагает рассматривать дискурс как многоуровневое коммуникативное событие, которое включает в себя не только сам текст как материальный носитель информации, но и процессы его создания, интерпретации и восприятия, а также широкий социальный контекст, в рамках которого осуществляется коммуникация [6.с. 12–15].

Согласно ван Дейку, дискурс не сводится исключительно к тексту, а представляет собой сложную систему взаимодействия, в которой текст, его автор и получатель находятся в постоянном диалоге, опосредованном социальными, культурными и историческими факторами. Это понимание подчеркивает важность контекста, который формирует и определяет значение и функции дискурса в различных сферах человеческой деятельности.

В то же время немецкий философ Ю. Хабермас предлагает иной подход, акцентируя внимание на дискурсе как на особой форме рационального взаимодействия, главной целью которого является достижение взаимопонимания между участниками коммуникации. В рамках этой концепции дискурс рассматривается как процесс, в котором участники стремятся к консенсусу, основанному на рациональных аргументах, что делает его важным инструментом для общественных и политических дискуссий.

Такой подход подчеркивает нормативный характер дискурса, ориентированного на установление диалога, где равенство и открытость играют ключевую роль. В отечественной научной традиции понимание дискурса также имеет свои особенности, которые во многом сформированы работами таких выдающихся исследователей, как М. М. Бахтин, Ю. М. Лотман и В. И. Карасик. В их интерпретации дискурс рассматривается как особый вид речевой деятельности, который не только отражает структуру языка, но и служит выражением мировоззрения субъекта, его ценностей, убеждений и культурных установок. Бахтин, например, подчеркивал диалогическую природу дискурса, указывая на его способность отражать взаимодействие различных голосов и позиций в рамках коммуникативного акта. Лотман акцентировал семиотический аспект, рассматривая дискурс как элемент культурной семиосферы, а Карасик подчеркивал его социальную обусловленность, связывая дискурс с определенными институциональными и культурными контекстами. Таким образом, отечественная традиция акцентирует многогранность дискурса, его связь с языком, культурой и обществом. Что касается типологии дискурса, то она строится на основе различных критериев, та-

ких как цели коммуникации, социальный контекст, жанровые особенности и адресат.

В зависимости от этих параметров принято выделять несколько основных типов дискурса, каждый из которых характеризуется своими уникальными особенностями и функциями. К ним относятся научный, философский, публицистический, религиозный, правовой, повседневный и художественный дискурсы. Каждый из этих типов имеет свои коммуникативные цели, целевую аудиторию, стратегии взаимодействия и жанровые формы, которые определяют их специфику. Например, научный дискурс ориентирован на передачу объективной информации и характеризуется строгой логикой и терминологической точностью.

Понятие дискурса и его типология представляют собой сложную систему, которая отражает многообразие коммуникативных практик и их роль в культуре и обществе. А вот Литературно-художественный дискурс представляет собой уникальное явление в системе коммуникативных практик, которое занимает особое место в изучении языка, культуры и эстетического сознания. Этот тип дискурса, отличающийся высокой степенью сложности и многообразия, привлекает внимание исследователей благодаря своей способности не только отражать реальность, но и создавать новые смысловые пространства, которые обогащают восприятие мира.

Согласно определению выдающегося отечественного семиотика Ю. М. Лотмана, художественный текст выступает в роли вторичной моделирующей системы, где язык искусства формирует собственную семиотическую реальность, обладающую уникальными свойствами и законами функционирования [2.с. 27–30]. В этом контексте литературно-художественный дискурс понимается не просто как совокупность художественных текстов, объединенных общими жанровыми или стилистическими признаками, но как особый способ эстетического постижения действительности, в котором ключевое значение имеют сложные и многоуровневые взаимодействия между автором, текстом и читателем. Эти взаимодействия создают динамичное пространство, где текст становится не только продуктом творчества, но и средством коммуникации, способным породить бесконечное множество интерпретаций и смыслов. Выдающийся теоретик литературы М. М. Бахтин подчеркивал диалогическую природу художественного текста, указывая на то, что в нем всегда присутствует смысловое взаимодействие различных «голосов» – автора, героев и читателя [1. с. 252–260]. В этом смысле литературно-художественный дискурс предстает как пространство, где происходит не просто передача информации, а сложный процесс диалога, в котором каждый участник вносит свой вклад в формирование смысла.

Литературно-художественный и литературно-критический дискурсы представляют собой сложную и взаимосвязанную систему, которая лежит в основе культурного и эстетического сознания общества. Эти два типа дискурса, несмотря на их различия в целях и методах, образуют диалектическое единство, которое отражает динамичный процесс порождения, восприятия и осмысления смыслов в культурной среде. Их взаимодействие не только способствует развитию литературного процесса, но и играет ключевую роль в формировании мировоззренческих и эстетических ориентиров общества, обеспечивая непрерывный диалог между творчеством и его рефлексией. В этом контексте литературно-художественный дискурс выступает как генератор новых художественных миров, тогда как литературно-критический дискурс выполняет функцию их анализа, интерпретации и систематизации, позволяя обществу глубже понять и оценить созданные смыслы. Литературно-художественный дискурс, будучи ориентированным на эстетическое познание мира, создаёт уникальные модели реальности, которые воплощаются в художественных образах, символах и сюжетах.

Эти модели не просто отражают действительность, но преобразуют ее, предлагая читателю новый взгляд на окружающий мир через призму авторского воображения. Художественный текст,

по мнению Ю. М. Лотмана, является вторичной моделирующей системой, которая формирует собственную семиотическую реальность, обладающую уникальными законами и структурой. Через диалог между художественным и критическим дискурсами литература становится живым механизмом, который отражает динамику культурного развития и способствует формированию новых эстетических и мировоззренческих парадигм. Как подчеркивал М. М. Бахтин, **«всякое понимание есть соучастие, а всякое слово живет в ответе»** [1. с. 284].

Эта мысль ярко иллюстрирует суть диалогичности, лежащей в основе взаимодействия литературно-художественного и критического дискурсов. Художественный текст, будучи диалогичным по своей природе, вступает во взаимодействие с читателем, критиком и другими текстами, создавая бесконечный процесс смыслопорождения. Критический дискурс, в свою очередь, усиливает эту диалогичность, предлагая интерпретации, которые обогащают восприятие текста и делают его частью культурного диалога. Именно в этой способности к постоянному взаимодействию и взаимообогащению проявляется сущность литературного дискурса как живого, непрерывно развивающегося явления, которое не замыкается в статичных формах, а существует в движении, обновлении и рефлексии.

Использованная литература:

1. Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Искусство, 1986. – 445 с.
2. Лотман Ю. М. Структура художественного текста. – Москва: Искусство, 1970. – 384 с.
3. Тынянов Ю. Н. Литературная эволюция: избранные труды / сост., вступ. Ст., коммент. В. И. Новиковой. – Москва: Аграф, 2002. – 496 с.
4. Жирмунский В. М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика: избранные труды. — Ленинград: Наука, 1977. — 407 с.
5. Фуко М. Археология знания / пер. с фр. В. П. Визгина, Н. С. Автономовой. — Санкт-Петербург: Гуманитарная академия, 2004. — 416 с.
6. Ван Дейк Т. А. Язык. Познание. Коммуникация: сборник работ. — Москва: Прогресс, 1989. — 310 с.
7. Барт Р. Нулевая степень письма / пер. с фр. Г. К. Косикова. — Москва: Ad Marginem, 1994. — 125 с.

Гулбахор АСАТОВА,
старший преподаватель кафедры
«Романо-германские языки»

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБЩЕНИЯ НА НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ У СТУДЕНТОВ МЕЖДУНАРОДНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ

Аннотация: данная статья посвящена изучению методов и подходов, способствующих развитию навыков профессионального общения на немецком языке у студентов международных специальностей. Цель исследования заключается в выявлении эффективных стратегий освоения профессиональной лексики, коммуникативных навыков и межкультурной компетенции. В исследовании использовались качественные и количественные методы, включая анкетирование, наблюдение и анализ учебных материалов. Полученные результаты демонстрируют, что интеграция кейс-методов, ролевых игр, специализированных языковых практик и цифровых инструментов способствует значительному улучшению профессиональной коммуникации студентов. Практическая значимость исследования заключается в разработке рекомендаций для преподавателей и учебных программ, направленных на повышение языковой компетенции студентов международных специальностей.

Ключевые слова: профессиональное общение, немецкий язык, международные студенты, языковые навыки, обучение.

Annotation: this article focuses on the methods and approaches that promote the development of professional communication skills in German among international students. The aim of the study is to identify effective strategies for mastering professional vocabulary, communication skills, and intercultural competence. The study employs qualitative and quantitative methods, including questionnaires, observations, and analysis of educational materials. The findings demonstrate that integrating case studies, role-playing exercises, specialized language practices, and digital tools significantly enhances students' professional communication skills. The practical significance of the study lies in the development of recommendations for teachers and educational programs aimed at improving the language competence of international students.

Key words: professional communication, German language, international students, language skills, education.

Annotatsiya: ushbu maqola xalqaro mutaxassislik talabalarida nemis tilida professional muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan usul va yondashuvlarni o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotning maqsadi kasbiy lug'at, muloqot qobiliyatlari va madaniyatlararo kompetentsiyani o'zlashtirishning samarali strategiyalarini aniqlashdir. Tadqiqotda sifatli va miqdoriy usullar, jumladan, so'rovnomalarni kuzatish va o'quv materiallarini tahlil qilish qo'llanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ish usullari, rol o'ynash o'yinlari, ixtisoslashtirilgan til amaliyoti va raqamli vositalarning integratsiyasi talabalarning kasbiy aloqalarini sezilarli darajada yaxshilashga yordam beradi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati xalqaro mutaxassislik talabalarining til kompetensiyasini oshirishga qaratilgan o'qituvchilar va o'quv dasturlari uchun tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so'zlar: kasbiy muloqot, nemis tili, xalqaro talabalar, til ko'nikmalari, o'qitish.

Введение

Современное образование требует от студентов международных специальностей не только глубоких профессиональных знаний, но и высокой компетенции в профессиональной коммуникации на иностранных языках. Особенно актуальным является владение немецким языком, учитывая значимость Германии и других немецкоговорящих стран в области науки, технологий и бизнеса.

Профессиональное общение на иностранном языке включает не только знание лексики, но и умение применять ее в реальных рабочих ситуа-

циях, вести переговоры, составлять официальные документы, участвовать в совещаниях и презентациях. Однако на практике многие студенты сталкиваются с трудностями, связанными с ограниченной профессиональной лексикой, недостатком коммуникативных стратегий и слабой межкультурной компетенцией.

Цель данной статьи заключается в исследовании эффективных методов развития навыков профессионального общения на немецком языке у студентов международных специальностей и формулировании практических рекомендаций для преподавателей.

Обзор литературы (Literature Review)

Профессиональное общение на иностранном языке является ключевым компонентом образовательной подготовки студентов международных специальностей. Согласно исследованиям Бергера и Кляйна (2019), владение профессиональной лексикой и навыками делового общения на иностранном языке напрямую влияет на успешность студента в академической и профессиональной среде.

В контексте изучения немецкого языка несколько авторов отмечают важность интеграции специализированной лексики в процесс обучения. Например, Müller (2020) подчеркивает, что активное использование профессиональной терминологии в ролевых играх и кейс-методах значительно повышает уровень коммуникативной компетенции студентов.

Другие исследования показывают, что недостаток практики в межкультурном общении приводит к трудностям в восприятии и понимании профессиональных норм в немецкоговорящей среде (Schmidt, 2018). Межкультурная компетенция, включающая знание традиций, стиля коммуникации и норм делового этикета, является необходимым элементом успешного профессионального общения.

Методология (Methodology)

Цель исследования:

Определить эффективность различных методов обучения для развития профессионального общения на немецком языке у студентов международных специальностей.

Участники исследования:

В исследовании приняли участие 60 студентов международных специальностей, изучающих немецкий язык в рамках программы бакалавриата. Среди участников: 35 женщин и 25 мужчин, возраст от 18 до 24 лет. Все участники имели базовый уровень владения немецким языком (A2–B1).

Методы исследования:

Анкетирование – выявление уровня владения профессиональной лексикой, уверенности в коммуникации и интереса к профессиональным ситуациям на немецком языке.

Наблюдение – отслеживание активности студентов во время ролевых игр, кейс-обсуждений и специализированных практикумов.

Анализ учебных материалов – изучение используемых учебников, онлайн-платформ и методических пособий для выявления эффективности методических подходов.

Процедура исследования:

Этап 1: Проведение анкетирования в начале семестра.

Этап 2: Организация еженедельных занятий с использованием ролевых игр и кейс-методов.

Этап 3: Финальное анкетирование и анализ результатов через три месяца обучения.

Методы анализа данных:

Данные анкетирования и наблюдений обрабатывались с использованием дескриптивной статистики. Для выявления значимых изменений применялся t-тест для зависимых выборок, а также качественный анализ наблюдений.

Результаты (Results)

По итогам трехмесячного эксперимента были получены следующие данные:

Уровень владения профессиональной лексикой:

Анкетирование показало значительное улучшение словарного запаса студентов в профессиональных областях (техника, экономика, международные отношения). Средний балл по тестам вырос с 55% до 78%.

Коммуникативная уверенность:

Наблюдения за ролевыми играми и кейс-обсуждениями показали рост уверенности студентов при ведении деловых диалогов на немецком языке. 85% участников отметили, что после курса они стали лучше формулировать профессиональные вопросы и ответы.

Межкультурная компетенция:

В анкетах и обсуждениях студенты показали понимание норм делового общения в немецкоговорящей среде. На вопрос «Насколько вы уверены в своей способности вести переговоры с немецкими коллегами?» средний показатель вырос с 3,2 до 4,1 по пятибалльной шкале.

Ключевые выводы:

Эффективность комбинированного подхода:

Использование сразу нескольких методов (ролевые игры + кейсы + онлайн-платформы) способствует комплексному развитию навыков: лексики, коммуникативной уверенности и межкультурной компетенции.

Развитие межкультурной компетенции:

Студенты не только улучшили язык, но и освоили нормы делового общения в немецкоговорящей среде. Это важно для будущей профессиональной деятельности, особенно для международных проектов и стажировок.

Практическая значимость:

Результаты исследования могут быть использованы преподавателями для разработки учебных программ, направленных на развитие профессиональной коммуникации. Также можно адаптировать методы для онлайн-обучения, что

актуально в современных условиях дистанционного образования.

Заключения (Conclusion)

Исследование показало, что развитие навыков профессионального общения на немецком языке у студентов международных специальностей требует комплексного подхода, включающего ролевые игры, кейс-методы, специализированные лекции и цифровые инструменты.

Главные выводы:

- комбинация методов обучения способствует значительному улучшению профессиональной лексики, коммуникативной уверенности и межкультурной компетенции студентов;
- межкультурная компетенция является неотъемлемой частью профессионального общения и влияет на успешность студентов в международной академической и профессиональной среде;

– практическая значимость результатов заключается в возможности применения предложенных методов для разработки эффективных программ обучения немецкому языку для международных студентов.

Дальнейшие исследования могут включать долгосрочный мониторинг, более широкую выборку и использование интерактивных платформ для повышения эффективности языкового обучения. Полученные результаты подтверждают необходимость интеграции практико-ориентированных и межкультурных подходов в образовательный процесс.

Дальнейшие исследования могут включать долгосрочный мониторинг, более широкую выборку и использование интерактивных платформ для повышения эффективности языкового обучения. Полученные результаты подтверждают необходимость интеграции практико-ориентированных и межкультурных подходов в образовательный процесс.

Использованная литература: (references)

1. Berg, H., & Klein, T. (2019). Professional communication skills in international education. Springer.
2. Hofmann, S. (2021). Specialized vocabulary acquisition in foreign language learning. *Journal of Applied Linguistics*, 12(3), 45–59. <https://doi.org/10.1234/jal.2021.003>
3. Meier, L. (2020). Digital tools for language learning: A practical guide. Berlin: Langenscheidt.
4. Müller, F. (2020). Role-play as a method for developing professional communication skills in German. *Language Teaching Research*, 24(5), 567–582. <https://doi.org/10.1177/1362168819876543>
5. Schmidt, J. (2018). Intercultural competence in professional language learning. *Modern Language Journal*, 102(2), 221–238. <https://doi.org/10.1111/modl.12456>
6. Weber, A. (2017). Case studies in foreign language education. Munich: Oldenbourg Verlag.



Наима ХАИТБАЕВА,
 Старший преподаватель межфакультетской кафедры языков
word formation. This compilation of corpus of coinages and analysis of their morphological structures helps to identify their role in the formation of new lexical memberships, languages at the change are markers to the new/old word ideas that can be determined to what role prefixes play in the new items of lexicon. Its typological similarities and differences with other Turkish languages in the processes of prefixation are also examined in a comparative way. We use a historical-linguistic approach to address the etymology of prefixes in Uzbek, and how historical language contact and borrowing influenced the present prefixation system. By looking at a number of circumfixing in the way which introduces prefixes from Arabic, Persian, and sometimes Russian, and their influence on the fabric of Uzbek words. In addition, a semantic aspect is conducted to examine how prefixes change the meanings of base words, including negation, intensification and derivation processes. Such analysis contributes to the cognitive and communicative functions of prefixes in the Uzbek language. The integration of these methodologies will allow for the comprehensive analysis of prefixation, contributing both to Uzbek linguistics and the wider field of morphological studies in Turkic languages.

Finding and discussion

The study of prefixation in Uzbek linguistics reveals significant insights into the language's morphological structure and its adaptability to modern lexical needs. Traditionally, Uzbek is an agglutinative language that primarily uses suffixation for word formation. However, in recent years, prefixation has gained prominence, particularly in creating new terms influenced by technological advancements and globalization. These changes are mainly observed in fields such as technology, social media and mass media, where prefixes play a crucial role in adapting the language to contemporary concepts. For example, prefixes such as "anti-", "pre-", and "re-" have been adopted from English to form new words, adding meaning and functionality to existing vocabulary.

Despite these developments, the theoretical foundations of prefixation in Uzbek linguistics are yet to be fully explored. While prefixation in languages like Russian and English has been extensively studied, the specific role and formation of prefixes in Uzbek still require in-depth research. The typological and functional differences between prefixation in Uzbek and other Turkish languages have yet to be comprehensively addressed. These differences are influenced by historical linguistic interactions, such as the borrowing of prefixes from Arabic, Persian, and Russian, and the integration of these influences into

the Uzbek language system.

Future research should focus on the detailed analysis of Uzbek prefixes, particularly in their semantic and syntactic roles. There is also a need to explore the social and cultural factors that influence the adoption and adaptation of prefixes in contemporary Uzbek. Furthermore, examining the impact of globalization on the formation of new prefixes in technical and scientific fields would provide valuable insights into how modern Uzbek adapts to global trends.

Suggestions for future research

Semantic analysis of prefixes: future studies should aim to explore how prefixes add new semantic layers to base words and their overall role in the language's lexical expansion.

Syntactic properties of prefixation: It is crucial to examine the syntactic structure of prefixed words in Uzbek, specifically how prefixes interact with other morphemic elements in sentence formation.

Social and cultural context of prefixation: understanding the role of prefixes in various social and cultural contexts, and how they contribute to the evolution of the language, should be prioritized.

Comparative studies: a comparative approach could be used to analyze prefixation in Uzbek relative to other Turkish languages, identifying both shared features and distinctive characteristics.

Use of computational linguistics: implementing computational tools for the automatic analysis of prefixation in large Uzbek corpora would greatly enhance the efficiency of studying prefixation patterns.

These future research directions will help deepen the understanding of Uzbek prefixation, contributing to the theoretical development of Uzbek linguistics

and the broader study of morphological processes in agglutinative languages.

Conclusion

In short, this research about theoretical basis of prefixation in Uzbek linguistics indicates the role of prefixation is being more important in the morphological system, especially under the condition of new lexical formations emerging in the process of globalization and technical modernization. The studies show that despite the fact that the main method of word-formation in Uzbek is suffixation, the use of prefixes in its word-formation is growing, especially in the creation of new words in science, technology and digital spheres. It points to an important missing segment in the theoretical base-outlook of prefixation in Uzbek linguistics, especially to category of meaning along with their syntactic and diachronic features in the system of Uzbek. A thorough examination of the origin, final function, and possible incorporation of prefixes, especially those from Arabic, Persian and Russian, is, according to the study, urgently required. It is essential for us to comprehend this in order to understand the changes in the Uzbek language in the light of modern approaches to language and linguistics. The implications are for further research to explore the preferential role of prefixation through all of the Turkish languages, specifically inquiring into social and cultural reasons for adopting prefixes. Inevitably, some of the future research directions can draw tools from computational linguistics to analyze large corpora of morphological data and to reveal more general insights into prefixation. This would greatly enrich the study of the historical development of complicated system of Uzbek morphological and contribute to universal linguistic theory.

References

1. A. Hojiyev, O'zbek tili morfologiyasi, Tashkent: Fan, 2013.
2. I. Ermatov, O'zbek tilidagi affiksatsiya hodisasi: nazariy va amaliy yondashuvlar, Tashkent: O'qituvchi, 2021.
3. P. H. Matthews, Morphology, Cambridge: Cambridge University Press, 1974.
4. A. A. Zaliznyak, Russkaya morfologiya: sintaksis i morfologiya predlogov, Moscow: Nauka, 1985.
5. X. Dadaboyev, Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi, Tashkent: O'qituvchi, 1998.
6. Z. T. Xolmanova, Turkiy tillarda affiksatsiya, Tashkent: Fan, 2000.
7. N. Chomsky, Lectures on Government and Binding, Dordrecht: Foris Publications, 1981.
8. Sh. Rahmatullaev, O'zbek tilining morfemik tuzilishi, Tashkent: Adabiyot, 2010.
9. A. Hojiyev and F. Muxamedov, O'zbek tili so'z yasalishi, Tashkent: O'qituvchi, 2005.
10. M. Aronoff, Word Formation in Generative Grammar, Cambridge: MIT Press, 1976.

The background is a light blue surface with various educational icons: a yellow ruler, a blue notebook, a red pencil, a green pencil, a globe, a rolled-up diploma with a blue ribbon, and a pink notebook. The word "PEDAGOGIKA" is centered on a white sheet of paper.

PEDAGOGIKA

Gulnora JUMAYEVA,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika va texnologik ta'lim kafedrasida dotsenti

ZAMONAVIY O'QITUVCHI KASBIY FAOLIYATIDA PEDAGOGIK MAHORATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo'lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk namoyandalari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

Kalit so'zlar: yosh avlod, shaxs, faoliyat, shaxs kamoloti, o'qituvchi, zamonaviy o'qituvchi, tashkilotchi, mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual, ma'naviy salohiyat, pedagogik mahorati.

Аннотация: в данной статье рассматривается воспитание личности как чрезвычайно сложный процесс деятельности, в который с древнейших времён вовлечены зрелые представители общества. Это означает, что воспитание подрастающего поколения, содержание его организации имеют огромное значение, определяющее не только развитие личности, но и развитие общества.

Ключевые слова: молодое поколение, личность, деятельность, развитие личности, учитель, современный учитель, организатор, самостоятельность мышления, высокий интеллектуальный, духовный потенциал, педагогическое мастерство.

Annotation: in this article, the work of educating a person is an extremely complex process of activity, and from ancient times, mature representatives of society have been involved in this activity. This situation means that the upbringing of the younger generation, the content of its organization is of great importance in determining not only the development of the individual, but also the development of society.

Key words: young generation, individual, activity, development of the individual, teacher, modern teacher, organizer, independent thinker, high intellectual, spiritual potential, pedagogical skills.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash maqsadida: "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ham hayotga tatbiq etish ishlari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev bugungi kunda "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart!" – degan hayotiy da'vat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi va qalbidan mustahkam o'rin egallagan. ... Bu sohada olib borayotgan keng miqyosli ishlarimizni, xususan, ta'lim-tarbiya bo'yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarimizni mantiqiy yakuniga yetkazishimiz zarur. Shu maqsadda hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta'lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o'qituvchilarning eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir... Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz." – degan fikrlarni ta'kidlab o'tdilar.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqib, bugungi

kun o'qituvchisi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablari mazmuni zamonaviy o'qituvchini talab etadi. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi zarur? Uning pedagogik mahorati zaminida qanday komponentlar mujassam etilgan? Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab ushbu muammo bo'yicha ko'plab pedagog va psixolog olimlar o'z fikr va mulohazalari bilan chiqdilar. O'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini milliy an'ana va urf-odatlarimizdan, qadriyatlarimizdan kelib chiqib yanada takomillashtirish, ularning pedagogik faoliyatini hozirgi zamon talablari darajasida rivojlantirish uchun metodik qo'llanmalar, tavsiyanomalar paydo bo'ldi. Hozirgi kunda ham ushbu muammo bo'yicha ilmiy izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda.

XXI asrga kelib o'qituvchining vazifasi yanada takomillashib bormoqda. endilikda global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi o'qituvchidan yuksak mahoratni, o'tkir irodani, psixologik quvvatni, chuqur bilim va mulohazali bo'lishni talab qiladi.

Hozirgi zamon o'qituvchisi o'z mutaxassisligiga oid bilimlar bilan birga, pedagogik va psixologik bilimlarni hamda turli fan yo'nalishlari bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lgan, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarini egallagan, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir. Ushbu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda hozirgi kunda zamonaviy o'qituvchi

quyidagi pedagogik mahoratni hamda ijobiy fazilatlarni o'zida shakllantirmog'i lozim.

1. O'qituvchi, eng avvalo, mas'uliyatni his etuvchi tarbiyachi, tajribali notiq, madaniyat va ma'rifat targ'ibotchisidir.

2. O'qituvchi tabiatan o'quvchilarni seva olishi, o'z mehrini, his- tuyg'ularini har lahzada o'quvchilar ichki dunyosi bilan bog'lay olishi, ularning ham mehriga, hurmatiga sazovor bo'lishi kerak.

3. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi va ularga xolisona baho berib, bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni doimiy bera olishi lozim.

4. Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va axborot-kommunikatsion texnologiyalari yangiliklaridan va yutuqlaridan xabardor bo'lib borishi talab etiladi.

5. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishi, barcha fanlar integratsiyasini o'zlashtirib borishi, bunda o'z ustida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borishi zarur.

6. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya faoliyatini tashkil etishi kerak.

7. O'qituvchi kasbiy pedagogik faoliyatida ta'lim va tarbiyaning eng samarali zamonaviy shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.

8. O'qituvchi ijodkor, ta'lim-tarbiyaviy faoliyat tashabbuskori va yosh avlod kelajagi uchun javobgar shaxsdir.

9. O'qituvchi kasbiy faoliyati jarayonida yuksak darajadagi pedagogik mahorat, kommunikativ layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, takt) qoidalarini chuqur o'zlashtirib borishi shart.

10. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettirishi kerak: turli sheva so'zlardan holi bo'lib, faqat adabiy

tilda ifoda etilishi;

O'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi; hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli foydalana olishi lozim. Jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar), varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarning noo'rin qo'llanilishi), vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda konselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) kabi norasmiy so'zlardan holi bo'lishi.

11. O'qituvchining kiyinish madaniyati o'ziga xos bo'lishi, ya'ni sodda, ozoda, bejirim kiyinishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar) dan foydalanmasligi, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishi talab etiladi.

12. O'qituvchi ta'lim muassasasida sinf jamoasining asosiy tashkilotchisi va ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning eng faol ishtirokchisidir.

Kasbiy bilimlarni puxta bilish bilan birga, turli bilimlardan xabardor bo'lishi; yosh pedagogik psixologiya, pedagogika va psixologiya, yoshlar fiziologiyasi, tarbiyaviy ish metodikasi, gigiyena talablaridan o'z kasbiga oid bilimlarni mukammal bilishi;

O'z kasbi bo'yicha jahon fanida erishilayotgan so'nggi yutuqlar, tarbiya texnologiyasi, kompyuter va axborot texnologiyalari, yangiliklaridan doimiy xabardor bo'lib borishi;

Pedagogik texnika (mantiq, nutq ta'limining ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi.

Bularning hammasi ijodkorlikning tub mohiyati, ishning maqsadi va xarakteri bilan bog'liq.

Davlatimiz bugungi kun o'qituvchisi zimmasiga mas'uliyatli vazifalarni qo'ymoqda. Ushbu mas'uliyatli vazifalarni har bir o'qituvchi o'z burchi deya qabul qilmog'i shart va zarur. Bu esa barkamol avlod tarbiyasiga qo'yilgan muhim qadam hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: "Moliya", 2003.
2. Farberman B.L., Musina R.G., Jumaboyeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. O'quv qo'llanma. – T., 2002. 301-b.
3. Жумаева Г. Т. Современные технологии обучения учащихся //Евразийский научный журнал. 2016. №. 6. – с. 456-458.
4. Жумаева Г.Т. Основные тенденции развития педагогического мастерства учителя //Педагогическое образование и наука. 2019. №. 5. – с. 9-11.

Ziyoda PULATOVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Xorijiy tillar ta'limi kafedrasida, PhD, dotsent

OLIV TA'LIMDA IQTISODIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA INTERAKTIV METODLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy kompetensiyalarni shakllantirishda interaktiv o'qitish metodlarining o'рни va samaradorligi tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, interaktiv metodlar talabalarning o'quv materialini chuqurroq o'zlashtirishiga, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq qilish qobiliyatini oshirishiga va kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini yaxshilashiga yordam beradi.

Kalit so'zlar: *interaktiv metodlar, iqtisodiy kompetensiyalar, oliy ta'lim, o'qitish texnologiyalari, talabalar faolligi, amaliy ko'nikmalar, kasbiy tayyorgarlik*

Annotation: this article analyzes the role and effectiveness of interactive teaching methods in the formation of economic competencies in higher education institutions. The results show that interactive methods help students to better master the educational material, increase their ability to apply theoretical knowledge in practice, and improve their level of preparation for professional activity.

Key words: *interactive methods, economic competencies, higher education, teaching technologies, student activity, practical skills, professional training*

Аннотация: в статье анализируется роль и эффективность интерактивных методов обучения в формировании экономических компетенций в высших учебных заведениях. Результаты исследования показывают, что интерактивные методы способствуют лучшему усвоению студентами учебного материала, повышают их способность применять теоретические знания на практике и повышают уровень подготовки к профессиональной деятельности.

Ключевые слова: *интерактивные методы, экономические компетенции, высшее образование, технологии обучения, студенческая деятельность, практические навыки, профессиональная подготовка.*

Kirish. Hozirgi zamon globallashuv va tez o'zgaruvchan iqtisodiy muhit sharoitida oliy ta'lim tizimi oldida nafaqat nazariy bilimga ega, balki amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalarga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash vazifasi turadi. Jahon Iqtisodiy Forumining ma'lumotlariga ko'ra, zamonaviy mehnat bozori murakkab muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash, kreativlik va odamlar bilan hamkorlik qilish ko'nikmalariga ega mutaxassislarga yuqori talab bo'lmoqda [1]. Iqtisodiy ta'limda interaktiv metodlar talabalarning faol ishtirokini ta'minlash, real hayotiy vaziyatlarni simulyatsiya qilish va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Faol o'rganish talabalarni passiv ma'lumot qabul qiluvchilardan faol bilim yaratuvchilarga aylantirishga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni oliy ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy o'qitish texnologiyalarini joriy etish zarurligini belgilaydi [2].

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqotda sistemik adabiyotlar tahlili metodi qo'llanildi. Konstruktivistik yondashuv, xususan, Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-madaniy nazariya va Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi

interaktiv ta'limning muhim asoslarini tashkil etadi. Ushbu konsepsiyalar talabalarning bilimni faol ravishda qurish jarayonida ijtimoiy o'zaro ta'sir va amaliy faoliyatning muhimligini ta'kidlaydi. Prince faol o'rganish metodlari talabalarning o'quv materialini eslab qolish va tushunish darajasini sezilarli darajada oshirishini empirik tadqiqotlar asosida isbotlagan [3]. Freeman va boshqalar yuzlab tadqiqotlarni o'z ichiga olgan meta-tahlilida an'anaviy ma'ruzalarga nisbatan faol o'rganish strategiyalari talabalarning akademik yutuqlarini yaxshilashi va kursdan tushish darajasini kamaytirishini ko'rsatdi [4].

Iqtisodiy ta'limda interaktiv metodlar turli shakllarda qo'llaniladi. Amaliy vaziyatlar tahlili metodi talabalarni real iqtisodiy muammolarni tahlil qilish va hal qilish uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Christensen va Hansen Harvard biznes maktabida qo'llaniladigan bu metodning samaradorligini ta'kidlab, talabalarning nazariy bilimlarni amaliy kontekstda qo'llash qobiliyatini oshirishini ko'rsatgan [5]. Biznes simulyatsiyalar va o'yinlar talabalarni xavf-xatarsiz muhitda strategik qarorlar qabul qilish tajribasini orttirish imkonini beradi. Ismoilova simulyatsion o'yinlar talabalarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishi va murakkab iqtisodiy jarayonlarni tushunishni osonlashtirishi haqida xulosa

chiqargan [6]. Guruhlarda ishlash va hamkorlikdagi loyihalar talabalarning kommunikatsiya, jamoa bo'lib ishlash va liderlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Johnson va Johnson kooperativ o'rganish metodlarining talabalarning akademik natijalari, ijtimoiy ko'nikmalari va o'z-o'zini baholash qobiliyatiga ijobiy ta'sirini ta'kidlagan [7]. Muammoli ta'lim yondashuvi talabalarni ochiq muammolarni hal qilish jarayonida mustaqil izlanish va tadqiqot o'tkazishga undaydi, bu esa chuqur bilim va uzluksiz o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi [8].

Natijalar va muhokama. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, interaktiv metodlarning oliy ta'limda, xususan iqtisodiy yo'nalishlarda qo'llanilishi bir qator muhim natijalarga olib keladi. Interaktiv metodlar talabalarning nazariy bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishiga yordam beradi. Freeman va boshqalar o'tkazgan keng ko'lamli meta-tahlil shuni ko'rsatadiki, faol o'rganish strategiyalari qo'llaniladigan guruhlarda talabalarning o'rtacha bahosi an'anaviy metodlar qo'llaniladigan guruhlariga nisbatan 6% ga yuqori bo'ladi [4]. Bu natija iqtisodiy fanlarning murakkablik darajasi yuqori bo'lgan kontekstida ayniqsa ahamiyatlidir, chunki mikroiqtimod, makroiqtisod va moliya kabi fanlarda mavhum tushunchalarni real vaziyatlarga bog'lash talabalarning tushunishini sezilarli darajada yaxshilaydi. Interaktiv metodlar talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Faria va boshqalar biznes simulyatsiyalarining ta'lim samaradorligini o'rganib, bunday metodlarning talabalarning strategik fikrlash, moliyaviy tahlil, resurslarni boshqarish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishini aniqladi [6]. Amaliy vaziyatlar tahlili metodi esa talabalarni real biznes muammolarini ko'rib chiqish va hal qilish tajribasiga ega bo'lishlariga imkon beradi, bu ularning kelajakda kasbiy faoliyat yuritishlarida mustahkam asos yaratadi [5].

Interaktiv metodlar talabalarning motivatsiyasi va faolligini oshiradi. Prince tadqiqotiga ko'ra, faol o'rganish jarayoniga jalb qilingan talabalar passiv ma'lumot oluvchilarga nisbatan darsga qiziqishi va ishtirok etish

darajasi yuqori bo'ladi [3]. Bu esa o'z navbatida, o'quv jarayonidan tushish darajasini kamaytiradi va umuman ta'lim sifatini yaxshilaydi. Iqtisodiy fanlar ko'pincha talabalar tomonidan qiyin va quruq deb qabul qilinganligi sababli, interaktiv metodlar orqali bu fanlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish mumkin. Interaktiv metodlar talabalarning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Rashidov muammoli ta'lim yondashuvining talabalarni mustaqil izlanishga, turli manbalardan ma'lumot to'plashga va tahliliy qaror qabul qilishga o'rgatishi haqida ta'kidlagan [8]. Iqtisodiy sohadagi muammolar ko'pincha bir necha to'g'ri yechimga ega bo'lishi yoki murakkab o'zaro bog'liq omillarni hisobga olishni talab qilishi mumkin, shuning uchun talabalarni bunday murakkab vaziyatlarda fikrlashga o'rgatish ularning kasbiy kompetensiyalarini sezilarli darajada oshiradi. Zamonaviy iqtisodiy muhitda ko'pchilik loyihalar jamoaviy mehnatni talab qilganligi sababli, bu ko'nikmalar kasbiy muvaffaqiyat uchun juda muhimdir. Interaktiv metodlar talabalarning raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, interaktiv metodlar oliy ta'limda iqtisodiy kompetensiyalarni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega. Ushbu metodlar talabalarning nazariy bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishiga, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishiga, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirishiga hamda kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini yaxshilashiga yordam beradi. Konstruktivistik yondashuv va faol o'rganish nazariyalariga asoslangan interaktiv metodlar talabalarni passiv ma'lumot qabul qiluvchilardan faol bilim yaratuvchilarga aylantirishga xizmat qiladi. Amaliy vaziyatlar tahlili, biznes simulyatsiyalar, guruhlarda ishlash va muammoli ta'lim kabi turli xil interaktiv metodlar o'zaro to'ldirib, talabalarning turli ko'nikmalarini kompleks ravishda rivojlantirishga imkon beradi. Empirik tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, interaktiv metodlar an'anaviy metodlarga nisbatan talabalarning akademik natijalari, motivatsiyasi va kasbiy tayyorgarlik darajasi bo'yicha ustunlikka ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Economic Forum. (2020). The future of jobs report 2020. Geneva: World Economic Forum.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019-yildagi PF-5847-son, <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>
3. Prince, M. (2004). Does active learning work? A review of the research. *Journal of Engineering Education*, 93(3), 223-231.
4. Freeman, S., Eddy, S. L., McDonough, M., Smith, M. K., Okoroafor, N., Jordt, H., & Wenderoth, M. P. (2014). Active learning increases student performance in science, engineering, and mathematics. *Proceedings of the National Academy of Sciences*, 111(23), 8410-8415.
5. Christensen, C. R., & Hansen, A. J. (1987). *Teaching and the case method: Text, cases, and readings*. Boston: Harvard Business School Press.
6. Ismoilova, Z. K. (2021). Oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish muammolari. *Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar*, 1(3), 45-52.
7. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (1999). Making cooperative learning work. *Theory into Practice*, 38(2), 67-73.
8. Rashidov, J. Q., & Karimova, D. A. (2020). Iqtisodiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 21(2), 78-85.

Umidaxon TURSUNOVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Xorijiy tillar ta'limi kafedrası, PhD, dotsenti

KASBIY TA'LIMDA IQTISODIY BILIMLAR VA CHET TILLARINI INTEGRATSIYALASH MASALALARI

Annotatsiya: ushbu maqola kasbiy ta'lim tizimida iqtisodiy bilimlar va chet tillarini integratsiyalash jarayonining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy terminologiya va chet tili kompetensiyalarini bir vaqtning o'zida rivojlantirish talabalarning xalqaro mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi.

Kalit so'zlar: kasbiy ta'lim, integratsiyalashgan ta'lim, CLIL, iqtisodiy bilimlar, chet tillari, interdissiplinar yondashuv, kompetensiya, mehnat bozori.

Аннотация: статья посвящена исследованию теоретических и практических аспектов интеграции экономических знаний и иностранных языков в системе профессионального образования. Результаты исследования показывают, что одновременное развитие экономической терминологии и иноязычных компетенций повышает конкурентоспособность студентов на международном рынке труда.

Ключевые слова: профессиональное образование, интегрированное обучение, CLIL, экономические знания, иностранные языки, междисциплинарный подход, компетенции, рынок труда.

Annotation: this article is devoted to the study of theoretical and practical aspects of the process of integrating economic knowledge and foreign languages in the vocational education system. The results of the study show that the simultaneous development of economic terminology and foreign language competencies increases the competitiveness of students in the international labor market.

Key words: vocational education, integrated education, CLIL, economic knowledge, foreign languages, interdisciplinary approach, competence, labor market.

Kirish. Globallashuv jarayonlari va xalqaro iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashuvi kasbiy ta'lim tizimiga yangicha talablar qo'yimoqda. Zamonaviy mehnat bozori nafaqat yuqori malakali, balki chet tillarini mukammal bilgan, xalqaro iqtisodiy munosabatlar mexanizmlarini tushunuvchi mutaxassislariga ehtiyoj sezilmoqda. XXI asrda kasbiy bilimlar va lingvistik kompetensiyalarning integratsiyasi mehnat faoliyatining ajralmas qismiga aylanmoqda [1]. O'zbekiston Respublikasida kasbiy ta'lim tizimini isloh qilish doirasida ham interdissiplinar yondashuvlar keng qo'llanilmoqda, bu esa iqtisodiy fanlar va chet tillarini birgalikda o'qitish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Muammo shundan iboratki, ko'plab kasbiy ta'lim muassasalarida iqtisodiy fanlar va chet tillari mustaqil ravishda o'qitiladi, bu esa talabalarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirish samaradorligini pasaytiradi. Predmetlar orasidagi mustahkam bog'lanish o'quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [2].

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqotda sistemli adabiyotlar tahlili metodologiyasi qo'llanilgan. CLIL nazariyasi predmet mazmuni va til o'rganishning to'rtta asosiy komponentini birlashtiradi: mazmun, kommunikatsiya, kognitsiya va madaniyat [3]. Ushbu yondashuv iqtisodiy fanlarni chet tilida o'qitish uchun mustahkam nazariy asos yaratadi, chunki u nafaqat lingvistik, balki predmet kompetensiyalarini ham rivojlantirishni ta'minlaydi. CLIL metodologiyasining samaradorligi ko'plab empirik tadqiqotlar asosida

isbotlangan bo'lib, bu yondashuvning talabalar akademik natijalari, til bilish darajasi va kritik fikrlash qobiliyatiga ijobiy ta'siri aniqlangan [4]. Integratsiyalashgan ta'limning amaliy qo'llanilishi uchun aniq yo'riqnomalar va didaktik modellar ishlab chiqilgan bo'lib, bu modellar turli kasbiy yo'nalishlar, jumladan iqtisodiy ta'lim uchun moslashtirilishi mumkin [5].

O'zbekiston kontekstida kasbiy ta'limda chet tillarini o'qitishning milliy xususiyatlari tahlil qilingan va mahalliy mehnat bozori ehtiyojlariga mos integratsiyalashgan dasturlar ishlab chiqish zarurligini asoslangan. O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy hamkorlikka faol kirishishi kasbiy ta'lim tizimida chet tillari va iqtisodiy fanlarning integratsiyasini taqozo etadi [6]. Respublikamizda kasbiy ta'lim muassasalarida til va mutaxassislik fanlarini integratsiyalashgan holda o'qitish zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab etadi va bu jarayon talabalarning xalqaro standartlar darajasida bilim olishiga yordam beradi [7]. CLIL yondashuvining turli mamlakatlarda qo'llanilishi taqqoslanib, har bir ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari va madaniy kontekstini hisobga olish zarurligini ko'rsatilgan. Muvaffaqiyatli integratsiya faqat metodologik yondashuvlarga emas, balki o'qituvchilarning malaka darajasi, o'quv materiallari sifati va institutsional qo'llab-quvvatlashga ham bog'liq [8].

Natijalar va muhokama. Adabiyotlar tahlili va nazariy tadqiqotlar asosida quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi. Birinchidan, iqtisodiy bilimlar va chet

tillarini integratsiyalash jarayoni CLIL metodologiyasi asosida tashkil etilganda eng yuqori samaradorlikka erishadi, chunki bu yondashuv talabalarning bir vaqtning o'zida ham predmet, ham lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishni ta'minlaydi. Integratsiyalashgan dasturlarda qatnashgan talabalar murakkab iqtisodiy tushunchalarni chet tilida ifoda etish, xalqaro biznes muhitida ishlash va professional maqsadlarda til qo'llash qobiliyatini yanada samarali rivojlantiradilar. Ikkinchidan, muvaffaqiyatli integratsiya uchun bir necha zaruriy shart bajarilishi kerak, jumladan o'qituvchilarning ikki tomonlama kompetensiyaga ega bo'lishi, ya'ni ular ham iqtisodiy fanlar, ham chet tili bo'yicha malakali bo'lishlari zarur. Bu talabni qondirish uchun o'qituvchilar professional rivojlanish dasturlarida qatnashishlari, zamonaviy didaktik metodlar va texnologiyalar bilan tanishishlari kerak [6].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, integratsiyalashgan yondashuv talabalarning mehnat bozoriga tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi. Xalqaro kompaniyalar va ko'p millatli korporatsiyalar o'z xodimlaridan nafaqat professional bilim, balki yuqori darajadagi til kompetensiyalarini ham talab qiladilar. Iqtisodiy fanlar va chet tillarini integratsiyalashgan holda o'rgangan bitiruvchilar xalqaro loyihalarda ishtirok etish, chet ellik hamkorlar bilan muloqot qilish va global iqtisodiy jarayonlarni tushunish bo'yicha ancha yaxshi tayyorlanganlar bo'ladilar [7]. Biroq, integratsiya jarayonida bir qator qiyinchiliklarga duch kelinishi mumkin. Eng asosiy muammo o'qituvchilar yetishmasligi va ularning malaka darajasining yetarli emasligi hisoblanadi. Ko'plab kasbiy ta'lim muassasalarida iqtisodiy fanlar bo'yicha o'qituvchilar chet tillarni yetarli darajada bilmaydilar yoki aksincha, chet tili o'qituvchilari

iqtisodiy fanlar bo'yicha chuqur bilimlarga ega emaslar. Shuningdek, sifatli o'quv adabiyotlari va didaktik materiallar yetishmasligi, integratsiyalashgan dasturlar uchun maxsus ishlab chiqilgan o'quv-uslubiy majmualar etishmasligi ham jiddiy to'siq hisoblanadi [8].

Zamonaviy raqamli texnologiyalar va onlayn ta'lim platformalari integratsiyalash jarayonini sezilarli darajada osonlashtirishi mumkin. Virtual ta'lim muhitlari, interaktiv simulyatsiyalar, onlayn biznes o'yinlari va multimedia resurslar talabalarning ham til, ham iqtisodiy bilimlarini amaliy sharoitlarda qo'llash imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, xalqaro ta'lim dasturlari, akademik almashinuv va qo'shma diplom dasturlari ham integratsiya jarayoniga katta hissa qo'shadi, chunki ular talabalarga xalqaro tajriba orttirish va turli madaniyatlarda professional faoliyat olib borish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini taqdim etadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot kasbiy ta'limda iqtisodiy bilimlar va chet tillarini integratsiyalashning nazariy asoslari va amaliy ahamiyatini aniqlashga qaratilgan bo'lib, CLIL metodologiyasi asosidagi integratsiyalashgan yondashuv zamonaviy mehnat bozori talablariga mos mutaxassislar tayyorlashda eng samarali vosita ekanligini isbotladi. Adabiyotlar tahlili xalqaro va mahalliy tajribalar ko'rsatib o'tganidek, predmet va til kompetensiyalarining bir vaqtning o'zida rivojlanishi talabalarning akademik muvaffaqiyati, professional tayyorgarlik darajasi va xalqaro raqobatbardoshligini sezilarli oshiradi. Integratsiyalash jarayonining muvaffaqiyati uchun o'qituvchilarning ikki tomonlama kompetensiyaga ega bo'lishi, sifatli o'quv materiallari yaratilishi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanilishi va institutsional qo'llab-quvvatlashning mavjudligi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ruiz de Zarobe, Y., & Lasagabaster, D. (2023). The effectiveness of CLIL in vocational education: A longitudinal study. *International Journal of Bilingual Education and Bilingualism*, 26(5), 612-628.
2. Тошматова, Н. Қ. Иқтисодий олий таълим муассасаларида чет тилларини ўқитишнинг ҳозирги ҳолати ва истиқболлари. *Замонавий таълим*, 4(8), 2022. 102-109.
3. Coyle, D., & Meyer, O. Beyond CLIL: Pluriliteracies teaching for deeper learning. Cambridge University Press. 2022
4. Cenoz, J., & Gorter, D. (2022). Pedagogical translanguaging and multilingual education. *Cambridge Journal of Education*, 52(3), 325-342.
5. Юсупова, Ш. Р., & Каримова, М. А. (2023). Касбий таълимда интердисциплинар ёндашувларнинг қўлланилиши. *Педагогика ва психология масаллари*, 5(3), 78-86.
6. Mahmudova, L. T., & Sharipova, D. K. (2023). Профессиональная иноязычная компетенция студентов экономических специальностей: формирование и развитие. *Проблемы педагогики*, 7(2), 45-53.
7. Pérez-Cañado, M. L. (2021). CLIL and educational level: A longitudinal study on the impact of CLIL on language outcomes. *Linguistics and Education*, 67, 100982.
8. Ахмедова, Г. Н. Касб-ҳунар таълими муассасаларида тил ва мутахассислик фанларини интеграциялаштириб ўқитиш. *Илм-фан ва таълим*, 3(1), 2024. 112-119.

Ibrayimjon RAPIKOV,
Namangan davlat universiteti
“Pedagogika” fakulteti katta o‘qituvchisi, PhD

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni shakllantirish psixodidaktik jihatdan tahlil qilinadi. Muammoli o‘qitish, interfaol usullar va metakognitiv strategiyalar integratsiyasi asoslanib, kognitiv rivojlanish nazariyalari asosida mustaqil fikrlashni rivojlantirish mexanizmlari aniqlanadi. Natijalar o‘quvchi subyektligini shakllantirishga doir amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: *mustaqil fikrlash, didaktika, refleksiya, kognitiv rivojlanish, pedagogik yondashuv, tanqidiy tafakkur, metakognitsiya, ijodkorlik, motivatsiya.*

Annotation: the article analyzes the methodology of developing independent thinking skills in primary school students from a psychodidactic perspective. It substantiates the integration of problem-based learning, interactive methods, and metacognitive strategies, identifying mechanisms for fostering independent thinking based on cognitive development theories. The findings provide practical recommendations for enhancing learner subjectivity in primary education.

Key words: *independent thinking, didactics, reflection, cognitive development, pedagogical approach, critical thinking, metacognition, creativity, motivation.*

Аннотация: в статье рассматривается методика формирования навыков самостоятельного мышления у учащихся начальных классов с психодидактической точки зрения. Обосновывается интеграция проблемного обучения, интерактивных методов и метакогнитивных стратегий, выявляются механизмы развития самостоятельного мышления на основе теорий когнитивного развития. Результаты содержат практические рекомендации по формированию субъектности учащегося в начальном образовании.

Ключевые слова: *самостоятельное мышление, дидактика, рефлексия, когнитивное развитие, педагогический подход, критическое мышление, метакогниция, креативность, мотивация.*

Hozirgi ta‘lim tizimining asosiy vazifasi – o‘quvchilarda faqat bilim emas, balki o‘zgaruvchan sharoitda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Boshlang‘ich ta‘lim bu jarayonning poydevorini belgilaydi, chunki aynan shu bosqichda o‘quvchilarning kognitiv faoliyati faol shakllanadi. XXI asrda ta‘lim paradigmasi reproduktiv o‘qitishdan ijodiy, izlanishga yo‘naltirilgan ta‘limga o‘tayotgani mustaqil fikrlashni rivojlantirishni dolzarb masalaga aylantirdi. Shu bois, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirishning psixodidaktik asoslarini aniqlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni integratsiyalash hamda amaliy metodik tavsiyalar ishlab chiqish ushbu tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Mustaqil fikrlash fenomeni psixologiya va pedagogikaning asosiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biridir. L.S. Vigotskiy madaniy-tarixiy nazariyasida bolaning psixik rivojlanishida ijtimoiy muhit va madaniy vositalarning ahamiyatini asoslab, “yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasini ilgari surdi. Unga ko‘ra, bola kattalar yordamida bajara oladigan, ammo mustaqil uddalay olmaydigan vazifalar o‘qitish uchun eng samarali maydondir. Bu yondashuv mustaqil

fikrlashni shakllantirishda pedagogik qo‘llab-quvvatlash zarurligini ko‘rsatadi. J. Piaget esa bolalar tafakkurining bosqichma-bosqich rivojlanishini tadqiq etib, yetti-o‘n bir yosh oralig‘idagi konkret operatsional bosqichda ularning fikrlashi asosan aniq vaziyat va ob‘ektlarga tayanishini aniqladi. Bu nazariya o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos metodlarni tanlashda muhimdir. O‘zbek pedagogikasida Sh.N. Ataxonov boshlang‘ich ta‘limda mustaqillikni tarbiyalashning didaktik asoslarini ishlab chiqdi; R.X. Jalolov interfaol usullar orqali o‘quvchi faolligini oshirishni ilmiy asoslab berdi; N.A. Muslimov esa didaktik o‘yinlar va faol metodlar yordamida intellektual rivojlanishni ta‘minlash yo‘llarini ko‘rsatdi.

Asosiy qism. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni shakllantirishda ularning yosh va kognitiv xususiyatlarini e‘tiborga olish zarur. Piaget nazariyasiga ko‘ra, bu davr konkret operatsional tafakkur bosqichiga to‘g‘ri keladi: o‘quvchilar mantiqiy fikrlashni boshlaydilar, biroq u hali aniq hodisalarga tayanadi. Shu sababli o‘qitish ko‘rgazmali va amaliy faoliyatga asoslanishi lozim. Vigotskiy ta‘limotiga binoan, o‘qituvchi “yaqin rivojlanish zonasi” orqali o‘quvchini mustaqillikka yo‘naltiradi – dastlab yordam beradi, keyinchalik esa uni kamaytiradi.

Mustaqil fikrlashni rivojlantirishda muammoli

o'qitish, "fikrlash xaritasi" va "konseptual jadval" kabi interfaol metodlar muhim o'rin tutadi. Ular o'quvchilarni mustaqil yechim izlashga, tanqidiy va tahliliy fikrlashga o'rgatadi. Bloom taksonomiyasi asosidagi savol-javob texnologiyasi esa o'quvchini bosqichma-bosqich fikrlash darajalariga olib chiqadi: avval bilish ("Kim?", "Nima?"), so'ng tushunish ("Nima uchun?"), qo'llash ("Qanday ishlatish mumkin?") va nihoyat tahlil hamda baholash ("Qaysi yechim yaxshiroq?", "Yangi g'oya taklif qiling"). Masalan, matematika darsida "Geometrik shakllar" mavzusida o'qituvchi muammoli vaziyat yaratadi: "Menda to'rtta tayoqcha bor. Ulardan nechta turli shakl yasash mumkin?" O'quvchilar guruhda ishlaydi, shakllar yasab, ularni tahlil qiladi va xulosalar chiqaradi. Fikrlash xaritasida "geometrik shakllar" tushunchasidan "uchburchak", "to'rtburchak", "beshburchak" kabi tarmoqlar ajratiladi; konseptual jadvalda esa shakllarning o'xshash va farqli tomonlari taqqoslanadi. Dars yakunida o'quvchilar refleksiya orqali o'z faoliyatini tahlil qilib, samarali usullarni aniqlaydilar.

Mustaqil fikrlashni rivojlantirishda o'qituvchi fasilitator sifatida jarayonni yo'naltiradi va o'quvchini mustaqil izlanishga undaydi. U tayyor javob bermay, savol berish, xato qilish va undan saboq olishni o'rgatadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvda har bir o'quvchining individual xususiyati va o'rganish uslubini hisobga oladi. Har kimga muvaffaqiyat hissini yaratish orqali ichki motivatsiya va o'ziga ishonchni mustahkamlaydi – bu esa mustaqil fikrlashning asosidir.

Natijalar va muhokama

Boshlang'ich sinflarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish metodikasining amaliy qo'llanilishi bir necha ijobiy natijalarni beradi. Avvalo, o'quvchilarning kognitiv faolligi oshadi: ular darsda ko'proq savol beradi, fikr bildiradi va turli yechimlarni taklif qiladi. Passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchiga aylanadilar, bu esa o'qishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Ikkinchi natija – metakognitiv ko'nikmalarning rivojlanishi. Refleksiya mashqlari orqali o'quvchilar o'z fikrlash jarayonini tahlil qilishni, samarali o'rganish usullarini tanlashni va o'z o'quv faoliyatini boshqarishni o'rganadilar. Bu ularni mustaqil o'rganishga tayyorlaydi. Uchinchi, ichki motivatsiya shakllanadi. O'quvchilar bilim olishdan

zavqlanadi, mustaqil yechim topishdan qoniqish oladi. Ichki motivatsiya esa chuqur va barqaror o'rganishga olib keladi. To'rtinchidan, kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalar rivojlanadi: guruhli ish jarayonida o'quvchilar fikr almashish, tinglash, asoslash va kelishmovchiliklarni hal etishni o'rganadilar. Bu ko'nikmalar kelajakdagi ta'lim va kasbiy hayotda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazariy asoslar bilan taqqoslash natijasida amaliy tajriba Vigotskiy va Piaget nazariyalari bilan uyg'un ekanligi aniqlandi. "Yaqin rivojlanish zonasi" tamoyili o'z samaradorligini ko'rsatdi – o'qituvchi yordamida o'quvchilar o'z imkoniyatlaridan yuqori natijalarga erishdilar. Piaget ta'kidlagan konkret operatsional tafakkur xususiyatlari ham tasdiqlandi: ko'rgazmali vositalar, amaliy mashg'ulotlar va aniq misollar eng samarali bo'ldi. Shu bilan birga, ayrim qiyinchiliklar kuzatildi. Birinchidan, metodika ko'proq vaqt talab qiladi: muammoli vaziyatlar yaratish, guruh ishlarini tashkil etish va fikr almashish an'anaviy darsdan uzoq davom etadi. Shu sababli o'qituvchilar o'quv dasturini moslashtirish va vaqtni to'g'ri taqsimlashga e'tibor berishlari kerak. Ikkinchi, katta sinflarda individual yondashuv qiyinlashadi; bu muammoni guruh ishlari va o'zaro o'qitish orqali yumshatish mumkin. Uchinchi, o'qituvchilarning o'zi ham yangi metodikaga moslashishda psixologik tayyorgarlikka muhtoj. Ular nazoratni bo'lishishga, o'quvchilarga mustaqillik berishga tayyor bo'lishlari lozim. Shu bois malaka oshirish tizimida zamonaviy metodikalarga bag'ishlangan trening va master-klasslar joriy etilishi zarur.

Raqamli texnologiyalar mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi: interaktiv taxtalar, onlayn platformalar va ta'limiy dasturlar o'quvchilarga izlanish, tajriba va o'zini baholash imkonini beradi. Biroq asosiy e'tibor ta'lim mazmuniga qaratilishi lozim.

Xulosa qilib, muammoli o'qitish, interfaol usullar va metakognitiv strategiyalar uyg'unligi boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlashni samarali rivojlantiradi. O'qituvchi yo'naltiruvchi rolni bajaradi, ta'lim siyosati esa pedagog malakasini oshirish va raqamli texnologiyalarni qo'llab-quvvatlashni ta'minlashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 1999. - 352 с.
2. Пиаже Ж. Избранные психологические труды. – Москва: Международная педагогическая академия, 1994. - 680 с.
3. Атаханов Ш.Н. Бошланғич синфларда таълим назарияси ва амалиёти. – Тошкент: Ўқитувчи, 2003. - 268 б.
4. Эльконин Д.Б., Давыдов В.В. Возрастные возможности усвоения знаний. -Москва: Просвещение, 1966. - 442 с.
5. Жалолов Р.Х. Тил ўқитиш методикаси. - Тошкент: Ўқитувчи, 2012. - 432 б.

D.M.XIDIROVA,
Toshkent texnologiya,
menejment va kommunikatsiya instituti
Tillar va ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi

FINLANDIYA VA O'ZBEKISTONDA INNOVATSION PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya: ushbu maqola boshlang'ich ta'limda sun'iy intellekt (SI) va robototexnika texnologiyalarining joriy etilishi va pedagogik yondoshuvlaridagi o'zgarishlarni tahlil qilingan. Bugungi kunda ta'lim tizimi nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, balki ularni XXI asr kompetensiyalariga tayyorlash maqsadida yangi metod va texnologiyalarni joriy etish bo'yicha kuchli o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Sun'iy intellekt va robototexnikaning pedagogik metodologiyaga ta'siri, o'qituvchilarning texnologiyalarga tayyorligi, o'quvchilarning akademik yutuqlari va bu texnologiyalarni o'qitishda qanday samarali qo'llanilishi haqida fikrlar bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, sun'iy intellekt, robototexnika, pedagogik metodologiya, innovatsion pedagogika, ta'limda texnologiyalar, o'qituvchilar malakasi, kognitiv rivojlanish, ta'lim innovatsiyalari, o'quvchilarning akademik yutuqlari.*

Annotation: this article analyzes the introduction of artificial intelligence (AI) and robotics technologies in primary education and the resulting changes in pedagogical approaches. Today, the education system is undergoing significant transformations aimed not only at improving students' knowledge levels but also at preparing them for 21st-century competencies through the implementation of new methods and technologies. The article discusses the impact of artificial intelligence and robotics on pedagogical methodology, teachers' readiness to use these technologies, students' academic achievements, and effective ways of integrating these tools into teaching.

Ayniqsa, 2024-yil 16-avgust kuni qabul qilingan "Pedagog maqomi to'g'risidagi" Qonun ushbu sohadagi islohotlarning huquqiy poydevorini mustahkamladi. Ushbu qonunga muvofiq, pedagog – bu jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy va intellektual rivojlanishida yetakchi o'rinni egallovchi, davlat tomonidan alohida e'tibor etiladi. Qonunda pedagoglarning huquqlari, erkinliklari, ijtimoiy kafolatlari, moddiy rag'batlantirish tizimi, hamda ularning kasbiy malakasini oshirish mexanizmlari aniq belgilab berilgan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, pedagog shaxsining psixologik holati, motivatsiyasi, kasbiy o'zini anglash

darajasi va karyera rejalashtirish qobiliyati-uning kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyatni belgilovchi asosiy psixologik omillardir. Shaxsiy qadriyatlar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, professional muhit, rahbariyat yondashuvi va ta'lim muassasasidagi psixologik iqlim o'qituvchining o'z kasbiga bo'lgan sadoqati va karyera istiqbolini belgilaydi. "O'qituvchi karyerasi" tushunchasi o'zida shaxsning kasbiy faoliyati davomida o'sish, rivojlanish, o'zini anglash va ijtimoiy maqomga ega bo'lish jarayonlarini mujassam etadi. Pedagog shaxsining professional karyerasini rivojlantirish jarayoni psixologik jihatdan tahlil etish murakkab, ko'p qirrali ilmiy yo'nalish bo'lib, u shaxs psixologiyasi, kasbiy psixologiya, pedagogika va ijtimoiy psixologiyaning integratsiyasini talab qiladi.

Metodologik asos sifatida shaxsning kasbiy ushbu tadqiqotning metodologiyasi pedagog shaxsining kasbiy o'sish dinamikasini, motivatsion omillarni, o'zini anglash jarayoni va ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini ilmiy asosda o'rganishga qaratilgan. Jumladan, tadqiqotning nazariy poydevori sifatida L.S.Vigotskiy, A.N. Leontev, S.L.Rubinshteyn, K.Levin, A.Maslou, D.Super, J.Holland kabi olimlarning shaxs rivoji, faoliyat va motivatsiya nazariyalariga tayanadi. Ularning ishlarida shaxsning kasbiy o'zini anglash, motivatsion tuzilma va faoliyatga nisbatan munosabatning ijtimoiy-psixologik tabiati chuqur yoritilgan. o'zbekistonlik olimlardan Z.Nishanova, M.Jo'rayev, G. Shoumarov, N.To'xliyev, M.Karimovalarning pedagog shaxsining kasbiy kompetensiyasi, pedagogik etika, stressga bardoshlik va karyera psixologiyasi haqidagi tadqiqotlari ham mazkur ishning nazariy tayanchini tashkil etadi.

O'qituvchi karyerasini rivojlantirish jarayoni zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib, u nafaqat ta'lim sifati va samaradorligiga, balki jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivojiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Olimlar tomonidan o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi karyerasining shakllanishi shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy omillarning uzviy bog'liqligida kechadi. o'qituvchilik


faoliyatining dastlabki bosqichida kasbiy moslashuv, o'rta bosqichida professional mahoratni chuqurlashtirish, yetuklik bosqichida esa pedagogik liderlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu model o'qituvchi karyerasini izchil rivojlantirish uchun metodik asos sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqotda aniqlanishicha, o'qituvchining karyera yo'nalishini aniqlovchi asosiy psixologik omillar-kasbiy motivatsiya, o'zini o'zi anglash, maqsadga yo'naltirilganlik, ijtimoiy e'tirofga bo'lgan ehtiyoj va professional o'zini qadrlash darajasidir. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, o'qituvchilarning 68 foizi malakasini oshirish va yangi kompetensiyalarni egallashga muntazam intiladi. Bu esa o'qituvchilarning o'z karyerasiga mas'uliyat bilan yondashayotganini ta'lim tizimida sifatli o'zgarishlarga tayyorgarligini bildiradi. Tadqiqotda aniqlanishicha, o'qituvchilar orasida karyerani rejalashtirish bo'yicha innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj yuqori. Raqamli ta'lim, masofaviy kurslar, mentorlik dasturlari va professional tarmoqlar orqali o'z karyerasini boshqarish zamonaviy o'qituvchi uchun muhim vositaga aylanmoqda. Ayniqsa, "hayot davomida o'qish" tamoyilining amalda tatbiqi karyeraviy barqarorlikni ta'minlaydi.



Xulosa. Xulosa o'rinda shuni aytish kerakki, o'qituvchi karyerasining rivojlanishi bugungi ta'lim tizimining eng muhim tarkibiy qismidir. Chunki pedagog ta'lim jarayonining markaziy shaxsi, uning kasbiy salohiyati va ma'naviy dunyosiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois o'qituvchi karyerasini shakllantirish va uni izchil rivojlantirish masalasi nafaqat kasbiy, balki ijtimoiy, psixologik va ma'naviy jarayon sifatida ham qaralishi zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi karyerasi bir necha asosiy omillar birgalikda rivojlanadi. Ular orasida shaxsiy motivatsiya, kasbiy kompetensiya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, rahbariyat, munosabati hamda davlat siyosatining yo'nalishi muhim o'rin tutadi. o'qituvchi karyerasining yuksalishi nafaqat uning shaxsiy yutug'i, balki butun ta'lim tizimining, jamiyat taraqqiyotining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Pedagog maqomi to'g'risida"gi Qonuni.2024-yil 16-avgust.
2. Выготский Л.С. Психология развития человека. – М.,1984
3. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М., 1975.
4. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – М., 1989.



KICHIK TADQIQOT



Mohina TIRKASHEVA,
Qarshi davlat universiteti
o'zbek adabiyoti magistranti
Ilmiy rahbar.f.f.d.professor G.Ernazarova

JADID DRAMALARIDA FOLKLOR SYUJET VA MOTIVLARIDAN FOYDALANISH TAMOYILI

Annotatsiya: maqolada XX asr boshlarida shakllangan jadid dramaturgiyasining badiiy xususiyatlari, xususan, unda xalq og'zaki ijodi – folklor syujet va motivlaridan foydalanish yo'llari tahlil etiladi. Jadid dramaturglar – Mahmudxo'ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy kabi ijodkorlarning asarlarida xalq ertaklari, rivoyatlari, maqol va matallar, dostoniy motivlarning zamonaviy talqini o'rganiladi.

Kalit so'zlar: *jadid dramaturgiyasi, folklor, syujet, motiv, xalq og'zaki ijodi, ma'rifatparvarlik, milliylik, xalq ertaklari, rivoyatlar, maqol va matallar, milliy uyg'onish, o'zbek sahna san'ati.*

Annotation: this article analyzes the artistic features of Jadid drama formed at the beginning of the 20th century, particularly the ways in which folk oral creativity – folklore plots and motifs – were used in these works. It examines how prominent Jadid playwrights such as Mahmudkhoja Behbudi, Hamza Hakimzoda Niyoziy, and Abdulla Avloni reinterpreted folk tales, legends, proverbs, sayings, and epic motifs in a modern context. The study highlights the synthesis of enlightenment, national identity, and popular traditions within Jadid dramaturgy, as well as the significance of folkloric elements in expressing new social and spiritual ideas of the era.

Key words: *jadid drama, folklore, plot, motif, folk oral creativity, enlightenment, nationality, folk tales, legends, proverbs and sayings, national awakening, Uzbek stage art.*

Аннотация: в статье анализируются художественные особенности джадидской драматургии, сформировавшейся в начале XX века, в частности, пути использования народного устного творчества – фольклорных сюжетов и мотивов. Рассматриваются произведения таких драматургов, как Махмудходжа Бехбуди, Хамза Хакимзаде Ниязи и Абдулла Авлони, в которых народные сказки, предания, пословицы и поговорки, а также эпические мотивы получают современную интерпретацию. В работе раскрывается взаимосвязь просветительских, национальных и народных традиций в джадидской драматургии, а также значение фольклорных элементов в выражении новых общественно-духовных идей эпохи.

Ключевые слова: *джадидская драматургия, фольклор, сюжет, мотив, народное устное творчество, просветительство, национальность, народные сказки, предания, пословицы и поговорки, национальное возрождение, узбекское сценическое искусство.*

Turkiston adabiy hayotida XX asr boshlarida yuz bergan jadidchilik harakati milliy o'zlikni anglash, xalqni ilm-ma'rifatga chorlash, jaholat va qoloqlikka qarshi kurashish g'oyalari asoslandi. Jadid adabiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan drama janri bu g'oyalarni xalq orasida keng yoyishda samarali xizmat qildi. Jadid namoyandalari sahna asarlarida xalq og'zaki ijodi – folklor elementlarini syujet, motiv, obraz va badiiy til darajasida keng qo'lladilar. Bu esa ularning asarlariga milliylik, xalqona ruh va ma'naviy ta'sirchanlik baxsh etdi.

Avvalambor, jadid dramalari ta'sirida folklor syujetlarining zamonaviy talqini yuzaga chiqdi. Jadid dramaturglar xalq ertaklari va rivoyatlarida mavjud bo'lgan voqealar, axloqiy g'oyalarni yangi hayotiy mazmunda qayta talqin qildilar. Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" (1911) dramasida xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan "ota la'nati" va "noshukur farzand" motivi zamonaviy ijtimoiy muammo sifatida yoritiladi. Asarda farzandning ilmsizligi tufayli ota hayotiga zomin bo'lishi orqali ma'naviy inqiroz ko'rsatiladi. Bu syujet orqali muallif xalq ertaklaridagi an'anaviy motivni ma'rifatparvarlik g'oyasi bilan uyg'unlashtiradi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning an'anaviy motivdan mahorat bilan foydalanishi asarning xalqchilligini yaqqol namoyon qilgan. Asarda domla tomonidan keltirilgan ushbu jumlar "Bu endi ota qotili – padarkush! Ma'rifatsizlik va johillik insonni o'z otasiga ham dushman qiladi!" ilmsizlik insonni insoniylikdan, ma'naviy qadriyatlardan ayrilishiga urg'u beradi.

Yana bir jadid dramaturgi Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Boy ila xizmatchi" (1917), "Zaharli hayot" (1918) kabi dramalarida xalq ertaklarida keng uchraydigan "boy va kambag'al", "yovuzlik ustidan yaxshilikning g'alabasi" motivlari asosiy dramatik to'qnashuvni yuzaga chiqarishda muhim rol o'ynaydi. Xalq ertaklaridagi adolat va mehnatsevarlik motivlarini drama sohasida mahorat bilan qo'llagan Hamza xalq ertaklaridagi soddadil, halol, mehnatkash qahramonlarni yangi davr ma'rifatparvarlari timsolida qayta yaratadi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodiga xos satirik elementlardan (hazil, kinoya, xalqona til) foydalanib, ijtimoiy tanqidni kuchaytiradi.

Bundan tashqari jadid dramaturgiyasida xalq rivoyatlaridagi axloqiy saboq, taqdir sinovi, odamiylik

motivlari ham keng ishlatilgan. Masalan, "Padarkush" dramasi ota duosining qadrini bilmagan farzandning halokati xalq rivoyatlaridagi "duo va la'natning kuchi" e'tiqodini yodga soladi. Bu motiv Behbudiy uchun faqat diniy asos emas, balki ijtimoiy ma'noga ega – ota-onaga hurmat va tarbiyaning milliy-axloqiy ildizini ifodalaydi. Xuddi shuningdek, Hamzaning "Mehnat qilgan to'yadi"¹ g'oyasi asosidagi pyesalarida xalq og'zaki ijodidagi mehnat barakasi, halollikning g'alabasi motivlari zamonaviy hayot bilan uyg'unlashgan holda sahnaga olib chiqiladi. Xalq tili, maqol va matallarning dramatik nutqda qo'llanishi ham jadid dramalarida folklorizmning o'rnini ochib beradi. Jadid dramaturglar folklor syujetlari bilan bir qatorda, xalqona tilni, maqol va matallarni sahna nutqida faol ishlatganlar. Masalan, Hamza asarlaridagi personajlar "Ota duosi – farzandga yor", "Ilm chiroqdir, jaholat – zulmat", "Mehnat qilgan to'yadi" kabi xalq maqollari bilan so'zlaydi. Bu iboralar nafaqat tilni tabiiylashtiradi, balki asar g'oyasini xalq ongiga yaqin tarzda yetkazadi. Bunday folkloriy uslub sahna nutqini xalqona, ishonchli va ta'sirchan qiladi. Folklor unsurlari dramalarga xalqona ruh, tabiiylik, soddalik va ta'sirchanlik beradi. Tomoshabinga tanish syujet va obrazlar orqali jadidlar ma'rifat, erkinlik, milliy uyg'unlash g'oyalarini singdirganlar. Bu usul orqali ular xalq bilan bevosita aloqa o'rnatgan va yangi g'oyalarni xalq qalbiga yaqin va uyg'unlashtirgan shaklda yetkazganlar.

Jadid dramaturglar xalq dostonlari va ertaklaridagi qahramonlik, adolat, fidoyilik timsollarini yangi ijtimoiy kontekstda qayta yaratganlar. Masalan, Abdulla Avloniyning "Advokatlik osonmi?" dramasi xalq dostonlariga xos adolatparvar qahramon zamonaviy ma'rifatli shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Cho'lponning asarlarida esa xalq qahramonlariga xos yurtparvarlik va ozodlik uchun fidoyilik motivlari yangi badiiy shaklda ifodalangan. Misol uchun, "Kecha va kunduz" Cho'lponning ozodlik va ma'rifat g'oyalarini badiiy yuksaklikda ifodalagan eng yetuk asaridir. Bu roman orqali yozuvchi: xalqni zulmatdan nurga, qullikdan erkinlikka, jaholatdan ma'rifatga eltuvchi yo'lni ko'rsatadi. Shunday qilib, "Kecha va kunduz" nafaqat bir davr hayotining badiiy ifodasi, balki millat ozodligi, inson erkinligi va ma'naviy uyg'unlash ko'zguvidir.

¹ Behbudiy M. Padarkush. – Toshkent, 1911.

Jadid dramaturgiyasi xalq og'zaki ijodi – folkloridan ilhomlanib, uni milliy uyg'unlash va ma'rifat g'oyalariga xizmat qildirdi. Jadid dramaturgiyasi xalq og'zaki ijodi – folkloridan faqat badiiy bezak sifatida emas, balki milliylik, ma'naviyat va ijtimoiy g'oya ifodasi sifatida foydalandi. Folklor syujet va motivlari: xalqning tarixiy xotirasi va ruhini sahnaga olib chiqdi, yangi davr g'oyalarini xalqona shaklda ifodalay oldi, milliy dramaturgiya maktabining shakllanishiga asos soldi. Natijada, jadidlar folklor merosini zamonaviy adabiy jarayon bilan uyg'unlashtirib, o'zbek sahna san'atining poydevorini yaratdilar. Ularning ijodi xalq og'zaki ijodining davomchisi, millat ma'naviy uyg'unlashining timsoli sifatida bugun ham ahamiyatini yo'qotmagan. Shu tariqa, jadid dramaturglar folklori zamonaviy ma'naviy-ma'rifiy g'oyalar bilan uyg'unlashtirib, o'zbek milliy sahna adabiyotining poydevorini yaratdilar.

Xulosa qilib aytganda, jadid dramaturgiyasi o'zbek adabiyoti tarixida xalq ongini uyg'otish, millatni ozodlik va ma'rifat sari yetaklashda muhim o'rin tutgan. Jadid dramaturgiyasida folklor syujet va motivlaridan foydalanish – bu milliy o'zlikni ifodalash, xalq madaniyatiga tayangan holda yangilanish jarayonidir. Bu jihat jadid teatrini xalqona, tarbiyaviy va milliy ruhda shakllanishiga sabab bo'lgan. Jadid dramaturglar – Mahmudxo'ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Abdurauf Fitrat va boshqalar – o'z asarlarida xalq og'zaki ijodining boy an'analari, ya'ni folklor syujetlari va motivlaridan keng foydalandilar. Folklor unsurlari jadid dramalariga xalqona ruh, tabiiylik va ta'sirchanlik bag'ishladi. Afsonalar, maqollar, xalq qo'shiqlari, ertak va rivoyatlarda ifodalangan ezgulik, adolat, vatanparvarlik, erkinlik, ma'rifat g'oyalari dramaturglar asarlarining ichki mazmuniga singib ketdi. Shu yo'l bilan jadidlar xalq ongiga yaqin tilda, tanish obrazlar orqali yangilik, ozodlik, ma'rifat, insoniylik g'oyalarini singdirdilar. Demak, jadid dramalarida folklor syujet va motivlaridan foydalanish – bu oddiy badiiy usul emas, balki milliy ruhni uyg'otish, xalqni o'z ildizlariga qaytarish va yangi hayot sari da'vat etish vositasi bo'lgan. Shu sababli jadid dramaturgiyasi o'zbek milliy teatri va zamonaviy adabiyot taraqqiyotida poydevor vazifasini bajargan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimov B. Jadid adabiyoti taraqqiyoti masalalari. – Toshkent: Fan, 1994.
2. Behbudiy M. Padarkush. – Toshkent, 1911.
3. Hamza H. N. Boy ila xizmatchi. – Toshkent, 1917.
4. Abdug'afurov A. Jadid adabiyotining manbalari va poetikasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.
5. Karimov N. O'zbek dramaturgiyasida xalq og'zaki ijodining an'analari. – Toshkent: Fan, 1987.
6. Yo'ldoshev Q. O'zbek dramaturgiyasi taraqqiyoti. – Toshkent: Fan, 1977.

Go'zal OMONOVA,
Qarshi davlat universiteti
Yangi o'zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi
kafedrası magistranti

NAZAR ESHONQUL ASARLARIDA DETALLAR BILAN ISHLASH VA ULARNING O'RNI

Annotatsiya: Nazar Eshonqul ijodida detallarning o'rni juda muhimdir. U voqealarni tasvirlashda nozik va aniq detallardan foydalanib asarlarni yanada jonli va hayotiy qiladi. Detallar orqali muallif obrazlarning ruhiy holatini, ularning ichki kechinmalarini, shuningdek, muhit va zamon ruhini ifodalashga erishadi. Bu esa o'quvchiga voqeani yanada yaqinroq his qilish imkonini beradi. Detallar yordamida Nazar Eshonqul voqealarini chuqurroq yoritib, ularning mazmun-mohiyatini ochib beradi. Shu tariqa, uning asarlarida detallarning roli faqat bezak uchun emas, balki hikoyaning asosiy ahamiyatli elementi sifatida namoyon bo'ladi. Detallar yordamida muallif hayotiy haqiqat va ichki kechinmalarni o'ziga xos tarzda aks ettiradi.

Kalit so'z: detal, badiiy detal, predmet detal, peyzaj, his-tuyg'u, obraz, xarakter, qahramon, ichki kechinma.

Аннотация: в творчестве Назара Эшонкулла деталь занимает особое, чрезвычайно важное место. Используя тонкие и точные детали при описании событий, автор делает свои произведения более живыми и реалистичными. Через детали писатель передаёт психологическое состояние персонажей, их внутренние переживания, а также дух времени и атмосферу окружающего мира. Это позволяет читателю глубже прочувствовать происходящее и приблизиться к героям. При помощи деталей Назар Эшонкул глубже раскрывает суть событий и их идейное содержание. Таким образом, роль деталей в его произведениях заключается не только в декоративной функции, но и в том, чтобы стать одним из ключевых художественных элементов повествования. С их помощью автор своеобразно отражает жизненную правду и внутренний мир человека.

Ключевые слова: деталь, художественная деталь, предметная деталь, пейзаж, чувство, образ, характер, герой, внутреннее переживание.

Annotation: in the works of Nazar Eshonqul, the use of detail plays a crucial role. By employing subtle and precise details in his descriptions, the author brings events to life with greater vividness and realism. Through these details, he effectively conveys the psychological states of his characters, their inner experiences, as well as the spirit of the environment and the era. This enables the reader to feel more intimately connected to the narrative. Nazar Eshonqul uses detail not merely as ornamentation, but as a key element of storytelling, revealing the deeper meaning and essence of events. In this way, the role of detail in his works is not decorative, but integral to the narrative. Through detail, the author uniquely reflects life's realities and the emotional depth of his characters.

Key words: detail, artistic detail, object detail, landscape, emotion, image, character, protagonist, inner experience.

Badiiy asarlarni mutolaa qilayotganda qahramonlarning ichki dunyosini ochib berishda yoiniki o'sha davr muhitini, xarakterlarning holatini atrof-muhit bilan uyg'un holda yoritishda, xarakterning asardagi o'rnini belgilashda detallarning o'rni muhim sanaladi. Detallar asosan, asar voqealariga tub burilish yasashga xizmat qiladi.

Detal (fransuzcha detail – tafsilot, mayda-chuyda) degan ma'noni anglatadi. Asarlarda muayyan mazmun ifodalovchi, g'oyaviy-badiiy yuk tashuvchi tafsilotdir. Detal badiiy voqelikni yaratish vositasi, ashyosi bo'lib u tasvirlanayotgan narsa-hodisani konkretlashtiradi. [3-219]. Detailarning bir necha ko'rinishlari mavjud bo'lib,

ular: nutqiy detal, badiiy detal, peyzaj detali, ramziy detal, psixologik detal, predmet detali kabilarga bo'linadi. Ulardan eng ko'p uchraydigani badiiy va predmet detali sanaladi.

Badiiy detal esda qolarli, ifodali tafsilot bo'lib, qahramon obrazini ochish, voqeaning tasvirini yaratishda ham muhim rol o'ynaydi. Detal qo'shimcha yashirin ma'noga ega emas. U ramziy ma'no anglatmaydi, balki xarakterning, voqealarning, tasvirlanayotgan vaziyatning xususiyatini ko'rsatib beradi. Detal lo'nda, yorqin va obrazli predmet belgi bo'lib, u tasvir obyektini kitobxonga aniq ko'rsatishga xizmat qiladi.

Misol uchun Abdulla Qahhorning "Dahshat"

hikoyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, asarda Olim dodxohning ayoliga "qayering qichiyapti" deb aytgan jumlasini badiiy detal sifatida olsak bo'ladi. Bu so'zlar orqali dodxohning qanchalar zulmkor ekanligini, ayollarini kaltaklashi haqida anglashimiz mumkin. Bundan tashqari, o'zbek adabiyotining nodir namunalari bo'lgan Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va Kunduz", Oybekning "Qutlug' qon" romanlariga nazar soladigan bo'lsak bu ijod namunalarida predmet detal bo'lgan zahar orqali asarlar realistik romanga aylangan. Chunonchi, zahardan so'ng Kumushning o'limi va Otabekning uydan chiqib ketishi, zahar tufayli Gulnorning o'limi va otasining qotilligi, yoki "Kecha va Kunduz" asarida bu detalning ishlatilishidan so'ng Akbaralining o'limi, Zebining ayanchli taqdiri-yu Razzoq So'fining qotilligi shular jumlasidandir.[10-89] "O'tkan kunlar" romanidagi Kumushning xohlamaygina Otabekning yoniga kelgani va uni tanigach so'zlagan "siz o'shami?" degan jumlasini orqali uning Otabekka bo'lgan butun sevgi-muhabbatini anglashimizga yordam beradi. Bu ham detal qo'llashning mohirona bir ko'rinishidir.

Badiiy asarlarda detalning ahamiyati haqida ko'plab adabiyotshunos olimlar fikr bildirishgan. Izzat Sulton bu haqida shunday yozgan. "Har bir badiiy asar kishilarning yashash sharoiti, xarakteri, qahramonlarning psixologiyasi va ularning to'xtovsiz o'zgarib turishiga rivojiga aloqador sanoqsiz badiiy detallardan iboratdir. [9-189]

Bugungi yangi o'zbek adabiyotining ijod namunalarida ham detallardan chiroyli tarzda foydalanadigan, asar mazmunini, qahramonlarning ruhiy holatini, asarda xarakterlarning o'rnini belgilab berishda detallarni mahorat bilan qo'llay oladigan ijodkorlar talaygina. Chunonchi ularning samarali ijod qilayotgani bu Nazar Eshonqul hisoblanadi. U asarlarida detallardan foydalanishda inson obrazini chizishda, qahramonlarning xarakterini yaratishda detallardan unumli foydalanadi. Misol uchun "Momoqo'shiq" qissasiga diqqatimizni qaratadigan bo'lsak, asar voqealari kuz oyida bo'lsada "chechaklar qaytadan bosh ko'taryapti, qizg'aldoqlar qir-adirlar uzra qiyqirib chopib yurishibdi.... Bog'larda ishonch, xavotir, orzu daraxtlari gullayapti, bu o'lkada muhabbat qo'shig'i qaytdi"[2-94] kabi jumalari asar qahramoni bo'lgan Shamsi Saloh Muazzamning qo'shig'ini eshitgach his-tuyg'ulari qalbini larzaga solgandagi holatini ochib berishga xizmat qilgan. Aynan mana shu detal orqali yozuvchi atrof achinarli holatda bo'lsa-da qahramonning nigohida

atrof-muhit ham qalb nololari singari go'zallashganini tasvirlab bergan. Bundan tashqari asar so'ngidagi "Quyosh allaqachon botgan, oyoq ostida quruqshagan novdalar qars-qurs sinar, bog'da g'ubor hidi anqirdi. Bog'da va bog'ga tutash maysazorda qarg'alar to'da-to'da bo'lib izg'ib yurardi... u gujum tagidan o'tar ekan, bo'yniga nimadir chars etib tushdi va ko'yilgining ichiga sizib keta boshladi." [2-135] kabi jumlar ham asar qahramonining Muazzamdan rad javobini olgandagi holatini ko'rsatib bergan,. Bu jumalarning eng ahamiyatli o'rni shuki, hali kuz tugamasdan qarg'alarning to'da-to'da bo'lib yurishi qahramon ichki olamini, niyatiga yeta olmagan qahramonning qalb g'uborlarini mukammal ochib bergan. Go'yoki uning qalbidan vaqtidan oldin qish kirib kela boshlagan va u yurak xuddi qarg'alar kabi qora rangga burkangan. Bu asarda predmet detal hisoblangan. Otaqulning Shamsi Salohga bergan maktubi ham asar mazmuniga tub burilish yasashga xizmat qilgan.

Bundan tashqari, ijodkorning "Maymun yetaklagan odam" hikoyasidagi peyzaj detalga e'tibor qaratadigan bo'lsak "ustun va romlari chirigan, umuman hovli dan chirkin va badbo'y hid kelardi" yoki "cholning hovlisi hashamatli, ammo toshloq daraday huvillagan" [2-4] kabi jumlar cholning nafaqat ichi bo'm-bo'sh orzu-umidsiz qolganini anglatadi, balki uning tashqi muhit bilan aloqasining butunlay uzilganligini, uning ichki dunyosi tashqi dunyo bilan umuman uyg'un emasligini ifodalaydi. Yozuvchining asarlarida "chirkin hid" "badbo'y hid" kabi iboralari juda ko'p uchraydi. Masalan, "Bevaqt chalingan bong", "Zulmat saltanatiga sayohat" ham shular jumlasidandir. Umuman olganda, ijodkor asar qahramonlarining ko'pchiligi hayotdan charchagan, orzu-umidlaridan voz kechgan inson sifatida tasvirlangan.

Yozuvchi ijod namunalaridagi yana bir badiiy va predmet detalga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning "Ochilmagan eshik" hikoyasidagi qahramonning tushidagi turmush o'rtog'i va uning jazmani yulib olayotgan va so'lib bo'lgach orqasiga otayotgan lolalardir. Bu lolalar mushtipar ayolning so'lib borayotgan orzu-umidlari, eriga bo'lgan ishonchsizlik, qadrsizlangan hayotini tasvirlashdagi detal hisoblanadi. U xuddi tushidagi qizaloq kabi ularga yetib olish, baxtli bo'lish uchun ortlaridan tinmay harakat, qilmoqda ammo hech ham yeta olmasdi. Lolalar yetmagandek, bundan tashqari erkakning "Yo qulfdan voz kechish kerak, yoki eshikdan – baribir ochib bo'lmaydi.... sening buni o'rab qo'yishga aqling ko'plik qiladi"[2-166] kabi jumalardagi

“zanglagan qulf” erining ayoliga bo‘lgan sevgining butunlay zanglab ochilmaydigan holga kelib qolganini anglatga, ikkinchi tomondan bu bechora hol ayolning butun hayoti xuddi “zanglagan qulf” kabi kechganini anglatadi. Bu qahramonning “qulfi” avvaldan yaroqsiz holga kelib bo‘lgan, uning umrining ochilmaydigan eshik kabi hech kimga qizig‘i yo‘q, vaqtida o‘gay onasi-yu, ukalariga ham kerak bo‘lmagan endi eriga ham qizig‘i yo‘q go‘yo, faqatgina birgina yo‘li bor uni tashlab yuborishdir. Balki shuning uchun ham qahramon bu qulfni ochilishini istamas, u qulflangan eshik ortida nafrat, ishonchsizlik, qo‘rquv, alam tuyg‘ulari yashiringandek. Yuqoridagi so‘zlar orqali qahramonning nafaqat ichki, balki tashqi olamini ham anglashimiz mumkin.

Yozuvchining “Bevaqt chalingan bong” hikoyasida ham badiiy detaldan unumli foydalangan. Masalan kotibning “Agar unga bir shisha aroq bersam, qizini qo‘ynimga solib qo‘yadi. Bir hovuch un uchun Xosilot onasini o‘ynash qilib olgan, bir qultum quyib bersam u hammasini aytib beradi”[2-79] Ushbu jumalalar

qorovulning ich-ichidagi yillar davomida berkitilgan “alamning bongi”ning chalinishiga, yozuvchi ta‘biri bilan aytganda, yovvoyi g‘ururning uyg‘onishiga sabab bo‘ladi. Onasining xo‘rlangani, ayolining xiyonati, yoshlikdagi otasi sabab ko‘rgan xo‘rliklari, butun hayoti ko‘z oldida gavdalandi va qabih ishga qo‘l urishiga sabab bo‘ladi. Aynan yuqoridagi kotibning so‘zlari sifatida keltirilgan detal asarning kulminatsion nuqtasini tasvirlashda yordam qilgan va realistik hikoyaga aylantirgan.

Xulosa qilib aytganda, Nazar Eshonqulning barcha asarlarida qahramonlarning xarakterini ochiq-oydin gapirilmaligi, hatto ko‘plab qahramonlarning ismsiz keltirilishi bilan farq qiladi. Ijodkorning qahramonlarining xarakteri yoki hissiyotlari ma‘lum bir detallar yoki simvollar orqali ochib beriladi. Bu ham yozuvchi mahoratining bir namunasi hisoblanadi. Muallif bu detal qo‘llash uslubi orqali asar mazmunini kitobxonga mukammal yetkaza oladi va voqelikka to‘la-to‘kis ishonтира oladi. Zero, bunday asarlar yaratilar ekan, adabiyotimizga bo‘lgan qiziqish so‘nmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyot nazariyasi 2 jildlik. Adabiy asar. Jild.1. – T.: Fan, 2001.
2. Nazar Eshonqul. “Saylanma”. – T.: Akademnashr, 2022.
3. Quronov. D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018.
4. H. Umarov. Qahramonning ma‘naviy olami va epiklik. – T.: “Fan”, 1995.
5. Jo‘rayev. T. Ong oqimi – modern. – Farg‘ona: “Farg‘ona”, 2009.
6. Q. Yo‘ldosh, M. Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – T.: “Kamalak”, 2016.
7. Rasulov. A. Badiiylik – bezavol yangilik: Ilmiy-adabiy maqolalar, talqinlar, etyudlar. – T.: “Sharq”, 2007.
8. Rahimov.Z. Ko‘hna dunyo poetikasi. – Farg‘ona, 2005.
9. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – T.: “O‘qituvchi”, 1986.
10. Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi. – T.: “G‘afur G‘ulom”, 2018.

“DUNYONING ISHLARI” ASARINING AYRIM PRAGMALINGVISTIK JIHLARI TADQIQI

Annotatsiya: ushbu maqolada tilshunoslik sohasining yangi yo'nalishlaridan biri pragmatika yo'nalishining o'rganilish asoslari va tadqiqotlari haqida yoritilgan bo'lib, yo'nalishdagi lisoniy qobiliyat, nutqiy ijro kabi turlari tavsif qilinib, ba'zi misollar orqali tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *pragmatika, tagma'no, semantika, sintaktika, semiotika, subyektiv ma'no, lisoniy qobiliyat, nutqiy ijro.*

Annotation: this article explores the foundations and research aspects of pragmatics, one of the emerging branches in the field of linguistics. It describes key components such as linguistic competence and speech performance within the pragmatic framework. The analysis is supported by several illustrative examples to clarify the theoretical concepts.

Key words: *pragmatics, implicature, semantics, syntax, semiotics, subjective meaning, linguistic competence, speech performance.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются основы изучения и направления исследований прагматики – одного из новых направлений в области лингвистики. Описаны такие категории, как языковая компетенция и речевая деятельность, а также приведён анализ на основе ряда примеров, иллюстрирующих данные понятия.

Ключевые слова: *прагматика, импликатура, семантика, синтаксис, семиотика, субъективное значение, языковая компетенция, речевая деятельность.*

Kirish. O'zbek tilshunosligida asarlar, asosan, adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilgan. Ammo bu asarlarni tilshunoslik sohasining ham o'rganilish manbai ekanligini inkor etolmaymiz. Asarlarda qo'llanilgan har bir jumlaning lisoniy tahlili borasida jiddiy tadqiqotlar olib borilmagan. Xususan, o'zida milliy urf-odat va qadriyatlarini aks ettirgan asarlarning til xususiyatlarini o'rganish asar tilini pragmatik jihatdan ham o'rganishni taqozo etadi.

Pragmatika tilshunoslikning yangi amaliy tarmog'i sifatida tilning nutqiy jarayon, nutqiy vaziyat, nutq ishtirochilariga xos kommunikativ niyat bilan aloqador muammolarini o'rganuvchi soha sifatida shakllanmoqda¹. Pragmatika tilshunoslar tomonidan chuqur o'rganilib kelayotgan sohadir. Til o'rganilishda davom etar ekan, sohaga pragmatika kabi yangi yo'nalishlar qo'shilishda davom etadi. Yevropa tadqiqotchisi Ch. Morris semiotikani 3 yo'nalishga:

1) semantika;

2) sintaktika;

3) pragmatika kabi yo'nalishga ajratgan². Tadqiqotchi ma'lum bir asardagi jumlaning borliqqa bo'lgan munosabatini subyektiv jihatdan ham anglay olishi zarur. Bu esa o'z-o'zidan pragmatika yo'nalishiga bo'lgan zaruratni yuzaga keltiradi. Tadqiqotchilar tomonidan bu yo'nalishning anchagina qirralari ochib berilgan bo'lib, shu bilimlar asnosida pragmatika 4 jihatdan tavsiflangan:

Pragmatikaning amaliy shakllanishi.

Pragmatikaning nazariy shakllanishi.

Pragmatikaning umumiy masalalari.

Pragmatikaning xususiy masalalari.

Pragmatikaning xususiy jihati matnda ishtirok etayotgan personajlarning shaxsiyati, ular duch kelgan vaziyat, ruhiy holatga daxldordir. So'zning subyektiv ma'nosi lingvistik pragmatikaning xususiy jumboqlaridandir. Bu turdagi asarlar tilining pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish orqali milliy qadriyatlarning so'z orqali ifodalanishi, jumlaning tagma'nosi, millatning dunyoqarashi, e'tiqodi va ijtimoiy vaziyat hamda darajasining ta'siri kabi komponentlarning ahamiyati ochib beriladi.

Ellik qadamcha narida kelayotgan ikki xotinni ko'rdim. Biri paranji yopinib olgan, past bo'lyi, qo'lida hassa – tayoq, oqsoqlanib qadam tashlaydi. Yana biri yoshroq, boshiga g'ijim ro'mol o'ragan, atlas ko'ylagining ustidan baxmal nimcha kiygan. Har ikkalasining qo'lida tugun borligini ko'rdim-u darvozadan baqirib kirdim (O'. Hoshimov)³.

Bu matnda so'zlovchi sovchilik urf-odatlarini o'ziga xos kiyinish uslubi va sovchining qo'lidagi birgina tugun orqali ifodalagan. Tugun bu yerda sovchilikning ramzi bo'lib xizmat qilgan. Bu jumlaning yosh bola tilidan so'zlanganligini hisobga oladigan bo'lsak, bu holat bir necha marotaba bir xilda kechganligini va shu orqali bolaning ongida shu muhit muhrlanib qolganligini ko'rishimiz mumkin.

Pragmatikani o'rganish davomida insonlarning kommunikativ faoliyati bilan bog'liq holatlarni ham inobatga olamiz. Masalan, jinslar orasidagi tafovut ularning so'zlagan so'zlarida ham yaqqol ko'rinib turadi.

1 Niyazova, G.G'. 2022. "Detektiv asarlar tilining pragmatik tahlili". – O'zbekiston: til va madaniyat, 125–133-b.

2 Hakimov, M.O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademiya, 2013. 6-b.

3 Dunyoning ishlari: qissa / O'. Hoshimov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.

– Issiq manoj! issiq manoj obering!
 – Unaqasini qayoqdan topaman! – Juvonning toqati toq bo'ldi shekilli, dumalayotgan o'g'lini yerdan yulqib ko'tardi. Orqasiga bir-ikki shapatiladi.

So'zlarning talaffuz qilinishidan ham yosh bolaning tilidan aytilganligi yaqqol ko'rinib turibdi. Bundan tashqari jumlaning buyruq ohangida aytilganligi ham voyaga yetmagan bolaning so'zlari ekanligini anglaymiz.

Tel-Aviv universitetining professori M.Bar-Hillelning fikricha: "Tabiiy til vositasida bajariladigan muloqotning pragmatik xususiyatlari ushbu muloqotning sintaktik va semantik xususiyatlari kabi lingvistik nazariya doirasida o'rganilishi lozim".

Chomskiy ta'limotida esa pragmatika yo'nalishi lisoniy qobiliyat va nutqiy ijro, faollik qarama-qarshiligida turadi⁴.

Hammamiz birgalashib devori xomsuvoq qilingan, patak tokchalariga barkashlar, allaqanday arabcha kitoblar taxlab qo'yilgan nimqorong'i xonaga kirdik. Kampir indamay chiqib ketdi. Ammam, oyim, otin xola, men – hammamiz shaparak ko'rpachaga tizilishib o'tirdik. Bir mahal kampir bir qo'lida kattakon chinni kosa, bir qo'lida choyshabga o'xshash oq mato ko'tarib kirdi.

Kitobxonda bu jumlaning o'qish mobaynida tasavvurida eski uylarning xomaki nusxasi gavdalanadi. Undan so'ng uyning mayda detallarining tasviri uyning kimga tegishli ekanligini ko'rsatib, yozuvchining mahoratidan darak beradi. Bundan tashqari, arabcha kitoblar, chinni kosa,

oq mato kabi detallar qahramonlarning nima maqsadda bu yerda ekanligidan darak beradi.

"Pragmatika va matn lingvistikasi yagona bir mazmuni anglatadigan tushunchalar" – deya ta'kidlaydi Z.Shmidt. Bu gapning isbotini esa yuqorida keltirilgan misollarda yaqqol ko'rishimiz mumkin. Yevropalik olimlar pragmatika haqida mana shunday turli qarashlarga ega bo'lishgan. U.Montegyu, P.Strosnon kabilar pragmatikaning tadqiqot predmeti sifatida deytik iboralar mazmunini tavsiflashdan iborat deb qarashadi⁵.

Uzun, isqirt ko'ylagining ustidan nimcha kiygan, shokilasi osilib yotgan qo'sh ko'zli xurjunini yelkasidan oshirib tashlab olgan, sochlarining uchiga so'lkavoy taqqan, oyog'ida eski qizil etik... insonning tashqi ko'rinishi xayolimizda unga nisbatan ilk taassurotimizni uyg'otadi. Asarni o'qish davomida yosh bolalarning qo'rquviga sabab bo'ladigan lo'lilarning shu usulda tasvirlanishining guvohi bo'lamiz. Lo'lilarning bolalarga qo'rqinchli bir inson qilib ko'rsatilishi ham bizning o'ziga xos urf-odatlarimizdan biridir. Bu yerda yozuvchi lo'li qiyofasini avvalambor, uning tashqi ko'rinishi orqali chizib, uni kitobxonga tanishtirgan. Bu yozuvchining pragmatik mahoratidan darak beradi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, pragmatik tuzilishda ifodaning bir-biriga qarama-qarshi kelishi, jumalarning tagma'nosi va boshqa bir qancha xususiyatlari mavjud bo'ladi. K. Raysning fikricha, pragmatik ma'noni alohida yetkazib berishning imkoni yo'q⁶.

4 Vosiljonov A.B.2022. "Pragmalingvistika va uning tahliliy shakllanish tarixi". Science and innovatsion.-99-105b.

5 Vosiljonov A.B.2022. "Pragmalingvistika va uning tahliliy shakllanish tarixi". Science and innovatsion. 99-105-b.

6 Austin J.L.on the subject of pragmalinguistic // Substantive aspects of sentence and text.-Kalinin, 2021.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Niyazova G.G'.2022. "Detektiv asarlar tilining pragmatik tahlili". – O'zbekiston: til va madaniyat, 125–133-b.
2. Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. 6-b.
3. Dunyoning ishlari: qissa / O'.Hoshimov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
4. Vosiljonov A.B.2022. "Pragmalingvistika va uning tahliliy shakllanish tarixi". Science and innovatsion. 99–105-b.
5. Safarov.SH.Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2008.
6. Austin J.L.on the subject of pragmalinguistic // Substantive aspects of sentence and text. – Kalinin, 2021.



Dilnoza ABDIMO'MINOVA,
 Qarshi davlat universiteti
 Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti
 magistranti
 Ilmiy rahbar: f.f.d Sh. Karomova

“TUSHDA KECHGAN UMRLAR” ASARIDA PSIXOANALITIK HODISALAR VA IJODKOR MAHORATI

Annotatsiya: maqolada O'tkir Hoshimovning obraz yaratish mahorati, uning o'ziga xos ijodiy uslubi, betakror badiiy tasvir vositalari hamda “Tushda kechgan umrlar” asarining psixanalitik tahlili yoritilgan. Asarda inson ruhiyatining nozik jihatlari Z. Freyd ta'limoti asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Z. Freyd ta'limoti, psixanalitika, psixanaliz, roman, badiiy adabiyot, ijodkor mahorati.

Аннотация: в статье рассматривается мастерство создания художественного образа у Ўткира Хошимова, его индивидуальные особенности и неповторимая художественная манера. Особое внимание уделено психоаналитическому анализу произведения «Жизнь, прожитая во сне» на основе учения З. Фрейда, раскрывающему внутренний мир и психологические переживания человека.

Ключевые слова: учение З. Фрейда, психоаналитика, психоанализ, роман, художественная литература, мастерство писателя.

Annotation: the article examines O'tkir Hoshimov's mastery in creating literary images, his distinctive artistic style, and unique narrative techniques. It also presents a psychoanalytic analysis of the novel “Lives Spent in a Dream” based on Freud's theoretical framework, focusing on the depiction of the human subconscious and emotional complexity.

Key words: Freud's theory, psychoanalytics, psychoanalysis, novel, fiction, writer's mastery.

Psixanaliz insonning xatti-harakatlarini reallikka aylana olmagan ong ostidagi xohish-istaklar boshqaradi va ularga ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblaydi. Amalga oshmagan xohish-istaklar insonlarga turlicha ta'sir ko'rsatadi: ba'zilar nevrozni keltirib chiqarsa, ba'zilar favqulodda iste'dodni namoyon qilib kashfiyot va ixtirolarga sabab bo'lishi mumkin.

Qisqa qilib aytganda, psixanaliz ta'limotiga ko'ra insonga tabiat tomonidan berilgan imkoniyat hech qachon imkoniyatligicha yashirin holatda qolib ketmaydi, u qaysidir vaziyatlarda turli darajalarda inson faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi, voqelanadi, yuzaga chiqadi. Xo'sh, badiiy adabiyot va psixanalitikaning bir-biriga qanday bog'liqligi bor. Zigmund Freyd ta'limoti “Badiiy adabiyot ijodkorning ong ostidagi o'y-xayollari va xohish-istaklarining eng yuqori darajada reallashuvi, voqelanishi natijasidir”¹ – deb hisoblaydi. Shunga ko'ra, har bir asarni talqin va tahlil qilishda muallif shaxsiyati va uning hayot yo'lidan izlashga harakat qiladi. Chunki muallif asarda o'zining amalga oshmagan ong osti istaklarini, estetik idealini hamda ularning jamiyatdagi ijtimoiy muhit bilan bo'lgan

to'qnashuv va ziddiyatlarini qahramonlar vositasida tasvirlaydi.

Zamonaviy adabiyotdagi murakkab ichki kechinmalarni, psixologik jarayonlarni, inson ruhiy olamining chuqur qavatlarini mohirona tahlil va talqin qilish, aql-idrok bilan tushunish qiyin bo'lgan o'rinlarini sharhlashda psixanaliz yordam beradi.

O'tkir Hoshimov qalamiga mansub “Tushda kechgan umrlar” asarida ham psixanalitik hodisalarga guvoh bo'lishimiz mumkin. Asarda o'tgan asrning eng ma'nosiz va insonlarga katta talafot va yo'qotishlar olib kelgan sovet-afg'on urushining achchiq manzaralari, qatag'on siyosati, “paxta ishi”, “o'zbeklar ishi” kabi alamlar tarix haqida so'z boradi. Voqealar kuz tasviri bilan boshlanadi: “Kuz o'lim to'shagida yotgan bemorga o'xshaydi”, bu jumlar orqali muallif roman qahramonlarining ayanchli taqdiriga ishora qiladi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Asar markazida Rustam, Qurbonoy xola, Soat G'aniyevich, Shaxnoza kabi qahramonlar bir butunlikda syujet ipini tashkil qiladi. Romandagi voqealar, qahramonlar xarakteri va munosabati monologik hamda dialogik nutq

¹ Z.Freyd Asab va ruhiyat . (Zamin Nashr) 2023.

orqali ochib beriladi. Rustam sovet-afg'on urushining ishtirokchisi, qonli va shafqatsiz jang manzaralarining tirik guvohi sanaladi. Boshidan kechirgan barcha sovuq xotiralari urushdan qaytgandan keyin ham uni tark etmaydi.

Urushdan qaytib oilasi bag'rida sevgan qizi Shaxnozaga uylangan bo'lishiga qaramay, baxtli bo'lolmaydi. Urushda o'z ko'zlari bilan safdoshlarining o'limlarini ko'rgan Rustam psixologiyasi, tabiiyki, katta talafot ko'rdi. Birgina xudojo'y deb tasvirlangan Xayriddinning bevaqt shafqatsiz tarzda halok bo'lishi qalblarni larzaga soladi. Kitobxon asarni o'qib larzaga kelyapti, unga tirik guvoh bo'lgan Rustamning ichidan nimalar o'tdi ekan:

“Xayriddin qattiq xirilladi, bir lahza ko'zim tushib qoldi. Botib borayotgan quyoshdan madad olmoqchi bo'lgandek o'sha tomonga qo'l cho'zib, qaddini rostlashga uringan edi, yirtilib ketgan kombinezoni ostidan qonga belangan ichaklari qaynab chiqdi...Ko'm –ko'k o'tlar ustidan ichaklari ayqash-uyqash bo'lib cho'zilib yotganidan uyalgandek, ularni qorniga qaytarib solishga urinayotgandek, nozik barmoqlari bilan changallab olgan edi”.²

Boshqa o'rinda esa vahshiylarcha o'ldirilgan onaga uning norasida go'dagining intilishi, og'zidan qon aralash so'lakning oqib turishi kabi mudhish manzaraga guvoh bo'ladi. Shu onda uning xayollari chalkashib ketadi, hatto ayolni Shaxnozaga o'xshatadi. Urush odamning diydasi qotirib yuboradi deyishadi, lekin urushning bu dahshatlari inson ruhiyatini yemiradi. Rustam ba'zan hayotida bo'layotgan narsalarni anglasa, ba'zan ong va ongsizlik, tush kabi mavhumiyatlar orasida qoladi:

– Ko'zingga qara, bolam, chuqur bor!

Dahshatli gumburlashdan tank silkinib ketdi. Boshim lyuk qopqog'iga urilib, hushimni yo'qotdim, xayolim joyiga kelganida engashib, pastga qaradim. O'ng tomondagi zanjir uzilib ketgan, tank mina portlaganda paydo bo'lgan chuqurga yonboshlab qolgan edi.³

Urush yakunlanib, Rustam sog'-omon uyiga qaytdi. Sevgan qizi Shaxnozaga uylandi, lekin ular baxtli

bo'lolmadi. Bu baxtsizlikning asl sababi ham shu ma'lun urush va undan qolgan ruhiy va jismoniy zarbalar edi. Urush xotiralaridan qutula olmay qiynalayotgan Rustam jamiyatdagi adolatsizliklar, nohaqliklarning ham guvohi bo'ldi. Urushda Vatan deb qon kechgan Rustamni jamiyat bag'rini ochib kutib olmadi. Shaxnozaning baxtsizligida o'zini aybdor hisobladi. Bularning barchasi uning fojiali o'lim topishiga sabab bo'ldi.

Asarda Qurbonoy xola obrazi ham nima uchun yashab o'tganini, umri nimaga sarflanganini anglab yetmagan obraz sifatida gavdalanadi. Sog'lig'i kelishmasa ham kundalik yumushlarini bajaraveradi. Shifokorlarning tavsiyalariga ham quloq tutmay, o'zi bilgani bilan ovora. Qurbonoy xolaning ham umri xuddi tushdek alg'ov-dalg'ov, behuzur kechadi.

Asardagi komissar Soat G'aniyev obrazida esa asl hayotining mohiyatini teran anglab yetmagan mafkura kishisi tasvirlanadi. U butun umrini mustabid tuzumga baxshida etgan, lekin hayoti davomida biron marta, hatto oila davrasida ham, huzur-halovat his etmagan kommunistik tuzumning fidokoridir. U o'zini inson sifatida emas, mansabdor shaxs, davlat xizmatchisi sifatida tanitishni afzal bilib tergovchiga aytgan quyidagi gaplaridan ham uning shaxsi oydinlashadi:

– Birinchidan, o'rtoq tergovchi, men “grajdanin G'aniyev emas, istefodagi polkovnik, o'rtoq G'aniyevman! Marhamat qilib, o'rtoq polkovnik deb murojaat qilishingizni so'rayman. O'rtoq Komissar desangiz ham roziman. Meni taniganlar “o'rtoq Komissar”, deyishadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ijodkor sovet-afg'on urushining xalqimizga, nafaqat xalqimizga, balki butun insoniyatga keltirgan kulfatini, azob-uqubatini, urushdan keyingi uning salbiy oqibatlarini ham mahorat bilan qalamga oladi. Asar voqealarining rivoji, qahramonlar xarakteristikasi tasviri Rustamning kundaligidan, tergov hujjatidan yoki muallif tilidan hikoya qilinadi. Asarda ruhiy-ma'naviy holat ustunlik qiladi. Shu boisdan, romanni psixoanalitik jihatdan tahlil qilish ijodkor nima demoqchi ekanligini hamda uning mahoratini aniqlashda muhim o'rin tutadi.

² O'tkir Hoshimov “Tushda kechgan umrlar” asari. (“Global Books”, 2021.)

³ O'tkir Hoshimov “Tushda kechgan umrlar” asari (“Global books”, 2021.)

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'ZME Birinchi jild. – Toshkent, 2000-yil, Davlat ilmiy nashriyoti
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Muharrir, 2011.
3. Umurov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o'zbek romanchiligi. – T.: Fan, 1983.
4. O'tkir Hoshimov “Tushda kechgan umrlar” asari. Global books, 2021.
5. M.Qo'chqorova “Badiiy so'z va ruhiyat manzaralari” – T.: Muharrir, 2011.

Shohsanam GULMATOVA,
 CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti
 II- kurs magistranti

“SAODAT SOHILI” QISSASIDA BOBUR OBRAZI

Annotatsiya: o'zbek adabiyotida taniqli yozuvchi Xayriddin Sultonov ijodining muhim o'rni bor. Xayriddin Sultonov qaysi asarga qo'l urmasin, so'zda mohir, bayon va tafsilda zarurni nozaruridan ajrata oluvchi ulkan so'z zargari sifatida o'quvchida katta taassurot qoldiradi. Binobarin, yozuvchi o'z hayot yo'lida katta ijodiy maktabni o'tagani sezilib turadi.

Kalit so'zlar: Xayriddin Sultonov, Bobur, Hofiz Ko'ykiy, qissa, ma'rifat, ona Vatan.

Аннотация: важное место в узбекской литературе занимает творчество известного писателя Хайреддина Султанова. Хайриддин Султанов производит большое впечатление на читателя как мастер слова, умеющий отличить нужное от назарура в повествовании и деталях. Следовательно, заметно, что писатель прошел большую творческую школу на своем жизненном пути.

Ключевые слова: Хайриддин Султанов, Бабур, Хафиз Куйкий, рассказы, просвещение, Родина.

Annotation: the work of renowned writer Khayriddin Sultanov occupies an important place in Uzbek literature. Whatever work Khayriddin Sultanov writes, he leaves a profound impression on the reader as a master of words, a skilled jeweler who can discern the necessary from the unnecessary in descriptions and details. Therefore, it is noticeable that the writer has undergone extensive creative training throughout his life.

Key words: Khayriddin Sultanov, Bobur, Khafiz Koykiy, story, education, Motherland.

O'zbek adabiyotida taniqli yozuvchi Xayriddin Sultonov ijodining muhim o'rni bor. Xayriddin Sultonov qaysi asarga qo'l urmasin, so'zda mohir, bayon va tafsilda zarurni nozaruridan ajrata oluvchi ulkan so'z zargari sifatida o'quvchida katta taassurot qoldiradi. Binobarin yozuvchi o'z hayot yo'lida katta ijodiy maktabni o'tagani sezilib turadi.

Xayriddin Sultonovning ijodi o'tgan asrning 70-yillari ikkinchi yarmidan boshlangan. Uning bir qancha hikoyalar va qissalar to'plami nashr etildi. Uning ilk hikoyalar to'plami "Quyosh barchaga barobar" nomi bilan 1980-yilda chop etiladi. Shundan so'ng turli yillarda qator to'plamlari bosilib chiqdi. Jumladan, "Bir oqshom ertagi" (1983) "Onamning yurti" (1987), "Umr esa o'tmoqda" (1988), "Boburning tushlari" (1992) kabilardi. Yozuvchining "Yo, Jamshid", "Dunyoning siri", "Bir oqshom ertagi", "G'ulomgardish" kabi hikoyalari, "Yozning yolg'iz yodgori" ("Adash Karvon"), "Saodat sohili", "Ajoyib kunlarning birida" kabi qissalari adabiyotga yangi mavzu, yangi qahramonlar olib kirdi. Uning personajlari nihoyatda tabiiyligi, hayotiyliigi, milliyliigi va zamon bilan makonning uzviyligi bilan ajralib turadi.

Keyingi yillarda Xayriddin Sulton barakali ijod qildi. Uning "Boburiynoma", "Ishonch telefoni", "Navoiy-30", "Osmonu falaklarda" kabi asarlari chop qilindi va o'quvchilar tomonidan qizg'in kutib olindi.

Tadqiqotchi Yulduz Karimova ta'kidlaganidek, yozuvchi Xayriddin Sulton ijodida Bobur Mirzo obrazi alohida o'rin tutadi [1.]: Hali maktab o'quvchisi o'smir

Xayriddin o'zining qanday va qay vaqtdan boshlab Bobur Mirzoning dilbar olamiga maftun bo'lib qolganligini shunday eslaydi: "O'n to'rt yoshlarimda ilk bor bu nuroniy siymoning tasviri chekilgan suvratni ko'rdim. Olis qishloq maktabi, qahraton qishning dilgir kunlari, adabiyot xonasi devoriga osilgan muhtasham portret va undan muloyim tabassum ila boqib turgan, shohona sallasiga ukpar jig'a qadalgan ulug'sifat insonning bori-borlig'i murg'ak tasavvurimga shu qadar teran o'rnashdiki, dars paytida ham, tanaffus chog'lari ham uning mardona chehrasidan ko'z uzolmas edim" [2.235.]. Xayriddin Sultonning "Yo'lbarsning tug'ilishi", "Oy botgan pallada", "Panoh", "Tavba" kabi hikoyalari, "Boburning tushlari" badiiy badiyasi, "Saodat sohili" qissasi, "Boburiynoma" ma'rifiy tarixiy-biografik romani Bobur Mirzo mavzusi yozuvchi ijodida muhim va muqim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Ijodkorning "Saodat sohili" qissasi 1982-yilda ilk bor "Yoshlik" jurnalida nashr etiladi. Xayriddin Sultonning o'zi guvohlik berishicha, bu asar dastavval hikoya shaklida dunyoga kelgan. Keyin vaziyat taqozosiga ko'ra qissabop materialning mavjudligi, yozuvchining boy tafakkuri natijasi o'laroq qissaga aylangan. Mazkur asarning yozilishiga turtki bo'lgan tarixiy asosni yozuvchi shunday xotirlaydi: "Bir kuni O'zbek sovet ensiklopediyasining 7-jildidagi "K" harfi bo'limini nazardan kechirayotib, "Hofiz Ko'ykiy – Ko'hakiy" deb nomlangan maqolaga ko'zim tushib qoldi. Maqola kichkinagina quruq ilmiy tilda bitilgan edi, ammo u hazilakam hayajonga solmadi!

Axir, bundan besh asr muqaddam olis hamqishlog'im – parkentlik alloma Hofiz Ko'ykiy hazrati Boburni yo'qlab Hindistonga borgan ekan!" [3.341]

Xayriddin Sultonni hayajonga solgan bu voqea qahramoni Hofiz Ko'ykiy (1490-1584) Hofiz Toshkandiy nomi bilan ham atalib, Parkentda tug'ilib, Toshkentda voyaga yetgan, tarixchi, fiqh va tarjimon sifatida ilm olamiga tanilgan mutafakkir zot bo'lgan. Iqtidor va salohiyatni ota-bobolaridan meros qilib olgan Hofiz Ko'ykiy Ulug'bekning shogirdi Ali Qushchining nabirasi bo'lgan. Toshkent madrasalarida mudarrislik qilib, umri davomida bir qator Osiyo mamlakatlariga safar uyushtirgan, jumladan, Hindistonda Bobur Mirzo huzurida ham bir muddat bo'lib qaytgan. [4.]

E'tiborli jihati shundaki, Islom ensiklopediyasida Hofiz Ko'ykiy haqidagi ma'lumotda: "...Hofiz Ko'ykiy 1528-yilda Bobur huzuriga elchi bo'lib borgan, 1569-yili esa Boburning nabirasi Akbar uni qabul qilib, bobosini ko'rish sharafiga muyassar bo'lgan tabarruk kishi sifatida ko'p e'zozlagan", – deyiladi.[5.313]

"Boburnoma"da 1528-yil voqealarida Agradagi to'y tafsilotlarini bayon qila turib Bobur Mirzo shunday yozadi: "Shanba kuni, o'ning oltisida to'y bo'ldi... Ulug' osh tortilg'ondin keyin... Xoja Mir Sultong'a va o'g'lonlarig'a va Hofiz Toshkandiy va Mullo Farrux boshliq Xojaning mulozimlarig'a va o'zga elchilarg'a ham oltundin, kumushdin tarkash bila in'omlar bo'ldi" [6.161]

"Saodat sohili" asarini mutolaa etar ekanmiz,

qissadagi voqealar, tarixiy shaxslar, xronotop aniqligini kuzatish mumkin.

Ijodkor niyatiga ko'ra, "Saodat sohili" qissasida tragik pafos yetakchilik qiladi. Fasl boshida keltirganimizdek, balki bu yozuvchining hali bolalik chog'laridanoq adabiyot kabinetining devoriga osilgan portretiga qarab Bobur Mirzoning sinig' ko'nglini inkishof eta bilganining, keyin ham ulg'ayib uning dardli, ayni paytda, nurli nigohini doimo his qilib turganining hosilasidir, ehtimol.

O'lim – tragik janrning komponentlaridan biri. Bu tipdagi asarlarda o'zida eng ezgu insoniy fazilatlarini jo etgan, irodali, matonatli qahramonlar hayoti o'lim bilan fojeiy yakun topadi. Iste'dodli qalam sohibining mahorati shundaki, u ana shu o'lim qatida ham hayotni tiriklikdek qayta yarata oladi, o'quvchida nekbin bir kayfiyat uyg'ota oladi. [7.]Qissada yozuvchi ana shu vazifani uddalay olgan. Buni tadqiqotchi Y.Karimova hma o'rinni ta'kidlab o'tadi.

Asar so'ngida Hofiz Ko'ykiy Boburga qarata "Saodat sohili – Vatanda" deya xitob qiladi. Bu asarning o'q tomiri desak bo'ladi. Ha, inson qanchalik ulkan davlat, martaba egasi bo'lmasin, dunyoda vatandan issiqroq, go'zalroq go'sha bo'lmaydi. [8]. Yozuvchi ana shu ulkan tuyg'uni asar ma'no-mazmuniga singidirib yuboradi.

"Saodat sohili" qissasi faqat tarixiy qissa emas, balki falsafiy-ma'naviy qo'ng'iroqdir. Xayriddin Sulton asar orqali ma'naviy qadriyatlar, tarixiy xotira va milliy ruhni saqlash zarurligini ilgari suradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova Y. O'zbek adabiyotida Bobur obrazi: tadrij va talqin. F.f.d.b.f.d. (PhD) avtoreferati. – J., 2024.
2. Sulton X. Boburiynoma: Ma'rifiy roman. – T.: Sharq, 1997. 5-bet.
3. Sulton X. Boburiynoma: Ma'rifiy roman. – T.: Sharq, 1997. 341-bet.
4. Karimova Y. O'zbek adabiyotida Bobur obrazi: tadrij va talqin. F.f.d.b.f.d. (PhD) avtoreferati. – J., 2024.
5. Islom. Ensiklopediya. A - H. /Z. Husniddinov tahriri ostida. – T.: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. 313-b.
6. Bobur Zahiriddin Muhammad. Kulliyot. 6-jild. Boburnoma (Voqe'oti Boburiy). Hindiston davri voqealari. – T.: Zilol buloq, 2021. 161-bet.
7. Rakhmanova, N. A. (2025). COMPARATIVE-TYOLOGY ANALYSIS OF THE EPISTLES "JAMSHID AND KHURSHID" AND "FARKHAD AND SHIRIN". Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 6(04), 271–281. <https://doi.org/10.37547/mesmj-V6-I4-28>.
8. Raxmanova, N. (2022). ALISHER NAVOIYNING EPIZODIK OBRAZLAR YARATISH MAHORATI. In International Conference on Developments in Education (Vol. 1, No. 1, pp. 114-118).

O'g'iloy ELOMONOVA,
 Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
 Lingvistika: (o'zbek tili) mutaxassisligi
 2-kurs magistranti

BADIIY MATNNING SOTSIOPRAGMATIK TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada matnni sotsiopragmatik jihatdan tahlil qilishning nazariy asoslari va amaliy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Tilshunoslikning yangi yo'nalishlaridan biri bo'lgan sotsiopragmatika va uning badiiy matnlardagi o'rni va ahamiyati hamda til hodisalarini nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-madaniy kontekstda ham o'rganishga imkon beruvchi metod sifatida qo'llanilishi haqida ma'lumot beriladi. Misol tariqasida Erkin A'zam asarlariga murojaat qilinadi va ulardagi personajlar nutqidagi ijtimoiylik, ma'naviy-axloqiy munosabatlar sotsiopragmatik jihatdan yoritiladi.

Kalit so'zlar: *sotsiopragmatika, badiiy matn, nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad, konnotativ ma'no, nonverbal vositalar.*

Аннотация: в данной статье анализируются теоретические основы и практические направления социопрагматического анализа текста. Социопрагматика, являясь одним из новых направлений лингвистики, рассматривается как метод, позволяющий изучать место и значение художественных текстов, а также языковые явления не только в лингвистическом, но и в социально-культурном контексте. В качестве примера обращается внимание на произведения Эркина А'зема, где речь персонажей освещается с точки зрения их социальной, духовно-нравственной и социопрагматической специфики.

Ключевые слова: *социопрагматика, художественный текст, речевая ситуация, коммуникативная цель, коннотативное значение, невербальные средства.*

Annotation: this article examines the theoretical foundations and practical aspects of sociopragmatic text analysis. Sociopragmatics, as one of the new directions in linguistics, is considered as a method that allows the study of the role and significance of literary texts, as well as linguistic phenomena, not only from a linguistic perspective but also within a socio-cultural context. As an example, reference is made to the works of Erkin A'zam, where the characters' speech is analyzed in terms of its social, moral-ethical, and sociopragmatic features.

Key words: *sociopragmatics, fiction text, speech situation, communicative goal, connotative meaning, nonverbal means.*

Bugungi kunda tilshunoslikda tilning ijtimoiy vazifalarini o'rganishga e'tibor kuchaymoqda. Badiiy matn esa tilning estetik va sotsiopragmatik imkoniyatlarini tahlil qilish orqali namoyon etuvchi murakkab tizimdir. Shu bois badiiy matnni sotsiopragmatik jihatdan tadqiq qilish, badiiy nutqning ijtimoiy va pragmatik xususiyatlarini ochib berish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. "Badiiy matn, – deydi X.Yo'ldasheva, – sotsiopragmatik jihatdan tadqiq etilganda asosiy e'tibor til birliklarining nutq vaziyati, muloqot muhiti ta'sirida ijtimoiylashuvi yoki ijtimoiy xoslangan birliklarning matnda faollashuvi sabablarini ochib berishga qaratiladi. Badiiy matn o'zida lisoniy va badiiy-estetik elementlarni jamlagan, shuningdek, inson omili bilan bog'liq holda namoyon bo'luvchi madaniy, ijtimoiy, pragmatik, psixologik omillarni o'zida aks ettiruvchi, ularning lison va badiiylilik bilan uyg'unlashuvi asosida yaratiluvchi murakkab nutqiy tuzilmadir. Badiiy matnning uni yaratuvchi va idrok etuvchi ijtimoiy shaxslar, nutq vaziyati, muloqot muhiti kabilar bilan bog'lanishi uni sotsiopragmatik jihatdan

o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi" [Yo'ldasheva X., 2023:13].

Badiiy matn oddiy muloqotdan farqli ravishda estetik vazifa bajaradi, A.R.Abitova ta'riflaganidek: "Badiiy asar voqelikni estetik pragmatik yo'nalishda tasvirlovchi, matnning barcha tavsiflariga ega va tashqi olamni obrazlarda tasvirlovchi tugallangan ijtimoiy-nutqiy hodisadir" [Абитова А., 1999:15]. X.Yo'ldasheva aytib o'tganidek: "Badiiy matnni sotsiopragmatik nuqtayi nazaridan tahlil qilganda quyidagi masalalar tahliliga e'tibor qaratish lozim: 1) til birliklarining ijtimoiy badiiy kontekstda qo'llanilishining o'ziga xos jihatlari; 2) yozuvchi va u yaratgan personajlarning til belgisiga munosabati; 3) turli ijtimoiy qatlam vakillaridan iborat personajlarning kommunikativ maqsadga erishishda tildan qanday foydalanganligi; 4) personajlar nutqining muayyan ijtimoiy muhit, nutq vaziyati bilan bog'liq holda shakllanishi; 5) personajlar tomonidan nutq vaziyatiga bog'liq holda muloqot shakllarining tanlanishi; 6) turli sotsial guruhlar muloqotida namoyon bo'ladigan ijtimoiy-madaniy omillar; 7) personajlar ijtimoiy mavqeyi,

rollaridagi farqlanish, ularning kasb-kori, yoshi, jinsi kabilarning badiiy matnda voqelanishi; 8) personajlar nutqida ijtimoiy xoslangan birliklarning faollashuvi va boshqalar” [Yo‘ldasheva X., 2023:14]. M.Xamidova esa sotsiopragsmatikaga oid hozirgi tadqiqotlarning quyidagi jihatlarni qamrab olishi haqida fikr bildirgan: “a) sotsiopragsmatika diskursni o‘rganishga sotsiologik yo‘naltirilgan yondashuv; b) nutq strategiyalarini mahalliy sharoit va ijtimoiy kontekstga qarab qanday moslasha olishi va o‘zgarishni o‘rganadi; d) joriy tadqiqot doirasida u diskursdagi, ya’ni mikromatn darajasida tahlil kuchi bilan shug‘ullanadi” [Xamidova M., 2025:11]. Ya’ni badiiy matnni sotsiopragsmatik aspektida tahlil qilishda nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad, konnotativ ma’no, suhbat strategiyalari va taktikalari, noverbal vositalarni aniqlash kabilar muhim ahamiyat kasb etadi.

Sotsiopragsmatik yondashuvni amaliy tahlilda qo‘llash, avvalo, personaj nutqining jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o‘rnini aniqlashga yordam beradi. Ushbu fikrlarga tayangan holda badiiy matnni Erkin A‘zam asarlaridan misollar keltirish orqali chuqurroq tahlil qilishga harakat qilamiz:

Xonim. Yozmaysiz, tamom! Kechagina ketingizdan “domla, domla”lab chopgan Mustafouqulov ana – akademik, direktor bo‘lib olib davrini surib yuribdi! Siz bo‘lsangiz bu yoqda, birovlariga...

Domla (ovozini pasaytirib). Xo‘sh, ayting-chi, sizga kim yozib bergan? Sizni olim qilgan kim?!

Xonim. Menga? Meni? (Bo‘shashib.) O‘zingiz qo‘ymagansiz meni! Ziyolining xotini ziyoli bo‘lishi kerak deb meni sirtqi o‘qishga joylagan kim? Melisginamni manovi Zahar xolangizga tashlab, meni kutubxonama-kutubxona yugurtirgan o‘zingiz emasmidingiz? Topganim – mana nima! Qaytaga, uyda jimgina tikuv-bichuvimni qilib o‘tirsam bo‘larkan o‘shanda. Bitta ko‘ylak tikdirish necha pul hozir, bilasizmi?

Domla (o‘ychan). Hayotimdagi eng katta xato shudir balki...

Xonim (Domlaga engashib, pichirlab). Jaa qo‘lingiz qichiyotgan bo‘lsa, ana, Bo‘stonga yozib bering! Do‘xtirskiy yozdirishga odam qidirib yuribdi. Soqqasi tayyor. O‘nta bermoqchi! Ko‘kidan!

Domla (angrayib). Bo‘stonga?! Unga nima kerak ekan ilm? Hammayog‘i to‘lib-toshgan, deysiz-ku!

Xonim. Nomi-chi, nomi?!

Domla. Nomi? (Ensasi qotibroq.) Quruq nomni nima qiladi? Agar shugina kerak bo‘lsa, mana, kelib menikini olsin. Tep- tekin! Xudo haqqi, bervoraman – bezorman o‘zi!

Xonim (o‘zinikini qo‘ymay). Bugun bo‘lmasa, ertaga bir kun kerak bo‘p qolarmish. Burun borida simirib qol deganday-da...

Domla. Ey xotin, seni ado qilgan shu Bo‘ston bo‘ldi aslida. “Bo‘ston undoq dedi”, “Bo‘ston bundoq qildi”... Bo‘ston, Bo‘ston... Shuning nomini eshitsam, ko‘nglim ayniydigan bo‘lgan, Xudo haqqi. Bu yoqda – manovi, ukajoningiz!..

Xonim. O‘sha Bo‘stonoy dugonam bo‘limganda, menga biznes sirlarini o‘rgatmaganida, siz biz bu yerda ochimizdan...

Domla. Rozi edim! Ming bora rozi edim! (Bezor bo‘lib). (“Жаннат ўзи қайдадир” қиссасидан, 81-82 б.).

Yuqoridagi parchada Xonim dugonasini suhbat jarayonida “Bo‘ston” deb ataydi, ammo o‘ziga nisbatan foydali vaziyatda “Bo‘ston” emas, “Bo‘stonoy” deb aytishi so‘zlovchi va u nomlagan shaxs o‘rtasidagi hissiy yaqinlikni ifodalash uchun xizmat qiladi hamda manfaatli ohang yaratish strategiyasi sifatida talqin qilinadi. Bundan tashqari parchada Domla va Xonimning boshqa-boshqa ijtimoiy qatlamga (ilm ahli va tadbirkorlik) mansub ekanligi tufayli bir-birini anglamaslik holatlari ham uchraydi. Bu jarayonda muallif har bir ijtimoiy qatlam vakillarining o‘ziga xos xarakter xususiyatlarini ochib berishga harakat qilgan.

Qo‘lida latta, duch kelgan joyni artib-surtib Farrosh kampir ko‘rinadi. Birovning ko‘zi tushgudek bo‘lsa, jonjahdi bilan tirishadi, rahbar gazetaning biror joyini ovoz chiqarib o‘qiganida, xuddi unga qarata gapirilgandek, alqamoqqa tushadi: “Anov o‘lgur ziqnaga tayinlab qo‘ydingizmi, o‘rgilay? Rahmat, rahmat, umringizdan **baraka toping**, iloyim!”

Yuqoridagi kontekstda qo‘llangan “o‘rgilay” nihoyatda yoqtirish, mehribonlikni ifodalaydi [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдлик, 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006:434], “**baraka toping**” omad tilab tahsin bildirmoq ma‘nosini ifodalaydi [O‘zbek tili frazeologik lug‘ati, 2022:61] va matnda yoshi katta, keksa insonlar tomonidan o‘zlaridan yoshi kichik shaxslarga nisbatan alqash, minnatdorchilik bildirish maqsadida qo‘llanilgan.

Ayni damda ham o‘zicha javragani javragan.

Farrosh kampir. Essiz jonim! Beradigani – cho‘zib-cho‘zib to‘rt tanga, shundan shunga sarson bo‘lib kelaman-a! **Qurg‘ur**, kelib-ketishimga yetsa ham koshki edi! Uyda yalpayib o‘tirgan anov boyvuchcha shungayam sherik deng! Qumrigina otimni qo‘yib o‘shaning nomida Dilnavoz bo‘lib yuribman-da. Dilnavoz! Dilnavoz opa, Dilnavoz xola! **Qurib ketsin**, o‘zimning nomimga o‘tay desam, pensa o‘lgurning qoq yarmini kesadi. Eski kattaga ham, manavi yangisiga ham “ozroq ko‘tarsangizchi, **opovsi** (shevaga xos so‘z bo‘lib, ayollarga nisbatan qo‘llaniladi va asosan, ayollar nutqida ishlatiladi)” deb xudoning zorini qildim – qayoqda! Hammasiga **o‘lgur** o‘sha ziqna bug‘altir aybdor! “Mumkin emas, mumkin

emas!" **Megajin** (urg'ochi cho'chqaga nisbatli xotinqizlarga ishlatiladigan haqoratli so'z matnda ham aynan haqoratlash maqsadida qo'llanilgan) [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдлик, 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006:167]! Senga mumkin! O'zginangga mumkin! Asomova Dilnavoz... iye, Qumri sho'rlikka kelganda – taqa-taq! **Yer yutgur, adogina bo'lgur!** (Qo'lidagi gazetani qo'yib telefonga yopishgan Rahbar Rahbarovichga ko'zi tushadi-yu birdan yumshab, yaltoqlik bilan so'rasha ketadi.) Charchamaygina yuribsizmi, ukajon? Siz keldingiz-u, Xudoga shukr, bu **ordona** (egasiz qolgan egasi o'lgan, sabil [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдлик, 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006:518]. Kontekstda ham aynan shu ma'noda ishlatilgan, asosan ayollar nutqida qo'llaniladi) idoraga son kirdi, fayz-u baraka kirdi. Martabangiz bundanda ziyoda bo'lsin! Kelinposhsha yaxshimilar? Anov kungi boshog'riqlari qoldimi ishqilib? Qolsin, qolsin iloyim. Nevaralarim chopqillab yurishibdimi? Ha, hammaginasining umrini bersin. Dadasining izidan borib, mana shundoq katta idoralarga kattakon bo'lib ketsin. [Farrosh kampirning tushi, 2013].

Yuqoridagi kontekstda qo'llangan **"qurg'ur"** (yengil koyishni bildiradi) [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдлик, 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006:297], **"qurib ketsin"** (o'lsin, yo'q

bo'lsin) [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдлик, 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006:287], **"o'lgur"**, **"yer yutgur, adogina bo'lgur"** kabi birliklar asosan ayollar nutqiga xos bo'lgan qarg'ish so'zlar hisoblanadi, bu kabi birliklarni erkaklar nutqida deyarli uchratmaymiz.

Badiiy matnning sotsiopragsmatik tahlili uning faqat lingvistik emas, balki ijtimoiy-madaniy va psixologik omillar bilan uzviy bog'liqligini ochib beradi. Natijada sotsiopragsmatika badiiy nutqdagi til birliklarini kommunikativ maqsad, nutqiy vaziyat, ijtimoiy rol va madaniy qadriyatlar bilan uyg'un holda tahlil etish imkonini beradi. Erkin A'zam asarlaridan olingan misollar shuni ko'rsatadiki, personajlarning nutqi ularning ijtimoiy mavqeyi, jinsiy mansubligi, yoshi va shaxslararo munosabatlarini ifodalovchi muhim pragmatik vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, qahramonlar nutqidagi konnotativ ma'nolar, noverbal vositalar va shevaga xos birliklar muayyan sotsial qatlamning dunyoqarashi, madaniy darajasi hamda kommunikativ niyatini ochib beradi. Demak, badiiy matni sotsiopragsmatik jihatdan tahlil qilish orqali yozuvchi yaratgan obrazlar tizimi, ularning nutqiy portreti va muloqotdagi ijtimoiy xatti-harakatlari yanada chuqurroq anglanadi. Bu yondashuv badiiy asarni talqin etishda til, jamiyat va shaxs o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tahlil qilishda samarali metod sifatida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абитова А. Социопрагматика текста «Поток сознания» (на материале современной немецкой прозы): Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Пятигорск, 1999. – 202 с.
2. Аъзам Э. Жаннат ўзи қайдадир. Бир йил битиклари. – Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош тахририяти, 2007. – 128-б.
3. Erkin A'zam. Farrosh kampirning tushi (hikoya). <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/erkin-azam/erkin-azam-farrosh-kampirning-tushi/?ysclid=mgw28nk3hc272612362>
4. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – Toshkent, 2022. 636-b.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Биринчи жилд. Тузатилган 2-нашри. – Тошкент: «O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi» Давлат илмий нашриёти, 2020. 680-б.
6. Xamidova M.A. O'lmas Umarbekov asarlari tilining sotsiopragsmatik aspekti: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025. 53-b.
7. Yo'ldasheva X.Q. Badiiy matnning sotsiopragsmatik tadqiqi: Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Qarshi, 2023. 71-b.

Guliza SULTONOVA,
Qarshi shahridagi Xalqaro innovatsion
universitet magistranti

MEDIA MATNLARDA TARJIMA MUAMMOLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada media matnlarini tarjima qilish jarayonida uchraydigan asosiy muammolar tahlil qilinadi. Ayniqsa, o'zbek va ingliz tillaridagi ommaviy axborot vositalari materiallari misolida lingvistik, madaniy va uslubiy tafovutlar yoritiladi. Tadqiqot davomida matn tahlili usuli qo'llanilib, real misollar asosida tarjima xatolari va ularning sabablari ko'rib chiqildi. Maqolada tarjimon uchun tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so'zlar: *media tarjimasi, tarjima muammolari, madaniyatlararo kommunikatsiya, o'zbek tili, ingliz tili, ekvivalentlik.*

Аннотация: в статье анализируются основные проблемы, возникающие в процессе перевода медиатекстов. Подчеркиваются языковые, культурные и стилистические различия, особенно в случае материалов СМИ на узбекском и английском языках. В исследовании использовался анализ текста для изучения ошибок перевода и их причин на основе реальных примеров. В статье также даны рекомендации для переводчика.

Ключевые слова: *медиаперевод, проблемы перевода, межкультурная коммуникация, узбекский язык, английский язык, эквивалентность.*

Annotation: this article analyzes the main problems encountered in the process of translating media texts. In particular, linguistic, cultural and stylistic differences are highlighted on the example of media materials in Uzbek and English. During the study, the text analysis method was used, and translation errors and their causes were examined based on real examples. The article also provides recommendations for the translator.

Key words: *media translation, translation problems, intercultural communication, Uzbek language, English language, equivalence.*

XXI asr axborot asri deb atalishi bejiz emas. Media maydoni – ya'ni televideniye, radio, internet portallar va ijtimoiy tarmoqlar – inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Media orqali axborot tezkor tarqalish bilan birga, turli tillar va madaniyatlar o'rtasidagi aloqalar ham kuchaydi. Shu bilan birga, media nutqda tarjima jarayonida turli lingvistik, uslubiy va madaniy muammolar yuzaga keldi.

Media nutqning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

– tezkorlik va qisqalik – axborotni tez va aniq yetkazish talab etiladi;

– emotsionallik va ta'sirchanlik – auditoriyada hissiy ta'sir uyg'otishga qaratilgan;

– maqsadga yo'naltirilgan – ma'lum g'oya, fikr va pozitsiyani ifoda etadi;

– madaniy konnotatsiyalar – nutqda milliy, madaniy va ijtimoiy voqeliklar namoyon bo'ladi.

Bu xususiyatlar media tarjimasini an'anaviy badiiy va ilmiy matnlar tarjimasidan ajratib turadi.

Media matnni tarjima qilishda asosiy maqsad – axborotning aniqligi va ta'sirchanlik darajasini saqlab qolishdir. Shuning uchun media tarjimon nafaqat tilni chuqur bilishi, balki jurnalistik qobiliyat, uslub va ommaviy ta'sir psixologiyasini ham bilishi kerak.

Media nutqda tarjima ko'p hollarda:

– sarlavhalarni jozibali va diqqatni tortadigan qilish berish:

– ta'sirchan so'zlardan, so'z birikmalari va ifodalardan o'z o'rnida foydalanish;

– voqelikni to'g'ri anglash va ifodalash kabi muammolarga bog'liq bo'ladi.

Media nutqdagi asosiy tarjima muammolari quyidagilardan iborat:

– madaniy voqelik tarjimasi – jurnalistik materiallarda milliy madaniyatga oid voqeliklar tez-tez uchraydi. Masalan, "Qovun sayli", "Mustaqillik bayrami" kabi iboralarni boshqa tilga to'g'ri o'tkazish uchun adaptatsiya usuli qo'llaniladi. Chet ellik o'quvchiga bu tushunchalarni to'g'ri yetkazish uchun tushuntiruvchi tarjima zarur bo'ladi.

– Idiomalar va obrazli ifoda vositalari – media nutqda "breaking news", "under fire", "political storm" kabi obrazli iboralar juda ko'p. Ular so'zma-so'z tarjima qilinsa, ma'no yo'qoladi. Shuning uchun media tarjimon kontekstga mos ekvivalentni topishi kerak.

– Siyosiy va ideologik komponentlar – media tarjima ko'p hollarda siyosiy va ideologik pozitsiyaga ega bo'ladi. Shu bois tarjimondan neytrallik, axloqiy mas'uliyat va obyektivlik talab etiladi. Bir so'zning noto'g'ri tarjimasi butun materialning ma'nosini o'zgartirishi mumkin.

– Terminologik muammolar – axborot texnologiyalari, siyosat, iqtisodiyot sohalaridagi yangi atamalar media tarjimada qator muammolar tug'diradi. Masalan, "Fake

news” soʻzini baʼzida “yolgʻon yangilik”, baʼzida “feyk xabar” deb tarjima qilish holatlari bor. Har bir kontekst uchun mos variant tanlashi kerak.

– Tezkorlik va sifat oʻrtasidagi muvozanat – media sohasida axborotni tez yetkazish zarurligi sababli tarjimon baʼzan semantik yoki uslubiy xatolarga yoʻl qoʻyadi. Shuning uchun matn muharrirligi va leksik tahrir jarayoni muhim ahamiyatga ega.

Media tarjimada quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

1. Adaptatsiya (moslashtirish) – madaniy farqlarni hisobga olgan holda mazmunni qayta ifoda etish;

2. Ekvivalent tarjima – tillararo maʼnoni saqlab qolish;

3. Redaksion qayta ishlash – axborot uslubini saqlagan holda, tarjimani jurnalistik uslubga moslashtirish;

4. Tushuntiruvchi tarjima – notanish voqelik va iboralarni izoh bilan berish.

Misollarga murojaat qilsak:

Asli: “Facebook faces backlash over privacy breach.”

Soʻzma-soʻz tarjima: “Fecebook” maxfiylik buzilishi uchun orqa zarbasiga uchradi.”

Media tarjima: “Fecebook” foydalanuvchilar maʼlumotlarini oshkor qilgani uchun tanqidga uchradi.”

Bu misol media tarjimadagi soʻzma-soʻz tarjima muammosini yaqqol ifodalagan.

Media nutqda tarjima muammolari lingvistik, madaniy va psixologik omillar bilan chambarchas bogʻliq. Media tarjimaning asosiy vazifasi – axborotni aniq, tez va taʼsirchan tarzda yetkazish va madaniyatlar oʻrtasidagi muloqotni taʼminlashdir.

Ommaviy axborot vositalarining terminologik apparati mavjud boʻlishiga qaramay, oʻrnatilgan bir qator atamalar media tilidan foydalanishni tavsiflash uchun keng qoʻllaniladi. Bular asosan “media” soʻzining oʻzagi asosida tuzilgan leksik soʻz va iboralardir: media matni, media kommunikatsiyasi, lingvomedya belgilari

va xususiyatlari, lingvomedya taʼsir texnologiyalari, media makon, mediannotatsiya, media landshafti, media belgilari, media dunyosi tasviri, media oqimlari va boshqalar.

Gumanitar sohadagi mavjud vaziyatning asosiy tarkibiy qismlarini tahlil qilish orqali uni ilmiy fan sifatida koʻrib chiqish mumkin. Medialingvistika boshqa fanlar doirasida shakllanayotgan fan sifatida 2 ta ilmiy yoʻnalish belgilarini oʻz ichiga oladi: 1) real tadqiqot bazasida shakllangan; 2) u keng qamrovli oʻrganish bilan shugʻullanuvchi medialogiyaning yangi ilmiy yoʻnalishi boʻyicha shakllangan.

Tahlil natijalariga koʻra, media tarjimasida uchraydigan asosiy muammolar quyidagilar boʻldi:

– soʻzma-soʻz tarjima qilish natijasida maʼno buzilishi;

– idiomatik ifodalarni toʻgʻri tarjima qilmaslik;

– madaniy voqeliklarni notoʻgʻri aks ettirish;

– jurnalistik uslubdagi oʻziga xosliklarni eʼtiborga olmaslik.

Media matnlarini tarjima qilishda tarjimon til egasining madaniy va kontekstual bilimiga ega boʻlishi lozim. Qiyosiy tahlil asosida shuni aytish mumkinki, ingliz tilidagi koʻplab jumlar Oʻzbek tiliga oʻzgartirishsiz koʻchirilganda, ularning taʼsirchanligi va aniqligi yoʻqoladi. Shu bois, tarjimonlar media tilining pragmatik jihatlari yaxshi tushunishi, hamda mos tarjima strategiyalaridan foydalanishi kerak.

Media nutqini tarjima qilish murakkab va masʼuliyatli jarayondir. Unda nafaqat til bilimlari, balki madaniy tafakkur, kontekstni anglash, va auditoriyani hisobga olish kabi koʻnikmalar zarur. Oʻzbek va ingliz tillaridagi media materiallar misolida olib borilgan tahlil tarjimonlar uchun qator amaliy tavsiyalarni beradi. Kelgusida tarjima sifatini oshirish uchun maxsus oʻquv qoʻllanmalar yaratish va tarjimonlarni media tilining xususiyatlari boʻyicha tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kun T. Structure of scientific revolutions. – M.,1977. P.450.
2. Galperin I. Text as an object of linguistic research. – M.: Nauka, 1981. C.400.
3. Vasiliyeva A. Newspaper-publicistic style of speech. – M.,1994. P.380.
4. Smagulova G. Influence of mass Media language on nation’s mentality// State language: terminology, business letters, language of media :materials from the Republic scientific-practical conference devoted to the 100 anniversary of K.Zhubanov. – Astana, 1999. pp-370- 375.-P.540.
5. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2008. 286-б.
6. Susov I. Pragmatic structure of expressions//Language communication and its units. Kalinin,1986. P.280.

Jasurbek ALLAYEV,
Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARI RAQAMLI KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH MODELINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. Oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish masalasi nafaqat ta'lim sifati, balki ilmiy tadqiqotlar, innovatsion faoliyat, kadrlar tayyorlash va ularning mehnat bozoriga moslashuvi kabi ko'plab omillar bilan chambarchas bog'liq. Shuningdek, xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallash, xorijiy talabalarni jalb etish va professor-o'qituvchilar salohiyatini oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: raqamli kompetensiya, informatika o'qituvchisi, pedagogik texnologiyalar, ta'limda raqamlashtirish, raqamli pedagogika, kompetensiyalar modeli, axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT), zamonaviy ta'lim, ta'lim sifati, o'qituvchi tayyorlash.

Аннотация: развитие творческих способностей учащихся в данной статье. Вопрос повышения конкурентоспособности высших учебных заведений тесно связан не только с качеством образования, но и со многими факторами, такими как научные исследования, инновационная деятельность, подготовка кадров и их адаптация к рынку труда. Также важное значение приобретают высокие позиции в международных рейтингах, привлечение иностранных студентов и наращивание преподавательского потенциала.

Ключевые слова: цифровая компетенция, учитель информатики, педагогические технологии, цифровизация в образовании, цифровая педагогика, модель компетенций, информационные и коммуникационные технологии (ИКТ), современное образование, качество образования, подготовка учителей.

Annotation: development of creative abilities of students in this article. The issue of increasing the competitiveness of higher education institutions is closely related not only to the quality of education, but also to many factors such as scientific research, innovative activities, training of personnel and their adaptation to the labor market. It is also important to occupy high positions in international rankings, attract foreign students and increase the capacity of professors.

Key words: digital competence, computer science teacher, pedagogical technologies, digitization in education, digital pedagogy, competencies model, information and communication technologies (ICT), modern education, quality of education, teacher training.

Kirish. Axborot texnologiyalarining yutuqlarini shaxsiy kompyuterlarning ixtiro etilishi bilan bejiz bog'lamaydilar. Buning sababi axborot texnologiyalarining dasturiy vositalariga bo'lgan zaruriyat shaxsiy kompyuterlarning paydo bo'lishi natijasida ortib, kundalik ehtiyojga aylanib bormoqda. Shaxsiy kompyuterni tatbiq etishdagi muhim yutuqlardan biri multimedia vositalarining yaratilishidir. Shaxsiy kompyuterlar multimedia, ya'ni ovoz, grafika, animatsiya, video vositalarini keng masshtabda tatbiq etish imkoniyatlarini yaratdi. Mazkur imkoniyatlar ta'lim tizimida vujudga kelganligini alohida ta'kidlash joizdir. Bular sirasiga virtual kutubxona, virtual o'qitish texnologiyalarini keltirish mumkin. Yangi axborot texnologiyalari asosida boshqarishni avtomatlashtirish, ish yuritish, moliya ishlarini avtomatlashtirilgan holda boshqarishni ta'minlash kabi ishlarni bajarish imkoniyatlari tug'ila boshladi. Bundan tashqari yangi axborot texnologiyalari kompetensiyani rivojlantirish tizimida juda katta imkoniyatga ega bo'lgan redaktorlar, bir tildan ikkinchi tilga tarjima qiluvchi dasturiy vositalarning mavjudligini ko'rsatish mumkin. Ta'lim

tizimiga joriy qilingan axborot texnologiyalarini yanada takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, shubhasiz o'qish-o'qitishning samarasini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu o'rinda kompetensiyani rivojlantirishning olamshumul ahamiyatga ega bo'lgan telekommunikatsion aloqa vositalari (kabelli, ipak tolali, sputnikli) asosida tashkil etilgan internet tizimining insoniyatga juda keng imkoniyatlar yaratib berganligini alohida ta'kidlash lozim. Internet hozirgi vaqtda butun dunyo kishilarining bilimlarini birlashtirish, ularning intellektual qobiliyatlaridan unumli foydalanish kabi masalalarni yechish bilan bir qatorda biznes, hordiq chiqarish kabi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni ham hal qilishga imkoniyat yaratmoqda. Uchinchi ming yillikning boshlarida 120 mln. kompyuterlar yagona dunyo tarmog'iga ulangan bo'lib, ulardan 1 mlrd. dan ziyod odamlar foydalanmoqda. Keyingi vaqtda internet dan o'spirin yoshlar va xotin-qizlarning foydalanish suratin o'sib borishini qayd etish mumkin. Uchinchi ming yillikning boshida axborot texnologiyalarni tatbiq etishdan koordinal o'zgarishlar ro'y berishi kutilmoqda. Shu jumladan sputnik kanali orqali internet elektron kitoblar,



Arujan KARIMOVA,
O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
2-kurs talabasi

ADABIY TA'LIM JARAYONIDA ADABIY ERTAKLARNI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI

Annotasiya: maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida jahon adabiyoti namunalarini, xususan, fransuz yozuvchisi Antuan de Sent-Ekzyuperining "Kichkina shahzoda" asarini o'qitish masalalari yoritilgan. Unda asarni o'rganishning metodik tamoyillari, o'qituvchi faoliyatining ahamiyati hamda o'quvchilarda asar mazmunini anglash, badiiy-estetik tafakkurni shakllantirish yo'llari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: jahon adabiyoti, adabiyot ta'limi, metodika, o'qitish usullari, falsafiy ertak, o'quvchi tafakkuri, badiiy asarni o'rganish, ijodiy yondashuv.

Аннотация: в статье рассматриваются вопросы преподавания произведений мировой литературы в общеобразовательных школах, в частности, сказки французского писателя Антуана де Сент-Экзюпери «Маленький принц». В ней освещены методические принципы изучения произведения, значение деятельности учителя, а также пути формирования у учащихся понимания содержания произведения, художественно-эстетического мышления и творческого восприятия текста.

Ключевые слова: мировая литература, преподавание литературы, методика, методы обучения, философская сказка, мышление учащихся, изучение художественного произведения, творческий подход.

Annotation: the article discusses the teaching of world literature in general secondary schools, in particular the work "The Little Prince" by the French writer Antoine de Saint-Exupéry. It highlights the methodological principles of studying the work, the importance of the teacher's role, and the ways of developing students' understanding of the text, as well as their artistic and aesthetic thinking.

Key words: world literature, teaching literature, methodology, teaching methods, philosophical tale, students' thinking, studying a literary work, creative approach.

So'nggi yillar adabiy ta'limda jahon adabiyoti namunalarini o'rganish masalasiga turli yillarda bir qator metodist olimlar va tajribali o'qituvchilar tomonidan e'tibor qaratilganing guvohi bo'lamiz. Bu borada metodist olim N. Abduvalitov shunday deydi: "Albatta, jahon adabiyotidan namunalar o'rganilar ekan, o'zbek va jahon adabiyoti o'rtasiga chegara qo'yishga urinish to'g'ri emas. Aksincha, o'zbek adabiyotining eng nodir asarlari jahon adabiyoti xazinasidan munosib o'rin olishga haqli ekanligini ta'kidlaydi. Jumladan, Alisher Navoiy, Abdulla Qahhor, Xudoyberdi To'xtaboev h.k. asarlari dastur bo'yicha o'rganiladigan jahon adabiyoti namunalaridan qolishmasligini, hatto, o'rni kelganda, ulardan badiiy jihatdan ustun ekanligini ta'kidlash, misollar bilan isbotlash yaxshi natijalar beradi. Demak, umumiy o'rta ta'limda adabiyot fani bo'yicha o'qitiladigan jahon adabiyoti namunalarining har biri o'ziga xos yondashishni, o'qituvchidan o'z vazifasiga mas'uliyatli

bo'lishini talab etadi"¹.

Maktabda adabiyot o'qituvchisining vazifasi – o'quvchilarning adabiyot darslarida asarlarning matnlariga qiziqish uyg'otish va shu asnoda ularni tarbiyalashdir. Ushbu jarayonda jahon adabiyoti namunalarini ham bundan mustasno emas. Adabiyot o'qituvchilar nafaqat o'quvchilarni asar bilan tanishtiribgina qolmay, balkim o'quvchilarning ma'naviy dunyosini, ularning bilim va nutqlarini boyitishga yordam beradigan barcha narsalarni o'rganishlari kerak.

Maktabda jahon adabiyoti namunalarini o'rganishda ba'zida janr-tematik tamoyilga ham amal qilinadi. Jumladan, adabiyot darslarida milliy va jahon "ertak" va "adabiy ertak" janrini o'rganish ko'zda tutilgan. Masalan, Antuan de Sent-Ekzyuperining "Kichkina shahzoda" adabiy ertagi adabiy ertak sirasiga kiradi. Quyida biz maktab dasturiga kiritilgan fransuz yozuvchisi Antuan de Sent-Ekzyuperining "Kichkina shahzoda" adabiy

¹ Abduvalitov N. B. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jahon adabiyoti namunalarini o'qitish metodikasini takomillashtirish. Ped. fan. bo'y. fals. dok.(PhD)... diss. (2021).

ertagini o'qitish usullariga to'xtalishdan oldin, asar va uning muallifi haqida ma'lumot berib o'tmoqchimiz.

Antuan de Sent-Ekzyuperining "Kichkina shahzoda" asari badiiy ijodning durdonasidir: u nafaqat Ikkinchi jahon urushi davrida jamiyatning holati va ongini aks ettirishi bilan bir qatorda, o'quvchilarning axloqiy tushunchalari va qadriyatlarini, ya'ni hayot mazmuni, odamlarga muhabbat, sadoqat, do'stlik, baxt haqida tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shuni aytish joizki, o'quvchilar ushbu asarning bunday chuqur falsafiy ma'nosini o'zlari anglay olmaydi. Shuning uchun o'qituvchi shaxsi ushbu asarni o'rganishda katta rol o'ynaydi. Adabiy ertakning mazmunini anglash darajasi ko'p jihatdan o'qituvchi mahoratiga bog'liqdir.

"Kichkina shahzoda" asari 1943-yil fransuz yozuvchisi Antuan de Sent-Ekzyuperi tomonidan yozilgan va jahon adabiyoti xazinasining bebaho asariga aylangan. Ertakning fenomeni shundaki, asar kattalar uchun yozilgan bo'lib, lekin bolalar adabiyoti xazinasidan o'rin oldi. Bolalar ushbu ertakni sevib o'qishadilar, chunki ertak tilining soddaligi hamda undagi ko'tarilgan voqealar bugungi kunda ham o'z mohiyatini yo'qotmaganligidadir.

"Kichkina shahzoda" adabiy ertagi inson va dunyo muammosini falsafiy jihatdan yoritgan asar. Ertakni o'qish va muhokama qilishdan oldin, yozuvchining avtobiografiyaga oid ma'lumotlariga murojaat qilish tavsiya etiladi. Bu yerda e'tibor avtobiografik ma'lumotlarga emas, balki Antuan de Sent-Ekzyuperining shaxs sifatidagi xarakteriga, uning turli xil qiziqishlari va sevimli mashg'ulotlariga qaratilishi lozim.

Endi biz ushbu ertakni qanday yo'llar bilan o'qitish metodikasi haqida gaplashamiz. Eng avvalo o'quvchilar ertakni uyda o'qib kelishi va sinfda esa asosiy parchalarni takrorlab o'qishi ko'zda tutilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, birinchidan o'quvchilar uyida mustaqil o'qish asosida ularda kitob mutolaa qilish ko'nikmalari shakllanadi, ikkinchidan adabiyotga, san'atga qiziqishi uyg'onadi, uchinchidan sinfda o'qituvchi yordamida takror o'qish asosida ertak mazmunini to'liq o'zlashtiradi.

Birinchi dars. O'quvchilar bugun biz sizlar bilan navbatdagi jahon adabiyotining zabardast fransuz yozuvchisi, sermahsul ijodkor Antuan de Sent Ekzyuperi hayoti va ijodi haqida tanishamiz. Uyda siz yozuvchining "Kichkina shahzoda" adabiy-ertagi bilan tanisha boshladingizlar. Ammo ertakni muhokoma qilishdan oldin muallifning hayoti va ijodini yaqindan o'rgansak.

Yozuvchining taqdiri g'ayrioddiy edi. Uning hayoti bilan tanishish maqsadida grafik-organayzer turkumiga kiruvchi "Klaster" usulining chizmasini taxtaga yoki

sinf daftariga (o'quvchilar mustaqil ravishda) chizib, markazga yozuvchining ismini yozib, undan chiqqan chiziqchalarga uning xarakteristikasi yoziladi. Undan so'ng o'qituvchi yozuvchi hayoti haqida ma'lumotni to'ldiradi.

Ikkinchi jahon urushi boshlanganida Antuanga askarga yaroqsiz degan xulosa berildi. Ammo Antuan urushga qatnashish uchun bor imkoniyatini kuchga soladi. Ikkinchi jahon urushi paytida 15 marotaba xavf-xatarga duch keladi. 1944-yil, 31-iyul kuni osmonga ko'tarilgan Ekzyuperining samolyoti aviatsiya bazasiga qaytib kelmaydi. Dars jarayonida biz o'quvchilarning e'tiborini yozuvchining sirli vafotiga emas, balkim uning ortidan qoldirgan asarlari insonlar orasida mangu yashashini aytishimiz lozim. Yozuvchi ko'p yashamagan va ko'p asar yozmagan. Yozuvchi insonlar hayotida kerak bo'ladigan muhim narsalarni aytishga ulgurdi. Biz buni uning 1942-yili yozilgan "Kichkina shahzoda" ertagidan anglashimiz mumkin.

Hurmatli o'quvchilar sizlar uyda yozuvchining "Kichkina shahzoda" ertagi bilan tanisha boshladingizlar. Kelinglar asar mazmuni haqida fikrlarimiz bilan o'rtoqlashamiz. O'qituvchi o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qiladi. "Sizga ertak yoqdimi?", "Ertak nimasi bilan yoqdi?" yoki "Nima uchun yoqmadi?" kabi savollar orqali o'quvchilarning ertakka bo'lgan munosabatini bilishimiz mumkin.

Uyga vazifa: ertakni oxirigacha o'qiymiz. Ertakdan o'zingizga yoqqan yoki sizning e'tiboringizni tortgan parchani va ertakda uchraydigan iboralarni daftarga yozish. Asar muallifiga savollar tuzib kelish.

Ikkinchi dars. Hurmatli o'quvchilar biz sizlar bilan o'tgan darsda ajoyib fransuz yozuvchisi Antuan de Sent Ekzyuperi hayoti va ijodi hamda "Kichkina shahzoda" ertagi bilan tanishdik. Va uyga vazifa sifatida ertakni oxirigacha o'qib, asar muallifiga savollar tuzib kelish vazifasi yuklatilgan edi. Men ishonamanki, hammangiz uy vazifasini bajarib kelgansizlar.

Endi e'tibormizni yangi mavzuga qaratsak. Yozuvchining kichkina shahzoda bilan uchrashuvi haqida nima bilamiz? Ushbu savolga javob berishdan oldin o'quvchilar diqqatini taxtada osilgan sahroyi kabir tasvirlangan rasmga qaratamiz. Va o'quvchilardan rasmda nima tasvirlangani haqida so'raymiz. Shu yo'sinda nima uchun yozuvchi aviahalokatda aynan Sahroyi kabirni tanlaganini so'raymiz. To'g'ri, u tirik jon uchramaydigan sahroda kichkina shahzodani uchratdi.

Endi ertakdan yozuvchining kichkina shahzoda bilan tanishganini va uni qanday tasvirlaganini izlab topib o'qimiz. Undan so'ng ertakning mazmuni bilan batafsil tanishish maqsadida o'quvchilarga quyidagi savol-topshiriqlar bilan murojaat etamiz:

1. Asar qahramoni nima uchun uchuvchilik kasbini tanlashga majbur bo'ldi?

2. Uchuvchilik paytida kattalarning maslahati adabiy qahramonga yordam berdimi?

3. Uchuvchining yolg'izlikda yashashiga nima sabab bo'ldi? Insonlar odamlar orasida yashab, o'zini yolg'iz his etishi mumkinmi?

4. Uchuvchi kichkina shahzoda bilan ilk bor qanday tanishdi?

5. Uchuvchining kichkina shahzoda uchun ilk chizib bergan surati bilan ilk yoshlik paytida chizgan rasmlarida qanday o'xshashlikni seza oldingiz? Nima uchun kichkina shahzoda bu rasmlardan bosh tortdi?

6. Kichkina shahzodaning osmondan tushganligini tasvirlaydigan joyni asardan izlab toping. Voqea qanday yo'sinda tasvirlanganiga e'tibor qarating.

8. Kichkina shahzodani o'z sayyorasini tark etishiga nima majbur qiladi?

9. Safar davomida kichkina shahzoda koinot bo'ylab turli sayyoralarini kechib chiqdi. Keling, ushbu asteroidlarni o'rganib chiqamiz: olti guruhga bo'linamiz va ularning har biri haqida qisqacha hikoya qiling, kichkina shahzoda sayyoralar aholisini qanday ta'riflaganini matndan toping.

10. Ertakda yana bir muhim epizod bor, bu uchuvchi va kichkina shahzodaning suv qidirishi. Matndan izlab topib o'qiymiz. "Bilasanmi, sahro nima uchun yaxshi? – dedi u. Chunki uning bag'rida, ko'z ilg'amas allaqayerlarda buloqlar yashiringan bo'ladi...." so'zlarini qanday tushunasiz?

11. Kichkina shahzodaning "boshing og'gan tomonga ketaverganing bilan uzoqqa ketolmaysan..." jumlasiga javobni asardan izlab topib, javob bering.

12. Kichkina shahzoda bilan ilon o'rtasidagi suhbatni o'qituvchining yordamida muhokama qiling.

13. "Ba'zilarga, aytaylik, sarbon-u sayyohlarga – ular yo'l ko'rsatuvchi, ba'zilarga esa shunchaki mitti shu'la, xolos" iborasini matn yordamida izohlashga harakat qiling.

14. Matndan kichkina shahzoda bilan ayrilish voqeasini topib o'qing va izohlab bering.

Uy vazifasi: uyda asar muallifiga bergan savollaringizga o'zingiz javob berishga harakat qiling. "Kichkina shahzodaga maktub" mavzusida ijodiy ish yozing.

Uchinchi dars: Tahlil darsi. "Kichkina shahzoda" ertagini o'rganish bo'yicha topshiriqlar ustida ishlash.

1. O'quvchilarning "Kichkina shahzodaga maktub" mavzusida ijodiy ishlarini eshitish.

2. Asar janri – falsafiy ertak haqida fikr-mulohaza o'tkazish.

3. Avval o'tilgan darslarning barcha materiallarini sarhisob qilish maqsadida "Voyaga yetganlar" va "Bolalar dunyosi shahzoda va uchuvchi nigohida" jadval tuzib, javob yozish.

4. O'quvchilarga yulduzlardagi barcha odamlarga tilaklar yozdirish.

Xulosa shuki, Antuan de Sent Ekzyuperining "Kichkina shahzoda" ertagini ko'pincha o'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda o'rganishi maktab amaliyotida ko'zga tashlanadi. Ammo o'quvchilar o'qituvchi yordamisiz ushbu ertakning chuqur falsafiy ma'nosini anglay olmaydilar. Bizningcha, ushbu asarni o'quvchilar bilan birgalikda ikki yoki uch dars mobaynida o'rganilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva M., Djumabayeva D. Jahon adabiyotini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish (9-sinf adabiyoti darsligi "Jahon adabiyoti" bo'limi misolida). Metodik qo'llanma. – Toshkent, 2019.180- bet.

2. Parpiyeva M. Kichkina shahzoda – ezgulik timsoli // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2015. № 12. 21-22-betlar.

3. To'xliiev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.152-bet.

4. Abduvalitov N. B. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jahon adabiyoti namunalarini o'qitish metodikasini takomillashtirish. Ped. fan. bo'y. fals. dok.(PhD)... diss. (2021).

Nigora ISMOILOVA,
 Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
 Xorijiy filologiya fakulteti
 2-bosqich talabasi
 Ilmiy rahbar: **Shahnoza XODJAYEVA,**
 elektron pochta manzili: nisoiilova@gmail.com

MULTIMEDIA ASOSIDA ISPAN TILINI O'RGATISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Annotatsiya: ushbu maqola ispan tilini o'qitish jarayonida multimedia vositalaridan samarali foydalanish metodikasini ilmiy jihatdan tahlil qiladi. Tadqiqotda audio-vizual materiallar, interaktiv dasturlar va onlayn platformalarning o'quv jarayoniga ta'siri o'rganilgan hamda ularning til o'rganishdagi motivatsiya va natijadorlikni oshirishdagi roli ko'rsatib berilgan. Shuningdek, maqolada an'anaviy metodlar bilan multimedia asosidagi yondashuvlarning qiyosiy tahlili berilgan. Multimedia vositalarining qo'llanilishi til ko'nikmalarini rivojlantirishda, ayniqsa tinglab tushunish, og'zaki muloqot va tarjima faoliyatlarida samaradorlikni sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishi ta'kidlangan. Tadqiqot natijalari ispan tilini o'qitishda innovatsion metodlarning joriy etilishi til ta'limi sifatini yangi bosqichga olib chiqishini ko'rsatadi. Maqola oliy ta'lim va maktab muassasalarida til o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: *ispan tili o'qitish, multimedia texnologiyalari, interaktiv ta'lim, til o'rganish metodikasi, innovatsion yondashuvlar, til ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'lim samaradorligi, til motivatsiyasi, audio-vizual materiallar, tarjima ta'limi.*

Annotation: this article examines the methodology of effective use of multimedia tools in teaching the Spanish language. The study analyzes the impact of audiovisual materials, interactive software, and online platforms on the learning process and their role in enhancing motivation and language acquisition efficiency. A comparative analysis of traditional methods versus multimedia-based approaches is provided. It is emphasized that the use of multimedia significantly improves language skills development, particularly listening comprehension, oral communication, and translation activities. The research findings demonstrate that the integration of innovative methods in Spanish language instruction elevates the quality of language education to a new level. The article includes practical recommendations for educators in higher education institutions and schools.

Key words: *spanish language teaching, multimedia technologies, interactive learning, language learning methodology, innovative approaches, language skills development, teaching effectiveness, language learning motivation, audiovisual materials, translation education.*

Аннотация: в статье рассматривается методика эффективного использования мультимедийных средств в процессе преподавания испанского языка. В исследовании проанализировано влияние аудиовизуальных материалов, интерактивных программ и онлайн-платформ на учебный процесс, а также их роль в повышении мотивации и эффективности обучения языку. Приведен сравнительный анализ традиционных методов и мультимедийных подходов. Подчеркивается, что применение мультимедиа способствует значительному развитию языковых навыков, особенно восприятию на слух, устному общению и переводу. Результаты исследования демонстрируют, что внедрение инновационных методов в обучение испанскому языку выводит качество языкового образования на новый уровень. В статье содержатся практические рекомендации для преподавателей в вузах и школах.

Ключевые слова: *преподавание испанского языка, мультимедийные технологии, интерактивное обучение, методика изучения языка, инновационные подходы, развитие языковых навыков, эффективность обучения, мотивация к изучению языка, аудиовизуальные материалы, обучение переводу.*

Kirish. Til o'rganish jarayoni murakkab kognitiv va kommunikativ faoliyatni o'z ichiga oladi, bu esa o'quvchining lingvistik kompetensiyasini har tomonlama rivojlantirishni talab qiladi. An'anaviy darslik va auditoriya usullarining chegaralari, ayniqsa zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) asosida rivojlangan ta'lim muhiti sharoitida tobora yaqqol

namoyon bo'lmoqda. So'nggi o'n yilliklarda multimedia vositalari til o'qitish jarayonida innovatsion resurs sifatida keng joriy etilib, o'quvchilarning faol ishtirokini rag'batlantirish, ma'lumotlarni yaxshiroq qabul qilish va mustahkamlash imkonini yaratmoqda (Mayer, 2009; Richards, 2015).

Ispan tilini o'rganishda multimedia texnologiyalari

nafaqat auditoriya va matn shaklida taqdim etiladigan ma'lumotlarni boyitadi, balki audio-vizual va interaktiv elementlar orqali talabning turli sezgi organlarini faol jalb etadi. Bu esa til ko'nikmalarining, xususan, tinglab tushunish, talaffuz, og'zaki nutq va tarjima sifatini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, interaktivlik va multimodal yondashuv o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishda muhim omil hisoblanadi (Dörnyei, 2001).

Zamonaviy ta'lim muhitida innovatsion metodlarni joriy qilish milliy va xalqaro ta'lim standartlariga mos keladigan yuqori samarali o'quv jarayonini tashkil etish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida ispan tilini o'qitish sifatini oshirish, tarjima jarayonlarida aniqlik va professional darajani ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois, ispan tilini o'rgatishda multimedia vositalaridan samarali foydalanish metodikasini tizimli o'rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda ispan tilini o'qitishda multimedia vositalarining samaradorligini o'rganish maqsadida sifat va miqdoriy tadqiqot usullari uyg'unligi qo'llanildi. Tadqiqot jarayoni bosqichma-bosqich tashkil etilib, avvalo zamonaviy pedagogik nazariyalar, xususan, kommunikativ yondashuv va kognitiv ta'lim konsepsiyalari asosida multimedia vositalarining didaktik salohiyati tahlil qilindi (Swain, 2005; Mayer, 2009). Keyingi bosqichda, eksperimental o'quv guruhida interaktiv audio-vizual materiallar va til o'rgatuvchi dasturlar tatbiq etilib, o'quvchilarning til ko'nikmalari va motivatsiyasidagi o'zgarishlar kuzatildi.

Ma'lumotlarni yig'ish uchun so'rovnoma, intervyu va testlar qo'llanilib, ularning yordamida o'quvchilarning nutq ko'nikmalari, tinglab tushunish va tarjima qobiliyatlari o'rganildi. Shu bilan birga, multimedia vositalaridan foydalangan darslarning an'anaviy o'qitish usullari bilan taqqoslash uchun taqqoslovchi tahlil usuli tatbiq qilindi, bu esa innovatsion metodlarning samaradorligini aniq ko'rsatishga xizmat qildi (Creswell, 2014).

Tadqiqotda interaktivlik va ko'p sezgili yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni alohida ta'kidlandi, chunki multimedia materiallari o'quvchining vizual, audio va kinestetik sezgilarini faol jalb qilish orqali tilni chuqurroq o'zlashtirishni ta'minlaydi (Moreno & Mayer, 2007). Shuningdek, texnologiyalarning pedagogik integratsiyasi doirasida, o'quvchilarning individual o'rganish ritmi va qobiliyatlari inobatga olindi, bu esa o'qitish jarayonining moslashuvchanligini oshirdi. Natijada, metodologik yondashuv sifatida multimedia asosidagi interaktiv ta'lim tizimini joriy

etish, o'quvchilarni faol ishtirokka jalb qilish hamda til o'rganish motivatsiyasini oshirishga qaratilgan kompleks choralar tizimi ishlab chiqildi va sinovdan o'tkazildi. Bu yondashuv o'qitish jarayonining samaradorligini oshirishga va til ko'nikmalarining rivojlanishida yangi sifat bosqichiga erishishga xizmat qilganligi tadqiqot natijalarida o'z tasdig'ini topdi.

Tadqiqot natijalari va tahlil. Eksperimental tadqiqot jarayonida multimedia vositalaridan foydalanilgan guruh va an'anaviy metodika asosida o'qigan boshqaruv guruhi ko'nikmalarini taqqoslash imkoniyati yaratildi. Olingan ma'lumotlar o'quvchilarning til o'rganishdagi ko'nikmalari, ayniqsa tinglab tushunish, og'zaki nutq va tarjima sohalarida sezilarli farqlarni ko'rsatdi. Multimedia asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida ishtirok etgan talabalar nafaqat lingvistik bilimlarni samaraliroq egallashdi, balki kommunikativ qobiliyatlarini ham yuqori darajada rivojlantirishdi (Zhang & Wang, 2019).

Tahliliy ma'lumotlarga ko'ra, audio-vizual va interaktiv elementlarning qo'shilishi o'quvchilarning ma'lumotni qayta ishlash jarayonini optimallashtirdi. Bu esa, Mayerning kognitiv yuk nazariyasiga muvofiq, turli sezgi kanallarini uyg'unlashtirish orqali axborotni eslab qolish va til qobiliyatlarini mustahkamlash imkonini beradi (Mayer, 2009). Shuningdek, o'rganilgan guruhning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi sezilarli darajada oshgani kuzatildi, bu esa Dörnyei tomonidan ta'kidlangan motivatsiyaning til o'rganish jarayonidagi asosiy roli bilan uyg'unlashadi.

Tarjima faoliyatiga kelsak, multimedia vositalari tarjima jarayonidagi kontekstual va lingvistik qiyinchiliklarni yengillashtirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ldi. O'quvchilarning kontekstual tahlil va lingvistik xatolarni aniqlash ko'nikmalari yanada rivojlandi, bu esa tarjima sifatining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi (Gambier & Van Doorslaer, 2016). Bundan tashqari, multimedia vositalari yordamida tashkil etilgan interaktiv mashg'ulotlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga, muloqotga tayyorlik darajasini oshirishga xizmat qildi. Taqqoslash natijalariga ko'ra, an'anaviy usullarga qaraganda multimedia yondashuvi til o'rganish jarayonini yanada samarali va mazmunli qildi.

Shu bilan birga, ayrim o'quvchilarda texnologiyalardan foydalanishning dastlabki bosqichida texnik muammolar va motivatsion pasayishlar kuzatilgan, bu esa multimedia resurslarini joriy etishda o'qituvchilarning doimiy metodik ko'mak va texnik yordamining zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari multimedia asosida o'qitish usullarining ispan tilini o'rganishda yuqori samaradorlikka erishishda muhim ahamiyatga

ega ekanligini tasdiqlaydi. Innovatsion ta'lim vositalarining qo'llanilishi til o'rganish jarayonini nafaqat interaktiv va qiziqarli qiladi, balki lingvistik va kommunikativ ko'nikmalarni integrativ rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijalari ispan tilini o'rgatish va tarjima faoliyatida multimedia vositalarini joriy etish nafaqat o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, balki ta'lim sifatini tubdan yaxshilash imkonini berishini yaqqol ko'rsatdi. Eksperimental guruhlarda innovatsion metodlar, xususan raqamli texnologiyalar, virtual ta'lim muhiti, mobil ilovalar va onlayn platformalar asosida tashkil etilgan ta'lim faoliyati natijasida talabalar til ko'nikmalarini 15–27% gacha oshira oldilar, bu esa nazariy bilimlarning amaliy kommunikativ kompetensiyaga aylanishini ta'minladi.

O'quvchilarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishi va ichki motivatsiyasi sezilarli darajada kuchaygani (65% dan 89% gacha) kuzatildi. Bunday ko'rsatkichlar raqamli vositalarning ta'lim psixologiyasi va metodikasi bilan uyg'unlashgan holda qo'llanilishi natijasida o'quvchining shaxsiy ishtiroki, faolligi va mustaqil fikrlash darajasi ortganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, multimedia

yondashuvining ko'p sezgili ta'sir mexanizmi orqali talabalarda tilga nisbatan barqaror ijtimoiy-psixologik munosabat shakllangani aniqlangan.

Tadqiqot, shuningdek, an'anaviy "grammatika-tarjima" yondashuvidan farqli ravishda, kommunikativ-interaktiv metodlar va multimodal ta'lim muhitining yuqori natijadorlikka ega ekanini asoslab berdi. Talabalar faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, o'zlashtirgan til elementlarini real kommunikativ kontekstlarda amaliy qo'llash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu yondashuv, o'z mohiyatiga ko'ra, XXI asr ta'lim paradigmasiga mos keluvchi, funksional savodxonlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi vositadir.

Xulosa tariqasida aytish mumkinki, agar til o'qitish tizimida innovatsion metodlar, multimedia vositalari va raqamli texnologiyalar tizimli asosda integratsiyalansa, O'zbekiston yoshlari nafaqat xorijiy tillarda erkin muloqot qila oladigan darajaga yetishadilar, balki global raqobatga bardosh bera oladigan zamonaviy kadrlar sifatida shakllanadilar. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizning xalqaro miqyosdagi ilmiy, madaniy va iqtisodiy integratsiyasini jadallashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A Abdullayeva, M.B. Shaxsda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishning psixologik omillari. – Toshkent: Barkamol Avlod, 2011. 224-b.
2. A'zamova, D.A. Chet tillarni o'qitishda axborot texnologiyalarining o'rni. – Toshkent: O'zbekiston fanlar akademiyasi, 2020. 198-b.
3. Creswell, J.W. Educational Research: Planning, Conducting, and Evaluating Quantitative and Qualitative Research. 4th ed. – Boston: Pearson, 2014. 640 p.
4. Dörnyei, Z. Motivational Strategies in the Language Classroom., – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. 155 p.
5. Gambier, Y., & Van Doorslaer, L. (Eds.). Handbook of Translation Studies. Volume 4. – Amsterdam: John Benjamins Publishing, 2016. 275 p.
6. Hammad, L., & Alsaleh, N. The Effect of Multimedia on Language Learning Motivation: A Study among University Students. International Journal of Emerging Technologies in Learning, 15(10), 2020: 45–55.
7. Karimov N. Chet tilini o'qitishda innovatsion metodlar. – Samarqand: Ilm Ziyo, 2018. 156-bet.
8. Mayer, R.E. Multimedia Learning. 2nd ed. – New York: Cambridge University Press, 2009. 320 p.
9. Moreno, R., & Mayer, R.E. Interactive Multimodal Learning Environments. Educational Psychology Review, 19(3), 2007: 309–326.
10. Qodirova, G.M. Yangi pedagogik texnologiyalar va ularni chet tillarni o'qitishda qo'llash. – Toshkent: Fan va Texnologiya, 2016. 210-bet.
11. Richards, J.C. Key Issues in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2015. 293 p.
12. Tursunov, O. Pedagogik innovatsiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2017. 176-bet.



Muqaddam AKBAROVA,
Qoʻqon universiteti Andijon filiali talabasi
Ilmiy rahbar: **Zilola ESHANOVA,**
dotsent, filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)

XALQ DOSTONLARIDA “EPIK HOMIY” OBRAZI

Annotatsiya: mazkur maqolada xalq dostonlaridagi qahramonning oʻz alpligini namoyon etishda yordam beradigan epik homiy obrazi, uning antroporf, zoomorf tiplari, badiiy talqinlari va poetik vazifalari haqida soʻz boradi. Shuningdek, maqolada mifologik makon, raqib personajlar va fetishtik detal obrazlarining epik homiy obrazi bilan munosabati yoritiladi.

Kalit soʻzlar: epik homiy, chiltanlar, Xizr, pir, ot, qush, doston, alplik, Asqartogʻ, pari, homiy eran, epik makon.

Аннотация: в данной статье рассматривается образ эпического покровителя, играющий важную роль в проявлении героем своего богатырства в народных дастанах. Анализируется, через кого или что выражается данный образ, какие чудеса и чудесные способности ему присущи, а также его значение в структуре дастана. Кроме того, рассматриваются антропоморфные и зооморфные облики покровителей, мифологическое пространство, образ соперников и фетишистские детали, имеющие художественную ценность.

Ключевые слова: эпический покровитель, чилтаны, Хызр, пир, конь, птица, дастан, богатырство, Асқартаг, пери, эран, эпическое пространство.

Annotation: this article examines the image of the epic patron, which plays an important role in revealing the hero's bravery in folk epics. It explores how this image is represented – through certain figures or symbols – along with their miraculous powers and the significance of this motif within the structure of the epic. The study also discusses the anthropomorphic and zoomorphic forms of patron figures, the mythological space, rival characters, and the artistic function of fetishistic details.

Key words: epic patron, Chiltans, Khizr, pir, horse, bird, epic, heroism, Asqartog, fairy, eran, epic space.

Kirish. Tilning, adabiyotning rivojlanishida, eng avvalo, xalq ogʻzaki ijodining, folklor yoʻnalishining oʻrni beqiyos. Folklorshunos olim Jabbor Eshonqul: “Folklor – millatning boqiy tarixi”, – deb taʼkidlaganidek, jasorat, mardlik kabi xislatlar, yaxshilik va yomonlik oʻrtasidagi kurash dostonlarda oʻziga xos tarzda oʻz aksini topgan. Folklor turli davrlarda turlicha oʻrganilgan. Xalq ogʻzaki ijodining ichida dostonlar qahramonlik, alplik ruhiyatining kuchli shakllanganligi bilan syujetning idealligi bilan, oʻquvchini yoki tinglovchini oʻziga jalb qilish xususiyati bilan ajralib turadi.

Maʼlumki, qahramonlik dostonlarida bosh qahramonning gʻayritabiiy kuchga ega ekanligi, hech kim bajara olmagan ishlarni ular osonlik bilan bajara olishligi muhim jihati hisoblanadi. Bu xislatlar esa epik homiy obrazisiz amalga oshmaydi. Qahramonning xarakter xususiyatlari yoritilishida homiy obrazi muhim badiiy funktsiya bajaradi. Folklorshunos olim Nurmanov aytganidek: “Homiy obraz qahramonning tugʻilishidan tortib uning barcha sarguzashtlarida ishtirok etadi. Unga maslahat beradi, ogʻir shart va topshiriqlarni bajarishda, toʻsiqlarni yengib oʻtishda, “oʻzga makon”dan biror narsa yoki parini olib kelishda koʻmaklashadi.[3-103] Epik homiyning dostonidagi ahamiyati, mifologik jihatlari, nimalar yoki kimlar koʻrinishida boʻlishi, dostonlar kompozitsiyasida qanday shakllarda kelishi kabi jihatlarni koʻplab folklorshunos olimlar ilmiy ishlarida tahlil qilishgan. Jumladan, Sh.Turdimov “Oʻzbek mifologiyasi va folklori”

kitobida, F.Nurmanov “Xizr obrazi genezisi va uning oʻzbek folkloridagi talqini” kabi ilmiy ishlarida ushbu mavzu keng yoritilgan. Birgina Xizr obrazining oʻzini M.Afzalov, Gʻ.Akramov, K. Imomov, Gʻ.Jalolov, B. Sarimsoqov, M. Joʻrayev, Sh.Shomusarov, F.Nurmanov kabi olimlar tadqiq qilganlar. [7, 6-9].

Material va metodlar. Oʻzbek xalq dostonlarida epik homiy obrazlari koʻplab dostonlarda turli xil obrazlar orqali ifodalanadi. Ular pirlar, eshonlar, chiltanlar, ot obrazi, qush obrazi orqali ifodalanadi. U personajlar: Xizr, Shohimardon pir, Rajabxoʻja eshon, Bobo Zangi podachi, Tukli Aziz, Qora bobo, Ersari bobo, Soqibulbul kabilar. Biz quyida dostonlardagi homiy eranlarning bir nechtasiga alohida toʻxtalib, doston kompozitsiyasida qaysi shakllarda kelishi, qaysi mifik turdagi obrazga kirishi, asosiy vazifalari, dostonidagi karomatlariga toʻxtalib oʻtamiz.

Natijalar va ularning tahlili. Xalq dostonlarida eng mashhur boʻlgan homiy eranlarni tahlillarda koʻrib chiqamiz.

Chiltanlar. Ular diniy tasavvurlarga koʻra, gʻayritabiiy kuchga ega boʻlgan 40ta ruh. Xalq orasidagi miflarda aytilishicha, chiltanlar odamlar koʻziga koʻrinmaydi, ular orasida odam qiyofasida yashaydi. Undan tashqari chiltanlar mozar va kimsasiz joylarda yashaydi, degan qarashlar mavjud. Dostonlarda esa chiltanlar bilan bir qatorda boshqa homiy obrazlar makoni sifatida Asqartogʻ koʻrsatilgan. Yanada aniqroq aytsak, chiltanlar yerning kindigida (markazida) Xizrning makonida yigʻilishadi

va ularning buyrug'ini bajaruvchi yordamchilari Xizr hisoblanadi. Chiltanlarning asosiy xizmatlaridan biri kishilar ruhini yovuz kuchlardan himoya qilish. Tangri dunyoni Xizr va uning yordamchilari – chiltanlar orqali boshqaradi, degan tasavvurlar mavjud bo'lgan [8-31]. Asqartog' epik tog' bo'lib, Olimp tog'iga qiyoslashgan. Asqar so'zi ikki qismdan tashkil topib, "As" (az) –(olov, "qar" –(qir) – tog' ma'nosidagi so'zlar qo'shiluvidan "Olov tog'" ma'nosini olgan. "Folklorda chiltanlar obrazi kishilarga yaxshilik ulashuvchi, ularning ruhini yovuz kuchlardan himoya qiluvchi Xizr obrazining yordamchilari sifatida talqin etiladi [4:49]. Chiltanlarning xalq dostonlaridagi badiiy talqinlarini o'rgangan Z.Eshanova Sh.Turdimovning Asqartog' haqidagi fikrlariga qo'shilgan holda: "Dostonda eranlarning ma'lum bir ichki tartibga ega tuzilmasi mavjudligi aytilgan. G'or tepasidagi taxtda eranlar boshlig'i Qutbul qutb yoki qutbul a'lam, undan keyin uch kishi, navbatdagi yetti tan – yetti kishi, so'ngra qirq chilton va uch yuz oltmish mardoni g'ayb hamda qutbul a'lamning buyrug'ini shu jamoaning har qaysisiga bildirib turish vazifasi Hazrati Xizr, Ilyos va hazrat G'avsul G'iyos zimmasida ekanligining aytilishi zamirida ana shu eranlar tuzilmasining tartibi, eranlar iyerarxiyasi ko'rsatib o'tilgan"ligini [5,164–169] qayd etadi. Bundan ko'rinadiki, chiltanlar jamoasi iyerarxiya tartibga ega, chiltanlarning oliysi Qutbul a'lam bo'lib, uning buyruqlarini epik qahramonga bildirish vazifasini Hazrati Xizr, Ilyos va hazrat G'avsul G'iyos bajarishi ma'lum bo'lmoqda.

Dostonlardagi chiltanlarning yana bir asosiy vazifasi tush motivida ayonlashadi. Tushda qahramonlar ruhlari birlashib bir vaqtda bir xil tush ko'rishlari yoki tushda bashorat ma'nosidagi tushlarning ko'rilishi aynan chiltanlar bilan bog'liq. Xususan, "Alpomish" dostonida Alpomish va Barchinning ruhini ularning tushida birlashtiradi va bu orqali Alpomishning yo'li Barchin bilan kesishishini anglashimiz mumkin.[6:3]. O'zbek xalq afsonalari, ertaklari va dostonlarida qahramonning epik homiylarining ba'zilar qadimgi animistik qarashlar va ajdodlar kulti bilan bog'liq mifologik tasavvurlarga bog'lanadi. Ana shunday an'anaviy personajlardan biri chiltonlar hisoblanadi [7:44].

Xizr. Xalqimizning tasavvurlari-yu qarashlariga ko'ra, Xizr va Xidr nomlari bilan ataluvchi mifologik personaj mavjud. U adashgan kishilarga yo'l ko'rsatuvchi, buloqlar ko'zini ochib, odamlarga obihayot ulashuvchi, dehqonlarning hosiliga nazar tashlasa baraka ato etadigan, birdan paydo bo'lib yana bir zumda g'oyib bo'ladigan, hayot suvini ichganligi uchun abadiy umr ko'ruvchi, ezgu homiy sifatida insonlarga yaxshilik qiladigan mifologik obraz hisoblanadi[3]. O'zbeklar tasavvurida, Xizr har bir insonga hayoti davomida uch yoki yetti marta uchraydi, turli qiyofada, turli yoshdagi kishilar ko'rinishida, ba'zan gadoy qiyofasida uchraydi kabi qarashlar keng tarqalgan. Xalq dostonlarida epik qahramonga epik homiy sifatida tug'ilishidan to asar so'ngigacha qo'llab-quvvatlovchi, kuch bag'ishlovchi, chorasiz qolgan paytlarda yordamga keluvchi homiy vazifasida keladi. Folklorshunos olim K. Imomov fikricha, Xizr obrazining mifologik tabiatiga

mos yana bir muhim jihati – magik kuchga egaligi. U asosan 3 xil, ya'ni antropomorf (inson ko'rinishidagi), zoomorf (jonivor ko'rinishida) va narsa – predmet (detal) ko'rinishida bo'lishi mumkin. Xizr darvesh ko'rinishida, yigit ko'rinishida, oqsoqolli mo'ysafid kabi ko'rinishlarda kelishi uning antropomorf tipidir. Tahlillarga ko'ra, Xizrning faqat bitta o'rinda qush shaklida namoyon bo'lishi tasviri mavjudligi aniqlangan. Demak, Xizr zoomorf shaklda ham kelishi mumkin. Xizr obrazining yuzaga kelishida animistik qarashlar, ya'ni ota-bobolar ruhining madadiga ishonish bilan bog'liq mifologik tasavvurlar ham muhim ahamiyat kasb etadi[7-48-51]. Folklorshunos olim Hodi Zaripov o'zbek eposidagi qahramonning g'ayrioddiy dunyoga kelishi ham aynan epik homiy obrazi bilan bog'liqligini ta'kidlagan. Endi Go'ro'g'li dostonidagi Xizr obrazi bilan bog'liq bo'lgan ayrim joylarga to'xtalamiz: Go'ro'g'lining o'lgan onasining vujudida, qabrda rivojlanishda davom etib, g'ayritabiiy ravishda tug'ilishi; Xizrning o'z otalig'iga olishi, o'lgan onadan sut kelib turishi, go'rda chiroq yonib turishi; uch yildan so'ng chiroq o'chib, sut kelmay qolganda, Xizrning go'rdan teshik ochib, tashqariga chiqarib, bolasi o'lgan baytalni unga ozuqa sifatida keltirishi; mozordagi sherdan himoya qilishi; yetti yoshga to'lganda, Xizr Go'ro'g'lining tushiga kirib onasi Bibi Xilolning ovozi Yovmit yurtiga borishga undab, unga yo'l-yo'riq ko'rsatishi.

Shohimardon pir. Rivoyatlarga qaraganda, Hazrati Alining "Mardon", "Murtozo" degan taxalluslari bo'lgan. Mardonning ma'nosi "erkaklar", ya'ni "yigitlar piri" degan ma'noni bildirgan va shundan Shohimardon pir sifatida xalq orasida yordam beruvchi, kuch beruvchi siymo sifatida mashhur bo'lgan[9]. Shundan xalq dostonlarida ham epik qahramonga kuch bag'ishlovchi homiy sifatida talqin etilgan. Ushbu personaj ham doston kompozitsiyasida antropomorf qiyofada keladi. Alpomish dostonidagi Shohimardon pir ko'rsatgan karomatlariga to'xtalib o'tamiz: Tangri Boybo'ri bilan Boysariga farzand bermayman, deb turganda, Shohimardon pir ularga farzand tilab berishi; Hakimbek tug'ilganda ismini Shohimardon piring o'zi qo'yib, etagiga solib, chap yelkasiga besh panjasining izini chiqarib qo'yishi; buning natijasida olovda kuymas, pichoqda kesilmas bo'lib qolishi; Boysarini olib kelish uchun Qalmoq yurtiga borganda va Surhayl kampirning makriga aldanib olovda qolganda, yonidagi 41 kishi yonib, bitta Alpomish kuymay qolishi; g'ayritabiiy kuch ato etishi; Yodgor yoyni ko'tarayotganda Shohimardon pirga qo'shilib, 12 Ahmad va chiltanlarning kelib unga kuch bag'ishlashi; uzoq masofani qisqa muddatda bosib o'tishi. Bularning barchasi asar syujetining mukammal bo'lishiga xizmat qilgan.

Rajabxo'ja pir. Bu obraz ham epik qahramonning yo'l boshchisi va homiysi sifatida xizmat qiladi. Rajabxo'ja pir ham boshqa antropomorf qiyofasidagi eranlar kabi doston kompozitsiyasida keladi. Sinov va mashaqqatlar vaqtida epik qahramonga madad beruvchi, ruhiy quvvat manbai sifatida namoyon bo'ladi. "Alpomish" dostonida poygada qatnashib o'zib borayotgan Qorajon va Boychiborni

bog'lab, Boychiborning tuyog'iga mixlar qoqib ketishganda, Rajabxo'ja eshon yordamga kelib, ularga yana qaytadan kuch berishi poygada yutishiga sabab bo'ladi.

Xalq dostonlarida yetakchi qahramonga homiy eranlardan tashqari yordam qo'lini cho'zib, qo'llab-quvvatlovchi ko'makchi qahramonlar ham mavjud. Ba'zi olimlar ularni epik homiy darajasida ekanligini ta'kidlaydilar.

Qultoy. Shomirza Turdimovning fikricha, o'zbek folklorida, odatda, qahramonning otiga qarovchi shaxs homiy maqomida keladi. Shuning uchun u Qultoy obrazi sifatlariga alohida to'xtalib, uning katta kuch-quvvat sohibi ekanligi, Qultoy obrazida Boysin-Qo'ng'iro't elining ma'naviy qiyofasi aks etganligini aytib o'tadi. Undan tashqari, Alpomishning chap yelkasida Shohimardon pining, o'ng yelkasida Qultoyning panja izi borligidan Qultoyning kuchini, quvvatini, maqomini homiy obraziga tenglashtiradi [6:2].

Ot. "Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlarda qahramonga homiylik qiluvchi ko'makchi obrazlardan biri ot obrazi bo'lib, u totemistik qarashlar asosida shakllangan jonivor ko'rinishidagi homiy personaj hisoblanadi. Professor Hodi Zarif o'zining mashhur "Jangovar ot obrazining qadimiy asoslariga doir" maqolasida haqli ko'rsatib o'tganidek, "... doston va ertaklarda epik otlarning tabiiy otlardan farq qiladigan alohida xususiyatlari ham bor. Bunday xususiyatlar, bir tomondan, tabiiy naslli otlarda mavjud sifat va xarakterlarni bo'rttirib, badiiy bo'yoqlar bilan bo'yab ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, miflarda mavjud xususiyatlar bilan bezalgan holda namoyon bo'ladi, uchinchidan, ularda totemizm elementlari ham uchrab turadi" [Zarifov 1968-69] Ot dostonlardagi totemistik, mifologik, zoomorf qiyofadagi homiylik vazifasini bajaruvchi ko'makchi personaj hisoblanadi. G'iro't, Majnunko'k, Qorabayir kabi otlar Go'ro'g'li va Avazga murakkab yumushlarni bajarishda yordam beradi. Qolaversa, janglarda yarador bo'lganida, ularni qutqarish epizodlarida otlarning homiyliigi yaqqol namoyon bo'ladi.

Qush. Ba'zan qush obrazi ham yordamchi vazifasini o'taydi. Qahramon qushlar yordami bilan maqsadiga

erishadi. Qush ham ot kabi dostonda zoomorf qiyofadagi obrazdir. "Alpomish" dostonida g'ozning uning tirik ekanligi haqidagi xabarni yaqinlariga yetkazishi, "Ravshan" dostonida esa maynaning Ravshanning zindonda ekanligi haqidagi xabarni otasi Hasanxonga yetkazishi va uning hayoti qutqarilishiga sabab bo'lishi kabilar ularning yordamchi personaj ekanligini dalillaydi. Bu qushlar homiy kuchlar tomonidan yuborilganligi uchun epik homiy yordami sifatida talqin etiladi.

Epik makon. Go'ro'g'li turkumidagi dostonlarda Chambil, Xunxor, Vayangan, Ko'hi Qof, Torkiston, Asqar tog'i, Arzum, Polopon tog'i, Badbaxt tog'i, Qizilqum cho'li, Arbotin, Bog'i Eram kabi epik va mifik makonlar mavjud. Shulardan Asqar tog'i homiy ruhlar makoni sifatida talqin qilinadi.

Yuqoridagilardan tashqari demonik personajlar ham mavjud bo'lib, ularga pari, dev, ajina, jin, yalmog'izlar kiradi. Ular asarda raqib personaj vazifasida keladi. Demonik obrazlar epik qahramonning aqliy va jismoniy g'olibligidan so'ng epik qahramonga yordamchilik vazifasini bajaradi.

Xalq dostonlarida fetishistik detal obrazlar qahramonga epik homiy tomonidan beriladi, qahramonning g'ayrioddiy xislatlarini yuzaga chiqaradi. Unga oldiga qo'ygan vazifalarni, sinov shartlarini bajarishda yordam beradi. Bu detal obrazlar qilich, par, uchar gilam, uzuk, taroq kabilardir.

Xulosa. Tahlillar so'nggida shu ma'lum bo'ldiki, homiy obrazlar qahramonlik dostonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Dostonda epik homiy obrazi bo'lmasa, qahramon o'z kuchini namoyon eta olmaydi, mashaqqatli sinovlarni bajara olmaydi, birgina epik homiy obrazining o'zi doston syujetida muhim rol o'ynaydi. Nafaqat homiy obraz, balki yetakchi qahramonlar, ko'makchi qahramonlar, fetishistik detal-obrazlar – hammasi, asar syujetida poetik vazifa bajaradi. Xalq tomonidan og'izdan og'izga o'tib kelgan turli xil mifologik va e'tiqodiy qarashlar dostonlarda ham o'z aksini topgan. Bu qarashlar esa bevosita epik homiy obrazida namoyon bo'ladi. Ularning ruhiy quvvat berish, yo'l ko'rsatish, qalqon bo'lish, karomat ko'rsatish, qiyin vaziyatda yordamga kelish kabi xizmatlari asarga badiiy ruh beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alpomish dostoni. Aytuvchi: Fozil Yo'ldosh o'g'li. – Toshkent, 2024.
2. Go'ro'g'lining tug'ilishi. Aytuvchi: Po'ltan Muhammad Jomrod o'g'li. –Toshkent, 2024.
3. Nurmanov F. Xizr obrazining genezisi va uning o'zbek folkloridagi talqini. Filol.fan. dok.... diss. – Toshkent, 2007.103-bet.
4. Turdimov Sh. O'zbek mifologiyasi va folklori. – Toshkent, 2023.
5. Eshanova Z.K. Хронотоп горы в узбекских народных дастанах/ International Journal of Discourse on Innovation, Integration and Education. 2020. T.1,№ 5, C.164-169.
6. <https://sg.ocworkspace.cm/d/sIHu0cu0Au3QyccG>. Murodova Sh.
7. https://arxiv.uz/uz/documents/diplom-ishlar/adabiyot/xalq-poetik-ijodida-xizr-obrazining-badiiy-talqini?utm_source=chatgpt.com
8. Turdimov Sh. "G'oro'g'li" ("Ko'ro'g'li") dostonida initsiatsiya talqini.– Toshkent: O'zbekiston, 2020.
9. https://www.youtube.com/watch?v=rTekl_mNsOU Shohimardon. Xazrat Ali haqida yigit kishi bilishi kerak bo'lgan faktlar...

Диана ИХСАНОВА,
 магистр 2 курса факультета Западных языков
 Каршинского Университета Турон

СРАВНЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ КЕЙСОВОГО И ПРОЕКТНОГО ОБУЧЕНИЯ НА ВУЗОВСКИХ КУРСАХ EFL: АНАЛИЗ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ

Annotatsiya: universitet miqyosida ingliz tili xorijiy til sifatida o'qitiladigan kurslarda zamonaviy ta'lim texnologiyalari muhim o'rin tutadi. EFL, ya'ni English as a Foreign Language, kurslarida an'anaviy dars usullaridan tashqari interaktiv va talaba markazli yondashuvlarning samaradorligi tobora ortib bormoqda. Keys asosida o'qitish hamda loyiha asosida o'qitish usullarini taqqoslash va ularning universitet kurslaridagi pedagogik shart-sharoitlar asosidagi samaradorligini tahlil qilish ushbu maqolaning asosiy maqsadini tashkil etadi. Ushbu maqolada Universitet EFL kurslarida keys va loyiha asosida o'qitish samaradorligini taqqoslash va pedagogik shart-sharoitlar tahlili haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: keys asosida o'qitish, loyiha asosida o'qitish, EFL kurslari, samaradorlik, til ko'nikmalari, pedagogik shart-sharoitlar, motivatsiya, kommunikativ kompetensiya, mustaqil fikrlash, jamoada ishlash.

Аннотация: современные образовательные технологии играют важную роль в университетских курсах, где английский язык преподаётся как иностранный. Помимо традиционных методов обучения, интерактивные и студентоцентрированные подходы становятся всё более эффективными в курсах английского языка как иностранного (EFL). Основная цель данной статьи – сравнить методы обучения на основе кейсов и проектные методы, а также проанализировать их эффективность с точки зрения педагогических условий в университетских курсах. В данной статье представлена информация о сравнении эффективности кейс- и проектного обучения в университетских курсах английского языка как иностранного (EFL) и анализе педагогических условий.

Ключевые слова: кейс-ориентированное обучение, проектное обучение, курсы EFL, эффективность, языковые навыки, педагогические условия, мотивация, коммуникативная компетентность, самостоятельное мышление, командная работа.

Annotation: modern educational technologies play an important role in university-level courses in which English is taught as a foreign language. In addition to traditional teaching methods, interactive and student-centered approaches are increasingly effective in EFL, or English as a Foreign Language, courses. The main goal of this article is to compare case-based and project-based teaching methods and analyze their effectiveness in terms of pedagogical conditions in university courses. This article provides information on the comparison of the effectiveness of case-based and project-based teaching in university EFL courses and the analysis of pedagogical conditions.

Key words: case-based teaching, project-based teaching, EFL courses, effectiveness, language skills, pedagogical conditions, motivation, communicative competence, independent thinking, teamwork.

Введение.

В последние годы особое значение в системе высшего образования приобретает преподавание английского языка как иностранного (EFL). В эпоху глобализации и усиления конкуренции знание английского языка открывает перед студентами новые возможности не только в получении образования, но и в профессиональной деятельности и личностном развитии. В современной педагогической среде особое место занимают методы, идущие в ногу со временем, побуждающие учащихся к активности, самостоятельному мышлению и творческой работе. Это требует внедрения интерактивных и инновационных методик обучения на курсах EFL. EFL позволяет формировать необходимые языковые навыки, развивать культурные и социальные компетенции. Для достижения высоких результатов

важно использовать не только традиционные, но и практико-ориентированные методы, такие как кейсы, проекты.

Такой подход закладывает основу для глубокого усвоения учащимися, интереса к языку и эффективного его применения в реальной жизни. Поэтому выбор современных стратегий обучения на курсах EFL и правильное их применение в образовательном процессе является одним из приоритетов. Прежде всего, в образовательном процессе становится важным установить ключевые различия между обучением на основе кейсов и обучением на основе проектов.

Материалы и методы.

Что касается эффективности обучения на основе кейсов в педагогических условиях, то этот метод, прежде всего, побуждает учащихся к активности. Ког-

да на уроке представлены задания, основанные на тематическом анализе, учащимся необходимо будет глубоко изучить проблемную ситуацию, поработать над существующей проблемой и ее причинами и, в конечном итоге, разработать конкретные решения. Благодаря этому формируются такие навыки учащихся, как аналитическое мышление, общение, принятие решений. Кроме того, гораздо более совершенна работа над языковыми навыками, важными для занятий EFL: слухом, чтением, письмом и речью. В процессе анализа тематического исследования учащиеся высказывают мнения, спорят, задают вопросы и отвечают на английском языке, что в конечном итоге улучшает разговорные навыки в реальных коммуникативных ситуациях.

Однако, анализируя различные решения проблемы, развивается критическое мышление. Еще одним важным аспектом кейс-обучения можно назвать компактность во времени и формирование навыка своевременного решения проблемы. А при проектном обучении студентам предоставляется возможность самовыражения, творческого подхода, самостоятельности и работы над достижением долгосрочных целей.

Работая над проектом, студенты ставят перед собой конкретную цель, ищут информацию, необходимую для достижения этой цели, анализируют ее и в конечном итоге реализуют проект на практике. В результате проектного обучения на курсах EFL студенты укрепляют такие навыки, как создание различных типов текстов на английском языке, сбор и систематизация информации, презентация и обмен идеями. У студентов высших учебных заведений именно проектный метод обучения также очень полезен для повышения их профессионального и научного потенциала.

Выполняя проект шаг за шагом, студенты приобретают навыки правильного управления временем, умения работать в команде и приобретают ценные навыки, такие как лидерство и организация. Важным педагогическим преимуществом проектного обучения является то, что ученик учится брать на себя ответственность за свое обучение и приписывать полученный результат себе. Это, в свою очередь, повышает мотивацию ученика [1].

В качестве одного из важнейших факторов педагогических условий следует отдельно упомянуть социально-психологический климат на уроке и взаимодействие в группе. При обучении по тематическим исследованиям каждый ученик излагает свою точку зрения, происходит обмен идеями, развивается культура общения и умение слышать других. Однако при проектном обучении развиваются навыки, позволяющие членам группы эффективно сотрудничать друг с другом, принимать коллективные решения и разрешать конфликты. Кроме того, оба метода

направляют учащихся к независимости, работе над собой, активному участию и оценке результатов [2].

Результаты и обсуждение.

Эффективность кейсового обучения и проектного обучения неразрывно связана с правильным распределением задач для современной системы высшего образования, мотивацией участников педагогического процесса и уровнем использования инновационных технологий. Результаты окупятся, если на университетских курсах EFL в комплексе будут использованы возможности обоих методов для личностного роста, самовосстановления, формирования эффективной мотивации учащихся к изучению языка.

На университетском уровне современное интерактивное и проектное обучение на курсах EFL способствует глубокому овладению языком, обогащению культурного мышления и формированию глобального мировоззрения. В настоящее время совместное и последовательное использование ключей и проектного обучения на университетском этапе курса EFL поможет повысить эффективность в несколько раз. На основе этих критериев развиваются личная активность студентов, языковые навыки, профессиональные и социальные компетенции, коммуникативное и критическое мышление, а также свободное мышление [3].

В организации эффективного образовательного процесса на университетских курсах EFL широко используются современные методы, в частности кейс- и проектные методы обучения. Актуально изучение эффективности этих двух методик и необходимых педагогических условий их развития. На основе проведенных исследований, наблюдений, анкетирования и результатов испытаний были сформулированы следующие основные выводы. Кейсовое обучение признается в университетах особенно эффективным инструментом для развития навыков конкретной практики, решения проблем и критического мышления [4].

Исследования показали, что уровень знаний студентов на курсах с использованием методологии кейса составлял в среднем 77%. Кроме того, увеличение словарного запаса и грамматических знаний составило до 81%. Студенты, прошедшие обучение с помощью этого метода, получили 74% положительных результатов в отношении понимания на слух (listening) и устной речи. Тематическое обучение является мощным фактором в развитии аналитического и критического мышления учащихся. У 82% студентов эти навыки четко сформированы. Опрос показал, что 68% студентов считают, что метод кейсов позволяет им изучать реальные жизненные ситуации и проверять свои теоретические знания на практике.

Результаты были еще выше в группах, обуча-

емых с помощью проектного обучения. Согласно исследованию, учащиеся, прошедшие проектную подготовку, достигли общего уровня знаний 84%, а в устной и письменной речи – 88%. Навыки самостоятельного исследования и презентации развились у студентов в 86% случаев. Этот метод также дал лучшие результаты в плане командной работы и коммуникации: 89% участников, обучавшихся по проектной методике, продемонстрировали высокую активность в командной работе и сотрудничестве. Кроме того, 91% студентов, прошедших обучение в рамках проекта, приобрели практические навыки в результате непосредственного участия в реальных проектах; этот метод также оказался эффективным в развитии таких навыков, как независимость, креативность, социальная ответственность. Уровень использования цифровых технологий и современных инструментов достиг 83%, что помогает студентам идти в ногу со временем [5].

Анализ показал, что в процессе обучения на основе тематических исследований 79% учащихся оценили уроки как увлекательные и интерактивные, в то время как 65% учащихся заявили, что они перешли от пассивного участия к активному участию в занятиях. Однако в проектных классах мотивация учащихся была еще выше: 92% учащихся сообщили, что этот метод побуждает их принимать

самостоятельные решения, проявлять инициативу и исследовать вне класса. В обучении на основе кейсов 73% учителей довольны этим методом, но 21% учителей заявили, что он сложен и требует много времени, а также требует большего контроля и подготовки [6].

Заключение.

Таким образом, кейсы и методы обучения на основе проектов являются эффективными инструментами для внедрения новых подходов к обучению языку на университетских курсах EFL, а также для развития передовых знаний, навыков и компетенций студентов. Кейс-тренинг служит для быстрого и активного общения, решения проблем, формирования аналитических и коммуникативных навыков. С другой стороны, проектное обучение развивает глубокий аналитический, творческий подход, независимую и командную работу, тайм-менеджмент и навыки инновационного мышления.

Для успешного сочетания обоих методов в масштабах вуза необходима правильная организация педагогических условий, постоянное повышение квалификации учителей, использование современных ресурсов, создание мотивационной среды. В результате этих подходов общая языковая компетентность и профессиональный потенциал студентов на курсах EFL будут развиваться дальше.

Использованная литература:

1. Абдурахмонова Н. (2018). «Пути повышения эффективности преподавания английского языка с помощью инновационных технологий.» Журнал педагогики Узбекистана, 2(4), 56–62.
2. Азимова С., & Бозорова, Г. (2021). «Применение кейс-стади и проектных методов при обучении английскому языку в университете.» Проблемы современного образования и воспитания, 3(1), 99–107.
3. Гапсаламов А. Р., Атаманова А. В., Волкоморова В. В., Казаков А. В. Оценка эффективности кейс-метода в практико-ориентированной системе обучения // Мир науки. Педагогика и психология. 2018. Т. 6. № 3. С. 11.
4. Ешонкулова М. (2019). «Современные подходы к обучению английскому языку в высшем образовании на основе интерактивных методов.» Научно-практический бюллетень Министерства высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан, 6(2), 32–38.
5. Исламова Д. (2020). «Развитие коммуникативной компетенции студентов EFL посредством использования кейс-метода.» Инновационное образование, 4(4), 41–47.
6. Журакулова С. (2017). «Эффективность проектного обучения и самостоятельное обучение студентов.» Филология и преподавание языков, 1(1), 21–27.

Mukhlisa KHAJIEVA,

Teacher

Uzbek State University of World Languages,

Faculty of English Philology

m.xajiyeva@uzswlu.uz

THE IMPACT OF AI TOOLS (LIKE CHATGPT) ON ENGLISH LANGUAGE LEARNING AND TRANSLATION

Annotation: this article explores how artificial intelligence (AI) tools, particularly ChatGPT, influence English language learning and translation practices. It discusses pedagogical implications of integrating AI into classrooms and autonomous learning, examining how such tools enhance vocabulary acquisition, writing accuracy, and translation competence. Drawing on recent studies and qualitative research with university students, the article evaluates both the advantages such as instant feedback, motivation and accessibility and the limitations, including overreliance and lack of cultural nuance. Findings highlight that AI can serve as a supportive tool for teachers and learners when implemented critically and ethically within educational settings.

Key words: artificial intelligence, ChatGPT, English language learning, translation, feedback, learner autonomy, educational technology.

Аннотация: в статье рассматривается влияние инструментов искусственного интеллекта, в частности ChatGPT, на изучение английского языка и практику перевода. Анализируются педагогические аспекты интеграции ИИ в обучение и самостоятельное изучение языка, а также способы повышения словарного запаса, точности письма и компетенции перевода. На основе современных исследований и качественного анализа среди студентов университетов выявлены преимущества (мгновенная обратная связь, мотивация, доступность) и ограничения (зависимость и недостаток культурных нюансов). Результаты показывают, что ИИ может стать эффективным вспомогательным инструментом при условии его осознанного и этичного использования в образовании.

Ключевые слова: искусственный интеллект, ChatGPT, изучение английского языка, перевод, обратная связь, автономия учащихся, образовательные технологии.

Annotatsiya: ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) vositalari, xususan ChatGPT, ingliz tilini o'rganish va tarjima amaliyotiga qanday ta'sir ko'rsatishi o'rganiladi. Unda SI texnologiyalarining ta'lim jarayoniga integratsiyasi natijasida lug'at boyligini oshirish, yozma nutq aniqligini yaxshilash va tarjima kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Universitet talabalari ishtirokidagi tadqiqotlar asosida bu vositalarning afzalliklari (tezkor fikr-mulohaza, motivatsiya, qulaylik) hamda kamchiliklari (haddan tashqari bog'liqlik va madaniy noaniqliklar) ko'rsatib beriladi. Xulosalarga ko'ra, SI vositalari o'qituvchilar va o'quvchilar uchun foydali qo'llanma bo'lishi mumkin, agar ular tanqidiy va mas'uliyatli tarzda qo'llansa.

